



Abdulla Qahhor

O'tmishdan ertaklar



Abdulla Qahhor

O'tmishdan ertaklar



UO'K: 821.512.133-31

KBK: 84(50')6

Q – 35

Qahhor, Abdulla

O'tmishdan ertaklar: qissa va hikoyalar / Abdulla Qahhor. – Tashkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 400 b.

ISBN 978-9943-20-235-1

«O'tmishdan ertaklar» – o'zbek adabiyotining zabardast vakili bo'lgan Abdulla Qahhor ijodiy merosida muhim o'rin tutadi. Bu asar nafaqat yozuvchining bolaligidan hikoya qiladi, balki o'tgan asr boshlarida millat bolalarining mashaqqatli hayoti xususida so'z yuritadi. Nafaqat bolalar, katta avlodning savodsizligi, davr fojialari jonli va ochiq-oydin tasvirlanadi.

To'plamning ikkinchi qismi bo'lgan hikoyalar ham o'zbek adabiyotining ma'naviy boyligidir. Yozuvchining ilk hikoyalar to'plami 1932-yilda chop etilgan. Bugungacha bo'lgan davr mobaynida o'zbek adabiyotida, jumladan, hikoyanavislikda juda ko'p asarlar yaratildi. Sara hikoyalar, deya e'tirof etilgan bir qancha ijod namunalari o'quvchilar hukmiga havola etildi. Ammo Abdulla Qahhor hikoyalari yillar chig'irig'ini pisand etmay, hamon sevimli o'qiladi.

Adib qahramonlari o'quvchi uchun qadrdon va ardoqli. Muto'laadan keyingi tanaffusda Unsin uchun qayg'uramiz, Turobjonning xotiniga anor ilinamiz, Qobil boboga taskin bergimiz keladi, ming bir jonli Mastura va uning vafodor eri Akromjonga havas qilamiz. Sodda va kamtar insonlar sizni suhbatga chorlaydi. Beixtiyor yana mutolaaga o'tirasiz.

Abdulla Qahhor asarlarida ana shunday ohanrabo bor...

ISBN 978-9943-20-235-1

© Abdulla Qahhor, «O'tmishdan ertaklar». «Yangi asr avlodi», 2019-yil.

O‘TMISHDAN ERTAKLAR

(Qissa)

Falokatning sharofati

Biz Yaypanda Olim buva degan bir nonvoyning tashqarisida turar edik.

Novvoyxonaning orqasi tashqining qariyb yarmini egallagan, hovli juda ham tor, ayam uning o‘rtasini tesha bilan chopib qo‘qongul, sariqgul, rayhon, jam-bil ekkkan, hovlining guvalak devorlari qaldirg‘ochning uyasiga o‘xshar edi. Eshigi bir tabaqalik, kichkina va pastdakina ichkari hovlining ayvoniga uning ustiga nomahram nazaridan pana qilib panjarasiga yog‘langan qog‘oz yopishtirilgani uchun uy qorong‘i, odam odamni tusmol bilan tanir edi.

Olim buvaning ichki hovlisi ham tor, ustini boshdan-oyoq tok qoplagani uchun juda ham dim. Uning xotini ertadan kechgacha g‘uv-g‘uv charx yigirardi, tez-tez biznikiga kirib ayam bilan gaplashib o‘tirardi; bizning musofirligimizga rahmi kelsa kerak, ba‘zan o‘pkasi to‘lib, ayamga taskin bergan bo‘lardi:

*Musofir bo‘lmagan kim bor,
Mujovir¹ bo‘lmagan kim bor.
Birovning yurtiga borib,
Muhojir bo‘lmagan kim bor?..*

Olim buvaning o‘g‘li kimningdir eshigida qarol, qizi erga tegib ketgan. Uning o‘zi saharda turib non yopadi, nonni do‘konning oldidagi taxtaga dastalab

¹ Mujovir – darvesh. Bu yerda turg‘unlik ma‘nosida.

qo'rganidan keyin chorvog'iga kirib ketadi-yu, shom qorong'isida chiqadi; do'konga kelib nonni, tushgan pulni sanaydi, pul ba'zan kam kelsa kerak, javraydi, pul yoki non kam kelganiga emas, pul tashlamasdan non olib ketgan kishi birovning haqini yeb, do'zaxiy bo'lganiga kuyadi.

Yozning issiq kunlari. Hovlimiz, ayniqsa, qorong'i bo'lsa ham salqinroq, uyimiz g'ij-bij pashsha. Bir kuni dadam uyning eshik va darchasini zich yopib, achchiq tugma qalampir tutatdi. Tutun shunday achchiq ediki, uydan dadamning o'zi zo'rg'a chiqdi, uzoq yo'taldi. Uning niyatidan xabardor bo'lib, Olim buva astoydil xafa bo'ldi va devor osha:

– Usta, Xudoning maxluqiga ozor bermang, pashshani ham Xudo yaratgan, jon bergan! – dedi.

Dadam tutunni darrov o'chirdi.

Bir kuni uyimizga dadamning ovchi jiyani keldi. U Pastqo'riqda ov qilib yurgan ekan, o'qi tugab, biznikiga o'q yasagani kelibdi. Men onamning «o'qqa yaqin borma» deb hay-haylab turishiga qaramay, ovchining o'q yasashini tomosha qilib turdim. Mehmon miltiq doridan pichasini yoqib, usti qizil va ichi oq chiroyli pistondan bittasini chaqib ko'rsatdi. Piston qarsillaganda men bir cho'chib tushdim, keyin zavq qilib irg'ishladim. Shunda pistondan ikkitasini o'g'irlab, kigizning tagiga yashirib qo'ydim. Mehmon ketganidan keyin nima xayolga bordim-u, bitta pashshani tutib ikkala pistonning orasiga qo'ydim, sandonchamning ustiga qo'ydim-da, bolg'acham bilan qattiq urdim. Piston qars etib ketdi. Olim buvaning xotini bilan gaplashib, rayhon chopib o'tirgan ayam birdan voyvoylab, quymichini ushlaganicha o'zini rayhonning ichiga tashlab yubordi. Kampir dod solib uning ustiga o'zini tashladi va menga qarab: «Nima qilib qo'yding, bor, dadangni aytib kell!» deb baqirdi. Ayam rayhonning ichida hamon voyvoylar ekan,

«Chorig'ingni kiy!» dedi. Qo'rqib ketdim, darrov chorig'imni kiydim, ko'chaga qarab chopdim. Do'konimiz guzarda – chorrahada bo'lib, bolg'a tovushi eshitilib turar edi. Dadam o'zi dam bosib ishlayotgan ekan, meni ko'rib qo'rqib ketdi, shoshib ayamni so'radi. Men boshqa gap qo'shmasdan «ayam yig'layapti», dedim. Dadam qop peshgirni yechib do'kondan chiqdi va «shayton arava»sini minib uyimizga tomon ketdi. Men qo'rqqanimdan tek o'tirdim. Chorrahaning narigi tomoni keng maydon, unda katta-kichik toklarga osilgan rang-barang to'rqovoqlardagi bedanalarning bitbildig'i, ko'cha bo'yi va maydonning tevarak-atrofidagi do'konlarda tarafma-taraf sayrayotgan kakliklarning qaqquvog'i hech tinmas edi. Do'kondan chiqdim, chorrahaning u tomoniga o'tib, kaklik sayrayotgan bir do'kon oldiga bormoqchi bo'lganimda dadam chaqirib qoldi. Dadam «shayton arava»dan tushib beliga peshgirini bog'lar ekan: «Ayangni otibsang! Ukacha tug'ib beradigan ayani otadimi kishi!» dedi va qo'limga damning arqonini berdi. Dadamning avzoyidan ayam tuzalib qolganini fahmlab, dam bosaverdim.

Dadam varillab turgan o'choqdan cho'g'day qizigan bir parcha temirni olib teshayotgan edi, undan chiqqan lo'yaday temir sandondan kundaga, undan yumalab chorig'imning qo'njiga tushib ketdi. Chorig'imni qulantayoq kiygan edim, temir boldirimga jaz etib yopishdi. Chinqirib yubordim. Dadam chorig'imni darrov yechib tashladi va meni ko'tarib, do'kon oldidagi taxtasupaga yotqizdi. Bir vaqt qarasam, tepamda besh-olti kishi turibdi. Bularning biri meni elpiyapti, biri boldirimni puflayapti. Kimningdir: «Bu azamat bola, yig'lamaydi, yig'layotgani yo'q, toychoq bo'lib kishnayapti», deganini eshitdim. Boldirim harchand jazillayotgan bo'lsa ham yig'idan to'xtadim, lekin vujudim qaltirab-silkinib ko'zimdan yosh

oqar edi. Bir chol jarohatimga kigiz kuydirib bosdi va boldirimni latta bilan bog'lab qo'ydi. Birov yarim qarich keladigan sariq obakidandon, birov qizil toychoq non keltirib berdi. Biroz tinchiganimdan keyin dadam kulib: «Temirchi degan kuyib-kuyib temirchi bo'ladi-da!» dedi.

Kechga yaqin dadam do'konni yopdi, meni opichib oldi. Uyga ketdik.

Ayam oyog'im kuyganini eshitib hushidan keta-yozdi; keyin nima bo'lib meni yakka do'konga yuborganini aqliga sig'dirolmay o'zini qarg'adi. Mendan oldin va mendan keyin tuqqan sakkiz bolasini qora yer bag'riga bergan ayam endi meni yer-ko'kka ishonmas, ko'z o'ngidan bir qadam nari jilgani qo'ymas edi. Ayamning yarador bo'lgani, oyog'imning kuygani bir chekkada qolib ketdi. Ota-onam, biri qo'yib, biri olib, mushtday boshim bilan do'konga yolg'iz borganim, bu qadar uddaburroligim to'g'risida hayron qolib so'zlar edi. Go'yo butun dunyodagi hamma balo-qazo hovlimiz bilan do'konimiz orasiga yig'ilib, mening ko'chaga chiqishimni kutib turgan ekan-u men birini urib, birini yiqitib, biriga chap berib, do'konga yetib boribman.

Shundan keyin ota-onamning nazarida, «Xudoga ming qatla shukr» katta bo'lib qoldim, uzoqqa ketmaslik sharti bilan ko'chaga yakka chiqadigan bo'lib qoldim, lekin hech vaqt ko'chadan xush-xursandlik bilan qaytmas edim. Ko'chaga birinchi chiqqan kunim eshigimiz oldidan o'tadigan zovurga yiqilib tushdim: tor ko'prikning ustida bo'riq¹ yotgan ekan, shuni tepib zovurga tushirmoqchi bo'lganimda ikkala oyog'im ko'tarilib ketdi shekilli, yiqildim va zovurga tushib ketdim. Zovurdan meni birov tortib oldi. Hovliga yig'lab kirdim. Onam yuragi yorilguday bo'lib yuzimga suv sepdi, ho'l ko'ylagimni yechib tashlash ham esiga kelmay, latta yoqib boshimdan aylantirib

¹Bo'riq – jo'horipoyaning bir bo'g'ini.

tashladi – alasladi. Shundan keyin bir hafta ko'chaga chiqqani ijozat bo'lmadi. Yana bir kuni, eshigimiz oldida loyparsilloq o'ynab o'tirgan edim, guzar tomondan bir to'da otliq qozoq-o'ris kelib qoldi. Men qozoq-o'risni hech qachon ko'rmagan edim. Bularning kizagi qizil ko'k shapkasiga, chakkasida hurpayib turgan sochiga, kiyim-boshi va shop-sholopiga qarab angrayganimcha ergashib ketaveribman. Bir vaqt qaragam dalaga chiqib qolibman. Darrov orqaga qaytdim, biroq uyimizni emas, hatto ko'chamizni ham topmadim. Ayrilishda yig'lab o'tirgan edim, toleyimga arava kelib qoldi. Aravakash aravasini to'xtatib, otidan tushdi, mendan gap so'radi; dadamni tanirkan, otiga mingashtirib hovlimizga keltirib qo'ydi. Men bu voqeani ayamga aytmadim, aytsam ko'chaga chiqarmay qo'yardi. Lekin boyagi aravakash bu gapni dadamga aytibdi. Ayam dadamdan bu gapni eshitib vahima qildi:

– Voy sho'rim, Xudo bir saqlapti! Qozoq-o'ris oyog'ingdan olib yerga ursam, yo otiga bostirib ket-sa nima qilardik! Qulog'ingda bo'lsin: qozoq-o'risni ko'rsang qoch, qocholmasang o'zingni zovurga ur!

Dadam meni maqtadi:

– Durust, durust, botir yigit bo'ladiganga o'xshaysan, – dedi va ayamga yuzlandi: – Qozoq-o'risni ko'rsa katta odam shoshib qoladi-yul..

Do'konga yakka o'zim borganim, qozoq-o'risdan qo'rqmaganim go'dakning birinchi aytgan so'zlari singari ota-onamni quvontirib yubordi. Shundan keyin ko'chaga bimalol chiqadigan, hatto narigi ko'cha va torko'chalarga borib, bolalar yotsirasa va o'yinga qo'shmasa ham, ularning o'yinini tomosha qiladigan, shikast yemasdan, adashmasdan uyga qaytadigan bo'ldim.

Ramazon kirdi. Allaqayerda chalinayotgan nog'oraning taka-tumi, echkning tovushiga o'xshash

sumnay sadosi hammani saharlikka uyg'otardi. Ota-onamning so'zidan, harakatidan, ro'za qiziq narsa bo'lsa kerak, deb bir-ikki sahar men ham turdim. Biroq ro'zaning saharligi emas, bozorshabi qiziq bo'lar-kan. Dadam meni bozorshabga olib bordi.

Chorraha va katta maydonning atrofidagi son-sanoqsiz do'konlarda chirog', kamida ikkitadan, uchtdan sham. Odam ko'p. G'ovur, hayqiriq, kulgi, ashula... Sotuvchilar qichqirgani-qichqirgan: «Is-siq non bu!», «Saharlikka qo'shaloq somsa degan bormi!», «Shiming-u chaynamang!... Bolalar uch-qun sochayotgan sixmushakni vizillatib u yoqdan bu yoqqa chopishadi. Ora-sira tollar orasidan qizil uchqun sochib vashillagancha osmonga ko'tarilgan qamishmushak yulduzlar orasida chilparchin bo'la-di-yu, paqillab, hamma uchqun so'nadi, faqat bitta kattakon uchqun yerga qarab sho'ng'iydi.

Yana bir kecha bozorshabga chiqqanimizda dadam meni maydonning to'ridagi samovarga olib bordi. Bu yerda ham odam ko'p, g'ovur kulgi. O'rta-ga osilgan kattakon, juda ham alomat bir chiroq ko'zni qamashtirib ayvon va sahnadagi odam to'la so'rilar-ni kunduzday yoritib turardi. So'rilar-ni oralab ayvonga tomon ketayotganimizda birov meni ko'tarib so'ri-ning chetiga o'tqazdi. Dadamga ham joy berishdi. So'rining ostidami, tepasidami kimdir ingichka, lekin juda o'tkir tovush chiqarib ashula aytmogda edi. Men alanglab qolgan edim, dadam imo bilan kattakon, quchoqqa sig'maydigan bir dona karnaygulni ko'rsat-di. Qarasam, ashula sariq qutichaga sanchib qo'yil-gan shu karnaygulning ichidan chiqayotgan ekan. Men «moshina-qo'shiq» deb eshitganman, lekin o'zini ko'rmagan edim, moshina-qo'shiqqa tikilganimcha qoldim. Ashula tugagandan keyin yana shu karnay-gulning ichidan: «Otangga rahmat, Hamroqul qori!» degan tovush chiqdi. Nazarimda karnaygul ostidagi

sariq qutichaga soqol-mo'ylvoli kichkina-kichkina odamchalar qamab qo'yilganga o'xshardi.

Ashula tugagandan keyin bir nima qars-qars etib ketdi. Qo'rqib dadamning quchog'iga otildim. Dadam: «Qo'rqma, qo'rqma, baqamushak», dedi. Qarasam, davrada haqiqatan baqaga o'xshagan bir nima qar-sillab, har qarsillaganida odam bo'yi sanchib yuribdi. Davrada mendan boshqa ham qo'rqib ketgan odamlar bor ekan, rosa kulgi bo'ldi. Keyin, mushakdan gap chiqib, qaytarmayoqa oq kamzul kiygan sersoqol bir odam Xo'jandda bo'lib o'tgan bir voqeani gapirib berdi. Xo'jandda dong'i ketgan bir mushakchi bor ekan. Shu odam allanima degan bir boyning to'yida beliga to'rtta katta-katta mushak bog'lab osmonga uchibdi. Mushakchi terak bo'yidan balandroq chiqqanda, mushakning dorisi tamom bo'lmay turib, odamlar uni oyog'iga bog'langan arqondan tortib yerga tushirishibdi. Buni eshitib hamma yoqasini ushladi.

Yana moshina-qo'shiq xonish boshladi. Narigi so'ringing ustida «gardish mushak» degan uchqun va tutun puflab aylana ketdi.

Shundan keyin «Buvaqovoq» degan o'yin boshlandi.

Qirg'izbashara jikkakkina bir odam ayvonning bir chekkasiga tutib qo'yilgan bordon orqasidan uchta sanochni bittama-bitta zo'rg'a ko'tarib chiqdi-yu, keltirib so'rilar davrasiga qo'ydi va kattakon shokosani chertib, qimizini maqtay ketdi. O'sha bordon orqasidan oq eshak mingan, novcha, sallasi qozonday, qorni eshakning yoliga, uzun ayri soqoli qornining ikki tomoniga tushgan bir odam chiqdi. «Buvaqovoq» degan shu ekan. Buvaqovoq qirg'izning oldidan o'tayotib qimizning narxini so'radi. Qirg'iz qimizni maqtay: «Bir shokosasi ikki pul», dedi. Buvaqovoq o'n shokosasini bir pul so'radi. Qirg'iz unamadi, bag'illab berdi. Odamlar xo'p kulishdi. Buvaqovoq eshagidan tushdi, sanochlardan birining og'zini ochib qimizni

tatib ko'rdi; ikkinchisini ochdi, bundan ham tatib ko'rdi. Qirg'iz ochilgan ikkala sapochning og'zini burab, mahkam ushlab turganda Buvaqovoq uchinchi sanochni nariroq tortdi-da, qimizni tatib-netib o'tirmasdan shokosaga quyib ichaverdi va har safar shokosasi bo'shatganida qirg'izga qarab: «Gap bitta – o'n shokosasi bir pull» deb qo'yardi. Qirg'iz shovqin solar, talpinar, so'kar, lekin ikkala sanochning og'zini qo'yib yuborolmas edi. Odamlar yumalab-yumalab kulishdi.

Shunday qilib, piston kasofatining sharofati bilan «Xudoga shukr, bozorshablarga boradigan kap-katta yigit» bo'lib qolganimdan keyin vaqt bemahal ko'chaga chiqsam, bolalar bilan yashin topaloq, dasta, to'ppi tepish o'ynab uzoq yursam ham ayam tergame, aksincha, behad quvonar edi. Mendan begonasiraydigan bolalardan endi bir-ikki o'rtoq orttirganimda bu mahalladan ko'chadigan bo'ldik.

Bir kuni dadam shayton aravasini minib Qo'qonga ketgan edi, kechqurun qaytishda Olim buvaning opasi – saksonlardan oshib qolgan kampirga yo'liqibdi. Dadam qo'ng'iroq chalmay uning yonidan shuv etib ketibdi. Uning shabadasidan seskanib ketgan kampir boshini ko'tarib qarasa, oldinda odamga o'xshagan bir maxluq oyog'i yerga tegib-tegmasdan uchib ketayotganmish. Kampir shaytonlab o'zini tashlab yuboribdi. Odam yig'ilibdi. Kampirni uyiga zambilda olib ketishibdi. Dadam qo'rqqanidan ko'chaga chiqmay, do'konga ham bormay qo'ydi. Uch kun deganda kampir o'lib qoldi. Dadam tergov va Olim buvaning g'azabidan qo'rqib cho'p-ustuxon bo'lib qoldi. Ayam yig'idan boshini ko'tarmas edi. Kampirning yettisi o'tgandan keyin Olim buva dadamga kishi qo'yib: «Mayli, usta xafa bo'lmasin, opamning kuni bitgan, qazosi yetgan ekan, Xudoning irodasi, lekin bundan keyin shayton arava minmasin, shu shayton arava olib kelgandan beri Yaypandan fayz ketdi», debdi.

Dadam ertasigayoq shayton aravani Qo'qonga eltib sotib keldi, Olim buvaga uchrab uzr-ma'zur aytdi; unga ikkita o'n ikki qadoqlik ketmon, bitta bolta yasab berdi. Chol dadamni hol-joniga qo'ymasdan bu narsalarning pulini beribdi.

Shu bilan tinchigan edik, oradan bir hafta o'tar-o'tmas yana bir voqea yuz berdi.

Dadam ertalab do'konga ketayotganida yo'lakda paranjilik bir xotinni ko'ribdi. Paranjining orqa etagiga bir shox yantoq ilashib borayotgan ekan, dadam xotinga yetib olib yantoqni bosibdi. Yantoq yerda qolib, xotin dadamga qayrilib qarabdi-yu, ketaveribdi. Bu xotin Olim buvaning erga tegib ketgan qizi ekan, paranjisiga ilashgan yantoqdan bexabar, «usta menga tegishmoqchi bo'lib paranjimni tortdi», degan xayolga boribdi-da, bu gapni otasiga aytibdi.

Olim buva ertasiga ertalab yo'lakda shovqin soldi:

– Ho shayton arava! Ho kelgindi! Bu yoqqa chiq! Chiq deyman bu yoqqa!

Cholning bunaqa shovqin solganini emas, balandroq tovush chiqarganini ham hech birimiz eshitmagan edik. Dadam cho'chib ayamga qaradi. Uning ham rangi o'chib ketdi. Dadam yo'lakka tomon yugurdi. Men ham chopdim. Yo'lakda o'ng qo'lini yengidan chiqarib olgan Olim buvani ko'rib tanimadim: meni hamisha bolam-bo'tam deb suyardigan, shirinso'z, yuzidan tabassum arimaydigan chol qani? Uning o'rnida ko'zlari qinidan chiqay deb turgan, rangi soqolidan ham oqroq, vujudi titrab, uzun soqoli silkinayotgan dahshatli bir odam turardi. Dadam ro'para bo'lishi bilan uning og'zidan haqorat ustiga haqorat yog'ildi, ikki gapni birida «kelgindi it» deb, qizidan eshitgan gaplarini dadamning yuziga soldi, yana haqorat qildi. Dadam boshini quyi solganicha nuqul:

– Otaxon, avval gapga quloq soling, – der, shundan bo‘lak gap aytsa chol kelib musht soladiganga o‘xshardi.

Chol do‘g‘ayib keldi.

– Hozir ko‘rpangni ko‘tar, it kelgindi! – dedi va po‘st-po‘stlab hovlimizga, taxta bo‘lib qotib qolgan va kishidan qochishni ham unutgan onamning yonidan o‘tib, uyga otildi.

Dadam hamon «otaxon, otaxon», deya uning ketidan ergashdi. Olim buva uydan bir quchoq ko‘rpa ko‘tarib chiqib ko‘chaning o‘rtasiga uloqtirdi. Odam yig‘ildi. Hech kim Olim buvaga taskin-tasalli bermasdi, aksincha kimdir baqirib:

– Shayton arava minadigan odamdan yaxshilik chiqmaydi, ur bo‘yniga! – dedi.

Olim buva boshini quyi solib eshik oldida turgan dadamning yonidan o‘tarkan, qo‘lini paxsa qilib baqirdi:

– Mening qizimni ko‘chada sanqib yurgan qanjiq deb o‘ylaganmiding? Ho‘ it! Qaytib yuzingga qarasam, xotinim uch taloq! – dedi-yu, hovlisiga kirib ketdi.

Hovlidan uning shovqini eshilib turardi.

Dadam ko‘rpalarni otyo‘lakdan olib hovliga kirdi. Ayam boshini devorlarga urib, sochlarini yulib yig‘lar edi. Dadam boyagi yantoq voqeasini aytib, ayamni yupatmoqchi bo‘ldi:

– Cholning qulog‘iga hozir gap kirmaydi, og‘ziga so‘z olib qo‘ydi, mayli, keyin biladi, uyalib qoladi, – dedi.

Ayam birdan yig‘idan to‘xtadi.

– Siz uyaling, bir mo‘minning xotiniga ko‘z olaytirgani siz uyaling! – dedi.

Dadam unga bir xo‘mrayib qaradi-da, indamadi, indamay ko‘chaga chiqib ketdi.

Dadam kechki payt qaytib keldi, Qo‘shariq degan mahalladan uy topib, eshak arava olib kelibdi. Ko‘ch-ko‘ronimizni eshak aravaga ortib Qo‘shariqqa ko‘chdik.

«Indamas»

Qo'shariq mahallasi guzardan ancha nari, ko'cha ikkita katta-katta ariq o'tadigan daraxtzorga borib taqalgan, biz ijaraga olgan hovli shu daraxtzordan beriroqda ekan. Hovlini ko'rib ayam suyunib ketdi: bir tup kattakon tut, pachaqroq bo'lsa ham ayvon, to'qqiz yog'ochlik vassa-bo'yra yorug' uy...

Namozgarga yaqin ko'chada bolalar chug'urlashib qolishdi. Chiqdim. Bolalar mening uchun yangi «Oq terakmi, ko'k terak» o'ynashayotgan ekan. Bu o'yinda bolalar orada yigirma-o'ttiz qadam masofa qoldirib ikki safga tizilishar, qo'l ushlashib turishar, safning boshlig'i qarshi safga qarab: «Oq terakmi, ko'k terak, bizdan sizga kim kerak? derkan; qarshi tomonning boshlig'i «falonchi kerak» deganda nomi aytilgan bola safdan chiqar ekan-u yugurib borib o'zini jon-jahdi bilan qarshi safga urar ekan; shunda safni uzolsa g'olib bola mag'lub safdan bir bolani yetaklab kelar, safni uzolmasa o'zi shu safda qolib ketar ekan. Men Olim buva mahallasida bolalar qatoriga kirib qolganim uchun dadil borib safga qo'shildim. Qanchadan-qancha bolalar qarshi safni buzib bola olib keldi, qanchadan-qanchasi safni buzolmay qolib ketdi. Orziqib kutdim: meni ham «kerak» desa, men ham yugurib borib safni buzsam, bola yetaklab kelsam... Biroq meni hech kim «kerak» demadi. Bu bolalar mening nomimni bilmasligi esimga kelmabdi.

Bolalar charchab o'yin buzilganda narigi tomonning boshlig'i – hammadan ko'proq shovqin solib yelib yugurgan bola meni payqab oldimga keldi, menga boshdan-oyoq razm soldi-yu, birdan:

– Kelgindi! – deb urgani qo'l ko'tardi.

– O'zing kelgindisan! – dedim ehtiyotdan orqaga chekinib.

Bola bir turtib mening kallamga qo'yib yubordi. Men javob qilolmadim, qarasam, boshqa bolalar ham ur-

moqchi bo'lib, ilonni ko'rgan chumchuqday atrofimda chug'urlashib turishibdi. Shu payt bizni kuzatib turgan kichkina salla, uzun malla to'nli novcha bir chol:

– Qo'yinglar, bolalar, tegmanglar, kelgindi bo'lsa o'zi bo'libdimi, Xudo qilgan, – dedi.

Bolalar darrov tarqalishdi. «Kelgindi, kelgindi it», degan gapni Olim buvadan eshitganimda buning haqoratdan tashqari yana odam hazar qiladigan ma'nosi ham borligini bilmagan ekanman, cholning bu gapi boshimdan kirib, tovonimdan chiqib ketdi.

Hovliga kirdim. Bu gapni ayamga aytmadim, ichimga soldim. Shundan keyin ko'chadan, bolalardan ham, odamlardan ko'nglim qoldi. Ayam tuqqandan keyin dardga chalinib, «uy qizi» bo'lib qolganim ham chandon malol kelmadi.

Ayam O'lmasoyni tuqqanidan keyin tez o'ng'arilmadi, uzoq yotib qoldi. Qo'shni xotinlar non yopib berishar, kir-chirga qarashar edi. Ro'zg'orning boshqa ishlari mening bo'yninga tushdi: uy va hovlini har kuni ikki mahal supuraman, dalaga chiqib ko'targanimcha o'tin orqalab kelaman, dadamga ovqat pishirgani qarashaman, idish-tovoq yuvaman, suv tashiyman, O'lmasoyning latta-puttasini yuvaman...

Ayamni har kuni yoki kun osha peshinga yaqin dard tutadi: avval xo'p chanqaydi, keyin qo'llarining tomiri tortishadi. Ayam panjasini yozish emas, hatto og'zini ocholmas, jag'i qotib qolar edi. Dadam tabib olib kelmoqchi bo'lganda ayam ko'nmedi: «Hovlimizda ziyon bor, hammasi shundan», dedi. U bir kuni kechqurun darchadan tashqariga qarab yotgan ekan, tutning ostidagi devordan hovlimizga bitta qora echki oshib tushibdi-yu, tushgan joyida g'oyib bo'libdi. Ayamning nazarida qora echki jin bo'lishi kerak, kasalligining boshini shundan ko'rardi. Dadam qur'on sotib olib uning yostig'i ostiga qo'ydi. Bularning hech biri foyda qilmadi – dard tutishini qo'ymadi. Birov

dadamga: «Ucharmaxsumga o'qiting, nafasi o'tkir», debdi. Bu odam juda zo'r, duoning kuchi bilan qulf ochadigan azayimxon bo'lib, aytilgan joyga bir zumdada yetib borgani uchun «Ucharmaxsum» deb nom chiqargan ekan. Dadam borib shu azayimxonni olib keldi. Ucharmaxsum haqiqatan yelday kelib uyga kirdi, yuziga doka tutgan ayamdan beriroqqa cho'kka-lab, beshiktervat singari tebranib mayin tovush bilan o'qiy ketdi. Maxsum kichkinagina, ozg'in, siyrak so-qoli-yu, qop-qora cho'tir yuzidan yoshini chamalab bo'lmaydigan, lekin og'zida bironta ham tishi yo'q, ko'zlari yumaloq va ravshan bir odam edi. Maxsum besh-olti marta keldi. U kelmagan vaqtlarda men uyi-ga borib duo yozilgan qog'ozlar olib kelardim. Ayam bu qog'ozlarni suvda ezib ichardi. Maxsum bir kelish-da to'qqizta qori bola bilan keldi. Bular ayamning ikki tomoniga o'tirib uzoq o'qishdi, dam solishdi, keyin bi-lishimcha, bular ayamni «chilyosin» qilishgan, «chil-yosin» uzoq yotgan kasalni yo u yoqli, yo bu yoqli qilar ekan, xayriyat, ayamni bu yoqli qildi. Ayam bir-ikki haftadan keyin biroz o'ng'arilib o'rnidan turdi.

Ayam o'rnidan turganidan keyin mahalladan bir qancha xotin-xalaj taomilga ko'ra, har biri top-gan-tutganini ko'tarib «sichqon surdi»ga kirishdi, o'zlari osh-ovqat qilishdi. Bularning ko'pchiligi xush-chaqchaq xotinlar ekan, semiz bir xotin ayamning qo'lini ushlab lo'lichasiga rom ochdi:

*Ho azizlar, avliyolar,
Avliyolar, anbiyolar!
Mag'ribdan desammikan,
Mashriqdan desammikan...*

Uning qiliqlariga hamma, xususan, ayam ku-laverib qotib qoldi. Ayamning bunaqa kulganini hech qachon ko'rmagan edim.

Yosh bir juvon mahalladagi hamma erkaklarga laqab qo'yib hammaning ichagini uzdi: «Madamin – talmov, bu odam hamisha talmovsirar ekan; G'ani – salang, bu odam juda novcha bo'lib, salanglab yurar ekan; Nurmat – tajang, bu odamning hech to'g'ri gapi yo'q, nima desa xunob bo'lib aytar ekan. Juvon bularning qilig'ini ham qilib ko'rsatdi. Juvon dadamga «Chinoq» deb laqab qo'ydi, hammadan ham shu kulgi bo'ldi: ayam shuncha yil turib dadamning qu-log'i kemtik ekanini ko'rmagan ekan.

Hamma kulishdan charchab jim bo'lganda haligi semiz xotin meni payqab qoldi-yu, yoniga chaqirdi, boshimni silab:

– Ayang tuzalib qoldi-ku, xotirlarning ichida nima qilib o'tiribsan, ko'chaga chiqsang bo'lmaydimi? – dedi.

Men indamadim, bolalar meni uradi, kelgindimiz, deya olmadim.

– Bozorboshiga ot o'yin kelgan emish, ot o'yinini ko'rganmisan? – dedi xotin yana.

Men yana indamadim. Boyagi yosh juvon tiqilinch qildi:

– Gapirsang-chil! Tiling bormi?

Men nima deyishimni bilmasdim. Semiz xotin ikki qulog'imdan ushlab peshonasini peshonamga niqtadi.

– Gapirasanmi, yo'qmi?

Ayam Olim buvaning tashqisida turgan vaqtlarimizda meni ko'chaga chiqarmaganini, bu yerda ro'zg'or ishi bo'ynimga tushib «uy qizi» bo'lib qolganimni, u yerda ham, bu yerda ham hech kim men bilan gaplashmaganini unutib:

– O'zi shunaqa, indamas, «ichimdagini top» bola chiqdi-ku, – dedi.

Semiz xotin bilagimdan mahkam ushladi.

– Gapirasanmi, yo'qmi? – dedi va o'rnidan qo'zg'al-di. – Hozir ishtonimga qamab qo'yaman!..

Men uning qo'lidan chiqib qochdim. Xotinlar xo'p kulishdi. Bular chiqib ketguncha ko'cha eshigi bo'sag'asida o'tirdim.

Bir necha kundan keyin Nursuqdan dadam orttirgan oshnalarining xotinlari ham «sichqon surdi»ga kelishdi. Bular ham mening indamasligimni payqashdi, biri: «Ustaning zap o'g'li bor ekan-u, soqov ekan», debdi. Bular ketgandan keyin ayam bu gapni dadamga kuyib-pishib gapirdi.

Kuz kirdi. Dadamning ishi ko'payib ketdi shekilli, bir kuni ertalab: «Shogird topgunimcha bir-ikki kun qarashmasang bo'lmaydi», deb meni do'konga olib ketdi va damga soldi. Men har kuni dadamga o'xshab saharda borib xuftonda qaytmasam ham, kun yorishganda borib qorong'i tushmasdan qaytar edim. Kuni bo'yi damning arqonini tortaman, qo'yvoraman, tortaman, qo'yvoraman...

Men bilan hech kimning ishi yo'q, gapirish kerakmas, damdan har qancha zeriksam ham shunga xursand edim.

Bir kuni popukli gilam do'ppi kiygan, barvasta va sersoqol Dodarxo'ja degan bir qorateginlik o'shanaqa popukli gilam do'ppi, yalang'och badaniga olacha to'n kiygan yalang oyoq o'spirin bolani boshlab keldi. Bu kishi o'n ikki yildan beri Ortiq oqsoqol deganning juvozini haydar, bola uning ukasi, oti Kulala ekan. Kulala Qorategindan besh yasharligida kelgan, juvozxonada katta bo'lgan, avvallari akasi bilan ko'chama-ko'cha yurib yog', kunjut holva sotgan, keyin bir temirchida damkash bo'lgan ekan. Akasi: «Kulalaga hunar o'rgating menga boshqa narsa kerakmas», dedi. Shunday bo'lsa ham dadam unga oylik tayin qildi. Kulala suyunib damni qo'limdan oldi. Lekin bundan xursand bo'lganim yo'q: yana uyda bo'lamen, ayam yana urishib, ba'zan yig'lamsirab meni gapga solmoqchi bo'ladi. Men endi «indamas» degan

ta'nadan qutulish uchun odamdan, hatto ayamdan ham mumkin qadar qochadigan bo'lib qoldim. Bu hol ota-onamni katta tashvishga solib qo'ydi. Ayam ko'p yig'lab bezor qilganidan keyin dadam meni o'sha Ucharmaxsumga eltib o'qitdi. Maxsum menga xo'p dam solganidan keyin tupugidan yalatdi. Shundan keyin yana ham indamas bo'lib qoldim, bir so'z aytmoqchi bo'lsam, bundan keyin nima deyishimni o'ylab, bor so'zni ham unutar edim.

«Zinger»li boy

Bir kuni Kulala do'kondan halloslaganicha kelib: «Opa, yetti yarim tanga pul berarmishsiz, usta akam «Zinger» oladilar», dedi. Ayam «Zinger» nima ekanini surishtirmay uyga kirib, lattaga o'ralgan bir hovuch tanga-chaqa olib chiqdi, o'zi pul sanashni bilmagani uchun Kulalaga tutdi. Kulalaning hovliqishidan «Zinger» qiziq narsa bo'lsa kerak, degan xayolda uning ketidan chopdim.

Chorrahaning do'konimizga qarshi burchagida ayvonlik ko'k do'kon bo'lib, buni «lapka» deyishardi. Bu lapkaning oldiga tumonat odam yig'ilgan, ayvonga qo'yilgan sandal ustida qop-qora, qo'ng'izga o'xshagan, lekin u yoq-bu yog'i yaltiroq bir narsa turar edi. Hamma unga hayrat va shubha, xavotirlik va maroq bilan qarar, jur'at qilgan kishilar unga ko'rsatkich barmog'ini sekin tegizib, asta-asta chertib ko'rar edi. Lapkadan shaharlik, qaytarma yoqa kamzul kiygan bir kishi dadamni ergashtirib chiqdi. Kulala bir irg'ib ayvonga chiqdi-da, qo'lidagi pulni dadamga uzatdi. Dadam pulni olib boyagi kishiga berdi. U kishi sandalning bir chekkasiga o'tirib tizzasida bir nimalar yozdi.

G'ovur, har xil gap.

– Shapka tikadigan mashinal!

– Voy pangvosh-ey, poshsholik go'sxo'rmas, shapka tikadigan mashinani qo'lingga berib qo'ymaydi!

– Ityoqa ko‘ylak, bo‘g‘ma kamzul tikadigan mashinal!
– To‘g‘ri, qulog‘ini bursang bas, gazlamasi ham ichida!

Shaharlik kishi tizzasiga qo‘yib yozgan qog‘ozini dadamga berdi-da, sandalning ustida turgan rang-barang qiyqimlardan bir nechtasnii olib mashinada bir-biriga uladi, tikkani qanchalik pishiq ekani ni ko‘rsatish uchun qiyqimlarni bir-biridan uzmoqchi bo‘ldi. Quroq yirtildi-yu chokidan so‘kilmadi. Odamlar. «O‘-ha!» deb yuborishdi. Kimdir yaqinroq borib:

– Qoyilman! Ayil tiksa ham bo‘ladimi? – deb so‘radi.

– Bo‘ladi, to‘qim yamasa ham bo‘ladi! – dedi shaharlik kishi, keyin xaloyiqqa yuzlanib, mashina qanday savdo bo‘lganini aytib berdi.

Mashinaning bahosi qirq sakkiz tanga, uchidan yetti yarim tanga naqd to‘lansa, olti oy muhlat bilan nasiyaga berilar ekan.

Dadam mashinani ko‘tarib, pastda turgan Kulalaga uzatdi. Shu damgacha tek turgan xaloyiq birdan gurilladi. Odamlar bir-birini turtib, itarib olg‘a, endi mashinani emas, dadamni ko‘rgani intilar, unga birov hayrat, birov hasad, birov havas bilan qarar edi. Kulala mashinani yelkasiga qo‘ydi, ikkovimiz g‘izil-laganimizcha uyga ketdik. Orqamizdan bolalar duv ergashdi.

Temirchi ustaning «Zinger» olganligi darrov dovrug bo‘lib ketdi. O‘sha zamoniyog‘ shu atrofdagi xotin-xalaj uyimizga yopirilib kirishdi. Bularning ichida indamasligim uchun menga ta‘zir bormoqchi bo‘lgan semiz xotin ham bor edi. «Zinger»ni bilar ekan, eski dasturxondan menga birpasda ko‘ylak tikib berdi. Men hammani hayratga solgan ko‘ylakni kiyib darrov ko‘chaga chiqdim. Atrofimda bolalar chug‘urlashar, kelgindi ekanimni ham unutib, hammasi: «Zingeringni bitta ko‘rsat», deb yalinar edi. Men bolalarning yalinganidan o‘zimda yo‘q suyunib chopqillaganimcha

uyga kirdim va qaldirg'ochday chug'urlab, ayamga qayta-qayta:

– Bolalar, zingeringni ko'rsat, deyishayotipti, – dedim.

Ayamga «Zinger»ni o'rgatayotgan semiz xotin yalt etib menga qaradi.

– Voy, tiling chiqib qolipti-ku! – dedi.

Ayam ham hayron bo'ldi, keyin suyundi.

– Maxsum pochchamning nafaslaridan o'rgilay, o'sha kishiga o'qitgan edik, – dedi.

Uyalib ketdim. Ko'ylagimni yechib qo'ydim. Anchadan keyin ko'chaga chiqdim. Bolalar tarqab ketishibdi.

Bir-ikki kundan keyin «Qayquvotlik Nodirxon to'ra ham «Zinger» olipti», degan xabarni eshitdik.

U yoqda Nodirxon to'ra, bu yoqda usta Abduqahhor!..

Sal kunda dadam og'izga tushib ketdi. Dadam mahallada «Zingerli boy» deb nom chiqardi, men buni bolalardan ham eshitdim.

Biroq bu xursandchilik uzoqqa bormadi. Kulala bir kuni «Zingerli boy shayton arava minib odam o'ldirgan», degan gapni topib keldi. Shundan keyin gap chiqaverdi. Ayam ham har kuni kechqurun dadamning kelishiga bir dilsiyohlik topib qo'yar edi: «Namoz o'qimaydi», «mahallaga kelganidan beri biron marta is chiqargani yo'q», «mahallaga qo'shilmaydi», «Zinger» olgunicha xirsdan bo'lib qolgan o'g'lining qo'lini halollasa bo'lmaydimi?..»

Ota-onam katta tashvishga tushib qoldi. Ayam yig'lar, dadam ichidan qirindi o'tsa ham unga taskin-tasalli berar edi. Dadamning aytishiga qaraganda, Olim buva endi opasining xunini da'vo qilmaydi, chunki o'zi «Xudoning irodasi» degan. Lekin boshqa gaplarda jon bor edi. Ota-onam bularning hammasini meni sunnatga yotqizish bilan bosmoqchi bo'ldi. Yanagi hafta bir pud guruch damlab meni sunnatga yotqizishdi. Ota-onam bunchaligini kutma-

gan bo'lsa kerak, imom boshliq butun mahalla to'ga kirganda «xayriyat» deyishdi. Osh ustida «Zinger»dan gap ochilganda mahallamizning imomi «Zinger» tikkan kiyim namozlikka yaramaydi», debdi.

Dadam «Zinger»ni eski qopga o'rab tandirning tagiga tiqib qo'ydi, bomdod, shom va xufton namozini machitga chiqib o'qiydigan bo'ldi.

Shu bilan tinchib qolgan edik, yana tashvish chiqib qoldi.

Bir kechasi saharga yaqin O'lmasoy yig'laganda ayam uyg'onib qarasa, yo'lakni to'sib osilgan sholchaning oldida shopday bo'lib bir kishi turganmish, ayamning uyg'onganini ko'rib devordan oshib ketibdi. Yana bir kuni ertalab qarasak, tutning ostiga devordan ikkita guvalak ko'chib tushibdi. Uyimizda o'g'rining qo'lga ilingudek hech narsa bo'lmasa ham juda vahima bo'lib ketdi. Bir-ikki kecha dadam bolta ko'tarib hovlini aylanib yurdi.

– Katta boylarni poshsholik qo'riqlaydi, – dedi dadam, – Miroqil paxtafurushning uyini o'g'ri bosganda ellikboshidan tortib mingboshigacha xoda yutgan, bu yog'i shahardan tergovchilar kelgan edi. Chakana «Zingerli boy»ni chakana o'g'ri bossa kim uzatgan oyog'ini yig'adi?

Dadam qayoqdandir kattakon, men zo'rg'a ko'taradigan qora to'pponcha topib keldi; to'pponcha buzuq bo'lsa kerak, kechasi eshik va darchani zich yopib, chiroqda tuzatdi, zig'ir yog'i bilan moyladi, kechalari boshiga qo'yib yotadigan bo'ldi. Ayam o'g'ridan ham ko'ra to'pponchamiz borligini birov bilib qolishidan qo'rqar, uning nomini aytish kerak bo'lib qolsa, «to'pponcha» emas, «moshina-qo'shiq» der edi. Dadam bir kuni ayamni urishib berdi:

– Unaqa demagin, tag'in «moshina-qo'shiq» ham olipti, degan gap chiqmasin!

Har nechuk «Zinger» tufayli bolalar orasida obro'yim oshib ketdi, bolalarning o'yiniga qo'shiladigan, o'shalar qatori chug'urlab, shovqin solib yuguradigan bo'ldim.

Biroq, Yaypandan Qo'qonga ko'chadigan bo'lib qoldik.

Anjir xazon bo'lay deganda Qo'qondan amakim keldi. Amakimni ilgari ko'rganim esimda yo'q, u kishi dadamday cho'qqisoqol bo'lsa ham unga qaraganda novcharoq, barvasta bo'lib, ko'rsatkich barmog'ini dam-badam burnining yonidan yuqoriga surib dimog'ini tortib qo'yadigan odati bor ekan.

Amakim usta Abdurahmon qizi Savrinisoni o'z qo'lida o'sgan shogirdi Azimga bermoqchi, bu yerga kelishdan maqsadi Yaypan bozoridan arzonroq gurch va zig'ir yog'i olish va shu bilan birga Girmon bilan urush boshlanganini aytib, bizni shaharga ko'chgani da'vat qilish ekan.

Urush boshlanganiga bir yarim oycha bo'libdi. Buni amakimning o'zi ham o'tgan juma kuni eshitibdi: ellikboshi juma namozidan chiqqan odamlarni to'xtatib: «Bekorchi temir-tersaklaring bo'lsa machitga keltirib tashlanglar, poshsholikka kerak», debdi. Amakim sekin: «Poshsholik buni nima qiladi, muncha nazari past bo'lmasa?» deb so'rasa, ellikboshi, «Girmon bilan urush boshlanib qoldi, temir-tersakdan o'q yasaladi», deb javob beribdi.

Biz urush nima ekanini bilmasak ham amakimning: «Hammamiz bir joyda bo'laylik», deganidan ko'nglimizga g'ul'ula tushdi.

Dadam ertasiga bozor kuni amakimga kerakli narsalarni olib berdi. Amakim shu kuni kechki payt Qo'qonga jo'nar oldida ayamga tayinladi:

– To'yda o'zing xizmat qilmasang bo'lmaydi, ovsining tamom bo'lgan... Shoshilishimning boisi ham shu, bechora qizining to'yini ko'rib o'lsin, – dedi.

Ayam hammadan ham «Zinger» dahmazasidan qutulishiga xursand edi.

Yanagi haftaning o'rtalarida butun ro'zg'or va do'konimizning asbob-uskunasini bitta aravaga ortib Qo'qonga jo'nadik.

Hur qiz

Qo'qonga tush mahalida kirib keldik. Ko'chalar-da odam ko'p, xuddi Yaypanning bozor kuniga, yo'q, hayitga o'xshaydi. Jangur-jungur izvoshlar, arava, gumbur soyabon aravalar ko'p, onda-sonda eshak yoki odam qo'shilgan eshak aravalar ham ko'ri-nib qoladi. Ko'chaning ikki beti to'la lavka, do'kon; temirchilar, misgarlar taraqlatgani-taraqlatgan. Yasanib nag'ma chalib ketayotgan bir bolani ko'rib qoldim. Bir joyga kelganimizda xuddi azaga kelgan bir hovli xotin baravariga uvvos tortib yig'lagandan vahimali bir tovush eshitildi. Men hayron bo'lib qol-gan edim, dadam; «Qo'rqma, zovut, Mirrabbiyboyning zovuti, odam chaqiryapti», dedi.

Amakimning hovlisi Qipchoqariq degan mahallada, tollarning ostiga ko'milgan anhor bo'yidagi pastqam hov-lilardan biri ekan. Yarmini kattakon tol qoplab yotgan hovlida bizni boshdan-oyoq oppoq kiyingan bir kampir bilan ozg'in, rangi zahil, lekin qoshi-ko'zi qop-qora, sa-riq ko'ylak va qizil jeletka kiygan bir qiz qarshi olishdi. Kampir dadamning onasi, qiz amakimning qizi Savrini-so ekan. Kampir dadamni quchoqladi. Qiz ayamning ko'ksiga boshini qo'yib yig'ladi, keyin yuz-ko'zini artib meni quchoqladi, o'pdi. Ikkovi bizni tandir va o'choq qurilgan bostirmaga, undan qorong'iroq uyga boshlab kirishdi. Bu uyda amakimning og'ir betob xotini yotgan ekan. Betob ozib cho'p bo'lib ketgan, chaqchayib turgan ko'zlaridan odam qo'rqar edi. Savriniso meni hovliga olib chiqdi, ro'paradagi yangi uyning zinasiga o'tqazib gapga soldi, jeletkasining cho'ntagidan ikkita parvarda

olib berdi, keyin: «Hozir G'afforjon maktabdan keladi, birga o'ynaysiz», dedi-yu, qaytib ketdi, anchadan keyin yana chiqdi, qo'linga bir bo'lak sovunak holva berdi.

Shu orada G'afforjon kelib qoldi. Men uni qo'lida-gi kitobidan tanidim. G'afforjon menga qayrilib ham qaramay, kitobini so'riga uloqtirdi-yu, borib tolning kallagidan bir nima olmoqchi bo'ldi. Savriniso borib uning qulog'iga bir nima dedi. G'afforjon bag'illab berdi. Savriniso yana bir nima degan edi, G'afforjon yerga o'tirib, oyoqlarini tipirchilatib yig'i boshladi. Savriniso mening oldimga qaytib keldi. G'afforjon uzoq yig'ladi, sidirg'asiga emas, dam olib dam olib, biron narsaga alahsib qolsa, yig'lashni unutib, yana eslab yig'lar edi.

Uydan kampir chiqdi, G'afforjonni ko'rib, xuddi bir kor-hol bo'lganday uning oldiga yugurib bordi, boshini silab gap so'radi.

– Dadamni aytib kelgin, desam shunaqa qilib o'tiribdi, – dedi Savriniso.

Kampir baqirib berdi.

– Qo'shnining bolasini yuborsang bo'lmaydimi! – dedi va yengidan bir nimalar olib G'afforjonga berdi-da, aldab-suldab ko'chaga chiqarib yubordi.

Savriniso hovliga suv sepib, so'riga joy qildi. Men nima qilishimni bilmay ko'chaga chiqdim. Muyulishdagi ko'prik boshida bolalar turishgan ekan, yaqin bordim. Bular mendan yotsirashmadi. Gaplashib ketdik. Biroq ko'p o'tmay, bular mening har bir so'zimdanda kula boshladi, biri «qishloqi» deb qo'ydi. Men, masalan, «do'kan», «non», «bola» deb o'rganganman, bular «dikon», «nun», «bala» deyishar ekan. Shundan keyin menga ro'yxush berishmadi. Shunda G'afforjondan: «Bu bola bizning qarindoshimiz», degan gapni shuncha kutdim, aytmadi, bolalar qayoqqadir ketayotganda menga «yur» ham demadi.

Qaytib keldim. Amakim ham kelibdi. Savriniso o'choq boshida, boshqalar so'rida gaplashib o'tirishgan ekan. So'z to'y haqida borayotgan edi.

– Onasi ham shunga ilhaq bo'lib ko'z yumolmaypti, – dedi kampir nafasi titrab, – qachon oldiga kirsam: «To'y qachon, ko'zim ochiqligida qizimning to'yini ko'rib qolay», deydi. O'zimning ham shartim ketib, partim qolgan... Vaqtida odamlarga o'tqazib qo'yganim bor, to'yonaga kim nima olib kelishini bilmasam ham, har nechuk, umidim katta, o'z qo'lim bilan berganimni o'z qo'lim bilan olay...

Kechasi Savriniso onasining oldida, kampir bilan amakim va G'afforjon yangi uyda, biz hovlidagi so'rida yotdik. Ota-onam xiyla vaqtgacha shivirlashib yotishdi.

– Savrinisoning Azimga hech ham ko'ngli yo'q ekan, – dedi ayam, – boya suvxonada meni quchoqlab zor-zor yig'ladi.

Dadam ayamni urishib berdi:

– Qiziqmisan o'zing, dunyoda qaysi bir qiz ko'ngli bo'lganga tegipti? Qaysi bir qiz ko'ngli bo'lmagan-ga tegmapti? Tushirindida yig'lamasdan aravaga chiqqan kelin bormi?

Ertasiga kechqurun ikkala ammam kelishdi. Ayam shularning oldida amakimga so'z qotdi:

– Savriniso o'n oltiga endi to'ldi, shu ishni biron yil bo'lsa ham paysalga solinsa bo'lasmikan? – dedi.

Bu gap dadamga ham ma'qul tushdi shekilli, so'zga og'iz rostlaganida amakim shovqin solib berdi:

– O'zing necha yoshda erga tekkansan?! O'n to'rt-da eding! Nima qilasan Savrini qaritib!

Kampir ming'illadi.

– Abdurahmon uzil-kesil gapni aytib qo'ygan, bu to'g'rida bir nima degani hech kimga so'z qolgani yo'q!

To'y kelasi oyning sakkizi, juma kuniga tayinlandi. Ertasiga Savriniso yo'lakda dadamning oyog'iga yiqildi, tovush chiqarmay kuyinib yig'ladi. Dadam

uni yupatdi, «hammaning ham boshida bor», degan gaplarni aytdi.

Men bir kuni Savrinisoning azob-uqubatlariga sabab bo'layotgan Azimni ko'rish uchun amakimning do'koniga bordim. Azim mo'ylabi endi sabza urgan, peshonasi tor, ko'zlari katta-katta, bo'yi pastroq bo'lsa ham har yelkasiga to'rttadan odam sig'adigan bir yigit bo'lib, dadamning aytishiga qaraganda, «bosqonchimisan bosqonchi, bosqonni boshidan oshirib urishni Qo'qonda shu rasm qilgan» ekan. U duduq, xiyagina duduq bo'lishiga qaramay sho'x, xushchaqchaq, yaxshigina askiya ham qilar ekan. Kulala askiyada engilganida uning damini qaytarish uchun: «Siz mening otimni aytguningizcha onam yana bitta Kulala tug'adi» deb shaxsiga tekkanida, Azim xafa bo'lish o'rniga qotib-qotib kuldi.

Amakim Yaypanga borganida bizga uy ijaraga olib qo'yishni va'da qilgan edi, olib qo'ymabdi. Shuning uchun uy topilguncha, balki to'y o'tguncha biz shu yerda turadigan, dadam o'zi do'kon ochguncha amakimga qarashadigan bo'ldi. Bu orada men siqilib qoldim; ko'chaga chiqib bolalarga qo'shilolmayman; G'afforjon maktabdan kelganidan keyin quloqni qomatga keltirib nuqul nay puflaydi, chalolmaydi, faqat puflaydi, bundan zeriksa, ko'chaning u yuzidagi botqoqqa borib baqa o'ldiradi. Menga e'tibor qiladigan, qo'li tekkanda so'z qotadigan birdan-bir odam Savriniso bo'lib qoldi.

Savriniso bir kuni kampirdan javob so'rab meni Ko'mir bozorida turadigan kichik ammamning uyiga olib bordi. Ammam qizi Mukarram ikkovimizning qo'limizga pul berib, rohatijon yegani yaqin G'ishtko'prikka yubordi. G'ishtko'prik Ko'mir bozoridan ancha narida ekan. Biz Ko'mir bozorida qanorlarda ko'mir ortilgan tuyalarni, undan nari har xil yaltiroq narsalarga to'la boqqollik do'konlarini tomosha qilib

bordik; G'ishtko'prikning ikki tomonida zarang kosa tutib tilanayotgan pes-moxovlar, oldiga mayda tosh uyib rom ochayotgan folbinlarni oralab, ko'prikning u tomoniga o'tdik. Keyingi do'konda o'tirgan jikkak-kina chol oldidagi muzni qirib likopchalarga soldi-da, ustiga qoshiqcha bilan shinni oqizib qo'limizga berdi. Rohatijonni qoshiqchaning uchida olib uzoq yedik.

Qaytdik. Kelib qarasam, Savriniso yig'layverib shishib ketibdi, lekin yig'laganini bildirmaslik uchun meni gapga soldi, ikki gapning birida kular edi.

Ertasiga ikkala ammam kelishdi, kampir uchovi uzoq gaplashganidan keyin paranji yopinib qayoqqa-dir ketishdi. Ikkala ammam nima uchun kelganini, kampir uchovi qayoqqa borganini shu kuni kechasi ayamning dadamga aytgan gaplaridan bildim: uchovi shu mahallalik Bandi eshonga borib ilm-u amal qildirishibdi, Savrinisoni Azimga isittirishibdi. Shundan keyin, bilishimcha, Savriniso kampirning qistovi bilan, jo'mragiga paxta tiqilgan sopol obdastadan suv ichadigan, faqat kampirning qo'lidangina ovqat yeydigan, amal ko'milgan ko'cha eshigi ostonasidan nari hatlamaydigan bo'ldi.

To'y kuni yaqinlasha boshladi. Savriniso nuqul meni quchoqlab tovush chiqarmay yig'lar edi.

Yangi oy chiqdi. Seshanbadan boshlab G'afforjon ikkovimiz uzoq-yaqindagi qarindoshlarimiz, tanish-bilishlarimizni to'yga xabar qila boshladik, katta ammamizni aytgani Oyimqishloqqa bordik. Ammamiz bir do'ppi yong'oq berdi. Yong'oqni G'afforjon ikkovimiz bo'lishib oldik. Men o'z tegishimni keltirib Savrinisoga berdim. Savriniso yuz-ko'zimdan o'pdi, katta uyning zinasiga o'tirib, amirkon kovushini yechdi-yu, poshnasi bilan yong'oqni chaqib, bittasini o'zi esa, ikkitasini mening og'zimga soldi. Yong'oq tamom bo'lganidan keyin Savriniso boshimni tizzasiga olib, silab bir

kuy maqomiga tebranib o'tirdi. Chakkamga bir tomchi iliq yosh tomdi. Stansiyada parovozlar bir-biriga navbat bermay qichqirar edi. Savriniso o'ychan, lekin beixtiyor tovush chiqarib gapira boshladi:

– Poyezd meni chaqiryapti... Chaqir! Qattiqroq chaqir, boraman! Meni uzoq-uzoq yurtlarga olib ket!

Qayoqdandir paydo bo'lgan amakimning baqirgan tovushi eshitildi.

– Qayoqqa olib ketadi! – dedi va Savrinisoga tomon otildi.

Men arang qochib qoldim. Amakim dahshat ichida o'zini uyga urgan Savrinisoning ketidan otilib kirdi. Savrinisoning avval «Dadajon!» degan chinqirig'i, keyin mushukday vag'illagani, nihoyat, ingragani eshitildi-yu, jim bo'lib qoldi. Bu jimlikda kampirning tovushi eshitildi.

– Hoy, bolam, Abdurahmon, evida! Po'pisa qilgin, qo'rqitgin, nainki shunaqa ursang!

Men derazaning oldida dag'-dag' titrab turardim. Qorong'i uydan ayam chiqdi, mening rang-qutim o'chganini ko'rib yugurib keldi, qumg'ondan suv olib yuzimga sepd, gap so'radi. Men javob berishga ulgurmay ichkaridan amakim chiqdi va onamga «kir» deb ishora qildi-yu, oyog'idan tushib qolgan bir poy kovushini kiyib ko'chaga chiqib ketdi.

Onamning ketidan uyga kirdim. Savriniso taxmonning oldida mukka tushib o'zini bilmay yotar edi. Ayam taxmondan ko'rpa tortib tushirdi, joy soldi, qisqa-qisqa nafas olayotgan Savrinisoni ko'tarib yotqizdi. Ayam ko'targanda Savriniso eshitilar-eshtilmas ingradi.

– Vahima qilma, o'lmaydi, kechgacha tuzalib qoladi, – dedi kampir boshidan tushib ketayotgan ro'molini peshonasiga surib. – Ovsiningga aytmay qo'ya qoll..

Kampir chiqib ketdi.

Savriniso kechgacha ham o'ziga kelmadi, aksincha, isitma chiqardi. Ayam uning yonidan jilmadi. Men goh derazadan qarayman, goh eshikka bosh tiqaman, Savriniso ko'zini ochishini, meni chaqirishini kutaman, undan ham ko'ra birdan: «Va-a, hammalaringni aldagan edim», deb o'rnidan turib ketishini xohlar edim.

Shomdan keyin dadam bilan amakim kelishdi. Dadam Savrinisoning yonida birpas o'tirgandan keyin yelkasiga sekin turtdi. Savriniso ko'zlarini xiyol ochdi, lekin osma chiroqning xira shu'lasida dadamni tanimadi, sinchiklab qarashga darmoni yetmadi shekilli, ko'zini yana yumdi. Dadam tashqariga chiqdi. Eshik oldida qilmishiga o'kinib, boshini quyi solib turgan amakim imo bilan: «Qalay?» deb so'radi. Dadam indamay zinadan tushib ketdi.

Yarim kechaga borib Savriniso og'irlashib qoldi. Hech kim, hatto kampir ham kechasi bilan ko'z yum-madi. Voqeadan va hozirgi ahvoldan Savrinisoning onasi xabardor bo'lib qolmasin uchun hamma oyoq uchida yurar, shivirlab gaplashar edi. Saharga yaqin amakim ona-bolaning qo'shmozor bo'lishidan qo'rqdi, shekilli, xotinini bir bahona bilan qo'shnisi – yaqinda qazo qilgan Abdurazzoq yamoqchining uyiga eltib qo'ydi. Savriniso o'sal ekan shekilli, dadam chuqur xo'rsinib ayamga: «Bechora tugab boryapti, ko'zlarini ko'rdingmi, dunyoga to'ymayotipti», dedi.

Savriniso o'sha mahalda uzilgan ekan.

O'lik yuvilib tobutga solingandan keyin azaga kelgan xotinlar orasida: «Qizining o'ng biqini momataloq bo'lib yotipti, zarb yegan ekan» degan gap o'rmalab qoldi. Buni fahmlagan fahmladi-yu, fahmlamagan fahmlamadi, yopiqliq qozon yoniqligicha qolaverdi.

Tobut ko'tarilganda amakim ikki-uch qalqidi-yu chalqanchasiga ketdi. Odamlar uni uyiga olib kirib yotqizishdi. Amakim shu yotganicha Savrinisoning yettisiga ham, yigirmasiga ham turolmadi.

Savriniso dafn qililib, ikki kun o'tgach, onasini Abdurazzoq yamoqchining uyidan olib chiqishdi. Kampir yig'lab turib Xudoning irodasi, peshona, taqdiri azal haqidagi uzundan-uzoq daromaddan keyin Savriniso to'satdan qazo qilganini unga aytdi.

Teri-yu, suyakdan iborat bo'lib qolgan bemor ko'zlarini katta ochdi, oppoq tilini zo'rg'a chiqarib, qonsiz lablarini yalagan bo'ldi, ko'zlarini yana yumdi, kipriklari yaltiradi. Uning kuygani, yig'lagani, faryod chekkani shu, bundan ortiqqa madori yo'q edi.

O'zini bilmay yotgan bemorga kampir tasalli bergan bo'ldi.

– Bola bechora qiz ketdi, u dunyoda hurlarga qo'shilib ketadi...

Kunlar o'tgan sayin bu xonadonga yana bir musibat qora ko'lanka sola boshladi: yuvg'uchining gapi asta-sekin o'rmalab, mirshabboshining qulog'iga yetadiganga o'xshab qoldi. Men buni dadamning usta Homidjonga aytgan gaplaridan bilib qoldim:

– Bu gap mirshabboshining qulog'iga yetsa yomon bo'ladi, o'risning zakuni qattiq. Yaypanda bir qasobni arava urib o'ldirganida Qo'qondan yigirmatacha tergovchi bordi, ikki kun o'likni joyidan jildirgani qo'ymadi, butun bozorboshi uch hafta so'roq berdi.

Usta Homidjon vahmak odam ekan, bu gapni eshitgach, cho'chigan xo'rozday bo'ynini cho'zib, og'ir-og'ir kiprik qoqdi. Dadam ikkovi hamon og'ir yotgan amakimga sir bermay ko'chaga chiqadi, uyga kiradi, shivirlashadi... Usta Yunus, usta Aroqul deganlar kelishdi. Uzoq maslahat qilishdi. Kampir bularning hech biridan qochmasa kerak, gapga aralashib, hech kimga so'z navbati bermasdi:

– Oldini olaman deb isini chiqarib qo'ymanglar, Xudo xohlasa, bu gap mahalladan tashqariga chiqmaydi, mahallada o'g'limning dushmani yo'q...

Shunday bo'lsa ham bular, chamamda, zakon biladigan biron odamning taskin-tasallisiga muhtoj edi. Shunday odam mahallaning o'zidan chiqib qoldi. Temirboy boqqol degan bundan uch yil burun birov bilan zakonlashib sayozgacha¹ borgan ekan. Usta Homidjon shu odamning qo'yniga qo'l solib ko'ribdi. Bu odam voqeadan, dadamlar tortayotgan tashvishdan xabardor ekan, gapni ko'paytirmay: «Da'vogar bo'lmasa kimning kim bilan ishi bor?» deпти.

Bu borada da'vogar yo'q edi.

Savrinsoning qirqi o'tgandan keyin Azim duduq yo'qolib qoldi. Qidirilmagan joy qolmadi. O'sha kuni birov uni Shaldiramoqda g'altakarava surib ketayotganini ko'ribdi. G'altakaravada gullik qora las ko'rpa, qizil lo'labolish, yana allanimalar bor ekan. Ko'rgan kishi: «Yo'l bo'lsin, Azimboy» desa, Azim: «Oyim o'ttiz bo'ldi», degan emish.

Butun hovlini to'ldirib turgan Savriniso ekan, hamma yoq huvillab qoldi. Savrinsoning zinada o'tirib amirkon kovushining poshnasi bilan yong'oq chaqqani, taxmonning oldida mukka tushib yotgani, odamlaripig yelkasida lapanglagan tobut ko'z o'ngimdan sira ketmas edi.

Bir kuni shom paytida anhorning ko'prigidan oyog'imni osiltirib jimgina o'tirgan edim, yonimga G'afforjon kelib o'tirdi.

– Bir yili dadam meni Shohimardonga olib borgan edi. Shohimardonning yo'lida bitta tog' bor, shu yerdan o'tishda «Qirq qizlar-u», deb chaqirsang tog'ning ich-ichidagi hur qizlar «huvv» deb javob berishadi. Savriniso opam shu hur qizlarga qo'shilib ketdi. Katta enam shunaqa deyaptilar. Shohimardonga boramiz. Dadam olib boradi.

¹ Sayoz – sudyalar yig'ini.

Koshki edi o'sha toqqa men ham borsam, bor tovushim bilan hur qizlarni chaqirsam, hur qizlar, shularning ichida Savrinisoning ham «huvv» degan tovushini eshitsam...

Amakim biroz o'nglangandan keyin dadam ayamning ko'z yoshlariga rahm qilib shu mahalladan hovli topdi. Bunga juda suyundim, chunki bu yerda amakimning ko'zlaridan, soqoli, qop-qora qo'llari, hatto jag'i uzilgan kovushidan ham qo'rqar edim.

Biz Oq domla deganning tashqisiga ko'chadigan bo'ldik. Hali darmonga kirmagan amakim va uning bemor xotiniga ayam qatnab, Abdurazzoq yamoqchining dastyor bo'lib qolgan qizi Omina doimiy turib qaraydigan bo'ldi.

Xudo

Oq domlanning tashqisi bir vaqtlar tashqi bo'lib, keyinchalik hovlisining yarmidan ko'pini yangi mehmonxona egallagani, uy buzilib, o'rniga juvozxona solinadigan bo'lgani uchun qarovsiz qolgan, hozir jinnixona qilib qo'yilgan, domla shu yerda jinnilarni o'qib tuzatar ekan.

Oq domla peshonasi, ko'z ostlari, bir chekkasi va butun bo'yni oppoq pes, biroq nafasidan jinni shifo topadigan bo'lgani uchun xalq Pes domla degani og'zi bormay, Oq domla derkan. Biz ko'chib keladigan bo'lganimizdan keyin uyning oldidagi xariga zanjirband qilib qo'yilgan ikki jinni yangi otxonaga olib chiqilibdi.

Dadam uyning shikast-rextini tuzatdi, hovlini yantoq va qora sho'radan tozaladi.

Ko'chib kelgan kunimiz ertasiga ertalab otxona tomondan g'alati bir o'kirik eshitildi. Dadam ishga ketgan edi, ayamning hay-haylashiga qaramasdan yugurib yo'lakka chiqdim. Otxonaning oldida norg'ul bir yigit ustunga bog'lab qo'yilgan ikki jinnini gavron bi-

lan navbatma-navbat urmoqda, domla esa kichkina gilamchada cho'kkalab, boshini quyi solganicha duo maqomiga tebranib, har zamon-har zamonda jinnilarga dam solmoqda edi. Jinnilarning biri yigitga orqasini berib jim, hatto gavron tushganda ham seskanmasdan taxt turibdi, ikkinchisi esa har gavron tushganda tuyaday o'kirayotibdi. Gavron sinib tamom bo'lgandan keyin domla yuziga fотиha tortib o'rnidan turdi va gilamchasini qoqib qo'ltig'iga qistirdi-da, bitta-bitta qadam bosib uyiga kirib ketdi. Ma'lum bo'lishicha, domla har kuni bomdoddan qaytganida jinnilarni mana shu xilda urdirib o'qir ekan.

Qayrilib qarasam orqamda rang-quti o'chgan ayam turibdi. Ayam kechqurun dadamga voqeani aytib: «Bu yerdan ko'chamiz», deb turib oldi.

Boshqa hovli hadeganda topilavermadi. Qo'qonning bo'ri bo'lib uliydigan va mushuk bo'lib vag'illaydigan kuz shamoli boshlanib ketdi. Uyimizning oldida ayvon bo'lmagani uchun eshik sal ochilsa shamol uyni ko'tarib ketguday bo'lar edi.

Jinnilarning dod-faryodi, jinnilardan ko'chadigan jin vahimasi ustiga yana uyning bu qadar noqulayligi qo'shilgan bo'lsa ham, ayam boshqa hovliga ko'chishdan aynib qoldi, dadamga: «Mayli, qishni shu yerda chiqaraylik, u yog'i Xudo poshsho», dedi; «Dadangga ayt, ko'chmaymiz, shu yer yaxshi», degan mazmunda menga ham gap o'rgatdi. Keyin bilsam, amakimning uyida xizmat qiladigan odam bo'lmagani uchun kampir biznikida turmoqchi, bunga hozir uyimizning torligi va noqulayligi monelik qilib turgan ekan.

Birinchi qor uchqunlab turganda shu mahallalik Muqim buva deganning tashqisiga ko'chdik. Katta yo'l bo'yi, uzun yo'lakning o'ng tomonidagi hovlichaning bir yog'i – qorong'i va pachaq bo'z do'koni, bir yog'i – mehmonxona. Dadam hovlichaning yarmidan ikki tomonga ikkita ustun o'rnatib, chiylar tortib qo'ydi.

Muqim buva to'zg'oqday oppoq, do'koniga saharda kirib ketganicha kuni bo'yi, ba'zan kechalari ham shiliqqa-shiq, shiliqqa-shiq bo'z to'qiydi, ba'zan: «Xudoga shukr!» degan tovushi eshitilib qolardi. Uning xotini – o'ziga o'xshagan oppoq To'xta xola ko'chib kelgan kunimiz osh qilib yo'qlab kirdi. U ham musofirni «Xudo qilgan baxti qora» deb bilar ekan. Uning so'ziga qaraganda, kishining musofiratda to'kkan ko'z yoshlari oxiratda etagiga dur-u gavhar bo'lib tushar ekan.

To'xta xola ham farzand dog'ini ko'p ko'rgan, yetti qiz, to'rt o'g'lidan faqat ikkita qizi qolgan, biri To'xlimerganga, biri Avg'onboqqa tushgan ekan. To'xta xolaning musofirga shafqatidan ham ko'ra farzand dog'ini ko'p tortganligi uni ayamga yaqin qilib qo'ydi. Shunday bo'lsa ham To'xta xola uyimizga kam kirar, kuni bo'yi va kechalari ham charx yigirar edi, chilla kirib, sovuq zabtiga olganda, kampir «temirchining archa ko'miridan bozillab turgan» sandaliga isinib olgani ko'proq kiradigan bo'ldi.

Bir kechasi amakim ikki xufton kechroq G'afforjonni olib keldi va xo'rsinib, hamma kutib turgan gapni aytdi: «Xudo omonatini oldi», dedi. Dadam ikkovi chiqib ketdi. G'afforjon onasining o'lganini payqamagan ekan, yotib uxladi. Ertalab azaxonaga ayam ham ketdi. Men uning borishini sira istamasdim, amakim ko'z o'ngimdan ketmas edi.

Tushga yaqin dadam bizga ovqat keltirib berdi, kechqurun kampirni olib keldi; kampir kasal ekan, sandalning chetidan joy qilib berdi-yu, yana ketdi.

Erta yotdik. Kampir sandal ko'rpani o'zining ustiga tortdi. G'afforjon ikkovimizga joy soldim. Uxlab qoldik. Bir mahal G'afforjon uyg'onib suv so'radi. Qorong'ida kampirning vag'illagan tovushi eshitildi: «O'! Og'zingni ochib yot, chanqog'ing bosiladi!» dedi. Men yetimga rahmim kelib, suv keltirib berdim.

Ayam azaxonada bir haftadan ortiqroq qolib ketdi, lekin har kuni peshinda kampirga osh qilib bergani kelardi. Kampirning do'ppidekkina qozonchasi bor ekan, ayam shunda osh damlardi. Oshni kampirning o'zi suzib, birovga manzirat ham qilmay, yakka o'zi yerdi. Men-ku suqlanadigan bola emas, dadam birovning qo'lidan bitta yong'oq ham oldirmay o'stirgan, lekin shuncha erka va tantiqligi bilan G'afforjon ham g'ashlik qilmas, aftidan, shunga ko'nikkan edi.

Shu-shu kampir bilan G'afforjon biznikida qolib ketdi.

Kampir har kuni, shomdan keyin G'afforjon ikkovi-mizni ko'chaga chiqarmay namozlik va har xil duolar o'rgatardi; go'r azobi, qiyomat, farishtalar, shayton va boshqa ko'k jonivorlaridan gapirardi. G'afforjon ko'pincha erkalik, tantiqlik qilib bu gaplarga chandon quloq solmasdi, lekin men quloq solmagani kampiridan hayiqardim. Kampir aytgan jonivorlarni sal kunda ko'z oldimga keltiradigan bo'ldim: farishta – kattakon parvona, hur – qanotli Savriniso, shayton – tuyoqli, kallasi xo'rozning tojiga o'xshagan odam, arvoh – yuradigan kafanli o'lik, jin – bir oyoqli arvoh, alvasti – odamsimon qora ho'kiz... Bir kechasi kampir Xudo nimalarni qaysi kunlarda yaratganini aytib berdi. Qaysi kuni nimalarni yaratgani esimda qolmasa ham, kunlar haqida tasavvur qoldi: shanba – par-pasha paranji rangida, yakshanba – qoramtir qizil, dushanba – ko'k, seshanba – qop-qora, chorshanba – kulrang, payshanba – sariq, juma – havorang.

G'afforjon so'fi Badal eshonning xonaqosida ochilgan jadid maktabida o'qir ekan, onasi o'sal bo'lgandan keyin dadasi maktabga yubormay qo'yibdi, onasining yigirmasi o'tgandan keyin maktabni kampir esga soldi. Zotan, amakim G'afforjonni mulla qilish emas, kampirning qulog'i va jag'ini yarim kun bo'lsa ham tinchitish uchun maktabga bergan ekan.

Maktab Galaboqqollikda, bu yerga uzog'i bilan uch-to'rt yuz qadam kelsa ham, G'afforjon hali bi-

ron marta ham o'zi borib kelmagan, avvallari uni goh Savriniso, goh Azim olib borib olib kelarkan, endi bu vazifa mening zimmamga tushdi.

Har kuni ertalab kampir vag'illaydi, G'afforjonni, ba'zan hammamizni qarg'aydi. G'afforjon yig'isig'i bilan maktabga otlanadi, ko'chaga chiqqandan to maktabiga yetgunimizcha nay puflaydi. Bir kuni xonaqo eshigidan kirganimizda G'afforjon qo'lini orqasiga qilib hovlida aylanib yurgan cho'qqisoqol, piyozi chakmach va chaqmoqi telpak kiygan bir kishini ko'rib to'xtadi va shivirlab: «Domla, Abduvahob domla, hozir meni uradi», dedi. Domla bizni ko'rdi, ko'rsatkich barmog'i bilan imlab chaqirdi. G'afforjon harchand qo'rqsa ham yugurib bordi. Domla meni ham chaqirdi. Men ham bordim. Domla avzoyidan G'afforjonni uradigan bo'lsa ham begona bola oldida urgisi kelmadi shekilli, urmasdan, nega kichikkanini so'radi, uning onasi o'lganini eshitib boshini siladi, bir nimalar deb ko'nglini ko'tardi. G'afforjon, kaltak yemaganiga suyunib, yugurganicha hujralardan biriga kirib ketdi. Domla meni galga soldi, talaffuzimdan qishloq bolasi ekanimni bildi shekilli, qaysi qishloqdan ekanimni so'radi. Men «ko'chmanchimiz» deymadim, qizarib ketdim shekilli, ikki yonog'im lovillab ketdi. Uyalganimni ko'rib domla boshqa gap so'ramadi. Yugurganimcha xonaqodan chiqib ketdim. Peshinda G'afforjonni olib ketishga kelganimda G'afforjon domla menga nima deganini so'radi, javobimni eshitib: «Domla qishloq bolalarini yaxshi ko'radi, naymanchalik Meliboy degan bolani pul olmay o'qitadi», dedi. Yana bir kuni o'sha Meliboy degan bolani o'z ko'zim bilan ko'rdim: olacha guppi to'n, qunduzsiz telpak kiygan bo'liqqina bola ekan. Ko'p afsus qildim, Abduvahob domla gap so'raganda, falon qishloqdanman desam, ehtimol, meni ham maktabga olib bepul o'qitar edi... Biroq domlaga yana ro'para bo'lgani

tortindim. Qani endi men ham erka-tantiq bo'lsam, ko'p gapirsam, behuda sho'xliklar qilsam-u kampir mendan bezor bo'lsa, dadamga aytib maktabga berdirsa! Indamasligim, qobilligim koni ziyon bo'ldi.

Bir kuni G'afforjonni maktabga qo'yib kelsam, ayam o'choq boshida dam-badam burnini etagi bilan artib, tovush chiqarmay yig'lab o'tiribdi, kampir sandalning chetida doka ro'molini yelka aralash boshiga tashlab, xuddi ko'rshapalakka o'xshab bukhayib, tez-tez tasbeh o'girayotibdi. Kampir jussasiga, hol-ahvoliga butkul mos kelmaydigan qattiq va vahimali tovush bilan onamga vag'illadi.

– Tur, chiqib qorni kura! Yig'lama deyapman, huv ko'z yoshing o'z boshingni yesin!

Ayam o'pkasini tutishga harakat qildi:

– Qor tinsin, undan keyin kurarman...

Kampir yana vag'illadi:

– Qor qachon tinishini – Xudoning ishini qayoqdan bilasan, arvak!

«Arvak» deganda mening ko'z oldimga cho'p-ustuxon, rangi oppoq bola kelar, ayamning ozg'in va rangi oppoq ekani xayolimda ham yo'q edi, darrov qaradim, haqiqatan ham ayam nihoyatda ozg'in va rangi oppoq ekan.

Janjal bir piyola choydan chiqibdi. Amakim bundan bir hafta burun kampirga qadog'i falon pullik bir yumaloq toza famil choy keltirib bergan, kampir uni yostig'ining tagida asrab yolg'iz o'zi ichib yurgan ekan. Choy shu bugun tugabdi. Kampir bu choyning maqtovini yana eshitish, qanday choy ichib yurganini, Abdurahmon Abduqahhorga qaraganda mehribonroq ekanini aytib, kelishi oldida maqtanish uchun shu choydan ayamga bir piyola beribdi va ichib bo'lganidan keyin «Qalay?» deb so'rabdi. Ayam choyning xushbo'yligini, ta'mini kampirning o'zidan eshitgan, bu maqtovga o'zidan ham bir nima qo'shish

maqsadida xushboʻyligi va taʼmi ustiga qorinni ham toʻydirar ekan, demoqchi boʻlib: «Xuddi bir kosa goʻja osh ichkanday boʻldim» debdi, shunday depti-yu, kampiridan baloga qolibdi: «Ana sen bezotsan, ana sen bunaqa narsalarni qayoqdan bilasan, nainki, shundoq choyni goʻjaga oʻxshatsang!..» Shundan boshlangan gap ayamning roʻzgʻor tutishiga kelib taqaldi:

– Sen bolaginaning birini ikkita qiladigan xotin emassan! Uyda baraka yoʻq! Shu zamonda chirogʻning shishasi yorilsa kim darrov yangisini oldiradi, qogʻoz yopishtirib tutavermaysanmi! Ustingga xotin olib bermasam men ham yurgan ekanman! Qoʻydirvoraman!..

Imonsiz kampir ukam Oʻlmasoy ikkovimizni ham qoʻshigʻiga qoʻshdi: «Sendan boʻlgan bola nima boʻlar edi, itdan boʻlgan qurbonlikka yaramaydi...» dedi. Boʻynimga osilgan tavqi laʼnat – «kelgindi», «koʻchmanchi», «musofir» degan soʻzlar ham bir boʻldi-yu, kampirning bu gapi ham bir boʻldi.

Shu gʻalvadan keyin kampir pishirib yeyish, chaynab yutish mumkin boʻlgan hamma narsani sandiqqa solib qulflab oldi, hatto joʻn choyni ham yostigʻining tagiga qoʻyib, kerak boʻlganda bir chimdim beradigan boʻldi. Kampir har ishdan bir ishkal topar, har bahona bilan ayamni urishar, qargʻar, dadamga chaqib urdirar, dadam soʻziga quloq solmasa: «Ona rozi – Xudo rozi, xotin topiladi, ona topilmaydi!» deb oʻzi ham yigʻlar edi.

Men Gʻafforjonni maktabga olib borganimdan va olib kelganimdan keyin ham kunni mumkin qadar Toʻxta xolaning uyida oʻtkazishga tirishar edim. Toʻxta xola oldimga jiyda, oʻrik va boshqa topgan-tutganini qoʻyar, gapga solar, baʼzan qiziq-qiziq ertaklar aytib berar edi. Men unga juda el boʻlib qoldim, bir kuni charxining charmagi sinib qolganda, yangi charmak yasab berdim. Ayam kampirning vagʻillashi, qargʻashidan nariroqda turishimni xohlasa kerak,

To'xta xolaning uyida ekanimda hech qachon chaqirmas edi.

Bir kuni kechki payt Jarbuloqdan ayamning uchto'rt yildan beri ko'rishmagan akasi keldi. Dadam ishdan kelib mehmon bilan ko'rishdi-yu, uyda go'sht bo'lmasa kerak, G'afforjon ikkovimizga uch miri berib, go'sht keltirgani buyurdi. Kampir qarab turgan ekan, G'afforjon ikkovimizni chaqirib qo'limizdan pulni oldi va dadamni chetga tortib qo'lini paxsa qildi.

– Uch miriga Sersa kovushday go'sht beradi-da, nima qilasan go'shtni, go'shtsiz kichiri qilib qo'ya qolsin! Qatiq bilan yesa kichiri ham yaxshi bo'ladi, – dedi.

Ayam buni eshitib qoldi. Nazarimda mehmon ham eshitdi. Kampir ovqatgacha ham, ovqatdan keyin ham qovog'ini ochmadi, nihoyat, mehmonning oldida bir dilsiyohlik qilish muddaosida bo'lsa kerak, G'afforjonni tergadi.

– G'afforjon, bugun maktabingda necha varaq kitob o'qiding?

G'afforjon hayron bo'lib qoldi.

– Varag' o'qiganimiz yo'q...

Kampir vag'illadi.

– Varag' o'qimagan bo'lsang, nimani o'qiding? Domlang o'qitadimi o'zi? Mustafoning nechta teshigi¹ bor?

G'afforjon «Mustafo»ning yozilishini bilsa ham «teshigini» sanamagan ekan, bilmadi.

– Jadid shu-da, Mustafoni o'qitmaydi, – dedi kampir va jadidni odam deb o'ylar ekan, qarg'ab ketdi. – Xudoyo og'zidan qoni kelsin! Mustafo ko'r qilsin!..

Kampir shaqillar, G'afforjon ho'ngrar edi. Hammaning dili siyoh bo'ldi.

Mehmon ketdi, ayam yo'lakka chiqib yig'ladi. Ketar mahalida kampir qilmishiga vaj ko'rsatgan bo'ldi:

¹ Mustafo so'zining arab alifbosidagi yozilishi «Mstfi» tarzida yoziladi va dastlabki to'rtta harfda «o» teshik ko'rinishi hosil bo'ladi.

– O'gay aka hech qachon akalik qilmaydi, senga gap o'rgatib uyingni buzadi. Bundan tashqari akang yuzida farishtasi yo'q odam ekan! – dedi.

Ayam uning gaplariga gap qaytarmadi. Dadam ham indamadi. Kampirga ayamning: «Xo'p, akam bundan keyin kelmasin» demaganidan ham, dadamning indamagani ko'proq alam qildi shekilli, shovqin solib, «erini minib olgan kelinning dastidan» dodladi va arazlab o'sha zahotiyoy amakimning uyiga ketmoqchi bo'ldi. Dadam ko'nmadi.

Bir kuni ayam payt poylab turib dadamga yig'ladi.

– Yana ko'zinga qora echki ko'rinyapti. Jinnixon bo'lsa ham Oq domlanning tashqisi yaxshi edi, har nechuk domla, duo, ins-u jins yo'lamasdi...

Dadam uni urishib berdi.

– Ahmoq bo'lma, Oq domlanning o'zi kasal bo'lib yotgan emish! – dedi.

Men suygan bandasiga kasallik yuboradigan, bolalarni o'zi berib o'zi oladigan, odamlarga joni omonat beradigan, bizni ko'chmanchi, kelgindi, musofir qilgan va qilish-qilmishi odamlarga ranj-alam yetkazishdan iborat bo'lgan Xudoning shakl-shamoyilini, aft-angorini, soxt-sumbatini sira ko'z oldimga keltirolmas edim, bora-bora «Xudo» deyilganda boshiga yelka aralash doka ro'mol tashlab, sandalining chetida ko'rshapalakdek bukchayib o'tiradigan kampir ko'z oldimga keladigan bo'ldi.

Bir yoqda «Ona rozi – Xudo rozi», bir yoqda ayamning nohaqdan to'kadigan ko'z yoshlari, dadam ikki o't orasida qolib qiynalsa kerak, do'konda ish juda kamligidan nolishiga qaramay keyingi vaqtlarda uyga yarim kechalari keladigan bo'ldi. Bir kechasi G'afforjonning injiq-tantiqligidan va kampirning shang'illashidan bezor bo'lib, sovuq va qor yog'ib turganiga qaramasdan ko'chaga chiqdim, amakimning do'koniga bordim. Do'konning eshigi yopiq. G'ishtlik machit,

Boyta ko'prikdan keladigan tanish-bilish ustalar va ularning shogirdlari tutab yonayotgan kattakon to'nka atrofiga tizilishgan, kitobxonlik bo'lmoqda edi. Kitobni xira osmachiroq ostida o'tirgan dadam o'qimoqda edi. Mening bir chekkada o'tirganimni hech kim payqamadi. Dadam mulla ekanini shunda bildim. Kitob nihoyatda qiziq, tovlamachi Dalla degan bir xotinning qilmishlari hikoya qilinar edi.

Kitobxonlik tamom bo'lgandan keyin bular gaplashib qolishdi. Men uyga borib voqeani ayamga aytdim. Ayam dadamning mulla ekanini bilar ekan. Uning aytishiga qaraganda, dadam kitobni juda yaxshi ko'rar, kamoli yaxshi ko'rganidan tushiga kirgan, tushida Hasti Xizr bir kitobdan bir-ikki xat o'qitgan, keyin o'sha varaqni yirtib olib dadamga yetgizgan, shundan keyin dadam mulla bo'lib qolgan ekan. Dalla hikoyasidan esimda qolganlarini aytib bergan edim, ayam juda ham qiziqib quloq soldi, keyin dadam kelganda o'pkaladi:

– Uyga bevaqt kelasiz desam joningizning huzurini topib olgan ekansiz-da... – dedi.

Ayam bu gapni shunday bir ohangda aytdiki, shu bilan: «Onang to'kadigan zaharni bitta o'zim yutib o'tiribman», demoqchi ekanini hatto men ham fahmladim. Dadam o'zini fahmlamaganga soldi.

– Diqqatman, diqqatman! Chilla o'tib boryapti, ishning barakasi yo'q. Qishloq yaxshi edi, – dedi.

Ayamning jon-jahoni yorishib ketdi.

– Urush deb shaharga ko'chgan edik, qani urush? Qishloqqa keta qolaylik! Shaharda suvdan boshqa hamma narsani sotib olamiz, qishloqda undoq emas edi...

Bu gapdan kampir xabardor bo'lib hovlini boshiga ko'tardi, ayamni yulmoqchi bo'ldi.

– Kelin deganni Xudoyi taolo ona-bolani bir-biridan judo qilishga yaratgan! Ilm-u amal bilan bolamni o'zingga qaratib olgansan!

Kampir supurgining ustiga o'tirib, shapalog'ini chaparasta qilib ayamni xo'p qarg'adi. Kampir har safar qarg'ish-duoga qo'l ko'targanida ayam yig'lar, uning qarg'ishlari darrov bizga tegadiganday chin-qirib, O'lmasoy ikkovimizni bag'riga bosar edi. Dadam harchand xunob bo'lsa ham onasiga qarshi biron so'z aytmas edi.

Kunlar g'urbat bilan boshlanib? g'urbat bilan tugar edi. Shu orada O'lmasoy kasal bo'lib qoldi-yu ko'chish to'g'risida boshqa gap ochilmadi. Kampirning jag'i biroz tiyildi.

Bolasining kasal bo'lishidan yurak oldirib qolgan ayam nima qilishini, o'zini qayoqqa urishini bilmay, fe'li tez bo'lib, dadamga, hatto kampirga ham shovqin soladigan bo'lib qoldi. Kampir bolaning kasal bo'lishiga birdan-bir sabab ayamning «kasofat»ligi deb bilsa ham qo'shnoch toptirdi. Qo'shnoch kelib O'lmasoyni xipchin bilan savalab ko'chirdi, qora tovuq so'yib qonladi. Bandi eshon har kuni saharda avrod o'qir ekan, ayam har kuni saharlab O'lmasoyni ko'tarib avdorga boradigan bo'ldi; bir kuni qo'limga bir obdasta suv berib, meni ham olib bordi.

Bandi eshonning katta hovlisi liq to'la xotin-xalaj. Sovuq bo'lishiga qaramay, hamma ro'para kelgan joyga o'tirib jimgina quloq solmoqda. Yarmidan yuqorisi oynavandlik baland ayvonning damida Bandi eshon juda ham yoqimli tovush bilan avrod o'qimoqda edi. Tong yorishgandan keyin eshon avrodni tugatib fotihaga qo'l ko'tardi. Hamma gurillab yuziga fotiha tortdi. Shundan keyin har kim topgan-tutganini gavdalik bir kampirga topshirib tarqaldi.

Shu kuni kechga borib O'lmasoy ko'zini ochdi. Hammamiz suyundik. Ayam saharda O'lmasoyni ko'tarib yana avrodga ketdi. Men G'afforjonni maktabga qo'yib keldim-u kampirning dod-faryodi ustidan chiqdim: ayam avroddan O'lmasoyning o'ligini olib

kelibdi... Ayam eshikning yondorisiga suyanib, ikki qo'llab jag'ini ushlaganicha tek turar, amakim unga bir nimalar deb tasalli bermoqda edi.

Odam yig'ildi, qavm-qarindoshlar kelishdi. Peshinda mahalla joynamoz yopilgan zambilni ko'tarib ketishdi.

Shu bilan uyimiz xuddi qabristonday jimjit bo'ldi-qoldi. Kampir, hatto G'afforjonning ham tovushi chiqmas edi.

Qish chiqdi. Devorlarning kavagida qurbaqalar qurillab, tom va devorlarda musichalar hu-hulab qoldi.

Qishloqqa ko'chish haqida ayam bo'lak og'iz ochmagan bo'lsa ham, dadam shuning harakatida yurgan ekan shekilli, bir kuni xushxabar topib keldi:

– Dunyoda hali ham jannati odam ko'p, Qudashga ko'chamiz, hovli-joy, do'kon ham tayyor, – dedi.

Amakimning qudashlik To'raqul vofurush degan bir tanishi bor ekan, shu odam dadamning qishloqqa ko'chish niyati borligini bilib: «Bizning Qudashga ham temirchi yarashadi, ko'chib boradigan bo'lsangiz yo'lingizga poyandoz solamiz», debdi va uy-joy, do'kon va'da qilibdi. Dadam Qudashga borib uy va do'konni ko'rib keldi.

Ko'chishimiz aniq bo'lib qolgandan keyin kampir G'afforjonni olib amakimning uyiga ketdi. Ko'chishimizdan bir kun oldin ayam ikkovimiz kampir bilan xayrlashgani bordik. Kampir yangi uyda hamon boshiga yelka aralash doka ro'mol yopinib, ko'rshapalakday bukchanib o'tirgan ekan. Ayam shod-xurram bo'lsa ham siniq tovush bilan xayrlashdi: «Biz bilan ketmas ekansiz-da», dedi. Ayam bu gapni til uchida aytayotganini bilib tursam ham, «unaqa dema», degan ma'noda sekin biqiniga turtdim.

Shunday qilib o'rik gulini to'kkanda Qo'qondan Qudashga ko'chdik.

To'raqul vofurush

Yaypan ko'chalari keng, lapkasi, ot o'yini bor, tollarda bedana, ko'cha bo'yi va bozorboshidagi do'konlarda kaklik sayraydigan obod qishloq edi. Qudash ko'chalari tor va egri-bugri, bironta do'kon bo'lmasa ham ko'zimga Yaypandan yaxshiroq ko'ringdi. Yo'l bo'yidagi devorsiz, devori qulagan, nuragan bog'lar, qing'ir-qiyshiq uylarni quchoqlab yotgan chorbog'lar qiyg'os gulga kirgan, butun qishloq kattakon boqqa o'xshardi. Kulala yurib ketayotgan aravaning orqasidan sakrab tushdi, yo'l bo'yidagi guldandan tushib qizargan o'rikning shoxini egib g'o'ra oldi, aravaga yetib olib g'o'rani hammamizga ulashdi. G'o'ra chigitdan katta emas edi, lekin yeganimda hamma yoqni bahor hidi tutib ketdi, butun bahorni shu chigitdakina g'o'raning ichiga qamab qo'yilganday tuyildi.

Hamma dalada bo'lsa kerak, odam ko'rinmaydi. Hamma yoq jimjit, faqat qushlar chug'urlaydi, arava g'ijirlaydi, ot tap-tup qadam tashlaydi, so'liq shiqirlaydi. Kattakon qayrag'och ostidagi chimko'prikdan o'tib chapga qayrildik, qumloq ariq bo'yidan borib, tok chirmashib chiqqan, chumchuqlar chuqurlashib quloqni qomatga keltirayotgan qari terak ostida to'xtadik.

To'raqul vofurushning hovlisi baqaterakning ostidagi yangi darvoza, uning o'zi yo'q, bizning kelishimizni qo'shnisiga aytib qo'yg'an ekan.

Biz turadigan uy aslida yangi otxonaning yarmi bo'lib, yo'lakka darcha qo'yilgan, qolgan yarmiga ko'cha tomondan eshik ochilib do'kon qilingan ekan.

Yukimiz tushirilayotganda Kulalaning akasi Dodarxo'ja keldi. U qishda Ortiq oqsoqolnikidan ketgan, Qudashga kelib, bu yerda ham juvoz haydar, ko'chama-ko'cha yurib yog' sotar ekan; «qishloqqa temirchi keladi» degan gapni eshitib, vofurushdan

surishtirib qarasa, biz ekanmiz. Dodarxo'ja kechgacha qarashdi. O'choq, mo'ri qurildi, dam, sandon o'rnatildi. Uyga poxol to'shaldi.

Kechqurun novcha, oriq bir chol xuddi ikki-uch joyidan bukilib, sinib ketishidan xavfsiraganday ehtiyot bilan qadam bosib keldi. Uning burni xuddi bir narsadan jirkanganday jiyrilgan, og'zi yarim ochiq, dimog'i bilan gapirar edi. U do'konga kirib dadam bilan so'rashdi, keyin yo'lakdan borib o'rta eshikka kirib ketdi-yu, birpasdan keyin patnisda to'rtta non, choy olib chiqdi. Vofurush uzoq o'tirmadi, yonidan bog'ichiga ikkita ko'zmunchoq taqilgan qora hamyonni oldi, ko'zdan pana qilib yonboshida pul sanadi-da, dadamga bir nechta ko'k qog'oz uzatdi.

– Bilaman, kamxarjsiz, bizga saksonta o'roq yasab bersangiz bas, – dedi va chiqib ketdi.

Dadam juda xursand bo'lib ketdi, pulni sanamasdan belbog'ining qatiga tiqdi.

Vofurush ketgandan keyin Dodarxo'ja boshini likillatdi.

– Pulni oldingiz, usta, bo pand yemang! Bu odam sof ajdarho! O'likning yog'ini, tirikning tirnog'ini yeydi bu!

Dadam kulib qo'ya qoldi.

Lekin Dodarxo'ja bilib aytgan ekan. Vofurush har kuni, kun osha ertalab yoki kechqurun og'zi yarim ochiq va burinni jiyirganicha do'konga kirib keladi, shoshib: «Usta, mayda pulingiz bo'lsa berib turing» yoki «Kulala bizga falon narsa keltirib bersin, keyin surishib ketamiz», deydi. Uning so'ragani arzimagan narsa bo'lgani uchun «yo'q» deb bo'lmas, berilgandan keyin qaytarib olish noqulay bo'lgani uchun hisobga kirmas edi. Dadam shundan bezor bo'ldi shekilli, vofurushning buyurtmasiga yetadigan ko'mir, temir bo'lsa ham, shaharga tushib bor puliga ulgurji ko'mir, temir olib chiqdi va vofurushni ko'rganida kamxarjligidan noliydigan bo'ldi. Vofurush haqiqat-

tan «keyin surishib» ketiladigani uchun hech narsa soʻramaydigan boʻldi, lekin boshqa yoʻlga oʻtib oldi: doʻkonga tez-tez kelib «darrov bittagina» tesha yo dos-kalla, yo boshqa biron narsa yasab berishni soʻraydigan boʻldi. Dadam xunob boʻlar, lekin uning soʻrovini qaytarolmas, Kulala miyigʻida kulib: «Oʻlikning yogʻi-yu, tirikning tirnogʻi», deb qoʻyar edi.

Dadam vofurushning saksonta oʻrogʻini berish, shu bilan birga oʻrniga oʻroq tushguncha yana koʻpgina oʻroq yasab qoʻyish uchun azondan xuftongacha doʻkondan chiqmay qoʻydi; ogʻir ishda Kulalaga tez-tez dam berish uchun meni damga soldi. Men ham shular qatori ishlab, kuni boʻyi dam bosardim.

Dadam saksonta oʻroq ustidan boʻnak olganida kuniga yasaydigan oʻrogʻining bir qismini vofurushga berib, qolganini oʻzi sotishni koʻzlagan ekan, biroq vofurush har kuni kechqurun burnini jiyirganicha doʻkonga kirib, bor oʻroqni olib ketaverdi.

Dehqon arpa, beda, bugʻdoyni oʻrib olish uchun bu kunlarda faqat oʻroq soʻrar, boshqa hech qanaqa ish koʻtarib kelmas edi. Vofurush bir kuni kechqurun kelib tayyor oʻroqlarni chiptaga oʻrayotganida dadam yotigʻi bilan arzini aytdi:

– Boʻnakka bergan pulingiz koʻmir bilan temirga ketib qoldi, choychaqaga bir-ikkita oʻroq tashlab ketmasangiz bola-chaqa qiynalib qoldi.

Vofurush, ogʻzi yarim ochiq, burnini jiyirganicha dadamga qarab qoldi-yu, anchadan keyin dimogʻi bilan:

– Yana besh-oʻn tanga pul beraymi? – dedi.

– Yoʻq, qulluq, – dedi dadam, – avval qarzni uzay... Har kuni bir-ikkita oʻroq tashlab ketsangiz bas...

Vofurush oʻroq oʻralgan chiptani chilvir bilan mahkam bogʻlar ekan, toʻngʻilladi:

– Unda qandoq boʻladi?.. Unda saksonta oʻroqni qachon olaman-u qachon sotaman? Oʻroqdan menga bir nima qoladigan boʻlsa mavsumida qoladi, mavsu-

midan keyin ustiga bir nima qo'yolmayman! O'zingiz o'ylang, insof qiling! Men sizga ko'k qog'ozlarni sharaqlatib sanab berdim, qo'lingiz mo'may pul ko'rdi. Bozor menga ko'k qog'oz bermaydi, Xudo bersa tomizadi, xolos. Men tomganini yalayman.

Dadam hazilga oldi:

– Nima qilay, ko'k qog'ozingizni qaytarib beraymi?

Vofurushning achchig'i keldi:

– Lafzingizdan qaytasizmi? Odamga puldan ham, moldan ham ko'ra lafz kerakdir deyman! Mayli, lafzim yo'q, odamgarchiligimning tagi teshik, desangiz shunga qarab gaplashamiz!

Dadam indamadi, lekin bunaqa indamaslik indagandan yomonroq edi. Vofurush keyinchalik: «Bir ochga, bir yalang'ochga tegma», deb o'ylagan bo'lsa kerak, har kuni bittadan o'roq tashlab ketadigan bo'ldi.

Shundan keyin dadam xuftondan keyin ham ishlab, o'zimiz uchun o'roq yasaydigan, Kulala vofurushga tegishli o'roqlardan «urib» bozor kunlari sotib keldigan bo'ldi. Biroq vofurush Kulalani bozorda tutib olibdi, bir-ikki shapaloq urib, qo'lidagi uchta o'roqni tortib olibdi. Kulala yig'lab keldi. Dadam indamadi, lekin bir qoshi baland, bir qoshi past bo'ldi. Bu uning nihoyatda darg'azab bo'lgani alomati edi.

Kechqurun rang-quti o'chgan Dodarxo'ja keldi, Kulaladan bir-ikki og'iz gap so'radi-yu, qo'lidan ushlab, yo'lakdan dikanglatganicha o'rta eshikka tomon olib bordi, eshikni qoqdi. Vofurush tovush berdi, anchadan keyin kelib eshikni ochdi va Dodarxo'janing avzoyini ko'rib dang qotib qoldi. Dodarxo'ja Kulalani bo'ynidan ushlab itarib yubordi. Kulala vofurushning oyog'i ostiga yiqildi.

– Ur, dayus! – dedi Dodarxo'ja Kulalani ko'rsatib, – bo bir ur, o'ldir!

Vofurush jon talvasasida beixtiyor:

– Usta! – deb baqirdi.

Dadam uning tovushini albatta eshitdi, lekin kelmadi.

Dodarxo'ja vofurushning yoqasidan ushlab bir siltadi. Vofurush do'mbaloq oshib ketdi, keyin darrov o'rnidan turdi, yana: «Usta! Ho musulmon odam bormi!» deb baqirdi. Dadam yugurib keldi, vofurushga hamla qilmoqchi bo'lgan Dodarxo'jani ushladi, urishib ko'chaga tomon surib ketdi. Vofurush darrov uyiga kirib, eshigini zanjirlab oldi.

Vofurush ikki kun ko'rinmadi, uchinchi kuni ertalab dadamni amin chaqirtirdi. Amin dadamga dashnom beribdi: «Qari odamni urdiribsiz, bu safarcha ma'zur ko'ramiz, lekin bundan keyin qadamingizni bilib bosing, qishloqning darvozasi bor» debdi, dadamning bir og'iz gapiga ham quloq solmabdi. Ma'lum bo'lishicha, Dodarxo'ja qishloqdan badarg'a qilinibdi, otqorovul uni Qo'qon yo'lining yarmigacha eltib qo'yibdi.

Dadamning qilmishini amin bu safarcha «ma'zur» ko'rgan bo'lsa, vofurush ham ma'zur ko'rmikan? Dadam tashvishga tushib, boshqa hovli va do'kon qidirib qoldi. Biroq «qari odamni», yana To'raqul buvani urdirgan kelgindiga hech kim boshpana berishni xohlamas, mojaro to'g'risidagi gapga quloq solmas edi.

Dadam yig'ilib qolgan o'roqlarini olib juma kuni Yaypan bozoriga ketdi. Uning maqsadi faqat o'roq sotish emas, Yaypandan hovli, do'kon so'roqlash edi.

Kulala do'konni ochib o'tirdi. Men kelganimizdan beri dam bosib bolalarga qo'shilmaganim uchun o'zim yakka o'ynab ketdim, tuproq ko'chalarni, qumloq anhor bo'ylarini kezdim, kimsasiz bir boqqa kirib yarim do'ppi javpazak pesa¹ terib chiqdim, anhor ko'prigidan oyog'imni osiltirib o'tirib pesa yeb o'tirganimda birdan ko'nglim to'ldi-yu, ko'kragimdan yig'i o'rniga bir kuy otilib chiqdi, kuy ko'kragimdan o'zining

¹ Javpazak pesa – chala pishgan, dumbul o'rik.

so'zlarini etaklab chiqdi: «Qaerga borsam kelgindiman... bolalar o'yinga qo'shmaydi...» Ming'illab o'tirib uxlab qolibman. Bir vaqt ko'zimni ochib qarasam, tepamda mendan ancha katta bir bola ashtarxon gilosning shig'il meva qilgan bir shoxini pichoq bilan yo'nib turibdi. Men uyqusirab «shu o'rikning egasi bo'lsa kerak, hozir meni uradi» degan xayolda qolgan o'rikni bolaga tutdim. Bola o'rikni indamay oldi, bir-ikkitasini edi, meni urmadi, temirchining bolasi ekanimni eshitib, yaktagining cho'ntagidan bir hovuch qop-qora ashtarxon gilos olib berdi. Gaplashib qoldik. Bolaning oti Xoliq ekan. O'rtoq bo'lib qoldik. Anhorni bo'ylab yuqoriga qarab ketdik. Xoliq ko'pdan beri pichog'ini charxlatishni orzu qilar, lekin akasi pul bermagani uchun bu orzusiga etolmas ekan, men Kulalaga aytib charxlatib bermoqchi bo'ldim. Orqa ko'chadan yurib To'raqul vofurushning chorvog'iga yetgan imizda, Xoliq baland devor ostidagi omburga qo'lidagi gilosning shoxini tashladi va mening hayron bo'lib turganimni ko'rib, «Xayri oladi» dedi. Xayri To'raqul vofurushning xotini ekan. Men uni ko'rgan emasman, vofurushning xotini borligini ham bilmas edim. Vofurush o'rta eshikni ketganida tashqaridan, kelganida ichkaridan qulflab olar, xotining tovushini ham chiqarmas ekan. Bu ariq vofurushning chorvog'i va hovlisidan o'tar, Xayri ariqqa savat to'sib, Xoliq oqizgan narsalarni tutib olar ekan.

Vofurush hatto chorvog' eshigini ham qulflab hech qayoqqa chiqarmaydigan bu xotin nima qilib o'tirar ekan? Shu kuni yo'lakka kelib quloq soldim. Hovli jimjit, ariq bir qiyomda shovullaydi, chorvog' tomonda ba'zan barra ma'raydi; qayerdadir sariq so'piyon kiyovlaydi... Birozdan keyin hovlidan tap-tup va shildiragan, jiringlagan tovush eshitildi. Eshik yonidagi yong'oqqa chiqib qaradim. Katta hovlining bir chekkasida kichkinagina, lekin katta xotinlarday uzun oq ko'ylak kiygan, boshiga

farang durra o'ragan bir qiz chochpopuk va bozvonini jiringlatib to'p o'ynamoqda edi.

Men Kulalani Xoliqning pichog'ini charxlab berishga ko'ndirdim va shu munosabat bilan voqeani aytib berdim. Namozgar paytida dadam Yaypandan keldi. Kulala mendan eshitgan gaplarini dadamga aytayotganida vofurushning uyidan dodlagan ovoz chiqdi. Dadam, Kulala uchovimiz yugurib yo'lakka chiqdik. Qo'ni-qo'shni keldi. Bir qancha erkak-ayol yig'ildi. Birov eshikni qoqdi. Xayri hamon dodlar, big'illar edi. Kimdir vofurushning nomini atab chaqirdi. Ichkaridan javob bo'lmadi. Xayrining goh bo'g'iq, goh chinqirgan tovushigina eshilar edi. Birov eshikni ikki-uch tepdi, bo'lmagandan keyin eshikka tarmashib chiqdi va shovqin soldi.

– To'raqul buva, bas, bo'lmasa bostirib kiramiz! – dedi.

Hayal o'tmay cholning hansirashi eshitildi-yu, zanjir shiriqlab, eshik katta ochildi. Nima bo'lib dadam hammadan oldinda turib qolgan ekan, chol eshikdan chiqa solib dadamga baqirdi:

– Ha, ha, meni yana urdirgani odam boshlab keldingmi? – dedi va hamla qildi.

Dadam orqaga chekindi.

– Men odam boshlab kelganim yo'q, hammaning o'z qulog'i bor. Birovning bolasini o'ldirib qo'yasiz-ku?.. – dedi.

Odamlar oraga tushdi. Biroq chol hech kimga qu-loq solmasdan dadamga o'shqirdi.

– Nima ishing bor, men sening xotiningni urayotibmanmi? Qizing bo'lsa qo'ynimga solib qo'y, ana undan keyin gapir! – dedi, keyin odamlarga yuzlandi: – Kim ekan u uyimga bostirib kiradigan?

Vofurush shovqin solib hammani haqorat qilavergandan keyin: «Bostirib kiramiz» degan yigit uni belidan olib uloqtirib yubordi. Vofurush yelka aralash boshi bilan tushdi. Kimdir uni turg'izib qo'ydi. Vo-

furush o'ng chakkasini ikki qo'llab ushlaganicha bo'g'iq tovush bilan voyvoylab ko'chaga tomon yo'naldi, eshikdan chiqqanidan keyin tovushi ochilib ketdi.

– Kelgindining dastidan dod! Tojiboy amin, fuqarolaringdan xabar olasanmi, yo'qmi! Tojiboy amin!..

Vofurush uzoqlashgan sayin qattiqroq baqirar edi. Hamma jim bo'lib qoldi. Kimdir: «Qochaver!» deb yugurganicha chiqib ketdi. Birov xunob bo'lib, birov kulib, birov so'kinib, hamma tarqala boshladi. Ayollardan bir necha kishi vofurushning uyiga kirib ketishdi. Ko'cha eshigi oldida dadam vofurushni otib urgan yigitdan o'pkaladi.

– Chakki qildingiz, uka, mana endi men baloga qolaman, – dedi.

Yigit vofurushni chaparasta qilib so'kkanidan keyin:

– Qo'rqmang, usta, qayoqqa chaqirtirsa, biz ham boramiz, – dedi. Uning so'zini bir necha kishi ma'qulladi.

Xuftondan kechroq dadamni amin chaqirtirdi. Dadam darrov chiqib boyagi qo'ni-qo'shniga xabar berdi. Mojaro ustida odam ko'p edi, lekin dadam bilan birga sakkiz kishi bordi, xolos.

Vofurushning uyiga kirgan xotinlardan biri kelib mojaroning sababini ayamga aytib berdi. Vofurush hovlining bir chekkasidan bir-ikkita mevasi qolgan gilosning shoxini topib olibdi-yu, «Buni senga kim berdi?» deb so'rabdi, Xayri «Ariqdan oqib keldi» degan ekan do'pposlay beribdi.

Dadam ko'p o'tmay qaytib keldi. Amin gapni ko'paytirmabdi, odamlarning gapiga ham quloq solmabdi, dadamga: «Qishloqdan beto'xtov ko'chib keting!» debdi. Dadam Yaypanda uchrab qolgan amakimning qaynatasi usta Turdialidan besh-olti tanga qarz olib kelgan ekan, shu yerda boshini bog'lab o'tirgan vofurushning bo'nagidan qolgan haqini, uyi va do'kon ijarasini beribdi, orani ochiq qilibdi.

Usta Turdiali Buvaydida turar, Yaypanga bir ish bilan kelgan ekan, Buvaydini dadamga maqtabdi: «O'n ikki machitlik katta qishloq, temirchi zotidan bitta o'zim», debdi.

Shunday qilib Yaypanga emas, Buvaydiga ko'chadigan bo'ldik. Ertasiga ko'ch-ko'ron va do'konning asbob-uskunasini aravaga ortib Qo'qonga yo'l oldik. Dadam bizni amakimning uyiga qo'yib, o'zi do'kon topgani Buvaydiga boradigan bo'ldi. Yo'lda amakim bilan kampir ko'z oldinga kelib, meni g'am bosdi, yashiriqcha yig'ladim.

Bir palla tarvuzning po'chog'i

Dadam bizni amakimning uyiga qo'yib, uy va do'kon topgani Kulala bilan Buvaydiga ketdi.

Ayam O'lmasoyning go'riga borib yig'lab keldi.

Amakim og'ir ishga yaramay qolibdi, ul-bul charxlab, otashkurak, kapgir, o'roq, randa singari yengil-yelpi narsalar yasab kun ko'rar ekan. Kampir haj qilish ko'yiga tushib qolibdi, besh vaqt namozidan keyin nuqul «baytillo» deb yig'lar ekan. G'afforjon hamon maktabga qatnar, nay puflar, kampir bilan birga ba'zan namoz o'qir ekan. Bularga qaraydigan Nisobuvi amakimdan qochmay qo'yibdi.

Xayriyat amakimning uyida ko'p turmadik. Dadam uch kun deganda Buvaydidan uy va do'kon topib keldi.

Buvaydiga ko'chdik.

Buvaydi haqiqatan katta va obod qishloq ekan. Uning markaziy ko'chasi samovar, bazzoz, hunarmandlar do'koni o'rnashgan baland timdan boshlandi. Undan nari ko'chaning ikki tomoni zich do'kon: baqqol, attor, qandolatchi, novvoy, sartarosh, yana samovar, biz tomonda kappon... Undan nari Eshon buvaning karvonsaroyi – bozor kunlari dehqonlar ot-ulovini shu yerga qo'yib bozor-o'charini qilar ekan.

Karvonsaroy darvozasining chap tomonida ayvonlik yangi do'kon, uning oldidan o'tadigan anhor ustiga taxta qoqilgan; darvozaning o'ng tomoni – saroydan qayrilib chiqadigan anhor ustiga ham odamning belidan keladigan balandlikda kattakon taxta so'ri qilingan. Bularning hammasiga yetti-sakkizta azamat tol soya solib turar edi.

Hovlimiz ko'chaning u yuzida, karvonsaroyning ro'parasidagi machitning orqasida, shu machitning vaqfi ekan. Ayam ko'rib suyunib ketdi. Qutichadek-kina hovli, uning ko'cha tomoni uzun ayvon; ayvondan kiriladigan va darchasi anvonga ochiladigan o'n bir yog'ochlik vassajuft uy, o'ng tomonda darchasiz bo'lsa ham yorug'lik tuynukdan tushib turadigan yana bir uy. Bu uydan machitga eshikcha, chorvoqchaga eshik qo'yilgan. Chorvoqcha katta bo'lmasa ham, ikki tup olcha, bir tup shaftoli, ikki kunda uzum, bir-ikki tup qizil gul bor ekan.

Hammamizning ham xursandligimiz cheksiz edi.

O'rnashib oldik. Do'konga o't solindi.

O'roq mavsumi o'tgan, ketmon mavsumiga hali uzoq edi. Dadam taqachilikni jinidan battar yomon ko'rsa ham, tirikchilik toshni yoradi, degandek, otni qornidan bog'lab taqalanadigan dorni tikib, taqa yasashga kirishdi. Qishloq kattakon bo'lgani uchun bu ish ham yomon bo'lmadi, ro'zg'orimiz tebranib turdi. Biroq falokat yuz berdi: ot taqalanayotganda uning orqa oyog'ini dumi bilan o'rab mahkam ushlab turishi kerak bo'lgan egasining beparvoligi orqasida ot tepib, dadamning qo'lini mayib qildi. Dadam qirq kuncha ishga yaramay qoldi.

Kulalaning qo'lidan faqat charxlash, tesha tovlash keladi, shu ham harna bo'lgani uchun ertadan kechgacha do'konni ochib o'tirardi. Ikkovimiz har xil o'yinlar o'ynaymiz; simni sandonning ustida bolg'a bilan tez-tez urib cho'g' qilamiz, yong'oq poylama

o'ynaymiz, oshiqning tovva tomonini teshib qo'rg'oshin quyamiz – hamisha olchi turadigan qilamiz, «kon» degan yumshoqroq toshdan soqqa yasaymiz, gugurtning dorisini paxtaga o'rab, sandonning ustida bolg'a bilan uramiz – qarsillab «to'pponcha» ota-miz... Ko'pincha bolalar yig'ilishadi.

Bilmadim kimdan o'rgangan ekan, Kulala bir kuni bolalarga alomat bir hunar ko'rsatdi: bir palla tarvuzning po'chog'iga ikki piyola suv quydi, suvga qog'oz yondirib tashladi-yu, yonib turgan qog'ozning ustiga piyolani to'ntarib qo'ydi. Piyola atrofidagi suvni ho'pladi, ho'plaganda ham po'rillatib ho'pladi. Qog'oz suvning betida yonganiga, piyola suvni po'rillatib ho'plaganiga hamma hayron, hatto ba'zi bolalarning rangi o'chdi. Kulala, bu hunarini faqat bir marta ko'rsatdi, bolalarning yalinishiga qaramay, qaytib ko'rsatmadi, tarvuzning po'chog'ini anhorga tashlab yubordi. Ertasiga kap-katta bolalar ham kelishdi. Bulardan biri tarvuz ko'tarib keldi. Kulala tarvuzni do'konga olib kirib qo'ydi-yu, bularga boshqa hunar ko'rsatdi: zulfinda osig'liq turgan qulfning kalitini olib, charxga qum bosiladigan taxtaning ustiga qo'ydi, ichida duo o'qib kalitga dam soldi. Kalitga jon kirdi, qimirladi. Hamma: «Uhl» deb yubordi. Kulala yana dam soldi. Kalit taxtaning ustida bir qarich siljidi, shundan keyin qayerni ko'rsatib «suf» desa, o'sha yerga borib turaverdi.

Hamma hayron, hamma Kulalaga vahima bilan qarar edi. Buning sirini bilish hech kimning aqliga kelmagani uchun Kulala taxtaning ostida jildirayotgan ohanraboni hech kim payqamas edi.

Men Kulalaning «ko'z baxshilik» qilganini dadamga aytgan edim, dadam Kulalani urishib berdi. Biroq voqea kundan-kun ovoza bo'lib, butun mahallaga, hatto qo'shni mahallalarga ham yoyildi. Kulalaning kalit

yurgizgani «duoning kuchi bilan qulf ochgan emish»-ga aylandi.

Shogirdi shunaqa bo'lsa ustasi qanaqa ekan? Kulala bu yoqda qolib dadam og'izga tushib ketdi. Dadam bu ovoznani qanchalik rad qilsa, unga odamlarning ixlosi shuncha ortar edi.

Ayam ko'ziga yosh olib, dadamdan o'pkaladi:

– Shuncha ilmingiz bor ekan, bir og'iz aytmay siz... Shuncha bolamizni qora yer bag'riga qo'ydik...

Dadam yolg'ondan qovog'ini solib:

– Mening ilmim o'zimga o'tmaydi, – dedi.

Bir kuni dadam shu yerdan orttirgan o'rtog'i Ali laylakning dalasiga qovun sayiliga ketdi. Shu kuni peshinga yaqin ko'cha eshigi ochilib, kattakon dasturxon ko'targan bir bola, uning ketidan yangi safsar duxoba paranji yopingan bir xotin kirdi. Bola dasturxonni ayamning qo'liga berib chiqib ketdi. Xotin chimmatini orqaga tashlab, ayam bilan juda qadrdon dugonaday ko'rishdi, hol-ahvol so'radi. Uning shirin-so'zligidan va savlatidan ayam anqayib qoldi. Juvonning egnida xonatlas ko'ylak, boshida farang durra, ko'kragida bozvon, bo'ynida bir necha qator qizil marjon, quloqlarida baldoq... Ayam ayvonga palos soldi, yakandoz yozdi. Juvon amirkon kavushini yechib, yakandozga chiqdi, o'tirishi bilan ikki chakkasidagi gajagini bosib-bosib qo'ydi, keyin enli o'sma tortilgan qoshlarini chimirib, g'amza bilan:

– O'tiring, ovora bo'lmang!.. – dedi va keng yengi bilan yelpindi. – Shuncha kelaman deyman, ro'zg'or o'lsin, uydan hech chiqolmayman!

Ayam choy damlab keldi. Juvon uni etagidan tortib o'tqazdi, boshqa turgani qo'ymadi.

Juvon Qo'qonning Shayxulislom guzaridan Norbo'ta degan boyning qizi bo'lib, otasi poshsholikka bug'doy sotar, bu ishdan sinib abgor bo'lganidan keyin qizini

buvaydilik Chilon qoriga¹ to'rtinchi xotin qilib beribdi. Chilon qori uni uch-to'rt yil kaftida ko'tarib yuribdi-yu, oyma-oyiga sakkiz oydan beri qaramaydigan bo'lib qolibdi. Juvon bu yog'i Shoposhshadagi allaqaysi bir shayxdan tortib, Qo'qondagi G'ishtko'prik folbinlari-gacha rom ochiribdi. Hamma rom bir joydan chiqib: «Juvon bu xususda o'rtancha kundoshidan gumondor ekan. Uning kuyib-pishib aytishiga qaraganda, bola ko'rmaganining sababi ham o'sha kundoshi ilm-u amal qilib pushtini kuydirgani ekan. Uning bu yerga kelishidan murodi qaytarma qildirish va kundoshi-ning ilm-u amalini duo bilan kuydirtirish ekan. Juvon zor-zor yig'lar, ayamga yolvorar, uning yelkalarini silar, oyoqlariga bosh qo'yguday bo'lar edi. Ayam har ish qo'lidan keladigan-u tarang qilgan bir alpozda:

– Mening erim temirchi-ku, – dedi.

Juvon yana yig'ladi:

– O'rgilay, sadag'alari ketay temirchi bo'lsalar! Madali piyrim ham dukchilik qilganlar!..

Juvon yana yig'ladi, shu qadar kunib yig'ladi-ki, kechqurun dadam kelganda ayam bir mungliq-mushtiparning hojatini chiqarishini yolvorib so'radi. Dadam bu gapni eshitib avval kuldi, keyin qovog'ini solib: «Agar bu gap o'rtamizda qolsa, birovga og'zidan chiqarmasa, mayli, suv tegmagan bitta ko'zacha olib kelsin», dedi.

Juvon ertasiga xabar oldi, indiniga suv tegmagan ko'zacha ko'tarib keldi. Dadam ko'zachadagi suvga dam solib, qaytarma qilib berdi. Juvon bu suvdan eriga choy qaynatib berishi kerak ekan.

Bir necha kundan keyin uyimizga bukchaygan bir kampir keldi. Kampir eshikdan kirishi bilanoq yerga cho'nqayib «usta piyrim»ni duo qildi, yig'lab kelinini qarg'adi.

¹ Chilon – ruscha «член» so'zining buzilgani. Qori – biron shirkatning a'zosi bo'lsa kerak.

– Juvon o'lgur o'g'limning til-jag'ini bog'lab olgan. O'g'lim o'shaning chizgan chizig'idan chiqmaydi, o'sha kelib dasturxonga o'tirmaguncha ovqatga qo'l uzatmaydi. Uch yillik kelin eridan hali bir shapati yegani yo'q. Xudoyo niyatingizga yeting, usta piyrimga ayting, shu bolaning til-jag'ini ochib bersinlar, bola bechora dunyoga shundoq kelib, shundoq ketavermasin...

Bu to'g'rida ham ayam o'rtağa tushdi. Dadam bu kampirning ham hojatini chiqarib, o'g'lining til-jag'ini ochgani bir qaynatim choyga dam solib berdi.

Shunday qilib uyimizga xotin-xalaj serqatnov bo'lib qoldi. Dastlabki kunlarda dadam bu ishdan o'zini mumkin qadar tortib ayamni qistatgan bo'lsa, keyinchalik xotinlarni ham, ayamni ham ko'p yalintirmay qo'ydi. Xotinlar machit tomondan kelib eshikchadan to'g'ri «chiltonxona»ga kiradigan bo'lishdi.

Ro'zaning so'nggi kunlari edi. Namozgar paytida ko'chada qiy-chuv, dod-faryod bo'lib qoldi. Dadamning ketidan men ham yugurib chiqdim. Mahallada Obid tajang degan novcha, ozg'in bir bangi bor edi, shu odam ko'chaning oxiridan hayqirib, xotinini urib-tepib kelayotibdi. Xotin bizning eshikdan o'tganda o'ng qo'ldagi hovliga qochib kirdi. Dadam uning ketidan kirmoqchi bo'lgan Obid tajangning yo'lini to'sdi.

– Obid aka, qo'ying, ro'zachilik, iftorga yaqin qoldi... – dedi.

Obid tajang to'xtadi, qizargan ko'zlari bilan dadamga yeb qo'ygudek bo'lib qaradi-yu chaparasta qilib so'ka ketdi:

– He o'sha... kelgindi! Ko'chmanchi! Sen ro'zadan gapirma, sen tutgan ro'za harom! Temirchi bo'lib bir marta bolg'a urganingni ko'rganim yo'q, nuqul xotin-xalajga don sepa-san!

Dadam indamay uyga kirib ketdi.

Keyinchalik bu gapning tagi chiqdi. Dadamning «chiltonxona»si to'g'risida mahallada gap o'rmalab qolgan, dadam farzand talab bo'lib kelgan bir juvonga

rostmi, yolg'onmi, tegishgan emish. Bu gapni ayamga Ali laylakning xotini yetkazibdi. Ali laylakning o'zi ham xunuk bir xabar topib keldi: mahallaning yigitlari biron kishiga paranji yopintirib «chiltonxona»ga kirgizmoqchi, dadam biron nojo'ya harakat qilgan taqdirda machitga sudrab chiqib, hovuzga pishib rosa urmoqchi bo'lishibdi.

Ayam «chiltonxona» to'g'risidagi gapga uncha ishonmasa ham, ehtiyotan g'ashlik qildi.

Dadam deyarli har kuni ayamga har xil jangnomalar, «Bahoridonish» singari qiziq-qiziq hikoya kitoblar o'qib berar edi, bir kuni qo'liga «Kitobi bahri durar» tushib qoldi. Bu kitobdan shunday gap chiqib qoldi: «Odamzotning har yelkasida bittadan farishta o'tiradi, o'ng yelkasida o'tirgan farishta uning savob ishlarini, chap yelkasida o'tirgan farishta uning gunohlarini yozadi...»

Ayam tortinibroq so'z qistirdi:

– Sizning chap yelkangizga Xudoyi taolo ikkita farishta qo'ysa ham kamlik qiladi, – dedi.

Dadam talmovsiradi.

– Nega, o'g'ri bo'lmasam, birovning haqini yemasam?.. Namoz o'qimayman, xolos, Xudoning o'zi kechiradi...

Ayam yig'lab yubordi:

– Og'iroyoqman... Nima bo'lishini bilmayman. Uydan farishta qochdi... Harom, hamma yoq harom...

Ayam Ali laylakning xotinidan eshitgan gaplarini, o'zining gumonlarini to'kib soldi. Dadam avval kuldi, keyin bu tuhmatlarga chiday olmasdan «Kitobi bahri durar» bilan ayamning yelkasiga urdi va shovqin soldi.

– Men azayimxonmidim? Mungliq-mushtiparlarning hojatini chiqaring, deb yalingan kim? – dedi, keyin ayamni urganiga pushaymon bo'ldi shekilli, buni ko'nglidan chiqarish uchun yumshadi. – Bir palla tarvuzning po'chog'idan shuncha ish chiqishini qayoqdan bilay!

Dadam Ali laylakning xotini aytgan gaplar bo'hton, ayamning gumonlari behuda ekanini isbot qilishga kirishdi. Nazarimda ayam uning hamma gapiga ishondi.

Oradan ko'p o'tmay dadam kutib yurgan ish bo'ldi – «chiltonxona»ga bir yigit paranji yopinib kiribdi. Dadam buni payqab paranjilik yigitni duo bilan qarshi olibdi, shivirlab uzundan-uzoq bir oyatni o'qish bilan uning hojatini chiqaribdi, duo o'qib kuzatibdi. Buni dadam do'konda Ali laylakka kula-kula gapirib berdi.

Dadam azayimxonlikni bas qildi, kelgan xotin-xalajni «duo menga yuk tashladi», deb qaytaraverdi. Biroq «duo yuk tashlagan temirchi pirim»ga xotinlarning ixlosi kundan-kun ortar, eshikdan qo'ymasa teshikdan kirishar edi.

Valixon so'fi

Kuz juda erta va shamol-to'polon bilan boshlandi. Ishimiz yurishib ketdi. Do'konimiz azamat tollar ostida va ayvoni bo'lishiga qaramay, kunduzi ham eshikni yopib, chirog' bilan ishlar edik. Kuzda qo'lning orqasi, barmoqlar yoriladi, gugurt cho'pi siqqunday, undan ham kattaroq bo'lib yoriladi. Buning birdan-bir davosi qora saqich, qora saqichni o'tga toblab yoriqqa bosiladi.

Dadam bir kechasi kitobxonlikdan keyin, yotish mahalida qora saqichii chiroqqa toblab qo'liga bosar ekan, birdan, «Abdullani maktabga beraman, har qancha saqich bo'lsa men bosib bo'ldim», deb qoldi. Men qo'rqib ketdim, chunki maktabning ta'rifini ko'p eshitgan edim: domla behining novdasi bilan uradi, moshga cho'khalatadi, falaqqa osadi... Bir qassob yetaklab ketayotgan echkisi yurmay tarxashlik qilganda: «Ey jonivor, yuraversang-chi, men seni maktabga olib ketayotganim yo'q, kushxonaga olib ketayotibman-ku», degan ekan...

Men dadamning bu gapiga «joni og'riganda aytdi qo'ydi-da» deb qo'ya qoldim, chunki dadam mening temirchi bo'lishimni xohlar, esimni taniganimdan beri o'yinchoqlarim temirchilik asboblari bo'lgan, «temirchilik qilib» uydagi biron buyumga ziyon yetkizsam, hatto buzib qo'ysam ham meni hech kim qattiq urishmas edi.

Dadam do'konga kun chiqmasdan ketar, men dam bosgani kun yoyilganda borar edim. Ertasiga do'konga borsam, dadam bitta patnisga oltita non, yarim qadoqcha pashmak holva solib dasturxon qilib qo'yan ekan, shuni ko'tarib meni yetakladi-yu, machitga olib kirdi va machitimizning so'fisi hoji do'ppi kiygan Balixon so'figa: «Suyagi meniki, eti sizniki, taqsir», deb topshirdi. Valixon so'fi: «O'g'lingiz mullo bo'lsin», deb yuziga fотиha tortdi. Dadam ketdi. Men domlarning yoniga cho'kkalab birinchi saboqni oldim.

Machitning qop-qora va qorong'i hujrasi, o'ttizga yaqin bola atrofga tizilishib, har qaysisi o'z sabog'ini pishitar, hujra behisob chumchuq chug'urlayotgan sadaqayrag'ochga o'xshar edi. Bolalar javrashdan charchab yoki bezor bo'lib chug'ur-chug'ur pasaysa, Valixon so'fi ingichka, urishqoq jo'jaxo'rozning bo'yniday qip-qizil bo'ynini cho'zib bolalarga ko'z olaytirar, bu ham ta'sir qilmasa malla avra to'ning uzun yengini asta shimarib, uzun gavronni qo'lga olar, shunda chug'ur-chug'ur yana avjiga chiqar edi.

Ikki hafta harflar yozilgan «taxta» o'qiganimdan keyim domla: «Shanba kuni haftiyakka tushasan, dadangga ayt, haftiyak olib bersin», dedi. Juda suyundim. Dadam darrov haftiyak olib keldi. Ayam «Xudoga ming qatla shukr», deb haftiyakka bo'zdan jild tikib berdi.

Shanba kuni oltita chapchap, to'rtta shirmon, bir qadoqcha sovunak holva, mushtday-mushtday ikki yumaloq novvotni dasturxon qilib berishdi. Shu kuni

haftiyakdan birinchi saboq oldim. Men haftiyakdan oldin «taxta» o'qigan bo'lsam ham, «taxta» bilan haftiyak orasida biron munosabat borligidan bexabar xatga qaramasdan domlanning aytganini takrorladim:

«Apalamza al, hevamiza ham alham, dol pishdi alhamdu».

Men bu saboqni kuni bo'yi pishitdim, ertasiga ham shiftga qarab takrorlayotgan edim, qarasam, darchada dadam turibdi. Dadam meni imlab chaqirdi. Dadam kelganini ko'rib, ketimdan domlam ham chiqdi:

– Qani, o'qi, o'qil – dedi dadam.

Men boyagi o'qiganimni aynan takrorlagan edim, dadam kuldi.

– Apalamza al? – dedi va domlaga yuzlandi: – Taqsir, bu nima deyapti?

Domla menga «alhamdu»ni ikki-uch marta o'qitib eshitdi, og'ir-og'ir kiprik qoqib o'ylanib qoldi-da, nihoyat dedi:

– Bolangizning zehni o'tkir! – dedi.

Dadam yana kuldi:

– Bolamning zehnini bilmayman, lekin vaqtida o'zlarining zehnlari qalay edi?

Domla gangib qoldi.

– Nima edi... g'alatmi? O'qiganimizni o'qitamiz, esdan chiqqan bo'lsa ajab emas...

– Yo'q, taqsir, esingizdan chiqqan emas, vaqtida uqmasdan o'qigan bo'lsangiz kerak. Hali ham bo'lsa o'qib oling: apalamza al emas, alifning ustida zabar, lomning ustida sokin bor – «al» o'qiladi!

Dadam «alhamdu»ni to'liq hijolab berdi-yu, meni qo'limdan yetakladi. Domla ketimizdan: «Mening maktabimda Chilon qorining o'g'li o'qiydi, Abdurahmon hojining o'g'li o'qiydi», yana allanimalar degani-cha qolaverdi. Biz machitdan chiqib ketdik.

Do'konga kelib dadam damning arqonini qo'limga tutqizdi: «Mana buni ushla, o'g'lim, men seni o'zim

o'qitaman», dedi va so'fini so'ka-so'ka voqeani shu yerda o'tirgan bir-ikki kishiga gapirib berdi.

Dadam va'dasida turdi: har kuni kechasi kitob o'qiganida o'qiyotgan satrlari ostida barmog'ini yurgizib so'zlarni menga ko'rsatadigan bo'ldi. Men ko'zimga jo'nroq ko'ringan so'zlarni boshqa vaqtlarda ko'mir bilan eshikka, devorga yozib yurar edim. Shunday qilib men o'qishni harf tanishdan emas, so'z tanishdan, so'zlarning yozilishi va o'qilishidan boshladim. Qayerda «alqissa», «xachir», «savdogar», «No'shiravon», «payg'ambar», «jang» degan so'zlarni ko'rib qolsam, darrov o'qib tashlar edim.

Valixon so'fi dadamdan bir-ikki kun arazlab yurdi-yu, oradan o'tgan gap tarqalib ketsa maktabdorlik nonidan benasib bo'lishdan qo'rqdi shekilli, bir kuni do'konga keldi.

– Usta, o'g'lingizni damga solar ekansiz, maktabdan to'g'rilikcha chiqarib olsangiz ham bo'lar edi-ku. Xo'p, bo'lar ish bo'ldi, endi shu gap oramizda qolsin, – dedi.

So'fi otasining davlatida o'qib olmagani, tirikchilik og'ir ekani, machitning butun vaqfini imom, qolaversa mutavalli yeb, so'figa faqat yalatganidan hasrat qildi. So'fi faqat azon aytish-u, hol-baqudrat maktab tutishnigina bilar, maktab qo'lidan ketsa so'filikdan keladigan daromad tirikchilikka urvoq ham bo'lmas ekan. Dadam yopig'liq qozon yopig'liq qolishiga so'fini ishontirib jo'natdi.

Biroq dadam meni maktabdan nima uchun tortib olgani allaqachonlar tarqalgan, mening o'zim maktab bolalardan bir qanchasiga aytgan edim. Oradan ko'p o'tmay bolalarning yarmi maktabdan ketib qolibdi. So'fi bir kuni do'konimizga yana, lekin bu safar go'yo dadamga achingan bo'lib, aslida esa do'q-po'pisa bilan keldi.

– Dunyoda kim ko'p, g'alamis ko'p. Kecha bir-ikki g'alamis imomga arz qilib qoldi: «Temirchi namoz

vaqtida taraqlatadi, ba'zan sizning «Olohu akbar» deganingizni eshitmay qolamiz», dedi. Men hammasini jerkib tashladim, imomga tushuntirdim...

So'fi shu bilan «tilingni tiysang tiyganing, yo'qsa bu yerdan ko'chirib yuborish ham qo'limdan keladi», demoqchi edi. Dadamning achchig'i keldi.

– Taqsir, temirchilik Hasti Dovuddan qolgan hunar, bu ham savob ish. Hazrati Ali bir sohibqiron kofir bilan yetmish botmonlik zanjir tortishganlarini, kofirni sudrab musulmon diniga kirgizganlarini bilasizmi?

So'fi shoshib:

– Bilaman, bilaman! – dedi.

– Bilsangiz, hazrat Ali kofir bilan tortishgan yetmish botmonlik o'sha zanjirni temirchi yasab bergan.

So'fi o'zini dono va bilimdon ko'rsatish uchun:

– Yo Bahovaddin! Gapimiz bir joydan chiqqani ni qarang, imomga men ham xuddi shundoq degan edim-a! Bemalol ishlayvering, bemalol taraqlatavering, o'zim bor... Mening bir yog'im mingboshi dodxoh, bir yog'im yuzboshi... Yuzboshi har hayit meni yo'qlab turadilar, mana shu hoji do'ppini o'sha kishi berganlar... – dedi.

Soxta g'amxo'rlik ostida do'q-po'pisa, mingboshi, dodxoh va Buvaydining manman degan, hatto mansabdorlarga ham so'zi o'tadigan yuzboshi haqidagi bu gaplarning zamirida o'sha muddao – dadamning tilini tiydirish, tarqab borayotgan maktabni tutib qolish muddaosi bor edi.

Oradan bir-ikki hafta o'tar-o'tmas maktab butkul tarqab ketdi. Bolalarning bir qismi timdan nari katta machitdagi, bir qismi to'g'onboshilik bir otinoyi ochgan maktabga ketib qoldi. Bu hol so'fining dadamga adovatini oshirib yubordi. So'fi har qayerda har vaj bilan dadamning payini qirqa boshladi.

Kuz shamol-to'polon bilan boshlangan bo'lsa ham hademay havolar qayta isib ketdi. Bu g'ani-

mat kunlarni qoʻldan bermaslik uchun dehqonlar shudgor qilishga, yer agʻdarishga shoshilar, yerni tizza boʻyi va undan ham chuqurroq agʻdargani olti, sakkiz, hatto oʻn-oʻn ikki qadoqli yangi ketmonlar buyurtirishar edi.

Bir hafta juma kuni ham ishladik. Shunda soʻfi namozdan keyin uch-toʻrtta namozxonni chekkaga tortib igʻvo qilibdi: «Bu kelgindi oʻzi namoz oʻqimaydi, buning ustiga moʻminlarning qulogʻini qomatga keltiradi, koʻchirib yuborish kerak», debdi, ularni dadamga qarshi qayrab solmoqchi boʻlibdi. Biroq uning qutqusiga hech kim quloq solmabdi, chunki temirchi faqat dehqonga emas, besh vaqt namozni kanda qilmaydigan, ertadan kechgacha tasbeh oʻgʻirishdan boʻshamaydigan xudojoʻylarga ham kerak, shular ham yerdan chiqqanni yeydi, kiyadi. Dadam Ali laylakdan bu gapni eshitib kulib qoʻya qoldi. Lekin Ali laylakning qoni qaynab ketdi. Soʻfi yana sasiyvergan ekan, Ali laylak bir kuni soʻfini xilvatga tortib, toʻqmoqday mushtini uning iyagiga tirabdi: «Ustani tirikchilik qilgani qoʻyasanmi, yo kekirdagingni sugʻurib qoʻlingga beraymi», debdi. Soʻfi yalinib-yolvorib uning qoʻlidan zoʻrgʻa qutulibdi, lekin toʻgʻri borib yuzboshiga arz qilibdi, «Ali laylak bir kelgindi temirchini deb meni urmoqchi boʻldi», debdi. Yuzboshi bu gapni mingboshiga aytib, qozixonada Ali laylakni oʻn olti darra urdiribdi.

Ali laylak gap yer edi, shu chorshanba – darra yegan kuni ertasi uning navbati ekan, gapga dadamni ham aytdi. Joʻralar oʻn toʻqqiz kishi ekan. Ali laylakning darra yegani, shu munosabat bilan Valixon soʻfi toʻgʻrisida soʻz boʻlibdi. Joʻralar soʻfining dadamni bu yerdan koʻchirtirish niyati borligini, buning sababini eshitib dargʻazab boʻlishibdi. Birov soʻfi yuzboshining yuvindixoʻri, yana birov mnigboshining voqeanavisi ekanini aytibdi. Butun kecha shu haqda gap boʻlib,

soʻfining adabini berish toʻgʻrisida har xil takliflar boʻlibdi, birov «soʻfini «haytov»ga solish kerak» debdi – «haytov»ga solinadigan kishini aldab mehmonxonaga olib kirilar, hamma «haytov» deb shovqin solayotganda bir necha kishi uni bosib, dodlaganiga quloq solmay, soqol-moʻylovini qirib tashlar ekan; birov, kaltakesak yedirib soʻfini pes qilish kerak, pes boʻlsa soʻfilikdan bekor boʻladi, debdi; birov, soʻfiga eshakning miyasini yedirib jinni qilish kerak, debdi; birov uni «chirogʻpoya» qilishni taklif qilibdi, «chirogʻpoya» boʻlgan kishi qishloqdan qochib ketishga majbur boʻlar ekan.

Bu gaplar, albatta, qiziq ustida, bundan tashqari oʻn olti darradan hanuz toʻlgʻonayotgan kishining yuziga qarab aytilgan gaplar, agar soʻfi boshqa biron qilmishi bilan joʻralarning gʻashiga tegmaganda, ehtimol, qolib ketar edi.

Shu orada Valixon soʻfining jagʻini ochadigan bir hodisa yuz berdi.

Bir kuni Buvaydining manman degan boyi – juvoz-kundaga oʻxshagan yum-yumaloq yuzboshi koʻchadan piyoda oʻtib ketayotib doʻkonimizga tomon bir qaradi-yu, toʻsatdan burildi, ayvonga kirdi; devorga suyak qoʻyilgan ikkita jodini koʻzdan kechirdi-da, bit-tasining kundasiga shappalab:

– Usta, mana shunisini bizning hovliga eltib tash-lagin! – dedi.

Uning bu gapi, ayniqsa sensiragani dadamga qattiq malol keldi shekilli, bir qoshi past, bir qoshi baland boʻldi-yu, burilib ketayotgan yuzboshining ketidan:

– Odam yuboring, chaqasini tashlab olib ketsin, – dedi va ishini qilaverdi.

Men qoʻrqib ketdim: bu odam yuzboshi ekanini – soʻfini har hayit yoʻqlaydigan, unga hoji doʻppi bergan oʻsha yuzboshi ekanini dadam bilib turib shunday dedimi, yo bilmasdan gapirdimi?

Yuzboshi birdan to'xtadi, qayrildi, quloqlariga ishonmaganday dadamga qaradi-da, to'rlagan kalta bo'yni qizarib ketdi. U bir nima demoqchi bo'ldi-yu demadi, burilib ketaverdi.

Yuzboshi shunda aytadigan gapini aytib, hordig'ini chiqarib olsa ham bo'lar ekan, kuni bo'yi bu alamni ko'ksidan chiqarolmapti, kechqurun tinning tagidagi samovarda karillab o'tirib, bir bahona bilan dadamni xo'p so'kibdi.

– Tub joy itdan ko'ra, musofir itning quturgani yomon bo'ladi! – debdi.

Shunda yuzboshiga choy quyib berib o'tirgan Valixon so'fi dadam haqida bir talay nojo'ya gaplarni gapirgandan keyin:

– Namoz o'qimaydi, namozni pisand qilmaydi, bu odamni musulmon deb bo'lmaydi! – debdi.

Yuzboshiday odam, yana so'fi bir kelgindi haqida shunday degandan keyin, albatta bularning gapi yerda qolmaydi. Qandolatchi – baqqol, dadamda hech qasdi bo'lmasa ham, yuzboshi bilan so'fining gaplarini tasdiqlovchi bir dalil ko'rsatishni lozim ko'ribdi, dadam shahardan nima bo'lib izvoshda kelganini eshitgan ekan, shuni nazarda tutib:

– Bu temirchi hozirgi turishida gubernatordan kam emas, izvoshdan tushmaydi! – debdi.

Shu bahonada yuzboshiga surkanib qolishni istagan boshqa odamlar ham topilibdi. Bulardan biri: «Usta asbobini aytganiga sotadi», debdi, yana biri «chiltonxona» to'g'risida qulog'iga kirgan gaplarni bir juvoz qilib: «Qishloqni naqs bosib ketdi», debdi.

Bu gaplarni dadamga jo'ralaridan biri goh kulib, goh xit bo'lib gapirib berdi, o'git maqomida:

– Qishloqning bo'risi ham yuzboshi, tulkisi ham yuzboshi, bu bilan chap chiqishmang, o'sha jodini uyiga eltib bersangiz bo'lar edi, – dedi.

Shundan keyin soʻfiga Xudo berdi: dadamni har qayerda va har vaj bilan yomonlaydigan, har narsadan bir ishkal topib xarxasha qiladigan boʻldi: Jarbuloqdan dadamning jiyani kelgan edi, bu bola kimdandir chayonning suratini chizishni oʻrgangan ekan, machitdagi hovuz atrofiga oʻrnatilgan panjara-ning bir necha joyiga chayonning suratini chizibdi. Soʻfi buni koʻrib doʻkonga shovqin-suron bilan keldi: «Qiyomatda chayonga kim jon topib beradi», deb xoʻp chiyilladi; bir kuni imomning hujrasidan uning koʻknor tuyadigan qayrogʻi yoʻqolibdi, shu kuni machitga Kulala kirgan ekan, soʻfi toʻgʻri kelib Kulalani doʻpposlay ketdi.

Dadam uning xarxasha-mashmashalaridan bezor boʻlib, Ali laylakning joʻralaridan Parpivoy degan yigitni oʻrtaga qoʻydi va soʻfining hamma shartini qabul qilishga tayyor ekanini bildirib, «yarashaylik» dedi. Soʻfi koʻnmabdi, «Men bu chala kofirni mahalladan koʻchirmay oʻlsam goʻrimda tikka turaman», debdi. Kofirdan chala kofir yomon, kofirni Xudo yaratgan, chala kofir shaytonning vasvasasi bilan kofir boʻlgan emish. Parpivoy bu gapni juda tutaqib, soʻfini soʻkib gapirdi.

Shundan keyin Ali laylakning joʻralari Valixon soʻfini soʻflikdan bekor qilishga bel bogʻlashdi.

Joʻralar oʻrtaga tashlagan choralardan faqat eshakning miyasini berib soʻfini jinni qilish maʼqul koʻrilibdi, chunki «haytov»ga solib soqol-moʻylabi qirib tashlansa, bu kasofat soqol-moʻylabsiz ham azon aytaverishdan toymaydi, kaltakesak hali chiqqan emas, «chirogʻpoya» xatarli ekan.

Bozor kuni dadam bilan Ali laylak bitta choʻloq eshakni sotib olishdi, Bastomi qumiga eltib, tunuka qutichada miyasini olib kelishdi. Kulala daladan koʻkat terib keldi. Bundan ayam oʻqchib-oʻqchib sakkizta somsa yasadi. Parpivoy soʻfini samovarga

olib kirib, kuz ko'katidan bo'lgan «dori somsa»ni oldiga qo'yibdi. So'fi ikkita choy bilan sakkizta somsani paqqos tushirib, uzun duo qilibdi.

Dadam bu ishni qilishda zarracha tap tortmagan bo'lsa ham, so'fining somsa yeganini eshitib rangi o'chdi, peshingacha qo'li ishga bormadi, nazarimda, so'fining azon aytish o'rniga hangrashini, hangrabcho'chchanglab machitdan chiqib kelishini kutar edi. Kulala ikkovimiz ham shunday kayfiyatda azonni orziqib kutardik.

Yo'q, so'fi peshinga azonni, chamamda odatdagidan ko'ra pastroq, lekin tutilmasdan aytdi. Dadam beixtiyor machitga tomon qaradi. Bu qarashda xayriyat va shu bilan birga norozilik ma'nosi yotar edi.

So'fi namozgarda ham adashmadi. Shomga yaqin Ali laylak va uning jo'ralaridan besh-olti kishi do'konga kelishdi, hammasi ham imo-ishora bilan dadamdan: «So'fi qalay?» deb so'rashdi. Dadam kulib bosh chayqadi.

Oradan bir hafta o'tdi. Dadam har kuni azonga diqqat bilan quloq solar, oxirda xunob bo'lib: «Adashmayapti, xumpar!» deb qo'yar edi.

Shundan keyin Parpivoy boshliq sho'x jo'ralardan uch-to'rt kishi boshqalar bilan maslahatsiz-nemisiz Valixon so'fini «chirog'poya» qilishibdi: so'fnii yarim kechasi tutib, og'ziga hoji do'ppisini tiqishibdi, oyog'ini osmonga qilib, tinning ustuniga mahkam bog'lashibdi-da, orqasiga sham o'rnatib yoqib ketishipti. So'fi shu alpozda sahargacha «chirog'poya» bo'lib turibdi...

Buni eldan burun ko'rgan samovarchi tugayotgan shamni sug'urib tashlabdi, qo'rquv va qiynoqdan o'lar holatga yetgan so'fini yechib olibdi va uyiga eltib qo'yibdi.

«Chirog'poya» qilganlar, albatta, so'fi qishloqdan qochib ketdi, deb o'ylashgan, biroq dadam bilan Ali

laylak juda katta tashvishga qolishdi: so'fi qishloqdan qochib ketsa-ku xo'p, qochib ketmasa, yuziga charm qoplab: «Meni Ali laylak bilan temirchi usta shu ahvolga soldi», deb yuzboshiga, mingboshiga arz qilsa nima bo'ladi?

Dadam so'figa yon berish va shu bilan uni insofga keltirish maqsadida boshqa mahalladan uy qidirdi.

Odami zavodi

Uy tezda topilavermadi. Toleyimizga Valixon so'fi uzoq yotib qoldi. Buning ustiga uning tilini tiyadigan bir hodisa ro'y berdi.

Narigi mahalladagi Olim sarkor deganning bog'ida ko'k shapka kiygan zindambir¹ to'ralar turishar edi. Bular yer-suv ishlariga qarashsa kerak, anhorga ola tayoq o'rnatib, odamlarning aytishiga qaraganda, suv o'lchashar, dehqonlarning yeriga qora nomerlar qoqishar edi. Bular to'qima-savat izvoshni shaldiratib do'konimiz oldidan tez-tez shaharga o'tishar edi. Bir kuni mana shu shaldiroq izvoshning oldingi o'qi sinib qolibdi. O'sha zindambirlardan biri yosh bir barina bilan izvoshning o'qini yamatgani do'konimizga kelishdi. Dadam bularga «eshak» qo'yib berib, o'zi o'qni izvoshdan olishga kirishdi. Zindambir o'tirmay dadamga qarashdi. Barina meni gapga soldi. Uning menga bergan savollariga dadam tushunganicha javob berib turdi-yu, barina uyimizni ko'rmoqchi bo'ldi shekilli, dadam menga imo qildi. Men uni hovlimizga boshlab bordim.

Farzand dog'ini ko'ra-ko'ra jonida jon qolmagan ayam oy-kuni yaqinlashgan sayin hali tug'ilmagan bolaning o'lib qolishidan vahimaga tushar, goh oshkora, goh pinhoni yig'lar edi. Barina ayam bilan qo'l berib so'rashdi, uyimizni, turish-turmushimizni ko'rди, hatto sandalga o'tirdi. Ayam uning imo-ishora

¹ Zindambir – yer o'lchovi.

bilan bergan savollariga imo-ishora bilan javob berar, qornini ko'rsatib yig'lar edi. Barina bir nimalar deb uning qornini, boshini siladi, keyin, ayam aytmoqchi «durbin»ga solib ko'rdi. Barina durbinda ko'rganidan keyin nima der ekan, deb ayam vahima ichida tin olmay ko'zlari javdirab turar edi. Barina uning qorniga shappalab «yaxshi» deb qo'ydi. Keyinchalik bilsam barina ayamning suratini olgan ekan-u, ayam «ichimni durbinda ko'rib, yaxshi dedi», deb suyunib yuribdi.

Biz do'konga chiqqanimizda dadam o'qni yamab izvoshga qo'yayotgan ekan. Barina zindambirga goh kulib, goh achinib bir nimalar dedi. Zindambir dadam bilan gaplashdi. Orada «doktorxona» degan gap ko'p aylanib qoldi.

Bular Qo'qonning Ko'mir bozori mahallasida doktorxona ochilganini aytib, ayamni o'sha yerga olib borishni maslahat berishibdi.

Mahallada obro'yimiz oshib ketdi. Nazarimda dadam deb duv-duv gap bo'lib ketdi.

Shundan keyin mahallada «temirchining to'ralardan oshnasi bor ekan», «temirchining uyiga barina kelibdi», endi Valixon so'fi tugul undan kattarog'idan ham qo'rqmas edi. Shu munosabat bilan Ali laylak, uning jo'ralaridfn bir necha kishi qulluq bo'lsinga kelishdi.

Dadam ayamni o'sha doktorxonaga olib borishga jazm qildi. Barina ichini durbinda ko'rib «yaxshi» deganiga shunchalik suyungan ayam, albatta, doktorxonada tug'ishga darrov rozi bo'ldi.

Ish qistov bo'lishiga qaramay, dadam bir necha kundan keyin Qo'qonga borib doktorxonani, uning shart-sharoitini ko'rib, bilib keldi. Doktorxona haqiqatan Ko'mir bozorida, kichik ammamning uyiga yaqin ko'chaning ichida ekan. Bu haqda ammamdan ham, uning eri taqachi usta Mo'mindan ham tayinlik bir gap chiqmabdi. Lekin usta Mo'min, shu mahal-

lalik allakim degan bir musulmon etikdo'zning o'ris-dan olgan xotini doktorxonada tilmoch, deb eshitgan ekan. Dadam shu etikdo'zga uchrabdi. Dadamning mo'ljaliga ko'ra, yigirma besh so'm pul bo'lsa hamma xarajatga yetar ekan.

Dadam ko'zini chirt yumib, Ali laylak va uning jo'ralaridan qarzga yigirma besh so'm yig'ib oldi. O'sha kun yaqinlashganda Qo'qonga jo'nadik.

Biz kichik ammamning uyiga tushdik. Ertasiga amakim bilan kampir keldi. Bizning nima maqsadda kelganimizni eshitib, kampir dod-faryod ko'tardi.

– Nechuk ekanki mening nevaram o'risning qo'li-da tug'ilar ekan! Voy, nevaraginamning qulog'iga kim azon aytadi!

Qani endi dadamning tushuntirib, aldab aytgan gaplari kampirning qulog'iga kirsal! Nihoyat, dadam tutaqib ketdi.

– O'risga nima qipti! O'risni men yaratibmanmi! – deb shovqin soldi.

Amakim bularni murosaga keltirdi.

– Mayli, bolaning qulog'iga azonni Abduqahhor-ning o'zi aytadi, – dedi.

Bu narsa, haqiqatan, dadamning esiga kelmagan ekan.

Dadam bu haqda doktor bilan gaplashibdi. Doktor ko'nibdi.

Shanba kuni ayamni doktorning o'zi kelib ko'rdi, dushanba kuni doktorxonaga yotqizdik. Dadam ikki kecha-yu kunduz doktorxonaning eshigi oldida o'tir-di, men dadamga non, tunuka choynakda choy eltib turdim. Uchinchi kuni ertalab doktorxonadan sariq soch, ko'kko'z yosh bir barina chiqib quvnoq tovush bilan:

– Usta Abdukaxxar! Baranchuk! – deb yubordi.

Dadam irg'ib o'rindan turdi. Ichkariga otildi. Men ham kirdim. Boyagi barina dadamni ayam yotgan

uyga boshlab kirdi. Ayam kechasi tuqqan ekan, to'rdagi yaltiroq sim karavotda oppoq ko'rpa-yostiq orasida faqat boshi ko'rinib yotar edi. Doktor xotin dadam ikkovimizni ayamning chap tomonidagi kichkina sim karavot oldiga boshlab bordi va oq ro'yjachaning bir chekkasini ko'tardi. Uning ostida buvak-ukacham ko'zlarini chirt yumib, qovog'ini solib yotar edi. Dadam bolani qo'lga oldi va qulog'iga azon aytdi.

Uch kundan keyin ayamni ko'rgani ko'plashib keldik: ammam, uning qizlari – O'lmasoy, Mukar-ramxon... Ayam o'zida yo'q xursand, umrida hozirgi-day xushchaqchaq bo'lmagan, bir aytib o'n kular edi.

– Men boshda qo'rqqan edim, odam tortinsa to'lg'oq qochadi... Yo'q, bular tortinadigan ish qilishmadi. Bechora marjalar meni yosh boladay oq silovga solib cho'miltirishsa bo'ladimi! Kula-kula o'libman. Marjalar ham xo'p kulishdi.

– Marja emas, barina degin! – dedi dadam.

– Yo'q, doktor xotinini barina der ekan, qolgani hammasi marja! Tilmoch xotin aytdi. Men ham marja emishman. Kula-kula o'libman.

Ukamga shu yerning o'zida ot qo'yadigan bo'ldik. Ammam «Ko'paysin», «Turg'un» degan nomlarni aytgan edi, dadam unamadi.

– Qo'y, irim-chirimdan hech narsa ko'rmadim, Umarali qo'yamiz, – dedi.

Umarali Ali laylakning jo'ralaridan norg'ul, baquvat bir yigitning oti edi.

Uch kundan keyin doktor ayamga javob berib, dadamga: «Izvoshda olib keting, uyda biron hafta yotsin», debdi.

Dadam bizni Buvaydiga izvoshda olib ketdi, lekin qishloqning kiraverishida izvoshdan tushib, uyimizgacha bir chaqirimdan ortiqroq yo'lni piyoda bosib ketdik, chunki guzardan izvoshda o'tish, kattalarni pisand qilmaslik bo'lar, xalqning nazarida esa pulimiz

oshih-toshih yotganini ko'rsatar, bundan tashqari yana «bu odam gubernatordan kam emas, izvoshdan tushmaydi», degan gaplarga sabab bo'lar edi.

Qo'ni-qo'shni ayollar chaqaloqning hech bo'lmasa kichik chillasi chiqishini ham kutib o'tirmasdan dasturxon qilib, ayamni ko'rgani kirishdi. Bular, nazarimda, lozimandadan ham ko'ra, ko'proq doktorxonada tug'ilgan bolani ko'rgani kirishar, hammasi nazarimda, undan o'rislik belgilarini qidirishar edi. Buning ustiga ayam doktorxonada ko'rgan-bilganlarini juda oshirib gapirdi: mashinaga solib cho'miltirgan, mashinada ko'rgan, mashinada ovqat pishirgan, mashinaga yotqizib tug'dirgan...

Bir kampir yoqasini ushladi:

– Yo qudratingdan, paxtani zovutga soladi deb eshitgan edim, endi odam zovuti ham chiqipti-da!..
– dedi.

Ayamning odam zavodida tuqqani Yaypanda «Zinger» aytganimizday og'izga tushib ketdi.

Teshiktosh

Valixon so'fi hamon kasal, do'konimizga to'ra kelgani, uyimizga barina kirgani obro'yimizni oshirib tinchgina ishlar edik.

Ketmon ishlatilaversa yeyilib ketadi, yarimta bo'lib qoladi, ishga yaramaydi. O'rtacha dehqon xo'jaligida bahordan kuzgacha besh-oltita ketmon ishdan chiqadi. Yangi ketmon falon pul, ishdan chiqqan ketmonni tiklash, ya'ni peshlatish ikki baravar arzon tushadi. Dehqon yangi ketmon sotib olmay, bo'sh vaqtida eskisini peshlatib qo'yadi. Shuning uchun qish kirishi bilan temirchiga ish yog'iladi.

Dadam chapdast ustalardan bo'lib, bir kunda o'n oltitaga yetkazib ketmon peshlar edi. Dadam ketmonni tez va yaxshi peshlashi ustiga xat bilishi, nazarimda bozorboshidagi usta Turdialining nonini

yarimta qilib qo'ydi: peshlangan ketmon bir-biridan farq qilmasa ham dehqon o'z ketmonini olgisi kelardi. Usta Turdiali ketmonni olishda unga har xil belgilar qo'ysa, dadam po'lat qalam bilan ketmonning yelkasiga egasining otini yozib qo'yar, dehqon xat bilmasa ham bunga juda qiziqar, xursand bo'lar edi.

Buvaydining «to'ngak ko'chiradigan shamollari» qattiq sovuq olib keldi. Har o'pqiini bir jahon sovuqday mayda shakar qor yog'di. Sovuq kundan-kun zabtiga olib, daraxtlarning shoxi bulduruqdan egildi. Musichalar tap-tap tushib o'laverdi. Shogirdimiz Kulala do'konda yotolmay, Chilon qorining qarollari bilan uning og'ilida yotib yurdi. Biz kunduz kuni do'konning eshigini berkitib, chirog' bilan ishlardik.

Mana shu kunlarning birida ko'chadan xotin kishining chinqirib dodlagan tovushi eshitildi. Hammamiz yugurib chiqdik. Bozorboshi tomondan dumi qisiq qora bir itni quvlab kelgan olomon «To's!», «Ur!» deganicha o'tib ketdi. Odam yig'ildi. Muzlab, afti burishib yotgan anhordan nari ko'chaning o'rtasida yosh bir juvon yotar edi. Kimdir: «Iya, Babarning xotini-kul!» dedi va qo'rquvdan, og'riqdan behush bo'lib yotgan juvonning yuziga sariq qiyig'ini yopib qo'ydi. Juvonni ko'tarib uyiga eltgani bolalarning kuchi yetmas, kattalar esa nomahram edi. Kimdir Babarni aytib kelgani chopdi. Juvonning quymichi va boldiridan oqqan qon qorni qizartirib? bug'lanib turar edi.

Hayal o'tmay Babar yetib keldi va xotinini dast ko'tarib uyiga olib ketdi. Bolalar, birimiz suvga olib chiqilgan ko'zaning sinig'ini, birimiz juvonning kovushini, yopinib chiqqan to'nini olib uning ketidan ketdik. Babar Hotam samovarchining xizmatkori bo'lib, xotini bilan xo'jayinining tashqisida turar edi. Babar xotinini avaylab sandalning chetiga yotqizdi. Xotini hushiga kelib ingradi. Qo'shni xotinlar kirib

kelishdi. Bulardan shaddod bir kampir Babarning qiyig'ini yechib oldi, ikkiga bo'ldi.

– Is bosib bog'lash kerak, darrov is top! – dedi.

Babar tovdondan, vassa bo'ya shipdan is yig'ib kampirga berdi. Kampir yaralarga is bosib bog'ladi. Juvon anchadan keyin ko'zini ochib vahima ichida:

– Quturgan it edi shekilli? – dedi.

Kampir unga tasalli berdi.

– Quturgan bo'lsa nima, ering Teshiktoshga olib boradi. Teshiktoshdan ikki marta o'tsang ko'rma-ganday bo'lib ketasan, – dedi keyin o'zi bormagan, ko'rmagan bo'lsa ham, Teshiktosh haqida gapirib berdi. – Teshiktosh uzoq. Bachqirdan ham nari, bulut suv ichadigan daryoning bo'yida. Ovchilar shu daryoda bulut ovlashadi, suv ichgani tushganda otib olishadi. Har o'q uzilganda supraday-supraday bulut uzilib tushaveradi...

– Oboraman, Xudo xohlasa, oboraman! – dedi Babar.

O'n kundan keyin Babar xotinini Olqordagi am-masinikiga olib ketdi, shu ko'yi o'zi ham zim – g'o-yib bo'ldi. Oradan o'n kuncha o'tgandan keyin bozor kuni quloqlarini oq qiyiq bilan bog'lab olgan Babar ikki yelkasida obkash, qo'shquloqlarda qatiq, cham-baraklardagi kosa va shokosalarda qaymoq, xalta va xaltachalarda qurut, suzma ko'tarib do'konimizga kirib keldi. U bozorga o'tib ketayotan ekan, dadam bilan salomlashgani, undan ham ko'ra sovuq o'tib ketgan oyoqlarini isitgani qayrilibdi. Uning cho'ziq yuzi xiyla so'ligan, katta-katta ko'zlari kirtaygan, qo'llari kir, kiyim-boshi bir ahvolda, aftidan, kunituni g'am-koyish bilan bo'lib, o'ziga qarash ham yuragiga sig'mas ekan. Kulala oq tarashadan gulxan yoqib berdi, oldiga ikkita jirish non, bir siqim jiyda qo'ydi. Uning aytishiga qaraganda, xotini kechalari bilan ingrab chiqar, Babar uni tezroq Teshiktoshga olib borib, azobdan qutqarish uchun pul yig'ayotgan

ekan. Olqordagi sigirlik, lekin bozorga qatnolmaydigan odamlar qatiq-qaymog'ini va bozor-o'charini Babarga topshirib, uning xizmati badaliga holbaqudrat bir nima berishar ekan. Babar hozirning o'zida ro'zg'ordan orttirib sakkiz tanga naqd pul qilib qo'yibdi, yana besh-to'rt tanga orttirsas, xotinini olib beto'xtov Teshiktoshga jo'nar ekan.

Babar isinib, non-jiyda bilan qornini to'yg'azib, xuddi qari odamday hammamizni duo qildi, qatiq-qaymoqlarini ko'targanicha bozorga tushib ketdi.

Bozor qaytish mahalida kimdir: «Babar o'g'irlik qilib qo'lga tushdi», degan xabarni topib keldi. Bu aqlga sig'maydigan gap edi. Dadam voqeani bilib kelgani meni bozor boshiga yubordi.

Bozorda odam siyrak. Timdan beriroqdagi ko'chib ketgan misgarning do'koni oldida odam, ko'proq bolalar to'planib turishibdi. Qudrat cho'loq degan poyaki odamlarga kuyib-pishib gap ma'qullayotibdi. Bozorni aylanib yuradigan poyaki voqeadan boshdan-oyoq xabardor ekan.

Babar oxirgi ikki xurma qatig'ini sotib, xaridor xurmani bo'shatib kelguncha qaymoq bozoridagi katta tolning tagida turgan ekan, kappon tomondan hayqirib, «Ushla-ushla!» degan tovush eshutilibdi. Bir guruchfurush xaridordan pul olayotganda biron pulga chang solib qochibdi. O'g'rining shorigi bo'lsa kerak, guruchfurushni o'g'ri qochgan tomonga emas, qaymoq bozoriga tomon yo'llabdi. Es-hushini yo'qotib qo'ygan guruchfurush to'g'ri kelib Babarning yoqasidan ushlabdi. Qo'rqib ketgan Babar guruchfurushni dast ko'tarib, boshidan oshirib tashlabdi. Guruchfurush o'rnidan tura solib jon achchig'ida dod solibdi va yana Babarga yopishmoqchi bo'libdi. Babar bir urib uni ag'daribdi. Voqeadan bexabar xalq o'zidan katta va sallali odamni urayotgan Babarni ushlabdi, otqorovulni chaqirib-

di. Otqorovul uni ko'chib ketgan misgarning do'koniga qamab qo'yibdi. Hozir amin kelib uni so'rashi kerak ekan.

Aminni chuvalib ketgan sallasini qo'ltiqlab olgan guruchfurushning o'zi topib keldi. Amin Babardan gap so'ramay-netmay boshiga, yelkasiga bir necha qamchi urdi.

– Qani pul?

Babar nima bo'lganini, nima bo'layotganini tushunolmay garang bir ahvolda guppi to'nining cho'ntagidan tanga olib aminga uzatdi. Amin pulfurushga berdi. Guruchfurush pulni olib Babarga o'shqirdi:

– Qolgani qani?

Babar qolgan ikki xurma qatiqning pulini so'rayotibdi deb o'yladi shekilli, xuddi uzr so'raganday:

– Hali olib keladi, Xudo ursin agar... – dedi.

Sovuqqa chidolmay yer tepinib turgan amin otqorovulga ko'z qisdi.

– Yana birpas tur, sherigini aytsa-aytgani, bo'lmasa dalaga olib borib otib tashla.

Babarning ko'zlari javdiradi:

– Meni nimaga ottirasiz, amaki, ottirmang, xotinimni quturgan it qopgan, juda yomon qopgan, ishonmasangiz odam yuboring, uyda yig'lab yotibdi. Teshik-toshga olib boradiganman... Meni ottirmang, ishingiz bo'lsa buyuring. Hotam akadan so'rang, men ishdan qochadigan yigit emasman... Xotinim yig'lab yotibdi.

Amin chiqib ketdi. Guruchfurush tashqariga chiqib Babar bergan pulni sanab ko'rdi, pul mo'ljaliga biroz to'g'ri keldi shekilli, otqorovuliga bir miri choychaqa uzatdi:

– Qolganini undirsangiz, yana bir miri beraman, – dedi-yu ketaverdi.

Otqorovul Babarga baqirdi:

– Sherigingni aytasanmi, yo otib tashlaymi?

Babar tushunolmadi.

– Mening sherigim yo‘q, Olqordan bitta o‘zim ko‘tarib kelganman...

Otqorovulning jon-poni chiqib ketdi, uni turtib -tepib do‘kondan olib chiqdi-yu, «otib tashlagani» Eshonbuvaning karvonsaroyiga tomon haydab ketdi. Bolalar duv ergashdi. Babar yo‘l bo‘yi yolvordi:

– Jon aka, meni otib tashlamang, Xudo xayr bersin... Xotinimni it qopgan, uyda yig‘lab yotibdi...

Men do‘konga yugurib kirib voqeani aytdim. Kulala bilan dadam ham chiqishdi. Otqorovul Babarni saroyning to‘ridagi teshikdan dalaga olib chiqdi. Bolalargina emas, birtalay katta odamlar ham yig‘ildi. Otqorovul miltig‘ini o‘qladi, «Aytasanmi, yo‘qmi?» deb bir-ikki o‘shqirganidan keyin bir necha qadam orqaga chekindi-yu, Babarning kallasini qoraga olib o‘q uzdi. Babar o‘q kelib tegishini kutib bo‘lsa kerak, og‘zini, ko‘zlarini katta ochib, qimir etmay turar edi. Otqorovul orqasida turgan odamlarga yuzlandi.

– Yo piray, bunaqa battol o‘g‘rini umrimda ko‘rgan emasman, ustidan oshirib o‘q uzibman-u kiprik qoqmaydi-ya!

Otqorovul Babarni eltib yana qamab qo‘ydi.

Ertasiga Babar to‘g‘risida xunuk bir xabar eshitdik. Bu xabar rost ekan, tafsilotini otqorovul gapirib berdi.

Otqorovul Babarni gapga solib ko‘ribdi, uning begunoh ekanini bilgach, qo‘yib yuborgani ijozat so‘rab xuftondan keyin aminning uyiga boribdi. Amin mingboshinikiga ketgan ekan. Mingboshinikiga shahardan mehmonlar kelgan, ziyofat avjida ekan. Otqorovul mehmonxonadagi xizmatkorlar bilan o‘tirib qolibdi. Ziyofat saharga yaqin tugabdi. Otqorovul yo‘lda Babar to‘g‘risida gapirgan ekan, amin «Iya, esdan chiqibdi-ku», deb jadallabdi. Kelib gugurt chaqib qarashsa, Babar dildirab, burchakka tiqilib o‘tirgan

emish. Uning ahvolini ko'rib amin «ayb o'zingda», deganday shovqin solibdi:

– Eshik qulf emas-ku, chiqib ketavermadingmi!

Babar tishi-tishiga tegmay zo'rg'a:

– O'zingiz qamab qo'yingiz-ku, poshsholik odamisiz, – debdi.

Amin eshikni katta ochib yuboribdi. Babar dildirab, do'kondan sekin chiqibdi, keyin birdan yuguribdi; yiqilibdi, o'rnidan zo'rg'a turib yana chopibdi... Kim biladi, sho'rlik, nima uchun Hotam samovarchining samovariga kirmabdi, nima uchun biron eshikni taqillatib tong otguncha boshpana so'ramabdi, «be-mahalga qolganimdan xotinim xavotir bo'lib ko'chani boshida o'tirgandir», deb o'ylagan bo'lsa kerak!

Ertalab yo'lovchilar Olqorning kiraverishidagi yakka baqaterak ostida cho'qqayib o'tirgan bir odamni ko'rishibdi; ertalabki quyoshning nurida erib to'kilayotgan bulduruq boshiga, yelkasiga tushsa ham u qimir etmas emish. Borib qarashsa Babar ekan! «Nima qilib o'tiribsan», deb birov yelkasi-dan tortgan ekan, Babar ag'anab tushibdi, bechora sovuqqa qotib o'lib qolgan ekan.

Bilmadim, oradan qancha vaqt o'tdi ekan, Olqordan bir dehqon ketmon peshlatgani keldi. Dadam undan Babarning xotinini so'radi. Dehqon anchadan keyin xo'rsinib javob berdi:

– Bechora erining g'amida jinni bo'lib qoldi... Yomon jinni bo'ldi, o'zini urib, tishlab, ne azobda o'ldi.

Uni quturgan it qopganidan bu odam bexabar ekan...

Oqposhshoning arzandasi

Valixon so'fi o'n kuncha goh o'zidan ketib, goh o'ziga kelib, ko'ziga allanimalar ko'rinib, alahlab yotdi-yu, keyin og'ir kasalga chalinib, ikki oy deganda o'rnidan turdi.

Qish o'tdi, bahor o'tdi. To'ralardan oshnamiz borligini eshitgan bo'lsa kerak, Valixon so'fi bizga xarxasha qilmay qo'ydi; jabr ko'rganligi haqida hech kimga arz qilmagan bo'lsa kerak, chunki bir jihatdan, «chirog'poya» og'izga oladigan gap bo'lmasa, ikkinchidan, to'ralar oldida mingboshi-yu yuzboshi ham qo'l qovushtirar edi.

Bundan tashqari yozda yurt notinch bo'lib qoldi.

German bilan urush boshlanganligi xabarini biz Yaypanda ikki oydan keyin, o'shanda ham tasodifiy suratda eshitgan bo'lsak, oqposhsho urush ishlariga musulmonlardan mardikor oladigan bo'lganini uch kunga qolmay eshitdik.

– O'n to'qqiz yashardan o'ttiz bir yashargacha hammani olarmish!

Buvaydi bo'lisiga besh ming o'n ikki kishi tushibdi!

Bu kunlar dehqonchilikda qizg'in ish pallasida bo'lishiga qaramay, har kuni namozgarga yaqin ko'chalar, guzar gavjum, tinning tagidagi ikkita samovarga odam sig'ishmaydi. Bospiqi govur: «E, Xudo!» «Zolinga o'zing insof ber!» degan nidolar...

Dadam har hafta-o'n kunda temir, ko'mir keltirgani Qo'qonga tushib turardi. Umrida shaharni ko'rmagan ko'pchilik dehqonlar uni dunyodagi hamma gapdan xabardor, deb o'ylashar, shuning uchun do'konimiz oldidan odam arimas edi.

Bu kunlarda dehqonlarning o'zlari ham gapning uyasi bo'lib qolishdi.

Mardikorlikka olingan odamlarni zavodga solib ko'zini ko'kartirar emish. Odamni bu eshigidan kiritib zavodni bir bo'kirtirsa, narigi eshigidan ko'zi ko'karib, nonni teskari tishlab chiqaverarmish.

– Mardikor o'lsa o'ligini sandiqqa solib tikka ko'marmish!

– Mardikor kasal bo'lsa oyog'idan osib, og'zidan mo'miy o'lmish.

– Qof tog'ida bir mergan ov qilib yurgan ekan, qarasa kalladay keladigan bir tosh pastdan yuqoriga yumalab ketayotgan emish. Mergan toshni olib gubernatirga eltib beribdi. Gubernatir uni oqposhshoga yuboribdi. Oqposhsho toshni yorib qarasa, ichidan oppoq panja chiqibdi. Poshsho kulibdi, panjani taxtning poyasiga qo'yib, qilich bilan qiyma-qiyma qilib tashlabdi.

Bunaqa mish-mishlarning son-sanog'i yo'q edi.

Qishloq kattakon azaxonaga o'xshab qoldi: bosinqi g'ovur, oh-voh, ko'z yoshi. Hamma kutadi, hademay, o'lik chiqishi, butun qishloqni boshiga ko'targan qiy-chuv, yig'i-sig'i, dod-faryod ichida tobut ko'tarilishi, ya'ni mardikorga olingan kishilarning ro'yxati e'lon qilinishi kerak.

Biroq, ro'yxatdan darak yo'q. Yurt og'alari bo'lmish mingboshi, Chilon qori, katta machitning imomi Sharafiddin maxsum, yuzboshi, Abdurahmon paxtafurushlar maslahat qilishgani-qilishgan. Bulardan birontasi ko'cha yo guzarda ko'rinmaydi. Odamlar bularni uylaridan ham topisholmaydi.

Birdan duv-duv gap bo'lib qoldi: «Hamma xatga tushgan ekan, yuzboshi Toshkentga dilg'irom yuborib, paxta ekkan chorakorini so'rab olibdi, o'ringa shahardan mardikor olib beribdi». Hali ro'yxat e'lon qilinmasdan turib, «Men ham paxta ekkan edim», deya mingboshining ostonasiga bosh urgan dehqonlar, «Mening bolamni, mening erimni chorakor, qarol qilib oling, o'la-o'lgunicha xizimatingizni qiladi, qulingiz bo'ladi», deb yuzboshining oyog'iga yiqilgan ayollarning hisobi yo'q edi. Bir tomonda yig'i-sig'i, bir tomonda g'ovur, hayqiriq, qarg'ash...

Bu orada «ko'zni ko'kartirish», «oppoq panja» va boshqa mish-mishlar o'rniga chin xabarlar tarqala boshladi: Xo'jandda xalq g'ulu ko'taribdi, toshkentliklar «biz mardikor bermaymiz» deb mahkamaga

borishibdi, falon joyda xalq mingboshining uyiga o't qo'yibdi, falon qishloqda odamlar aminni alamon qilishibdi...

Nihoyat, yurt og'alari hamma mahalladan ellikboshi obro'li kishilardan bir-ikkitasini chaqirib, yig'in qilishdi. Yig'inda katta machitning imomi mul-la Sharafiddin yurt og'alari vakolati bilan va'z aytibdi, «amri podshoh vojib» degan gaplardan keyin: «xohlagan odam boradi, xohlamagan bormaydi, o'rniga odam beradi», debdi. Bu gap har bir xonadondagi, butun qishloqdagi azani to'yga aylantirib yubordi. Biroq bu xursandchilik ko'pga bormadi. Olinadigan mardikor jo'natiladigan kun aytilgach: «Xohlamagan odamning o'rniga kim boradi va buning evaziga nima so'raydi?» degan savol hammaning giribonidan tutdi.

Mahallada «Poshsholik jinni» deb ataladigan Ro'zi gov degan ovsar bir yigit bor edi. Qachondir Buvaydiga kattaroq bir to'ra kelganda Ro'zi govga yarim tanga siylov berib, yelkasiga qoqib qo'yan ekan, shundan beri uni poshsholik jinni deb atashar ekan. Uning jinniligi shundan iborat: jini suymagan itni pichoqlab tashlaydi, qatiqdan qo'rqadi, vaqti chog' bo'lgan vaqtlarda hamisha shu ashulani aytadi:

*Olma bersam olmaysan,
Behi bersam olmaysan,
Qaysi boyning qizisan?..*

To'ra yelkasiga qoqqandan beri Ro'zi gov qorni ochsa ro'para kelgan eshikni qoqib ovqat so'rar ekan. Mardikorlikka o'z ixtiyori bilan borishga xohish bildirgan kishi faqat shu bo'ldi. Uni Chilon qori ukasining o'rniga yuborgani shoshib-pishib yetmish besh so'mga sotib oldi. Undan keyin odamning narxi yuz, sal kunda ikki yuz, hatto uch yuz so'mga chiqdi. Kimdir yetti yuz ham so'rabdi.

Yurt og'alari yana qishloqning kazo-kazolarini chaqirib yig'in qilishibdi. Yig'inda to'ralarning ra'yiga muvofiq shu yurt og'alaridan iborat yuzboshi boshliq mahkama tuzilibdi. Mahkamaning vazifasi mardikor olishda poshsholikka yordam berish, shu bilan birga mardikorlikka ketadiganlar va ularning bola-chaqasiga qarashishdan iborat ekan. Mahkama nomidan yuzboshi gapirib, xalqqa achinibdi: «Odam yollagani pul topsa odam topolmaydi, mahkama xalqning bu mushkulini ham oson qilishi kerak», debdi. Uning bu gapi o'sha kunni hayitga, tunni bozorshabga aylantirib yubordi. O'sha kuni: «Yuzboshi buvam yaqinda mingboshi bo'larmishlar», degan gap tarqaldi.

Mahkama mardikor puli yiqqani har mahallaga ikkitadan vakil tayinladi, xalqdan yig'ilgan pulga odam sotib olgani shahar va bo'lis bozorlariga kishilar yubordi.

Bizning mahalladan mardikor puli yiqqani o'zimizning ellikboshi bilan Valixon so'fi tayinlangan ekan, ikkovi do'konimizga keldi. Dadam boshqa ish bo'lmaganidan bozorchilardan tushgan pichoqlarni charxlab o'tirar, Kulala charx tortar edi. So'fi dadamning yuziga qaramasa ham ortiq darajada mulozimat ko'rsatdi, hol-ahvol so'radi, hatto menga ham so'z qotib: «Ha, qochoq!» deb qo'ydi. Dadam shahar aksi urgan, zakonchiroq odamligidan bexabar ekan shekilli, yangi ellikboshi gapning po'skallasini aytdi-qo'ydi.

– Qani, usta, puldan chiqarasizmi, yo mardikorga borasizmi? Besh yuz so'm berganlar ham bo'layotibdi, siz uch yuz so'm bersangiz bas, kosib odamsiz...

Dadam uning so'zini hazilga yo'ydi:

– Oqqoshsho «bolg'angni uraver, senga hech kim tegmaydi» degan-ku?

Valixon so'fi kuldi:

– Biz ham shuni aytyapmiz, – dedi shoshib. – Mardikor pulini bering-u joyingizdan qimirlamang!..

Dadam yana ham muloyimroq, yana ham hazilga taqab dedi:

– Mardikor puli xatga tushgan, lekin o‘zi bormay o‘ringa odam beradigan kishiga chiqqan bo‘lsa kerak? Men xatga tushgan emasman, yolg‘izqo‘l kosib, bola-chaqalik odamman.

Ellikboshi so‘figa qaradi. O‘lganining kunidan g‘azabini ichiga yutib turgan so‘fining rangi o‘zgardi.

– Hamma vaqt yurtidan o‘zingizni chetga tortasiz-da, usta! Yurtga kelgan to‘y ekan, nima qilasiz gapni ko‘paytirib! Sakkiz oydan beri to‘shakda yotgan Odil buva ham xatga tushgan emas, lekin berdi, yuz so‘m berdi! Madrayim cho‘loq ham xatga tushgan emas, lekin qatordan qolgani yo‘q! Rahmatli Norbo‘taning xotini tul boshi bilan topganini tutib o‘tiribdi! Kalimasini o‘girib yotgan bir kasal chol, tug‘ma bir cho‘loq, bir tul xotinchalik emasmisiz?! Qo‘ying-e! Xudo urdi-ketdi!

So‘fi qo‘liga tushib qolgan qayroqni uloqtirib yubordi.

Bular bilan gap talashish yuzboshi va boshqa baloxo‘rlarning og‘zidagi suyakka qo‘l uzatib, ularni irillatish bo‘lar edi. Bular irillasa har chog‘ dadamga og‘iz solishi har qanaqa qilib bo‘lsa ham uni mardikorlikka berib yuborishi mumkin edi. Shuning uchun dadam yon berdi.

– Bisotimda ellik so‘m pulim bor. Yozda ish yo‘q, kuzda temir, ko‘mir kerak...

So‘fining ko‘zlari shoxsoqqaday irg‘ib chiqdi.

– Mayli o‘shani ham bermang! Yurtdan chiqdim, deb qo‘ya qoling! Yurtdan chiqing, bir paqiringiz ham kerakmas!

Yurtdan chiqish tiriklay go‘rga kirish degan so‘z. Uzoq savdolashgandan keyin dadam ikki yuz ellik so‘m berishga rozi bo‘ldi. Buning ellik so‘mi naqd,

ikki yuz so'mini uch kun ichida birovdan qarz ko'tarib berishi kerak edi.

Dadam ikki yuz so'm so'rab, har yili bahorda dehqonlarga bo'nak va qarz beradigan Chilon qoriga uchradi. Qarz shu choqqacha yuz so'miga o'n so'm foyda bilan berilar ekan, mardikor puli chiqqandan beri tobora ko'tarilib, yigirma, o'ttiz, hatto qirq so'mga yetibdi. Dadam shu mahallalik temirchi bo'lib vaqt-bemahal foydasi tegishini, ishni arzon va ikir-chikirni bepul qilib berishini nazarda tutib, Chilon qori ikki yuz so'mni yuziga yigirma besh so'm foyda bilan qarz beribdi.

Dadam pulni ellikboshiga eltib berdi. Ellikboshi ikki yuz ellik so'mni olib «qizil qog'oz»ni yigirma so'mga beribdi, dadam «Nega bundoq?» deb so'rasa, ellikboshi: «Tushgan pulni hukumat bilib qolsa «xalq boy ekan» deb o'lponni ko'paytiradi», debdi.

Pul yo'q, ish yo'q, dadam diqqat, yuragiga qil sig'masdi.

Bir kun kechki payt dadam ikkovimiz otyo'lakda sig'oq o'ynayotgan bolalarning o'yinini tomosha qilib, muyulishdagi xarsang toshda o'tirgan edik, Ali laylak kelib qoldi. Uning ham kayfiyati yaxshi emasdi, mardikor puliga ho'kizini sotib beribdi.

– Buning hammasi xotintaloq yuzboshidan chiqyapti, – dedi Ali laylak nafasi titrab. – Poshsholik, mardikorlikka hamma borsin, degan emas ekan, bu zang'ar mardikor pulini hamma xonadondan olyapti, yurtning boshiga kelgan ko'rgulikni qoshiq qilib xalqning qonini ichyapti. Qishloqni qarzga ko'mib tashladi. Noinsof, yuz so'mga o'ttiz besh, qirq so'mgacha foyda qo'yyapti.

Ali laylakning jo'ralaridan ko'pi mardikor puli bergani qurbi yetmay, o'zi boradigan bo'libdi. Bulardan biri – Ermat degan yigit mardikor puliga, yerini sotib bermoqchi bo'lgan ekan, yuzboshi yarim baho qo'yibdi. Yuzboshi shafe, shafeligidan kechmaguncha yer-

ni boshqa odam ololmas ekan. Ali laylak qishloqning yigitlarini so'ka ketdi.

– Bu zamonning yigitlari hezalak bo'lib ketgan! Zog'ora unday qovushmaydi! Buni yuzboshi ham, boshqasi ham biladi-da, shuning uchun hech narsadan tap tortmay qilg'iligini qilaveradi. Hammamiz lattamiz, latta bo'lmasak bu zang'ar yuzboshining har boshiga ming balo yog'dirmasmidik! Yarim paqir tillani o'tda eritib, uning to'ymas ko'zlariga, bo'g'ziga quymasmidik!..

Ali laylakning tiliga chiqqan bu gaplar, nazarimda, dadamning, balki butun qishloqning dilida o'tda dog'langan yog'day tutab yotar edi.

Haqiqatan shunday bo'lib chiqdi.

Oradan bir necha kun o'tdi. Bir kuni namozgar paytida bozorboshidan ustma-ust ikkita o'q chiqdi. Hayal o'tmay yana uch-to'rtta o'q otildi, undan keyin o'q bodroq bo'lib ketdi. Kulala ikkovimiz ko'chaga yugurgan edik, dadam qaytardi, urishib berdi, borib eshikni zanjirlab keldi. O'q ovozi siyraklashdi, lekin dod ovozi eshitildi: «Voydod!.. Voydod! Yuzboshini o'g'ri bosdi, kelaver!» Dodlagan odamning o'zi bo'lsa kerak, ashula boshladi: «Oyda, yilda bir kelgan mehmonidan ayrilmasin...»

Qorong'i tushgunga qadar goh yakka-dukka o'q, goh dod, goh ashula tovushi eshilib turdi-yu, birdan jimidi. Shu jimiganicha ertalabgacha, butun qishloq yerning qa'riga kirib ketganday tiq etgan tovush chiqmadi. Dadam bomdodda machitga chiqib xabar topib keldi: o'g'rilar yuzboshini jodida uch bo'lak qilishibdi, keyin kerosin sepib o't qo'yishibdi. Keyinchalik gap chiqdi: o'g'ri bosganda yuzboshining shaharlik qayinsinglisi tomga chiqib yantoq orasiga yashiringan, o'sha yerda turib o'g'rilarning nomini etagiga yozib olgan, butun bo'lgan ishni ko'rib turgan ekan. Ummat degan bir yigit yuzboshining oldiga bir etak tilla to'kibdi, «yegin», deb-

di. Yuzboshi tillodan yutolganicha yutib, oxiri yutolmay qolganidan og'ziga tillani zo'rlab tiqibdi.

Bir kuni Kulala ikkovimiz dadamning yo'qlab tommatim tingacha borib, timning tepasiga chiqib oldik. Bu yerdan Qo'qon yo'li Buvaydining kiraverishi, yuzboshining toki va uning ostida ko'k ayvoni baralla ko'rinib turar edi.

Bu yog'i yuzboshining darvozasigacha, u yog'i Qo'qon yo'li – ko'chaning ikki tomoni liq odam. Butun Buvaydi go'yo ko'chib chiqibdi. Hamma salla o'ragan. Otqorovullar u yoqdan bu yoqqa chopgan, yo'rtgan, qattiq shivirlab kimgadir dashnom bergan, safdan salgina chiqqan odamni yuzi-ko'zi demay qamchilagan...

Xiyla vaqtdan keyin Qo'qon tomondan bir to'da otliq ko'rindi. Xalq bir gurilladi-yu, darrov jimidi, Allaqanday tovushlar, hayqiriqlar eshitildi. Xalq engashdi. Otliqlar asta-sekin yaqinlasha boshladi. Oldindan oq kiyim, oq shapka kiyib, sariq pogon taqqan bir nechta To'ra, ularning o'ng tomonida o'zimizning mingboshi, chap tomonida katta salla o'ragan kishilar, orqada bir talay soldat. Bular ikki tomonda engashib turgan xalq orasidan o'tib o'ng tomonga, yuzboshining hovlisiga tomon burilishdi, otdan tushmay darvozadan kirib ketishdi. Xalq hamon engashganicha qimirlamay turar edi. Biz yuzboshining hovlisiga yaqin borгани qo'rqdik.

Xalq asta-sekin qomatini rostladi. Hayal o'tmay «chiqdi-chiqdi» degan gap o'rmaladi. Xalq yana engashdi. Shu ahvol namozgargacha davom etdi. Namozgargacha xalq necha-necha qomatini rostlab, necha-necha engashdi. Nihoyat, namozgarga yaqin otqorovullar shovqin solib, to'ralar chiqayotganidan xalqni xabardor qildi. Xalq yana engashdi. Otliq to'ralar, ularni kuzatib qishloq kazo-kazolari darvozadan chiqishdi. Ularning ketidan soldatlar yigirmadan

ortiq dehqonni qurshab, Qo'qonga haydab ketishdi. Bularning orqasidan hech kim ergashmadi.

To'ralardan biri birovni so'roq qilayotib, yuzboshini «Oqposhshoning arzandasi edi», debdi. «Bandilarni mardikorlikka jo'natar emish», degan gap tarqaldi.

Dadam bilan Ali laylak to'ralar kelishi xabarini eshitgan zamon Valixon so'fining chaquvidan qo'rqib, dadamning Tolliqdagi bir oshnasinikiga qochib ketishgan ekan, dadam yarim kechasi keldi.

Dukchi eshonning ko'lankasi

To'ralar shuncha odamni haydatib ketdi-yu, go'yo qishloqning tepasiga shapkasini ilib qo'ydi: xalq hamon engashib turganday, hamma yoq jimjit, na biron tovush chiqadi, na oh-voh. Ali laylak aytmoqchi, «yig'lagan ham yengiga yig'lar» edi.

To'ralar haydatib ketgan odamlardan biri, yo'q, ulardan biri emas, anglashilmovchilik orqasida to'pga qo'shilib ketgan Madrayim degan bir yigit Qo'qondagi «Oq uy»da besh oy yotib qaytib keldi. Soldatlar bandilarni Uchko'prikdan haydab o'tayotganda bu yigit nima bo'lib ko'prikning ustida turib qolgan ekan, oldingi soldatlar indashmabdi-yu, orqadagilardan biri uni to'pdan chiqib qochmoqchi bo'lgan bandi gumon qilib, miltig'ining qo'ndog'i bilan yelkasiga bitta tushiribdi-da, bo'ynidan itarib to'pga qo'shib yuboribdi. Soldat, to'ra yo biron amaldor bir nima qilsa «nega, nima uchun» deb so'rash hech kimning xayoliga kelmaydigan bo'lgani uchun Madrayim to'pga qo'shilib ketaveribdi. Turmada uni ro'yxatga yozib qo'yishibdi, ehtimol, bandilarning o'zlari jo'rttaga yozdirishgan bo'lsa: yaxshigina ovozi bor, ba'zan o'zi qo'shiq ham to'qir ekan:

*Osmondagi parrandalar borib aytinglar,
Farzandingiz Qo'qondagi «Oq uy»da, denglar.*

*Sim-sim dedim, simlar dedim, simlar qo'ynimda,
Zarra gunoh menda bo'lsa qilich bo'ynimda...*

Besh oy o'tib Madrayimning butkul gunohsizligi ma'lum bo'lgandan keyin kulib-kulib qo'yib yuborishibdi. Madrayim mardikorlikdan qochib kelgan va qo'lga tushib qamalgan ikki qochoq bilan hamgap bo'libdi. Bular mardikorlikka borilgan yurt – «sovuq do'zax» deyishibdi, u yerdagi mehnat, tirikchilikning «maqtov»ini xo'p keltirishibdi: burnini, qulog'ini, oyoq-qo'lini sovuqqa oldirib, puchuq, chinoq, cho'loq bo'lganlarning hisobi yo'q; qo'li, oyog'i kesilib, keliga o'xshab qolgan sho'rliklar ham bor ekan; ochlikdan, sovuqdan o'lganlarning o'ligi ko'milmay yirtqichlarga yem bo'lar ekan... Mardikor olinayotgan kunlari «mardikor o'lsa sandiqqa solib tikka ko'marmish, oyog'idan osib mo'miyo olarmish» degan mish-mishlar bu gaplarning oldida qoldi.

Laylakqor urib turgan bir kun edi. Birdan bozor boshida dod-faryod ko'tarilib qoldi. Dadam xabar olib kelgani meni bozorboshiga yubordi. Timning ostiga behisob xotin-xalaj to'plangan, qiy-chuv, bolalar yig'lagan... «Uying kuysin, mingboshi!», «Bolang o'lsin, yuzboshil» Katta machitning imomi Sharafiddin so'riga chiqib ayollarga xitob qildi:

– Musulmonlar! Yurt buzuvchi kazzoblarning so'ziga ishonmanglar! Yarim podshohimiz Kuropatkin hazratlari qo'l ostlaridan mardikorlikka ketgan farzandlarining holidan har kuni va har soat xabar olib turibdilar. Hamqishloqlarimiz Xudoning panohida va podsho hazratlarining himoyatida sog'salomat rizqlarini terib yeb yuribdilar. Inshoollo, yaqin fursatda diydor ko'rishamiz. Iloho, omin!..

Hamma gurillab fotihaga qo'l ko'tardi. Ayollar birpas jim bo'lib yana yig'i, g'uvur, shovqin-suron, qar-g'ish boshlandi.

Hech qachon shop-shalop taqib yurmagan mingboshi shop-shalopini taqib, miltqli uchta yigiti bilan timga kirib keldi. Ayollar birpas jim bo'lishdi-yu, yana ham qattiqroq shovqin-suron ko'tarishdi:

– Uying kuygur mingboshi, erimni topib ber!

– Baraka topmagur, bolamni topib ber!

Miltqli yigitlarning dag'dag'asi, havoda o'ynagan qamchilar ham ayollarga kor qilmas edi. Bir xotin, paranjisi boshidan tushib ketganiga qaramay, shovqin solganicha alamonni yorib o'tdi-yu, qo'lidagi bolasini mingboshining oyog'i ostiga qo'ydi.

– Ol, o'zing boq, uying kuygur!

Uning ketidan yana bir necha xotin bolasini mingboshining oyog'i ostiga tashladi. Dod-faryod yerko'kka sig'mas edi. Mingboshi ikki-uch qadam orqaga chekindi, miltqli yigitlar bolalarni olib onalariga, onalari olmagandan keyin ro'para kelgan xotinlarga tutqizishar, bolalar chirillab yig'lashar edi.

Mingboshi boshiga yog'ilib turgan qarg'ish va haqoratlardan g'azablanmadi; har bir xotin orqasida yuzlarcha, minglarcha erkak-ayol turganini sezdi shekilli, ularni yaxshi gap bilan insofga keltirgani urindi, nihoyat, orqasi bilan yurib borib so'riga chiqdi.

– Shoshmanglar, quloq solinglar! – dedi, – birlamchi, g'alamis odamlarning gapiga quloq solmanglar, ikkilamchi, o'zlaring bilasizlar, mardikorlikka ketganlar ko'pi bilan olti-yetti oyga ketgan, qo'sh mahalgacha bitta qolmay keladi.

– Bitta qolmay o'ladi! – dedi bir xotin baqirib.

– O'lmaydi... Uchchilamchi, hammamiz bir musulmonmiz, bir-birimizga tikan kirishini ravo ko'rmaymiz, men sizlarga aytib qo'yay: poshsholik bilan o'ynashib bo'lmaydi, bitta o'ynashgan andijonlik Dukchi eshonmidi? Bu voqeani bilganlardan so'ranglar. Bilgan odam bo'lmasa, men aytib beray: shu

odam poshsholik bilan o'ynashib, o'zi bilan o'n bir kishining boshini yedi – hammasi osildi!

Shu yerda boshiga to'ncha yopinib turgan bir kampir yig'lab:

– Rost, shundoq bo'lgan edi, – dedi.

Mingboshi darrov uni qo'lidan tortib so'riga chiqardi.

– Gapiring, ona, ko'rgan bo'lsangiz bularga gapirib bering! – dedi.

Kampir qo'rqib ketdi, mingboshiga qaradi, mingboshi «gapir» deb turganidan keyin, titrab, goh xalqqa, goh mingboshiga qarab gapirdi:

– Rost, o'n bir kishi osilgan edi... Ibrat qilgan edi... O'n bir kishini osganda ibrat bo'lsin, deb butun Andijondagi bolalarni yig'ib kelgan edi... O'shanda mening Kenjaboyim qo'rqib shaytonlab qolgan edi.

Hali ayollarga qo'shilib shovqin solgan, yig'lagan bu kampir, aftidan, hozir nimaga guvohlikka o'tayotganini o'zi ham bilmas edi.

Mulla Sharafiddinning «yurt buzuqi odamlar», «yaqin fursatda diydor ko'rishamiz» degani mingboshining «g'alamis odamlar», «mardikorlar qo'sh mahalgacha bitta qolmay yetib keladi» deganiga to'g'ri kelgani, ya'ni ikkovining gapi bir joydan chiqqani ayollarga tasalli berdi, Dukchi eshonning vahimali ko'lankasi esa kor qildi.

Ayollar tim ostidan ketgan bo'lsa ham, hech kim uyiga kirmadi, laylakqor yog'ib turganiga qaramay, tor ko'chalarda hamon yig'i-sig'i davom etdi.

Men do'konga kelib voqeani dadamga batafsil gapirib berdim.

Qo'qon turmasidan mardikorlar to'g'risida gap topib kelgan Madrayimni shu kuni «bandi qilib, simga olib ketishdi», degan gap tarqaldi.

Arafa

Hutning o'rtalarida kimdir Qo'qondan: «Oqqosh-sho taxtdan tushibdi, hurriyat bo'libdi», degan gapni topib keldi. Butun qishloq va har bir qimirlagan jonning podshoga katta-katta da'volari, hurriyatdan behisob umid va orzulari borday, garchi da'vo va umid-orzular nimadan iborat ekanini hech kim aniq ayta olmasa ham, Buvaydi arafa tusini oldi. Hammaning nazarida hurriyatning chashmasi – mardikorlikka ketganlarning beto'xtov, shu kuni, shu soatda qaytib kelishi, shu voqea bo'lsa hurriyatning boshqa ne'matlari kelaveradiganga o'xshadi.

Bir hafta o'tdi, ikki hafta o'tdi, mardikorlardan darak bo'lmadi; aksincha, allaqayerda yana mardikor olinayotgani haqida ovoza tarqaldi. Junbishga kelgan, asalarining uyasiday g'uvillagan qishloq yana jimjit bo'ldi-qoldi.

Hut o'tdi. Hamalning oxirlarida «Mardikorlarga javob bo'libdi», degan xabar keldi. Bu xabarga endi hech kim ishonmasa ham, mardikorlarning yaqinlari, qarindosh-urug'lari, yor-do'stlari, hatto begona odamlar ham «sovuq do'zax»dan eson-omon chiqib keladigan, yurtni ma'mur qiladigan «mard yigitlarning bir bo'lagi» bilan diydor ko'rishgani bozorboshiga, undan nari Uchko'prikka, qolaversa, bu yog'i Bag'dod, u yog'i Qo'qon stansiyasigacha borishdi. Bu odamlarga mardikorlar uzoq yurtlardan kelishini, bir hafta – o'n kun deganda yetib kelolmasligini hech kim tushuntirolmas edi.

Oradan ko'p o'tmay, mardikorlardan oldinroq sovuq bir xabar yetib keldi. Qo'qondagi katta to'ralardan biri: «Poshsholik o'z izzati bilan poyezdga solib yuborgan mardikorlar keladi, izzatini bilmay, qochib ketganlar yetib kelolmasa ham ajab emas», debdi. Bu «qochib kelgan bo'lsa yoki endi poyezdda kelsa kelgani, yo'qsa o'lgani», degan so'z, buni qishloq ahli juda yaxshi tushunar edi.

Vaqtida mardikor puli qishloqning iligini quritgani uchun dehqon qishda kerakli asbob-uskunasini shaylab qo'yolmadi. Ko'p xo'jaliklarning umidi mardikorlikka ketgan kishilaridan edi, buning ham tayini bo'lmadi. Shunday qilib, ko'klam harom-harish bo'lib o'tdi. Buning oqibati nima bo'lishini hamma bilar edi, shuning uchun qo'lida g'allasi bor dehqonlar, katta alloflar bozorga don chiqarmay qo'ydi. Buning ustiga «hurriyatda chiqqan pul»ga odamlar shubha bilan qarashar, «hukumat loaqlal ikki taxta oq tunuka ham topolmay, qog'oz tanga chiqargan bo'lsa, u yog'iga voy», deyishar edi.

Ali laylak bo'g'ilar edi:

– Bu qiztaloq oqposhsho kelib-kelib ko'klamda, yer tobiga kelib, hansirab turganda taxtdan tushganini qara! Chilon qori bilan Egamberdiboy zamon nima bo'lishini bilmay har yili qarz, bo'nakka beradigan pulini tishining kavagiga tiqib qo'ydi, birovga bir miri bermaydi!

Narx-navo ko'tarilib ketdi. Qimmatchilik hademay pulga non topilmaydigan qahatchilikka aylandi.

Ochlik bo'lganda dehqon kelisining kiri, tegirmonchi do'ppisining changi bilan bo'lsa ham nariroqqa borib oladi, lekin kosibga qiyin. Temir, ko'mir qimmatligi ustiga odamlar hech narsa buyurmay, hech narsa so'ramay qo'yishdi. Ish yo'q. Qani endi birov loaqlal bitta pichoq charxlatsa!

Dadam har ehtimolga qarshi do'konni ochib o'tirar, Kulala ikkovimiz bitta charxni ko'tarib ko'chama-ko'cha, qishloqma-qishloq kezar edik. Biror ish chiqib qolsa, Kulala charxlaydi, men charx tortaman. Asbob og'irroq bo'lsa-yu, qiynalib ketsam, asbobning egasi menga rahm qilib, charxni o'zi tortar edi. Bu qilgan ishimiz badaliga pul emas, dadam tayinlaganicha «chaynasa yumshaydigan nima bo'lsa» olar edik.

Ayam har kuni erta-yu kech irim qilib dasturxon yozar, «chaynasa yumshaydigan» hech narsamiz

bo'lmasa, quruq choy – tutning bargi, jiydaning po'st-log'ini damlab ichar edik. Bir kuni ayam ko'ziga yosh olib, dadamdan o'pkaladi:

– Beg'amsiz, ro'zg'orning g'amini yemaysiz, semirib ketyapsiz, – dedi.

Dadam kuldi.

– Men semirsam mayli, sizlarni semirishdan Xudo saqlasin, – dedi.

Dadam semirgan emas, shishgan ekan...

Shu kunlarning birida dadam qora sigir yetaklab keldi. Sigir bo'g'oz edi. Keyin bilishimcha, sigirni dadam «zingerlik boy» bo'lgan vaqtida orttirgan to'pponchasiga alishgan, to'pponchaning ustiga ikkita qo'shtig' miltiqning quvurini kesib, qisqartib, ilonning boshiga o'xshash uchta dankov – kurakcha yasab bergan ekan. Deyarli har kecha birovning uyiga bosqin keladi, devorini teshib molini olib ketadi. «Bosma», «teshma» degan gaplar ko'p eshitilar edi. Buwaydi bilan Qo'qon yo'lida qaroqchilar ham paydo bo'ldi.

Qora sigirning dumiga tikilib, tut pishig'iga yetib oldik.

Har kuni kechasi dadam bilan Kulala dala aylanib, yashiriqcha xashaki tut qoqib kelishar edi. Tez kunda bu serurug', shilimshiq meva ko'ngillarga tegdi, harchand och bo'lsak ham og'izga olgani yuragimiz bezillar edi. Shundan keyin uning suvini siqib shinni qiladigan bo'ldik. Bu ham jonga tegdi. Shinnini ko'rishim bilan og'zim suv ochar, ko'nglim aynir edi. Ukam Umarali shinnilik kosani uzoqdan ko'rsa ham g'ingshiydigan bo'ldi. Umarali, biron nojo'ya ish qilsa, men uni: «Hozir shinni yalataman!» deb qo'rqitardim.

Arpaga o'roq tushdi, meva-cheva chiqdi, lekin bari-bir qahatchilikning dami qaytmadi. «Kunjara yebdi», «Uyida shishib o'lib qolibdi», «Falonchi qizini simlikka¹ beribdi», degan gaplar tez-tez eshitilib turar edi. Nazarimda:

¹ Sim – hozirgi Farg'ona shahri

*Shaftoli shoxi larzon,
Har narsadan qiz arzon,
Bahosini so'rasang,
Qalami ko'ylak, bo'z ishton...*

degan ashula o'shanda chiqqan edi.

Toleyimizga sigirimiz tug'ib berdi. Biz tutxo'rlikdan sutxo'rlikka o'tdik. Sut, qaymoq, qatiq, yog', suzma, qurt... Ba'zan sut-qaymoqni donga alishar edik. Xiyla jonimiz kirib qoldi. Dadam ba'zan hazillashib ayamga: «Sigirning dumidan mahkamroq ushla, bu jonivor bizni qilko'priktan o'tkazib qo'yadi», derdi.

Men ba'zan ish bo'lganda damgarlik, bekorchilikda do'kon poylashdan ozod bo'lib, qo'riqda sigir boqadigan bo'ldim. Dadam har kuni ertalab yarim so'mga tuyaning ko'ziday zog'ora non olib beradi, men shu ketganimcha namozgarda qaytardim. Qo'riqda mendan boshqa molboqar bolalar ham bor, biz payt poylab bir-birimizning sigirimizni emar edik.

Hamalning o'rtalarida javob berilgan mardikorlar javzaning boshlarida bittadan-ikkitadan bo'lib kela boshladi.

Bularning qaytishi qishloqqa vabo oralagan kunlarga to'g'ri keldi.

Ko'chamizning oxiridagi go'ng to'kiladigan maydonda bo'yra darvoza bo'lib, bu Abdurahmon buva degan ayolmand bir mo'ysafid dehqonning qo'rasi edi. Chol uch o'g'lini uylantirgan, beshta qizini uzatgan, sakkiz oila, bir dunyo nevara-chevara bo'lib, qo'rada qariyb bir mahalla odam turar edi. Bir hafta ichida mana shu qo'radan uchta o'lik chiqdi. Undan keyin Abdurahmon buvaning bozorboshilik jiyani qazo qildi. Uning yigirmasi o'tmay turib Abdurahmon buvaning o'zi vafot etdi. Qishloq bo'ri oralagan qo'tonday besaranjom bo'lib qoldi. Machitlar to'la – hamma, hatto dadam ham namozxon bo'lib qoldi.

Bemahal qichqirgan xo'roz, yer tirmalaydigan itlarga qiron keldi. Kimdir go'ristondan qaytgan tobutni to'nkarib qo'ymagan ekan, odamlar uni alamon qilib yuborishayozdi. Allaqaysi mozorning g'orida chilla o'tirgan bir aziz Abdurahmon buva to'g'risidagi gapni eshitib: «O'sha qo'radan chiqqan eng birinchi mo'rdaning oyog'i chalmashib qolibdi, mo'rdaning oyog'i chalmashsa, urug'ini tortadi», debdi. Abdurahmon buvaning uzoq-yaqin hamma qarindoshlari jon achchig'ida oyoqqa bosishdi va o'sha mo'rdaning qabrini ochib, oyog'ini to'g'rilab qo'ygani qishloqning o'rtasidagi tepalik – go'ristonga yig'ilishdi. Talay tomoshabin ham bor edi. Biz, bolalar daraxtlarning shoxiga, tomlarga chiqib uzoqdan qarab turdik. Yig'ilgan odamlar orasidan yig'i-sig'i eshilib turgan edi, birdan g'ovur ko'tarildi-yu, yana tindi. Birozdan keyin yana yig'i-sig'i boshlandi, lekin uzoq davom etmay darrov jimidi. Odamlar asta-sekin tarqalishdi. Shu bilan Abdurahmon buvaning urug'idan boshqa hech kim o'lmadi. Oradan uch-to'rt kun o'tar-o'tmas dadam «qishloqqa vabo kelgani rost shekilli, Isomidin ellikboshini olib ketibdi», deb keldi. Shundan keyin ajal kalxat singari qishloq ustida jimgina parvoz qilib, har kuni bir, ba'zan ikki, hatto uch xonadonni qon qaqshata boshladi.

Qishloq vahima ichida, hech kim uyidan chiqmas edi. Qo'shnimiz Hotam samovarchi qazo qildi. Janoza o'qigani, tobut ko'targani odam bo'lmay, o'lik peshingacha turib qoldi.

Mardikorlarning kela boshlashi mana shu kunlarga to'g'ri keldi.

Har kuni qishloqning har tomonidan yig'i chiqadi – ochlikdan o'lgan, yo qazo qilgan biron odamning mardikorga ketgan yaqin kishisi kelgan, yo bo'lmasa mardikordan qaytgan kishi birovning o'limi xabarini olib kelgan bo'lar edi.

Sumbulaning oxirlarigacha ko'p hovlilar, butun-bu-tun mahallalar huvillab boyqushxonaga aylandi. Bu hovlilarda pishgan mevalar, yegani odam bo'lmay yoki odamlar hazar qilib, to'kilgan joyida chirib, shoxida qolib ketar edi. Nihoyat o'likdan «yer to'ydi» – vaboning shiddati susaydi. Kuzning madadi bilan ochlik ham sepsildi. Odamlarga biroz darmon kirdi.

Qo'qonlik amaldor aytmog'chi «poshsholik o'z izzati bilan poyezdga solib yuborgan» mardikorlar mezonga qolmay batamom yetib kelishdi, «izzatnii bilmay qochib ketganlarga» aza ochildi.

Uzoq yurtlardan kuzga yaqin yetib kelgan mardikorlar «Lenin», «Bolishbek» degan so'zlarni olib kelishdi. Bu so'zlarning ma'nosini shu kunlari Jar-buloqdan kelgan katta ammamning o'gay o'g'li Saidakbarxon eshondan bildik.

Bu odam eshon bo'lsa ham mening tasavvurimdagi uzun soqol, sallasi katta, ko'zini yumib tasbeh o'g'irib o'tiradigan eshonlardan emas edi. Saidakbarxon shaharda ko'rgan-eshitganlaridan gapirib, ikki xuftongacha o'tirdik. Bu orada ayam menga «yotgin» deb ikki-uch xo'mraydi, men har safar turmoqchi bo'lib yana o'tirib qolar, ko'zimni g'ijimlab kelayotgan uyquni qochirish uchun ko'zimga sekin tufuk surkab qo'yar edim.

Saidakbarxon Lenin to'g'risida gapirib, uning yetmish ikki firqa tilini bilishini, oqqoshshoni yiqitgani, urushni to'xtatish to'g'risida girmon poshshosiga ham so'zi o'tganini maqtadi, lekin «boy bilan kambag'alni baravar qilaman» degan niyatidan kuldi.

– Xom sut emgan banda shu-da, bo'yidan bir qarichgina yuqoriroqqa chiqsa, darrov Xudoyi taoloning soyasiga tig' uradi. Namrud ham shunday qilgan, Xudoga o'q otgan... Xudoning azmi bilan birov boy, birov kambag'al bo'libdi, besh panjani baravar qilib bo'lar emishmi!

Saidakbarxon ertasiga azonda, qattiq yomg'ir yog'ib turganiga qaramay, Bachqir qishlog'iga o'tib ketdi.

Yomg'ir peshindan keyin tindi. Besaranjom qora bulutlar orasidan oftob mo'raladi. Ko'chada qunishgan odamlar paydo bo'ldi. Do'konimiz oldiga bir necha kishi yig'ildi. Hammaning og'zida har xil gap, lekin bu gaplarning eng qizig'i Lenin to'g'risidagi gaplar edi. Dadam Lenin boy bilan kambag'alni baravar qilmoqchi ekanini aytdi. Bunga birov tushunolmas, birov ishonmas edi. Ali laylak boshining orqasini qashlab turib:

– Xo'p, – dedi, – Lenin boy bilan kambag'alni baravar qilar ekan, qanaqasiga baravar qiladi, boyni kambag'al qiladimi, yoki kambag'alni boy qiladimi?

Gapga aravasozi usta No'mon aralashdi:

– Kambag'alni boy qilsa ham boyga ziyon, boyni kambag'al qilsa ham boyga ziyon; har nechuk, Lenin degani kambag'aldan chiqqan odamga o'xshaydi, kambag'al bo'lganda ham kambag'allikning jabrini juda ko'p tortgan odam bo'lsa kerak.

Leninning bu niyati oqposhsho yiqilgani bilan hurriyatdan umid uzib jimjit bo'lib qolgan qishloqni junbisha keltirdi. «Hurriyat» degan gap yana bosh ko'tardi, lekin endi odamlarning amaldorlarga da'vosi, hurriyatdan umid-orzulari aniq va buning mag'zida boy-kambag'al, amaldorlarning zulmi, boylarning jabri, norozilik yotar edi. Amaldorlarning bo'yni qisildi, boylarda parishonlik yuz berdi. Ilgari yuzboshining o'ldirilganligi qishloqni badnom qilgan voqea, shu munosabat bilan to'ralar haydatib ketgan kishilar yurti baloga qoldirgan «kasofatlar» hisoblansa, endilikda, bu voqea Buvaydini qishloqlar orasida mo'tabar, to'ralar haydatib ketgan kishilar-dan bedom-darak ketganlari «rahmatli», qaytganlari «azamatlar» bo'lib qoldi. Yuzboshi uch bo'lak qilingan o'sha jodini kim yasaganligi tilga olinishidan dadam

ilgari qo'rqsa, endi «o'sha jodini men yasagan edim» deb keriladigan bo'lib qoldi.

Otamlar nimanidir kutar, bu gaplar va bu hodisalar kattakon bir voqeaning arafasiga o'xshar edi.

Butun yoz tashvish-tahlikada o'tdi. Bir-biriga qarshi, bir-biriga qovushmagan har xil xabarlar... Kuzda dadam Qo'qonga borib keldi. Uning sezishicha, shahar notinch, hammaning ichi to'la gap, lekin hech kim yorilib bir nima demas ekan.

Kech kuzakda: «Toshkentga Leninning o'ng qo'li – Bolishvek kelipti» degan gap tarqaldi. Oradan bir oy o'tar-o't nas, «Bolishbek Qo'qonga kelayotgan emish», degan xabar keldi. Hamma ko'chada, samovarlar liq to'la tayinlik bir gap aytadigan odam yo'q, inmaydi. Chilon qori Qo'qonga ketgan ekan, «Musulmonobod bo'ladi», degan gapni topib kelibdi. Hademay «bachqirlik Ergashni oq kigizga solib xon ko'tarib Qo'qonga olib ketishibdi» degan xabar tarqaldi.

Bachqir Buvaydiga yaqin qishloq, Ergash mashhur o'g'riboshi bo'lib, Sibirga borib kelganligi hamмага ma'lum ekan, hamma hayron.

– Musulmonobodni Ergash qilar emishmi?

Oradan biroz vaqt o'tib, Qo'qonda urush boshlanib ketdi. Yong'in shu'lası Buvaydidan baralla ko'rinib turar edi. Har kuni shomdan keyin hamma tomida.

Biron haftadan keyin «Ergash yigitlari bilan Qo'qondan qochibdi», degan xabar keldi.

Omon-omon bo'lgandan keyin oradan o'n kuncha o'tkazib turib, dadam amakim bilan onasi va ammandan xabar olgani Qo'qonga borib keldi. Qo'qonda rastalar, kapponlar kuygan, ko'p joylar vayron bo'lgan, lekin shahar tinch ekan. Dadam do'konimiz oldiga yig'ilgan odamlarga shu to'g'rida gapirib berdi.

– Lekin, – dedi kulib, – o'risning yaxshisi endi kelibdi: yo'lkada to'qnash kelib qolsang chetlanib yo'l beradi. Agar shu urushda Ergashning qo'li baland kelsa bormi, bilmadim nima bo'lar edi.

Ali laylak so'rab qoldi:

– Bolishbekni o'z ko'zing bilan ko'rdingmi, qanaqa odam ekan?

– Ko'rmadim, – dedi dadam, – chamamda Bolishbek bitta odam bo'lmasa kerak.

Oradan ko'p o'tmay Buvaydiga Ergash qo'rboshi yigitlari bilan keldi. Uning yigitlari Eshon buvaning karvonsaroyiga, o'zi mingboshining uyiga tushdi.

Dadam bizni o'sha zamoni Tolliqdagi oshnasinikiga olib ketdi, chunki ichi to'la adovat bo'lgan Valixon so'fi «bu odam ko'k shapkali to'ralar bilan oshnachilik qilar edi», deb Ergashga chaqsa, holimiz nima kechishi noma'lum edi.

«Ko'za»lar

Ergash yigitlari bilan o'sha kechasi Buvaydidan chiqib ketibdi. Bu xabarni bizga Ali laylak yetkazdi. Ertasiga Buvaydiga qaytib keldik.

Dadam har nechuk Valixon so'fining ko'zidan yiroqroq bo'lish uchun katta go'ristonning naryog'idagi mahalladan hovli topdi. Darrov ko'chib oldik. Hovli tor, devorlari baland, xuddi kattakon hovuzga o'xshar, buning ham to'rtidan birini ayvon egallagan edi. Ayvonga qisir sigirimiz bilan g'unajinni bog'ladik. Ayvonga ochiladigan darcha berkilgandan keyin uy qop-qorong'i bo'lib qoldi. Ayam uyni ko'rish bilan: «Voy, lahad-ku», deb yubordi.

Dadam shu atrofdan – qishloqning chiqaverishidan do'kon qidirdi. Do'kon tezda topilavermadi. Kulala uchovimiz charxni ko'tarib dala aylanadigan bo'ldik. Dehqonlarning o'rog'ini, pichog'ini charxlab bir xalta-yarim xalta don-dun topib kelar, shuni tamaddi qilar edik.

Ro'za kirib qoldi. Hech birimiz ro'za tutmadik.

Ayam bir kun bir shokosa bug'doyni yorma qilib nonushtaga suyuq osh pishirdi. Eshikni tambalab

uyga kirdik. Ayam ovqatni suzib endi dasturxonga qo'rganida birdan gupur-gupur bo'lib qoldi: ko'cha eshigi va devorlardan oshib besh-olti kishi hovliga tushdi. Ko'cha eshigini ochib yuborishdi. Eshikdan ham bir qancha kishi kirdi. Ikki-uch kishi «po'sht-po'sht» deb uyga otildi va va dadam bilan Kulalani sudrab hovliga olib chiqdi. Hovlida Valixon so'fi ko'zlarini shohsoqqaday o'ynatib turar edi: «Ha, kasofating o'zingga ursin!» deb qo'lidagi tayoq bilan dadamning boshiga tushirdi. Qo'rquvdan es-hushini yo'qotib qo'rgan ukam Umarali o'ziga kelib chinqirib yubordi. Boshiga dasturxon yopinib olgan ayam eshik oldida turib dir-dir titrar, nuqul «kasal, hammamiz kasalmiz», der va «sen ham ayt», deb meni turtar edi.

Oshni ikki qo'shquloqqa quyib, dadam bilan Kulalaning bo'yniga osishdi va ikkovini bozorboshiga tomon haydab ketishdi. Odamlarning g'ovuri, bola-chaqaning shovqin-suroni ichida Valixon so'fining hadeb: «Kasofating o'zingga ursin!» deb baqirgani eshitilib borar edi. Do'konimiz oldidan o'tishda Ali laylakka ko'zim tushdi. Ali laylak indamay odamlarga ergashdi. «Ko'za»larni timning ostidagi samovarga olib kirishdi.

Yana odam yig'ildi, Valixon so'fi so'riga chiqib xalqqa xitob qildi:

– Musulmonlar, mana, ko'rib turibsizlar, birniki mingga, mingniki tumanga!

Valixon so'fi yurt boshiga kelgan vabo, ochlik, boshqa hamma falokatni «mana shu kasofatlar»ga to'nkadi, so'zini tamom qilib: «Ur, ko'zani!» dedi. G'ovur ko'tarildi. Bir necha kishi dadamni urgani do'g'ayib keldi. Men dodlab yubordim. Meni Ali laylak quchoqlab yupatdi. Kimdir betimga suv sepdi. Biroq dadamga hech kim qo'l tekkizmadi. Ali laylak boya dadamni urmoqchi bo'lib do'g'ayib kelgan odamlarga bir nimalar dedi.

Dadam bilan Kulalani samovarning ko'mirxonasiga qamab qo'yishdi. Xaloyiq tarqala boshladi. Men bo'lgan voqeani ayamga aytgani hovliga chopdim. Ayam hamon boshida dasturxon, ukamni bag'riga bosib ko'cha eshigi oldida o'tirar, har bir o'tkinchiga: «Kasal edi, hammamiz kasalmiz», deb arz qilar, yig'lar edi.

«Ko'za»larni shomga yaqin qo'yib yuborishdi. Bularni kazo-kazolar «haqiqat» qilib, Kulalaning ham gunohini dadamga yuklashibdi, katta jarima solishibdi. Jarimani to'lash muhlati juda qisqa bo'lgani uchun dadam ertalabdan pul topish harakatiga tushdi. Uyda qisir sigir bilan g'unajindan boshqa pulga arzirli hech narsa yo'q edi. Dadam g'unajinni qora kunga asrab, qisir sigir bilan do'konning hammasi uskunasini sotdi. Ayam aytmoqchi, ikki qo'l-u bir tepa bo'ldik-qoldik. Jarima to'landi. Dadam shaharga borib biror ustaga xalifa tushishni ko'zlab qoldi.

Oradan bir necha kun o'tib, Namangan temir yo'lining qaysi bir stansiyasida jang bo'ldi. «Ergash temir yo'l stansiyasini tor-mor qilayotganda Qo'qondan bir poyezd askar kelib qolibdi», deyishdi. Otishma tush mahaligacha davom etdi. Urush tingandan keyin mingboshi jarchi chiqartirib, timga, hamma do'konlar va mahallalardagi uylarning eshigi ustiga oq bayroq tiktirdi. Shu kuni bolalarning dastidan hech bir oq latta qolmadi, kampirlarning doka, duda ro'moli-yu eski salladan tortib oq lattaki bor, hammasi eshiklarning ustiga, daraxtlarga ilindi.

Kechga yaqin «Bozorboshiga Bolishbek kelar emish», degan ovoza tarqaldi. Butun qishloq bozorboshiga, timga yopirilib keldi. Biz, bolalar, timning chiqaverishidagi tolning kallagiga, ustunlarga, tomlarga chiqib oldik. Namozgarga yaqin timga ellikka yaqin otliq kirib keldi. Bular hammasi miltiq ko'targan, qilich taqqan bo'lsa ham kiyimidan askarga o'xshamas edi. Kalta, ityoqa ko'ylakning ustidan enli kamar bog'lab, to'pponcha taqib olgan qop-qora va

jikkakkina bir kishi so'rining ustiga chiqib xalqqa va'z aytdi. Men uning gapini eshitolmadim, lekin «Lenin», «qonxo'r boylar» degani qulog'imga kirdi.

U so'zini tugatgandan keyin tinning allaqayeridan baland ovoz eshitildi:

– Ho, oshna, Bolishbek akam qachon keladilar?

U odam yana bir nimalar dedi. Men yana uning gapini eshitolmadim, lekin ko'kragiga urib:

– Men musulmon Bolishbekman! – deganini aniq eshitdim.

Bular otlanishayotganda qarasam, musulmon Bolishbekning yonida dadam paydo bo'lib qoldi, kuyib-pishib unga uzoq gapirdi. Musulmon Bolishbek atrofida turgan odamlardan bir-ikkitasiga dadamni ko'rsatib bir nimalar dedi-yu, otlanib jo'nadi. Bular Eshon buvaning karvonsaroyidan o'tib, so'qmoq bilan Tolliqqa tomon ketishdi.

Men dadam bilan Kulalani yo'qotib qo'ygan edim, qaytib kelsam, uyda o'tiribdi. Ikkovining ham og'zi qulog'ida. Ayam ham xursand. Ma'lum bo'lishicha, dadam musulmon Bolishbekka jarima voqeasini, asbob-uskunasiz qolganini aytib arz qilgan ekan, musulmon Bolishbek yonida turgan odamlarga «Ustaning pulini kim olgan bo'lsa darrov qaytib bersin, bermasa qaytishda ichiga miltiq dori to'ldirib burnida o't qo'yaman», debdi.

Musulmon Bolishbekning bu gapi birpasda butun qishloqqa tarqaldi. Eshitgan odam kular edi.

Dadamdan olingan pulni mahalla baloxo'rlari bo'lishib olgan ekan, Valixon so'fi ko'chada folbinday oldiga qiyiq yozib o'tirib, baloxo'rlardan pulni yig'di va muloyimsupurgi bo'lib, dadamga qaytarib berdi.

Ertasiga hamma oq bayroqlarning o'rniga qizil bayroq tikildi. Qishloqda qizil gazmol bo'lmagani uchun odamlar doka, duda, bo'zni ko'z og'riganda quyiladigan qizil rangga bo'yab osishdi. Qishloq attorlarida qizil rang qolmadi.

Dadam musulmon Bolishbekka arz qilishga qildi, jarimani undirib oldi-yu, lekin bu yog'ini o'ylamabdi: Ergash qo'rboshi qaytib kelsa, baloxo'rlar, avvalboshi Valixon so'fi o'ch olsa nima bo'ladi?

Ali laylak ham shu gapni aytdi va qishloqdan ko'chib ketishni maslahat berdi.

Ali laylakning qo'shni qishloq Oqqo'rg'onda qarindoshi bor ekan, gaplashib kelgani dadamni olib ketdi.

Muhammadjon qori

Oqqo'rg'on qishloq emas, anjirzor ekan. Bog'lar, chorbog'larda boshqa meva ko'rinmaydi, nuqul anjir. Biz tushgan hovli sahnida ikki tup anjir bor ekan, ochlik hosiliga hech kim termabdi – oldin pishgani shohida mayiz bo'lib, endi pishgani kindigidan sap-sariq shirasi oqib yotibdi. Buning sirini Kulala qayerdandir bilib olibdi: hovlining egasi bulturgi vaboda bola-chaqasi bilan o'lib ketgan ekan. Dadam Kulalani urishib berdi, chunki bu gapni ayam eshitib qolsa, ukam ikkovimizni quchoqlab dod solishi turgan gap edi.

Hovli xiyla katta, o'rtasida chog'roq gulzor, suvsizlikdan hamma gullar qurib, faqat gultojixo'roz qolibdi. Ikkita baland va yorug' uy, bir chekkada kichkina bostirma og'il. Ayam buzoqchamizni og'ilga bog'lab chiqar ekan, umrlik orzusi ushalganday yayrab: «Endi bu yerdan ko'chmaylik, dadasi. Siz ham qadamingizni bilib bosing, birov bilan gap chiqishmang, besh mahal namozni kanda qilmang», – dedi.

Do'kon hovliga yaqin, qumloq maydonning naryog'idagi uch ayrilishda, ayrilishning o'rtasidagi al-lanima degan mozorning ro'parasida; mozor esa anhor bo'yidagi kekxa tutning ostida bo'lib, ustiga takaning shoxi va soqoli osilgan loy gumbazdan iborat edi.

Bu yerda ham ish yo'q. Hamma dalada. Qishloqda pashsha uchmaydi. Men yangi hovlida ayam bilan qolib, dadam bilan Kulala charx ko'tarib dala aylani-

shar, kechqurun moshq, bir xalta-yarim xalta don ko'tarib kelishar edi.

Dadam bir kuni xufton namozidan «Katta machitda qo'qonlik Muhammadjon qori «usuli jadid» degan yangi maktab ochgan, uch oyda bolani xat-savodli qilarmish», degan gapni topib keldi.

Dadam ertasiga ertalab meni katta machitga boshlab bordi. Biz machit hovlisining chap tomonidagi qator uchta hujradan birinchisining darchasiga ro'para bo'lganimizda ichkaridan qop-qora soqol-mo'ylabi bodrab chiqqan, o'zi to'ladan kelgan, bir ko'zi bilinar-bilinmas g'ilay bir kishi yugurib chiqdi va dadam bilan so'rashgandan keyin menga ham qo'l berdi, qo'llarimni mushukning qorniday yumshoq va issiq hovuchiga olib siltab qo'ydi. Uning menga qo'l berganidan allaqanday, xuddi bir gaz o'sganday bo'ldim, vaqtim chog' bo'lib ketdi. Shu choqqacha hech kim men bilan qo'l berib so'rashmagan edi. Muhammadjon qori shu ekan.

Maktab deganda mening ko'z oldimga machitning tashlandiq hujrasi, bo'ya, urushqoq jo'jaxo'rozday bo'yni qip-qizil va hoji do'ppi kiygan Valixon so'fi kelar, qulog'imga bolalarning chug'ur-chug'uri, «apalamza al» eshitilar edi. Muhammadjon qori Valixon so'figa sira o'xshamagani singari, bu maktab ham Valixon so'fining maktabiga butkul o'xshamas, bolalar past-baland qoqilgan sakkiz qator taxta – partada jimjit kitob o'qib, xat yozib o'tirishar edi.

Boshqa narsa bo'lmagani uchun dadam biroz pulni dasturxon qilib kelgan ekan, domla olmadi, hatto xafa bo'ldi. Dadam ketdi. Domla meni gapga soldi. Men uning so'roqlariga javoban Valixon so'fida biroz o'qiganimni, dadam xat tanitganini, dadam o'qigan kitoblarning nomini aytib berdim. Domla nonxo'rak oldida meni bolalarga tanitdi: «Zehni o'tkir bola, maktab ko'rmasdan xat tanibdi, o'rtoq bo'linglar»,

dedi. Bolalar menga havas bilan qarab-qarab chiqib ketishdi.

Domla meni to'xtatdi.

– Ertadan senga kitob, daftar, qalam beraman, o'qiysan, xat mashq qilasan, – dedi. – Tiling salgina chuchuk ekan, mayli, tural aytib yursang burro bo'lib ketadi. Qani, ayt-chi: tutning tomirini turp tutib turpti, turpning tomirini tut tutib turptil!

Men bu turalni dabdurustdan aytolmadim. Haqiqatan, tilim chuchuk, ko'p so'zlarga kelishmas, lekin buni o'zim emas, hatto ota-onam ham payqamagan yo e'tibor qilmagan ekan. Turalni ertasiga domlaga sharros aytib berish uchun uyda xo'p mashq qildim. Ayam yangi maktabning birinchi sabog'idan xafa bo'ldi, lekin domla buni nima maqsadda o'rgatgani-ni eshitib, uni xo'p duo qildi, ukam Umaraliga ham o'rgatdi. Ertalab qarasam, dadam ham tural mashq qilib maxsisini kiyayotibdi.

Ertasiga turalni tez-tez aytolmasam ham, harqalay, domlaga sharros aytib berdim va boshqa tural o'rgandim: «Bir tokchada uch tokcha, uch tokchasi bir tokcha...»

Undan keyin «Ustodi avval» degan kitobdan o'qish va xat mashq qilish uchun saboq oldim. Dadam kitob o'qiganda satrlarga ko'z yugurtirib so'zlarning shakli yod bo'lib qolganday, bu so'zlarni ko'mir bilan devorlarga, eshiklarga yozib yurib xatga ham qo'lim kelib qolgan ekan. Ikki oy o'tar-o'tmas «Gulshani dilafgor», «Bolalar bog'chasi», «Ajoyibul maxluqot» singari kitoblarga, Abdulla Avloniy, Tavallo, So'fizoda, Sidiqiy adabiyotlariga tishim o'tadigan, Mahmudiyning insho kitobidan maktub, turli hujjatlar nusxasini chiroyli qilib ko'chiradigan bo'ldim.

Peshqadam bolalardan Sotiboldi Fuzuliy, Hotam Tursunqul Bedildan dars olar, domla bularga yangi dars berganda meni chaqirib yoniga o'tqizar edi.

Domlamizning aytishiga qaraganda, biz olti bola kuzdan boshlab faroizm va xarita o'qishimiz kerak edi, biroq bu ilmlar bizga nasib bo'lmadi.

Machitning qator uch hujrasidan biri maktab, ikkinchisida domlamiz o'tirar edi, uchinchisiga Buxoroda tahsil ko'rgan aka-uka Qutbiddin va Husniddin degan mullavachchalar ko'chib kelishdi. Bular Bo'rmang'it mahallasidan marhum Sayfiddin hojining o'g'illari bo'lib, avval Qo'qondagi Buzrukxo'ja madrasasida, undan keyin biroz vaqt Buxoroda tahsil ko'rgan, zamona notinch bo'lgandan keyin o'qishni tashlab kelishgan ekan. Aka-uka ikkovi ham novcha, ozg'in, soqol-mo'ylabi sabza urgan; ikkovining ham egnida bo'z xalta ko'ylak, alak avra to'n, boshida anjir nusxa kichkina salla; ikkovi ham mayin tovush bilan iloji boricha qiroat-tilovat maqomida so'zlar, machitni «masjid», supurgini «sufurgi», hamma bolani «valad» der edi. Bo'rmang'itdagi otasidan qolgan o'z hovlisida turmay machitning hujrasiga suqulishdan ikkovining muddaosi machitga o'rnashib olish – Qutbiddin domlamizdan so'filikni, Husniddin maktabni tortib olmoqchi ekan. Biz buni aka-ukaning domlamiz haqida orqavarotdan aytgan gaplari, har narsadan bir ishkal topmoqchi bo'lib qilgan g'animlik kirdikorlaridan bilar va o'zaro so'zlashar edik. Bir kuni, domla peshinga azon aytganida, Qutbiddin machitning jilovxonasida o'tirgan bir-ikkita mo'ysafidga soatini ko'rsatib: «Azonni yarim soat oldin aytdi», deb kulibdi; Husniddin Haydar degan bolaning dadasiga: «Suv olgani suvga chiqqan xotinlarga kulib qaraydi», dedi. Qutbiddin bir-ikkita boladan, «Domlalarining namozlik o'rgatadimi?» deb so'rabdi.

Shundan keyin domla azon mahalida Qutbiddindan soat so'raydigan, tahorat olgani machitning orqasidagi hovuz bo'yiga chiqqanida boshiga ro'mol yopinadigan, har kuni darsdan keyin bizni chug'ur-latib namozlik o'rgatadigan bo'ldi. Biroq g'iybat,

fitna-fasodlarga domlanning e'tibor qilmasligi ham aka-ukaning jig'i-biyronini chiqarar edi, e'tibor qilishi ham.

Bir kuni tush paytida maktabning eshigi oldida Qutbiddinning shovqini, domlamizning bosinqi tovushi eshitildi. Men darcha oldida o'tirar edim, qaradim.

– Kekirdakka zo'r bermasinlar, – dedi domla qattiq shivirlab, – Xudoyi taolo odam bolasiga zabon ham bergan!

Qutbiddin uzun yengini tirsagiga surib, domlaga qo'lini paxsa qildi:

– O'z qishlog'imizda masjid, maktab turganda biz qayoqqa boramiz? Biz chekkan riyozatning qadr-qiy-mati bo'lmasa ham Buxoroyi sharifning qadr-qiy-mati bordir? Masjidning eshigi oldida hamisha bitta-ikkitadan ot bog'loqliq turadi, binobarin, sizga xat, ariza va boshqa balo-battarlar yozdirgani uzoq joylardan ham odam kelib turadi, shundan keladigan daromad kifoya emasmi?

Domla bosh chayqab kuldi:

– Men bu yerga so'filik qilib, maktab tutib non top-gani kelgan emasman, padari buzrukvorim o'zlariga to'q kishi. Men qishloqqa ilm-ma'rifat urug'ini sochgani kelganman.

Qutbiddin zaharxanda qildi:

– Jadidlik urug'ini sochgani kelganman, deng! Hammani to'rtinchi qilaman, deng!

– Jaholat! Jadidga nima qipti? Jadid – yangi, usuli jadid – yangi usul, degan gap, jadidlik kufrmi?

Qutbiddin uning so'ziga quloq solmadi:

– Sizning jadidligingiz, salla-yu kallangiz, butun ilmingiz Buxoroyi sharifning bir dona g'ishtiga arzimikan?

Domla maktabga tomon ko'z tashladi. Uning xiyol-gina g'ilay ko'zi xijolatdanmi yo g'azabdanmi butkul g'ilay bo'lib ketdi, lekin tovushi o'zgarmadi:

– Albatta, Buxoroyi sharifning har bir gʻishti ilm, har bir toshi hikmat, lekin xazinaga kirgan mushuk zarga qaramaydi, sichqon ovlaydi!

Domla shunday dedi-yu, maktabga kirdi-ketdi. Qutbiddin uning ketidan koʻzlarini oʻynatib: «Alfozi qabeha» deganicha qolaverdi.

Oradan uch-toʻrt kun oʻtib maktabga beqasam toʻn ustidan uch-toʻrtta shohi belbogʻ bogʻlagan, yelkalariga oʻq osgan novcha bir kishi kirib keldi. Domla uni darrov hujrasiga olib kirdi. Bu odam qoʻrboshi-ning ponsodi ekan. Anchadan keyin domla rang-quti oʻchib ponsod bilan chiqdi. Ponsod uning koʻz oldida bizga partalarni buzdirdi, taxtalarini machitning sahniga uydirib, oʻz qoʻli bilan oʻt qoʻydi.

Ponsod ketdi.

Shu kuni peshin namoziga azonni Qutbiddin aytdi.

Peshindan keyin domla hujrani boʻshatdi. Biz uning kitob, koʻrpa-yostigʻi va boshqa narsalarini machitning orqasidagi tor koʻchada turadigan bir odamning qaznogʻiga tashib berdik.

Men voqeani ota-onamga aytdim, bu kunlarda ukam Umarali ogʻir betob edi, hech birining qulogʻiga gap kirmadi.

Bir boshga ikki oʻlim

Ukam Umaralining ahvoli kundan-kun ogʻirlasha boshladi. Dadam uning kasalini «koʻz»dan koʻrar edi.

Umarali juda boʻliq, shoʻx, tili nihoyatda biyron bola edi. Dadam har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytib ham uni qoʻliga olar, suyar, chugʻirlatar, gaplariga, qiliqlariga zavq qilib kular edi. Onam uni «suq koʻz»dan asrab, toʻni, hatto koʻylaklariga ham koʻztumor, koʻzmunchiq taqqan, har kuni erta-yu kech unga isiriq solar edi.

Oʻsha mashʼum shanba kuni ertalab dadam bomdod namozidan chiqib doʻkonga tomon burilgani-

da qarasa, Umarali eshigimiz oldidagi qumtepada o'zidan ikki yosh chamasi katta bola bilan olishayotgan ekan, bolani yiqitibdi, qumga bosib ustiga minib olibdi. Machitdan chiqqan boshqa namozxonlar ham buni kuzatib turishgan ekan, hammasi yoqasini ushlabdi. Shunda dadam ko'z balosidan qo'rqib ichida «o'h» deb qo'yibdi.

Umarali o'sha kuni kechqurun isitmaladi, ertasiga kuni bo'yi ko'zini ochmasdan isitmada yonib yotdi; uchinchi kuni betoqat bo'lib, inqillab o'zini uyoqqa-bu yoqqa tashladi; ba'zan qizargan ko'zlari-ni katta ochib, goh dadamga, goh ayamga javdirab qarardi. Farzand dog'ida kuya-kuya jizg'anak bo'lib qolgan va hozir Umaralining har bir inqillashi yuragiga cho'g'day tegayotgan ayam, nazarimda, tin olgani ham qo'rqar, harakatlari, gaplaridan savdoyi odamga o'xshar edi. Dadam unga tasalli taskin berish uchun o'zini harchand og'ir tutishga urinsa ham o'tirar-turarini bilmas, Umaraliga dam-badam isiriq solar, najot izlaganday hadeb ko'chaga chiqar, ko'chadan har safar bir ilinj bilan qaytar edi.

Sallasi kattakon bir domla kelib Umaraliga uzoq dam soldi, keyin dadamga yuzlanib: «Azizlarga bir jondor ko'taring», dedi. Dadam xuddi «azizlar mana buni olsin-u o'g'limni bersin» deganday og'ildan darrov buzog'imizni yetaklab chiqdi va uni Shohimardonga atab, domladan fotiha oldi.

Ertasiga bir xotin kelib Umaralini childirma bilan «ko'chirdi».

Umarali kechasi-yu kunduzi isitmada yonib inqillar, ba'zan jindakkina mizg'iganday bo'lsa yana ko'zlari-ni katta ochib, jonini qo'ygani joy topolmay o'zini goh dadamning, goh ayamning quchog'iga otar edi.

Tabib keldi, ukamning tomirini ushlab ko'rdi-yu, kabob buyurdi. Kulala butun qishloqni qidirib dorilikka besh paysa go'sht topib keldi. Dadam ikki

to'g'ram go'shtni otashkurakda cho'qqa tutib kabob qildi, Umaralini quchog'iga olib, kabobning selini uning og'ziga tomizdi. Qisqa-qisqa inqillab turgan bola birdan jim bo'ldi. Men suyunib ketdim. Biroq dadam, yelkalari silkindi-yu, peshonasiga ikki-uch shappalab ho'ngrab yubordi. Ayam nima hodisa ro'y berganini darrov uqmadi shekilli, ukamni uning quchog'idan yulib oldi va bir necha vaqtdan keyin dod soldi. Men ayvonning ustunini quchoqlaganimcha qotib qoldim.

Dadam peshonasiga shaq-shaq urib tovush chiqarmay to'lg'anar, Shohimardon, hamma aziz-avliyolarni og'izga olib bo'lmaydigan so'zlar bilan so'kar edi.

Qo'ni-qo'shni kirdi. Bukchayib qolgan bir kampir hanuz aziz-avliyolarni changitib so'kayotgan dadamni bosmoqchi bo'ldi.

– Hay-hay, bolam, har ish Xudodan-a, kofir bo'ladi kishil..

Dadam telba bir ahvolda hamla qilib tokchada turgan Qur'onni oldi-yu, qulochkash qilib yerga urdi.

– Mana kofir! – dedi va bunga qanoat qilmay, yerda yotgan Qur'onni tepib yubordi. – Mana kofir!..

Qur'onning chipor muqovasi bir tomonga, o'zi boshqa tomonga uchib ketdi. Kampir dodlab o'zini Qur'onning ustiga tashladi.

Dadam ayvonning ustuniga sanchib qo'yilgan pichoqni olib, yugurganicha og'ilga kirdi, buzoqni yetaklab chiqdi-da, ikki oyog'idan ko'tarib yerga urdi va bo'yniga pichoq tortib yubordi.

– Mana kofir! Mana kofir!.. Go'shtini itlarga beraman!

So'yilgan buzoq jonholatda o'rnidan turdi, boshi bir tomonga qiyshayganicha borib devorga urildi va yiqilib tipirlay boshladi. Yer, devor, dadamning us-ti-boshi qonga belandi.

Birpasda hovli erkak-ayol, bola-chaqaga to'ldi. Erkaklar hamon Qur'onni, Xudoni changitib so'kayotgan

va buzoqni tilka-pora qilib itga tashlamoqchi bo'lgan dadamni ushlab bir chekkaga o'tqazishdi. Ayollar hushdan ketib qolgan ayamning bag'ridan murdani olib uyga kirishdi. Kimdir menga suv ichirdi...

Umaralini namozgarga yaqin zambilda olib ketishdi. Men qisqa-qisqa nafas olib hushdan ketib yotgan ayamning yonidan jilmadim. Xotinlar ovoz solishdi.

Ayam ertasiga hushiga keldi, yig'i boshladi.

Dadam dam-badam ichidan xuruj qilib kelayotgan yig'ini yutib, ayamga tasalli berdi, taqdiri azal, odamning umri, bir tomchi kabobning seli Umaralining oxirgi rizqi ekani va yana allanimalar haqida gapirdi.

Oradan bir hafta o'tib men domlamiz va maktabdan xabar olgani bordim. Maktab machitning orqasidagi tor ko'chaga, birovning otxonasiga ko'chibdi. Maktabda endi faqat haftiyak, Qur'on o'qilar, bolalarni domla har kuni peshin namozini o'qigani machitga olib chiqar ekan.

Domla bolalarni uradigan odat chiqardi, bir kuni Qur'on o'qiyotib bir so'zga tilim kelishmagani uchun bir shapati tushirdi. Alamimdan o'sha so'zni chimchilagan edim, Qur'onning varag'i teshilib ketdi. Domla buni payqab qoldi yana bir shapati yedim.

Sovuq tushguncha tashqarida, sovuq tushgandan keyin og'ilda to'ngak yoqib uning atrofiga tizilishib o'qidik.

Men qishi bilan Qur'onni «Taborak»gacha yod oldim.

Hammamizni domla mumkin qadar qattiqroq shovqin solib o'qishga majbur qilar edi.

Bahor kechalarining birida dadam arava olib kelib vahima qildi:

– Ergash qo'rboshi hukumatga «urushadigan joyingni ko'rsat» degan ekan, hukumat «men sen bilan Oqqo'rg'onda urushaman» debdi. Erta-indin Oqqo'rg'onda urush boshlanar emish. Urush o'tguncha Qo'qonga borib turmasak, oyoqosti bo'lamiz. Qani turinglar, vaqtida qochib qolaylik, – dedi.

Ayam yig'i boshladi.

– Voy, men Umaralining hayitini o'tkazmasdan qayoqqa boraman! Qachongacha men bolalarimning go'rini g'arib qilaman! Xudoyo temirchilik hunar bo'lmay o'lsin!

Mening ham ko'nglim buzilib ketdi, yig'ladim, nazarimda, biz hozir shaharga jo'nasak, Umara-li go'ridan chiqib, orqamizdan qarab qoladiganday bo'ldi. Kulala ham yig'lab yubordi.

Dadam hammamizni yupatdi.

– Ergash nima o'zi, Sibirdan qochgan bitta o'g'rida! To'p-to'pxonasi bo'lmasa, xazinasini bo'lmasa, hukumat bilan qancha urushadi; bir cho'qishda qochadi, qaytib kelamiz... Urush bo'lgan joyda talon ham bo'ladi, ehtiyotdan «Zinger»ni olib ketamiz.

Uyda «Zinger»dan boshqa pulga arziydigan narsa bo'lmagani uchun quruq bo'yimiz aravaga chiqdik. Ayam aravada «Zinger»ni paranjisi ostiga olib o'tirdi.

Bu shoshilinch ko'chishning asl sababi Qo'qonga borganimizda ma'lum bo'ldi: Oqqo'rg'onda urush-purush yo'q. Ergash qo'rboshi o'z qishlog'i Bachqirda o'rda solayotgan ekan, dadam shu o'rdada taqachilik qilishi va yarog'-aslaha ustaxonasida ishlashi kerak ekan. Ergashning bir ponsodi shu haqda Ergash nomidan dadamga gapirib, Bachqirga ko'chgani ikki kun muhlat beribdi, chorshanba kuni ertalab arava yuboradigan bo'libdi.

Oqqo'rg'onning suvi minba'd bizga harom bo'lgani-ni eshitib ayam dod-faryod ko'tardi, o'zini urdi, sochi-ni yuldi: nazarida Umarali hayit tongida go'ridan tu-rib mung'ayib shahar yo'liga nigoron bo'lishi unga yana bir farzand dog'iday va bolasining bir boshiga kelgan ikkinchi o'limday bo'ldi.

Ro'zg'orimiz, do'konimizning asbob-uskunasi Oqqo'rg'onda qolib ketdi.

Qo'qon xarobalari orasida

Qo'qonga nonushta mahalida kirib keldik. Shaharga kirishimiz bilan ayam yana yig'i boshladi – amakimning uyiga tushishimizga uning sira-sira xohishi yo'q edi; «Sen ham ayt, yig'la» deb meni turtdi, biqinimni chimchilab oldi. Men yig'lamasdanoq dadam ko'ndi. Biz Ko'mir bozoridagi kichik ammamning uyiga tushadigan bo'ldik.

Degrezlikdan Ko'mir bozorigacha xarobalar orasidan o'tib bordik. Yo'l bo'yidagi uylar, do'konlar kuygan, yemirilgan Katta Chorsu atrofidagi do'konlar, timlardan nom-nishon yo'q. Omon qolgan masjid jome oldidagi va ro'parasidagi xarobalar orasida odamlar savdo-sotiq bilan mashg'ul: birovning yelkasida eski kiyim-kechak, birov yerga idish-tovoq, temir-tersak, birov rang-barang ko'rpa yoyib, birov chala kuygan taxta, yog'och uyib o'tiribdi. Gadoy ko'p...

Ayam ammamning uyiga tushgani rozi bo'ldi-yu, lekin yo'l bo'yi yosh boladay g'ingshidi: «Usta Mo'min o'zi ayolmand odam, shunday ochlik zamonda birovning noniga sherik bo'lish insofdanmi! Ro'zg'or yo'q, do'kon yo'q, ish yo'q...» Dadam qo'lida hunari borligini, hunarli odam hech qachon och qolmasligini aytib, unga tasalli bergan bo'ldi.

Ko'mir bozori ham kuygan, xaroba, Madrasayi-xon peshtoqining bir chekkasi o'pirilib tushibdi. Qator hujralardan ba'zi birining eshigi yo'q, qop-qorayib turibdi. Ammamning uyi juda ichkarida bo'lgani uchun hech bir ziyon-zahmat yetmabdi.

Ayam eshikdan kirishi bilan ammamni quchoqlab, Umarali haqida dard-hasratini aytib yig'ladi. Ammam, uning qizlari, hammamiz yig'ladik. Dadam Qur'on o'qib hammani yupatgandan keyin ko'chaga chiqib ketdi.

Ammam otning suyagidan bir qozon sho'rva qaynatdi.

– Ilgari bilmas ekanmiz, otning suyagidan ham yaxshi shoʻrva boʻlar ekan, – dedi. – Hukumat birlashgiz degan, birlashgan odamlarga non-knishka beradi. Biz birlashganlardan, har kuni goh bitta, goh chorakam bitta gardish boʻlka olamiz.

Shoʻrva suzildi. Ammam chorakta qattiq gardish boʻlkani tesha bilan ushatib yarmini dasturxonga qoʻydi. Shoʻrvani ichdik. Boshqalarni bilmayman-u, suyak shoʻrva Kulala ikkovimizga zoʻrlik qildi...

Ovqatdan keyin ayam bilan ammam boyagi qolgan nonni olib kampirni koʻrgani amakimnikiga ketishdi. Ammamning katta qizi Oʻlmasoy boshiga toʻncha yopinib ikki singlisi va Kulala ikkovimizni tomosha qildirgani koʻchaga olib chiqdi. Boyta koʻprik, Gʻisht koʻprikka bordik, undan nari oʻtgani qoʻrqdik: ham-mayoq chordevor, xaroba, Oʻlmasoyning aytishiga qaraganda, chekka mahallalarni tez-tez bosmachi bosib turar, zavod gudok bersa qochib ketar ekan.

Qaytdik. Oʻlmasoy bizni Madrasayi toʻnqatorga boshlab kirdi. Bu yerda ochlarga ovqat ulashilar ekan. Madrasaning hovlisi liq toʻla qari-qartang, juldur kiygan va boʻyni ipday bolalar. Hammaning qoʻlida sopol, zarang, tunuka kosa... Ammamning qizlari har kuni shu mahalda kelib ovqat yeb ketishar ekan. Oʻlmasoy qayoqdandir sopol togʻoracha topib keldi. Hovlining bir chekkasiga qurilgan doshqozondan odamlarning kosasiga bir choʻmichdan ovqat suzib berayotgan badjahl chol bizni sanab, togʻorachaga besh choʻmich atala quyib berdi. Biz navbatma-navbat togʻorachani koʻtarib atalani ichdik.

Uyga qaytdik. Ayam bilan ammam kelishgan ekan. Ayamning koʻzlari qizargan, qovoqlari shishgan edi. Buning sababi dadam kelganda maʼlum boʻldi: kampir Umarali toʻgʻrisida koʻngil soʻrash, ayamning koʻnglini koʻtarish oʻrniga: «Doʻxtirxonada tugʻilgan bola nima boʻlar edi!» debdi.

Kechqurun usta Mo'min keldi. Dadam u bilan kunduzi ko'rishgan, ahvolimizni aytgan ekan. Uzoq maslahat qilishdi. Ammam tushunmasdan bilmasdan «biz birlashganlardan» deb yurgan ekan, aslida eri usta Mo'min «birlashgan» emas, kasabalar ittifoqiga a'zo bo'lib kirgan ekan. Usta Mo'min dadamga ittifoqqa kirishni maslahat berdi. Biroq bir narsa tishga tegib qoldi: ittifoqqa kirgan temirchilarning hammasi o'z do'konida va o'zining asbob-uskunasi bilan ishlar, hukumat ularga temir, ko'mir berar, temirchi yasagan narsasini hukumatga topshirib, oylik, non-knishka va oyda uch gazdan chit olar ekan. Dadamning na do'koni bor, na asbob-uskunasi, manaman degan usta bo'la turib birovga bosqinchilik qilishni istamas edi. Bunday taklifni qilgani, chamas, usta Mo'minning ham og'zi bormadi.

Usta Mo'minning o'zi besh jon, biz to'rt jon. Bularning noniga sherik bo'lishimiz na ammamga, na uning eriga hech qanchalik malol kelmasa ham, «mehmonning izzati uch kun», dadam diqqat, ertalab chiqib ketganicha kechqurun kelardi. Ayam uni zixnar, «hech bo'lmasa Kulalani bir ishga joylab qo'ying» der edi. Kulala usta Mo'minga qarashsa ham non-knishkasi yo'q, nazarimda, dadam uni ro'para kelgan ishga joylab, shunday yaxshi shogirdni qo'ldan chiqargani ko'ngli bo'lmas edi.

Oradan besh-olti kun o'tganda Kulalaning akasi Dodarxo'ja keldi. Dodarxo'ja Qudashdan quvilganidan keyin Qo'qonga kelib birmuncha vaqt hammollik qilibdi; avval To'xlimerganda, undan keyin Ganjiravonda birovlarining juvozini haydabdi, yog'ini sotibdi; urush o'tib shahar tinchigan va Ganjiravon notinch bo'lgandan keyin Kulalani qidirib Qo'qonga kelibdi, Buvaydiga boribdi, bizdan darak topolmay yana Qo'qonga kelibdi; shundan beri meshkobchilik qilib yurgan ekan, endi Kulalani topib o'z

yurti Qorateginga ketmoqchi ekanini aytdi. U: «Bitsin boylar, bitsin zolimlar!» degan gapdan og'zi qulog'ida, hay-hay qilinmasa, Qorateginga jo'nash oldida Qudashga borib Roziq vofurush va amin bilan «ikki og'iz gaplashib» kelishdan ham toymas edi.

Dadam o'ylab-netib o'tirmasdan Yaypandan orttirgan «Zinger»ni sotib, pulining yarmini Kulalaga tutqizdi; usta Mo'min, usta Homidjon, usta Aroqul, amakim va boshqa ustalarning biridan ombur, biridan mixsandon, biridan xoyis, bolg'a, bosqon, «musulmon dam» olib, usta Kulalaning to'rt ishkalini butqildi va «hasti Dovud madad qilsin», deb fотиha berdi. Aka-uka o'zida yo'q xursand edi. Qorateginliklar Farg'onaga kelishda ham, Qorateginga ketishda ham har qancha yuk bo'lsa orqalab O'ratepa orqali dovon osha piyoda yurishar ekan, ikkovi erta saharda yo'lga chiqadigan bo'ldi. Usta Mo'min «hech bo'lmasa Xovosgacha poyezdda borishsin», deb idorasidan qog'oz keltirib berdi, poyezdga qog'ozsiz chiqarilmas ekan. Ertasiga bularni usta Mo'min bilan dadam stansiya-ga kuzatib chiqdi. Men ham bordim. Stansiyada uzoq qolib ketdik, nihoyat, usta Mo'min unga-bunga uch-rab patta oldi. Ikkovi umrida poyezdga tushmagan ekan, shoshib-hovliqib, qizil vagonga chiqdi. Poyezd jilganda Kulala menga qarab ko'ziga yosh oldi. Men ham yig'lab yubordim.

Oradan uch-to'rtkun o'tgach, dadam Qipchoqariqdan hovli topib keldi. Ammam ko'rpa-yostiq, amakim qozon-tovoq, boshqa tanish-bilishlar choynak-piyola deganday, har kim baholi qudrat qarashib, o'sha hovliga ko'chdik. Hovli amakimning hovlisiga yaqin Muhammadrajab degan bazzozning mehmonxonasi ekan. Uy bitta bo'lsa ham, ilgari o'ris o'tirgan, osti taxta pol, usti lampa, oppoq va ozoda edi.

Dadam har kuni azonda chiqib ketar, peshinda bizga g'isht bo'lka, katelokda yaxshi-yaxshi ovqat-

lar keltirib berar, yana ketib shomga yaqin kelar edi. Mening qiladigan ishim, boradigan yerim yo'q. G'afforjonni uncha xushlamasam ham o'shanga ishqalanadigan bo'ldim, birmuncha vaqt birga o'ynab yuranimizdan keyin ikki hodisa sabab bo'ldi-yu, undan uzil-kesil ko'nglim qoldi.

Bir kuni G'afforjon meni stansiya yo'lidagi bir xarobaga boshlab bordi. Urushdan oldin bu yerda har xil do'konlar, lavkalar bo'lgan ekan. G'afforjon bir tepalikni ko'rsatib, shu yerda bo'r borligini aytdi. Qarasam, haqiqatan, tepalikning bir tomonini qazib odamlar bo'r olganligi ko'rinib turibdi. Ikkovimiz o'sha yerni qazidik. Mushtday, yong'oqday ancha bo'r qazib olganimizda tepamizda bo'qoqli, qora shim, ityoqa kalta ko'ylak, qora va yaltiroq soyaboni siniq shapka kiygan, yoniga to'pponcha osgan novcha bir kishi paydo bo'ldi. Men, shu odam hozir bizni urishib beradi», degan xayolda etagimdagi bo'rni tashlagan edim, G'afforjon «qizil soqchi» dedi-yu, ishini qilaverdi. Qizil soqchi chuqurning bo'yiga o'tirdi, bizni gapga soldi, ota-onamizni, mahallamizni so'radi. G'afforjon qipchoq-ariqlik usta Abdurahmon temirchining o'g'li ekanini aytdi. Men dadamning nomini aytdim, lekin nima ish qilishini ayto'lmadim. Soqchi meni chuqurdan tortib oldi, yoniga o'tqazdi va gapga soldi.

– Nega dadang kiyim-bosh qilib bermaydi? – dedi.

Men G'afforjonga qaraganda juldur kiyimda ekanimni endi payqadim.

– Dadamning puli yo'q, – dedim.

Soqchi ota-onam borligiga ishonmadi shekilli, gapni aylantiraverdi. Men ota-onam borligiga G'afforjonni guvoh qilmoqchi bo'lib orqamga qarasam, G'afforjon ketib qolibdi.

– Men seni hozir bir yaxshi joyga olib boraman, – dedi qizil soqchi, – to'yguningcha ovqat yeysan, kiyim-bosh qilib berishadi, o'qiysan..

Men yig'ladim.

– Bormayman, o'qimayman, o'zim o'qiganman! – dedim.

Soqchi u desam – bu dedi, bu desam – u dedi, qo'ymadi: qochmoqchi bo'lgan edim, yo'limni to'sib bilagimdan mahkam ushlab oldi. Uning qo'lidan qochib qutulishimga ko'zim yetmay, yig'lab, yolvorib ketaverdim.

Xaroba, ba'zan obod ko'chalardan uzoq yurib, atrofi yog'och panjarali kattakon bir hovli oldida to'xtadik. Hovlining ko'cha eshigi oldida men tengi ikki bola bir qulochdan keladigan tayoqni yelkasiga qo'yib g'oz turar edi. Bularni ko'rib, «shu eshikdan kirsam qaytib chiqmas ekanman-da», degan xayolda yuragim orqamga urib ketdi.

Hovli g'ij-bij bola, shovqin. Ichkariga kirdik. Qizil soqchi meni baland imoratning zinasida yig'lab o'tirgan bir bolani yupatayotgan no'g'oy xotinga topshirib chiqib ketdi. Bola nuqul:

– Men ochlar maktabida o'qimayman, – deb yig'lar edi. No'g'oy xotin uning boshini silar ekan:

– Kim aytdi senga ochlar maktabi deb, ochlar maktabi emas, dorilshafaqa! – dedi.

Baribir «dorilshafaqa» degan so'z unga tasalli bermadi. Men ham yig'ladim.

Qorong'i tushgandan keyin panjaradan oshib qochib ketdim.

Uyda rosa xavotir bo'lishgan ekan, lekin meni hech kim urishmadi, voqeani eshitib kulishdi.

Shundan keyin G'afforjon bilan bir haftacha ko'rishmadim, ko'rishgim ham kelmadi. Katta ko'chadan Mamajon degan boshqa o'rtoq topib oldim. Uning dadasi Qulmat qizil soqchi bo'lib, dadam bilan tanish ekan.

Mamajon bir kuni meni G'ishtlik machitdagi patir-puturga boshlab bordi. Bu yerda jo'xori berar

ekan. Patir-puturda bizning mahalladan uch-to'rt bola, bularning ichida G'afforjon ham bor edi. Bular jo'xori olgandan keyin hammamiz qaytdik. Mamajon yo'lda qoldi. Nima bo'ldi-yu, G'afforjon xotin olgandan gap ochildi. Bolalar bunga ishonishmas, «Xotinni qanaqa boqadi», deb kulishar edi. G'afforjon: «Xotin olganman, xotinim bor», deb turib oldi. Bolalardan biri hasad qilganday:

– Xotin olgani bilan o'zi oliptimi, dadasi olib bergan, – dedi.

– Xotinni hammaga ham dadasi olib beradi-da! – dedi G'afforjon.

Bolalardan yana biri:

– Xotin o'z-o'zingnikimi, nima qilsang qilave-rasanmi, ura olasanmi? – dedi.

G'afforjon kerildi.

– Uraman! O'ldirib qo'yaman.

Bolalar ishonmagan bo'lib uni gijgijlashdi. G'afforjon hozir borib xotinini uradigan bo'ldi. Hammamiz uning ketidan bordik, birov ro'paradagi tomga, birov devorga, birov tolning kallagiga chiqdi. Men ko'cha eshigining tirqishidan qarab turdim. Abdu-razzoq yamoqchining katta qizi Omina hovlining o'rtasida bosh yuvmoqda, sochiga qatiq surkab shox qilib qo'yan, kattakon qora qumg'ondan tog'arachaga suv quymoqda edi. G'afforjon to'g'ri borib uning kallasiga qo'yib-qo'yib yubordi. Omina biron gunoh qilgan bo'lsa-yu, G'afforjonning urishini bilsa, ehtimol, boshini ushlar yo qochar edi, boshiga to'satdan shapaloq tushgani uchun qo'rqib ketdi-yu, tura solib G'afforjonning yuziga chang soldi. G'afforjon tepmoqchi bo'lib oyog'ini ko'targan edi, Omina oyog'idan ushlab uloqtirib yubordi. G'afforjon chalqancha yiqildi va erkakligi tutib ketdi-yu, o'rnidan turib uning sochiga chang soldi. Bo'ldi urish, bo'ldi mushtlash... Biz qo'rqib tumtaraqay bo'ldik.

Men hovliga kelib, boʻlgan voqeani ayamga aytib berdim. Ayam avval xoʻp kuldi, keyin qovogʻini solib: «Bunaqa gaplarni gapirib yurma, uyat boʻladi», dedi. Keyin bilishimcha, amakim oʻsha Abdurazzoq yamoqchidan qolgan Nisobuvini xotin qilib olgan, uning katta qizi Ominani Gʻafforjonga fотиha qilib qoʻygan ekan.

Gʻafforjonning butun tentak-tantiqliklari, yoshiga nomunosib erka-injiqliklari, meni soqchining qoʻliga tashlab qochib ketgani ham bir boʻldi-yu, bu qilmi-shi ham bir boʻldi. Shundan keyin Gʻafforjon mening uchun yetti pushti begona, soʻzlari, kiyim-boshi, hat-to oʻzi ham oʻziga yarashmaydigan boʻldi-qoldi.

Shu-shu boʻldi-yu, Gʻafforjondan butkul koʻnglim qoldi. Bularning hovlisi ilgari ham koʻzimga kecha-si yonidan oʻtgani odam qoʻrqadigan bir xarobaday koʻrinar edi, bunga yana nimadir qoʻshildi. Bu hovliga uzoqdan koʻzim tushsa ham odamlarning yelkasi-da tebrangan Savrinisoning tobuti, qizining oʻlimini eshitib yigʻlagani darmoni yetmagan onasi, koʻrpa-yostiқ ortib gʻaltakarava surib ketayotgan Azim duduq, boʻyi bir qarich, soqoli uch qarich chol – Gʻafforjon koʻz oldimga kelar edi.

Ayni qovun pishigʻi edi. Bir kuni dadam shom paytida ikkita qovun koʻtarib keldi. Uning boshida tepasi uchlik, peshonasiga qizil yulduz taqilgan, bolalar aytmoqchi, sentr shapka, egnida qora, kalta kiyim, oyogʻida kattakon etik. Men hayrat va quvonchdan qichqirib yuborayozdim. Ayam garang boʻlib qoldi, nafasi titrab, bir nimalar dedi. Dadam oʻtirib qovunni soʻydi, karjlar ekan, kuldi.

– Har kuni yogʻliq-yogʻliq ovqat olib kelganimda hayron boʻlmading, bu ovqatlar qayoqdan kelayotibdi, deb bir ogʻiz soʻramading, endi shapkamga qarab hayron boʻlasanmi?

Ayam yigʻladi.

– Siz urushga ketib qolsangiz biz nima qilamiz?

– Men hech qayoqqa ketmayman, urush shu yerning oʻzida, eshitmayansanmi, shu oʻn-oʻn besh kun ichida bosmachi Xodabozorini bosdi. Baqachorsini bosdi, Degrezlikni bosdi... Juda nari borsak shu atrofdagi qishloqlarga chiqamiz. Qani endi Yaypan-ga borsak, Qudashga borsak, Buvaydilarga borsak... Lekin Oqqoʻrgʻonga borsak seni ham olib boraman, Umarali bechora Qurʻonsirab yotibdi, haligacha goʻrining ustida birov gʻing degani yoʻq...

Ayam yigʻidan toʻxtab uzoq oʻylanib qoldi, yana oʻpkasi toʻldi-yu, birdan turib paranjisini chimmatsiz yopindi-da, chiqdi-ketdi. Dadam «Qayoqqa?» deganicha qolaverdi. Men ayamning ketidan yugurdim. Ayam anhor boʻyidan jadallaganicha borib amakimning hovlisiga kirib ketdi. Men koʻprik boshida birpas turdim-u qaytib, dadamga aytdim. Anchadan keyin hovliqqanicha amakim, uning ketidan ayam kirib keldi. Amakim eshikdan kira solib dadamni urisha ketdi.

– Esing bormi, oʻqqa uchsang nima qilasan! Tur, hozir borib shapkangni topshirib kel!

Dadam churq etmadi. Amakim soʻkina-soʻkina chiqib ketdi. Dadam endi ayamni urishar deb oʻylagan edim, yoʻq, urishmadi. Ayam unga mungʻayib qarar, koʻzlaridan duv-duv yosh oqar edi.

Allamahalda amakim usta Homidjonni boshlab keldi. Ikkovi dadamni oʻrtaga oldi. Dadam urush toʻgʻrisida ayamga aytgan gaplarini aytgan edi, usta Homidjon tutaqib ketdi.

– Askar deganni urushga yubormay nima qiladi, soʻqimga boqadimi! Ashxobodga angliz kelgan, deydi, har kuni oʻsha yoqqa askar joʻnatayotibdi. Askarlar stansa yoʻlidan ashula aytib oʻtganini oʻz qulogʻim bilan eshitdim:

*Hech bo'lrmi, hech bo'lrmi,
Sharq sizlarga hech qolurmi,
Hoy ket, xoni anglizlar,
Turkiston sizga qolurmi?...*

Bu gaplar ta'sir qildimi, yo qarshi so'z aytib ayamning yig'latgisi kelmadimi, har nechuk, dadam sukut qildi.

Oradan bir hafta o'tdi, ikki hafta o'tdi, dadam sentr shapkasini topshirmadi. Shundan keyin amakim ayam ikkovimizni olib O'rdaga boradigan, bizni yig'latib, komandirlardan dadamni so'rab oladigan bo'ldi. O'rda tagiga ikki marta bordik, biroq ikki marta ham O'rdaga qanday qilib kirishni, kirganda ham kimga yo'liqishni bilmay, soy bo'yida o'tirib-o'tirib qaytib keldik. Bu orada shaharning chekka mahallalarini necha-necha bosmachi bosdi, necha-necha otishmalar bo'ldi. Dadam, aftidan, bu otishmalarda qatnashsa ham bizga aytmas edi.

Bu orada ko'rni otryad, yalang oyoq otryad deganlari chiqdi, nachalnik va komandirlardan Sottixon, Hasan-Husan Ermatovlar, Sulton Abdurahmonov, bizning mahalladan taqachi Qo'zivoy Rahimov, Toshkentda komandirlikka o'qigan va Ashxobod urushiga borib kelgan Nishon Rizayev va boshqalar chiqib shaharda dong taratdi. Shundan keyin amakim xarxasha qilmay qo'ydi. Ayam ham ko'nikdi.

Kuzning boshida dadam meni O'rdaning ro'parasidagi soydan nari, Qalandarxonada ochilgan «Urfon» degan yangi maktabga berdi, ayamni yangi shahardagi «Mandalak» degan pilla zavodiga ishga joylab qo'ydi. Umri musofirchilikda va to'rt devor orasida o'tgan, ish deganda og'ir temirchiliknigina biladigan ayamga zavod ma'qul bo'lib qoldi: «Nuqul xotinlar ishlar ekan, ishi ham ishga o'xshamaydi, o'ynab-kulib ishlaydi kishi», der edi. Unga non-knishka, kerosin-knishka, baliq-knishka berishibdi.

Men «Urfon» maktabiga birinchi borgan kunim ko'zimga juda issiq ko'ringan Meliboy domla degan yigit hammamizni kattakon bir sinfga yig'ib sharqiy degan ashula o'rgatdi. Ashulani yozib oldik.

*Qalqing, ishchilar, oyoqqa,
Biznikidir bu zamon,
Yo'q endi bizni ezuvchi,
Zolimlarga hech omon.*

Men bu yigitni keyinchalik tanidim: bir vaqtlar G'afforjon o'qigan Abduvahob domlaning maktabida ko'rgan ekanman, Abduvahob domlaning suyukli shogirdi, naymanchalik qishloqi bola Meliboy ekan.

Bu maktabda bir oycha o'qidim, xolos. Bir kuni dars vaqtida Shayxulislom guzari tomonda qasur-qusur bo'lib qoldi. O'qish to'xtadi. Bolalarga javob berildi. Domlalarimizning hammasi miltiq ko'tarib, otishma bo'layotgan tomonga chopishdi. Domlalarimizning hammasida miltiq bo'lib, miltiqlar hay'ati ta'limiyada turar ekan.

Bu gapni ayamga aytmay qo'ya qolsam ham bo'lar ekan, dadam baloga qoldi. Ayam yig'lab, o'zini urib dadamga dashnom berdi: «Bitta-yu bitta bolamni shunaqa notinch maktabga berasizmi! Domlarning hammasi askar ekan-ku! Bosmachi maktabni bosganda nima bo'lardi!» dedi.

Dadam gap qaytarib o'tirmadi. Ikki kundan keyin meni «Istiqbol» degan maktabga berdi. «Istiqbol uyimizdan bir mahalla nari Baqaqurilloqda bo'lib, bir boyning butun mahallani enlab yotgan kattakon imoratida ekan. Bola ko'p, o'zimizning mahalladan qizil soqchi Qulmatning o'g'li – o'rtog'im Mamajon, Temirboy boqqolning o'g'li Po'latjon, Rasul maxsido'zning o'g'li Salimjon, Ro'zimat yog'chining o'g'li Husan, Xandon no'g'oyning o'g'li Hasan, G'afforjonlar

ham bor ekan. Bu maktabda domla ko'p, bularning ichida eng zo'ri Abduvahob domlada o'qigan, keyin o'zi maktab tutgan Hakimjon domla ekan. Bu domla novcha, qo'ng'iz nusxa mo'ylab qo'ygan, qop-qora sochini bir tomonga silliq qilib taragan, qirralli shim va qop-qora botinka kiygan kishi edi. Hakimjon domla maktab mudiri, tabiiyot muallimi, o'rta yoshlardagi Po'latjon domla hisob, jug'rofiya, Abduvose Qayumiy hisob va sharqiy, Abdullajon Karimov badantarbiya, Nosir Zokiriy ona tili, Karpova degan rus xotin rus tilidan dars berar, bulardan tashqari sentr shapka kiygan to'rtta tatar muallim bo'lib, bularning hammasi harbiy kiyimda edi.

Qish chiqdi deganda bir kuni maktabga o'n-o'n beshta sallali qariyalar kelishdi. Hakimjon domla bularni hujrasiga olib kirdi. Domla qariyalar bilan suhbatlashgandan keyin, ularni jo'natib, bizning sinfga kirdi. Bir tatar muallimi bizga tabiiyotdan dars berib, havo borligini isbot qilmoqda edi. Hakimjon domla darsni to'xtatib, qariyalar nima uchun kelganini gapirib berdi Qariyalar: «Qur'ondan xat ko'tarilayotibdi, maktabda Qur'on o'qitsang o'qitganing, bo'lmasa bolalarimizni maktabdan chiqarib olamiz», deyishibdi. Domlaning aytishiga qaraganda, qariyalarni vahimaga solgan narsa Toshkentda qo'zg'algan «yangi imlo» masalasi ekan. Yangi imlo tarafdorlari o'qish – savod chiqarishni osonlashtirish uchun eski imlodagi «mktb», «m'lm» shaklida yoziladigan so'zlarni «maktab», «muallim» shaklida yozishni taklif qilishar ekan. Bu, albatta, Qur'on xatiga hech to'g'ri kelmas edi. Hakimjon domla qayta-qayta tayinlab: «Ota-onalarnigga borib aytinglar: birinchidan, bizning maktabda yangi imlo yo'q; ikkinchidan, ertadan boshlab sizlarning sinflaringda haftasiga ikki marta Qur'on darsi bo'ladi», dedi.

Maktabdan ketib qolgan bolalar bor ekan, shundan keyin hammasi qaytib keldi. Har shanba va

seshanba kuni Qur'on o'qiydigan bo'ldik. Qur'onni muallimlarimizdan Nosir Zokiriy o'qitar, shu bilan birga o'qigan satrlarimizning ma'nosini ham aytib berar edi.

Men Oqqo'rg'onda Qur'onni «Taborak»gacha yod olganimda uning har bir so'zi, xususan, «sab'a samovotun tiboqo» degani etimni jimirlatib yuborgan edi, bu yerda ko'p suralarning ma'nosini, xususan «sab'a samovotun tiboqo» degani «yetti qavat osmon» degani ekanini bilganimdan keyin kulgim qistadi, nazarimda, Qur'onning salobati yo'qoldi.

Bir kuni maktabga novcha, bo'g'ma to'r ko'ylak, shinel kiygan bir yigit keldi, darsdan keyin yuqori sinf talabalarini yig'ib, «Ishtirokiyun yoshlar ittifoqi» to'g'risida gapirib berdi. Uning aytishiga qaraganda, «Ishtirokiyun yoshlar»ni Lenin «o'g'lim» der ekan. Yigit gapirib bo'lgandan keyin varaqa – anketa tarqatdi. Anketani to'ldirib berdik, yigit ketdi.

Oradan uch-to'rt kun o'tgandan keyin tatar muallimlarimizdan biri anketa to'ldirganlarni eski shahardagi semun imoratga boshlab bordi. Ikki qavatlik, seroyna kulrang imorat kappon, rasta va boshqa imoratlarning xarobasi ustida qaqqayib turar edi.

Ikkinchi qavatga chiqdik. Kattakon zalda biz tengi, bizdan kattaroq bolalar ko'p ekan. Bir yigit o'rta-ga chiqib urush, bosmachilik, ochlik to'g'risida va'z aytdi; undan keyin bu yerga to'plangan «Ishtirokiyun yoshlar»ning vazifasini uqtirib, hammaga oh tunuka quticha ulashdi va bilagimizga qizil bog'ladi. Biz guzarlarga, bozorga borib, erta-indin bo'ladigan Birinchi may bayrami kunlarida xalq orasiga kirib ochlarga «iona» to'plashimiz kerak ekan.

Tarqaldik.

Men shaharni bilmaganim, hanuz kamgap bo'lib, birovdan iona so'rab olishimga ko'zim yetmagani uchun Mamajonga ergashdim. G'izillaganimizcha

Katta Chorsuga bordik. Bu yerda tiklangan, omonat qurilgan samovarlarda odam ko'p ekan. Mamajon jomening oldidagi samovarga boshladi. «Iona» degan so'z ikkovimizning ham esimizdan chiqib qolibdi, odamlarga quti tutganimizda nima deyishimizni bilmay bir-birimizga qaradik. Yo'q, xayriyat, Mamajon gap topdi, qutini tutganida: «Ochlarga pul bering», dedi. Odamlar ikkovimizning ham qutimizga pul tashlashar edi. Bir davrada o'tirgan sersoqol bir chol yonini kavlar ekan, kulib: «Ochlarga pul bering emas, ochlarga yordam qiling, denglar», dedi.

– «Ochlarga yordam qiling», – deb Chorsuni aйландик, undan nari o'tgani qo'rqdik, bosmachi bosib qolishi mumkin edi. Taroqchilikka, G'ishtko'prikka, undan Yog' bozoriga bordik. Kechga yaqin qutilarimiz pulga to'ldi, to'lgan qushlarni semun imoratga topshirib, ertaga darsdan keyin yana yordam puli to'plagani bo'sh quti oldik.

May bayramini xalq uch-to'rt kun hayit qildi. Mamajon ikkovimiz bu kunlarda ikki-uch qutidan pul yig'dik. Undan keyin faqat bozor kunlari, ba'zan kechalari tomoshaxonalarga kirib, pul yig'adigan bo'ldik.

Bir kuni Hakimjon domla ishtirokiyun yoshlardan olti bolani Yog' bozoridagi dorilmuallimiga yubordi. Men bu zo'r maktabning maqtovini ko'p eshitgan edim. Bu maktabning talabalari – o'spirin yigitlar bo'ysira bo'lib, sharqiy maqomiga gurs-gurs qadam tashlab o'tganda ko'chaning ikki yuzini odam tutib ketar edi.

*Biz ishchimiz, mehnatchimiz,
Biz ham inson o'g'limiz;
O'ylashaylik, bizlar na deb
Zolim boylar qulimiz?..*

Kattakon hovlining uzun ayvonida biz tengi va bizdan kattaroq bolalar ko'p ekan. Dorilmualliminning talabalaridan biri – novcha, sariqroq, ko'zlari ko'k Hojiqurbon Qosimiy degan bir yigit ayvonning bir chekkasiga qo'yilgan stolning orqasida o'tirib, hammaga guvohnoma va har uch bolaga bittadan sopol hushtak ulashmoqda edi. Men, Mamajon, Sharifxon degan bola uchovimizga bitta hushtak tegdi.

Guvohnomani o'qidim.

«Berildi ushbu guvohnomani Abdullo Qahhoriyga shul xususdakim, mazkur o'rtog'ni Xo'qand eski shahar ishtirokiyun yoshlar ittifoqi mehnatkash yoshlarni ro'yxatga olish uchun vakil qilingandir. Guvohnoma tubandagi muhr va imzolar bilan tasdiqlanadi. Rais. Sarkotib».

Guvohnoma va hushtaklarni olganimizdan keyin eski shahar ishtirokiyun yoshlar ittifoqidan kelgan yosh, mo'ylabi endi sabza urgan bir yigit bizga vazifalarimizni tushuntirib berdi. Har uch bola bir komanda bo'lib, buning biri komandir bo'lar ekan. Komanda mahallalarni kezib, hovlilarga kirib qarol va xizmatkor bo'lib yurgan o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha hamma yoshlarni hamda ko'knorixona va takyalarni ro'yxatga olishi, yosh qizlar erga berilayotganidan darak topsa, beto'xtov shtabga ma'lum qilishi, komandaga birov qarshilik qilsa, komandir hushtak chalib qizil soqchini yordamga chaqirishi kerak ekan. Yosh qizlarni erga berish to'g'risida so'z ketganda darrov ko'z oldimga Omina keldi, G'afforjonni yomon ko'rganim uchun bo'lsa kerak, shu yerdayoq voqeani aytib bergim keldi, biroq ota-onamdan istihola qilib, amakimdan qo'rqib, indamadim.

Bilagimizda qizil, qo'limizda guvohnoma, hushtak – shaharda bizdan zo'r odam yo'q edi.

Biz mahalla kezgani juma kunlari chiqishimiz kerak edi. Boshqa komandalarni-ku bilmayman, qarol, xizmatkor, yosh qizlar masalasida ishimiz o'ngmadi – juma kuni bir nechta mahallani kezib Isfara guzardan bitta qarol topdik, xolos; erga beriladigan yosh qizlardan darak topmadik; lekin ko'knorxona-yu takyadan serob ekan – Jomening orqasi va katta Chorsu atrofidan beshta takya, to'rtta ko'knorxona topib xatga oldik.

Shu orada maktabimiz «Istiqbol» internatga aylandi. G'afforjon, Temirboy boqqolning o'g'li Po'latjon, Oq domlanning o'g'li Obidjonlar internatga kirmay ketib qolishdi. Mamajon ham ko'rinmay qoldi. Men bu haqda ota-onamdan so'rashni ham lozim ko'rmay internatga yozildim. Amakim uyimizga kelib dadam bilan janjallashibdi: «Bitta-yu bitta o'g'lingni boqolmay hukumatga berdingmi!» debdi. Ayam amakimning tarafini olgan ekan, dadam: «Bolam hukumatga kerak bo'lsa internatda o'qimasa ham olib ketaveradi», deb ikkovini yengibdi.

«Istiqbol»ning mudiri Hakimjon domlani inqilobiy qo'mita ishga olib qo'ydi. Internatga Hakimjon domlanning domlasi Abduvahob domla mudir bo'lib keldi. Bolalarga ko'k bo'zdan «forma» va qalpoq berishdi.

Abduvahob domla internatda qattiq intizom o'rnatdi: darvoza oldiga o'zimizdan navbatchi qo'yib, bolalarni hech qayoqqa chiqarmaydigan bo'ldi; biron gunoh qilgan bolalarga jazo berish uchun talabalaridan «mufattish komissiyasi» tuzdi. Bolalar bir-birini sizlashi, muallimlarga murojaat qilganida avval chest berib «afandim» deyishi, ovqatxonaga bo'ysira bo'lib kirishi, ovqat vaqtida gapirmasligi, ovqatdan keyin biroz dam olgach, bo'sh vaqtni dars tayyorlab, sharqiy o'rganib, muallimlarning har xil leksiyalarini eshitib o'tkazishi kerak edi. Iona yig'ish, mahallalarni kezib ro'yxat qilish ishlari qolib ketdi. Bu haqda bizga

hech kim hech narsa demay qo'ydi. Biz ishtirokiyun yoshlarning yig'ilishiga ham Abduvahob domla ijozat bersagina borar edik.

Bolalar intizomga o'rgangandan keyin ota-onasi bor bolalarga har payshanba kuni uyga borib yotib kelgani javob beriladigan bo'ldi.

Bir payshanba kuni hovliga borib, shodlik ustiga shodlik ustidan chiqdim. Ayam meni quchoqlab goh kulib, goh yig'lab xursandchiligini izhor qildi:

Hukumat dadangni askarlikdan bo'shatib do'kon ochib berdi. Hozir hukumatga askardan ham ko'ra o'roq kerak ekan. Temir, ko'mirni ham o'zi berar ekan. Saydali degan yigitni bosqonchi qilib berdi. Ha, undan ham qizig'i: hukumat bizga, o'z-o'zimizga hovli berdi. Ro'zimat yog'chining kichik hovlisini berdi. Dadang oq qog'oz olib keldi. Ertaga ko'chamiz. Dadang Saydali bilan hozir shu hovlining u yoq-bu yog'ini tuzatyapti...

Haqiqatan ertasiga, juma kuni o'sha hovliga ko'chdik. Hovli Mirtohir mahallasi bilan Galaboqqollik o'rtasidagi ko'chaning boshida ekan. Bir chekkasidan zovur o'tadigan kichkina hovlicha, bir uy, ayvon, kattakon tol. Dadam ko'chimizni keltirib tashlagani-dan keyin ayamga tegishib:

– Qoziqni mahkam qoqaver, endi sug'urmaysan! – dedi va ishga ketdi.

Do'kon shu ko'chaning ro'parasida ekan.

Ayam ikkovimiz kuni bo'yi tinim bilmadik. Men kechki payt ketishim kerak edi, ayam qo'ymadi, nazarimda, o'z uyimizda bir-ikki kecha yotishimni xohlar edi. Yotib qoldim.

Ertasiga darsga kechikdim. Hovliqib ketayotgan edim, Baqaqurilloqqa qayrilishda sinfdoshimiz Nazir degan bolani ko'rib qoldim. Ikkovimiz chopdik. Internat hovlisiga kirib, chap tomondagi darsxonaga burildik. Eshikdan avval men kirdim. Uzun yo'lak-

da qo'lini orqasiga qilib yurgan Abduvahob domlani ko'rib qoldim. Domla barmog'i bilan imladi. Yugurib bordim, g'oz turib «afandim» deganimni bilaman, qulog'imning ostiga tarsaki tushdi. Gangib qoldim. Domla boshi bilan ishora qilib sinfni ko'rsatdi... Nazir mening shapaloq yeganimni ko'rib qochib qolgan ekan, domla uni «mufattish komissiya»ga topshiribdi. «Mufattish komissiya» uni sud qilib «qattiq jazoga mustahiq» qildi: bolalar ovqat yegani kirganda Nazir bir chekkaga qo'yilgan kursiga chiqib, hamma ovqat yeb bo'lguncha ikkala qo'lini ko'tarib turdi...

Ta'til kunlari boshlandi. Bu kunlarda bosh qashigani qo'limiz tegmas edi. Qayoqdandir bir tatar qiz kelib yaxshi o'qiydigan bolalardan kashshoflar otryadi tashkil qildi. Buning ham o'ziga yarasha mashg'uloti ko'p ekan. Juma kunlari sayohat qilib shahardan tashqari Pishqoroq ko'li atrofi, Naymancha soyi bo'ylari, shahar qo'rg'oni, Solihjon boyvachcha va boshqa boylarning bog'lariga chiqardik. Bu vaqtlarda shahar atrofi bosmachilardan tinchib qolgan, uzoq qishloqlardangina turli xabarlar kelar edi.

Yana qayoqdandir bir yigit kelib internatda «sanoyi nafisa» to'garagi tashkil qildi. Ichimizda ashula aytadigan bolalar bor ekan, yangi sharqiylar, xor va deklamatsiyalar o'rgandik.

Shahardagi bir qancha maktabning «sanoyi nafisa» to'garaklari ishtirokida eski shahardagi musulmon teatrda besh pardalik katta konsert berildi. Biz konsertda uch nomer – gimnastika, bitta sharqiy, bitta deklamatsiya bilan qatnashdik. Nomerlarimizni ijro qilganimizdan keyin zalga chiqdik. Ikkinchi parda yopilganda sahnaning oldiga soqol-mo'ylabi qop-qora, qaytarmayoqa kamzul kiygan Ahmadxonov degan kishi, uchinchi pardadan keyin o'zimizning Hakimjon domla chiqdi. Ahmadxonov «bashariyat, mustabid», «sharq ozodligi» degan gaplarni ko'p qay-

tardi, Hakimjon domla esa «maorif», «hurriyat» degan gaplardan keyin ikki og'iz so'zining birida «xoin Abduvahob» deyaverdi. Biz hayron bo'lib bir-birimizga qaradik. Nazarimda Hakimjon domla Abduvahob domlani «zolim» deyish o'rniga nuqil «xoin» der edi.

Biz yotoqqa qaytib kelguncha «xoin Abduvahob» degan gap allaqachon bolalarning qulog'iga yetibdi. Yotoqlarda shovqin-suron, bolalar bir-birini yiqitgan, mingan... Navbatchi murabbiyning qo'lidan hech narsa kelmay qoldi. Hammaning og'zida:

*Hur bo'lib yasha, bir bo'lib yasha,
Jumla xobingni endi sen tashla...*

«Anarxist» degan gap paydo bo'ldi. Hamma o'zini anarxist hisoblar, anarxistligini bir-biriga isbot qilish uchun kurakda turmaydigan ishlarni qilar edi. Shunda Abduvahob domladan bir shapaloq yeganimni eslab men ham bir noma'qul ish qildim, bu qilmishim keyinchalik maorif xodimlarining majlisida, undan keyin muzofot firqa qo'mitasining ijroiya byurosida og'izga olinibdi.

Abduvahob domla ketib qoldi. Uning o'rniga o'rta yoshlardagi, cho'qqisoqol, yuzidan tabassum arimaydigan Po'latjon domla vaqtincha mudir bo'ldi.

Bolalar «hur» bo'lib, o'qishlardan futur ketdi. Buning aksi muallimlarga ham urdi. Ba'zan dars soatlari bo'sh o'tar edi.

Akasi firqa-sho'ro maktabida o'qiydigan Akram degan bola ona tili darsida «f» harfiga qarshi chiqib domla bilan olishdi, tanaffus vaqtida darslar jadvalidagi hamma «f»ni o'chirib, ustiga «p» yozib chiqdi; yana bir darsda domlaga: «Nima uchun ona tili dey-miz, ota tili desak bo'lmaydimi?» deb savol berdi. Shu masala Toshkentda bo'lib o'tgan imlo konferensiyasida ham ko'tarilgan, bunga Fitrat degan kishi: «Biz

onamizdan tug'ilganimizga shubha yo'q, lekin otamizdan bo'lganimizga shubhalanish mumkin», deb javob bergan ekan. Domla shuni aytdi.

Yoz o'tdi. Kuzning o'rtalarida payshanba kuni uyga kelsam, ayam meni xafaroq qarshi oldi. Uyga kirdim va qoziqlarga osig'liq uchta beshotar miltiq, shoda-shoda, o'q, tokchada turgan ikkita yaltiroq to'pponchani ko'rib hayron bo'ldim, keyin suyunib ketdim.

Ayam dadamdan nolidi.

– Topishi yaxshi edi, uyimizdan chaksa yarim, chaksa un, guruch uzilmasdi, xumchada yog'... Buni ko'rmaysanmi, do'konni topshirib Meliboy aminga yigit bo'lib o'tiribdi! – dedi, keyin o'ziga tasalli berdi: – Lekin ko'proq ishi shaharda: o'q, yaroq olgani kelgan bosmachilarning odamini tutishar ekan. Ha, aytganday, esingda bormi, Oqqo'rg'onda Tolib degan qo'shnimiz bo'lar edi, uyi do'konimizning orqasida edi, shu yigit o'q olgani kelgan ekan, qo'lga tushay deganda, qochib ketibdi... Lekin mana bunaqa qishloqqa chiqqani yomon, o'tgan kuni Meliboy amin boshliq yigitlar bilan qishloqqa ketganicha hali daragi yo'q. Qaysi qishloqqa ketganini bilmasam...

Ko'z oldimga darhol Valixon so'fi keldi.

– Buvaydiga ketishgandir! Dadam Valixon so'fini topib otib tashlaydi. So'fi dadamni alamon qildirib yuborishiga sal qolgan edi, – dedim.

– Ha, so'fi o'lgurni otib tashlasin! – dedi ayam xuddi hozir o'zi otmoqchi bo'lganday ko'rsatkich barmog'ini o'qtalib. – Qudashga borib Roziq vofurushni ham otsin! Bular bizga ozmuncha azob berdimi! Yaypanga ham borsin! Lekin Olim buva dadangni so'kkan, hovlisidan haydab solgan bo'lsa ham o'zi yaxshi odam edi...

Norg'ul, qorachadan kelgan Meliboy aminni bir-ikki ko'rgan edim, uning hovlisi ko'chaning narigi yuzi, muyulishida bo'lib, miltikli odamlar kirib-chiqib

yurganiga ko'zim tushgan edi. Dadamdan eshitib ayamning aytishiga qaraganda, bu odam asli allaqaysi qishloqdan bo'lib, «hukumatga til bergan», bosmachilar buni fahmlab qolgandan keyin shaharga qochgan, bosmachilar uning uyiga o't qo'yg'an ekan. Uning yigitlari ham Avg'onbog', Yaypan, Qirqketmin, Arg'amchiqishloq, Oqtepa, Chilgijiyda, Naymancha va boshqa qishloqlardan, shaharliklardan dadam bilan bir aravakash-u allakim degan bir sozanda bor ekan. Meliboy amin: «Men Leninning o'g'liman, Lenin Qo'qonga keladi, kelmasa o'zim borib olib kelaman», deganmish.

Ayam bora-bora dadamning bu ishiga ham ko'nikdi, dadam otryad bilan tez-tez qishloqlarga chiqqanda, bir-ikki kun yo'q bo'lib ketganda ham ko'p tashvish tortmaydigan bo'ldi. Biroq qishda ro'y bergan katta fojia ayamnigina emas, meni ham vahimaga solib qo'ydi.

Bir kuni darsdan keyin tatar muallimlarimizdan biri bolalarni katta zalga yig'ib marsiya o'rgatdi:

*Tug'onlar, shahidlar, qurbon bo'ldingiz
Aziz xalq uchun tortishqonda...*

Shu kuni duv-duv gap bo'ldi: Nosir maxsumni bosmachilar o'ldirishgan emish; o'n uchta qizil soqchi so'yilibdi; bular o'ttiz ikki kishi ekan...

Nosir maxsum shaharda mashhur muallimlardan bo'lib, Taroqchilikda kattalarga maktab ochganini eshitgan, uning soqol-mo'ylabli «talaba»lari Birinchi may namoyishiga duxovoy muzika chalib chiqqanini ko'rgan edim.

Ertasiga tushga yaqin Po'latjon domla butun internatni bo'ysira qilib Jomega olib bordi. Ko'chalarga, Jome va uning atrofiga odam sig'ishmas edi. Motam marosimiga shahardagi hamma maktablar, inter-

natlarning talabalari, mehnatkashlar ittifoqi qora lenta bog'langan qizil bayroqlar ko'tarib kelgan edi. Qurbonlar Jomening sahniga qo'yilgan ekan, bizning internat orqaroqda turib qoldi. Qurbonlar qo'yilgan yerda yig'i-sig'i, dod-faryod.

Kimningdir baland tovushi yangradi. Motam mitingi ochildi. Jimlik hukm surdi. Bu jimlikda avval bosiq, keyin qizg'in nutqlar eshitila boshladi.

Shu choq orqamizda turgan maktabning kekxa muallimi bizning Po'latjon domla bilan gaplashib qoldi va shivirlab fojioning tafsilotini gapirib berdi.

Bular Nosir maxsum boshliq, qishloq sho'rosiga saylov o'tkazgani Chilgijiydaga chiqishgan ekan. Saylov o'tibdi. Saylovdan keyin osh tortilibdi. Oshga giyoh solingan ekan, osh yegan odamlarning hammasi tirrakday qotib qolibdi. Shunda qishloqni bosmachil bosibdi-yu, Nosir maxsum boshliq hamma qurbonlarni qilichdan o'tkazibdi. Kekxa muallim Qulmat degan soqchi to'g'risida ko'proq gapirdi. Qulmat saylov majlisida ko'proq gapirgan ekanmi yo bosmachilar sha'niga bir nima degan ekanmi, uning avval tilini kesishibdi, keyin qiblaga orqasini o'girib, bo'ynidan so'yishibdi. Bu Qulmat kim ekan, desam, o'rtog'im Mamajonning dadasi ekan! Men beixtiyor qurbonlar tomonga qaradim, lekin Mamajonni ko'rmadim. Qurbonlar dafn qilinayotganda biz qabrdan yana ham uzoqda qoldik. Miltiqlar otildi. Marsiyalar o'qildi.

Men o'sha kuni kechqurun Mamajonni ko'rgani, ko'ngil so'ragani uning uyiga bormoqchi bo'lib Po'latjon domladan javob so'radim. Po'latjon domla mening bu niyatimdan xursand bo'lib, yonimga besh bolani qo'shib berdi. Qipchoq-ariqqa bordik. Qiyshiq ko'cha eshigi oldi va yo'lning ikki tomonini odam tutib ketgan, bularning ichida qizil soqchilar ham ko'rinar edi. Odamga liq to'la kichkinagina hovlichaga kirolmadik. Pastakkina, g'orga o'xshagan qorong'i uydan

dod-faryod eshitilar edi. Mamajonni topolmadik, eshik oldida biron soat turib qaytdik. Ertasiga o'zim yakka borsam odam biroz sepsilipti, lekin Mamajonni yana ko'rolmadim. Bir necha kundan keyin uni o'z qishlog'i Bog'donga ketganini eshitdim. Shu-shu Mamajon bilan boshqa ko'risholmadim. Shu voqeadan keyin ayam cho'p-ustuxon bo'lib ketdi, dadamning taskin-tasalli berib aytgan gaplari unga kor qilmas edi. Ayam bir hafta «Mandalak»ka bormay qo'ydi, yana bora boshlaganidan keyin ishga alahsib, xotin-xalaj bilan bo'lib biroz ovundi, rangi kirganday bo'ldi.

Bir payshanba kuni uyga kelsam, ayam meni juda xursand qarshi oldi:

– Qonxo'r gumdon bo'libdi-ku! Do'zaxda ko'zidan-uqulog'idan alanga chiqadigan bo'libdi-ku! Qon kimlar-ni tutmaydi!

Men tushunolmadim.

– Hali eshitganing yo'qmi? Nima yangi xabar bo'lsa avval «Mandalak»ka keladi o'zi. «Mandalak»da duv-duv gap. Ergash qo'rboshini bir kampir doskalla bilan chopib tashlabdi. Ergash o'sha kampirning bit-ta-yu bitta o'g'lini otib tashlagan ekan. Kampir arzga boribdi. Ergash «ayt arzingni» degan ekan, kampir paranjisining tagidan doskalla chiqaribdi-yu, «mana arzim, mana arzim» deb kallasiga uraveribdi.

Men bu gapga uncha ishonmadim, lekin ayamning joni jahoni yorishgan, go'yo butun bosmachilarning joni Ergashda-yu, Ergash o'lishi bilan hammasi qirilib ketganday edi. Shundan keyin unga dadamning taskin-tasallisi kerak bo'lmay qoldi.

Shundan keyin, haqiqatan, bosmachilar haqida har xil xabarlar kela boshladi: falon qo'rboshi qo'lga tushibdi; falon qo'rboshi hukumatga yarog'-aslahasini topshiribdi; falon qo'rboshi yigitlari bilan tog' oralig'ida ketayotgan ekan, ko'chki bosib qolibdi... Lekin, shu bilan birga uzoq qishloqlarda jang bo'lgani,

bosmachilar qishloqni talagani, qishloq sho'rosiga o't qo'ygani, qo'rboshilar bir-birini o'ldirgani haqida ham xabarlar kelib turar edi. Sharqiy Buxoroga Turkiya poshsholaridan Anvarbek kelgan emish, degan gap ham chiqdi.

Bahor kirganda internatimiz «Kommuna maktabi»ga aylanib, butxonaning oldidagi bir boyning juda ham kattakon imoratiga ko'chdi. Imorat butun mahallani egallagan, ichkari boshdan-oyoq mevazor bog' edi. Maktabga askarlikdan bo'shagan Bisirov degan bir tatar yigit mudir bo'ldi. Toshkentdan ikkita muallim, ikkita tutash-murabbiya keldi.

Imorat va bog' ne ahvolda edi. Basirov domla har kuni darsdan keyin o'zi bosh bo'lib talaba va muallimlarni ishga solar, darsxona va yotoqlarni tozalatar, bog'ni choptirar, gullar ektirar edi. Klub ochildi. Muallimlarimiz iona qilgan kitoblardan kutubxona tashkil etishdi. Klubda yangi sharqiylar o'rgandik. May bayramiga tayyorgarlik ko'rdik.

May arafasi kuni hammamizga yangi forma berildi. Ertasiga bo'ysira bo'lib, sharqiy maqomiga qadam tashlab namoyishga chiqdik. Yangi forma va yangi sharqiylarimiz bilan biz ham odamlarning diqqatini jalb qildik. Namoyish bo'ladigan O'rda maydoniga kirganimizda yer-ko'kni tutib yotgan xalq bizni ko'rib guvilladi, chapak chaldi. Xalq orasidan o'tib borib, maydonning o'rtasiga qurilgan minbardan ancha berida turib qoldik. Birozdan keyin maydonga yer-ko'kni larzaga solgunday sharqiy aytib dorilmuallimni talabalari kirib keldi:

*Inqilob, inqilob, ey shonli yor,
Dahshating tebratur tog'-u toshni:
Zulm elin, jabr elin aylading xor,
Beramiz, yashag'il, jon-u boshni:
Nurlaring o'chmasin bu jahonda,*

*So'nmagil, ey muborak charog',
Yashagil, ko'p zamon bo'l amonda,
Zulm elin, jabr elin aylading dog'.
Rohat olmakdalar yanchilganlar,
Naqadar shafqat bordir soyangda;
Shafqating, rohating istaganlar,
Kecha-kunduz sening xizimatingda.*

Saf bizning orqa tomonimizga kelib biroz «yerinda soy» qilib turdi-da, buyruq berilgach, taqqa to'xtadi. Butun miting davomida shulardan ko'zimizni olmadik. Bir men emas, nazarimda, har bir bola tezroq tovushi yo'g'on bo'lishini, dorilmuallimin talabalari safida sharqiy aytib, shularday qadam tashlab, shahar ko'chalari-ni larzaga keltirib yurishni orzu qilar edi.

Bayram ichi bolalar orasida: «Kommuna» maktabi dorilmuallimiga qo'shilar emish», degan gap yurib qoldi. Yoz bo'yi bu gap goh yo'qolib, goh yana chiqib yurdi-yu, o'qishlar boshlanishidan biron hafta oldin «dorilmuallimin «Kommuna» maktabi talabalaridan yigirmata bolani tanlab olar emish», degan yangi gap chiqdi. Haqiqatan, bir-ikki kundan keyin Po'latjon domla bizdan ellikka yaqin bolani bo'ysira qilib dorilmuallimiga boshlab bordi. Bungacha dorilmuallimin butxonaning yonboshidagi sobiq xotin-qizlar gimnaziyasi binosiga ko'chgan ekan. Boshqa maktablardan ham bola ko'p edi. Hammani katta-kon bir sinfga olib kirishdi. «Hozir dorilmualliminning katta domlasi Qori Niyoziy kelarmish, Qori Niyoziy bo'ladigan bolani ko'zidan bilarmish», degan gap yurib qoldi. Hamma ko'zini katta ochib, taqdiri nima bo'lishini kutib jimgina o'tirar edi. Katta domla deganda, mening ko'z oldimga novcha, yo'g'on, oppoq soqoli ko'ksiga tushgan nuroniy chol kelgan edi. Po'latjon domla o'rta bo'yli, chuvakkina, qop-qora sochini bir tomonga silliq qilib taragan, pidjak va

qirradi chiqqan shim kiygan bir yigitni boshlab kirdi. Qori Niyoziy qo'lini orqasiga qilib, partalar orasida nari-beri yurdi-da, birdan to'xtab, o'rta yerda o'tirgan bir bolaga barmog'ini bigiz qilib «Sen!» dedi. Bola irg'ib o'rnidan turdi, Po'latjon domlanning amri bilan sinfdan chiqib ketdi. Qori Niyoziy bolalarga zehn solib yana yurdi, yana bir bolaga barmog'ini bigiz qilib «Sen!» dedi. Bu bola ham chiqib ketdi. Qori Niyoziy uchinchi to'xtashida meni ko'rsatdi.

Shunday qilib, yuzdan ortiq boladan ellik olti bola tanlab olindi. Bular hammasi Farg'ona muzofot ta'lim-tarbiya bilim yurti, ya'ni dorilmuallimin qoshidagi namuna-tatbiqot maktabining talabasi bo'ldi. Bu maktabdan dorilmuallimiga bir qadam edi.

Shanba kuni tushki ovqatdan keyin uyga borib yotib kelgani bolalarga javob berildi. Men ovqatni challa-chulpa yeb, g'izillaganimcha uyga qarab ketdim. Nazarimda oyog'im yerga tegib-tegmay borar edim.

Ayam kerosin baliq ko'tarib ishdan kelgan ekan, anchagina parishon ko'rinar edi. U mening quvonchdan entikib aytgan gaplarimga «Muncha yaxshi, muncha yaxshi» deb turdi-yu, nazarimda, hech ham suyunmadi. Dadam Melivoy amin boshliq otryad bilan qishloqqa chiqib ketganicha to'rt kundan beri bedom-darak ekan. Amakim keldi, ayamga taskin-tasalili berish o'rniga uni xo'p urishdi, «yig'lama, kasofat, bira to'la yig'laysan!» – dedi-yu bir shisha kerosin olib chiqib ketdi.

Dadam ertasi juma kuni peshindan keyin keldi. Uning oldingi bitta tishi tushgan, bir qoshi past, bir qoshi baland – xiylagina tajang ko'rinar edi. Ayam uning tishiga ham, menga keltirgan chiroyli sariq etikchasiga ham e'tibor qilmadi, hol-ahvol so'rash o'rniga yig'i boshladi.

– Bu qurib ketgurlar qachon gumdon bo'ladi-yu, qachon yurt tinchiydi!

Dadam menga etikni kiygizib ko'rar ekan, xunob bo'lib:

– Bosmachi hali-beri yo'qolmaydiganga o'xshaydi, bularga O'rdaning o'zi yarog'-aslaha chiqarib turibdi-yu, – dedi va O'rdadan go'ng ortib chiqqan bir brichka Oydin Buloq atrofida qo'lga tushganini, go'ng ostidan ikkita beshotar miltiq, besh yuzga yaqin o'q chiqqanini aytdi, keyin beshbattar bo'g'ildi: – Xo'p, O'rdada bironta nikalayvachcha bo'lsa bordir, lekin bosmachilar ichida Xalpaerim nima qilib yuribdi degin!

Ayam ko'z yoshini darrov artib, dadamga qaraganicha angrayib qoldi. Men ham hayron bo'ldim, Xalpaerim deganda ko'z oldimga juda ham kattakon ko'k gumbaz ustiga o'rnatilgan oltin taxtda o'tirgan nuroniy mo'ysafid – yer yuzidagi hamma musulmonlarning podshosi kelar, lekin uning qayerda, qaysi mamlakatda podsholik qilishini bilmas edim. Dadam tushuntirib berdi. Uning aytishiga qaraganda Turkiyadan Sharqiy Buxoroga kelib bosmachilarga qo'shilgan va qizil askarlar bilan urushda o'lgan Anvarbek Xalpaerimning o'zi yoki uning o'ng qo'li bo'lib, aslida Xalpaerim emas, Xalifayi Rum ekan. Men tasavvurimdagi cholning bosmachilarga qo'shilishini aqlimga sig'dirolmadim. Bu gapga ayam mutlaqo ishonmadi, kalaka yo'sinidagi gaplar gapirdi. Dadamning achchig'i keldi. Shunday qilib, oraga boshqa gap sig'madi-yu, quvonchim ichimda qolaverdi. Kechqurun maktabga ketdim.

Maktabda ro'y bergan ikki hodisa Xalpaerim to'g'risida dadam kuyib-pishib aytgan gaplar rost ekanini tasdiqlaganday bo'ldi.

Bir kuni dorilmuallimin va namuna-tatbiqot maktabining mudiri va jug'rofiya muallimi Subhiy afandi sharqiy o'rgatgani bolalarni yig'di. Bu kishi jahon urushida asir tushgan, hanuz harbiy kepatasini yo'qotmagan sobiq zobitlardan bo'lib, muallim va

murabbiylarimiz orasida xiylagina mo'tabar edi. Subhiy afandi bizga «Turk elining dog'i-doshi og'liyor»¹ deb boshlanadigan bir sharqiy o'rgatdi. Bu sharqiy Turk-Ingliz muhorabasi vaqtida chiqqan ekan. Subhiy afandi shu muhoraba, Turk o'rdasi Chanoq Qal'a qirg'oqlarini o'z qoniga bo'yagani, mashhur Turk sarkardalari to'g'risida gapirib, Anvarbekdan so'z ochdi va «Turk o'g'li turk Anvarbekni ruslar o'ldirmishlar» dedi. Shunda men «Anvarbek Xalpaerimmi?» – deb so'ragim keldi-yu botinolmadim.

Yana bir kuni Muhammadjon Xoliqiy degan domlamiz ona tili darsida arab alifbesi dunyodagi hamma alifbelardan chiroyli ekanini, bunga sabab uning hamma harfi musulmon odamning yuzidan olinganligini, musulmon odam qanday qiyofaga kirmasin, darhol tanib olish mumkin ekanini aytdi, bunga misol qilib, kecha bo'lib o'tgan bir voqeani gapirib berdi. Kecha Subhiy afandining oldiga rus qiyofasidagi bir musofir kelib, bir kecha tunagani joy so'rabdi. Subhiy afandi uni Muhammadjon domlaga «O'z tili ni yo'qotgan musulmon» deb tanishtiribdi va biron yotoqdan joy berishini so'rabdi. Muhammadjon domla Subhiy afandi aytmasdanoq mehmon musulmon ekanini darrov bilibdi: yuzidan shundoqqina farishta yog'ilib turgan emish.

Shu kuni «Subhiy afandini Osobiy Otdel olib ketibdi» degan gap tarqaldi, lekin ertasiga ertalab Subhiy afandi darsga kirdi.

Shu voqeadan keyin dorilmualliminning asosiy sinfida o'qiydigan bir bola «Subhiy afandining Is'hoq afandi degan bir o'rtog'i bosmachiga chiqib ketgan ekan, kechalari bir ko'zini bog'lab Subhiy afandining oldiga kelib turar emish», deb qoldi. Uni kimdir o'z ko'zi bilan ko'ribdi.

Yanagi shanba kuni uyga borganimda Xalpaerim haqida dadam aytgan gaplar rost ekanini tasdiqla-

¹ Turk elining tog'u-yoshi yig'laydi.

moqchi bo'lib maktabda bo'lib o'tgan voqealar, yurgan gaplarni ayamga aytib berdim. Ayam achchig'i kelib: «Dadangning ishi bunaqa, endi boshimga maktabing ham bormi!» – dedi.

Yakshanba kuni ovqatdan keyin bolalarga kuzgi paxtalik nimcha berildi. Navbatim kelganda omborga kirdim. Qop-qora, barvasta xo'jalik mudirimiz Nosirjon Hoji menga loyiq nimcha qidirar ekan, yo'g'on, g'aldiragan tovush bilan: «Dadangga nimalar deding? Sen unaqa gap tashib yurmagin!» – dedi. Yuragim shig' etib ketdi: demak, ayam mening gaplarimni dadamga aytibdi-da!

Nosirjon Hoji uzatgan nimchani naridan-beri kiydim-u eshikka otildim. Eshik oldida turgan bolalar «qulluq bo'lsin» qilishdi shekilli, lekin birontasining gapi qulog'imga kirmadi, yuragim g'ash edi: dadam maktabga qachon kela qoldi, kimlarga uchrab nimalar dedi ekan?

Endi nima bo'ladi?

HIKOYALAR

BEMOR

Osmon yiroq, yer qattiq.
Maqol

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi – bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga¹ ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi.

Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

– Devonayi Bahovaddinga hech narsa ko'tardingmi? G'avsul-a'zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi – har xil savatchalar to'qishni

¹ Sim – hozirgi Farg'ona shahri

o'rgandi. U ertadan-kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib savat to'qiydi.

To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib, onasi-ning yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo'riydi; ba'zan, qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hamma yoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: «Hey do'st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli Xudo...»

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog'ini siladi, so'ngra... o'tirib yig'ladi.

– Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni! – dedi.

Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgancha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar, oxiri o'sal bo'ldi. «Ko'ngilga armon bo'lmasin» deb «chilyosin» ham qildirishga to'g'ri keldi. Sotiboldi to'qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko'tardi. «Chilyosin»dan bemor tetik chiqqanday bo'ldi; shu kechasi hatto ko'zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

– Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang.

Yana ko'zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

1936

DAHSHAT

*Xotin-qizlarning burun zamonda
ko'rgan kunini bilmaysizlar, qizlarim,
aytgan bilan ishonmaysizlar!..*

To'raxon oyi

Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi. Bunday kechalarda odamzot qo'ymijoz g'uj bo'lib va nimanidir kutib jimgina o'tirishni xohlab qoladi.

Olimbek dodxohning sakkiz xotini katta kundosh Nodirmohbegimning uyiga yig'ilib, sandal atrofida o'tirishar edi. Dodxoh har kecha taroveh namozidan keyin halqaga qolar edi, bu kecha erta qaytdi. Hamma to'zidi: xotinlardan biri uning sallasini oldi, biri chakmoniga qo'l uzatdi, biri mahsisini tortgani chog'landi... Kundoshlarning eng kichigi – bu dargohga tushganiga besh oygina bo'lgan kelinchak – ganjiravonlik Unsinoi chilim solib tutdi. Dodxoh chilimni bir marta, lekin juda qattiq tortdi-yu, yasov tortib turgan xotinlariga e'tibor qilmay, to'rga o'tdi va darchani jindakkina qiya qilib, bir ko'zi bilan tashqariga qaradi. Shamol goh och bo'riday uvillar, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag'illar, atrofda hech narsa ko'rinmas edi. Dodxoh darchani zichlab yopib, joyiga o'tirib tasbeh o'g'irishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o'tkazayotgan bo'lsa ham, qulog'i g'uvillayotgan shamolda, xayoli go'ristonda edi: «Hozir go'riston qanaqa vahimali bo'lsa ekan...» O'zbek go'ristoni o'zi xunuk, buning ustiga, go'riston haqida aytilmagan

xunuk gap, to'qilmagan vahimali mish-mish qolgan emas. Haqiqatan, bunday kechalarda go'riston esiga tushgan har qanday odam, ayniqsa, dodxoh singari payg'ambar yoshidan oshib, kafanligini sandiqqa solib qo'yan kishi o'lishdan ham ko'ra go'ristonda yotishini o'ylaganida tiligacha sovuq ter chiqaradi.

Dodxoh boshidan go'riston xayolini chiqarib tashlash uchun tasbehini qo'yib undan-bundan gapirgan bo'ldi, lekin hech kim bu gaplarga gap ulamadi.

Shamol bir xuruj qilganida nimanidir keltirib darchaga urdi. U narsa darchani tirmalaganicha sidirilib pastga tushib ketdi. Hamma o'tirgan yerida go'yo bir qarich cho'kkanday bo'ldi va tin olmay bir-biriga qaradi. Dodxoh xotinlariga, ulardan ham ko'ra o'ziga taskin berish uchun o'rnidan turib darchaning bir tomonini ochdi. Darchadan kirgan shamol osma chiroqni lipillatdi, tebratdi. Dodxoh pastga qaradi va suyunib ketganday:

– Bo'yra, bo'yra ekan! – dedi va darchani yana zich yopib joyiga o'tirdi.

Bo'yra odatda tobutga solinadigan bo'lganidan, dodxohning ko'z oldiga odamlarning yelkasi-da lapanglab ketayotgan tobutni keltirdi. Tobut esa yana go'ristonni eslatdi, go'riston haqida bolaligidan qulog'ida qolib kelgan vahimali gaplarni, hodisalarni jonlantirib yubordi. Dodxoh bu xayollarni yengish uchun go'riston vahimalaridan o'zi so'z ochdi va ikki og'iz gapining birida o'zining dovyurakligini xotinlariga, ulardan ham ko'ra o'ziga pisanda qila ketdi.

Gapdan gap chiqib, Nodirmohbegim bir voqeani aytib berdi.

– Bola edim. Rahmatli dadam gap yer edilar. Bir mehmonxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. «Hozir kim go'ristonga borib, Asqarponsotning go'riga pichoq sanchib keladi?» degan gap bo'lipti. Shunda bir kishi pichog'ini qinidan sug'urib: «Men sanchib kela-

man», – deпти, bitta qo'ydan garov bog'lashib yo'lga tushipti. Jo'ralari hali kutishar emish – yo'q, hali kutishar emish – yo'q; tong otipti, uyida ham yo'q emish; go'ris-tonga borib qarashsa, Asqarponsotning go'ri oldida o'lib yotgan emish! Bechora go'rga pichoq sanchganida etagini qo'shib sanchgan ekan, qaytay desa etagidan birov tortganday bo'lgan-da...

Hammaning eti jivillashib ketdi. Uzoq jimlikdan keyin Unsin yonida o'tirgan kundoshiga shivirlab:

– O'lsin, nokas odam ekan, bitta qo'yni deb... Koshki arziydigan narsa bo'lsa!.. – dedi.

Bu gapni dodxoh eshitib qoldi. Uning nafsoniyati qo'zg'adi. Dodxohday odam go'riston deganda tizzasi qaltirasa, birov «olamga podsho qilaman» degan taqdir-da ham bormasa, borolmasa-yu, bu qiz mushtday boshi bilan, «arziydigan narsa bo'lsa men boraman» desa!

Dodxoh g'ashi kelib, Unsinni masxara qildi:

– Obbo, tegirmonchining qizi!.. Bitta qo'yni nazarlari ilmaydi! Nechta qo'y bo'lsa arzir edi? Sen o'zing o'nta qo'y bersam, pichoq sanchib kelasanmi? Yuzta qo'y, davlatimning yarmini bersam borasanmi?

Unsinoy bozvantidagi tangalarni o'ynab:

– Menga davlat kerak emas, davlat kerak bo'lsa borar edim, – dedi.

Bu gap dodxohga tegib ketdi.

– Nima kerak?

Unsin indamadi. Dodxohning savoli javobsiz qolishi mumkin emas edi. Shuning uchun bittasi gunoh qilsa, hammasi baravar kaltak yeydigan kundoshlar Unsinni turtkilashdi:

– Javob bersang-chi!

– Tildan qoldingmi?!

Yonida o'tirgan kundoshi tirsagi bilan biqiniga ikki-uch turtgandan keyin, Unsin boshini ko'tarib, balo-qazoday tikilib turgan dodxohga bir ko'z tashladi-yu, yana boshini egib, lekin dadil javob berdi:

– Javob bersangiz... Ganjiravonga ketsam... Bitta go'rga bitta pichoq emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelaman... – dedi.

Uning maqsadini kundoshlar darrov fahmlashdi. Lekin dodxoh bunday gapni sira kutmagani uchun yanglish tushundi.

– Tag'in nima qilasan Ganjiravonda, borib kelganingga ikki oy ham bo'lgani yo'q-ku!

Nodirmohbegim sandal ichidan oyog'ini uzatib Unsinning boldirini chimchiladi, ko'zi bilan «xayriyat, tushunmadi, bas, gapirma», deb ishora qildi. Biroq Unsin jonidan kechgan kishining shijoati bilan dodxohga tik qaradi.

– Yo'q, men butkul ketsam deyman, javobimni bersangiz, demoqchiman.

Gapni aytgan Unsin-u, boshqalar o'tirgan joyida yerga qapishib ketdi. Biroq dodxoh, hammaning kutganiga qarshi, qo'liga qamchi olib Unsinni «qayering qichidi»ga solmadi, aksincha, zaharxanda bilan bo'lsa ham, muloyim gapirdi:

– Shunaqami?.. Xo'p, mayli, aytganing bo'la qolsin, – dedi va biroz o'ylab turib g'ijinganini yashirolmay ilova qildi: – Lekin go'ristonga pichoq emas, qumg'on olib borasan. Onhazratim sag'anasi oldida qumg'on qaynatib, bitta choy damlab kelasan, maylimi?

– Mayli, mayli! – dedi Unsin ko'zlari javdirab, – lekin lafzingizdan qaytmasangiz...

Dodxohning dami ichiga tushib ketdi. Bir gado-vachchaning bu dargohdan ketishga oshiqishi unga haqorat bo'lib tushdi. Endi Unsinni tilab olish uchun biron so'z aytishga hech kim, hatto go'ristondan uning o'ligi kelishiga ko'zi yetib, ichida faryod chekayotgan Nodirmohbegim ham jur'at qilolmay qoldi.

Dodxohning oppoq, uzun soqoli, tovushi titradi.

– Xo'p, lafzimdanda qaytmayman, mana xotirjam bo'la qol: men hozir seni bir taloq qo'ydim, qaytib kelganingdan keyin uch taloqsan! Bor, qumg'onni ko'tar!..

Unsin dodxohdan darrov yuzini berkitganicha chiqib ketdi. Nodirmohbegim, qoʻlidan boshqa ish kelmagandan keyin, hech boʻlmasa Unsinning yuragiga quvvat boʻladigan bir-ikki ogʻiz soʻz aytish maqsadida ketidan chiqmoqchi boʻlgan edi, dodxoh xoʻmrayib joyiga oʻtqazib qoʻydi. Kundoshlar bitta-bitta oyoq uchida yurib chiqib ketishdi.

Unsin uyiga kirdi, paranji-chimmatini yopindi, qumgʻonga suv toʻldirib, choynakka choy soldi-yu, joʻnadi. Koʻr oydin. Osmonning chekkasi sariq – kir uvadaga oʻxshaydi. Bu kir shuʻla qoʻynida past-baland uylar, shamolda egilayotgan, tebranayotgan daraxtlar qop-qora qoʻrinadi. Pishqirayotgan shamol har xuruj qilganida Unsinni tentiratar, talay joyga surib tashlar edi. Unsin paranji-chimmatini yumaloqlab qoʻliga olganidan keyin yoʻl yurish osonroq boʻldi.

Goʻriston toʻgʻrisida dodxoh nimalar eshitgan boʻlsa, Unsin ham shuni eshitgan, shamol kechasi goʻriston dodxoh xayolida qandoq dahshatli boʻlsa, uning xayolida ham shunday dahshatli, lekin shundoq boʻlsa ham, tiriklar goʻristoni boʻlgan bu dargohning dahshati oldida oʻliklar goʻristonining dahshati unga dahshat koʻrinmas, bundan tashqari, ertagayoq Ganjiravonga joʻnash, ota-onasini, dugonalarini koʻrish umidi uning boshiga boshqa hech qanday fikr-xayolni yoʻlatmas edi.

Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozorboshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab, qarshisidan esayotgan shamolga soʻz bermay, baʼzan irgʻishlab borar edi; biroq goʻriston koʻchasi-ga burilib, salobat bilan tebranayotgan qop-qora kekxa chinor ostida oqarishib turgan sagʻanalar-ni, belgisiz zulmatni koʻrganida yuragi uvishdi-yu, zovur koʻprigidan oʻtib, ikki qadam qoʻygani-cha toʻxtab qoldi. Dahshat uning yuragiga raxna soldi: Ganjiravon, ota-onasi, dugonalari xayolidan

ko'tarilib; ko'z oldiga oppoq kafanga o'ralib sag'ana va go'rlar atrofida yelib yurgan arvohlar keldi. Uning eti jivirlashib, sochi boshidagi ro'molini bir qarich ko'targanday bo'ldi. Unsin beixtiyor bir qadam orqaga chekindi, lekin shu ondayoq xuddi o'likdan qo'rqmasligini birovga pisanda qilayotganday, baqirib: «O'likning joni yo'q! O'likning joni yo'q!» – deb olg'a intildi, shu yugurganicha chinor ostidagi On-hazratim sag'anasi oldida to'xtadi; choynak bilan qumg'onni oyog'i ostiga qo'ydi, paranji-chimmatni bir chekkaga tashladi, ichida: «Ko'pi ketib ozi qoldi», deb suyundi. Biroq uning suyungani behuda edi: hamma narsani olipti-yu, eng zaruri – o'tin esidan chiqiptil Har sag'anadan bir qo'l, har go'rdan bir tovush chiqishini kutib o'tin qidirish vahimasi uning yuragiga yana raxna sola boshladi. Unsin o'ziga-o'zi baland tovush bilan yana: «O'likning joni yo'q!» – deb, hozir diliga bitta odamchalik quvvat bo'layotgan bu gapni og'zidan qo'ymay, sag'ana va go'rlarni oralab o'tin qidirdi; paypaslanib, qo'lga ilingan narsani etagiga soldi, qamish sindirdi, yantoq, giyoh yuldi, qo'llari qonab ketganini ham payqamay, topgan-tutganini keltirib o't yoqdi. O't chirsillab-chirsillib birpasda gurkiradi, shamolda to'lg'anayotgan tutun aralash alanganing qizg'ish shu'lasidan qorong'ilik lipillab, uzoq-yaqinda do'playib turgan go'rlar, xuddi birov tuproqni ko'tarib chiqayotganday harakatga keldi.

Unsin yana o'tin qidirdi, lekin har safar o'tin qalaganida alanganing gurkirashi, chirsillashi mudrab yotgan arvohlarni uyg'otib yuborishidan qo'rqqan-dek, uning ustiga o'zini tashlaguday bo'lar edi.

Nihoyat, qumg'on qaynadi. Unsin naridan-beri choy damladi, quruq yantoq va qamishlarga o't ketmasin uchun o'tni tepkilab o'chirdi; o'ng qo'lida choynak va chap qo'lida qumg'on, o'tning shu'lasidan ko'zi hanuz qamashib borar ekan, bir joyda

yer o'pirilib, chap oyog'i taqimigacha botib ketdi va oyog'ining uchi yumshoq bir narsaga tekkanday bo'ldi. Unsin boyagi gapni duoday tez-tez qaytarib, qo'rquvni o'ziga yo'latmayotgan bo'lsa ham, ko'ngliga «o'likning qornimikin» degan gaplar keldi-yu, yuragi orziqib, oyog'ini darrov sug'urib oldi va chuqurda qolgan bir poy kavushini olgani yurak qilolmay mahsi-chan ketaverdi. Unsin bir necha qadam bosganidan keyin paranji-chimmati sag'ananing oldida qolganini eslab to'xtadi, lekin qaytib borgani botinolmadi, hozir qaytish emas, qayrilib qaragani ham yuragi dov ber-mas, nazarida hamma o'liklar sag'analardan, go'rlar-dan boshini chiqarib, ketidan qarab turganday edi. Unsin nima qilishini bilmay turib qoldi. Shu asnoda kattakon bir sag'ananing ichidanmi, naryog'idanmi allaqanaqa bir tovush eshitildi-yu, hayal o'tmay ni-madir kelib Unsinning yelkasiga minib oldi, aftidan, bo'g'moqchi bo'lib qo'l uzatdi. Unsin ko'kragiga ni-hoyatda og'ir bir narsa bilan urilganday ko'ngli ozib tentirab ketdi-yu, yiqilmadi, lekin oyoq uzra turib hushidan ketdi; oradan qancha vaqt o'tganini bilma-di, ko'zini ochib qarasa jonvor yelkasidan tushipti, emaklab boyagi sag'ananing orqasiga o'tib ketdi. Un-sin qo'rquvdan telba bir ahvolda bo'lsa ham fahm-ladi: maymun! Dodxohning maymuni! Maymunni dodxohning o'zi olib kelmagandir, birovdan berib yuborgan! Dunyoda dodxohday berahm odam yana bor ekanmi?!

Unsin yelkasiga maymun mingan daqiqada naqa-dar qo'rqqan bo'lsa, hozir shu qadar tinchidi, xotir-jam bo'ldi: demak, qandoq berahm bo'lsa ham shu atrofdan odam bor!

Unsin go'ristondan chiqib, katta yo'lga tushib oldi, yarim yo'lga borganida chap qo'lga qattiq og'riq kir-ganini sezdi. Og'riq qumg'onni eslatdi. Chap qo'li-da qumg'on bor edi, qani? Unsin bir to'xtadi-yu,

choynakni ikkala qo'li bilan bag'riga bosib, darmo-ni yetguncha jadalladi. Tushida yugurganday uning yo'li ko'paymas, ikki oyog'i gavdasidan keyinda qolar, qo'lidagi choynak tobora og'irlashib borar edi.

Unsin Nodirmohbegimning og'ir eshigini zo'rg'a ochdi, ostonadan o'tib, bir necha qadam bosgani-dan keyin holdan toyib cho'kkaladi va ne mashaqqat bilan intilib, jo'mragidan choy oqib bug'lanayotgan choynakni sandalning bir chekkasiga qo'ydi, umr-lik orzusi ushalganday, hordig'i chiqib, o'zini yerga tashladi. Sandalda o'tirib pinakka ketgan dodxoh uyg'onib tamshandi, boshini ko'tarib Unsinni ko'r-di-yu, «jon berayotipti» deb o'yladi shekilli, ko'zlari olay-di, undan ko'zini olmay sekin o'rnidan turdi, xuddi o'lim xavfidan qochganday, bir irg'ib sandaldan osh-di-da, o'zini eshikka urdi...

Unsin hushdan ketgan ekan, bir vaqt ko'zini ochib qarasa, sandalning chetida chalqancha yotibdi, tepa-sida Nodirmohbegim yig'lab o'tiripti. Uning o'ng ko'zi momataloq bo'lib shishib ketgan, oq doka ro'molining u yer-bu yeriga qon tekkan ekan. Unsin Nodirmohbe-gimga ko'zi tushgan zamoni undan dodxohning lafzi lafzmi ekanini so'ramoqchi bo'lgan edi, uning ahvoli-ni ko'rib, eshitilar-eshitilmas:

– Sizga nima bo'ldi? – dedi.

Nodirmohbegim Unsinning yosh joniga rahm qili-shini, uni qaytarishni so'rab dodxohga yolvorganida dodxoh uni tutib olib xo'p urg'an edi. Nodirmohbegim Unsinning savoliga javob bermadi, tovush chiqar-may yana ham qattiqroq yig'lab, uning boshini siladi, yuzini yuziga qo'ydi; so'ng, o'sha chog'i odam yuborib go'ristondan oldirgan ikki chimdim tuproqni yarim piyola suvga chayib Unsinga tutdi.

– Ich, jigarim, qo'rqqansan... Go'ristonda qo'rq-qanga go'ristonning tuprog'i davo bo'ladi.

Unsin piyoladagi loyqa suvni darrov ichdi va xiyla yengil tortganday bo'ldi.

– Mendan qaytmasa Xudodan qaytsin... Ota-onam borishimni harna ertaroq eshitsa, harna ertaroq suyunsa...

Nodirmohbegim yana kaltaklanishidan hayiqmay, Ganjiravonga bir xizmatkorini yubordi.

Biroq Unsin peshingacha yetmadi – uzildi.

Shom qorong'isida uning jasadini qizil ko'rpaga o'rab aravaga solishdi. Shamol hamon guvillar, yaydoq daraxtlarning shoxida chiyillar, g'uvillar edi.

Darvozadan boshida paranji va qo'lida oq tuguncha Nodirmohbegim chiqdi. U darvozaga yuzini o'g'irib cho'nqaydi, ikki qo'lini fotihaga ochib, bir nimalar dedi. Dodxohning o'zi bilan birga bu dargohni yerning qa'riga yuborganday ikkala mushtini uch marta yerga qadadi; keyin «bu dargohni endi yelkamning chuquri ko'rsin» deganday bir harakat bilan keskin burilib aravaga chiqdi, marhumaning bosh tomoniga o'tirdi.

Arava jo'nadi, shahar qo'rg'onidan chiqqanda kunduzi Nodirmohbegim yuborgan xizmatkor Ganjiravondan qaytib kelmoqda edi.

1965

BASHORAT

*Ola qarg'a qag' etadi,
O'z vaqtini chog' etadi.*

Maqol

Nikolay zamonida mayiz qimmat, ko'knor arzon edi, hozirgi zamonda mayiz arzon, ko'knor qahat. Esizgina o'sha vaqtda chala siqib tashlangan ko'knorlar!

Mulla Said Jalolxon shuni ko'nglidan o'tkazib devorga suyandi va ko'zlarini yumdi; burniga qo'ngan pashshani qo'lidagi ro'molcha bilan qo'rish malol keldi shekilli, ostki labini cho'zib «puf!» dedi. Pashsha ko'tarildi, ammo shu ondayoq uning labiga qo'ndi. Said Jalolxon sekin labini qimtib pashshani oyog'idan qisib oldi. Tuzoqqa tushgan bu dilozor-ni ushlab, ikki barmoq orasida aylantirib tashlash qasdida ko'tarilgan qo'l to labiga kelguncha, la'nati pashsha oyog'ini sug'urib qochdi. Said Jalolxonning achchig'i keldi: yo'q yerdan ko'knor topib, kayf qilib o'tirganda bu nimasi!

Insof yuzasidan aytganda, pashsha yaramas maxluq: quyib qo'yilgan choyga tushib tarvayib yotadi, mayiz talashadi, pokiza qilib suzib qo'yilgan ko'knordan qanoti chiqadi. Qanotini ko'knorga tashlab o'zi qayoqqa ketadi deng!

Xayol kayfni o'g'irlagan pashshani qidirib ketdi.

Uyda g'ij-g'ij bo'lib yotgan bu pashshalarning qaysi biri o'sha? Said Jalolxon darhol eshikni yopib, uzun supurgini qo'lga oldi. U, supurgini ko'tarishi bilan hamma pashsha g'ing'illashib, bir yerga to'plandi va bir kirpi holiga keldi. Kirpi qanot chiqardi, katta bir

pashshaga aylandi-da, oldingi oyoqlari uzra turib Said Jalolxonga qaradi va g'ing'illadi:

– Shoshma, sening orqangda qancha mo'min namoz o'qiydi, Xudoning maxluqiga ozor bergani nechuk hadding sig'adi?

– Qandoq maxluqsan o'zing? – dedi Said Jalolxon supurgini yelkasiga qo'yib.

– Pashshalarning shohi bo'laman.

– Shoh bo'lsang, besabab o'g'irlik qilgan fuqarolar-ringni tergamaysan?

– Sening soqolingga tekkan bir qatra shira mening barcha fuqarolarimga bir kunlik ovqat bo'ladi, qandoq qilib sen shuni o'g'irlik deysan? Nimangni o'g'irladi?

– Kayfimni o'g'irladi! Ne mashaqqatlar bilan ko'knor topib kayf qilib o'tirganimda burnimga va la-bimga qo'ndi. Shuning uchun sendan qasos olaman: qanotingni yulib tashlayman.

Pashshalar shohi yalindi, yolvordi. Said Jalolxon ko'nmadi. Oxiri ikkovi murosaga keldi: shoh unga qanot beradigan, u uchib yurib, gunohkor pashshani o'zi topadigan bo'ldi. Shoh keyingi oyoqlari bilan qanotining ustini siladi, oldingi oyoqlarini bir-biriga ishqadi, keyin g'ing'illadi. Said Jalolxon xuddi baland yerdan o'zini tashlaganday, yuragi «shuv» etib, qanot chiqardi va uchdi; shu uchganicha necha zamonlar qidirib, gunohkor pashshani qir etagida o'tlab yur-gan bir eshakning yag'iridan topdi. Pashsha jaro-hat atrofida oqsoqlanib yurar edi. Said Jalolxon bir qo'l urib uni hovuchiga qamab oldi, so'ngra darrov o'ldirib qo'ymaslik uchun, ehtiyot qilib bir qanotidan ushladi. Pashsha g'ing'illadi:

– Labing bilan qisib bir oyog'imni uzganing yet-masmidi, yana nima deysan?

– Sen o'g'risan! Odam bo'lganingda shar'an qo'lingni kesish lozim bo'lar edi. Qanotingni yulib tashlayman!

Pashsha yalindi-yolvordi – bo'lmadi. Oxiri ikkovi kelishdi.

Pashsha Said Jalolxonni ergashtirib bir biyobonga olib chiqdi. Biyobon somon, qum va toshbaqadan iborat edi. Pashshaning amri bilan Said Jalolxon bir toshbaqa va bir dona toshbaqaning tuxumidan oldi. Biyobonning allaqayeridan bir qozon topildi. Said Jalolxon pashshaning amri bilan tuxumni yerga qo'yib, ustiga qozonni to'ntardi va toshbaqani qo'yib yubordi. Pashsha bir somon parchani ushlab qozonning qoqtepasiga qo'nib turdi. Toshbaqa qozon atrofida aylana berdi, aylana berdi. Oxiri qozon yorilib chilparchin bo'ldi, ammo hech qanday tovush chiqmadi. Toshbaqa bilan tuxum ko'zdan g'oyib bo'ldi. Qozon yorilgan vaqtda allaqayoqqa borib tushgan pashsha, ushlab turgan somon parchasini keltirib Said Jalolxonga berdi va g'ing'illadi:

– Mana shuni tering orasiga tiqsang, ko'zdan g'oyib bo'lasan. Sen hammani ko'rasan, seni hech kim ko'rmaydi. Qishloqda kimda qancha ko'knor bo'lsa hammasi seniki bo'ladi.

Said Jalolxon darhol bir cho'p bilan bilagini tirmalab, somon parchani terisi orasiga joyladi va qanday ko'zdan g'oyib bo'layotganini ko'rib turdi: boshlab kavshining uchi, so'ngra birdaniga tizzasigacha oyog'i ko'rinmay qoldi...

Tamom ko'zdan g'oyib bo'lganidan so'ng Said Jalolxon tikka o'zining ulfati mulla Shamsiddinning uyiga bordi. U eshik oldidagi supada, oldida bir g'alvir mayiz, cho'pini terib o'tirgan edi. Said Jalolxon tovush chiqarmay uning yoniga borib o'tirdi. Mulla Shamsiddin uni ko'rmadi; g'alvirga qo'l solib bir changal mayiz oldi – payqamadi.

Said Jalolxonga uning bir qadoqqa yaqin ko'knorisi borligi ma'lum edi, shu ko'knorini izlab uyga kir-

di. Hujrada bir qadoq emas, bir lingcha ko'knor bor ekan. Said Jalolxon ko'knorining hammasini ko'tarib jo'nadi; uni hujrasiga qo'yib yana ko'p joylarga bordi, hatto yuk avtomobilining kapoti ustiga ayri minib shaharga ham tushib chiqdi. Hech qayerda bunday ulgurji g'animat uchramadi. Said Jalolxon yiqqan ko'knorini uyning o'rtasiga to'kib, qancha vaqtgacha yetishini mo'ljallab ko'rdi – olti oyga yetar ekan. Bu atrofda ko'knor qolmadi-ku, olti oydan keyin nima bo'ladi? Said Jalolxonni vahima bosdi.

Birdan uning esiga bir narsa tushdi: modomiki, uni hech kim ko'rmas ekan, kolxoz raisining oldiga borib «bu yil paxta atrofiga ko'knor ektirib berasan» desa nima qiladi? Said Jalolxonga bu fikr shuncha yoqdiki, aqli ko'payib boshi kattaroq bo'lganini sezdi.

Said Jalolxon tikka kolxoz idorasiga bordi. Rais o'zi yakka, qatiq ichib o'tirgan ekan. Said Jalolxon har holda avval o'zini bir sinab ko'rmoqchi bo'ldi: qani, rais ko'radimi, yo'qmi?

– Assalomu alaykum! – dedi raisga ro'para bo'lib.

Rais tovush qayoqdan kelganini bilmay alangladi, so'ngra qo'rqib, rangi o'chdi-da, mo'ylovida qolgan qatiq yuqini yengi bilan artib, sekin o'rnidan turdi.

– Qo'rqma, qo'rqma! – dedi Said Jalolxon dadillanib, – senga ham arz, ham farmon qilgali keldim: bu yil paxta atrofiga ko'knor ektirasan.

Rais hushi yo'q, javob berdi:

– Majlis qilib o'rtaga solish kerak...

– Majlis qilasanmi, ma'raka qilasanmi, ertaga ish boshlamasang, kechasi uyingga kafanlik kiraman. Men arvoh bo'laman!..

Rais rozi bo'ldi. Said Jalolxon raisning oldidagi qatiqni qo'shqulog'i bilan olib chiqib ariqqa tashladi.

Shunda uning boshiga yana bir fikr keldi va bu fikrdan boshini yana ham kattaroq bo'lgan his qil-

di: «Modomiki, paxta atrofiga ektirish qo'limdan kelar ekan, nima uchun hamma yerga ko'knor ektirmayman?»

Said Jalolxon qaytib kirdi, bor tovushi bilan baqirdi:
– Hamma yerlaringga ko'knor ektirasani!

Rais ko'ndi. Said Jalolxon ketdi. Yo'lda uning boshiga yana bir fikr keldi: «Raisga qilgan do'qimni hukumatga qilsam, o'zimni xon ko'tara olmaymanmi?»

Bu fikrdan uning kallasi yana ham kattaroq bo'lib, juda og'irlashib ketdi. «Aql kallani bunday katta qilsa va bunday og'ir bo'lsa, – der edi u ichida, – Aflotunning o'z ajali bilan o'lganiga ishonmayman, uni albatta kallasi bosib o'ldirgan».

U hujraga kirishi bilan birvarakayiga go'yo qiyomat qo'pdi. Ko'chada yugur-yugur, shovqin, itlar vangillagan, tovuqlar qiyqillab qochgan; gursillab devorlar yiqiladi, sharaqlab daraxtlar qulaydi... Qandaydir bir xotin qichqirdi:

– Kim ekan u, bizga ko'knor ektiradigan!..

Bu tovush hamma yoqni larzaga keltirdi. Hujra-ning devorlaridan chang yog'di, tokchadagi mis lagan jangillab ketdi.

Said Jalolxon tezdan mulla Shamsiddinning oldiga bordi va o'z terisi orasidagi somon parchasini sindirib yarmini unga berdi. Ikkovi dashtga chiqib baravariga na'ra tortdi. Ko'z ochib yumguncha necha ming piyoda va suvori kishilar paydo bo'ldi. Bularning hammasi kuloh kiygan va tug' ko'targan edi. Ming-ming toshbaqa ming-ming qozon atrofida aylanib, ko'zga ko'rinmaydigan necha yuz ming lashkar bo'ldi. Bu yerning o'zida unga «Said Jalolxoni sohibqiron» deb nom berildi va xon ko'taribdi. Mulla Shamsiddin unga vazir bo'ldi.

Musulmonobod yo'lida g'azotni boshlash uchun hamma narsa tayyor, faqat yarog'-aslaha yo'q edi.

Afg'onistonga o'tib ketgan ko'r Shermatga Said Jalolxoni sohibqiron nomidan darhol noma yozildi. Nomaga javob ham keldi. Javobda ko'r Shermat «Necha ming sipohi bilan yo'lga chiqdim, Sizga o'z belimdagi shamshirimni yubordim», debdi.

Shunday qilib, ish borgan sari katta bo'lar va ish katta bo'lgan sayin Said Jalolxonning kallasi og'irlashar edi.

Xudo allaqaysi tog'ning g'orida «Qirarman» va «Yig'arman» nomli ikki maxluqni Said Jalolxonning xon bo'lishiga atab boqib yurgan ekan; yarim odam, yarim maymun qiyofasidagi bu ikki jonivor kelib xonga salom berdi va har qaysisi o'z hunarini aytdi. Qirarman – ro'para kelgan kishining kallasini uzib tashlar, Yig'arman – kallasiz tanalarni sarjingga o'xshatib taxlar ekan. Said Jalolxon ko'p xursand bo'ldi. U, qo'zg'algan qishloqni qilichdan kechirgani bu jonivorlarning yoniga necha ming so'filardan qo'shib berdi. Ular, dashtni changitib ketar ekan, orqalaridan Said Jalolxon qichqirib qoldi:

– Qiringiz! Quritingiz! Ekindan ko'knor, jon egasidan toshbaqa bilan pashsha qolsa, bas!

Bular ketgandan keyin Said Jalolxon g'ayratiga chidolmay shamshir sug'urdi va havoda o'ynatib, askarga farmon berdi:

– Ot qo'yingiz! G'azot! Qishloqqa ot qo'yingiz!

Oldinda xon, ko'rinmas askar quyunday borar edi. Banogoh Said Jalolxonning ko'zi qarshidan ot qo'yib kelayotgan mulla Shamsiddinga tushdi. Mulla Shamsiddin kelib otdan tushdi, xonning oyog'ini o'pdi.

– Qishloqda askarlar bor. Yaqiniga borishning sira iloji yo'q, – dedi.

Qishloq tomonda yana chang ko'rindi. Yig'arman kelar edi. U ham kelib otdan tushdi va xonning oyog'ini o'pib, zo'r musibatdan darak berdi:

– Qirarman shahid! – dedi.

Said Jalolxon ishongan tog'i xususidagi bu xabar-ni eshitib oh tortdi va otdan yiqildi; boshi bilan tushdi, kimdir uning boshini juda ham katta va haddan tashqari og'ir latta bilan bog'ladi, shundan so'ng hushidan ketdi.

Xon talay vaqtdan keyin hushiga kelib ko'zini ochdi va o'zini o'z hujrasida ko'rdi. Yonida vaziri mulla Shamsiddin cho'kka tushib o'tirar edi.

– Nima bo'ldi? Qani shamshir, qani ot? – dedi xon boshini ko'tarib, ammo boshi shunday og'rir ediki: yana yostiqa qo'ydi.

Mulla Shamsiddin ro'molchasi bilan uni yelpib, yig'lamsirab dedi:

– Axir, mulla Said Jalolxon, nega kishini qo'rqitaisiz? Nima? Shamshir nimasi? Qanaqa ot?

Said Jalolxon mulla Shamsiddinning yig'lamsirashidan qishloqqa ketgan boshqalarni ham shahid bo'lgan gumon qildi.

– Hammasimi? Hech kim qolmadimi? Hozir xabar oldiring! Afg'oniston yo'liga kishi chiqaring!

Said Jalolxon o'rnidan turgan edi, gandarablab yiqildi. Mulla Shamsiddin kuyib-pishib hech qanday g'azot, hech qanday askar yo'qligini, uning ertalabdan beri shu yerda yotganini uqtira boshladi.

– Ahmoq, – dedi xon achchig'i kelib, – axir, men otdan yiqildim... Boshimning og'rig'i hali bosilgani yo'qku! Nima uchun men seni ko'rib turibman! Boshimning katta bo'lganiga nima deysan?

– Boshingiz katta bo'lgani yo'q, axir, – dedi mulla Shamsiddin jerkib, – men kelsam mana bu sabil mo'ridan shamol toshko'mir tutunini qaytarib, butun uy tutunga to'lgan ekan. Xudo ko'nglimga solib kelmasam, halok bo'lar edingiz!

Said Jalolxon hamon ishonmas edi. U, devorlar-ni ushlab, tashqari chiqdi; ikki qadam bosishi bi-

lan yana yiqildi. Mulla Shamsiddin xizmat qilib, bir necha soatdan keyin arang uni o'ziga keltirdi. Said Jalolxon butun boshdan kechirganlarini inqillay-inqillay hikoya qilib berdi.

– Men sizning ko'knoringizni olib kelgan edim, – dedi yana aynib.

– Qanaqa ko'knor?

Said Jalolxon yana o'ziga kelib uh tortdi.

– Bu bir bashorat, – dedi mulla Shamsiddin anchadan keyin.

Ertasiga ikki o'rtoq musulmonobod qilish uchun toshbaqa izlab cho'lga chiqib ketishdi.

1936

KAMPIRLAR SIM QOQDI

– Turing, Nazirbuvi! Turing, To‘xtabuvinikiga chiqamiz!

Nazirbuvi sandalning chetida, derazadan tushib turgan erta bahor oftobiga sho‘rvada pishgan olmadek yuzini tovlab, to‘ygan qo‘zichoqday uxlab yotar edi; bu tovush qulog‘iga kirib, xuddi pashsha qo‘riganday, bir lunjini qimirlatdi; ko‘zini ochmoqchi bo‘lgan edi, faqat bittasi ochildi.

– A? Nima? – dedi.

– To‘xtabuvinikiga chiqamiz. Rais kelibdi.

– Rais?

Nazirbuvi darrov o‘rnidan turdi, doka ro‘molini qayta bog‘lab, Shahodatbuvi bilan birga chiqdi.

To‘xtabuvining uyida Roziyabuvi, Ortiqjonlar o‘tirar, rais bularga urushning borishi to‘g‘risida so‘zlar edi; kimningdir savoliga javob berib:

– Endi nemisning poshshosi daryo tagiga uy solib kirib ketganligi masalasiga kelganimizda, – dedi, – men buni gazetada o‘qiganim yo‘q. Agar Gitler shundoq qilgan bo‘lsa, qizil askarlarimiz orasida suvchi bolalar ham ko‘p, birontasi kirib giribonidan bo‘g‘ib chiqadi... Mana, Nazira xola ham, Shahodat xola ham kelishdi. Yaxshi bo‘ldi. O‘zim ham sizlarni yig‘ib ikki og‘iz gaplashmoqchi edim. Gapim shuki, kolxozimizda paxta ishiga yaraydigan odamlar qanchaligi o‘zlaringga ma‘lum. Shunday cho‘t urib qaragam, paxta ishiga yaraydigan har bir kolxozchining har bir ish soati bir kilogramm paxta ekan. Shundoq bo‘lgandan keyin odamlarni iloji boricha boshqa ishlardan bo‘shatib, paxtaga solishimiz kerak bo‘ladi. O‘shanaqa ishlardan bittasi pilla qurt. Men

beshovlaring qurt tutinglar, beshta odam bo'shasin demoqchi emasman. Hech undoq emas. Shundoq qilinglarki, paxta ishiga yaraydigan odam biron soat ham sizlarning qo'llaringdan keladigan ishga band bo'lmasin. Agar sizlar mana shu yo'l bilan butun bir mavsumda o'n mehnat kunini pilladan yulib paxtaga bergani yordam qilsalaring ham harna! Men sizlar bilan majlis qilib, mana shu masalani o'rtaga tashlamoqchi edim. Mana, majlis ochiq. Kim gapiradi?

Hech kimdan sado chiqmadi. Hamma nechukdir, o'ng'aysizlanar, qimtinar, yerga qarar edi.

– Xo'sh, bo'lmadimi? – dedi rais. Kampirlar bir-biriga qarashdi va hamma birdan:

– Nega, nega bo'lmas ekan! – dedi.

– Bo'lsa nega indamaysizlar? Qani, To'xta xola, gapiring!

To'xta xola ro'molining uchi bilan og'zini yopib, bo'zargan holda avval o'rtoqlariga, keyin raisga qaradi.

– Endi, o'g'lim, dabduristan majlis deding... asli shu gapni avval o'zaro jo'n gaplashib, pishiqtirib olsag-u keyin majlisga solsang bo'lar edi.

To'xtabuvi hammaning ko'nglidagi gapni aytdi. Rais bu suhbatni majlis deb atash bilan kampirlarni qiynab qo'yganligini darrov fahmladi-da, kulib, xatosini tuzatdi:

– To'g'ri, avval jo'n gaplashib olaylik. Xo'b, majlis yopiq. Gapni bir joyga qo'yganimizdan keyin ochamiz.

Majlis yopiq e'lon qilingandan keyin Roziyabuvi o'zidan-o'zi gap boshladi:

– Qurt tutishga bizning qo'limizdan keladigan ish ko'p. Aytsangiz-aytmasangiz o'shanaqa ishlarga qarashish bizdan lozim. Men yana bir narsani o'ylab qoldim: besh kishi ekanmiz, beshovimiz bir quti urug' olsak nainki eplab boqolmasak?

Boshqalar bir qutini bahuzur eplash mumkin ekanini aytib:

– Qurt ishida ko‘zimiz pishgan, qayta yaxshiroq boqamiz, og‘ir ishlari bo‘lsa, bizga qarashadigan yosh-yalang topiladi, – deyishdi.

Rais miyig‘ida kulib:

– Mayli, – dedi. – Agar bir qutini ermak qilamiz, desalaring o‘zlaring bilasizlar. Xo‘b, endi shu gap puxta gapmi?

– Puxta gap! – deyishdi.

– Endi majlisni ochsam maylimi? Xo‘p, majlis ochiq. Beshovlaringni bir zveno deymiz. Zvenoga boshliq kerak bo‘ladi, kimni saylaysizlar?

Munozara va muzokaralardan keyin zvenoga boshliq qilib yetmish bir yashar To‘xtabuvi Sarimsoqova saylandi.

Majlis yopildi. Rais ketdi.

Shu kuni kechasi, yotar mahalida, To‘xtabuvini vahima bosdi: bular-ku hammasi va‘da berdi, sayladi, ertaga biri «Belim og‘riydi», biri «O‘g‘limdan xat kelmayapti, yuragimga qil sig‘maydi», deb uyiga kirib yotib olsa, nima bo‘ladi?

To‘xtabuvi yugurganicha Nazirbuvinikiga chiqdi. Nazirbuvi hali uxlamagan ekan.

– Hoy, Nazirbuvi, shu bo‘ladigan ishmi, yo raisning qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirib jo‘natdikmi?

– Voy, To‘xtabuvi, nega bo‘lmas ekan? Majlisga soldik-a, majlis uvol emasmi? Men hali boshqa narsani o‘ylab o‘tiribman; beshta nozanindek kampir bo‘lsagu bir quti desak butun tumanga kalaka bo‘lmaymizmi? Bizga nima qipti, nega ikki quti tutamiz demadik? To‘xtabuvining yuragi dadil bo‘ldi. Nazirbuvining andishasi unga ma‘qul tushdi. Ikkovi Shahodatbuvinikiga chiqishdi. Shahodatbuvi bu gapni eshitib:

– Gap shu ishga qunt qilishda, qunt qiladigan bo‘lsak, ikki quti ham biru uch qutisi ham bir, – dedi.

Uchovi Roziyabuvnikiga chiqishdi. Roziyabuvi ko'ngandan keyin, Ortiqjonnikiga borishdi. Ortiqjon o'sha majlisda «Uch quti tutish qo'limizdan keladi» demoqchi ekan-ku, boshqalardan istihola qilib ayt-mabdi. Bular uch quti degandan keyin, u ham bir quti qo'shdi.

Shunday qilib uyma-uy yurib qilingan majlisda kampirlar zvenosi to'rt quti qurt tutishga qaror qildi va ertalab kolxoz idorasiga chopar yubordi.

Rais ko'n-mabdi: «Hammasi yig'ilganda bitta shaftoliga tishi o'tmaydi-yu, to'rt quti urug' tutar emishmi. Yo'q, kampirlarning tovoniga qolaman», debdi. Chopar ham bu gapni oqizmay-tomizmay kampirlarga yetkazdi: «Hammalaring yig'ilganda bit-ta shaftoliga tishlaring o'tmas emish», dedi.

Bu gap kampirlarga nihoyatda alam qildi, ikki kundan keyin rais kelganda uni o'rtaga olib shun-day qilishdiki, rais «tegishgan edim, tavba qildim» deb zo'rg'a qutuldi va to'rt quti urug'ni o'z qo'li bilan keltirib berdi.

Hademay qurt ko'm-ko'k barg ustida o'rmalab qol-di. Qurt katta bo'lgan sayin kampirlarning havasi, g'ayrati ortar edi. Hech kimning beli ham og'rimadi, yuragiga qil sig'maydigan payti ham bo'lmadi, aksin-cha, hamma sog', dimog'lar chog' edi.

Bir kuni rais kelib qurti ko'zdan kechirdi-da:

– Yashasin havaskor kampirlarimiz! – deb qichqirdi.

Eshik yonida ikki qo'lini beliga qo'yib, kerilib tur-gan To'xtabuvi boshqalarga ko'z qisib:

– Qani o'g'lim, chamangda normamiz to'ladimi, yo'qmi? – dedi.

– Ie, shunchalik qurt boqasizlaru, qancha pilla chiqishini bilmaysizlarmi? Har qutidan kamida olt-mish kilogrammdan olasizlar, – dedi.

– Ana xolos, – dedi Ortiqjon, – to'lmas ekan-da!

– Nega, norma qancha o'zi? Qirq besh kilogrammi?

Hamma kulib yubordi.

– Unaqa normangni shaftoliga tishi oʻtadigan tam-tamlarga ber. Bizning normamiz har qutidan yetmish – sakson kilogramm!

Rais tilini tishladi.

Bir necha kundan keyin qurt nishona berdi. Nishona pilla betoʻxtov kolxoz idorasiga yuborildi. Oʻsha kuni kechki payt rais yetib keldi va eshikdan kirishi bilanoq:

– Onalar, birinchi terimni olgan kunlaring bitta semiz qoʻy sizlarniki, men tumandan soʻradim, hali hech qaysi kolxozning qurti nishona bergani yoʻq! – dedi.

Kampirlar uchun bu xabar yangilik edi.

– Undoq boʻlsa, sen bizdan bitta qoʻy bilan qutulmaysan, – dedi Toʻxtabuvi, – birinchi terimni olib topshirgan kunimiz Toshkentga sim qoqasan, aytasanki... Nima desang oʻzing bilasan. Bugun seshanba, yakshanba kuni birinchi terimni topshiramiz.

Uch kun boʻyi zveno qurtning tepasidan nari ketmadi. Qani endi bu qurt oʻlgur tez-tez oʻray qolsa!

Rais har kuni tumanga telefon qilib turdi – yoʻq, xotirjamlik – tumanda hech kim pilla topshirgani yoʻq.

Nihoyat, toʻrtinchi kuni ertalab zveno har uydan savat-savat pilla olib chiqa boshladi. Rais oʻsha kuni, tumanda birinchi boʻlib, yigirma besh kilo pilla topshirdi va kampirlarga bergan vaʼdasiga muvofiq Toshkentga «sim qoqdi».

Zveno raisning Toshkentga sim qoqqani toʻgʻrisida xabar kutib Toʻxtabuvining uyida oʻtirar edi. Birdan Roziyabuvi yugurganicha kirib keldi:

– Turinglar! Turinglar! Oʻtirasizlarmi! Radio gapirdi, hammamizning otimizni aytdi. Qizil askar oilalaridan Toʻxtabuvi, Nazirbuvi, Ortiqjon... Hammamizni aytdi.

Nima dedi?

– Bilmayman, chamamda, sim qoqdi, dedi.

To'g'ri, rais telefon qilgandan keyin, Toshkent radiosining olg'irlari bu xabarni kechki so'nggi axborotda berishgan edi.

Hamma ko'chaga chiqdi. Ko'chaning u boshida rais kattakon semiz qo'yning quyrug'iga arqon solib sudrab kelmoqda edi.

ANOR

*Uylar to'la non, och-nahorim bolam,
Ariqlar to'la suv, tashnayi zorim bolam.*

O'tmishdan

Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yengi zulfinga ilinib tirsakkacha yirtildi. Uning shashti qaytdi. Jo'xori tuyayotgan xotini uning qo'lidagi tugunchani ko'rib, kelisopni kelining ustiga qo'ya chopdi. Keli lapanglab ag'anadi, chala tuyilgan jo'xori yerga to'kildi.

Turobjon tugunchani orqasiga bekitib, tegishdi:

- Akajon, degin!
- Akajon! Jo-on aka!..
- Nima berasan?
- Umrimning yarmini beraman!..

Turobjon tugunchani berdi. Xotini shu yerning o'zida, eshik oldida o'tirib tugunchani ochdi-da, birdan bo'shashib ketdi va sekin boshini ko'tarib eriga qaradi. O'z qilmishiga gerdayib turgan Turobjon uning ko'zini jiqqa yosh ko'rib:

– Nima ekanini bildingmi? – dedi. – Asalarining uyasi! Turgan-bitgani asal! Mana, mana, siqsang asal oqadi. Bunisi oq mum, harom emas – shimsa ham bo'ladi, chaynasa ham bo'ladi.

Xotin yengini tishlab bir nuqtaga qaraganicha qoldi.

– Yo, qudratingdan, ishonmaydi-ya! – dedi Turobjon keltirgan matosini titkilab. – Mana, chaynab ko'r! Ko'rgin, bo'lmasa innaykeyin degin...

Turobjon qizardi. U bir zamon betob o'rtog'ini yo'qlab eltgan tarvuzini, bemaza chiqqan bo'lsa kerak, sigirning oxurida ko'rib shunday xijolat bo'lgan edi.

Hovli yuzida aylanib yurgan oqsoq mushuk to'kilgan jo'xorini iskab ko'rdi, ma'qul bo'lmadi shekilli, Turobjonga qarab shikoyatomuz «myau» dedi.

– Tur, jo'xoringga qara! Uni ko'r, mushuk tegdi.

Xotin turayotib baralla yig'lab yubordi.

– Bu yer yutkur qanday balo ekan!.. Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong'i bo'lsam-chi!

Turobjon do'ppisini boshidan oldi va qoqmoqchi bo'lganida ko'zi yirtiq yengiga tushdi, yuragi achidi: endi uch-to'rt suv yuvilgan yangigina yaktak edi!

– Axir, boshqorong'i bo'l, evida bo'l-da! – dedi do'ppisini qoqmasdan boshiga kiyib. – Anor, anor... Bir qadoq anor falon pul bo'lsa! Saharimardondan suv tashib, o'tin yorib, o't yoqib bir oyda oladiganim o'n sakkiz tan-ga pul. Akam bo'lmasa, ukam bo'lmasa...

Er-xotin tek qolishdi. Xotin jo'xorini tuyib bo'ldi, uni kelidan tog'orachaga solayotib to'ng'illadi:

– Havasga anor yeydi deysiz, shekilli...

– Bilaman... Axir, nima qilay? Xo'jayinimni o'ldi-rib pulini olaymi, o'zimni hindiga garov qo'yaymi? G'alatimisan o'zing?

Xotin ovqatga unnadi, erining «boshqorong'i bo'l, evida bo'l-da», degani unga juda alam qildi, xo'rli-gi keldi, o'pkasi to'ldi.

Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go'jaga qatiq ham rang kirgizolmadi. Turobjon ikki kosa ichdi, xotini esa hanuz bir kosani yarimlatol-mas edi. Uning imillashini ko'rib Turobjonning ko'zi-ga negadir oqsoq mushuk ko'rindi. Mushuk yirtilgan yengini esiga tushirdi, avzoyi buzildi. Uning avzoyi-dan «esiz jo'xori, qatiq, o'tin» degan ma'noni anglab xotin, ko'ngli tortmasligiga qaramasdan, kosani bo'shatdi, ammo darhol tom orqasiga o'tib ko'zlari qizargan, chakka tomirlari chiqqan holda qaytdi.

– Hali tug'ilmagan bolani yer yutkur deding-a, – dedi Turobjon borgan sayin tutaqib.

Xotin indamay dasturxonni yig'ishtirib oldi, qozonga suv quyayotib, eshitar-eshitilmas dedi:

– O'sha asalning puliga anor ham berar edi.

– Berar edi! – dedi Turobjon zaharxanda qilib. – Anor olmay asal oldim!

– Albatta berar edi! Albatta anor olmay, asal olgansiz!

Mana shunday vaqtlarda til qotib og'izda aylanmay qoladi, mabodo aylansa, mushtning xizmatini qiladi.

– Ajab qildim, – dedi Turobjon titrab, – jigarlaring ezilib ketsin!

Bu so'z unga qanday ta'sir qilganini faqat bosh-qorong'i xotingina biladi. Turobjon bu gapni aytdi-yu, xotining ahvolini ko'rib achchig'idan tushdi, agar izzat-nafs qo'ysa hozir borib uning boshini silar va: «Qo'y, xafa bo'lma, jahl ustida aytdim», der edi.

– Kishining yuragini qon qilib yuborasan, – dedi anchadan keyin. – Nainki men asal olsam! Asal otliqqa yo'q, hali biz piyoda-ku! Xo'jayinga bir oshnasi sovg'a qilib kelgan ekan, bildirmasdan... o'zidan so'rab ozrog'ini oldim... O'zi berdi. Tansiq narsa, xursand bo'larmikansan debman. Yo tansiq emasmi? Umringda necha marta asal yegansan? O'zim umrimda bir marta yeganman: Shokirxo'ja qandolatchi asal qiyom qildirayotganda qozoniga ammamning jo'jasi tushib ketgandi, shu jo'jani yalaganman...

Turobjonning bu so'zlari xotining qulog'iga no-tayin bir g'uldirash bo'lib kirar edi. Uning Turobjon bilan uy qilganiga uch yil bo'lib kelayotir, nazarida, bu odam shu uch yildan beri g'uldirab kelgan, hozirgisi shuning davomiday edi. Ittifoqo, bu kun, nima bo'ldi-yu, uch so'zni ravshanroq aytdi: «Jigarlaring ezilib ketsin», dedi. Olamda uning suyangani eri, birdan bir orzusi – anor edi, birdaniga har ikkisi ham yo'qqa chiqdi.

Xotin uyga kirib ketdi. Anchadan keyin darchadan xira shu'la tushdi. Turobjon ham kirdi. Xotin darcha yonida, bir tizzasiga boshini qo'ygan, qoramtir-kulrang osmonga qarab o'tirar edi. Turobjon tikka turib qoldi. Tokchadagi beshinchi chiroq pixillab yonar, uning atrofiga katta bir parvona aylanar edi. Turobjon ham darcha yoniga o'tirdi. Shiftning qayeridir «qirs» etdi, qayerdadir kaltakesak chirqilladi, Turobjonning qulog'i jing'illadi. U ham osmonga – xira yulduzlarga qaradi. Masjiddagi kekxa baqate-rak orqasidan ko'tarilgan qizg'ish o't ko'kka olovli iz qoldirib juda yuqoriladi va go'yo osmonga urilganday chilparchin bo'lib, «po'p» etdi.

– Mushak, – dedi Turobjon, – Mullajon qozining bog'ida. Mullajon qozi beshik to'yi qilgan.

Xotin indamadi.

– Shahardan to'ralar ham chiqqan, – dedi Turobjon yana.

Xotin yana indamadi. U Mullajon qozining bog'ini ko'rgan emas, ammo ta'rifini eshitgan. Bu bog'ni ko'z oldiga keltirib ko'rdi: bog' emas, anorzor... Anor daraxtlarida anor shig'il, choynakday-choynakday bo'lib osilib yotipti.

– Bitta mushak uch miri, – dedi Turobjon, – yuzta mushak otilsa... bittangadan yuz tanga. Bir miridan kam – yetmish besh tanga bo'ladi.

Er-xotin uzoq jim qolishdi. Turobjon og'zini katta ochib ham esnadi, ham uf tortdi.

– Ma, buni tik, – dedi u yaktagini yechib, – ma!

Xotin yaktakni olib yoniga qo'ydi, aftidan, hozir tikmoqchi emas edi.

– Bo'l, – dedi Turobjon, birpasdan keyin, – ol... Senga aytyapman!..

– Ha, muncha!.. Turtmasdan gapira bering... Tikib qo'yarman, muncha qistov...

Turobjonning tepa sochi tikka bo'ldi.

– Hay, sening dimog‘-firog‘ing kimga! Xo‘sh, nima deysan?

– Men sizga bir narsa deyapmanmi? Tikib qo‘yarman.

– Har narsaga ro‘zg‘or achchiq bo‘la bersa... qiyinroq bo‘lar, – dedi Turobjon yaktagini kiyayotib, – kambag‘alchilik...

– Kambag‘alchilik o‘lsin!

Xotin bu gapni shikoyat tarzida aytdi, ammo Turobjon buni ta‘na deb tushundi.

– Nima, men seni olganimda kambag‘alligimni yashirganmidim? Erkaboyga o‘xshab chimildiqqa birovning to‘ni, kavush-mahsisini kiyib kirganmidim? Bunday armoning bo‘lsa hali ham serpulroq odamga teg.

– Ikkita anor uchun xotiningizni serpul odamga oshirgani uyaling!

Bu gap Turobjonning hamiyatiga tegdi. «Jigarlaring ezilib ketsin» degani xotiniga qancha alam qilgan bo‘lsa, bu gap Turobjonga shuncha alam qildi.

– E, hoy, anor olib bermadimmi? – dedi Turobjon mayin tovush bilan, ammo bu mayin tovushdan qo‘rqqulik edi, – sira anor olib kelmadimmi?

– Yo‘ql – dedi xotini birdan boshini burib.

Turobjonning boshi g‘ovlab, ko‘zi tindi.

– O‘tgan bozor kuni yegan anoringni o‘ynashing olib kelganmidi?!

– O‘ynashim olib kelgan edi!

Turobjon bilolmay qoldi: xotinining yelkasiga tepib, so‘ngra o‘rnidan turdimi, yo turib keyin tepdimi; o‘zini obrezning oldida ko‘rdi. Xotin, rangi oppoq, ko‘zlarini katta-katta ochib unga vahimali nazar bilan qarar va boshini chayqab pichirlar edi:

– Qo‘ying... Qo‘ying...

Turobjon uydan chiqib ketdi. Birpasdan keyin ko‘cha eshigi ochilib-yopildi.

Xotin uzoq yig'ladi, eriga qattiq gapirganiga pushaymon bo'ldi, o'zini qarg'adi, o'lim tiladi; yig'idan tolib tashqariga chiqdi. Qorong'i, uzoq-yaqinda itlar hurar edi.

Ko'cha eshigini ochib u yoq-bu yoqqa qaradi – jim-jit. Guzar tomonda faqat bitta chiroq miltillar edi. Samovarlar yotgan. Qaytib uyga kirdi.

Tom orqasida xo'roz qanot qoqib qichqirdi. Ko'cha eshigi ochildi. Xotin to burilib qaraguncha Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib keldi. U tugunni uyning o'rtasiga tashladi. Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi. Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko'rib xotin qo'rqib ketdi – bu qadar oqargan! Turobjon o'tirib peshonasini ushladi. Xotini yugurib oldiga keldi va yelkasiga qo'lini qo'ydi.

– Qayoqqa bordingiz? – dedi entikib. – Nima qildingiz?

Turobjon javob bermadi. Uning vujudi titrar edi.

1936

O'G'RI

Otning o'limi – itning bayrami.

Maqol

Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qaqag'laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi.

Qobil boboning qo'shnisi – burunsiz ellikboshi kir-di. U og'ilga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi; negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi, so'ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi:

– Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!

Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyod sevin-tirdi. Chol yig'lab yubordi.

– Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi...

Odamlar, o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani,

uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslasha-bahslasha tarqaldi. G'ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig'idan to'xtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rdi. Qobil bobo qo'l qovushtirib uning ketidan yurar va yig'lar edi.

– Yig'lama, yig'lama deyman! Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.

Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi – go'yo u ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu «Xudo yar-laqagur» shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul soch-ganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshi-ga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olgan-ga o'nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'yni-dan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pul-ning yuziga qarash aqldan emas.

Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmas-dan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi.

– Ha, sigir yo'qoldimi?

– Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

– Ho'kizmi?.. Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!..

– Bori-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burni-ga tiqib kuldi.

– Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho'kiz edi?

- Ola ho'kiz...
- Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?
- Qo'sh mahali...
- Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?
- Bisotimda hech narsa yo'q...
- O'zi qaytib kelmasmikini?.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

- Qidirtirsakmikini-a? - dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib, suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga «Ma, ho'kizing» deganday bo'lib ketdi.

- Kam bo'lmang, - dedi pulni uzatib, - yana xiz-matingizdaman.

- Men beto'xtov pristavga xabar beraman. O'zi chaqirtiradi.

Bir hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir «duoning zo'ri bilan qulf ochadigan» azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab yarim qop jiyda, uch yelpish tovoq jo'xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo'ldi:

- Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi?! Axir, bo-rilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi ar-bobning izzati bo'ladi!

Qobil bobo yor-do'stlari bilan kengashdi - pris-tavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham, Qobil bo-boning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bi-lan tilmochdan nari o'tib bo'lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni

va'da qildi. Cholning butun bo'g'inlari bo'shashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go'rda bir narsa deya oladimi! «O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan». «Yaxshilab tushuntirilgan» pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pulni olganidan keyin, Qobil boboning baxtiga, «beto'xtov hokimga xabar beraman» demasdan, «aminga bor», deb qo'ya qoldi. Amin «ellikboshiga borilsin», dedi.

– Gumoningizni ayting bo'lmasa! – dedi ellikboshi tajang bo'lib, – kim olganini men bilmasam, avliyo bo'lmasam! Olgan odam allaqachon so'yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz ko'nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ldi; Xudo biladi, kavush bo'lib bozorga chiqdimi...

– Endi bizga juda qiyin bo'ldi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa... – dedi chol yerga qarab.

– Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho'kiz bo'lsa bir gap bo'lar, Xudo ajalga to'zim bersin! Men qaynag'amga aytayin, sizga bitta ho'kiz bersin. Bitta ho'kiz odamning xunimi?

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin «kichkinagina» sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi...

1936

O'JAR

*Ul tuta ot quyrug'indan,
«bo'l uzun soch» deb qo'ya,
«Tek nega boshda tugul?»
Tanqidga muhtoj deb qo'ya.*

A.To'qay

Qutbiddinovga ovchi oshnasi ikkita tustovuq in'om qildi. Tustovuqlar tozalanib, tuzlanayotganda Qutbiddinovning fe'li aynidi, ya'ni bironta shinavanda ulfat bilan birpas dilkashlik qilg'usi keldi. Uning qo'shnisi Zargarov yaqin bir oy bo'ladi, chorakam bir litr xushbo'y vinoni dumba-jigar bilan ichgani asrab yurar edi, semiz tustovuqning daragini eshitib: «Xayr, qo'y so'ysak, yana vino topilar», dedi.

Bu ikki ulfat ahyonda mana shunday dilkashlik qilganlarida suhbat boshdan-oyoq ikki mavzudan chetga chiqmas edi: biri – shu ketishda shaharimiz yana ellik yildan keyin qanday bo'lar ekan; ikkinchisi – so'nggi vaqtlarda fan kishilarni yoshartirish to'g'risida nega indamay qo'ydi?

Qutbiddinovning o'g'li Suyar ovqatdan keyin yoshlar saroyiga ketgan edi, soat oltidan o'tib borayotir – daragi bo'lmadi. Shu vajdan Qutbiddinov suhbatning boshlanishida jinday tashvishmand bo'lganidanmi, bu safar mavzu shaharning kelajagi, fanning jimib ketgani emas, bola tarbiyasi bo'lib qoldi. Zargarovning ham o'g'li bor. Ikki ota hozirgi tarbiyani xo'p maqtashdi. Zargarov uzun so'zdan xulosa chiqarib, «men yoshligimda shunday tarbiya ko'rgan bo'lsam, hozir yerda turib oyda chorvachilik qilar edim», dedi.

– Men ham, – dedi Qutbiddinov, – men ham ko'p hikmatlar ko'rsatar edim. Lekin birodar... Qani,

ichaylik! Auf... Lekin, birodar, har yomonning bir «ammo»si bo'lishi kerak, har yaxshining bir «lekin»i. Hozirgi tarbiya yaxshi. Hech shubhasiz yaxshi! Lekin kamchiligi yo'qmi? Bor, albatta, bor! Masalan, bolalarga shaxmat o'ynatishni olaylik. Bolaning miyasi shunday miyaki, chunonchi... bizning moliya tili bilan aytganda, alohida paragraf!

– Oh-oh-oh! Otangizga rahmat! Kamol toping, do'stim! Men ham xuddi mana shuni aytaman, deb turgan edim. Shundoq, do'stim, bola deganingizning miyasi... Ie, siz nega oqichmadingiz?

Fikrlar bir joydan chiqib, ikki tanqidchi ko'p mamnun bo'lishdi. Suhbat yana ham jonlanib ketdi. Hozirgi tarbiyani olib shaxmatga urildi, shaxmatni olib tarbiyaga; ikkovining ham dabdalasi chiqarildi. Qutbiddinov ryumkalarni yana to'ldirdi, vilka bilan iyagini qashlab davom etdi:

– Shaxmatning yana bir zarari shuki, agar g'irrom odam bilan o'ynasangiz, asabingiz buziladi. O'ttiz to'rtinchi yilda Bobojonov bilan o'ynagan edim, g'irromlik qilib shohimni olib qo'ydi. Shohimni ber, men senga bo'lak narsa beray, desam ko'nmadi, cho'ntagiga solib qo'ydi. Jahlim chiqib qolgan ekan, shohsiz o'ynay berdim, bari bir qoldirdim. Shundan beri o'ynamaydigan bo'lib ketdim. Nima keragi bor? Xo'sh, ana qoldirdim, nima bo'пти?

– Shuni ayting, poyezddan qoliptimi?

Soat sakkizda o'tganda Suyar keldi. U, eshikdan juda hovliqib kirgan edi, bularni ko'rib shashti qaytdi; sekin ichkarigi uyga kirib ketayotganida Zargarov ko'rib qoldi.

– E, e, yigitcha! Qani, bu yoqqa keling-chi! Ho', barakalla, mulla Suyar! Otasini suyarmi, onasini suyarmi, a? Yo ikkalalarini ham suyarmi?

Qutbiddinovning otalik mehri jo'sh urib ketdi. Suyarning boshidan, yuzidan o'pdi, quchoqladi.

– Albatta, otasini suyar-da, a, o'g'lim? Bizning o'g'il ko'p yaxshi-da: birov bilan urishmaydi, papiros chekmaydi, onasidan otasini yaxshi ko'radi, shaxmat o'ynamaydi...

Suyar o'zining quvonchini tantana bilan e'lon qildi:

– Bugun instruktorimizni qoldirdim, dada!

– E, ana endi! Ko'p bema'ni ish qilibsiz-da, o'g'lim! Shaxmat o'ynamagin, demabmidim? Qara, burningdan suv oqyapti, miyang suyulibdi!

Suyar bo'shashib ketdi.

– Shaxmat o'ynagandan emas, – dedi burnini ar-tib, – kecha o'zingiz ariqdan ko'zoynag'ingizni izlat-dingiz...

Qutbiddinov labini burdi.

– Ko'zoynak izlasa burundan suv oqar emishmi? Ming la'nat! Bor, uyga kir, darsingga qara!

Suyar ta'bi xira bo'lib, kirib ketdi. Qutbiddinov o'g'lining noqobilligidan, andishasizligidan qattiq xafa bo'ldi; nahot otasi shaxmat o'ynamagin degan bo'lsa-yu, o'ynasa; o'ynaganini yana, ayniqsa, meh-monning oldida, bu qadar tantana bilan e'lon qilsa. Zargarov ko'p bolalar shunaqa ekanligi va Suyar es-lik bola bo'lgani uchun bu xildagi qusurlarini yo'qo-tish qiyin emasligini aytib, ranjigan otaning ko'nglini ko'targan bo'ldi.

– Mening o'g'lim-chi, bundan ham battar. Men unga tog' injeneri bo'lgin desam, «yo'q, dada, bilmay-siz, men uchuvchi bo'laman» deydi. Xa-xa-xa... voy, itvachcha-yey, men bilmas emishman!

Ikki tanqidchi bolalarning otalarga gap qaytarish-larini, otalarning so'zlarini ba'zan yerda qoldirishlari-ni hozirgi tarbiyada bo'lgan eng katta kamchilikning natijasi hisoblashdi va buni har kuni, har soatda ko'rib turganlari holda bunga qarshi jamoat fikrini qo'zg'aguday bir ish qilolmaganlari uchun o'zlarini ham ayblashdi.

– Men shu to‘g‘rida gazetaga bir maqola yozsam-mi deb ham o‘ylagan edim, – dedi Zargarov, – lekin kelishtirilmasman deb qunt qilmadim. Chala-chulpa yozib birovning oldiga «shu to‘g‘rimi?» deb borgani nomus qilaman. Rostini aytsam, ellik oltiga kirib ham birovdan aql o‘rganishni o‘zimga ep ko‘rmayman. Endi, men sizga aytsam, biz birovga aql o‘rgatsak tuzuk. Nima dedingiz?

– Albatta. Lekin men ham maqola yozishga yo‘qman, birodar. Endi biz-ku, o‘tdik, bolalarimiz ham bizday bo‘lmasin deng. Buning uchun bolalarga har xil adabiyotlardan o‘qitish kerak. Bu to‘g‘rida ham hozirgi tarbiya o‘choqlarimizning beparvoligi bor. Chunonchi, men u kuni o‘g‘lingizni imtihon qilib ko‘rdim. Mazasi yo‘q! Hatto Saltikov bilan Shedrin, degan mashhur yozuvchilarni bir-biridan farq qilolmaydi, ikkovi bitta odam deydi. Kula-kula o‘libman. Sizga aytaman deb esimdan chiqibdi.

Zargarov «o‘g‘lim a‘lochi» deb hech kimga so‘z bermas edi, Qutbiddinovning bu kulgisi uni tamom o‘ldirdi.

– Rosti bilan shunday dedimi? Adabiyotdan ham a‘lo baho olgan edi-ku.

– Adabiyot muallimi oshnangizdir.

– Be, Saltikov bilan kim dedingiz hali, Shedrinmi? Shuni bilmasa men qulog‘ini tagi bilan sug‘urib olaman. Qutbiddinov hamon kular edi.

– Bilmaydi, bahazur sug‘urib ola bering, azbaroyi Xudo, ikkovi bir odam deydi.

Qutbiddinovning me‘yordan ortiq kulgisi Zargarovning g‘ashini keltirdi. Nima bo‘lib uning og‘zidan «mening o‘g‘lim bilmasa, sening o‘g‘ling ham bilmaydi» degan mazmunda so‘z chiqib ketdi. Qutbiddinov ham o‘zining o‘g‘liga ishonganligi uchun, Zargarovning bu bo‘htoniga darrov, issig‘ida zarba bergisi keldi.

– Hozir, hozir, – dedi, – Suyar! Ho, Suyar! Bu yoqqa chiq, o‘g‘lim! E, yotganmiding? Mayli, bu yoqqa o‘tir.

Bizga bir narsani hal qilib ber: Saltikov katta yozuvchimi, Shedrin katta yozuvchimi?

Suyar goh otasiga, goh Zargarovga qarar va hayron edi.

– Yo‘q, siz savolni noto‘g‘ri qo‘ydingiz, – dedi Zargarov. – Bunday: Saltikov ilgari o‘lganmi, Shedrin?

– Ikkovi bitta odam-ku! – dedi Suyar, nima gap ekanini bilolmay.

Zargarov qiyqirib kuldi, chapak chaldi va bunga ham qanoat qilmay o‘rnidan turib o‘yinga tushdi. Qutbiddinov do‘q urdi:

– Saltikov bilan Shedrin-a? Kim aytdi senga?

– O‘zim bilaman, kitobda bor.

– Kitobda bor? Shaxmatni ko‘proq o‘yna, itvachcha!

Qutbiddinov bola bechorani xo‘p urishdi. Zargarov Qutbiddinovni o‘larday kalaka qilib toza alamini oldi, buning ham og‘irligi Suyarga tushdi. Suyar yig‘lab yubordi.

– Undoq demagin, o‘g‘lim, – dedi Zargarov birpas jimlikdan keyin, – dadang bir narsa degandan keyin darrov «xo‘p, bilmabman» deyishga o‘rgan. Yaxshi emas.

– Noto‘g‘ri aytsalar-chi?

Ikki tanqidchi yalt etib bir-biriga qaradi va bu qarashda ikkovining ham ko‘nglidan bir gap o‘tdi: «Bola ham shunday o‘jar bo‘ladimi?» Suyar ichkariga kirib ketdi. Qutbiddinov ertagayoq Suyarning maktabiga borib katta g‘alva ko‘tarmoqchi bo‘ldi. Zargarov maktabdan ham ko‘ra yoshlar saroyiga borishni ma‘qul ko‘rdi. Anchadan keyin Suyar kattakon bir kitob ko‘tarib chiqdi:

– Mana, – dedi portretni ko‘rsatib, – mana, Saltikov-Shedrin!

Qutbiddinov «bu o‘jar bola hamon o‘zinikini ma‘qul qilmoqchi» deb juda g‘azablandi, ammo mehmon-

ning oldida o'zini tiydi. Zargarov portretning ostidagi yozuvni o'qib, xuddi qanotli tuya ko'rganday ajablandi va kitobni sekin Qutbiddinovning oldiga surdi. Qutbiddinov portret va uning ostidagi yozuvga uzoq tikildi, so'ngra ko'zoynagini sekin qulog'idan bo'shatar ekan:

– Him... – dedi, – Saltikov-Shedrin! Ko'rdingizmi, o'sha vaqtdagi yozuvchilar ham soqol qo'ygan ekan...

Jimlik cho'kdi. Suyar indamay ichkariga kirib ketdi. Shu yerda hikoya ham tamom, chunki uning mantiqiy davomi g'alaba qozongan Suyarning bu ikki tanqidchidan o'ch olishi bo'lar edi. Suyar buni lozim topmadi.

1939

JONFIG'ON

Jonfig'onni tanisangiz kerak – o'sha, o'tgan yil bahorda mast bo'lib, ko'chadan o'tgan odamga «hozir aytasan: boshimni qaysi devorga urib yoray», deb yopishgan, keyin soqoliga o'zi o't qo'yib, gugurt chiqarganni so'kkan kishi.

Kecha shuning uyidan xotin kishining achchiq-achchiq yig'lagan tovushi eshitildi. Jonfig'on bu yaqin yillarda xotinini urgan emas, hatto bir kuni samovarda o'zi: «Xotin kishini nomard uradi, qo'ling qichisa, o'zingga o'xshagan qo'li qichiganni topib mushtlash, men seni mard bilay», degan edi.

– Nima bo'ldi?

– Uch-to'rt kishi bo'lib asta kirsak, hovlining o'rtasida katta gulxan, xotini Malohatxon uning atrofida dodlab yuribdi. To'xtatdik.

– Nima gap?

– Sho'rginam qursin... ko'rmaysizlarmi... Besh-olti yildan beri bitta paypoq olib bergani yo'q-ku, ishlab-ishlab topgan pulimga qilgan hamma kiyimlarimga kerosin sepib o't qo'ydi... Shu ustimdagi ish kiyimim bilan qoldim...

Jonfig'on derazadan boshini chiqarib baqirdi:

– Gapir, ha, gapir!.. Sening gaping gapu bizniki gap emasmi?!

Jonfig'on katta bir haqiqatni ochishga shoshilganday, uydan yugurib chiqdi, bizga zo'r haqsizlikdan shikoyat qilayotgan qiyofada turib, allaqayerda o'tgan bir avliyoning o'z o'g'liga «xotinlar bevafo» deb qilgan nasihati, jinoyat qonunlari majmuasining allanechanchi moddasi to'g'risida gapirdi va bexosdan yig'lab yubordi. Keyin bilsak, kecha er-xotin urish-

gan, xotin: «Qo'y endi, men sen bilan umr qilmayman, ertaga xatimizni olamiz», degan ekan.

Urish, qo'ydi-chiqdisi ham har xil bo'ladi. Ba'zi urishlar shunday arzimagan narsadan chiqadiki, orada qancha sovuq gaplar o'tib «hordiq chiqqandan keyin» urish nimadan chiqqanini na er eslay oladi, na xotin. Bularning ham janjali shu xilda bo'lsa yarashtiraylik, ikkovi nikohning o'sha «O'lim va taloq» bo'lmasiga qadam bosmasin deb, gap so'radik. Er-xotin ayta bersa, bu janjalning tarixi biron yozuvchining qo'lga tushsa kattakon bir kitob bo'ladigan.

Jonfig'on bundan besh-olti yil burun qaysi bir idoraning izvoshini minar ekan, kirakashlik qilib qo'lga tushib ishdan haydashibdi; keyin sabzavot do'koniga mudir bo'lgan ekan, «juda arzon mollar, bularning ustiga so'm qo'yib bo'lmasa, tiyin qo'yish bilan qachon boy bo'ladi kishi» deb o'zi tashlab ketibdi; tanish-bilishlari zavodga ishga joylab qo'ygan ekan, «oyligidan bo'lak daromadi yo'q» deb bormay qo'yibdi, shundan keyin qilmagan ishi qolmabdi desa bo'ladi: gulfurushlik deysizmi, tomshuvoq deysizmi, qassobchilik deysizmi... bir-ikki hafta bozorda qovun tilib ham sotibdi.

Malohatxon, Jonfig'on izvozchilikdan haydalgan yili, mahalladagi faol ayollarning himoyasi ostida, erining qarshiligiga qaramay, rayon Kengashiga farrosh bo'lib kirgan ekan; o'qibdi, hademay savodi chiqibdi, bir yil – bir yarim yildan keyin hatto majlislarda dokladchiga: «O'rtoq, sizga savolim bor», deydi. Rayon Kengashining shofyori Tishchenko degan ayol uning sog'lomligiga, kuchiga, abjirligiga, ayniqsa, zehniga qoyil bo'lib yurar ekan, bir kuni uyga chaqirib, «sen shofyor bo'lgin, nima yordam kerak bo'lsa beraman», debdi. Malohat ham shunday bir narsani orzu qilib yurar ekan, darrov ko'nibdi. Shundan keyin Tishchenko uni birmuncha vaqt shofyorlar kursiga tayyorlabdi, oqibat kirgizib ham qo'yibdi.

Jonfig'on avvallari uning niyatiga, o'qishiga «notavon ko'ngil... orzuga ayb yo'q» degan nazar bilan qarab yurar ekan, bir vaqt qarasaki, Malohat kursni bitirib, gruzovoy minib yuribdi! Jonfig'on bunga ham ko'nikibdi: «Ha endi, minsa minibdi-da, shu ham martabami, mashinani o'zi o'ylab chiqariptimi», deb o'ziga tasalli beribdi. Biroq Malohat ikki yilda uch marta mukofotlanibdi. Jonfig'on mukofotni o'z gazi bilan o'lganiga uchun bunga ham uncha parvo qilmabdi: «Olga mukofotiga ot bilan tuya berarmidi», debdi. Jonfig'on o'tgan yil bahor kechalarining birida (o'sha kuni ertasiga boshini yormoqchi bo'lgan, soqoliga o't qo'ygan) istirohat bog'iga kirgan ekan, qarasa, shaharning manaman degan staxanovchilari qatorida xotinining ham kattakon portreti turibdi! Sevinch, qo'rquv, baxillik – hammasi aralash-quralash bo'lib, Jonfig'onning boshi g'ovlab ketibdi. U darrov uyiga kelib, har qalay, xotinini suyibdi, o'pibdi, lekin suhbat janjal bilan tugabdi. Bu kungacha bo'lib o'tgan uchta yirik janjalning biri shu ekan.

– Shunda janjal nimadan chiqdi? – dedi sheriklarimizdan biri.

Jonfig'on javob bermoqchi edi, Malohat gapini og'zidan oldi.

– Tuppa-tuzuk o'tirgan odam birdan aynib, endi undoq bo'lasan, bundoq bo'lasan, jazman chiqib qoladi deb, jahlimni chiqardilar. Xayolimda yo'q gaplar...

– Xayolingda yo'q-a, xayolingda yo'q! – dedi Jonfig'on kesatib.

– Ha, xayolimda bo'lib nima qildim?

– Xayolingda bo'lmasa nima uchun buqog'ingni kestirding? Xo'sh? Qani mana shu to'rtta odamning oldida javob ber-chi?

Malohatning ko'k piyoladan ko'ra kichikroq buqog'i bo'lib, shuni o'tgan yil kuzda kestirgan ekan. Ikkinchi yirik janjal shunda bo'lib, yaqin bir haftaga cho'zilibdi.

– Kestirsam yomon bo'liptimi? – dedi Malohat. – Axir... xotiningizman...

– Nima, menga yoqish uchun kestiribsanmi? Hechda! Menga buqog'ing bilan ham yoqa berar eding. Boshqaga yoqaman deb kestirgansan!..

– Uyaling! Ilgarilar, buqog'ing bor deb, ko'z ochirgani qo'ymas edingiz-ku! Necha marta yig'latgansiz?

Jonfig'on, nima deyishini bilmay yerga qaradi va do'ng'illadi:

– Men yig'latgan emasman... o'zing yig'lagansan...

Biz kulgidan o'zimizni tiyolmadik, ammo baralla kulish to'g'ri kelmagani uchun birimiz mo'ylovimizni silab, birimiz yo'talib, deganday kulgimizni yashirdik. Jonfig'on: «Malohat endi meni tashlab ketadi» deb hadiksirab yursa, Malohat erining bu yurish-turishidan xijolat tortib yurar ekan. Shuning uchun Malohat ko'zga ko'ringan sayin erini el qatori ishlashga undar, yalinar, ba'zan qattiq gapirar, hatto yig'lar ekan. Jonfig'on oxiri insofga kelib, shu bu yil qishda non zavodiga ishga kiribdi, ammo bir oy ishlamasdan progulchi tarzida ishdan haydalibdi. Jonfig'on buni, albatta, talay vaqtgacha xotinidan yashirib yuribdi; bu ma'lum bo'lib qolgandan keyin xotiniga necha-necha tavba-tazarrular qilib, endi biron joyga kirib ishlashga, astoydil ishlashga so'z beribdi. Malohat ishonibdi va o'zi ish topib, o'tgan oyning o'n birinchi sanasida joylab qo'yibdi. O'tgan kuni qarasa, mulla Jonfig'on yana bekorlar! Malohat surishtirgani korxonaga boribdi; surishtirib qarasa, Jonfig'on faqat o'n yetti kun ishlabdi, xolos; byulleten olgani doktorning oldiga chilimning suvini ichib lohas bo'lib kirgan ekan, doktor ichini chayqabdi va «ko'r bo'ldingmi, nega tamaki yeysan» debdi. Bu gap korxonaga ovoza bo'lib, Jonfig'onni o'sha zamoniy oq ishdan haydashibdi. Mana, uchinchi yirik janjal mana shundan chiqibdi.

– Nega bundoq qilasiz, axir? – dedik.

Jonfig'on yer chizib o'tirar ekan.

– Shayton... – dedi.

– Bekor aytibsiz! – dedi Malohat jahli chiqib, – chilimning suvini ichib doktorga kirishni shayton sizdan o'rgangandir!..

Hammamiz jim qoldik, Jonfig'on birpasdan keyin boshini ko'tarib:

– Bo'ladigan gap shu, – dedi, – mening qo'yadigan xotinim yo'q. Agar zo'rlik bilan xat topshirsang, tovonimga qolasan. Mana shu yigitlar guvoh. Aytdim-qo'ydim, ikki quloch arqon...

U, o'pkasini tutolmay yig'lab yubordi. U, yig'lar ekan, yana xotiniga so'z berdi. Malohat uni hech qachon bu ahvolda ko'rmagan bo'lsa kerak, yumshadi.

– Men sizga aytayin, – dedi, – pulingizning keragi yo'q, ishlasangiz bo'lgani! Men sizni hozir erim degani nomus qilaman!

Jonfig'on qasamning har xilidan ichdi, keyin bizning kafil bo'lishimizni so'radi. Biz oxirgi sinov bo'lishi sharti bilan kafil bo'ldik, ammo har qaysimizning dilimizda: «Bu xotindan uyalib qolmasmikanmiz», degan bir andisha bor edi. Malohat ko'ngandan keyin biz chiqib ketdik. Samovarda o'tirgan edik, birpasdan keyin Jonfig'on chiqdi va yonimizga kelib:

– Shu gap gap bo'ldimi, yo tag'in jinniligi tutarmikin? – dedi.

Biz hali javob bermasdan Malohat eshikni ochib qaragan edi, Jonfig'on yugurganicha bordi, ikkovi kirib ketdi.

Ertasiga eshitsak, Jonfig'on yo'qlab kelgan takasaltang og'aynilarini uyiga kirgizmabdi.

1939

ADABIYOT MUALLIMI

O'zining aytishiga ko'ra «nafis adabiyot muallimi» o'rtoq Boqijon Baqoyev og'ilga kirib ta'bi xira bo'ldi: sigirning qulog'iga yana kana tushibdi! Kanadan ham ko'ra sigir uning achchig'ini keltirdi: kanani teray desa qo'ymaydi – boshini silkiydi, pishqiradi.

– Hayvon! Sigir emas, hayvon! – dedi og'ilning eshigini qattiq yopib. – Hayvon!

Xotini Mukarram hovlida samovarga suv quyay edi.

– Hayvon! – dedi Baqoyev, – bu sigirni sotib puliga cho'chqa olish kerak!

– Shaharda cho'chqa asrash mumkin emas, – dedi Mukarram samovarga ko'mir solayotib.

– Nima uchun? Taqiq qilinganmi? Kim aytdi? Men aytib edimmi? To'g'ri, mumkin emas... albatta, mumkin emas...

– Uyga kiring, Hamida keldi.

Hamida o'n olti yoshlardagi tirik, quvnoq qiz, pochchasini ko'rib sevinib ketdi.

– Siz uyda ekansiz, bilsam, daftarinmni olib kelar ekanman... esizgina...

O'rtoq Boqijon Baqoyevning ta'bi ochildi – sigir, uning qulog'idagi ko'm-ko'k kana, g'o'qillab tumshug'i bilan ariq yoqalarini buzib yurgan cho'chqa ko'z oldidan o'tdi.

– Texnikumdan rabfakka o'tibsan, deb eshitdim, rostmi? – dedi. – Himm... yaxshi qilibsan. Rabfakka o't, deb men aytib edim shekilli? Himm... Auff, zarda bo'libman... Rabfak yaxshi. Men bir borgan edim. Kantselyariyaning eshigiga praktikum deb yozib qo'yipti. To'g'ri emas. Praktikum, minimum, maksimum bular hammasi lotincha yoki lotinchaga yaqin so'zlar. Men, shaxsan shunday deb bilaman.

Biroz jim qolishdi.

– Boqijon aka, – dedi qiz uyalibroq, – bir narsani sizdan so‘ramoqchi edim: biz sinfda Chexovning «Uyqu istagi»ni o‘qidik, go‘dakni o‘ldirgan qizni sud qilmoqchimiz. Da‘vogar go‘dakning onasi – Rahima bo‘ladi, qoralovchi – Sharifjon. Sudyalar ham bo‘ladi. Men qizni oqlab, butun gunohni uning xo‘jayiniga, yosh qizni bu qadar berahm ekspluatatsiya qilgan kishiga qo‘ymoqchiman. Mana shu... Shuni yozdim. Shu to‘g‘rida sizning fikringizni bilmoqchiman. Chexov shunday demoqchi emasmi?

O‘rtoq Baqoyev o‘ylab turib, so‘radi:

– Nafis adabiyot darsini sizlarga kim beradi? Haki-mov? Ahmoq odam! O‘z ustida ishlamaydi. Savol alo-mati hamma vaqt «mi»dan keyin qo‘yiladi desam, ku-ladi. Gap bunda ham emas...

Mukarram samovar ko‘tarib kirdi. Hamida irg‘ib turib, samovarni opasining qo‘lidan oldi va stolga qo‘ydi. U, homilador xotinga samovar ko‘tartirib, qa-rab o‘tirgan pochchasidan o‘pkalamoqchi edi, biroq uyaldi, indamadi. O‘rtoq Boqijon Baqoyev juda chan-qab turgan ekan, ustma-ust to‘rt piyola choy ichdi va terladi.

– Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, – dedi yuzidagi terni artib, – himm... soqol ham o‘sip-ti, satarosh bo‘lmasa odamlar maymun bo‘lib ketar edi. Maymun, juni to‘kilib, odam bo‘lgan. Bu haqda Engelsning fikri bor...

– Haligini aytmadingiz, Boqijon aka, – dedi qiz, – Chexov shunday demoqchi emasmi?

O‘rtoq Baqoyev yana bir piyola choy so‘radi.

– Chexovmi? Himm... burjuaziya realizmi to‘g‘risi-da so‘zlaganda, eng avval uning obyektiga diqqat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo‘la-di. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan-oyoq,

butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya'ni... himm... Mukarram, tovuqqa moyak qo'ydingmi? Qo'yish kerak, bo'lmasa daydi bo'lib ketadi... Tavba, tovuqdan ahmoq jonivor yo'q – moyak qo'ysang tug'adi! Nima uchun moyak qo'ysang tug'adi? Xo'roz nima uchun saharda qichqiradi? Ajoyib psixologiya! Biologiya o'qiysizlarmi?

Hamida biologiyadan nimalar o'qiganini, bu o'qish yilida yana nimalar o'tilajagini so'zlab berdi va o'zi-ning oqlash nutqida fiziologik asoslar ham ko'rsatish niyati bor ekanini aytib, yana so'zni Chexov ustiga burdi.

– Himm... – dedi Baqoyev, – Chexov to'g'risida o'zim-ning fikrim bor. Boshqalar nima desa desin, har holda uning dunyoga qarashida... Uning dunyoga qarashi Pushkin va Lermontovlarning dunyoga qarashidan farq qiladi. Bir davr, bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari bo'lishlariga qaramasdan, mutlaqo farq qiladi!

– Chexov Pushkin bilan bir davrda yashagan emas-ku, – dedi Mukarram, – bizning kutubxona-da uning Maksim Gorkiy bilan oldirgan surati bor. Chexov 1904-yilda o'lgan bo'lsa kerak.

O'rtoq Baqoyev biroz o'ng'aysizlandi.

– Sizlar qaysi Chexov to'g'risida gapirayotibsizlar? Choydan quy!.. Bu Chexov haqidami? To'g'ri, bu 1904-yilning birinchi yarmidami, ikkinchi yarmidami o'lgan... Boshqa ro'molcha ber, bundan piyoz hidi kelayotipti. Men ana u Chexov, ilk burjuaziya realizmining namoyandasi bo'lgan Chexov haqida so'zlayotibman.

– «Uyqu istagi» qaysi Chexovniki? – dedi Hamida.

– Hech shubhasiz bu Chexovniki. Bu narsa birinchi marta «Sovremennik» jurnalida bosilgan.

Shundan keyin o'rtoq Boqijon Baqoyev uzundan-uzoq so'zlab ketdi. Uning nima to'g'rida so'zlayotganini Hamida bilmas edi. Detirding degan allaqan-

day mashhur tanqidchi Shelling degan yozuvchiga «sen dastyorga zor bo'lguncha o'g'ling dastyor bo'ladi» deb xat yozgan; Marks Dobrolyubovni Mering bilan bir qatorga qo'ygan; Stending degan allaqanday bir dramaturg o'lar chog'ida Demping degan bir tanqidchiga: «Agar butun jonivorlarni Xudo yaratgan bo'lsa, men uning zavqiga qoyil emasman, echkiemar ham jonivor bo'ldimi?» degan...

Hamidaning boshi og'irlashib ketdi; ikki marta sekin, og'zini ochmasdan esnadi.

Hamida mezbonlar bilan xayrlashib ko'chaga chiqqanda qorong'i tushgan edi; «Uyqu istagi» to'g'risida pochchasidan hech qanday fikr ololmadi. Uning so'zlaridan nima olgani haqida o'ziga hisob berar ekan, g'uvillab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo'q edi: praktikum, minimum, maksimum; Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping...

1937

SAN'ATKOR

Konsert odatdagicha «navbatdagi nomerimizda... Kelganlaringga rahmat, o'rtoqlar» bilan tamom bo'ldi. Nomi chiqqan ashulachi – san'atkordan boshqa hamma xursand bo'lib tarqaldi. San'atkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorchi uni savodsizlikda aybladi. Traktorchi tanqid qilganiga san'atkor asti chiday olmas edi: traktor qayoqda-yu, masalan, «chorzarb» qayoqda, traktorchi qayoqda-yu, ashulachi qayoqda!

San'atkor uyiga ketgani izvoshga o'tirganida yana tutaqib ketdi: «Hech bo'lmasa aytadigan ashulangni o'rgan, so'zlarini to'g'ri ayt» emish! Nimasini bilmayman, nimasi to'g'ri emas? Meni shu vaqtgacha muxbirlar, yozuvchilar ham tanqid qilgan emas; formalizm, naturalizmlardan o'tdim – hech kim otvod bergani yo'q. Otvod berish qayoqda, hech kim meni og'ziga ham olmadi. Endi bir traktorchi tanqid qilar emish!..»

San'atkor, izvoshchini hayron qoldirib, o'zidan o'zi g'o'ldirab borar edi. Uyda xizmatchi ovqat qilib qo'ygan ekan, san'atkorning tomog'idan hech narsa o'tmadi – ikki piyola choy ichdi, xolos. Unga turib-turib nash'a qilar edi: «Ashulani mexaylistik aytar emishman! Tovushim yomon bo'lsa nega plastinkaga oldi? Tanqid deganiga endi bu kishining ham tanqid qilg'ulari kelipti... Amali traktorchi... Obbo!..»

– O'qishga bordingizmi? – dedi xizmatchiga, qovog'ini solib.

– Bordim... – Xizmatchi ikki haftadan beri savod maktabida o'qir edi.

– Xizmatchisi savod maktabida o'qiyotgan bir kishini traktorchi savodsiz, desa alam qilmaydimi? – dedi san'atkor o'zicha bo'g'ilib, – «labingdan bo'lsa olsam, e, shakarlab», deganim u kishiga yoqmapti, «bo'lsa» emas, «bo'sa» emish! O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar «bo'sa, bo'masa» deydi. Artist kulturniy odam – gapni adabiy qilib aytadi – «bo'lsa, bo'lmasa» deydi. Pojarni «gugurtni yerga tashlamang» dedi, rejissyorimiz esa «gugurtning yerga tashamang» dedi. Qanday chiroylik! Pojarnimi, pojarningmi? Shoshma, nima uchun pojarni? Pojarni, albatta! Rejissyorimiz juda kulturniy odam. Odam degan mana shunday bo'lsa, urishsa ham xafa bo'lmaydi kishi – ikki gapning birida «ta'bir joyiz ko'rilsa» deb turadi. Bu traktorchi menga shuncha dashnom berib, ko'ngil uchun bir marta «ta'bir joyiz ko'rilsa» demadi.

Xizmatchi daftar-qalam keltirib, san'atkorning oldiga qo'ydi.

– «J»ning kattasi qanday yozilar edi? Domlamiz bir kuni ko'rsatgan edi, esimda qolmapti.

San'atkorning jahli chiqdi:

– Endi «J»ga keldingizmi? Barjom deganda yoziladi. Kechagi barjom og'zi ochiq qolipti, gazi chiqqandan keyin bir pulga qimmat. Siz ham dunyoga kelib kulturniy bo'lsangiz-chi!.. Burningiz terladi, arting, ta'bir joyiz ko'rilsa!

San'atkor o'rnidan turib yotoqqa kirib ketdi.

– Yotasizmi? – dedi xizmatchi narigi uydan.

– Nima edi?

– «J»ning kattasini ko'rsatib bermadingiz, ertaga domla so'raydigan edilar. Qanaqa yoziladi?

– Kichigini yozib qattiqroq o'qing!

San'atkor yechinib ko'rpaga kirdi. Xizmatchi chiroqni o'chirib chiqdi. San'atkor ko'zini yumdi, ko'zi-

ga g'ira-shira qorong'i zaldagi son-sanoqsiz kallalar ko'rindi. Bular ichida eng kattasi traktorchining kallasi, u iljayar edi.

– Afting qursin! – dedi san'atkor va narigi yon-boshiga ag'darildi.

Hayal o'tmay uyquga ketib, xurrak otdi. Uning xurragi ham nechukdir adabiyroq edi: «Pluq-qum-prr... pluq-qum-prr...»

1936

KO'ZACHA

Vahobjon To'raqulov yangi ishga tayinlanib, yangi uy ham oldi. U, ko'ch-ko'ron ortilgan mashinani jo'natdi-yu, «yana nima qoldi ekan» deb hovliga kirdi. Tandirning oldida tashlandiq narsalar orasida ikkita ko'zacha ag'anab yotar edi. Bu ko'zachalar o'z zamonasida kulollik san'atining durustgina asari hisoblangan bo'lsa ham, hozir nazardai qolgan, buning ustiga, eskirib, siri to'rlagan, shuning uchun To'raqulovning xotini yangi unga munosib ko'rmay tashlab ketgan edi. To'raqulov allanechuk mung'ayib yotgan ko'zachalarga rahmi kelganday bo'ldi-yu, ikkalasini ikki qo'ltig'iga qisib jo'nadi.

To'raqulov guzardagi choyxona oldidan o'tib ketayotganida ikki kishi irg'ib so'ridan tushdi, qo'l qovushtirib yo'lini to'sdi, qo'lidani ko'zachalarni bittadan olib, o'zini izzat-ikrom bilan «bir piyola choyga» taklif qildi. To'raqulov bularni idorada bir-ikkita ko'rgan, lekin ikkovining ham familiyasi Nazarov ekanini biri semiz va biri oriqli bo'lsa ham xulq, fe'l-atvor yog'idan xuddi bir qolipdan chiqqanday bo'lgani uchun idoradagilar bularni Qo'shnazarovlar deb atashini bilmas edi.

Semiz Nazarov To'raqulovga nazokat bilan bir piyola choy uzatib, ko'zachaning qorniga shappaladi.

– Asil mol! Didingizga qoyilman!.. Bunaqa molni taniyidigai, qadriga yetadigan odam hozirgi zamonda mingtadan bitta!

– Yuz mingtadan bitta! – dedi oriqli Nazarov.

Semiz Nazarov lunjini shishirib ko'zachaning ichiga pufladi bo'yniga ikki barmoqlab chertdi.

– Hunarmandlar ham o'lmasin!

Oriqli Nazarov ko'zachaning ichini hidlab, qornini yuziga surkab ko'rdi.

– Hunarmandni humarmand qilgan hunar emas, Vahobjon akamlarday didli, zarshunos odamlar! Shu ko'zacha bironta to'qim tabiat odamning qo'lga tushsin-chil!..

Qo'shnazarovlar «Vahobjoi akam»ning nozik didi, tengi yo'q zarshunosligi haqida biri qo'yib, biri gapiravergandan keyin To'raqulov, xijolat bo'ldi-yu, «shu choqqacha payqamagan ekanmizmi», deb ko'zachaga ko'z qiri bilan razm soldi. Yo'q, o'sha eski ko'zacha! Yangi bo'lganda ham, hozir birov bir pulga olmaydi! To'raqulov Qo'shnazarovlarning did va zarshunoslik haqidagi maqtovlaridan o'zini mudofaa qildi:

– Juda ham unchalik emas shekilli. Qornidagi suratni ko'ringlar, qo'tas desang cho'chqaga o'xshaydi, cho'chqa desang qo'tasga o'xshaydi.

By gap Qo'shnazarovlar ne mashaqqat bilan sozlayotgan torni uzganday bo'ldi. Semiz Nazarov bir palla nokka o'xshagan qornini silkitib kuldi.

– To'g'ri! Bu, albatta, rassomning kamchiligi, lekin rassomning kamchiligi ko'zachaga husn bo'lib tushgan! O'ziga yarashadi! Dunyoda shundan kamchiliklar ham bo'ladi...

Oriq Nazarov suratga hurkkan tovuqday bir nazar tashlaganidan keyin bo'ynini ichiga tortib iyagini bir tomonga chiqarib, kuchangan bir tovush bilan To'raqulovning nozik did va baland tabiatini uning o'zidan mudofaa qildi:

– Menimcha ham bu, har qalay, kamchilik emas, balki ko'zaching yutug'i: suratning notayin bo'lishi kishini o'ylashga, har xil taxminlar qilishga, aql ishlatishga majbur qiladi. Ko'zaching menga yoqqan tomonlaridan biri ham shu!

Semiz Nazarov To'raqulovning yelkasiga qo'lini tashladi:

– Vahobjon akam bizni sinayotibdilar. Yaxshi rahbar shunaqa bo'ladi: qo'l ostidagi odamlarni har tomondan titkilab ko'radi!

Shundan keyin To'raqulov o'ylab qoldi: «Bular ko'zachani bahona qilib, menga katta-katta suyaklar tashlayotibdi-ku! Idora boshlig'i tupursa tupugini yerga tushirmaydigan odamlarga o'xshaydi...»

Oriq Nazarov ko'zachani uch barmoq bilan ko'tarib, bir narsa demoqchi bo'lgan edi, To'raqulov so'z qotdi:

– Durust, durust, sizlarning ham didlaring joyida ekan. Idorangda shunday didlik odamlar bo'lsa, yu-king yerda qolmaydi... Shu ko'zachalarni yangiligida talay pulga olgan edik...

Semiz Nazarov shoshib so'z qistirdi:

– Dutor, vino, mana bunaqa narsalarning eskisi yaxshi bo'ladi!

– Balli, otangizga rahmat! – dedi To'raqulov.

– Shularni bizga pullab bersalaring juda xursand bo'lar edik. Kamxarjroqmiz...

Qo'shnazarovlar hang-mang bo'lib qolishdi va ikkovi baravar:

– Qanchaga? – deb so'radi.

– Sizlar turganda men baho qo'ysam qandoq bo'ladi? Yangiligida har birini besh yuz so'mdan olgan edik, yigirma yil bo'ldi... Har yili yigirma besh so'mdan eskirganda ham tannarxi bilan ming so'mdan bo'lar-mikin... Oshig'i sizlarniki!

To'raqulov shunday dedi-yu, ko'zachalarni ikkovining qo'lga bittadan tutqazib, turdi-ketdi. Qo'shnazarovlar uning ketidan qarab qolishaverdi.

To'raqulov ko'zdan g'oyib bo'lgandan keyin, oriq Nazarov hushiga kelib semiz Nazarovga yeb qo'yguday bo'lib qaradi va ko'zachani unga tomon yumalatdi.

– Ol, sotib ber!

Semiz Nazarov ikkala ko'zachani uning oldiga surdi.

– Maqtovini sen keltiring, sen sotib ber!

Janjal chiqdi.

Qo'shnazarovlar ko'zacha bilan bir-birining kallasiga tushirdi, ikkovi ham hushdan ketib yiqildi.

IG'VOGAR

Otstavkaga chiqqan militsiya kapitani ikkovimiz samovarda bitta choyni ermak qilib, chaqchaqlashib o'tirgan edik, kapitan bo'sh piyolani menga uzatar ekan, ko'zi bilak imo qilib shivirladi:

– Ana u tor ko'chaga qarab turing, bir odam chiqadi, ko'rib qo'ying, hikoyasini keyin aytaman.

Hayal o'tmay tor ko'chadan qora splash, qora shlyapa kiygan, qora ko'zoynakli bir kishi chiqdi; kapitanining qarashini kutib bo'lsa kerak, ko'chaning boshida turib qoldi. Uning hamma narsasi qora bo'lgani uchun yuzi juda oq, oppoq, yuzida qora ko'zoynak yana ham qoraroq ko'rinar, qisqasi, iyagining ostiga ikkita suyakni chalmashtirib qo'yilsa, kallasi ajalning ramziga o'xshar edi.

Kishi ko'chaning bu yuziga o'tdi, kapitan qaramadi, kelib bizdan bir so'ri nariga o'tirdi, kapitan boshini ko'tarmadi; so'rilarin oralab bizning oldimizdan o'tib ketdi. Shunda undan sovuq zax, eskirib qolgan go'ngdan keladigan «soya hidi» anqib ketdi. U orqaga bir-ikki qarab, ko'chaning u yuziga o'tdi, qorong'i bir darvozaxonaga kirib ketdi.

Kapitan unning hikoyasini aytib berdi.

– Men bu marazni to'rt yildan beri bilaman. Bu maraz to'rt yildan beri meni xilvatga tortadi, to'rt yildan beri qulog'imga shivirlaydi...

Bundan to'rt yil muqaddam shaharning turli tumanlaridan militsiyaga har xil imzo bilan, lekin manzilsiz xatlar yog'ila boshladi. Bu xatlarning har biri ovchilar uyushmasining o'sha vaqtdagi kotibi ustidan yozilgan katta bir aybnoma bo'lib, bu aybnomada ko'rsatilgan gunohlardan birontasi rost bo'lsa, kotib beto'xtov qamalishi kerak edi. Biroq militsiya bu xatlar-

ni yozgan odamlardan birontasini ham topolmadi, lekin, shundoq bo'lsa ham, kotibga e'tibor qildi.

– Mana shu kunlarda, – dedi kapitan, – kechasi mening oldimga mana shu maraz keldi, o'zining halolligi to'g'risida qancha baytu g'azallar o'qiganidan keyin «ovchilar uyushmasining kotibi noma'lum odamlardan to'pponcha sotib olayotibdi, degan gap yuribdi, mish-mishga o'zim ishonmasam ham sizga aytib qo'yishni vijdoniy vazifam hisoblayman», dedi.

Tashakkur bildirdim.

Lekin bu gap kotib haqida militsiya to'plagan ma'lumotlarga butkul zid edi. Mulohaza va muhokamadan keyin shunday xulosaga kelindi: bu odamning o'sha imzosiz xatlarga aloqasi bor va militsiya xat yozgan odamlarni qidirayotganidan xavotirga tushib qolgan; to'pponcha haqida yo'q mish-mishni ko'tarib kelishdan maqsadi, militsiyani aldash – «mening gapim bo'lsa o'zim kelib aytaman, xat yozib yurmayman», demoqchi.

– Xo'sh, bu tuhmatdan iborat xatlardan, uydirma mish-mishdan, bunaqa nayrangdan kuzatilgan maqsad nima?

– Biz mana shunga qiziqdik, – dedi kapitan, – tagiga yetdik ham. Dunyoda yaratilganicha qolgan odamlar ham bor ekanini bilasizmi? Bu xildagi odamlar vaqtida na o'qib bilim olgan bo'ladi, na uqib hunar; bir vaqt ko'zini ochib qarasaki, hamma nimadir qilyapti va hech narsa qilmaydigan odamga tahqir nazari bilan qarayapti. Bular mana shu nazardan qochib biron eshikka kirgani, u yerda odamlarni sichqonday kemirgani, ularning mehnati hisobiga mol-dunyo, sharaf va shuhrat orttirgani urinadi.

Kapitan maraz deb atagan boyagi ig'vogar mana shu toifadan edi.

– Maraz mana shunaqa, qochib kirgani eshik izlab yurgan kunlarining birida, banogoh, buyuk «talant» egasi ekanini bilib qoldi: tandirning ustida qovun urug'ini cho'qiyotgan tovuqqa «kisht» deb qo'lida-

gi katta pichoqni otgan edi, pichoq borib tovuqning qoq kallasiga tegdi. Tovuuq yiqildi, patillab jon berdi. Maraz shu kuniyoq qarz-qavola qilib bo'lsa ham miltiq sotib oldi, ertasiga ovchilar uyushmasiga ariza berdi... O'ng qo'li yo'q kotib chap qo'li bilan a'zolik bileti yozib berayotganda marazning niyati buzildi: «Mening ikkala qo'lim sog', vaqti kelib shuning o'rnini menga berishmasmikin?»

Maraz bir ovga chiqib, bitta chumchuq ham otolmay, oyog'ini zo'rga sudrab kelganidan keyin bu orzu talabga aylandi, shuning uchun kotibga «siyosiy» nazar tashladi: «Bu xoin emasmikin, askarlikda jangdan qochib, qo'liga o'zi otmadimikin?»

Boshlandi.

Maraz shu lavozimni egallash uchun uch tomondan hujum boshladi:

shaharda mashhur ovchi bo'lib tanilish va uyushmada obro' orttirish uchun har yakshanba kuni kechki payt yelkasida bir emas, ikki ov miltig'i, beliga bozordan sotib olingan uch-to'rtta qashqaldoq, uch-to'rtta tustovuqni osib, oyog'ida qo'nji uzun etik, qora yaltiroq tozini ergashtirib shaharning markaziy ko'chasidan tantanali yurish qilib o'tadigan bo'ldi;

kotibni qoralash uchun miyasi nimalarni o'ylab chiqarishga qodir bo'lsa hammasini har kimlarga yozdirib, shaharning turli tumanlaridan militsiya boshqarmasiga yubora boshladi;

har sabab va har bahona bilan raisga xushomadgo'ylik qila berdi, uni «ustod» deb ataydigan bo'ldi, a'zolardan birining to'yida, kelin bilan kuyov u yoqda qolib «ustod»ning salomatligiga qadah ko'tarishni taklif qildi, uzun nutqini «ustod otgan tustovuq rohat qilib yiqiladi», deb tugatdi.

Oradan o'n besh oy o'tdi. Kunlardan bir kuni kotib to'satdan o'lib qoldi. Maraz bu xabarni eshitib yugurganicha idoraga keldi, o'zini urdi, sochini yuldi, «qanotim sindi» deb dod soldi; marhumning or-

deni qo'yilgan yostiqchani ko'tarib marosimning oldida bordi; uning qabri ustida hammadan oldin nutq so'zlab: «Aziz do'stim, tinch yot, boshlagan ishingni o'zim davom ettiraman», deb yig'lab yubordi.

Ertasiga, darhaqiqat, maraz to'g'ri kelib marhumning stoliga o'tirdi, kuni bo'yi kim bilan muomala qilmasin ko'ziga yosh olib, kotibning ishini davom ettirdi; ertasiga ham, indiniga ham, rosa bir hafta bo'yi shunday qildi. Odamlar marazning kotibligiga ko'nikkan sayin uning ko'z yoshi kamaya bordi-yu, nihoyat, rais yangi tayin haqidagi buyruqqa qo'l qo'ygan kun taqqa to'xtadi.

Maraz birovlar otgan bo'rilarning terisini o'z nomidan topshirib, katta ovchilarni bir-biriga chaqib urishtirib va har qaysisiga o'zini jonkuyar ko'rsatib, kotiblik stoliga durustroq o'rnashganidan keyin raisning qabri ustida nutq so'zlagisi, uning boshlagan ishini «davom ettirgisi» kelib qoldi. Biroq rais ellikka yaqinlashib qolgan bo'lsa ham, hali juda baquvvat, urush yillari partizan bo'lib, Belorussiya o'rmonlarini boshdan-oyoq piyoda kezib chiqqan, af-tidan, biron yuz yil umrni ko'zlagan odam edi.

Rais hali-beri o'lmaydimi? O'ziga qiyin!.. Maraz shu o'ringa o'tirganida qilishi mumkin bo'lgan hamma jinoyatlarni raisga to'nkab, militsiyaga turli imzo bilan, lekin manzilsiz xatlar yog'dira boshladi. Shu choqqacha bir oiladay inoq bo'lgan ovchilar orasida nizo, xafagarchilik, asabiy kayfiyat alomatlari ko'rinib qoldi.

Kapitan noilojdan, kir lattani titkilayotganday jirkanib, dam-badam tupurib davom etdi:

– Mana shu kunlarda mening uyimga kechasi yana maraz keldi, nevara ko'rganimni eshitgan ekan, tabrikladi; keyin birdan engashib, shivirladi: «Xabaringiz bor, kotibimiz to'satdan o'lib qolgan edi, shuning o'limida raisning qo'li bor, degan gap yuribdi. Bu gapga o'zim ishonmasam ham sizga aytib qo'yishni vijdoniy vazifam hisoblayman. Bir vaqtlar

kotib noma'lum kishilardan to'pponcha sotib olayotibdi, degan mish-mish ham raisdan chiqqan bo'lsa ajab emas», dedi. Men yana tashakkur bildirdim.

Oradan besh-olti oy o'tdi, bu vaqt ichida maraz ekan nizo urug'lari unib chiqdi ovchilar juda notinch bo'lib qolishdi: biri birining g'iybatini qilgan, biri biri bilan urishgan, biri birining ustidan ariza bergan, serg'alva, qiy-chuv majlislar...

Bu g'avg'olarning sababini payqab qolgan ziyrak kishilar marazni maydonga tortishdi, uni qisman fosh ham qilishdi. Kimdir uning yolg'on ovchi ekanini aytdi. Qisqasi, o'zaro xafalashgan odamlarning diqqati marazga tikilib qoldi, kim yo'talsa to'lagani marazni qidiradigan bo'ldi. Maraz kim nima desa o'shaning og'ziga qarar, birovga do'q qilib, birovga yolvorar, kim uni kotiblikdan bo'shatish haqida gapirsa, stolga kanaday yopishib olib dod solar, o'shanaqa odamlarga siyosiy ayblar taqar, oti idoraniki bor – hammasiga yugurar, arz qilar, ariza berar edi.

Bir kuni ovchilar juda ham uzoq majlis qilishdi. Majlis oxiriga borib shu qadar qizidi, shu qadar shovqin-suronga aylandiki, soat o'n birlarda ko'cha aylanib yurgan uchastkavoyning diqqatini jalb qildi. Uchastkavoy zalga kirganida bir necha kishi kimnidir oyoq-qo'lidan olib derazadan ko'chaga uloqtirib yuborganini ko'rib qoldi. Uchastkavoy yugurib chiqib qarasam, ko'chada hech kim yo'q, surishtirsa, ovchilarning g'azabiga uchragan kimsa – shu maraz ekan. Shu-shu bo'ldi-yu maraz bir yildan ortiqroq ko'rinmay qoldi.

– Bu orada men otstavkaga chiqib ketdim, – dedi kapitan, bundan bir oy burun menning qaynonam qazo qildi. O'lik lahadda qo'yilayotgan paytda bilagimga birovning muzday qo'li tegdi. Qayrilib qarasam, yonimda maraz turibdi, ko'ngil so'ragan bo'ldi. Maraz anchadan beri shu go'ristonda go'rkov ekan, meni chetga tortib qulog'imga shivirladi: «Mahalla komissiyasini raisi onasini Said Qosim eshonning yoniga

qo'ydirdi», deydi; go'ristonda yana kim kimning yoniga qo'yilgani haqida gapirib turib, birdan militsiya xizmatiga kirish orzusi borligini aytib, mendan yordam so'radi. Men otstavkadagi odamman, so'zim ham o'tmaydi, iltimosim ham, deb vaj-taqal qildim. Maraz hech unamadi, oxiri, yana xabar olaman deb ketgan edi, mana hozir, xabar olgani keldi.

Men bir narsaga tushunolmay kapitandan so'radim.

– Militsiya xizmatiga kirish, buning uchun birovdan yordam, tavsiya so'rash maxfiy narsa emas-ku, bu odam nima uchun o'g'riday xilvatni poylaydi?

Kapitan kuldi.

Qora ko'nglida odamlarga yomonlikdan boshqa narsa yo'q, odamlardan ham faqat shuni kutadi, shuning uchun hamisha xavotirda, ovqatni ham yashiriqcha og'ziga soladi, yashiriqcha chaynaydi, yashiriqcha yutadi!.. Hali siz diqqat qilmadingiz, ko'chaning boshida turishini ko'rsangiz – xuddi cho'chigan tovuqday boshini silkib-silkib atrofga qaraydi, xavf yo'qligidan tinchish o'rniga hayron bo'ladi, ko'proq xavotirga tushadi.

Shu payt qorong'i darvozaxonadan maraz mo'raladi.

– Ko'rdingizmi, – dedi kapitan o'rnidan turayotib, – men boray, shu taxlitda kechgacha ham turaveradi.

Men ham turdim va kapitan bilan xayrlashayotib so'radim:

– Modomiki shundoq ekan, nima qilasiz shu maxluq bilan muomala qilib?

Kapitan so'ridan tushar ekan, menga ko'z qisdi.

– Bunaqa maxluqni hamisha ko'z o'ngida tutish, qilish-qilmishidan, niyatlaridan xabardor bo'lib turish zarur: bitta-yarimtanuung oyog'idan oladigan bo'lsa, jag'ini ikki bo'lib tashlash oson bo'ladi.

Kapitan ko'chaning u betiga o'tganda maraz o'zini orqaga – qorong'iga tortdi.

PORA

(Ertak)

Bir poraxo'r amaldor amalidan tushib g'alati dardga yo'liqdi. Uning tomog'i kundan-kun torayib bora-verdi. Qirq tosh tevarak-atrofdagi uni ko'rib dori bermagan doktor qolmadi – ichi aptekaga aylanib ketdi; uni boqmagan tabib ham qolmadi – yantoqning gulidan tortib kaltakesakning dumigacha quritib kappa otdi; o'qimagan duoxon, rom ochmagai folbin qolmadi – kichik hamyon bo'shab, katta hamyonga qo'l ketdi. Bo'lmadi, dard borgan sari kuchayib, tomog'idan hatto suv ham o'tmay, og'ziga paxta bilan tomi – ezilgan suv burnidan keladigan bo'lib qoldi.

Kun o'tdi, hafta o'tdi, nihoyat, amaldor shiftga qarab yotganicha bir-ikki iyak qoqdi-yu jon berdi. Berdi! Porani pul, maqto'v, ziyofat, xushomad, mebel, ov miltig'i, kiyik, zotli it, yog'och, bo'yoq, tilla soat, etik va boshqa ming bir shaklda olib, olaverib berish degan so'zni esidan chiqarib yuborgan amaldor, xuddi berganiga hayron bo'lganday, og'zini, ko'zlarini katta ochganicha qoldi. Uning hayratdan ochiq qolgan og'iz va ko'zlarini yuvuvchi taxtada yumdi.

Taxta, kafan, tobut, go'r... Murda lahadga qo'yilib, go'rga tuproq tortilayotgan vaqtda, taomilga ko'ra kimdir xaloyiqqa yuzlanib:

– Ho yaxshilar, marhum qandoq odam edi? – dedi.

Hech kimdan sado chiqmadi. Shunda marhumdan ko'p aziyat chekkan bir kishi:

– Poraxo'r edi! – deb yubordi.

Shu chog' qabrga tortilayotgan tuproq birdan to'zib ko'kka ko'tarildi-yu, uning ostidan boyagi murda kafanini sudrab, og'zini, ko'zlarini katta ochib

chiqib keldi. Hamma tumtaraqay bo'ldi. Boyagi «poraxo'r» degan kishi qocholmay turib qoldi. Murda to'g'ri o'shaning oldiga kelib:

– Nima? Pora? Qani pora? – dedi.

U kishi shoshib u yoq-bu yoqqa qaradi; qarasa, besh-olti odim narida bir kirpi yotibdi, yugurib borib kirpini oldi-yu:

– Mana pora! – deb ikki qo'llab murdaga tutdi.

Murda kirpini shoshib oldi, qaltiragan qo'llari bilan og'ziga eltib, ko'pdan beri pora o'tmay bitib ketgan tomog'ini ochish, kattaroq ochish uchun kirpini teskari yutdi.

Falanchiga pora deb bersang tirik kirpini teskari yutadi, degan gap mana shundan qolgan.

BOSHSIZ ODAM

Niso buvi eri o'lib, ikkita yosh qizi bilan qoldi. Ikki-uch kishi sovchi qo'yganda u, ikki bola bilan tinch turmush qila olishini ko'z oldiga keltirolmay, rozilik bermagan edi, nima bo'ldi-yu, usta Abdurahmon kishi qo'yganda darrov rozi bo'la qoldi. Bunga hamma ham hayron qoldi. Bu to'g'rida ba'zilar: «Niso buvi ilgariyam usta Abdurahmon bilan don olishib yurar ekan...» degan gapni qilishdi; ba'zilar: «Bechora nima qilsin, ikkita bolasi bor, usta Abdurahmonning ham o'lgan xotinidan bitta o'g'li bor, vaqti kelganda tili qisqa bo'lmaydigan ish qilibdi-da...» deyishdi.

Abdurahmon yuborgan sovchi Niso buviga shunday dedi: «Sizda ikkita bola bo'lsa, u kishida bitta bola bor. Bularning yegan-ichgani qayoqqa borar edi. Bular uchun alohida qozon osilarmidi. Siz hammasining onasi, u kishi – ota. Usta bolani juda yaxshi ko'radilar...»

Oradan to'qqiz yil o'tdi. Bular to'rt bola ko'rishdi. Bu to'qqiz yilning ikki-uch yilgina tinch o'tdi. Keyingi yillarda Niso buvi qizlari tufayli necha marta qo'ydi-chiqdi bo'lib oldi.

Niso buvi pichoq borib suyagiga tekkandan keyin qizlarini internatga berishni ham o'yladi. Ammo bu to'g'rida ham er bilan maslahatsiz bir ish qilishga qo'rqdi. Maslahat qilganda usta Abdurahmon: «Ha, Roziq yamoqchining qizlari o'qib shahar so'rarmidi?...» – deb urishib berdi.

Usta Abdurahmon qizlarni ko'p uradi. Bir kuni Niso buvi: «Ursangiz o'sha do'koningizga olib borib uring» deganida usta: «Ha, joning achiydimi, bundan keyin men urayotganda kulib turmasang uch taloq-

san...» deb yubordi. Shundan keyin Niso buvi ko'p martalar «kuldi».

Usta Abdurahmon ko'pdan beri Niso buviga: «Mehrini Faxriddinga qilamiz» deb yurar edi. Faxriddin erka o'sgan tantiq bola bo'lgani uchun Niso buvi: «Ha, ishqilib, ikkovining ham boshi omon bo'lsin», deb qo'ya qolar, bu «yo'q» degani edi.

Bir kuni ertalab nonushtadan keyin usta Abdurahmon: «Chorshanba kuni to'yl!» dedi-yu, ko'chaga chiqdi-ketdi. Niso buvi, rang-quti o'chib, devorga suyanganicha qola berdi.

To'y o'tdi. Niso buvining endigi qayg'usi Mehrining bo'yida bo'lib qolishi, chunki Faxriddindan uning bo'yida bo'lishini sira xohlamas edi. Bir kuni u, betini qattiq qilib, kuyovga ochiq aytdi:

– Faxriddin, hali yoshsizlar. Uch-to'rt yil bolasiz yurish yaxshi. Doktor shu ishlarni bilarmikan?..

Faxriddin osilib turgan qalin pastki labini bir-ikki qimirlatib, bilagi bilan burnini artib javob berdi:

– Men bilmasam, dadam biladilar-da!

– Qo'ying, qo'ying... Dadangizdan so'ramang. Uyat bo'ladi.

Tumorlar, qaytarma suvlari Niso buviga faqat tassalligina berdi, xolos. Mehri ikkiqat...

Homila ikki oylik, uch oylik... besh oylik... Niso buvi talvasaga tushib, o'zini qayoqqa urishini bilmas edi.

Qanday bo'lsa ham homilani tushirish kerak. U Mehrini ko'rpaga o'rab, yangi qilinayotgan kigizday yumalatdi; qorniga yostiq bilan urdi, ustiga chiqib o'tirdi; qo'qqisidan qattiq qo'rqitdi... Bularning hech qaysisi foyda bermadi.

Niso buvi qayerdandir yangi bir chora topib keldi: kimdir qorinni silash, bolani ezib yo'q qilishni o'rgatipti.

Niso buvi besh kun deganda ishining natijasini ko'rdi. Oltinchi kuni kechasi Mehri to'lg'anib chiqdi.

Ertalab juda yomon ahvolga tushdi: uyning u boshidan bu boshigacha dodlab yumaladi. U xuftongacha qolmaydigan ko'rinardi. Niso buvining dami ichida.

Faxriddin kaklikka suv quyayotib otasiga qarab qo'ydi.

– Ha, o'g'lim, xafa bo'layotibsanmi? – dedi otasi.

– Yo'q, – dedi Faxriddin cho'zib.

– Xafa bo'lma. Aravaga odam yubordim. Kasalxonaga yuboramiz. Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa xotinning urug'i Hirotdan kelgan emas!

Mehri xuftonga yaqin kasalxonaga yuborildi. Faxriddin ikki soatdan keyin «meni kirgizmadi» deb qaytib keldi. Niso buvi kasalxonadan yarim kechasi kelib, saharda yana ketdi.

Mehri kasalxonada uzoq yotib qoldi. Undan faqat Niso buvi xabar olib turar edi, bir kuni kuyovini koyidi:

– Faxriddin, bir marta borib eshikdan «qalaysan» deb kelsangiz bo'lmaydimi? – dedi.

Faxriddin peshonasiga qo'ngan pashshani ushlagani qo'l ko'tarar ekan:

– Dadam chorshanba kuni borgin deyaptilar, – dedi.

Chorshanba bozor kuni edi. Usta Abdurahmon Faxriddinga ikki so'm pul berdi.

– Ma, yo'ldan mayda-chuyda ol. Kirganingdan keyin ahvol so'ra, yengil bo'lsa «xayriyat» degin, sening yo'qliging uchun uyda tura olmayotibman, yomon bo'lar ekan, degin.

Faxriddin yo'lda ketayotib negadir dam kular, dam burnini artib yo'talar edi.

Faxriddin bozordan, otasi tayinlagancha, ikkita shirmoy non, yarim qadoq pista oldi; kasalxonaga borib, o'zi ko'rgan eshikka kirib ketayotganida bir xotin qaytardi – olib borib bir kursiga o'tqizib qo'ydi. Shu bilan u xotin dom-daraksiz bo'lib ketdi. Ikki soatdan keyin yana bir keldi-yu, Faxriddinga indamay, yana

bir uyga kirib ketdi; bir soat chamasi o'tgandan keyin chiqib, Faxriddinni imladi, Faxriddin kirganda Mehri endi uyqudan turgan ekan.

– E, ho'yi!.. Yaxshimisan... ho'yi! – dedi Faxriddin.

Mehri sekin:

– Keling, – dedi.

– Yaxshimisan... uyda sen yo'q, dadam qiynalib qoldilar. Yomon bo'lar ekan...

– Kundan-kun battar bo'lgan edim, olib tashlashdi... Naq o'layozdim...

– Xayriyat.

– Ko'rdim, boshi yo'q...

– Iye!.. – dedi Faxriddin og'zini va ko'zlarini katta ochib, – bolaning ham boshi bo'lmaydimi?! Dadamdan so'ray-chi...

Uning gaplariga quloq solib, raftorini kuzatib turgan hamshira:

– Kasalni toliqtirib qo'yasiz, bas! – dedi va eshikni ko'rsatdi.

Mehri kasalxonadan chiqqandan keyin Niso buvi ikkala qizi bilan bosh olib chiqib ketdi.

1929

NUTQ

«Keng eshituvchilar ommasiga mo'ljallangan» notiqlardan biri ishdan qaytib kelganida xotini bo'yniga osilib, ko'ziga yosh oldi.

– Siz meni yaxshi ko'rmaysiz... Turmushimizdan xursand emassiz... Shu soatgacha, shu daqiqagacha kutdim, bir og'iz aytmadingizki, bir yostiqqa bosh qo'yganimizga bir yil bo'ldi...

Notiq haqiqatan buni unutgan edi, lekin gap topdi:

– Iye, – dedi, – hali to'yimizga bir yil bo'ldimil Bir yil? Shunday rohat turmushimizdan, shunday shirin umrimizdan darrov bir yili ketdimi! Oh, dod deyman...

Xotin iljayib, turli noz-ne'mat, gullar bilan bezatilgan stolni ko'rsatdi. Er-xotin o'tirishdi. Xotin ryumkalarga vino quyib:

– Qani, – dedi, – bir nima demaysizmi?

– Bir nima deyaymi?

– Voy, hali indamasdan ichmoqchimisiz?

Notiq ryumkani olib o'rnidan turdi. Qoshlari chimirildi, rangi biroz o'zgardi, avval ryumkaga, keyin uyining burchagiga qarab so'z boshladi:

– O'rtoq rafiqam! Ijizat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!

Xotin bu muqaddimani hazil gumon qilganligi uchun qiyqirib chapak chaldi. Notiq yana ham jiddiyroq qiyofada davom etdi:

– Bundan 365 kun muqaddam siz bilan biz o'z hayotimizda qat'iy burilish yasab, zo'r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo'ydik. Ilgarigi vaqtda faqat erkak, endilikda esa ham erkak, ham xotin boshchilik

qiladigan oila masalasi o'zingizga ma'lum bo'lganligi uchun bunga keng ravishda to'xtab o'tirishni lozim ko'rmayman.

Notiq, oila to'g'risida o'z fikrini bayon qilganidan so'ng «Xotin va sotsializm» degan kitobning bir yeridan uch, yana bir yeridan ikki, yana bir yeridan bir yarim sahifa o'qib berdi. Xotin bu orada ikki marta og'zini ochmasdan esnadi, qo'lidagi ryumkani stolga qo'ydi. Notiq davom etdi:

– Siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuqlarga erishdik? Avvalo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan o'z kuchimiz bilan, o'zaro keng muhokama qilish yo'li bilan bevosita bartaraf qiladigan bo'lib qoldik. Ikkinchidan, o'rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy xo'jalik jihatidan misli ko'rilmagan darajada mustahkamladik. Men bu bobda faktlarga murojaat qilib o'tirmayman, chunki ordenli onangiz o'zlarining har bir tarixiy kelishlarida bu narsani ayrim ravishda qayd qildilar.

Notiq suv bo'lmaganligi uchun vinodan bir ho'plab davom etdi:

– Xo'sh, bu yutuqlarimiz kamchiliklarimizni qoplab, bizni xotirjamlikka solishi mumkinmi? Agar biz kamchiliklarimizdan bevosita ko'z yumib, yashashinchilik kayfiyatlariga berilib ketadigan bo'lsak, xato qilgan bo'lamiz. Bizda kamchiliklar bormi? Bor, oz emas. Masalan, iyul oyining birinchi yarmida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda yo'l qo'ygani jiddiy nuqsonlarimizni olaylik. Bu masalaga ikkovimizning ham jinoyatkorona sovuq qarashimiz orqasida qator chirishlar, buzilishlar, ko'karishlar yuz berdimi? Fakt! Buni nima bilan oqlash mumkin? Hech narsa bilan!

Notiq qizishib ketdi.

– Ikkinchi masala, ya'ni ichki imkoniyatlardan foydalanish masalasini olaylik. O'zingizga ma'lum, bizda yuqori sifatli mis choynak bor. Shu choynakning qopqog'i bugungi kunda yo'q. Bu haqda biz bir-birimizga signal berdikmi? Yo'q! Agar biz o'zi bo'larchilikka uzil-kesil barham berib qopqoq masalasini kun tartibiga ko'kdalang qo'ysak, agar biz shu choynakni o'z vaqtida tegishli qopqoq bilan bevosita ta'min qilsak, samovarimiz safdan chiqqan kunlarda hal qiluvchi rol o'ynar edi. Afsuski, biz bu masalaga murosasozlik ko'zi bilan qaradik. Bugungi kunda choynagimiz qopqoqqa ega emas, mutlaqo ega emas.

Xotin sekin uh tortdi. Notiq buni payqab «to'satdan qattiqroq tanqid qildim, shekilli» degan andishaga borib, so'zini yo'qotib qo'ydi, shuning uchun so'zining oxirini yumshatishga tirishdi:

– Lekin bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni a'lo darajada olib borayotganligimizga hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas deb hisoblash mumkin. Shu bilan qisqacha so'zimni tamom qilib, oilamiz bundan keyin ham sharaflar bilan qoplanajagiga to'la ishonch bildirishga ijozat bering! Bu ryumkani mana shuning uchun ko'tarishdan burun o'z muhabbatimni yana bir marta amaliy suratda izhor qilgani ruxsat berishingizni talab qilaman.

Xotin uning harakatidan «o'pich ber» degan ma'noni angladi-da:

– O'pichmi? Hech bo'lmasa shuni to'g'ri ayta qolsangiz nima bo'lar ekan! – dedi.

– Qanday, – dedi notiq hayron bo'lib, – bitta o'pichni deb nutqimni buzaymi?

Notiq o'tirdi. U o'tirganida yana asliga qaytdi. Xotin uning har bir so'zidan zavqlanar, kular edi.

TOMOSHABOG'

(O'tmishdan)

*Ey bus-butun ayolati
vayron o'lon vatan,
Har go'shasi zamonada
zindon o'lon vatan.
«Ramuzot»*

Qadaqchi Hamroqulning tobi qochdi. Kim biladi, kecha kechqurungi xudoyi osh yoqmadimi, yo ertalab choynak qadaqlatib ketgan kishining nosida bir gap bor ekanmi... Ammo kecha ertalab ham lanjligi bor edi shekilli; bo'lsa hech jahonda choydan ham makkajo'xori hidi keladimi!

Uning a'zoyi badani qaqshab, kamoncha tutgani madori qolmadi. Yana bitta qadaq bilan bitadigan likopcha chala qoldi. Hamroqul naridan-beridov-dastgohini yig'ishtirib jo'nadi. Uning isitmasi kuchli, boshi og'rir edi; tashlagan qadami xohlagan yeriga tushmasdi. U nimani o'ylasa, bu o'yning oxiri xayolga aylanar edi: issiq-issiq choy ichib, uranib yotgan ko'rpasi havoga ko'tarilib ketadi, dam soldirgani mahalla imomini chaqirtirsa, eshikdan lapanglab tobut kirib keladi. Hamroqul qo'rqdi, tezroq uyiga yetib olgani jadalladi!

Ko'chaning narigi yuzidan uni kimdir chaqirdi. Hamroqul chaqirgan kishiga qarayman deb gan-diraklab ketdi.

Chaqirgan kishi tomoshabog' «Romanska»ning qorovuli Usta kulol edi. Uning asli oti Stokgulov, Hamroqul, aytishga tili kelishmay, Usta kulol qo'yib olgan.

Yuzini keksalikdan ko'ra ko'proq ko'rguliklar g'ijimlab tashlagan bu chol bilan u, o'tgan yil bahorda, gul qo'yadigan vazasini qadaqlab berganida tanishgan edi. Bu vaza uning o'lib ketgan o'g'li yodgor qolgan ekan. O'g'li Lena degan joydagi oltin konida ishlab, bir vajdan ko'p kishilar qatorida otilgan ekan. Buning sababini Hamroqul o'sha vaqtda ham, undan keyin ham bilolmadi, chunki Usta kulol bu to'g'rida gapirsa, gapdan ko'ra ko'proq so'kinar, titrar edi. O'g'li o'lgandan keyin chol kampiri bilan bu yoqqa kelgan ekan.

Usta kulol Hamroqulning ahvolini ko'rib, darrov boqqa olib kirdi va qayrag'och ostidagi cho'yan oyoqli zangor eshakka o'tqizib, suv keltirdi. Hamroqul suvni ichib biroz o'ziga kelganday bo'ldi, ammo qayrag'ochdagi chumchuqlarning chig'irlashi negadir ko'nglini ozdirdi. U, quloqlariga barmog'ini tiqib, ko'zini yumdi, biroz nafasini rostlagandan so'ng, xuddi ko'nglini bezovta qiladigan biron narsani ko'rishdan qo'rqqanday, ko'zini sekin ochdi.

Ko'zini ochdi-yu qarasa... Usta kulol xuddi o'g'lining o'limi to'g'risida gapirayotganday so'kinar, titrar edi. Yoshgina, xotinchalish bir ofitser rezinkaday qapchib cholning ko'kragiga tepdi. Chol yiqildi. O'shanday tepki hali es-hushini o'nglab ololmagan Hamroqulning ham ko'kragiga tushdi. U, eshakdan ag'darildi, ammo darrov turdi; bo'yniga musht tushdi – munkib ketdi.

Churrr...

– Mirshab!

Qayerdandir Usta kulolning kampiri paydo bo'lib, ofitserning oyog'iga yiqildi. Ikki mirshab Usta kulol bilan Hamroqulni bog'dan olib chiqdi va butxonaning narigi tomonidagi mirshabxonaga tomon olib ketdi. Kampir dodlaganicha ergashib bordi.

Olomon to'plandi.

– Yigʻlama! – dedi Usta kulol mirshabxonaning eshigi oldida kampiriga qarab: – Men bir turmadan ikkinchi turmaga oʻtayotibman, nega yigʻlaysan!

Mirshabxona eshigi ochilib ikki oshnani yutdi. Butxona qoʻngʻirogʻi kechki ibodatga chaqirib, ogʻir va uzun darangladi. Bu – tovush hali kun botmasdan mudrab yotgan shahar ustida toʻlqinlanib uzoqlarga ketdi. Toʻplangan xaloyiq nima gap boʻlganini bir haftadan keyin «Turkiston oʻlkasi» gazetasini oʻqib bildi:

«...Oʻtgan 23 sentyabrda mazkur shaharda rusiya dahasidagi Romanovskiy bogʻida ham shu qabila beadablik sodir boʻlgan. Chunonchi, sartiylardan biri oʻzlariga sohiblik qilib turgan rusiya toʻralarining istirohatgohlariga kirgan, yaʼni nihoyatda beadablik qilgan...»

1935

NURLI CHO'QQILAR

*Goho yer mehrini o'ylarkan,
Esga tushar dorning siyog'i;
Ajab hikmat: odam o'larkan
Uzilganda... yerdan oyog'i.*

Abdulla Oripov

To'qqizinchi sinf a'lochilaridan, temir-tersakni hammadan ko'p yig'ib, oti radiodan aytilgan va maktab ma'muriyatidan rahmatlar eshitgan Zuhraxon degan qiz yo'qolib qoldi.

O'sha kasofat shanba kuni maktabdan qaytishda Zuhra kitob-daftarlarini opasi Fotimaga berib, lola tergani qirga chiqqan ekan, qaytib kelmabdi. Uning ota-onasi avvaliga qarg'ab, keyin yig'lab butun lolazorni, butun qishloqni taka-taka qildi. Maktab ma'muriyati bulardan ham ko'proq jon kuydirdi – jamoa ijroqo'miga aytib butun qishloqni oyoqqa turg'izdi, tumanga ma'lum qildi, chunki sinfda a'lochi qiz to'rtta bo'lsa – Zuhra uning yigirma besh foizini tashkil qilar edi.

Chol-kampir boshqa xunuk xayollarga bormaslik uchun bir-birini ovutdi: Zuhra qoqvosh, ta'bi nozik, dimog'dor qiz bo'lib, maktabdoshlariga qo'shilmas edi, shahardan lola tergani chiqqan qizlardan biron-tasi ta'biga yoqib, o'sha bilan o'ynab ketgan bo'lsa ajab emas. («Biron yigit bilan qochib ketmadimikan», degani til bormas edi.) Ko'ngliga yo'l berish mumkin bo'lgan va birdan-bir xayriyatli gumon shu bo'lib qoldi. Haqiqatan, shanba va yakshanba kunlari shaharlik yoshlar bitta danak topsa shu lolazorga kelib chaqib yer edi. Bularning ichida chiroyligi bor, sho'xi

bor, boyvachcha tabiati bor, bevoshi bor... Buning ustiga Zuhra nihoyatda ko'zga yaqin, bir qaragan kishi, ko'zi xira tortib, yana qaragisi kelar, xususan, xonatlas ko'ylak kiyib sochini «laylak uya» qilganida maqtoviga «chiroyli» degan so'z goh kamlik, goh eskilik qilib qolar edi.

Zuhra o'ziga munosib, ya'ni yaxshi o'qiydigan suxsurdakkina biron yigit bilan ketgan, degan umidda chol bilan kampir biroz taskin topgan bo'ldi-yu, lekin Fotima baloga qoldi: «Zuhra lola tergani boraman, desa, bitta o'zini yuboraverdingmi? Birga borsang oyog'ingga kuydirgi chiqarmidi, muncha noshud-notavon, muncha ham anqov-lakalov bo'lmasang!..»

Kampir bunaqa gaplarni alam ustidagina emas, umuman, kuyib aytar, chunki sho'x va shaddod Zuhraga qaraganda Fotima bo'shtobroq, sho'xlik husnning pardozi bo'lsa kerak, ikkovi bir olmaning ikki pallasini bo'lsa ham, Zuhraning oldida uning istarasi so'nikroq ko'rinar edi.

Oradan o'n kun o'tgach, Fotima maktabdan yig'lab keldi: Zuhra tufayli sinfda davomat ancha pasaygani uchun uni sinf daftaridan o'chirmoqchi bo'lishibdi. Bu gap chol-kampir uchun Zuhraning o'limi xabari bilan barobar bo'ldi. Fotima yana zixnovga qoldi:

– Sen palpisi-pandavaqi bo'lmasang, boshimizga shunday kunlar tushmas edi! Zuhra sendan kichik, lolazorga boraman deganida yo'lini to'ssang, unamasa, sochidan sudrab olib kelsang bo'lmasmidi! Ahvoling shu bo'lsa holingga voy, er olmaydi, boshingga yostiqlik o'lasan!..

Fotima bunaqa ta'na-dashnomlarni ko'p eshitdi, nihoyat, jon-jonidan o'tib ketdi-yu, yig'lab dedi:

– Ayajon, hamma aybni menga to'nkayvermang, axir Zuhraga mening so'zim emas, o'zingizning so'zingiz ham o'tmas edi-ku! Hu ana unda, ozib-yozib bir ish buyurib, «Qizim, to'rttagina piyoz archib

ber» deganingizda teskari qarab, «Men senga malay emasman» degani esingizdan chiqdimi! Shunda ham indamadingiz. Men esimni taniganimdan beri sizga qarashaman, ro'zg'or ishini butkul qo'linga olsam-u sizni yetti qavat ko'rpachaga o'tqazib qo'ysam, deymen! Nahot, ota-onaning izzatini, xizmatini qilgan kishi malay bo'lsa! Hamma ayb o'zingizda, yaxshi o'qisin, deb Zuhrani juda erkalatib yuborgan edingiz! Qizimning qo'li qavaradi, deb o'smasini ham o'zingiz siqib berar edingiz!

Kampir Fotimaning so'zlariga qarshi lom-mim deyolmay qoldi: haqiqatan, o'zi vaqtida o'qiyolmay qolib, hayotida nima kamlik, qanday qiyinchilik tortgan bo'lsa hammasini ilmsizlikdan ko'rgan, zehni o'tkir Zuhraning ilmga tezroq to'lishini ko'zlab, uning maktabdagi qilday yutug'i oldida uydagi filday gunohini payqamagan edi. Shundan keyin Fotima zixnovdan qutuldi, lekin kampirning g'amiga g'am qo'shildi, Zuhradan xat kelguncha yaqin bir oy bo'yi o'zini o'zi yeb, mushtdakkina bo'lib qoldi.

Zuhra bosh-keti yo'q to'mtoq xatida shundoq debdi:

«Turmush o'rtog'im bilan ko'nglimizning amrini bajarib, baxtiyor oilalar safidan mustahkam o'rin egalladik va baxtli turmush quchog'ida oqib, kelajakning nurli cho'qqilari tomon bormoqdamiz. Sizlar feodalizmning uqubatli quchog'ida yashagansizlar, yuksak ideallarga asoslangan muhabbat nima ekanini bilmaysizlar, shuning uchun mendan xafa bo'lmanglar, xursand bo'ladingan kunlaring yaqinlashib kelmoqda».

Fotima xatning boshiga «aziz dadajonim, mehribon onajonim», oxiriga – «sizlarga sihat-salomatlik tilayman» degan so'zlarni qo'shib o'qidi. Xatda na manzil bor, na imzo, konvertga shahar o'n birinchi aloqa bo'limining muhri bosilgan edi.

Xatning «baxtli turmush, nurli cho‘qqi» degan joylari kampirga tasalli berdi. Lekin chol xatni Foti-
maning qo‘lidan yulqib oldi, qo‘yniga tiqdi-yu to‘ni-
ni yelkasiga tashlab shaharga jo‘nadi va shu ket-
ganicha bir hafta deganda keldi: Zuhrani qidirib o‘n
birinchi aloqa bo‘limiga qarashli hamma xonadonga
bir-bir bosh tiqibdi: maktab, idora, korxonalardan
so‘roqlabdi: nihoyat, shahar militsiya boshqarmasi-
ga uchrabdi. Militsiya to‘rt kundan keyin: «Shaharga
bunaqa ayol yozilgan emas», deb javob beribdi.

Kuzga yaqin tumanda katta majlis bo‘lgani, maj-
lisda Zuhra va uning maktabi og‘izga tushgani, xu-
nuk-xunuk gaplar aytilgani to‘g‘risida mish-mish
tarqaldi. Bu mish-mishlar ramaqdajon bo‘lib yurgan
kampirni yiqitdi. Kampir uzoq yotib qoldi.

Qish o‘tdi. Bahor keldi. Zuhraning na tirigidan da-
rak bor edi, na o‘ligidan. Chol ba‘zan, juda kuyib ket-
gan vaqtlarida boshiga mushtlab: «Juvonmargga aza
och, aza ocha qol», deb yig‘lardi.

Fotima maktabni bitirdi. Uning niyati yana o‘qish
edi, biroq chol-kampir: «O‘qish shu bo‘lsa – bas, mak-
tablarga o‘t tushsin», deb turib oldi. Bundan tashqa-
ri, Zuhra bunaqa bo‘lganini, onasi ne ahvolda yot-
ganini ko‘rib Fotima bu niyatidan qaytdi, ish so‘rab
raisning oldiga bordi. Rais Fotima haqida onasining
«noshud-notavon» qabilidagi so‘zlarini eshitgan ekan,
uning aftiga ham qaramasdan, ferma mudiri ixtiyori-
ga yubordi va ketidan mudirga telefon qilib: «Ish-pish
topib ber», dedi.

Fotima fermada «ish-pish» qilib yurgan edi, bir kuni
gapdan gap chiqdi-yu, Fotima sigir degan jonivorning
befarosatligidan nolib: «Men rais bo‘lsam, sigir boqib
o‘tirmas edim, olimlar bilan birgalashib, yem-xashak-
ning o‘zidan sut oladigan mashina chiqarar edim»,
dedi. Sog‘uvchilar xo‘p kulishdi. Bu gap raisning
ham qulog‘iga yetgan ekan, fermaga kelganida Fo-

timaning yelkasiga qoqib: «Durust, durust, kallada xom xayol bo'lsa ham bo'lgani, kalla bo'sh turmagani yaxshi», dedi va oradan ko'p o'tmay uni sog'uvchilikka o'tkazdi. Bu kunlarda ferma sigirlarni mashinada sog'ishga o'tgan bo'lib, sigirlar hali o'rganmagan, ko'pi mashinaning ichagini ko'rsa yuragi yorilib boshini sarak-sarak qilar, pishqirar, sog'uvchini suzish payida bo'lar edi. Fotima pastdan yuqori bo'lganiga suyunib, mashinaga qiziqib, bu ishga shavq bilan kirishib ketdi.

Kampir o'sha yotganicha qovun pishig'ida biroz o'ngarilib o'rnidan turdi, lekin ko'p o'tmay yana yotib qoldi, shu yotganicha bo'lak turmadi – vafot qildi. Zuhra azaning to'qqizinchi kuni kirib keldi. Chol uni ko'rib qarg'ashga og'iz ochdi-yu, lekin qarg'ayolmadi, «Bo'yni uzilmasin, bolam» deb ho'ngrab yubordi. Zuhra kattakon qizil ro'mol o'rab olgan, katak ro'molchasini lunjiga bosib soldatchasiga g'oz turar, aftidan, onasining xotirasini o'zicha hurmatlar edi. Uning kelganini eshitib qo'ni-qo'shni ko'ngil so'ragani chiqishdi. Zuhra xotinlarga orqasini o'girib turaverdi. Fotima, bechoraning yuzi shuvut, deb o'yladi-da, uni sekin turtib:

– Bunaqa vaqtda hech kim o'tgan gapni eslamaydi. Uyalma, bularga bir nima degin... – dedi.

Zuhra yuzi shuvut emas, xotinlarning ko'ngil so'rashini ham, bunga javoban «ko'nglimni ko'targanlaring uchun rahmat» degan ma'nodagi gapni ham eskilik deb bilgani uchun shunaqa qilib turgan ekan, Fotimaga yalt etib qaradi:

– Nimadan uyalaman, erkin muhabbat masalasini Navoiy, Tolstoylar ko'targan! – dedi-yu, burilib uyga kirib ketdi. Fotima odamlardan xijolat bo'lib, uni kasalga chiqardi.

Fotima odamlarni kutdi, kuzatdi, ayvonda allamahalgacha otasi bilan gaplashib o'tirdi, keyin unga joy solib berdi-da, yotgani uyga kirdi. Zuhra ha-

nuz uxlamagan ekan, yig'layverib shishib ketibdi. Buni ko'rib Fotimaning gina-kudurati yozildi, uning qilmishi, yozgan to'mtoq xati, boyagi gapi xususida ko'ngliga tugib qo'ygan o'pka-ta'na so'zlarini aytma-di, aksincha, uni yupatdi, turmushini so'radi. Zuhra bundan o'n bir oy muqaddam qornida besh oylik bo-lasi bilan eridan chiqqan ekan.

– Ota-onasi feodal, feodalizmning uyasi, meni cho'ri, uy cho'risi qilmoqchi bo'lishdi! O'zing bilasan, uy-ro'zg'or ishiga uquvim yo'q, qozon-tovoqni jinim-dan battar yomon ko'raman. Shuning uchun ayam meni faqat o'qitganlar, men ham yaxshi o'qiganman. Yo'q, bularga men oqsoch bo'lishim kerak ekan! Xiz-matchi olgani qo'yishmadi, «Moskvich»imizni sottirib yuborishdi. Bundan tashqari: «Yengsiz ko'ylak kiy-ma! Birovning oldida kerishma! Qahvaxonaga bun-cha ko'p borasizlar!..» Bezor bo'ldim! Chiqdim-ket-dim!.. Lekin erim meni yaxshi ko'rardi: qo'lida ko'tarib yurardi, ko'chaga chiqsa, albatta, bir nima olib kelardi... Bechora uch-to'rt oy xo'p qatnadi, ya-lindi. «O'sha ota-onang bor ekan, uyingni yelkamning chuquri ko'rsin», dedim. Uch marta onasi, bir marta otasi keldi, ikkovini ham qabul qilmadim!

«Qabul qilmadim» degan gapni Fotima hazm qilolma-di, katta boshini kichik qilib kelgan va eshikdan qayt-gan mo'ysafidlarni ko'z oldiga keltirib yig'laguday bo'ldi.

– Ering ota-onasidan kechsinmi? – dedi.

– Kechmasa ham... yoshlar yashashi kerak!

– Bularni to'rqovoqqa solib shipga osib qo'yish kerakmi? Shu talabni ering qo'ysa, sen nima der eding?

Zuhra «bunaqa gaplarni sen tushunmaysan» de-gan ma'noda boshqa gapga o'tdi:

– Maktabni durustroq bitirdingmi? Sening toleying-ga ayam bunaqa bo'lib qoldilar... Yanagi yilga qaysi institutga kirasan?

Fotima hayron bo'lib so'radi:

– Dadamni yolg'iz tashlab qayoqqa boraman?

– To'g'ri, lekin, dadam dunyodan o'tib borayotipti, sen dunyoga endi qadam qo'yayotibsan!

Fotima esnab:

– Ishga kirdim, fermada sigir sog'ayotibman... – dedi.

Zuhra birdan boshini ko'tardi.

– Nima? O'n yil o'qib sigir bilan tappidan boshqa narsaga aqling yetmadimi?

Zuhra arazlab orqasini o'girdi, lekin Fotima bu ishga vaqtincha, noilojlikdan kirganini, o'qish to'g'risidagi rejalarini aytar, deb xo'p kutdi, biroq Fotima xayal o'tmay mushukchaday mayin xurрак otdi.

Fotima tong yorishganda uyg'ondi. Zuhra undan oldinroq turib, ketib qolibdi – kim biladi, ertalab yana odam yig'iladi, dedimi, yo «erimdan chiqqanimni Fotima aytib qo'yadi» degan o'yda otasiga ro'para bo'lgani yuzi chidamadimi...

Zuhraning iziga tushib bo'lmadi. Fotima uning erdan chiqqanini dadasiga aytmay qo'ya qoldi, yarashib ketar, deb o'yladi.

Oylar o'tdi.

Bu orada Fotima ishga sho'ng'ib ketdi. Ma'lum bo'lishicha, sigir degani yem-xashak, sut-u tappidan, sog'uvchilik ishi yelin tortish-u sut chiqarishdangina iborat emas, sigir degan maxluq shuncha befarosatligi bilan sog'uvchining mehrini, mehnatini, bilimini sezar, shunga qarab sut berar ekan. Fotima shuni bilganidan keyin ishda kun sayin ochila bordi, shundoq bo'ldiki, rais hisobot-saylov majlisida «kesakdan o't chiqqani»ga xursandlik izhor qilib, bir qancha qiziq gaplar gapirganidan keyin uni ilg'or sog'uvchilar qatoriga qo'shdi. Yaxshi sog'uvchi bo'lgani, rais qo'shig'iga qo'shgani uchun Fotima kolxozda otning qashqasi bo'lib qoldi. Faqat sho'xlik-shaddodlik emas,

shuhrat ham husnning pardozi ekan shekilli, Fotima birdan ochilib ketdi: ana qora yolqin tashlaguvchi ko'zlar-u, ana tutab turgan payvasta qoshlar-u, yoshlarning ishtahasini ochadigan kuldargichlar-u... Zuhra xonadonga dog' solib ketganidan keyin ko'p odam: «Endi Fotima qariqiz bo'lib o'tirib qoladi», deb taxmin qilgan edi, yo'q, xaridor ustiga xaridor chiqaverdi: raisning qaynisi, kolxozning montyori, buxgalterning o'g'li, ximizator, apteka mudiri... Fotima yaqinda o'qishni bitirib, fermaga hayvonot doktori bo'lib kelgan Samijon degan yigitga mayl berdi.

Samijon ko'p mulohazali yigit ekan, to'y cholga ham tatisin, degan maqsadda Zuhrani xo'p qidirdi, olti hafta qidirib, oxiri daragini topdi. Uning bir o'rtog'i Zuhrani shahar kutubxonasining zalida ko'ribdi. Zuhra zalda o'tirgan bo'lsa, demak, kutubxonaga a'zo, a'zo bo'lsa o'sha yerda manzili bo'lishi kerak.

Ikkovi shaharga borib, haqiqatan, kutubxonadan Zuhraning manzilini topdi. Zuhra markaziy hammom qoshidagi sartaroshxonada kassir bo'lib ishlar ekan. Samijon eshikda qolib, sartaroshxonaga Fotima kirdi va ko'k yog'och panjara ichida o'tirgan Zuhrani ko'rib yuragi shig' etib ketdi: ozib cho'p bo'lib ketibdi, bukchayibdi, shunday sochdan chilvirdakkina ikkita kokil qolibdi...

Zuhra Fotimaga ko'zi tushib, xuddi yalang'och o'tirganida ustiga birov kirib qolganday shoshib, sariq ro'molini yelka aralash boshiga tashladi, beixtiyor panjaradan chiqib keldi.

– Nega, nega kelding?.. Men bu yerda vaqtincha ishlab turibman...

– Yaxshimisan... Ering yaxshimi, – dedi Fotima «yarashdingmi» deyolmay.

– Ketib qolgan, allaqachonlar ketib qolgan. Lenigradda, o'qishda...

– Bolang katta bo'lib qoldimi?..

– Venera bog'chada, – dedi Zuhra va bundan ortiq gap so'rashini istamadi shekilli, o'zi savol berdi: – Erga tegayotgan emishsan deb eshitdim, kim o'zi?

Fotima to'y uning qishloqqa borishiga qarab qolganini aytishga shoshilib:

– O'zimizning qishloqdan, fermada hayvonot doktori, – dedi.

Zuhra labini burdi.

– Sigir doktori degin! Tappi tappidan yiroq tushmas ekan-da!

Fotimaning dami ichiga tushib ketdi. Shu asno-da Samijon kirib keldi. Fotima ikkovini tanishtirishini ham bilmay qoldi, tanishtirmasligini ham, lekin uning Zuhraga tomon iljayib borayotganini ko'rib «Samijon!» deyishga majbur bo'ldi. Zuhra kuyov shu ekanini bilib, unga ko'z qirini tashladi, hindchasiga kaftlarini juftlab ta'zim qilib qo'ya qoldi. Samijon o'sal bo'lib to'xtadi, so'rashgani uzatmoqchi bo'lgan qo'lini ko'ksiga qo'ygancha orqaga tisarildi. Shu on bir mijoz kassaga pul to'lagani keldi-da, Zuhra chopib borar ekan, Fotimaga qarab: «Bir aylanib kelinglar, keyin uyga boramiz», dedi. Samijon ta'zim qilib chiqib ketdi. Fotima Samijonning oldida Zuhraning qilmishidan uyaldi, uni uzib-uzib olmoqchi bo'lib panjaraning oldiga bordi, lekin uning mijoziga qilgan muomalasidan yuragi tor, jizzaki bo'lib qolganini fahmlab, shashtidan qaytdi.

– Zuhra, jigarim, – dedi hazil yo'sinida, – onang hindi emas edi-ku, kuyov bilan o'zimizcha qo'l berib so'rashsang nima qilardi? «Bir aylanib kelinglar» deganing nimasi, uyingga olib boradigan bo'lsang, manzilingni ayt, kalitingni ber, biz borib turaylik!

Zuhra qip-qizarib ketdi, cho'ntagidan kalit olib, ikki barmog'i bilan Fotimaga uzatdi, manzilini aytdi.

Fotima Zuhraning qilmishi haqida uzr so'rab, Samijonga uning hali odam ko'rmaganini, odob-ax-

loq o'rganmaganini, shu tufayli bo'lsa kerak, uyi buzilganini aytib berdi.

Zuhra parkdan nari to'rt qavatli imoratning zinasi ostidagi uyda turar ekan. Fotima sirtqi eshikni ochib yo'lakka kirdi, ikki tomonda ochiq turgan eshiklardan uy bilan oshxonaning ahvolini ko'rib Samijondan nomuslarga o'ldi.

– Voy, kim aytadi shu uyda xotin kishi, yoshgina juvon turadi deb!

Samijon uni xijolatdan chiqarishga shoshildi:

– Ziyoni yo'q, ayni muddao! Zuhraxon yosh, yolg'iz, oyog'i toyilmadimikan deb qo'rqqan edim, yo'q, xayriyat... bu uyga erkak zoti emas, odam bolasi oyoq bosmaganga o'xshaydi. Bechoraning dugonasi ham bo'lmasa kerak.

Ikkovi uy bilan oshxonani yig'ishtirdi, tozaladi.

Ishdan keyin Zuhra sariq qog'oz xaltachada bir nima ko'tarib keldi, oshxonaga kirib ketdi-yu, ko'p o'tmay uyga tovoqda ovqat ko'tarib kirdi. Ovqat aslida chuchvara bo'lib, qaynatishda sovuq suvga solingan bo'lsa kerak, xamiri bilan qiymasi qorishib yotar edi. Zuhra magazindan olingan tayyor chuchvarani qaynatishni ham bilmaganidan zarracha xijolat emas, aksincha, qozon-tovoqqa yo'qligini shu bilan yana bir marta pisanda qilganidan mamnun ko'rinar edi. Fotima tegishdi:

– Ilgari ayamga malay, qaynanangga cho'ri bo'lib qolishdan qo'rqib, qozon-tovoqqa qo'l urmasding, endi nimadan qo'rqasan, hech bo'lmasa o'zing uchun o'rgansang bo'lmaydimi?

Zuhra kuldi.

– Shu bilganim o'zimga yetadi, chuchvaradan maqsad, go'sht bilan xamir yeyish bo'lsa ikkovi ham turibdi, qo'shib yeyaveraman!

– Axir bir kuni ering kelar, yarasharsizlar...

Zuhra yarashishdan umidi bo'lmasa kerak:

– Men ozodligimni hech qanaqa erga alishmayman! – dedi.

– Yolg'izlikning o'zi bir tutqunlik emasmi? – dedi Samijon kulib.

Zuhra eri to'g'risida qizishib gapira ketdi, bu gaplarning tagida faqat: «Mening qadringa yetmadi, menday xotinning qadriga yetmadi» degan bir alam yotar edi. Bu alam, aftidan, uni kemirib, so'rib, darmonini quritibdi va «dunyo shu o'zi, hayotda hech kim o'z qadrini topolmaydi», degan ko'ygga solib qo'yibdi. Endi ma'lum bo'lishicha, Zuhraning uy tutishi, kiyim-boshi, o'ziga qaramay qo'rganligi shuning oqibati, hozirgi har bir gapi, harakati shuni ta'kidlar, hatto dasturxonni yig'ishtirganida, bo'sh tovoqni olib chiqib ketayotganidagi raftori, aft-angori, butun vujudi: «E, olam eli, mana, ko'rdingizmi, men nechog'lik xorlik, zorlik tortayotibman!» deb turganga o'xshar edi.

Choy mahalida hech kimdan sado chiqmadi. Samijon gap ochishning mavridi keldi, degan ma'noda Fotima bilan ko'z urishtirib olganidan keyin:

– Kuyov bilan bunaqa arazlashib qolgan bo'lsalar, yakka o'zingiz shahri azimda nima qilasiz, qishloqqa keta qolaylik, – dedi.

Zuhra anchadan keyin javob berdi:

– Shahardan qishloqqa... bir qadam orqaga qaytish bo'lmasmikan?

Fotimaning achchig'i keldi.

– Orqaga qaytish bo'lsa nima, nurli cho'qqidan tushib qolasanmi?

Zuhra bir vaqtlar ota-onasiga yozgan xatida: «Kelajakning nurli cho'qqilari tomon bormoqdamiz», degani esida bor ekan, rangi bo'zarib ketdi.

– Ta'na qilma! – dedi labi pirpirab. – Men nurli cho'qqiga yetolmagan bo'lsam... sigir minib sen yetib borasan!..

Bu gap Samijonga ham tegib ketdi.

– Odam intiladigan cho‘qqi tog‘ cho‘qqisi singari bulutlar orasida emas, yerda bo‘ladi, – dedi Samijon.

Fotima uning javobiga qanoat qilmadi:

– Ayam mendan rozi bo‘lib ko‘z yumdilar, dadam ming marta rozilar; dugonalarim, qavm-qarindosh, butun kolxoz mendan rozi, mening uchun bundan balandroq cho‘qqi bormi! Sendan kim rozi? Hatto suyub olgan ering ham rozi bo‘lmabdi-ku! Sen qanaqa cho‘qqiga intilgan eding?

Zuhra pushti ro‘molchasini lunjiga bosganicha kursiga qapishib ketdi. Uning ahvolini ko‘rib Fotima shu gapni gapirganidan pushaymon bo‘ldi. Zuhra-ning ko‘zlari yumuq, qalin kipriklari orasidan yosh sizar edi. Zuhra turib-turib birdan Fotimaga o‘zini otdi, uni qattiq quchoqladi, ichidan xuruj qilib kelayotgan faryodni yutish uchun yuzini uning qorniga ishqab to‘lg‘andi, ingradi, so‘ng o‘zini yerga otdi-yu, boshini karavotning poyasiga bir necha marta urdi. Samijon uni ko‘tarib karavotga yotqizdi. Fotima nima qilishni bilmas, qo‘rqib nuqul: «Mengina o‘lay» der, uning boshini silar edi...

Bugun shanba kuni Zuhra qizini yaslidan olishi kerak ekan, vaqtida bormagani uchun qorong‘i tushganda murabbiyasi Venerani olib keldi. Zuhra bularning tovushini eshitib ko‘zini ochdi. Murabbiya Zuhra-ning kasalligini ko‘rib hol-ahvol so‘radi, keyin Venerani unga tomon yo‘lladi. Venera uning etagidan mahkam ushlab turaverdi. Fotima darrov sezdi: Zuhra yuragi torlik qilgan paytlarda qiz bechorani ko‘p urishib, ehtimol urib o‘zidan bezdirib qo‘yibdi. Buni Samijon ham payqadi. Haqiqatan, Fotima «kel» deb qo‘l cho‘zgan edi, qiz biroz begonasirasa ham yugurib bordi va uning quchog‘iga o‘rnashib, onasiga xo‘mrayib qaradi.

Mehmonlar to‘rt kun turib qolishdi. Fotima Zuhra bilan, Samijon mehmonxonada yotib yurdi. Venerani yasliga eltishmadi, Samijon o‘ynatib, javratib yurdi.

Beshinchi kuni Zuhra butkul tuzalib, ishga chiqadigan bo'lgandan keyin mehmonlar ketadigan bo'lishdi. Zuhrani qishloqqa, hatto to'yga taklif qilish ham noqulay bo'lib qoldi. Bular uchun cholg'a: «Zuhra eson-omon yuribdi, qizi katta bo'lib qolibdi», degan xabarni eltish ham katta gap edi.

Zuhra ularni avtobus stantsiyasiga kuzatib chiqdi. Avtobus tayyor ekan. Fotima Venerani ko'tarib olgan, avtobusga chiqqani uni Zuhraga uzatgan edi, Venera «dod» deb Fotimaga chirmashib oldi, unga ham ishonmay Samijonga intildi. Zuhra xijolat bo'ldi. Shu choq avtobus yo'lovchilarni qistab ustma-ust guduk berdi. Fotima yopilayotgan eshikdan avtobusga chiqib, bolani derazadan Zuhraga uzatmoqchi bo'ldi. Venera yana chirillab, Fotimaning sochini changalab oldi. Avtobus ketidan tutun chiqarib yurib ketdi.

Samijon derazadan boshini chiqarib qichqirdi:

– Zuhraxon, o'zingiz borib olib keling! Shu hafta ichi boring, kutamiz!

Zuhra ko'zi jiqqa yoshga to'lib, qo'lidagi katak ro'molchasini siltadi: shunday yaxshi qizi borligini, uni ko'p urishib o'zidan bunchalik bezdirib qo'yганиni endi payqadi; bilagiga tashlab olgan jeletkasi oyog'i ostiga tushganidan bexabar, avtobusning ketidan bir-ikki qadam bosdi...

MAHALLA

*Inson bilan tirikdir inson,
Muhabbatdan hayotning boshi.
Odamzotga baxsh etadi jon,
Odamlarning mehr quyoshi.*

Erkin Vohidov

Rohat buvi kattakon qora pechkaning eshigini ochib oyog'ini toblayotgan edi, deraza ostida ko'zoynak taqib nevarasining yirtilgan kitobini yelimlayotgan choli urishib berdi:

– Seni pechkaga o'rgatib bo'lmadi-bo'lmadi... Nima, polni o'yib, sandal qilib beraymi? Pechka deganning eshigini ochdingmi, ko'mir osmonni isitadi deyaver!..

Rohat buvi pechkaning eshigini yopdi, borib divanga cho'zildi. Uy sovuq bo'lmasa ham, bir necha kundan beri uning eti uchar, oyog'i sovqotar, og'rir edi.

Kampir shu yotganicha ertasiga ham turgisi kelmasdi, indiniga turolmadi, uchinchi kuni yuragi birpas qattiq urib turdi-yu, birdan bo'shashib, o'ldi-qoldi.

Hikmat buva nima bo'lganini bilolmay, ko'zi bilan ko'rib turganini aqliga sig'dirolmay, garang bir ahvolda turib qoldi; o'g'li, kelini, uch nevarasi kirib yig'i boshlagandagina o'ziga kelib, titroqli nafas bilan shivirladi: «E, Xudo, nima qilib qo'yding, bisotingda menga atagan yana qanaqa kulfatlaring bor, to'k, boshimga hammasini birdan to'ka qoll!»

Ellik uch yil! Ellik uch yildan beri bir dasturxondan tuz tatigan, bir ko'rpani bosgan, birga kulgan, birga yig'lagan; ellik uch yildan beri mushukchaday bir-biriga suykanib, bir-birini yalab, og'ritmay tishlab, yiqitib, yiqilib berib, piypalashib o'ynagan; ellik uch yildan beri mehr atalmish ulkan tuyg'u rishta-

sini pilla qurtiday bir maromda asta-sekin chuvib, bir-birining qalbini o'rab-chulg'ab kelgan...

Hamma rasm-rusum joyiga yetkazilgandan keyin odamlar tobutni ko'targanda shu rishta birdan tortildi-yu, go'yo Hikmat buvaning yurak-bag'ini sug'urib oldi. Chol o'kirib yubordi.

Kampirni birpasda yerga topshirib qaytishdi. Ko'ngil so'ragani yana butun mahalla kirdi. Hikmat buva kasal musichaday bir chekkada qunishib o'tirar, aftidan, endi uning uchun olamda hech kim, hech narsa qolmagan edi.

Shundoq Hikmat buva hafta o'tar-o'tmas bir hovuch suyak bo'ldi-qoldi. Chol cho'zilib yotganda uning o'likmi-tirikmi ekanini bilish qiyin, lekin kampiri oyog'ini pechkaning o'tiga toblayotganda urishib bergani esiga tushsa arslonday o'kirar, o'zini u yoqdan-bu yoqqa otar edi.

Uyda uni yolg'iz qo'ymaslikka harakat qilishar edi. Kichkina nevarasi hamma o'yinchoqlarini uning uyiga kirgizib qo'ydi, bog'chadan kelganidan keyin shu yerga kirib o'ynaydigan bo'ldi. Katta nevarasi har kuni uni necha marta xilma-xil qilib suratga ola berdi. O'g'li uni avtomobilga solib bir necha marta shaharni aylantirdi. Chol xursand bo'lish o'rniga: «Onang borida shu ishni qilmading», deb do'ng'illadi. Kelini unga magnitofon keltirib berdi. Chol magnitofon bilan birpas ovundi-yu, keyin ko'ziga yosh olib: «Qizim, shu narsani ilgariroq topib kelganingda kampirni gapirtirib yozib olar ekanman», dedi...

Bir kuni qattiq yomg'ir yog'ib, qishdan qolgan qorni eritib yubordi. Ayvonda ustunga suyanib yomg'ir suvining vaqirlashini tomosha qilib turgan cholning ko'zi tandirdan narida yotgan bir poy eski kalishga tushib qoldi. Kampir bir oyog'i og'rib shishganda shu kalishning jag'ini kesib kiygan edi. Chol borib kalishni oldi, avaylab arttdi, uyga olib kirdi. Chol uchun

kampir go'yo qaytadan o'ldi. U kechgacha yig'ladi, kechqurun o'g'li bilan kelini ishdan kelganda «kampir bechorani shifokorga durustroq ko'rsatmadilaring», deb xarxasha qildi.

Hikmat buva kechalari uxlamas, dori ichib uxlasa ham yarim kechasi uyg'onib, tong otguncha o'tirib chiqar, uydagi hamma narsa unga kampirini, yolg'iz qolganini eslatar, har bir tovush o'lim bo'lib uning miya qopqog'ini chertar edi.

Chol tugab borayotganini ko'rib o'g'li bilan kelini tashvishga tushib qolishdi.

Bir kuni ertalab chol yo'qolib qoldi. Qidirilmagan joy qolmadi: yor-do'st, tanish-bilish, qarindosh-urug', hatto tez yordam kasalxonasidan ham xabar olindi, militsiyaga murojaat qilindi. Hamma yoq qidirilip-ti-yu, qabristondan xabar olinmapti, chol qabristonda ekan. Hikmat buva qabristonga tez-tez borib, kampirning boshida bir soat-yarim soat o'tirib kelar, lekin bunaqa qolib ketadigan odati yo'q edi. Chol bu safar borganida kampirning qabrini ziyorat qilish u yoqda qolib, uning yonidan o'ziga go'r qazitdi, mudir va go'rkovlar harchand unashmasa ham qo'ymadi, janjallashdi.

Chol kun oqqanda adoyi tamom bo'lib qaytdi. Kimdir uni avtobusdan tushirib yo'lkaga chiqarib qo'ydi. Cholning zo'rg'a qadam bosib kelayotganini ko'rgan muyulishdagi cho'tkachi yugurib borib uni olib keldi va qo'lga bir piyola choy berdi.

- Xafa bo'lmay yuribsizmi, otaxon... Kampir onam alomat ayol edilar... Siz o'sha kuni o'zingiz bilan o'zingiz ovora bo'lib ta'ziyaga kelgan odamlarni payqamadingiz... Ana odam... Mahallaga sig'may ketdi! Mahallamizning ko'chasi bir metr cho'kdi!.. Kampir onam dunyoga kelib odam ekkan ekanlar. Dunyoga kelgan odam avvalboshi odam ekishi kerak ekan. Men ibrat oldim...

Issiq choymi yo cho'tkachining gaplarimi cholga ancha mador bo'ldi.

– Ha, – dedi chol biroz g'urur bilan, – haligacha odam keladi... Ishxonasi ham shuncha yildan beri esidan chiqarmagan ekan.

Cholning paydo bo'lganidan xabar topgan uy ichi, qo'ni-qo'shni chuvillashib kelib uni o'rtaga olishdi. Birov dashnom bergan, birov bo'g'ilgan, birov suyungan...

Bular cholni o'rtaga olib chuvillashib ketayotganda yo'l bo'yida turgan shu mahallalik shifokor voqeani eshitib choldan o'pkalagan bo'ldi, keyin unga razm soldi-yu, kampirdan gap ochdi:

– Onaxonimiz ta'rifga sig'maydigan ayol edilar, shuncha odam bekorga kelgani yo'q! Lekin, otaxon, mahallamizga biron sakkiz chelakli bitta samovar kerak ekan, o'sha kuni juda-juda bilindi. Mahalladan pul yig'sak, xonadonga necha puldan tushadi?

Cholning hamiyati qo'zg'ab ketdi.

– O'g'lim bilan kelinimning bitta samovarga kuchi yetib qolar, – dedi.

Shifokor undan shu gapni kutgan ekanmi, jilmayib qo'ydi.

Chol go'rini qazitib qo'yib, endi bu yerga samovar olgani emas, yotib o'lgani kelgan bo'lsa ham, o'g'li bilan kelini nomidan mahallaga kattalik qilib qo'rganidan keyin bu to'g'rida o'ylashga majbur bo'ldi – o'g'lidan pul oldi, samovar qidirishga kirishdi. Biroq o'shanaqa samovarni topishdan ko'ra kondan mis qazib, samovar yasash osonroq ekan: cholning bormagan magazini, yalinmagan magazin mudiri qolmadi. O'g'li bilan kelini uning yelib-yugurishiga, unda shuncha kuch qayoqdan paydo bo'lganiga hayron edi.

Nihoyat, mahalladagi mansabdorlar yordami bilan samovar topildi, mahalla faollari akt bilan qabul qilib oldi, umumiy majlisda rais Hikmat buvaga rahmatlar aytdi, hamma chapak chaldi.

Shu majlisda yana bir masala ko'tarildi: mahallada har kuni bo'lmasa ham, haftada ikki-uch marta to'y-ma'raka, tug'ilgan kun va boshqa marosimlar bo'lib turadi, kim marosim o'tkazadigan bo'lsa uyma-uy yurib idish-tovoq, dasturxon va boshqa narsalar tilaydi, faollar mahalladan pul yig'ib biron yuz ellik kishilik mahalla ro'zg'ori tashkil qilsa bo'lmaydimi?

Bu taklifni hamma olqishladi, buning mutasaddisi kim bo'ladi, degan savolga hamma qiy-chuv ko'tarib yana Hikmat buvani ko'rsatdi. Hikmat buva unamasdan qarshi so'z aytgani o'rnidan turgan edi, shuncha odam chapak chalib, ko'ziga qarab turganini ko'rib indayolmadi.

Mahalla necha xonadon? Bularning hammasi cholni ovora qilmay pulni keltirib bera qolsa ekan! Bu xonadonlardan ko'piga kirish kerak, koshki bir kirganda pulni bera qolsa ekan: biri ertaga keling deydi, biri falonchi muncha berganda men nega shuncha berar ekanman, deb xarxasha qiladi, biri majlisda angrayib o'tirib gapga yaxshi tushunmagan, unga tushuntirish kerak bo'ladi...

Chol har kuni ertalabdan xonadondan xonadonga, bor pulga bir nima olib qolish uchun magazindan magazinga, arz-dod qilgani idoradan idoraga yugurar, shu orada fursat topib ba'zan kampirining mozo-riga ham borib kelar edi.

Chol, nihoyat, mahalla ro'zg'orini to'la-to'kis qilib, maktab omboriga qamab oldi. Biroq ro'zg'orni but qilishdan ham ko'ra uni asrash qiyinroq bo'ldi: ba'zi odamlar narsani olib vaqtida qaytarishmaydi; ba'zilar, masalan, jo'mragi uchgan choynak, papirosdan kuygan dasturxon, lattasiga allanima balo to'kilgan kursi, sanchig'i qayrilgan vilka va hokazo qaytarishadi, yana «o'zi shunaqa edi», deb janjal qilishadi. Yo'q, xayriyat, sal kunda odamlar insofga kelishdi, cholning ishi yengil bo'lib qoldi.

Bahor keldi. Shaharda daraxt o'tqazish mavsumi boshlanib ketdi. Shu munosabat bilan gazeta maqola berib, o'tgan yil bahorda qaysi mahallalar planni to'ldirmay qolganini, qaysi mahallalar bu ishda namuna ko'rsatganini aytib, ilg'or mahallalar qatoriga «Yangi Mahalla»ni ham qo'shibdi. Buni cholga nevarasi ko'rsatib kuldi, chunki o'tqazilgan daraxtlarning ko'pgina qismi tutmagan edi. Chol chiqib mahallani aylandi, daraxtlarni ko'zdan kechirdi. O'tgan yil bahorda jami bir ming yetti yuz oltmish besh tup ko'chat o'tqazilgan bo'lib, bundan faqat sakkiz yuz oltitasi tutgan, tutgan daraxtlardan yigirma ikki tupi singan, sakkiz tupi sassiq, mo'rt va umri qisqa daraxtlar ekan. Chol bu ma'lumotni olib to'g'ri tahririyatga bordi, avval tortinibroq gapirdi, gapi o'tganini payqagach, shovqin soldi. Gazeta ertagi sonida «Yangi Mahalla» haqida noto'g'ri ma'lumot bergan muxbiriga jazo berganini aytdi va muxbirni aldagan mahalla faollarining kotibiga dashnom berdi va shu bilan birga gazetaning xatosini ko'rsatgan Hikmat buva Normatovga tashakkur bildirdi.

Hikmat buva shu kuni burchakdagi cho'tkachiga mahsisini yog'latib, «mahallamiz sharmanda bo'lgani» haqida uning intihosiz javrashiga quloq solib o'tirgan edi, shu asnoda o'sha yolg'onchi kotib o'tib qoldi va cholni ko'rib o'shqirdi:

– Hu o'sha... O'zimiz to'g'rilar edik-ku, senga nima, bir oyog'ing go'rda-yu...

Chol sekin burilib qaradi.

– Mening bir oyog'im go'rda, sening ikkala oyog'ing to'rdami? Unaqa demagin, bolam, kim oldin o'lishini bilib bo'lmaydi...

Chol yana bir nima demoqchi edi, o'ziga go'r qazitib qo'yganini eslab dami ichiga tushib ketdi. Kotib jahl bilan qo'l siltab jo'nadi. Chol qo'llarini orqasiga qilib, boshini quyi solib, uyiga tomon bitta-bitta

qadam tashlab borar ekan, o'ylar edi: «Bu bola go'r qazdirib qo'yganimni eshitganmikan? Yo'q, eshitgan emas, lekin eshitishi mumkin...»

Chol jadallab uyga keldi va o'tirib xat yozdi: «Qabriston mudiri va go'rkovlariga yozib ma'lum qilaman-ki, qari baqaterak ostidagi mening nomimga qazilgan go'rni qabriston idorasiga topshiraman, azbaroyi foydalanish uchun».

Hikmat buva xatni nevarasidan berib yubordi.

TO'YDA AZA

Zo'ri behuda miyon meshikanad.

Dotsent Muxtorxon Mansurov nihoyatda istarasi issiq, nihoyatda dilkash chol, shu qadar dilkashki, uni ko'rgan kishi har faslning o'z husn-latofati bor degan gapni yil fasllari to'g'risidagina emas, umr fasllari to'g'risida ham aytsa bo'lar ekan, deb qolardi. Uning bitta-ikkita qora tuk chap berib qolgan oppoq cho'qqi soqoli... Yopirimay, soqol ham odamga shuncha yarashadimi-yal..

Cholni bunchalik istarasi issiq, dilkash qilgan, soqolidan tortib yurishigacha hamma narsasini, har bir harakatini chiroyli, yoqimli qilib ko'rsatgan, ehtimol, uning odamoxunligi ham bo'lsa. O'zi shunaqa bo'ladiku: yaxshining yuzida zuluk ham xol bo'lib ko'rinadi.

Ammo, lekin Muxtorxon domla nafsilamriga odamning joni edi. Uning xushfe'lligi, to'poriligi... mahallada katta-kichik hamma bilan salomlashar, yosh bilan yosh, qari bilan qari bo'lib gaplashar, xursand kishi bilan chaqchaqlashib, xafa bilan dardlashar edi. Bu odam mahalla hayotiga, har bir kishining diliga kirib, shu qadar singib ketgan ediki, ta'tilga yo safarga ketsa butun mahalla huvillab qolganday bo'lar edi.

Kunlardan bir kuni mahallada duv-duv gap bo'lib qoldi: «Muxtorxon domla uylanarmishlar!..»

Domla bundan uch yil burun beva qolib, unga goh singlisi, goh uzatgan qizi qarab yurar edi. Uning niyatini eshitib mahallada xursand bo'lmagan odam qolmadi.

Hech kim qarigan chog'ida juftidan qolmasin. Osonmi, kishi nima bo'lishini bilmaydi, bosh yostiqqa tegishi bor... Qari odamga mahram kerak...

Hali hech kim ko'rmagan bo'lsa ham, Muxtorxon domla yoqtirgani uchun juda aqlli, tamizli ayol chiqishi muqarrar bo'lgan kelinni hamma g'oyibona yaxshi ko'rib qoldi.

– Mahallamizning toleyi bor ekan, – deyishar edi.
– Domla otaxonimiz edilar, kelinimiz bizga onaxon bo'ladilar...

Mish-mish rost bo'lib chiqdi: domla bozor qilishni, magazinga kirishni jinidan battar yomon ko'rar edi, kimdir uni univermagda navbatda turganini ko'ribdi; ertasiga choyxona oldidan chamandagul do'ppi kiyib o'tdi.

Mahalla faollari kengashib, mahalla nomidan yaxshiroq bir to'yona qiladigan bo'lishdi. Ularning fikricha, bu narsa kuyovga ham, kelinga ham butun aholining hurmat va muhabbatini izhor qilishi kerak edi.

Shu orada domla qayoqqadir ketib bir haftadan keyin paydo bo'ldi. Uning avtobusdan tushib kelayotganini ko'rgan choyxonadagi odamlar hang-mang bo'lib qolishdi; chol o'lgur soqolini, shunday chiroyli soqolini, tag-tugi bilan qirdirib tashlabdi! Achinmagan, xafa bo'lmagan odam qolmadi.

U biron yoqqa borib qaytganida choyxonaga kirmasdan, katta-kichik bilan ko'rishib hol-ahvol so'ramasdan o'tmas edi, hozir choyxonaga yaqinlashganida ko'chaning narigi yuziga o'tib oldi-yu, yerga qarab, jadallaganicha o'tdi-ketdi. Uning o'zigagina emas, butun mahallaga fayz kirgizib turgan soqolini oldirgani, buning ustiga yana choyxonani chetlab o'tgani ba'zilarni tashvishga solib qo'ydi:

– Domlamizga nima bo'ldi ekan? Domlamiz nega bunaqa bo'lib qoldi ekan?..

Domlaga hech bir g'ubor qo'nishini istamagan boshqalar bu ikki gunohni bir-biriga yegizib, uni oqlashga tirishdi:

– Domlamiz biron xayolga borib soqolini qirdirgan-u hozir pushaymon, uyalganidan bizga ro'para bo'lmadi...

Oradan ko'p o'tmay choyxo'rlardan biri qiziq bir gap topib keldi. Bu yigit domlani shaharning narigi chekkasidagi parkda ko'ribdi. Domla, boshida chamanlagul do'ppi, egnida kalta va tor shim, katak ko'ylak, yengini baland shimargan, bilagida kattakon tilla soat, o'zi yakka pivo ichib o'tirgan emish! Uning bunday odati yo'q edi, shuning uchun yigit hayron bo'lib biroz qarab turibdi. Domla ikki shisha pivoning ustidan yuz gramm aroqni bitta otib o'rnidan turibdi-yu, gulchidan kattakon guldasta sotib olib, parkning orqasidagi jinko'chaga kirib ketibdi. Bu gapni eshitib odamlarning dami ichiga tushib ketdi. Ba'zi birovlarining ko'ngliga allaqanday jirkanch, domlaning sha'niga hech to'g'ri kelmaydigan gaplar keldi... Shunda mahallaning qariyalaridan Karim ota hozir ba'zi birovlarining ko'ngliga kelgan gapdan ham xunukroq bir taxminni aytib qoldi:

– Xayr, ishqilib oxiri baxayr bo'lsin, – dedi, – kelinimiz yoshga o'xshaydi... Qiz bo'lmasa deb qo'rqaman!

Karim otaning bu taxmini, domlaning keyingi vaqtlardagi raftoriga qaraganda ehtimoldan uzoq bo'lmasa ham, odamlarga qattiq malol keldi. Bir-ikki kishi Karim otaning dilini og'ritdi.

Biroq, oradan ko'p o'tmay, Karim otaning taxmini to'g'ri chiqib qoldi: «Domla o'zining talabasi – yigirma yashar bir juvonga uylanayotgan emish» degan gap tarqaldi.

To'yga yaqin qolganda kelin ko'chaning boshidagi atelega ko'ylak buyurgani kelgan ekan, nima bo'lib bundan xabar topgan ayollar ko'rgani borishdi. Ke-

lin, darhaqiqat, yosh, lekin xuddi qiziqchilikka semirganday yum-yumaloq; egnida yengsiz qizil ko'ylak, boshida popushakning tojiga o'xshagan, lekin qizil shlyapa; qo'lidagi sumkasi, oyog'idagi poshnasi bir qarich tuflisi ham qizil. Uni adovat va nafrat bilan boshdan-oyoq kuzatgan ayollardan biri, burilib atel-yedan chiqib ketar ekan:

– Xo'rozqandga o'xshamay o'li! – dedi.

– Qarigan chog'ida xo'rozqand yalamay domla ham o'lsin! – dedi yana biri.

Bu laqab darrov tarqalib ketdi. Domlaga qo'l urish bilan mahallaning fayzini o'g'irlagan, odamlarning dilini hamisha yoritib turadigan chiroqni so'ndirgan bu ayolni ko'rgan ham, ko'rmagan ham toshni teshadigan bir g'azab bilan yomon ko'rar edi. Bu g'azab odamlarning ko'nglidagi domlaga bo'lgan hurmat va muhabbat tuyg'usini chirita boshladi. Bora-bora domla deganda odamlarning ko'ngliga g'ashlik tushadigan bo'lib qoldi. Domla, shuni o'zi sezsa kerak, mumkin qadar odamlarning ko'ziga ko'rinmaslikka tirishadigan bo'ldi.

To'y kelinnikida bo'lib o'tdi. Buni mahallada Karim otadan boshqa hech kim bilmay qoldi. Karim ota ham to'yga emas, kabob pishirib bergani chaqirilgan ekan. Bundan xabardor bo'lgan mahalla yoshlari uni hol-joniga qo'ymay, choyxonaga olib chiqishdi va to'y qanday o'tganini gapirib berishga majbur qilishdi. Karim ota «birovning sirini aytmayman» deb avval tarxashlik qildi-yu, bir-ikki savolga javob berganidan keyin qulfi-dili ochilib ketdi: ikki gapning birida peshonasiga urib, goh bo'g'ilib va goh qotib-qotib kulib, odamlarni kuldirib hikoya qildi.

To'yga kelin tomondan ellikka yaqin, kuyov tomondan sakkiz kishi aytilgan ekan, ikkala tomondan hammasi bo'lib o'n bir kishi kelibdi. Bir dutorchi, ikki ashulachi va Karim ota ham shu hisobga kirar ekan.

Soat oltiga belgilangan to'y soat o'ndan oshganda boshlanibdi. Kelin birpas boshiga oq ro'mol yopinib o'tiribdi-yu, bir-ikki ryumka ichgandan keyin, alamiga chidolmay o'yinga tushibdi. Domla chapak chalibdi, ashulaga qo'shibdi...

– Ha, aytganday, – dedi Karim ota piqirlab kulib, – domla sochlarini bo'yatibdilar!.. Azbaroyi Xudo, kuya tushgan po'stakka o'xshaydi!.. Mayli, bo'yoq topilgan bo'lsa bo'yasin, lekin shu bo'yoq bilan qilig'ini ham bo'yashga, sochiga mos qiliqlar qilishga urinsa uncha yaxshi chiqmas ekan.

Darhaqiqat, domlanning fikr-yodi o'zini iloji boricha yosh ko'rsatishda bo'lib qoldi. U nima qilsa, nima desa shuni esdan chiqarmas, yosh ekanini ko'rsatish uchun qulay kelgan hech bir imkoniyatni qo'ldan bermas, «hali yoshsiz» degan kishiga jonini, jahonini berishga tayyor edi.

To'ydan keyin oradan bir oy o'tar-o'tmas kelin g'alati bir dardga yo'liqdi: ba'zan kechalari hadeb chuchkiradigan bo'lib qoldi; doktorga ko'ringan ekan, doktor «bu dardning davosi – dengiz havosi» debdi. Domla ertasiga ertalabdan idorama-idora yugurdi, soat to'rtga qolmasdan putyovka bilan poyezd biletini keltirib kelinga topshirdi.

Kechqurun eshik oldiga ko'kish taksi ko'ndalang bo'ldi. Domla, kuni bo'yi yelib-yugurib holdan toyganiga qaramay, ikkita og'ir jomadonni mashinaga o'zi olib chiqdi va yukxonaga o'z qo'li bilan joyladi; o'sha yengsiz qizil ko'ylagini, qizil shlyapasini kiyib hovlidan yana xo'rozqand bo'lib chiqqan kelinga mashinaning eshigini ochib berdi, keyin chiqib yoniga o'tirdi. Mashina jo'nadi, jo'nadi-yu, tezlab do'ngroq ko'prikdan o'tishda nima bo'lib bagajnikning qopqog'i bir ko'tarildi-da, boyagi ikkala jomadon otilib chiqdi. Ikkala jomadon, xuddi bir-biri bilan chopishganday, irg'ishlab-irg'ishlab talay yergacha bordi-yu, biri

yoʻlning oʻrtasida, ikkinchisi trotuarga chiqib toʻxtadi. Shofyor bundan kechroq xabardor boʻldi shekilli, mashina qirq-ellik qadam narida toʻxtadi. Mashina toʻxtashi bilan domla eshikdan otilib chiqdi, jomadonlarga qarab yugurdi va ketidan chopgan shofyor, choyxonadan yugurib tushgan uch-toʻrt kishining koʻmagini rad qilib, har birini bir odam zoʻrgʻa koʻtaradigan ikki jomadonni oʻzi yakka koʻtardi va mashinaga tomon yurdi. U yarim yoʻlgacha jomadonlarni azod koʻtarib, bardam qadam tashlab bordi-yu, undan nari rangi oqarib, tizzalari qaltirab tentiray boshladi; shundoq boʻlsa ham, nomus kuchli, bir iloj qilib mashinaga yetib bordi; jomadonlarni qoʻydi-yu, birdan koʻzlarini ishqab, mashinaga kirib ketdi. Shofyor jomadonlarni yaxshilab joyladi.

Mashina qoʻzgʻaldi, qoʻzgʻaldi-yu, oʻn-oʻn besh qadam yurmasdan, birdan eshigi ochildi, xoʻrozqand dodlaganicha oʻzini yerga otib, ikki-uch yumalab ketdi. Odam yigʻildi. Xoʻrozqandni koʻtarib olishdi. Xoʻrozqand gapirolmas, dir-dir titrab, kishnaganday bir tovush chiqarar va qoʻli bilan mashinani koʻrsatar edi.

Bir necha kishi mashinaga tomon yugurdi. Shofyor qoʻrqib, nima boʻlganiga tushunolmay, bir chekkada turar edi. Odamlar mashinani ochib qarashsa, domla... oʻlib qolipti!

Ertasiga domlani koʻmish marosimi boʻldi. Marosimga mahalladan odam koʻp qatnashmadi, aftidan, domla koʻp odamning qalbida bundan bir oy burun oʻlgan, koʻplar oʻsha toʻyni domlanning janozasi hisoblashgan edi...

1956

MING BIR JON

Martning oxirgi kunlari. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'ygga solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanida, bahor kelganidan bexabar hanuz g'aflatda yotgan o't-o'lanni, qurt-qumursqani uyg'otgan, avvalgidan ham yorug'roq, avvalgidan ham issiqroq shu'la sochayotganday tuyiladi.

Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakina kishi, o'ziga juda ham katta ko'k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek derazadan ko'chaga qarab o'tirgan edi, birdan tutaqib ketdi: shunday havo bo'lsa-yu, oyoq-qo'li butun odam ko'chaga chiqolmay, derazadan mo'ralab o'tirsa!..

Mirrahimov jussasi kichkina bo'lgani bilan tovushi juda yo'g'on va buning ustiga sekin gapirolmas edi. Hamshira yugurib kirdi, Mirrahimovning sog'lig'ini, kayfiyatini so'radi, keyin dardni bardosh yengadi, bu xususda Mastura Aliyevadan ibrat olish kerak, degan mazmunda shama qildi.

Mastura Aliyeva sakkiz oydan beri palatasidan chiqmay yotgan og'ir xasta, uni kasalxonada hamma bilar, ko'p kishi kirib ko'rgan ekan. Mirrahimovning odamgarchiligi tutib ketdi:

– Shu sho'rlik ayolni bir kirib ko'raylik! Uch kunligi bormi, yo'qmi... Sob bo'lgan deyishadi...

– Ha, ancha og'ir, – dedi hamshira xo'rsinib, – o'n yil dard tortish osonmi!

Poygakdagi karavotda kitob o'qib yotgan Hoji aka degan xasta yo'g'on gavdasiga nomunosib chaqqonlik bilan boshini ko'tarib, ko'zidan oynagini oldi.

– O'n yil? O'n yildan beri kasal ekanmi?

– Ha, o'n yil bo'libdi. Bechora turmush qilganiga bir yil bo'lar-bo'lmas shu dardga yo'liqqan ekan. Tomog'idan hech narsa o'tmaydi. Ovqatni qorniga quyi-shadi... Teshib qo'yilgan... Ba'zan o'zi quyadi, ba'zan eri.

Hoji akaning ko'zlari o'ynab ketdi.

– Eri? Eri bormi?

– Bor. Shu yerda. Besh oydan beri birga!

Hoji aka uzoq angrayib qolganidan keyin:

– O'n yil kasal boqib, yana kasalxonada ham bir-gami? – dedi.

– Shuni ayting, – dedi hamshira. – Doktorlarga ya-linib-yolvorib palataga karavot qo'ydirib oldi.

Hoji aka dardga bu qadar bardoshli ayoldan ham ko'ra bunchalik vafodor erni ko'rishga ishtiyoqmand bo'lib qoldi-yu, xalatining belbog'ini mahkam bog'lab, shippagini kiydi.

– Qani, yuringlar, tabarruk odamlar ekan, bir ko'rib chiqaylik.

Hamshira Mastura bilan uning eriga xabar ber-gani ketdi.

Hayal o'tmay, qorni chiqqan Hoji aka oldinda, uzun koridordan o'ninchi palataga tomon yo'l oldik. Palata eshigi oldida bizni hindiga o'xshagan qop-qo-ra, katta-katta ko'zlari yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga ayrim minnatdorchilik bildirib, ich-kariga yo'lladi. Palataga kirdik. Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi-yu, palatani shom qorong'iligi bos-di. Kattakon derazaning chap tomonidagi karavotdan zaif, yo'q, zaif emas, mayin tovush eshitildi:

– Kelinglar... Rahmat! Odamga odam quvvat bo'la-di, ming rahmat! Akramjon, kursi qo'yib bering...

Oftob yana yorishdi. Masturani baralla ko'r-dik... Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik,

sap-sariq teri-yu suyakdan iborat bo'lgan murda ichiga botib ketgan ko'zlarini katta ochib yotar edi... Tobutda yotgan o'likning qo'limi, oyog'imi biron sabab orqasida bexosdan qimirlab ketsa kishi qay ahvolga tushadi? Uning o'lim pardasi qoplagan yuzida chaqnab turgan ko'zlarini ko'rgan kishi xuddi shu ahvolga tushar edi.

Boya bizni kutib olgan yigit – Akramjon kursi qo'yib berdi. Mirrahimov ikkovimiz o'tirdik. Hoji aka yo'g'on gavadasi bilan Masturani to'sib tikka turib qoldi. Yonim-dagi kursini surib Hojining etagidan tortay desam, qorni silkinyapti... Ajabo, bu odam nega kulayotibdi, deb aftiga qarasam... rangi bo'z bo'lib ketibdi! Uning qo'rqqanini payqab, hamshira darrov yo'l qildi:

– Iye, Hoji aka, sizga dori berish esimdan chiqibdi-ku, yuring! – dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi. Hoji koridorga chiqib yiqilarmikan, deb o'ylagan edim, yo'q, xayriyat, gumburlagan tovush eshitilmadi...

Hamshira yo'l qilib Hojini olib chiqishga chiqdi-yu, lekin bari bir, Mastura payqadi. Juda-juda xunuk ish bo'ldi. Mirrahimov ikkovimiz nima deyishimizni, nima qilishimizni bilmay qoldik. Bu hol kasalga qanday ta'sir qildi ekan, deb sekin qaradim. Mastura qonsiz labida tabassum bilan eriga yuzlandi:

– Akramjon, daftaringizga yozib qo'ying: uch mardi maydon meni ko'rgani kirgan edi, bittasi arang qochdi-yu, ikkitasi qochgani ham bo'lmay, o'tirib qoldi.

Mastura piqirlab kulib yubordi; yana kuldi, yosh boladay o'zini tutolmay qiqirlar edi. Bu hazil va ayniqsa kulgi avval xunuk, odamning etini jimirlatadigan darajada xunuk eshitildi, keyin nuchukdir, Mastura-ning yuzidan o'lim pardasi ko'tarilganday, hayot to'la ko'zlari o'lik yuziga jon kirgizganday bo'ldi. Mirrahimov Hoji akaning qilmishi to'g'risida uzr tariqasida bir nima demoqchi bo'lib gap boshlagan edi, Mastura so'zini og'zidan oldi:

– Bunaqa narsa menga ta’sir qilmaydi, – dedi, – Akramjon, bularga tobut voqeasini aytib bering... Yo’q, yo’q, o’zim aytib beraman! Bunga besh yildan oshdi. Ko’z oldimdan ketmaydi... Qalin qor yoqqan kun edi. Men derazaning ro’parasida mana shu xilda yotibman, Akramjon paypog’ini yamayotgan edi shekilli. Birdan ko’cha eshigimiz ochildi-yu, qizil bir narsa kirdi, nima ekan deb qarasam – tobut! Akramjonning ikki o’rtog’i hovlimizga tobut ko’tarib kirdi! Yuragim jig’ etib ketdi... Voy sho’rim, nahot o’lgan bo’lsam... To es-hushimni o’nglab, Akramjonga bir nima degunimcha, boyagi ikkovi tobutni devorga suyab qo’yib, uyga kirib keldi; uyga kirdi-yu, meni ko’rib ikkovi ham boyagi Hoji akangizday shaytonlab qolayozdi. Akramjon hayron... Men ana ketdi, mana ketdi bo’lib yotgan edim-da, o’sha kuni ertalab birov avtobusda yig’lab ketayotgan bir bolani ko’rib, mening ukamga o’xshatibdi-yu, shundan haligiday gap tarqalibdi... Tobutni buzib pechkaga qalashdi. Menga shu ham ta’sir qilgani yo’q. Bunaqa narsalar o’lim kutib yotgan kasalga yomon ta’sir qilishi mumkin, men hech qachon o’lim kutgan emasman, kutmayman ham! U yog’ini surishtirsangiz, men odam bolasining o’lim kutishiga, ya’ni dunyodan umid uzi-shiga ishonmayman. Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan umid uzgani emas, balki «rozilik tilashgani hali erta» dermikin degan umid bilan, dunyoda tengi yo’q, timsoli yo’q zo’r umid bilan qaragani deb bilaman.

Akramjon Masturaning biz bilan yozilib o’tirganiga qanchalik xursand bo’lsa, toliqib qolishidan shunchalik xavotirda ekani ko’rinib turar edi; shuning uchun Masturaga tez-tez dam berishni ko’zlab, ko’proq bizni gapirtirishga, o’zi gapirishga harakat qilardi.

– Sizning nima dardingiz bor? – dedi Mirrahimovga yuzlanib.

Mirrahimov birdaniga uchta dardning nomini aytdi.

– Voy sho‘rim!.. – dedi Mastura, – jindakkina jonin-gizga-ya! Shu jussangizga uchta dard sig‘dimi?

Bo‘ldi kulgi! Ayniqsa, Mirrahimov zavq qilib kuldi. Kasallik, o‘lim to‘g‘risidagi gap tugab, xushchaqchaq suhbat boshlanishiga ilhaq bo‘lib turgan Akramjon Mastura boshlagan askiyani ilib ketdi; askiyaga juda usta ekan, olamda dard nima, o‘lim nima ekanini but-kul unutib, rosa kulishdik. Afsuski, Mirrahimovning yo‘g‘on tovushi suhbatimizning buzilishiga sabab bo‘ldi: vrach koridordan o‘tib borayotib, uning be-so‘naqay kulgisini eshitgan bo‘lsa kerak, eshikni ochib qaradi va Masturaga zehn solib, uning yuzida horg‘in-lik ko‘rdi shekilli, bizni chiqarib yubordi. Akramjon ketimizdan chiqdi, bizning bu iltifotimiz Masturaga qancha kuch-quvvat berishini aytib, ko‘nglida mavj urib, yosh pardasi bosgan ko‘zlarida ko‘rinib turgan cheksiz minnatdorchilik tuyg‘usini aytib bitirolmas, aftidan, Masturaning bir daqiqalik oromi uchun o‘ng ko‘zini o‘yib berishga ham tayyor edi.

Palatamizga qaytdik. Hoji aka karavotida yon-boshlab, qand choy ichib, o‘zini yelpib yotar edi. Bo‘lib o‘tgan xijolatli ish to‘g‘risida u ham indama-di, biz ham indamadik. Hoji akaga bir nima deyish u yoqda tursin, Mirrahimov ikkovimiz ham kechgacha bir-birimizga so‘z qotmadik; aftidan, borlig‘imiz Mas-tura bilan band, quyunday charx urayotgan taassu-rotlar, fikrlar, tuyg‘ularni ifoda qilgani so‘z topolmas edik.

Kech kirdi. Hoji aka o‘rtacharoq xurрак tortib uy-quga ketdi. Mirrahimov dam-badam u yoqdan-bu yoqqa ag‘darilar edi, nihoyat, mening uyg‘oq ekan-ligimni payqab, boshini ko‘tardi.

– Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! – dedi, – hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni basharti so‘ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini

yoqib keyin so'nadi. Mana shu ishonch Masturaga o'limni yo'latmaydi.

Mirrahimov uzoq jim qolganidan keyin yana birdan:

– Eri-chi, eri? – dedi, – bu yigitning ham raftoridan, yigitlik umri ming bitta-yu, shundan bittaginasini Masturaga qurbon qilyapti.

Ertasiga Mastura haqida yana bir ko'ngilsiz gap eshitdik: bechoraning tomog'idan hech narsa o'tmasligi ustiga qorniga tez-tez suv to'planar ekan...

Kunlar o'tib hammamiz tarqaldik. Mirrahimov o'zining MTSiga, Hoji aka kurortga ketdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tgandan keyin shu tomonga yo'lim tushdi-yu, kasalxonani bosib o'tolmadim; kirib tanish hamshiradan so'rasam, Mastura bir soatdan keyin operatsiyaga yotar ekan. Doktorlar operatsiya stolidan turolmaydi, deb besh oydan beri uning ra'yini qaytarib kelishar ekan, oxiri bo'lmabdi – Mastura o'lsam tovonim yo'q, deb tilxat beribdi.

Kirib ko'ray desam, doktor ijozat bermadi. Mening yo'qlab kelganimni ko'rsa, dalda bo'ladigan biron so'z aytsam, zoraki darmon bo'lsa deb kutdim.

Vaqt-soati yetganda Masturani hamshira bilan Akramjon ikki tomondan suyab olib chiqishdi. Lekin eshikdan chiqishi bilanoq Mastura ikkovini ikki tomonga itarib o'zi yurdi; bardam qadam tashlab, operatsiya zalining eshigini o'zi ochib kirib ketdi. Akramjon, butun diqqati xotinida bo'lgani uchun meni payqamadi. Mastura esa menga bir qaradi-yu, tanimadi shekilli, indamadi.

Operatsiyaga doktorlarning ko'ngli chopmagani, xastaning holi o'zimga ma'lum bo'lgani, Masturaning o'limning yuziga bunchalik tik qaragani qorong'ida qo'rqqan kishi ashula aytganidek emasmikin, degan gap ko'nglimdan o'tgani uchun operatsiyaning natijasini kutmadim, kechqurun kasalxonaga tele-

fon qilmoqchi bo'lganimda, rostini aytsam, telefon trubkasini dadil ololmadim. Yo'q, xayriyat, Mastura operatsiyadan bardam turibdi. Shunaqa deyishdi.

Shundan keyin men uzoq safarga ketdim-u, Masturaning taqdiridan bexabar bo'ldim, lekin uni tez-tez eslar edim; bu toqati toq, joni temirdan insonning tuzalib ketishini, yashashini, uzoq umr ko'rishini uning o'zidan ham ko'proq tilar edim. Shuning uchun oradan uch yil o'tgach, Akramjonni bir begona xotin bilan ko'rganimda alamimdan dod deb yuborayozdim.

Paxta bayrami hech qayerda Mirzacho'ldagidek qiziq o'tmasa kerak, chunki bu yerga respublikaning turli viloyatlaridan kelgan odamlar o'z viloyatining ashulasini, o'yinini ham olib kelgan deyishadi.

Paxta bayramini yor-jo'ralar bilan Gulistonda o'tkazdik.

Akramjonni, boya aytganim xotin bilan shu yerda, Guliston markazining chiqaverishida ko'rdim. O'rta bo'yli, xushqomat, vujudidan yoshlik kuchi va g'ayrati yog'ilib turgan qop-qora juvon otda olma yeb, yo'l bo'yida turar, Akramjon o'z otining ayilini qayta bog'lamoqda edi. Akramjon meni ko'rib qoldi-yu, juvonga bir nima dedi. Juvon darrov otdan tushdi. Ikkovi yugurib keldi. Ikkovi ham men bilan juda eski qadrdonday so'rashdi. Biroq men, harchand qilsam ham, palatadan chiqib operatsiya zaliga kirib ketayotgan Mastura ko'z o'ngimdan ketmay, bular bilan samimiy ko'risha olmadim: Akramjonni bir nav quchoqlagan bo'ldim, juvonga esa qo'limning uchini berdim.

Juvon:

– Amaki, meni tanimadingizmi? – dedi va xurjundan ikkita olma olib, birini menga berdi.

– Qayerdadir ko'rganday bo'laman, lekin...

Juvon qo'lidagi olmani ustma-ust bir necha marta-ba tishladi va chala chaynab yutdi.

– Endi ham tanimadingizmi? – dedi.

Tanidim! Faqat ko'zidan tanidim! Kulimsirab, olamga tabassum sohib turgan bu juvon o'sha Mastura edi. Men nima deyishimni bilmay:

– Bu yoqda nima qilib yuribsiz? – dedim.

Mastura kuldi.

– Kuchimni, g'ayratimni to'la-to'kis ishga solib yuribman, – dedi.

– Operatsiyaga kirib ketayotganingizda men yo'lakda turgan edim, hayajonda bo'lsangiz kerak, tanimadingiz...

– Yo'q, amaki, – dedi Mastura biroz xijolat bo'lib, – kechirasiz, atayin so'rashmagan edim... So'rashsam, menga tasalli berar edingiz... O'sha tobda menga tasalli berib aytilgan har bir so'z ishonchimga raxna, ko'nglimga g'ulg'ula solishi mumkin edi.

Uzoq suhbatlashdik. Er-xotin otlarini yetaklab, meni talay yergacha kuzatib qo'yishdi: so'ng xayrlashib so'l tomonga ot qo'yib ketishdi.

Men sahroda lochinday uchib ketayotgan Mastura bilan Akramjonga uzoq qarab qoldim.

Ikkovi ufqqa yetganda, biri orqaga qaytdi, hayal o'tmay yetib keldi.

Bu Mastura ekan, yo'ldan bir necha qadam narida turib:

– Amaki, Hoji akamga salom ayting, – dedi va ufqda kutib turgan Akramjonga tomon ot qo'yib ketdi.

Shaharga qaytganimizdan keyin Masturaning omonatini topshirish uchun Hoji akani topdim, lekin salomini topshirolmadim: Hoji aka bechora qazo qilgan ekan.

1956

KARAVOT

G'anijonning xotini tug'may yurib-yurib birdaniga qo'chqorday o'g'il tug'ib berdi.

G'anijon xotini homilador bo'lganda ham, bolani ko'tarib yurganda ham, oy-kuni yaqinlashib qolganda ham bunga qishloqda har kuni, har yerda bo'layotgan va bo'ladigan hodisa deb qaragan edi. Biroq bolaning yer yuziga tushuvi uning uchun hech qachon, hech yerda ko'rilmagan va ko'rilmaydigan hodisaday tuyildi; nazarida butun qishloq ko'pdan beri shu kunga mahtal bo'lib, hozir faqat shu to'g'rida gapirayotganday, har bir suyunchi olib kelgan va har bir «qulluq bo'lsin» degan kishi shuni tasdiq qilayotganday bo'lar edi. U «dadasini» degan so'zni birinchi marta eshitganida bu so'z qayeridir qitiqladi, qayerigadir issiqqina tegib, butun vujudi yayrab ketdi.

Mana shu G'anijon o'g'ilchasiga karavot olgani tuman markaziga bordi, ko'ziga eng chiroyli ko'ringan karavotchani oldi va otiga o'ngarib qaytib kelmoqda edi.

Yo'l bo'yidagi ariqlar afti burishganicha muzlab qolgan, daraxtlar cho'ltoq supurgiga o'xshaydi. Havo, kuni bo'yi zo'r berib loaqal to'rttagina qor tashlamaganidan xunob bo'lganday, qovog'i soliq. Shuning uchun, hali kun botmagani holda, qosh qoraygan. Qisqasi, kishining bahrini ochadigan hech narsa yo'q. Shunday bo'lsa ham, G'anijon gasht qilib, otning oyoq tashlashi va suvluqning shiqillashi maqomiga ashula aytib borar edi:

*Hoy-hoy, mening yorimsan,
Tanimdagi jonimsan,
Qorong'i kechalarda
Yondirgan chirog'imsan...*

Paxtaobod qishlog'ining chiqaverishida yo'l bo'yida o'tirgan kimdir qo'lini ko'tarib G'anijonga bir nima dedi. Shu onda orqadan gurillab avtomobil kelib qoldi-yu, G'anijon uning nima deganini eshitmadi. Ot avtomobildan hurkib, xiyla yergacha surib ketdi. G'anijon qaytib kelgani erindi-yu, keta berdi. Biron kilometr yo'l bosganidan keyin, shu yaqin o'rtadan miltiq tovushi chiqdi. Tepalikdagi baqaterakdan gurr etib ko'tarilgan bir to'p qarg'a «qa-qug'» deganicha har tomonga uchib ketdi. Qarg'alarning qag'il-lashi G'anijonga sovuqni va yo'l bo'yida o'tirib qo'lini ko'targan haligi kishini eslatdi. Kim ekan u, shu sovuqda ko'chada o'tirgan? Nega qo'lini ko'tardi-yu, nima dedi? Bemahalda yo'lga chiqqan biron yo'lovchi ekan-u, «otingga mingashtirib ol» dedimikin? Unday bo'lsa, nega o'rnidan turmadi?

G'anijon beixtiyor orqasiga qaradi-yu, yana yo'li-da davom etdi; biron ashula boshlamoqchi bo'lgan edi, yo'l bo'yida o'tirgan kishi sira nazaridan ketmay, hech narsa esiga kelmadi.

Nega yo'l bo'yida o'tiribdi? «Mingashtirib ol» demoqchi bo'lsa, nega o'rnidan turmadi? Yo kasalmikin? Agar shunday bo'lsa, yaxshi bo'lmadi. Hali ham qaytish kerak. Bordi-yu, askarlikdan bo'shab kelayotgan biron nogiron bo'lsa-chi?

G'anijon darhol otining boshini burib orqaga chopdi; o'sha odam o'tirgan joyni tusmol bilan topdi. Bu yerda hech kim yo'q edi. Tovush chiqardi. Hech kim javob bermadi. Shu atrofni ko'p qidirdi, topolmadi. Negadir «o'sha odam, albatta, nogiron» degan fikrga keldi. Nazarida, u oqsoqlanib, qishloqqa kirib borayotganday bo'ldi. Ot qo'yib qishloqqa kirdi. Bir necha kishini to'xtatib so'radi. Hech kim «o'sha odam men» yoki «shunday odamni ko'rdim» demadi. G'anijon «piyoda jo'nagan ekan, ko'rmabman» degan gumon bilan orqaga qaytdi; yaqin ikki kilometr yer-

gacha yo'lning ikki tomonini sinchiklab ko'zdan kechirib ot chopdi; yana qaytdi...

Shunday qilib, G'anijon uyiga yarim kechasi keldi. Uning avzoyi shunday ediki, xotini qo'lidagi chiroyli karavotchaga ham qaramay:

– Voy o'lay, nima bo'ldi? – dedi.

– Hech... charchadim, – dedi G'anijon, lekin bo'lgan voqeani xotiniga aytgani uyaldi.

Bir uyquni olib turgan xotini yana uyquga ketdi hamki, G'anijon kiprik qoqmadi. U ko'zini yumishi bilan shinel kiygan oqsoq kishi ko'z oldiga kelar, ro'parasida qo'ltiqtayocqa tayanib turib «hali shumi mehri oqibat» deyotganday bo'lar edi. G'anijon tamaki chekkani turib, tokchadagi patnisni tushirib yubordi. Xotini uyg'ondi.

– Ha, nima qilib yuribsiz? Chiroqni ko'tarsangiz-chi!

– Tamaki qayerda?

– Nima qilasiz?

– Minib bozorga borib kelaman! Tamakini nima qiladi kishi? Chekadi-da! – dedi G'anijon bo'g'ilib.

– Ha, muncha... kechasi tamaki chekadigan odatingiz yo'q edi, shunga so'radim.

Erini hech qachon bunday kayfiyatda ko'rmagani, undan sira dag'al so'z eshitmagani uchun xotining ko'ngliga g'ulg'ula tushdi, o'rnidan turib yonboshladi.

– Biron joyingiz og'riyaptimi?

– Yo'q.

G'anijon tamaki chekdi va kelib cho'zildi. Xotini uning boshini siladi.

– Birov xafa qildimi?

– Yo'q.

Xotini biroz turib yana so'radi:

– Nega bemahalg'a qoldingiz?

– Yo'lda ish chiqib qoldi.

– Nima ish? Nima bo'ldi? Ayting, o'rgilib ketay...

Menga aytmasangiz kimga aytasiz...

G'anijon, xotini juda katta tashvishda qolganini payqab, gapning uchini chiqardi.

– Kelayotsam, yo'l bo'yida birov o'tirgan ekan, qo'lini ko'tarib «jon aka, meni mingashtirib oling» deganday bo'ldi.

– Kim ekan u?

– O'rnidan turmadi. Shundan gumon qildimki, askarlikdan bo'shab kelayotgan biron nogironmi... Nogiron ekanligi aniq!

– Darrov mingashtirib olmadingizmi?

– Ot, harom o'lgur, surib ketib qoldi. Qaytib borib topolmadim. Chaqirdim, u yoq-bu yoqni qidirdim. O'tirgan joyini otdan tushib qaramabman, shunga ko'nglim g'ash bo'layotibdi. Yarasi yomonroq bo'lsa, ko'ngli ozib, o'sha yerda yotib qoldimi...

– Unchalik emasdir... Avvali shuki, askarlikdan bo'shab kelgan kishi yo'l bo'yida «kim o'tar ekan» deb o'tirmaydi, ularga ot-arava, mashina hamma vaqt tayyor, hamma vaqt topiladi.

Xotini bu gapni G'anijonga tasalli berish uchun boshlagan edi, biroq unga tasalli berishdan burunroq o'zining ko'ngliga g'ashlik tushdi. Uning nazari-da, o'sha odam haqiqatan nogiron bo'lib, yarasi ochilganligi orqasida ko'ngli ozgan, hozir hushiga kelib, ariq bo'yida inqillab yotganday bo'ldi.

– O'tirgan joyini qaramadingizmi?

– Qaradim, lekin otdan tushib qaraganim yo'q. Qorong'i edi.

– Voy, odam ham shunchalik beg'am bo'ladimi? Otdan tushib paypaslab qaramaysizmi! Endi nima bo'ldi!

G'anijon irg'ib o'rnidan turdi.

– Borib kelsammikin?

– Shu vaqtgacha yotarmidi?

– U-ku yotmas, birov olib ketar, lekin bu ahvolda biz yotolmaymiz-da!

G'anijon darrov kiyinib chiqdi va borib kolxoz ot-boqari Nasibalini uyg'otdi. Nasibali mast uyquda yotgan ekan, malol kelib gaplashdi.

– Qayoqqa borasiz shu mahalda?

Gapni cho'zmaslik uchun G'anijon yolg'on gapirdi:

– Amakimning o'g'li askarlikdan bo'shab kelibdi, shuni ko'rib kelaman.

Nasibali darrov otxonaga kirib, bitta otni yetaklab chiqdi.

– Ot minganda odam orqa-oldiga qarab yuradi, – dedi qorinbog'ini tortayotib, – hali sal bo'lmasa avtomobil urib ketayozdi.

– Qachon?

– Hali-chi, hali! Paxtaoboddan chiqaverishda!

– Qo'l ko'targan sizmidingiz! U yerda nima qilib o'tirgan edingiz?

– Arpaga borgan edim.

– E, salomat bo'ling! Bo'ldi, ot kerak emas!

Nasibali hayron bo'lganicha qolaverdi. G'anijon yugurganicha uyiga keldi va eshikdan shovqin solib kirdi:

– Nasibali ekan! Nasibali!

Bola emizib o'tirgan xotin o'rnidan turib beixtiyor:

– Voy, o'lsin... – dedi.

Birpasdan keyin er-xotin mojaroni unutishdi. G'anijon karavotning bir tomonini ko'tarib:

– Bu karavotni ko'rdingmi? Karavot olish mana bundoq bo'ladi. Tug'ishni senga-yu, karavot olishni menga chiqargan! – dedi.

Er-xotin xotirjam bo'lib uyquga ketishdi.

1945

AYB KIMDA

Hamroyev kechki ovqatdan keyin birpas cho'zilmoqchi bo'lgan edi, to'g'ri kelmadi: narigi uy to'polon – bolalar bir-birini yostiq bilan urib o'ynayotibdi; soat sakkiz yarimda majlisga borish ham kerak. Kecha Hamdam ota-onalar majlisi bo'lishi to'g'risida maktabidan qog'oz olib kelgan.

Hamroyev hech qachon majlisga borgan emas, ammo fursati bo'lganda bir tayyorlanib bormoqchi va bola tarbiyalashni bilmagan yoki bu ishga sovuq qaragan o'qituvchilarni uyaltirmoqchi edi. Bu niyat uning xotini Sobiraxonga juda ma'qul bo'ldi.

– Gapiring, izza qiling! Bolalar maktabda o'qib qayta bevosh bo'lib ketyapti. Siz uyda yo'q vaqtlarda Hamdamingizning dastidan menga kun yo'q. Ilgari-lar urib yengar edim, endi uray desam, qochib tomga chiqib ketadi, tomda turib menga tilini ko'rsatadi.

Hamroyev qo'yin daftariga nimalarnidir yozdi.

– Xo'sh, tag'in nimalar qiladi?

– Tag'in... ursam «bari bir og'rimaydi» deb xir-xir kuladi... Ha, aytgancha, bir yildan beri biron marta «aya» deganini eshitganim yo'q, hamisha «Turondot» deydi.

Hamroyev kulib yubordi. Bu laqabni Sobiraxonga o'tgan yili bayramda birovnikiga mehmon bo'lib borishganida o'zi qo'ygan va shu bilan hammani kuldirgan edi.

– «Turondot» deydimi-a? Lekin buni majlisda gapirib bo'lmaydi, chunki... lekin bir tomondan gapirilsa ham bo'ladi, bola degan kattalarning gapini gapirmasligi kerak.

– Albatta! Maktabda shunaqa narsalarni o'rgatmasa nimani o'rgatadi? Quruq ilm bilan bola bola bo'lar ekanmi?

Hamroyev Sobiraxonning shikoyatlarini, gazetalarda o'qigan, odamlardan eshitgan tarbiyaga doir gaplarni yozib qo'yin daftarini to'ldirdi, keyin bularning hammasidan xulosa chiqardi:

– Men biron qog'ozga o'qimasdan qo'l qo'ysam, sen biron ko'ylakning yoqasini qiyshiq qadab qo'ysang, ishga sovuqqonlik bilan qaraganimiz uchun javobgar bo'lamiz, nima uchun bola tarbiyasiga sovuqqonlik bilan qaragan o'qituvchiga qonun yo'q, qani, chaqir bu yoqqa Hamdamni!

Narigi uydan, uvadasi chiqib ketgan yostiqni ko'tarib, Hamdam chiqdi.

– O'tir, bu yoqqa! Xo'sh, sen nima uchun ko'cha bolalariga o'xshab axloqsizlik qilasan!

Hamdam yostiqni kursiga qo'yib ustiga o'tirdi va onasiga qaradi.

– Nima qildim?

– Men so'rayotibman, menga qara! Nima qilganingni bilmaysanmi? Nima uchun oying urganda... xayr, bu ham mayli. Nima uchun oyingni «aya» demay... yo'q, nima uchun tomida turib, ayangga... umuman, tomlarda yurar emishsan, yer ko'tarmaydimi? Maktabda senga shuni ta'lim beradimi? Qani daftarlaring?

Hamdam ayasiga qaradi.

– Qachon men tomida yuribman?

– Yo'q, tomni qo'y, menga daftarlaringni ko'rsat! Bu yil o'qish boshlangandan beri nechta «a'lo» baho olding?

– Bitta ham... yomon baho olganim yo'q. Mana...

Hamroyev daftarlarini varaqlay boshladi.

– Xo'p, hozir ko'ramiz... «yaxshi»... «o'rta»... «o'rta»... Qani «a'lo»? Ruschadan nima uchun «yaxshi»?

– A'lo o'qisam ham o'qituvchimiz «yaxshi» qo'yadi, «a'lo»dan «yaxshi» yaxshi deydi.

– Ha-ha! Hali siz yolg'on gapirishni ham bilasizmi?! Qani, beriroq kel, ko'zimga qara! «Yaxshi» yaxshi deydimi?

Hamdam yolg'on gapirishning bunday oqibatini umrida birinchi ko'rishi edi, yig'lab yubordi.

– Menga qara deyman! Kim o'rgatdi senga yolg'on gapirishni? Qaysi domlang?

Sobiraxon aralashdi:

– Qo'ying endi, minba'd yolg'on gapirmaydi. Voy, tavba, ruschadan nega «yaxshi», baloday gapiradi shekilli-kul!

Hamroyev Hamdamning qulog'idan cho'zib, o'ziga qaratdi.

– Tag'in yolg'on gapirasanmi? Bundan keyin yolg'on gapiradigan bo'lsang, bilib qo'y, men oyingga o'xshab og'rimaydigan qilib urmayman-a!.. Shu yolg'on gapingdan keyin ruschadan «yaxshi» olganingga ham ishonmayman. Qani, xo'sh, masalan, choynakning qopqog'ini ruscha nima deydi? Samovarning jo'mragini nima deydi?

Hamdam ikkovini ham bilmadi va yig'laganicha nariga uyga kirib ketdi. Hamroyev qo'yin daftarini olib nimalarnidir o'chirdi, yana nimalarnidir yozdi.

– Yo'q, – dedi daftarini cho'ntagiga solib, – bu ishga jiddiy qarash kerak. Shunday bo'lgandan keyin majlisga jiddiy tayyorgarlik ko'rib borilmasa bo'lmaydi. Tarbiyaga doir kitob ko'p.

– Soat sakkiz bo'ldi, – dedi Sobiraxon.

Hamroyev o'ylanib qoldi: borsa, albatta, gapirishi kerak, gapirmaydigan bo'lsa borishning keragi yo'q. So'zga chiqqanda gapni nimadan boshlaydi, nima to'g'rida gapiradi va qanday xulosa chiqaradi.

– Yo'q, bu xilda borishdan foyda yo'q, Turondot, – dedi, – bu safarcha siz boring. Men yanagi safar jiddiy tayyorlik ko'rib boraman.

– Qo'ysangiz-chi! Umrimda bormagan joyimga qanaqa qilib boraman. Mening borishimdan nima foyda?

– Foyda bo'lmasa ziyon ham yo'q-kul!

Er-xotin foyda-ziyon to'g'risida tortishib soatni sakkiz yarim qilishdi. Hamdam chiqdi.

– Nima qilib o'tiribsizlar? Direktor juda tayinlagan edi, xatni topshirmagandirsan deb ertaga meni uri-shadi.

– Oying bormaydi, borishidan foyda ham yo'q, men yanagi safar boraman.

– Mudir so'rasa shunaqa deymanmi?

– Nega? Kap-katta bo'lib shunga ham vaj topol-maysanmi? Dadam ishdan kech keldi, oyim betob yotibdi degin!

Hamdam dadasiga qaraganicha uzoq turib qoldi. U, ertaga xuddi shunday deydi.

1940

YILLAR

O'tdi umrim, voh darig'...

Qadimgi qo'shiq

Hojimirsiroj avtobusda joy talashib bolalik bir xotin bilan aytishib qoldi. Bir maktab bola ham kelayotgan ekan, shu oraga tushdi-yu, yomon bo'ldi. Bu qoqvosh «shu ishingiz noto'g'ri» deyish bilan-ku, Hojining qorniga qoziq qoqqandek bo'lgan edi, yana «xo'mraymang» degani nimasi?

Hoji birpas zaharini yutib turdi-da, bola avtobusdan tushib ketayotganida, sekin qo'lini uzatib, qulog'ini ushladi va uch buklab turib qattiq qisdi; qisdi, jonining boricha qisdi! Bola, «quloqdan ayrildim» deb o'ylagan bo'lsa kerak, qo'rqib darrov ushlab ko'rdi – yo'q, quloq joyida. U avtobusdan tushib, lovullab turgan qulog'ini ushlaganicha Hojiga qaradi va bisotidagi eng og'ir, eng dahshatli haqoratni ishlatdi, ya'ni «tarbiyasiz!» dedi.

Hoji huzur qilib o'ch olganidan, bolaning so'kkani boshqa so'z topolmaganidan xursand bo'lib, orqasiga suyandi va atrofiga nazar tashladi; qarasa, hamma, ayniqsa, shofyorning orqasida kitob ko'rib o'tirgan kishi o'zini kulgidan zo'rg'a tiyib turganga o'xshaydi. «Haromi, meni toza rasvo qilganga o'xshaydi, – dedi o'zicha. – Bu hozir kulib yuboradi, hozir kulmasa keyin, uyiga borib kuladi; bola-chaqasi bilan kuladi! Nega men u itvachchaning qulog'ini shartta uzib qo'liga bermadim?»

Hojimirsiroj shoshib avtobusdan tushdi, bolaning ketidan ketdi. Bola hamon qulog'ini ushlab borar edi; bir orqasiga qarab Hojini ko'rdi-yu, jadallab mu-

yulishdagi kattakon ikki qavatli binoga kirib ketdi. Hoji uni bu yerga qochib kirdi degan o'yda eshikning oldida uzoq poylab o'tirdi. Quyosh botdi hamki, bola chiqmadi. Hoji asta eshikni ochib kirdi. Bolani pastdan topolmay, oyog'ining uchida yurib ikkinchi qavatga chiqayotgan edi, kimdir zinaning ustidagi chirog'ini yoqib yubordi. Hoji bir cho'chib tushdi va yuqoriga qaradi. Yuqorida o'ziga ma'lum Orziqul turar edi. Hoji uni qayerdadir qorovullik qiladi deb eshitgan, lekin qayerda ekanini bilmas edi.

– E, ha, Orziqul, – dedi, – bu yerda nima qilib yuribsiz? Shu yerdamisiz?

– Ha, biz shu yerda, – dedi Orziqul, to'nining yengini kiyib. – O'g'limizga shu yerdan joy tekkan. Siz nima qilib yuribsiz?

Hoji gangib qoldi. U, «Orziqulning o'g'li yaxshi yigit chiqdi, hozir bitta o'zi o'ttiz ikkita mashinaga qarar emish» deb eshitgan, lekin uning shunday joyda turishini xayoliga ham keltirmagan edi.

– Shunaqami, – dedi Hoji boshqa so'z topolmay, – bu joy o'g'lingizga tekkan ekan-da, men o'zingizga tekkan deb eshitgan edim... Buyursin... Shunday o'tib ketayotgan edim, esimga tushib qoldingiz, bir kiray dedim, Orziqul uyida bo'lsa, qulluq bo'lsin qilib chiqay...

– Juda soz bo'пти-da, Hojim! Ko'p yaxshi qilibsiz. Qani kirsinlar... Yo'q, yo'q, kavushni ichkariga yechadilar... Zab kelibsiz-da. O'zim ham sizni bir aytib kelaman, birpas gapirishib o'tiramiz deb yurgan edim.

Orziqul bu gapni mehmonning ko'ngliga bo'lib aytmadi, rostdan ham Hojimirsirojning bir kelishiga orzumand edi. Lekin, rostini aytganda, Hojini uyiga taklif qilishdan murodi birpas gapirishib o'tirish emas, unga o'z turmushini ko'rsatish edi. U, uy-joyini, maishatini ko'rsatish bilan maqtanmoqchi emas,

chunki qo'lga kirgizgan narsasi o'z qadr-qimmatidan yuqori bo'lgan odam maqtanadi. U faqat haqiqatni aytmoqchi, «cho'loq cho'loqligidan, kambag'al kambag'alligidan norizo bo'lsa, Xudoning qahri keladigan» zamonda xokisor bo'lgan odamlarning o't kechib, suv kechib olib borgan kurashlari natijasida turmushlari qanday o'zgarganligini ko'rsatmoqchi, xolos. Orziqul bu haqiqatni ko'rsatish bilan ta'na qilmoqchi ham emas, chunki ta'na qilish – qattiq o'pkalash degan so'z. Hojidan nima deb o'pkalaydi? «Shuncha yil sening zavodingda ishlab qornim ham to'ymadi, ochdan ham o'lmadim; sen meni ot qatori ko'rar eding; toypaxtalar ostida qolib qovurg'am singanda kasalimni mahalla boqqan» deb o'pkalaydimi? Hoji shunday qilmasligi kerak emishmi? Zavod egasi-ya? Lekin Hoji o'sha vaqtda shunday qilmasam bo'lar ekan, deb hozir aytishi mumkin va aytadi ham, chunki shu gap bilan birovning ko'nglini yumshatib bir piyola choyini ichadi.

Orziqul Hojini koridorning oxiridagi eshikka – o'zining bo'lmasiga boshladi. Bu bo'lmada balkonga chiqiladigan eshikning tutqichiga ilingan allaqanday bir xaltadan bo'lak hamma narsa Hojining ko'ziga qalbaki ko'rindi shekilli, butun jihozlarni alohida-alohida ko'zdan kechirdi, hatto devorlarni chertib ko'rdi.

Orziqulning kelini Tojixon kirdi. U, mehmon bilan ko'rishib, narigi uyga taklif qildi. Orziqul Hojini oshxonaga boshlab chiqdi. Oshxonada Murod xarita ko'rib o'tirar edi.

– Keldingmi, o'g'lim, – dedi Orziqul, – mana Hoji bobong ham keldilar.

Murod darrov turib Hoji bilan so'rashdi va nazokat bilan unga joy ko'rsatdi.

– Keling, Hoji bobo. Ko'rinmaysiz, kelmaysiz...

– Barakallo, o'g'lim, barakallo, – dedi Hoji kursiga ehtiyot bilan o'tirayotib. – Umringiz uzoq bo'lsin. Ko'pdan-ko'p xursand bo'ldim... O'g'il degan shun-

doq bo'lsin, otasini rozi qilsin. Ko'p xursand bo'ldim. Xo'p... Bu gilam... bu gilamni necha pulga oldingiz?

– Esimda yo'q. Ancha bo'ldi olganimizga.

– O'tgan hafta bozorga bir gilam chiqdi, gilammi-san gilam edi-da. Bir ming uch yuzga savdo qilib, Qodiralining o'g'liga olib berdim. Gilam tanigan odam ikki mingga indamasdan oladi. Shunaqa narsalar kerak bo'lsa menga aytib qo'ying. Xo'sh... yashang, o'g'lim, kam bo'lmang. Endi Orziqul oyog'ini uzatib, bahazur yota bersa ham bo'lar ekan. Biz burun zamonda shuncha davlat bilan ham bu xilda orzu-havas ko'rgan emasmiz. Endi ishlamassiz-a, Orziqul?

– Nega ishlamas ekanman, qirq to'rtinchi maktabda qorovullik qilaman. Men ishlamasdan turolmayman... o'rganmaganman...

– Ana shu chakki-da, Orziqul, ana shu chakki! Noshukrchilik...

– Noshukrchilik bo'lsa ham o'rganmaganman.

Murod kuldi:

– Ko'rdingizmi, o'rganmaganlar! Bu kishini ishlash huquqidan mahrum qilishga haddim sig'maydi.

Tojixon ovqat keltirib qo'ydi. Ovqat vaqtida Hoji hech kimga so'z navbati bermay, burungi zamonni yomonlab ketdi. Ma'lum bo'lishicha, burun zamonda, zavod egasi bo'lishiga qaramay, u ham jabr ko'rgan ekan: uyezd hokimi «akangizni mingboshi qilaman» deb uch ming yigirma yetti so'm pulini yeb, saylovda degrezlik Isomiddin degan jallobni saylagan ekan. Tojixon «piq» etib kulib yubordi va Murodga qaradi:

– U qanaqa saylov? – dedi.

– Men qayoqdan bilay. Dada, u qanaqa saylov?

Orziqul anchadan keyin javob berdi:

– Mingboshi saylov deb eshitar edim-ku, hech ko'rgan emasman... Qanaqa saylov bo'lar edi, mana Hojim aytdilar-ku... Obbo xotintaloq-ey, shunaqa qilgan deng, Hojim!..

Tojixonning kulishi, Orziqulning so'zidagi kalaka ohangi Hojiga yoqmadi. U, kichkina pichoqchasi bilan suyak tozalar ekan, so'zni boshqa, bularga xush keladigan mavzuga burish niyatida birdan so'radi:

– O'g'lim, – dedi, – staxanovchilik deysizlar, buning hikmati nimada? Juda ko'p narsalarni aqlim ola bermas edi, endi sekin-sekin fahmlayapman. Lekin shu staxanovchilik hech aqlimga sig'maydigan ish bo'lib chiqdi. Burungi zamonda bitta odam, mening bili-shimcha, juda nari borsa uch yarim pud paxta terar edi, hozir yigirma besh pudga yetkazib terar emish. Mana, siz, bitta o'zingiz o'ttiz ikkita mashinaga qarar emishsiz...

Murod miyig'ida kulib, Tojixonga qaradi:

– Tojixon, siz ayting, nima uchun hozirgi odamlar Hoji boboning aqlariga sig'maydigan ishlarni qilishadi? Ayting, siz ham staxanovchi-ku.

Tojixon javobga lab ochganida eshik taqilladi-yu, turib ketdi. Javobni Murodjon o'zi berdi:

– Staxanovchilikning hikmati shundaki, hoji bobo... O'zimizda bir maqol bor-ku: «Birovning ishiga saratonda qo'l sovqotadi». Staxanovchilikning hikmati hammadan burun shundaqa, men boshqaradigan o'ttiz ikkita mashina ham, bu mashinalar bilan qilinadigan ish ham birovniki emas. Bu – bir...

Eshikni taqillatgan O'lmas ekan, yo'lakda onasiga nima to'g'ridadir quvona-quvona so'zlayotgan to-vushi eshitildi. U, shu quvonchini otasiga ham aytish uchun bo'lsa kerak, shoshilib kirgan edi, ne ko'zi bilan ko'rsinki, hali avtobusda «tarbiyasizlik» qilgan kishi o'tiribdi! O'lmas ixtiyorsiz qulog'ini ushlab, sekin yotoqqa tomon burilgan edi, Murod to'xtatdi:

– Xo'sh, o'rtoq komandir, qanaqa kino ko'rdingiz?

Bolani tanib, Hojining esi chiqib ketdi. «Obbo haromi, – dedi ichida, – hozir arz qiladi. Agar arz qilsa, cho'ntagimga qo'l soldi deyman!»

– O‘rtoq komandir tankist bo‘lar emishlar, – dedi Tojixon kulib. – Uchuvchi bo‘lishdan aynibdilar... O‘lmas, mehmon bilan so‘rasmaysanmi?

O‘lmas so‘rashgani qo‘l uzatdi. Hoji uning qo‘lini olar ekan, o‘rnidan turdi:

– Endi men ketay, bemahalga qolmay, – dedi.

U, bolaning shikoyat qilishidan va buning natijasida o‘ng‘aysiz ahvolda qolishidan qo‘rqmasa ham bo‘lar edi, chunki O‘lmas hech shikoyat qilib o‘rgan-gan bola emas. Orziqul uni pastgacha kuzatib xayr-lashdi. Hoji ko‘chaning u yuziga o‘tib, bitta-bitta qa-dam tashlab borar ekan, o‘ylar edi: «Mashina ham, bu mashinalar bilan qilinadigan ish ham o‘zingni-ki... tankist... tank ham o‘zingniki! Yillar, yillar o‘tdi! O‘tgan bu yillar dunyoni ostin-ustin qildi!..»

1939

MAYIZ YEMAGAN XOTIN

– Ayol kishi erkakka qo‘l berib so‘rashdimi – bas!.. Ro‘za tutgan kishi og‘zini chayqasa, suv tomog‘iga ketmasa hamki, ro‘zasi ochiladi – shu og‘iz chayqashdan bahra oladi-da!

Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning o‘g‘li bir hovuch mayiz berganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo‘li – xo‘p yo‘l. O‘n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo‘lni yuvib qo‘ltiqqa ura bering. Paranji hayoning pardasi-da!

Mulla Norqo‘zi har kuni bozordan qaytib samovarga chiqadi va ko‘ngli tortgan odamlarni atrofiga to‘plab, yarim kechagacha shariatdan yuz o‘g‘irgan xotinlar to‘g‘risida shunday vaysab o‘tiradi; ba‘zan panjasini yozib, o‘zi bilgan oilalarni sanab chiqadi:

– Sotiboldining xotini dorixonada ishlaydi, har kuni mingta odam bilan javob-muomala qiladi: axir, bittasi bo‘lmasa bittasi ko‘z qisadi-da! Meliqo‘zining xotini avtobusda konduktor, ba‘zan yarim kechada keladi; ishi erta tugagan kuni ham yarim kechagacha yursa, ayshini qilsa eri bilib o‘tiritimi? Izzatillaning singlisi bo‘lsa artist – xaloyiqqa qarab muqom qiladi. Norbo‘taning qizi doktorlikka o‘qiydi, mingta oshnasi bor desang-chi! Erkaklarning ichida yurgandan keyin nima bo‘lar edi! Bo‘yga yetib qolgan qizlarini maktabga yuborgan otalarga hayronman... Shular xotining yoki qizining o‘ynashlik qilib turgani ustiga kirsa-chi, Qur‘on ursin agar, «benavat» deb chiqib ketadi... Puxta gap shu!

Ochiq xotin-qizlarning har bir harakatidan mulla Norqo‘zi buzuqlikka dalolat kiladigan talay belgilar topadi. «Yetti qavat parda ichida» o‘tiradigan o‘z xotini

esa bular qarshisida ko'ziga farishta bo'lib ko'rinadi: namoz o'qiydi, to'pig'idan yuqorisini avrat hisoblab, jiyakli ishton kiyadi...

Bir kuni kechqurun mulla Norqo'zi hovlida cho't urib o'tirar, xotini esa namozshomgullarga suv quy-ar edi. Shu onda hovlining ustidan pastlab uchgan samolyot o'tib qoldi. Xotin chars bedanaday patillab, qochmoqchi bo'lganida yuzini karnaygulning poyasiga urib oldi. Yuzi butoqqa yomon tegdi. Ko'ngli ozdi.

– Axir, muncha! – dedi mulla Norqo'zi, – samolyot past ko'ringani bilan undagi kishiga sen juda ko'ringaningda chumolicha ko'rinasan.

– Chumolicha ko'rinsam ham ko'rinar ekanman-ku ishqilib! – dedi xotin yig'lamsirab.

Mulla Norqo'zi hazil bilan uning alamini bosmoqchi bo'ldi:

– E, hali men seni ochaman deb yuribman-ku!

Xotin uning yuziga xo'mrayib qaradi-da, keyin zarda qilib uyga kirib ketdi va qorong'i uyning allaqaysi burchagidan uning tovushi eshitildi:

– Har kimning go'ri boshqa... Zerikkan bo'lsangiz, u dunyo-bu dunyo yuzimni qora qilmasdan, javobimni bera qoling...

U bir hafta bo'yi qovog'ini ochmadi, uch kecha o'rnini boshqa solib yotdi. Mulla Norqo'zi o'sha gapni hazillashib aytganini arz qilish uchun oldidan kelsa tishlar, ketidan kelsa tepar edi; bir kechasi gapni xotining diyonatli, pokdomonligidan boshlagan edi, xotin ancha yumshadi.

– Hazilingiz qursin! – dedi chiroqni pastlatayotib, – kishining imonini qochiradi. Ochilish u yoqda tursin, ochiq xotinlarning yuzini ham ko'rmayman, deb ont ichganman. Bir kuni besh-oltita ochiq xotin orasiga kirib qolib, ne vaqtgacha ko'nglim g'ash, ta'bim kir bo'lib yurdim. Tushimda rahmatli dadamni ko'rdim, men bilan gaplashmadilar. Gapni ko'ring-a, aytgani

kishining yuzi chidamaydi: begona erkakning qo'li oq sochni qoraytirar emish. Tavba qildim...

– U nima degani ekan?

– Obbo, muncha suyuldingiz? Shundaqa gaplarga sizning ham suyagingiz yo'q. Nari yoting!

– Begona erkak, kishining qizligini esiga soladi deydi-da!

– Shundaqa gaplarni ochiq gapirishadimi-a?

– Bo, Xudo, paranjini tashlab ko'chada yurishga yuzi chidagandan keyin uyati bormi! Qurib ketgurlar, biram sharmandaki... Tavba qildim. Badaningda naming borida besh-oltita erkakni ko'rmasang, umr bo'ladimi, bu umr deydi-ya! Tag'in ham zilzila bo'lib hammani yer yutmas ekan-da! Tavba qildim-ey...

Mulla Norqo'zi ertasiga samovarga chiqqanida yana panjasini yozib o'zi bilgan ochiq ayollarni sanab chiqdi va xotini aytgan ayblarni bularning har qaysisiga taqdi, jinday o'zidan ham qo'shdi.

– Axir, bittasi oppoq sochi bilan menga tegishdi-da! Soching oqarsa ham tinib o'lmas ekansan-da, desam, sochim oq bo'lsa ham ko'nglim qora, deydi.

Shunda o'tirganlardan biri, intihosiz gapdan zerikdi shekilli, qattiq esnab, dedi:

– Men sizga aytsam, mulla Norqo'zi, gap paranjida emas. Nikolay zamonida islovotdagi xotinlar bosh yalang emas edi-ku! Endi siz har narsa deysiz-u, bunchalik emas, ko'zingizga shunday ko'rinadi. Mana, men sizga aytib beray: umrimda xotin-xalajga suyuqlik qilgan odam emas edim, bahorda qishloqqa ketayotib yo'lda bir xotinga hamroh bo'ldim. It olib ketayotgan ekan. Hali sizday, mening ham ko'zinga bu xotin juda tayyorga o'xshab ko'rindi. Hazillashdim, suyuqlik qildim. Indamaganidan keyin bir shamma qilib ko'ray-chi, dedim. Itning og'ziga charm to'rtutib qo'ygan ekan, «jonidan, nega itingizning og'zini bog'lab qo'yibsiz, ko'chadan o'zi topib yegani yaxshi

emasmi?» desam, «buning ham og'zi sizning og'zingiz-day shalaq, ehtiyot yaxshi-da» deydi. Terlab ketdim. Orqamga qaramay bir qochdim... Shariat xotinni qattiq tutish kerak deydi-yu, ammo xotinni qancha qattiq tutsangiz, shuncha g'afiatda qolishingizni poylaydi.

Mulla Norqo'zi bu odamning oddiy haqiqatni ang-lamasligidan koyidi:

– Behuda gap! Mana mening xotinim nima ekanini o'zim bilaman. Paranjisini tashlab ikki kun ko'chada yursin-chi!

U odamning zardasi qaynab ketdi:

– Nega ko'chada yuradi? Ko'chada paranjilik yur-sa ham ayniydi-da! To'g'risini aytaymi? Paranjilik xo-tin harom ishga yaqinroq bo'ladi. Sabab deng! Agar siz yuziga kulib qaramasangiz, devorga shoti qo'yib ko'chaga mo'ralaydi: ko'ylaklik olib bermasangiz, tom orqasidan ko'ylaklik uzatadigan chiqib qoladi. Ochilgan xotin-chi, ko'ylak olib bermasangiz o'zi ish-lab, o'zi oladi.

Ehtimol, shundaydir, ammo mulla Norqo'zining xotini pokdomon. Agar mulla Norqo'zi o'n yil yuzi-ga kulib qaramasa, qopdan ko'ylak, bo'yradan lozim kiyishga majbur qilsa ham, pinagini buzmaydi. Har qanday xotin bilan ham inoq bo'lavermaganining o'zi o'ta diyonatli, pokdomon ekanining nishonasidir. Uning bittayu bitta o'rtog'i bor. Bu xotin to'g'risida mulla Norqo'zi shunday fikrda agar farishta ilgari o'tgan bo'lsa – shuning onasi, endi tug'lsa – shu-ning bolasi bo'ladi, agar hozir yer yuzida bo'lsa – shu xotinning o'zi. Shuncha keladi, haftalab, o'n kunlab turib qoladi, nainki shu choqqacha mulla Norqo'ziga tovushini eshittirmasa! Shariatni mahkam ushlagan xotin shaharda ikkita bo'lsa, biri – mulla Norqo'zi-ning xotini, ikkinchisi – shu! Namoz o'qiydi, odatdagi ro'zadan tashqari ashur oyida ro'za tutadi, zavod-dan chiqqan nonni, hozirgi kushxonalarda so'yilgan

molning go'shtini yemaydi. U kelib turganda mulla Norqo'zi tashqarida – mehmonxonada yotib yuradi va uyini allaqanday nurdan munavvar bo'lgandek seza-di. Shuning uchun boshqa mehmonlarday sira uning «izzati uch kun» bo'lmaydi, necha kun tursa ham, tovuq go'shtini quymoqqa o'rab, qaymoqqa botirib yeydi. Uzoq turib qolgan vaqtlarida xotini:

– Qurib ketsin, keta qolmaydi ham. Lablarim quruqshab ketdi. Sadqai erkaklik keting, xilvatga tortib o'pishni ham bilmaysiz! – deb chiqsa, mulla Norqo'zi urishib beradi:

– O'zingga munosib gapni gapir! Yengil bo'lma! Mehmon – atoyi Xudo.

Mulla Norqo'zi safarga ketadigan bo'lib qoldi; ketishidan bir kun ilgari xotiniga aytib, o'sha farish-tani oldirdi va o'rta eshik oldiga borib qiyomatlik singlisidan iltimos qildi:

– Singlim, men o'n kunda qaytib kelaman, kelgunimcha o'rtog'ingiz bilan birga bo'ling. Mana, o'zingiz ko'rgan joy, bermalol ayshlaringni qilinglar. Xo'pmi, singlim?

– Xo'p, deyaptilar, – dedi mulla Norqo'zining xotini, – bu kishining ham, menga o'xshab, boshqa gapiri-shadigan o'rtoqlari yo'q.

Xotini kechqurun mehmonxonaga ovqat olib chiqqanida mulla Norqo'zidan o'pkaladi:

– Uyatga ham o'ldirasiz kishini! – dedi yig'lamsi-rab, – o'rtog'im har kelganida menga bir narsa olib keladi. Mana bu safar bir jo'ra shohi olib kelibdi. Shu choqqacha bitta dastro'mol ham berolganim yo'q. Men-ku yilda besh gaz chit ko'rmayman, kelishin-gizda shu bechoraga bir narsa olib kelsangiz-chi siz ham odam bo'lib!

– E, devona, o'zi narsaga muhtoj bo'lsa, senga narsa olib kelarmidi! Harna bo'lsa Xudoning bergani, olib qo'ya ber, yaxshi gapingni ayama!

– Hech bo'lmasa bitta paranji olib keling, savob bo'ladi. Xotin kishiga paranji olib berish machit solishdan ham savob emish. Paranjisi eski, har kelganida birovnikini yopinib keladi.

– Xayr, mayli. Ammo men kelguncha seni yolg'iz tashlab ketmasin. Qo'ni-qo'shnilar bilan kirdi-chiqdi qilmanglar.

Xotinining chehrasi ochilib ketdi-da, burilib ketar ekan, qizlarga xos sho'xlik bilan aylanib, dedi:

– Bir narsangizni buzib qo'ydim, aytsam urish-maysizmi? Olib kelgan suratingizdagi odamlar xuddi kishining aftiga qarab turganga o'xshaydi, igna bilan hammasining ko'zini o'yib qo'ydim.

Mulla Norqo'zining achchig'i keldi, chunki bu «Makkai mukarramani» bir satarosh o'rtog'idan ming iltimos bilan olgan edi.

– Axir, undagi odamlar hammasi hoji-ku!

– Ha, o'la qolsin, hoji odam emasmi!

Xotin kirib ketdi. Mulla Norqo'zi ovqatini yeb, choyga umidvor bo'lib o'tirganida, ko'cha eshigidan yoshgina bir xotin kirib keldi; chimmati qo'lida, vajohatidan uyiga o'g'ri kirgan, yordamga kishi chaqirgani kelgan odamga o'xshar edi. Mulla Norqo'ziga bir qaradi-da, to'g'ri ichkariga yo'naldi. Erkakni ko'ra turib yuzini berkitmaganiga mulla Norqo'zining g'ashi keldi va shunday beibo xotinning ichkariga – farish-talar oldiga kirishini xohlamadi.

– Hay, hay! Xo'sh kimda ishingiz bor?

Xotin o'rta eshikdan kirib ketdi. Mulla Norqo'zi darg'azab bo'lib o'rnidan turdi va eshik oldiga borib bor tovushi bilan baqirdi.

– Hay xotin, deyman, qandoq behayosan! Jinnimi o'zi bu...

Shu onda ichkaridan o'z xotinining tovushi eshitildi:

– E, qandaqa xotin bu, birovning uyiga bostirib kiradil..

Nimadir gursillab yerga tushdi, nimadir sindi. Uyning eshigi sharaqlab ochildi. Bir lahza jimlikdan so'ng haligi begona xotinning baqirgan tovushi eshiltildi:

– Xudo ko'tarsin sen megajinni! Ikkita bolam bor! Bo'yoq yigit qurib ketganmidi?!

Yana nimadir sindi.

– Hay, nima gap?! – dedi mulla Norqo'zi bo'sag'ada turib, – singlim, siz o'zingizni bir chetga oling! Nima deydi bu manjalaqi!

Begona xotin ayvonga chiqib dod ustiga dod soldi. Birpasda tom, devor ustlari, ichki-tashqi hovlining yuzi odamga to'ldi. Mulla Norqo'zi ayvonning pastidan kelib u xotinning etagidan tortgan edi, xotin jon-jahdi bilan bir tepib og'zi-burnini qop-qora qon qildi; bunga ham qanoat qilmay, uning ustiga o'zini tashladi.

– Voydod, xaloyiq, bu qanday erkakki, xotinini birovga qo'shib qo'yib, o'zi eshik poylab yotadi! Voydod xotiningga qo'shgani bo'yoq yigit qurib ketganmidil! Ikkita bolam bor...

Odamlar ajratmaganda bu xotin mulla Norqo'zini g'ajib tashlar edi. Mulla Norqo'zi og'zini ushlaganicha chetlandi. Xotini eshik yonida devorga suyanganicha turar, rangi murdanikiday, o'zi qaltirar edi. Begona xotin hushidan ketib yiqildi. Ikki kishi – ayollar kirib, u farishtani uydan olib chiqishdi. U atlas ko'ylak, lozim kiygan, bosh yalang, oyoq yalang, yoshgina chiroyli bir yigit edi. Hamma jim qoldi. Bu sukunatni yetmish yoshlardagi bir chol buzdi. U, mulla Norqo'ziga qo'lini paxsa qilib dedi:

– Sadqayi odam keting-e, ayb emasmi?! Xotin qilish qo'lingizdan kelmasa taloq qiling! Qo'ying-e, ko'chib keting mahalladan, yo biz ko'chib ketamiz!..

Devor ustida turgan o'n ikki yoshlardagi bir qiz devordan kesak ko'chirib olib mulla Norqo'ziga o'qtaldi.

– Hu oʻl, turqing qursin! Boshingga solaymi shu bilan! Mahallada sasib, oʻquvchi qizlarga kun bermaysan-u, oʻzing notoʻgʻri ish qilasan...

Hammaning diqqati xotinchasi kiyingan va eshik yonida yerga qarab turgan yigitga jalb boʻldi.

Yana jimlik hukm surdi. Bu sukunat ogʻir tegirmon toshi boʻlib mulla Norqoʻzini yanchib yubordi.

U devor ustidagi qizga qarab, boʻgʻiq tovush bilan oʻshqirdi:

– Sen gapirma! Senga kim qoʻyibdi gapirishni! Usta Mavlonning oʻgʻlidan bir hovuch mayiz olganingni oʻz koʻzim bilan koʻrganman!..

Hamma kulib yubordi. Tomdan kimdir qichqirdi:

– Ha, bu kishining xotini mayiz yemagan!

1935

DUMLI ODAMLAR

Respublikamizga chet eldan keladigan ba'zi turistlarga tushunib bo'lmaydi.

Meliboy aka, pensioner, partizan jiyanim turistlar idorasida ishlaydi, o'tgan shanba kuni uyga kelib: «Bu yil turist ko'p, odam yetishmayapti, shahrimizda ikki kun to'xtaydigan bir mehmon bor, qarashib yuboring», – deb qoldi.

Pensiyaga chiqqanimga endi sakkiz oy bo'lgan, hali pensiyaxo'rlikka o'rganganim yo'q, zerikkanimdan kampirimning ishlariga aralashaverib uni ham, o'zimni ham xunob qilib yurgan edim, jiyanimning iltimosiga darrov ko'ndim. Men o'n bir yil shu idorada kichik bir lavozimda turib, pensiyaga shu yerdan chiqqanman.

Shu o'n bir yil davomida qulog'imga kirgan katalimlar o'rnashib, undan bir so'z, bundan bir so'z cho'qib, tilga havas paydo qilganimda esa idora xizmatchilarining yordami bilan kitob tatalab ingliz tilini uncha-muncha bilib oldim. Ingliz tiliga moyil bo'lganim, albatta, tasodifiy emas, bolaligimda Amerikaning ta'rifini ko'p eshitganman: ana osmon-teshar imoratlar-u, ana osma ko'chalar.

Dushanba kuni yangi banoras avra to'n va yashil baxmal do'ppimni kiyib idoraga bordim.

Jiyanimning kabinetida ozg'in, tepakal, ko'zlari och odamning ko'ziday yaltirab turgan qirq besh yoshlardagi bir kimsa o'tirgan ekan. Men taxminan «mehmon shu bo'lsa kerak» deb inglizcha salom berdim. Mehmon qayrilib qaradi, birdan, xuddi ko'z ko'rmagan va quloq eshitmagan bir jonivorni ko'rgandek, hayron bo'lib sekin o'rnidan turdi, sal-

omimga alik olishni ham esidan chiqarib, menga boshdan-oyoq razm soldi; men o'zbek ekanimni, inglizchani qayerda o'rganganimni so'radi; savollariga javob berganimdan keyin to'nimni, do'ppimni ushlab, soch-soqolimni tortqilab ko'rdi. Jiyanim menga ko'z qisib «qo'yavering» degandek ishora qildi.

Jiyanim meni tanishtirgandan keyin mehmonni mehmonxonaga olib bordim. Unga ikki xonali juda yaxshi nomer olib qo'yilgan ekan. Mehmon nomerni ko'zdan kechirdi, yarqirab ko'zni qamashtirayotgan jihozlarni birma-bir ushlab, silkitib, tirnoqlab, hidlab ko'rdi. Men bunga chandon e'tibor qilmadim, chunki boya idorada inglizcha gapirgan o'zbekning o'zbekligiga ishonmay uning libosini ushlab, soch-soqolini tortqilab ko'rgan kimsa, hozir o'zbek mehmonxonasi-dagi yaxshi jihozni qalbaki gumon qilsa ne ajab! Chet elda hozir ham O'zbekistonni mutlaqo bilmaydigan, o'zbeklarni hanuz ketiga po'stak bog'lab, imo-ishora bilan gaplashadigan qabila deb o'ylaydigan odamlar bor-ku! Mehmon o'rnashdi. Tushlikdan keyin ko'chaga chiqdik. Mehmon mehmonxonaning peshtoqiga soya solib turgan qari chinorni ko'rsatib:

– Juda yaxshi daraxt ekan, inqilobdan keyin ekilgan bo'lsa kerak? – dedi.

Chinorning biron yuz ellik yil umr ko'rganligi ko'rinib turgani holda mehmonning bu gapi menga malol keldi. Bu odam idorada nima uchun soch-soqolimni tortqilab ko'rgan bo'lsa, hozir ayni shu maqsadda, ya'ni qanchalik rost gapirishimni bilmoq uchun dilimni titkilab ko'rmoqda edi. Jinim qo'zg'adiyu, men ham uni cho'pga ilib o'ynagim keldi.

– Ha, inqilobdan keyin ekilgan, – dedim va biroz turib, mehmon meni «aravacha» qilganiga o'zida yo'q xursand bo'lib gerdayib turganida ilova qildim, – birinchi inqilobdan ancha keyin ekilgan, – dedim.

Mehmon tushunolmadi.

– Sizlarda ikki marta inqilob boʻlganmi? – dedi shoshib. – Birinchisi qachon boʻlgan? Qanaqa inqilob?

– Bundan yuz yilcha burun, – dedim. – Men ruslarning kelishini birinchi inqilob deb bilaman.

Mehmon boshqa gap soʻramadi, fotoapparatini gʻilofidan olib, yoʻl-yoʻlakay unga-bunga toʻgʻriladi, lekin bironta ham surat olmadi. Birdan koʻchaning oʻrtasida chimmatsiz paranji yopingan bir kampir paydo boʻlib qoldi. Kampir xuddi shaharning hokimiday hech kimni, hatto militsiyaning hushtagini ham pisand qilmay hassasini katta-katta tashlab kelmoqda edi.

Mehmon yugurib koʻchaning oʻrtasiga chiqdi, kampirni qarshilab choʻkkaladi, uni roʻparadan, yon-boshdan, orqadan bir necha marta suratga oldi: suratlashlikda oʻta jon kuydirganidan oʻpkasi ogʻziga tiqilib, oʻtirgani joy izlab qoldi. Parkka boshladim. Qahvaxonaga kirdik. Bir piyola qahvadan keyin mehmon oʻziga kelib, qoʻyin daftarini oldi, undagi rejaga uzoq qaraganidan keyin:

– Shahringizning boshqa diqqatga sazovor joylarini ertaga koʻramiz, bugun menga Reksullohi Ansoriyning maqbarasini koʻrsatsangiz bas. Maqbara shu atrofda boʻlishi kerak, – dedi.

Reksullohi Ansoriy... Bolaligimda Reksbuva degan nom qulogʻimga kirgan, oʻsha vaqtda parkning mana shu oʻng qanotidagi tepalik – hozirgi teatr binosi tushgan joy – goʻriston boʻlib, uning qoq oʻrtasida Reksbuva degan mozar – dahma boʻlar edi. Biroz tashvishga tushdim: bordi-yu, Reksullohi Ansoriy degani biron moʻtabar zot boʻlsa, buni uzoq yurtdan kelgan bir sayyoh bilsa-yu, biz bilmasdan maqbarani buzib tashlagan boʻlsak... Bundan xunugi bormi! Biron nayrang ishlatib bu noqulay ahvoldan chiqish yoʻlini koʻzladim, lekin oʻylab-oʻylab «eng yaxshi hiyla – toʻgʻrilik» degan qarorga keldim-da, Ansoriy toʻgʻrisida bilganlarimni aytib:

– U kishi shahrimiz tarixida qanday o‘rin tutgan ekanlar? – dedim.

Mehmon savolimga javob bera olmadi. Shundan keyin o‘lkamizda jahonga mashhur bo‘lib o‘tgan bir qancha kishilarning nomini aytib, mehmonni «chaqmoqlab» ko‘rdim. Yo‘q, mehmon bu odamlardan bi-rontasini, hatto Ibn Sinoni ham eshitmagan ekan.

Reksullohi Ansoriy kim, uning nima fazilati yo kasrati borligini bilmagan holda bu odam nega uning nomini ko‘tarib yuribdi, nega uning maqbarasi kerak bo‘lib qolibdi – shunga qiziqdim. Mehmon bu haqda bergan savollarimga javob bermasdan iljayib turib-turib, to‘satdan:

– Dumli odamlarni ko‘rganmisiz? – dedi.

Mehmon gapning sarxonasini yangilamoqchi degan o‘yda kulib qo‘ya qoldim.

Biroq qahvaxonadan chiqib, teatr binosining atrofini aylanib yurganimizda mehmon butkul jiddiy bir tarzda yana dumli odamlar haqida so‘z ochdi. Uzun so‘zidan xulosa chiqarib, yer yuzidagi xalqlar taraqqiyot zinasining turli bosqichida, biron bosqichda turgan xalq orasida o‘tgan bosqich kishilari ko‘rinib qolsa, bunga tabiiy bir hol deb qarash kerak, degan fikrni aytdim. Mehmon bu gapning tub ma‘nosiga tushunib yetmadi.

Ko‘chaga chiqdik. Mehmon yana Ansoriydan gap ochdi. Shunda ko‘nglimga bir gap keldi: bu odam o‘sha Ansoriyni dumli odamlar toifasidan deb o‘ylamasmikan?

Xuddi aytganim chiqdi. Mehmonning otasi ilgari o‘rtacharoq bir shirkatning boshlig‘i bo‘lib, shirkat singandan keyin umrining oxirini antropologiyaga bag‘ishlagan, undan ko‘p qo‘lyozmalar, jumladan, mana shu qo‘yin daftari qolgan, shu daftar va boshqa hujjatlarda aytilishiga qaraganda, Reksullohi Ansoriy dumli odamlar toifasidan ekan. Yana bir mo‘tabar

kimsa Reksullohi Ansoriy maqbarasi atrofida hozir ham dumli odamlar yashamog'i ehtimoldan xoli emas, degan ekan.

Jonim halqumimga keldi. Lekin o'zimni bosdim. Shu atrofdagi hamma ko'cha va tor ko'chalarni kezib chiqdik. Men qayoqqa boshlasam mehmon yurmaydi, teskari tomonga yo'l oladi: tez-tez to'xtab hammaga, xususan, atlas ko'ylak kiygan xotinlarga orqadan zehn soladi, aftidan, dumli odam qidiradi. Mehmon bilan gaplashish emas, uning aftiga qaragim kelmas edi.

Kayfiyatimni bilintirib qo'ymaslik uchun noiloj so'z qotdim:

– Janoblari ota kasbini ushlabdilar-da? – dedim.

– Yo'q, mutlaqo, – dedi mehmon. – Men jurnalist-man!

– Antropologiyaga qiziqmasangiz, sizga dumli odamning nima keragi bor?

– Mening gazetamga kerak! – dedi mehmon. – Hech bo'lmasa bironta dumli odamning suratini olib borsam deyman. Juda shov-shuv bo'lar edi... Yordam va'da qilolmaysizmi?

Men o'ylab ko'rmoqchi bo'ldim. Mehmon juda quvonib ketdi. Ovqatdan keyin mehmon dam olgani yotog'iga kirdi. Men butun zahrinni jiyanimga to'kkani idoraga bordim. Jiyanim voqeani eshitib kuldi, meni jahldan tushirdi. «Yuragingizni keng qiling, tog'a, yo'lovchi har bir hurgan itning ketidan quva bersa, manzilga qachon yetadi, degan bor, sizning vazifangiz mehmonni istagan odami bilan gaplashtirish, istagan yeriga olib borish. Bundan tashqari bu odam sizga omonat, omonatga xiyonat qilmasdan, qo'linga sog'-salomat topshirishingiz kerak», – dedi. Jahlimdan tushdim.

Kechqurun mehmonni kontsertga olib bordim. Mehmon zalga kirishi bilan yana o'sha muddaoda odamlarga har tomondan razm sola boshladi, beqa-

sam to'n kiygan bir mo'ysafidning ketiga tushdi. Xayriyat, chiroq o'cha qoldi-yu, borib joyimizga o'tirdik. Mehmon kontsertga qiziqmadi, mudrab o'tirdi, aloamat bir o'yin bo'layotganda hatto xurрак otib yubordi. Shuning uchun kontsertning ikkinchi bo'limiga qolmadik, ertaga uchrashadigan bo'lib, mehmonxona oldida xayrlashdik. Ertasiga kelishim bilanoq mehmon: «Kechagi gapimiz nima bo'ldi, yordam berasizmi?» deb so'radi. Men bu haqda hech bir qarorga kelmaganligimni aytdim. Shundoq bo'lsa ham mehmon yordam berishimga amin ekanligini bildirib, oldindan tashakkur ma'nosida yelkamga qoqib qo'ydi va teatr atrofidagi xonadonlardan birontasini ko'rishga orzumand ekanini bildirdi.

Men uning muddaosini fahmladimu, o'sha tomonlarga olib bordim va orqa ko'chadagi ro'para kelgan hovliga boshladim. Mehmon apparatini bo'ynidan oldi va hayajon ichida ostonadan hatladi. Kirgan eshigimiz hozir uchastka deb ataladigan oddiy, lekin mevazor, gulzor, nihoyatda didli, havasli odamlarning hovlisi ekan. O'rta yoshlardagi bir xotin sariq luchchak shaftoli terayotgan ekan, bizni ko'rib shotidan tushdi, so'rashdi, yelib-yugurib supaga joy qildi, dasturxon yozdi. Bir necha xil shaftoli keltirib qo'ydi. Mehmon goh menga, goh xotinga qarar, goh uning orqa etagiga razm solar edi. Xotinning o'g'li vrach, kelini o'qituvchi, hozir ikkovi ham ishda ekan. Mehmon hafsalasi sovib, fotoapparatini bo'yniga osdi-yu, alaminii shaftolidan oldi, umrida bunaqa shaftolini ko'rmagan bo'lsa kerak, rosa yedi. Shu choq uning ko'zi devorning tagida qunishib turgan kasal jo'jaxo'rozga tushdi. Uning oyoqlari uzun, bo'ynining pati to'kilib qip-qizil go'sht bo'lib qolgan, o'zi nihoyatda oriq edi. Mehmon darrov qo'lini artди, fotoapparatini bo'ynidan oldi, jo'jaxo'rozga juda yaqin borib cho'kkaladi: jo'jaxo'roz boshini ko'tarib hayron

bo'lib turganda bir necha marta suratga oldi. Choy ko'tarib kelayotgan xotin «voy, suratga olaman desalar yaxshi tovuqlarimiz bor, bu kasal edi-ku» deganicha qolaverdi.

Achchig'im keldi, lekin mumkin qadar muloyimlik bilan:

– Jo'jaxo'rozning surati ham gazetaga kerakmi? – deb so'radim.

Mehmon javob bermadi, «ketdik» deb ishora qildi. Xotinga tashakkur izhor qildim. Ko'chaga chiqdik.

Mehmon bu hovliga, xotinning mehmondo'stligiga shubha bilan qaradi shekilli, bir necha hovliga o'zi bosh tiqdi. Men ham qo'yib berdim, orqasidan kirmadim, chunki unga tarjimon kerakmas, odamlarning orqa etagiga razm solishdan boshqa ishi yo'q...

Samovarda o'tirib, birpas dam oldik. Mehmon ko'zimga xunuk ko'rina boshladi: kim aytadi, buni osmonteshar imoratlarni ko'rgan, osma ko'chalar-da yurgan odam deb! Diqqat bo'ldim. Papirosni allaqachonlar tashlab yuborgan edim, shu topda bitta so'rgim keldi-yu, papiros olgan magazinga kirdim. Bilmadim, magazinda qancha turib qoldim ekan, qaytib chiqsam mehmon yo'q. Birpas kutdim, keyin yuragim hovliqib, u yoq-bu yoqqa qaradim. Qidirdim.

Yigirma-yigirma besh minutning har biri bittadan sog' tishimni sug'urib olgandek bo'lib o'tdi.

Bu kasofat biron hovli yoki biron ko'chaga kirib, gumonsiragan odamiga «dumingni ko'rsat» desa, bunaqa hazilni birov ko'taradi, birov ko'tarmaydi... Bir soatdan ortiq qidirganimdan keyin avtomatdan jiyanimga telefon qildim, voqeani aytdim. Jiyanim tovushidan tashvishda qolgani sezilib tursa ham, menga tasalli berdi va «Yo'qotgan joyingizdan uzoqqa ketmang», – dedi. Samovarda yana bir necha minut o'tirdim. Narigi ko'chadagi machitning yarmi qulagan mezanasiga ko'zim tushdi. Bu kasofat shuning surati-

ni olgani bormadimikin? O'sha yoqqa bordim. Machit-ning ichini, atrofini qaradim, odamlardan so'roqladim – yo'q. Samovarga qaytay deb turganimda yon ko'chadan karnay-surnay, qiyqiriq bilan ikki mashina kuyov-navkar chiqib qoldi. Oldindagi mashinada lunjini shishirib surnay chalayotgan surnaychining yonida turib, beo'xshov o'yinga tushayotgan olabayroq to'n kiygan bir kishiga ko'zim tushdi, sinchiklab qarasam – mehmon! Suyunib ketdim. Yugurib borib mashinaning oldini to'sdim. Mehmonga harchand «tush» deb ishora qilaman, qani endi ko'nsa – menga qarab nuqul muqom qiladi. Kayfi baland. Mashinada tanish odamlar bor ekan, qo'ymasdan meni mashinaga tortib olishdi. Mehmonning mashinadan tushish niyati bo'lmagani uchun mashinani to'xtatib jiyanimga telefon qildim. Tanish odamlarning aytishiga qaraganda mehmon nima bo'lib to'yxonaga kirib qolibdi. Odamlar uning chet eldan kelgan mehmon ekanini bilib to'rga o'tqazishibdi, to'n kiyg'izishibdi, o'yinchilar uni o'yinga tortishibdi.

Kelinning uyiga keldik, ziyofat zo'r bo'ldi, o'yinkulgi juda qizidi. Mehmon bu yerda ham ancha ichib qo'ydi. Shu yerdagi dastyor bolalar mening tashvishda qolganimni payqab, mehmonni hushiga keltirib berishdi. Mehmon hushiga kelganidan keyin yana aynidi: yana dumli odam qidirib hammaga zehn sola boshladi. Shundan keyin «siz ovora bo'lmang, janob, dumli odamni ertaga o'zim topib beraman» deyishga majbur bo'ldim. Mehmon meni o'pdi, salomatligimga ustma-ust ikki ryumka otdi...

Ertalab mehmonxonaga kelsam mehmon lanj bo'lib yotibdi, lanjki, hech aytgulik emas. Shundoq bo'lsa ham, la'nati, ko'zini ochishi bilan kechagi va'damni so'radi. Men uni pastga olib tushib, achchiq choy ichirdim, nordon narsalar yegizdim, ichkilik zahri biroz sinib ta'bi ochilganidan keyin dumli

odam deb bekor ovora bo'lib yurganligini tushuntirishga harakat qildim. Mehmon xafa bo'ldi.

– Sening hukumating butun mamlakat ustiga temir parda tortgan! – dedi.

Bunga gap uqtirish, qorong'i uyga kesak otgandek gap edi. Shuning uchun yon bergan bo'lib, yolg'ondan o'ylab qoldim-da, chuqur xo'rsinib:

– Shuni bilar ekansiz, nima qilasiz meni qiynab? – dedim.

Mehmon chehrasi ochilib yana yolvordi:

– Men sizga bitta dumli odamni qafasga solib ber, olib ketaman deyotganim yo'q. Uzoqdan qorasini ko'rsatsangiz bas, mening apparatim ikki kilometr-dan oladi!

U desam u dedi, bu desam bu dedi – hech bo'lma-di, nihoyat «seni dumli odamlarga yo'latish qo'limdan kelmaydi, xatarli, xohlasang apparatingni ber, biladigan, udda qiladigan ishonchli kishiga aytib, bironta dumli odamning suratini oldirib beraman» deyishdan boshqa chora qolmadi. Mehmon xursand bo'lib, apparatini qo'limga tutqazdi. O'zi lanj bo'lgani uchun tushgacha yotib dam olmoqchi ekanini aytdi. Men tushdan keyin keladigan bo'lib qaytdim. Tushdan keyin kelsam, mehmon hanuz lanj, yotgan ekan, lekin apparatini tegishli odamga topshirganimni, u kishi butun lentani dumli odamga to'ldirib berishni va'da qilganini eshitib o'rnidan turib ketdi.

– Lekin sharti bor, – dedim, – omonatingizni faqat ketadigan vaqtingizda, samolyotga chiqayotganingizda beradi.

– Ertaga, ertagayoq jo'nayman! – dedi mehmon.

Kelishuvga muvofiq shaharning diqqatga sazovor joylarini ko'rgani chiqdik. Kun qaytguncha yurib, ko'p tarixiy yodgorliklarni ko'rdik, to'g'on – ko'lga bordik, shahrimizning ko'rki bo'lgan yangi ko'chalar, maydonlar, xiyobonlarni kezdik, muzeylarga kirdik.

Mehmonning biron narsaga qiziqqanini, biron joyda to'xtab, biron narsaga qaraganini ko'rmadim. Hamma narsaga o'shshayib qarar, qayoqqa va nima uchun ketayotganini, nima qilib yurganini o'zi ham bilmas, aftidan, kunni kech qilishdan bo'lak muddaosi yo'q edi. Madaniyat va istirohat bog'iga kirdik. Mehmon hech bo'lmasa shu boqqa, xususan, gulu gulzorga qiziqar deb o'yladim, chunki shahrimiz bu boqqa juda bino qo'ygan. Yo'q, gulzorga mehmon qayrilib ham qaramadi, uning diqqatini jalb qilgan birdan-bir narsa bog'ning bir chekkasidan oqayotgan anhor bo'ldi. Buning nimasiga qiziqdi ekan deb qarasam, loy suv qirg'oqdan toshgudek bo'lib, shox-xashak va yana allanima balolar oqib kelayotibdi. Birov sug'orish maqsadida to'g'on solgan, suv to'g'onni urib ketgan bo'lsa kerak. Mehmon iflos suvga xuddi sichqonni ko'rib qolgan mushukdek butun vujudi bilan qarar, chamamda fotoapparati yonida bo'lmaganidan afsuslanar edi; bog'dan chiqib mehmonxonaga tomon ketayotganimizda eski-tuski yig'ib yurgan eshak aravani ko'rganida ham xuddi shu holga tushdi.

Mehmonxona ko'chasiga qayrilganimizda mehmonning gazetasiga qo'l keladigan yana bir hodisa ro'y berdi: shu ko'chadan g'izillab chiqqan «Moskvich» kattakon bir sariq itni urib o'tdi. It vangillab ikki-uch yumaladi, turishga intilib turolmadi, yotib tipirchiladi. Mehmon goh boshini ko'tarishga urinib, goh oyoqlarini silkib jon berayotgan itga yaqin borib, beixtiyor cho'kka tushdi va apparat izlab yonini paypasladi.

Mehmon ertasiga jo'naydigan bo'ldi. Dumli odamlar surati olingan fotoapparatni qora qog'ozga o'rab ayeroportga olib chiqdim va qo'ynimdan bir chekkasini chiqarib ko'rsatdim.

Mehmonning ko'zlari yonib ketdi. Xilvatga bordik. Mehmon apparatini olib katak sumkasiga joyladi-yu, cho'ntagidan bir dasta pul chiqardi.

– Sizning haqingizni o‘zim bilib beraman, – dedi. – U kishi bilan necha pulga gaplashgansiz?

– Pul to‘g‘risida hozir gaplashmaymiz, – dedim, – avval suratlarni chiqarib ko‘ring, ana undan keyin o‘zingiz narx bichib yuborarsiz.

Mehmon yana minnatdorchilik bildirdi. Samolyotga chiqdi, samolyot Tojikistonga qarab yo‘l oldi. Kim biladi, mehmon yurtiga borguncha sabri chidar-mikin? Tojikistondayoq lentani chiqarar, chiqarsa dumli odamlar o‘rnida o‘zini ko‘radi: men apparatni maktab to‘garagiga qatnab, foto ishida mashqini rosa qilgan kichik o‘g‘linga berib, «Mehmon ikkovimiz shahar aylanamiz, sen ketimizdan yurgin, qayerda chap oyog‘imni ko‘tarsam, mehmonning yakka o‘zini suratga olaverasan», degan edim. Bir qancha joyda, jumladan, mehmon anhor bo‘yida, eski-tuski yig‘ib yurgan eshak arava yonida va jon berayotgan itning ustida turganida chap oyog‘imni ko‘targan edim. O‘g‘limning o‘zi hushyor bola, g‘alati-g‘alati paytlarni topgan bo‘lsa kerak. Men bu narsani jiyanimga aytmadim, aytsam ham urishmasa kerak, chunki meh-monga ozor berganim yo‘q, nihoyati yuziga oyna tutdim.

YETIM

Tibbiyot fanlari kandidati Murod Ali sakkiz oydan beri o'lim to'shagida «ana ketdi, mana ketdi» bo'lib yotar, shaharning manaman degan tib arboblari uning chiqay-chiqay deb turgan jonini ming chora va tadbir bilan halqumida zo'rg'a tutib turishar edi.

Bemor cho'kkan ko'zlarini xiyol ochib, kechki shafaqdan qizargan deraza pardasiga qaradi, uning yolqinida qora ko'lankaday bo'lib turgan singlisi Marg'ubani ko'rib, zaif, juda ham zaif tovush chiqardi. Marg'uba yugurib keldi, engashib qulog'ini uning og'ziga tutdi. Murod Ali boyagi zaif tovushga bor quvvatini sarf qilgan bo'lsa kerak, ko'zlarini yumdi, bir necha daqiqa kuch yiqqanidan keyin shu gapni necha bo'lib aytdi:

– Odam ko'p kelayotganga o'xshaydi, tugab borayotibmanmi?...

Marg'uba bemor kutganidek «Yo'q, undoq emas, ak-sincha, falon-falon alomatlar tuzalib borayotganingni ko'rsatadi», deyish o'rniga yig'lab yubordi. Murod Ali ko'zlarini kattaroq ochdi, boyagidan ko'ra bardamroq, lekin yig'lamsiragan tovush bilan dedi:

– Marg'uba, menga halitdan aza ochma, ko'z yoshi men o'lgandan keyin ham kerak bo'ladi.

Yotoqning qorong'i burchagidagi divanda o'tirgan Anvar ammasiga zarda qilib irg'ib o'rnidan turdi, tovush chiqarmay kuyinib yig'ladi-yu, oyoq uchida zalga otildi. Uning g'am-koyishdan zaif bo'lib qolgan vujudi titrar, endi sabza urgan soqol-mo'ylovi oppoq yuzida qurumga o'xshab ko'rinar edi. Hayal o'tmay Marg'uba yotoqdan chiqib, zalning chirog'ini yoqdi va deraza ostidan odam yurgizmaslikni tayinlash uchun

qarindoshlar, yor-do'stlar, Anvarning o'rtoqlari – talabalar o'tirgan mehmonxonaga tomon ketayotgan edi, Anvar uning bilagidan siltab to'xtatdi va g'ijini shivirladi.

– Amma, farosat degan narsa bormi, dadamning oldida muncha yig'laysiz!

Anvar hech qachon bunaqa muomala qilmagani, bu taxlitda gapirmagani uchun Marg'uba birpas hang-mang bo'lib qoldi-yu, esini o'nglab olganidan keyin yana yig'ladi.

– Dadangga mendan boshqa kuyadigan odam yo'q!

– Yolg'on! Kechagina birovga «Bayram ichi o'lib qolsa, o'ligini qanday saqlayman?» deganingizni o'z qulog'im bilan eshitdim-ku! Kuygan odamning ko'ngliga shunaqa gap keladimi? Kuygan odamning shunaqa degani tili boradimi?!

Marg'uba kuyinib nimadir demoqchi bo'lgan edi, Anvar burilib, dahlizga, undan hovliga chiqib ketdi.

Hovliga shom qorong'isi tushgan, gulzor atrofiga bir necha erkak-ayol bitta-bitta qadam tashlab jimgina kezar edi, eshik ochilganda bir qarab qo'yishdi-yu, Anvarga hech kim e'tibor qilmadi. Anvar borib, chinor ostidagi so'riga o'tirdi, ich-ichidan xuruj qilib kelayotgan yig'ini jonining boricha bosishga harakat qildi. Yig'i uning tomog'ida pixillagan tovushga, ko'zidan tirqirab chiqqan yoshga aylandi. Uning nazarida dadasining hayoti bir vaqtlar selday shovillab oqar edi, sakkiz oydirki, bu oqim borgan sayin susayib, jildirab qoldi, bu kunlarda esa tobora siyraklashayotgan tomchiga aylandi. Kim biladi, oxirgi tomchi qachon «tik» etib tomadi-yu... Anvarning yuragi jig' etib ketdi. Nahot! Nahot quyosh so'nib hayot uning uchun zulmatga aylansa! Dadasi porlab hayot yo'lini avvalidan oxirigacha yoritib turganda, tentirab qadam bosar edi-yu, hayot zulmatga aylanganda, holi ne kechadi? Bu zulmatda unga kim qo'l cho'zadi? Anvarning ko'z

oldiga ammasidan boshqa hech kim kelmadi. Qavm-qarindoshlar, yor-do'stlar keladi, ko'ngil so'raydi, achinadi, yig'laydi, lekin ertami-kechmi uyiga ketadi. Qoladigan, yelib-yuguradigan, haqiqatan birdan-bir kuyadigan odam shu ammasi-ku! Anvar ammasiga qattiq tekkaniga pushaymon bo'ldi va uning befarosatligiga ham vaj topdi: oilaviy hayoti chayon bo'lib hamma asabini birma-bir chaqqan ayolda, buning nimasidan o'pkalaydi kishi!

Eshik ustidagi yorug' chiroq yondi. Uning atrofiga kattakon bir parvona aylanib qoldi. Hayal o'tmay Marg'ubaning eri Javlon tepakal, qip-qizil boshini eshikdan chiqarib, Anvarni imladi. Anvar yugurib bordi, vino va chirik tamaki hidi anqib turgan Javlonning yonidan o'tib zalga, undan yotoqqa kirdi. Doktor dadasining bilak tomiriga ukol qilmoqda, ikki hamshiraning biri divanda bir qo'lga tayanib, boshini quyi solib o'tirgan ammasiga dori iskatmoqda edi. Doktor chiqib ketgandan keyin Murod Ali holsiz ko'z ishorasi bilan Anvarni chaqirdi va eshitarlar-eshitilmas: «Ammangga qara», dedi. Anvar borib, ammasining yoniga o'tirdi-da, hol so'radi. Bu, avvalo, dadasining xohishi bo'lsa, undan keyin, boyagi qilgan dag'alligi uchun uzr so'ragani edi.

Qarindoshlardan ketadigani ketdi, qoladigani qoldi. Tun osoyishta o'tdi. Bemor faqat ikki marta uyg'onibdi, o'shanda ham zaif tovush chiqaribdi-yu, Marg'ubaning so'rog'iga javob bermay, yana uyquga ketibdi. Ertalab yana qarindoshlar, yor-oshnolar kelishdi. Bemor kech uyg'ondi. Uning yuziga xiyol qizillik yugurgan, ko'zlari katta, lekin sokin edi. Marg'uba buni, xayriyatlik alomati, deb qarindoshlardan suyunchi oldi. Qarindoshlar kirib, bemorni ko'rmoqchi bo'lishdi, lekin doktor faqat uch kishiga ruxsat berdi. Kirib chiqqan qarindoshlardan bukri bir kampir ko'ziga yosh olib: «Bechora chehra ocha-

yotibdi», dedi. Pastlatilgan chiroq uzoq lipillagani-dan keyin butkul soʻnish oldida bir lopillab yogʻdu sochgani singari, tugab qolgan kasal ham abadiy koʻz yumish oldida shunaqa quvvat paydo qilib chehra ochar ekan.

Haqiqatan, kechga tomon Murod Alining ahvoli ogʻirlashdi, kechasi singlisini chaqirib: «Darmonim borida aytadigan gapimni aytib qoʻyay», debdi.

Margʻuba bu gapni eri Javlonga aytdi. Ikkovi kengashib, vasiyatnoma yozdirgani notariusdan odam chaqiradigan boʻldi.

Ertasiga ertalab Javlon borib notariusdan eski papka koʻtargan jikkakkina bir cholni boshlab keldi. Margʻuba uni bemorning oldiga olib kirdi va eshikni qulflab oldi.

Murod Ali vasiyatnomaga qoʻl qoʻyganidan keyin holdan ketganicha qaytib oʻziga kelmadi – saharga yaqin olamdan oʻtdi.

Anvar karaxt boʻlib qoldi. Uning nazarida dadasi jon bergan daqiqada allanima, favqulodda bir narsa, dahshat roʻy berishi kerak edi, biroq hech narsa boʻlmadi, lekin nimaga koʻzi tushsa, nazariga yot-begona koʻrinar, qayerga bosh tiqsa, hamma yoq – uylar, hovli yeb qoʻyayotganday boʻlar edi.

Anvar bilan hech kimning ishi boʻlmay qoldi. U vaqt oʻtganini, qayerda turgani yo oʻtirganini, nima qilgani yo nima qilayotganini idrok etmas, qulogʻiga sidirgʻa gʻovur, ahyonda Margʻubaning chinqirigʻi, motam kuyi, yana gʻovur, yigʻi eshilar, koʻziga birday chinor izdihom koʻrinar edi.

Qayerdadir gʻovur-yigʻi toʻsatdan bosildi. Margʻubaning dod-faryodi eshitildi. Kimdir: «Dadang bilan vidolash», dedi. Anvarning koʻziga tobutda yotgan dadasi koʻrindi, engashmoqchi boʻlgan edi, koʻzi tinib, boshi aylandi-yu, tobutning ustiga yiqilib tushdi. Gʻovur, yigʻi-sigʻi koʻtarildi. Uning yon-verida tib

xodimlari, o'rtoqlari turishgan edi, darrov chetga olib chiqib, baland qabr toshining soyasiga o'tirg'izishdi; biri dori iskatib yelpidi, kimdir galstugini yechib, yoqasini ochib yubordi. Anvar birozdan keyin ko'zini ochdi, boshini ko'tardi. Uning qarshisida terga pishib ketgan Javlon qip-qizil tepakal boshini ro'molchasi bilan tez-tez artib yelpinar, yonida cho'nqayib o'tirgan o'rta yoshli bir xotin stakanda suv uzatib turar edi.

– Ich, jigarim, ich! – dedi xotin va stakanni uning qo'lga berib, peshanasini siladi.

Xotinning tepasida turgan, qop-qora, sochi va mo'ylovi oppoq, barvasta kishi engashib, Anvarning yelkasiga qoqdi.

– Mard bo'l, o'g'lim, mard bo'l!

Anvar suvni olib, ikki-uch ho'pladi. Kimdir uning yelkasi osha shishadan suv quyib, stakanni to'ldirdi. Anvar orqasiga qarab, bir qo'lida galstuk, bir qo'lida shisha tutib turgan nozikkina qizni ko'rdi. Uning qovoqlari yig'idan shishgan, qizargan edi.

– Mard bo'ling, Anvarjon, — dedi qiz ham, picha turib ilova qildi: – Dadangiz dunyoga kelib, nuqul odam orttirgan ekanlar, qarang, butun shahar, yosh-u qari...

Bu so'zlar Anvarning huvillab qolgan qop-qorong'i qalbiga go'yo uchqun sochib kirdi, uning ko'nglinigina emas, butun olamni yoritdi.

Uning ko'zi siyraklab qolgan odamlar orasidan ko'rinib turgan qabrga, qabrni ko'mib odam bo'yi ko'tarilgan gulchambarlarga tushdi. Shu choq Javlon uni qo'lidan tortib turg'izdi va qo'ltiqlaganicha mashinaga tomon olib ketdi. O'rtoqlari uni mashinagacha kuzatishdi. Mashina qo'zg'alganda, boyagi qiz derazadan galstugini uzatib yana bir marta: «Mard bo'ling, Anvarjon!» dedi.

Anvar boyagi xotin bilan qora kishi, bu nozik qiz kimlar ekanini bilolmay ketaverdi. So'rashning mavridi emas edi.

Kunlar o'tdi.

Anvar dadasining qirqi o'tgandan keyin bir kuni bu yil kursda qolganini rasmiylashtirish uchun fakultetiga bordi. Qaytishda magazindan og'ir qog'oz xalta ko'tarib chiqqan o'sha qizni ko'rib qoldi. Qiz ko'chani naryog'ida turgan taksiga qarab jadalladi. Anvar yugurib borib og'ir yukni uning qo'lidan oldi. Bular yaqinlashay deganda boshqa bir odam olg'irlik qilib o'zini eshikka urdi-da, mashina jo'nab qoldi. Boshqa mashina kutish kerak bo'ldi. Qiz Anvardan hol-ahvol so'radi, o'qish nima bo'lganiga qiziqdi, so'ngra dadasidan gap ochdi.

– Bu ko'hna shahar ko'chalari bino bo'lgandan beri bunaqa marosimni ko'rmagandir, – dedi va chuqur xo'rsindi. – Ha... u kishini kim tanimas edi! Ulug' shifokor edilar, hamma ulug' shifokorlar singari o'zlari shu kunlarigacha ming-ming hayot chirog'ini yoqdilar! Meni ham naqd o'lim changalidan yulib olgan edilar. Dunyoda shifokorlardan ham insonroq inson bormikin!

Qiz lablari pirpirab, qoshlari besaranjom bo'ldi.

– Qattiq betob bo'lganmidingiz? – dedi Anvar.

– Yo'q, – dedi qiz chinchalog'i bilan ko'zlarining chetini artib, – o'lim birdan chang solgan edi...

Gapdan gap chiqib ma'lum bo'lishicha, o'sha kuni Anvarga suv bergan xotin bu qizning onasi Muboraxonim, «mard bo'l», degan qora kishi uning otasi Hakimjon ekan.

Anvar yaqinlashib kelayotgan taksiga qo'l ko'tardi, mashinaning eshigini ochib yukni qo'ydi, chetlanib qizga yo'l berdi. Qiz quyuq xayrlashib jo'nadi. Anvar uning ketidan qarab qoldi.

Anvar boya qizning ketidan yugurganida yukini ko'tarish bahonasi bilan otini so'ramoqchi bo'lgan edi, gap bilan bo'lib, so'rash esidan chiqib qoldi.

Bularning taksi olganini kimdir ko'rgan ekan, bu xabar shu kuniyoq quloqma-quloq, Marg'ubaga yetib

bordi: «Anvar Hakimjonning qizi Muhayyoni taksilar-da olib yuribdi...»

Bu gapni Javlon ham tasdiqladi, dambiq qornini silkitib kuldi-da, «U qiz qabristonda ham Anvarga ko'p mehribonchiliklar qildi, uning ketidan ergashib mashinagacha keldi», dedi. Marg'uba alamidan ing-rab yubordi.

Kunlar o'tdi.

Anvar dadasining qirqi o'tgandan keyin bir kuni bu yil kursda qolganini rasmiylashtirish uchun fakultetiga bordi. Qaytishda magazindan og'ir qog'oz xalta ko'tarib chiqqan o'sha qizni ko'rib qoldi. Qiz ko'chani naryog'ida turgan taksiga qarab jadalladi. Anvar yugurib borib og'ir yukni uning qo'lidan oldi. Bular yaqinlashay deganda boshqa bir odam olg'irlik qilib o'zini eshikka urdi-da, mashina jo'nab qoldi. Boshqa mashina kutish kerak bo'ldi. Qiz Anvardan hol-ahvol so'radi, o'qish nima bo'lganiga qiziqdi, so'ngra dadasidan gap ochdi.

– Bu ko'hna shahar ko'chalari bino bo'lgandan beri bunaqa marosimni ko'rmagandir, – dedi va chuqur xo'rsindi. – Ha... u kishini kim tanimas edi! Ulug' shifokor edilar, hamma ulug' shifokorlar singari o'zlari shu kunlarigacha ming-ming hayot chirog'ini yoqdilar! Meni ham naqd o'lim changalidan yulib olgan edilar. Dunyoda shifokorlardan ham insonroq inson bormikin!

Qiz lablari pirpirab, qoshlari besaranjom bo'ldi.

– Qattiq betob bo'lganmidingiz? – dedi Anvar.

– Yo'q, – dedi qiz chinchalog'i bilan ko'zlarining chetini artib, – o'lim birdan chang solgan edi...

Gapdan gap chiqib ma'lum bo'lishicha, o'sha kuni Anvarga suv bergan xotin bu qizning onasi Muboraxonim, «mard bo'l», degan qora kishi uning otasi Hakimjon ekan.

Anvar yaqinlashib kelayotgan taksiga qo'l ko'tardi, mashinaning eshigini ochib yukni qo'ydi, chetlanib qizga yo'l berdi. Qiz quyuq xayrlashib jo'nadi. Anvar uning ketidan qarab qoldi.

Anvar boya qizning ketidan yugurganida yukini ko'tarish bahonasi bilan otini so'ramoqchi bo'lgan edi, gap bilan bo'lib, so'rash esidan chiqib qoldi.

Bularning taksi olganini kimdir ko'rgan ekan, bu xabar shu kuniyoq quloqma-quloq, Marg'ubaga yetib

bordi: «Anvar Hakimjonning qizi Muhayyoni taksilar-da olib yuribdi...»

Bu gapni Javlon ham tasdiqladi, dambiq qornini silkitib kuldi-da, «U qiz qabristonda ham Anvarga ko'p mehribonchiliklar qildi, uning ketidan ergashib mashinagacha keldi», dedi. Marg'uba alamidan ing-rab yubordi.

MUHAYYO

Ha, bu xabarni eshitib, Marg'uba ingrab yubordi. Anvarning Muhayyo, ya'ni Hakimjonning qizi bilan munosabat paydo qilishi uning uchun ko'zlariga six qizdirib tiqish va har bir sog' tishini ombur bilan haftalab sug'urish bilan barobar edi.

Hakimjon vaqtda xushsurat va shirin zabonligi bilan ko'p rasida qizlarning yuragini notinch qilgan, xushfe'l va xushtavozeligi, qo'y og'zidan cho'p olmagani bilan ko'pgina ota-onalarning havasini keltirgan yigit bo'lib, o'n yillik maktabda adabiyotdan dars berar edi.

U vaqtda Murod Alining xotini Rohatbegim tirik, Marg'uba shu yerda turib, o'n yillikda o'qir edi. Murod Ali singlisiga juda bino qo'ygan bo'lishiga qaramay, to'qqizinchi sinfda nima bo'lib undan bexabar qoldi-yu, Marg'uba imtihonda bir necha fandan yiqilib, o'ninchi sinfga o'tolmadi. Uning yiqilgan fanlari ichida adabiyot ham bor edi. Rohatbegim hayron bo'lib, «Adabiyotni yaxshi ko'rar eding-ku, undan nega yiqilding?» deganida Marg'uba turib-turib, «Adabiyotni emas, adabiyot o'qituvchisini yaxshi ko'raman», deb yig'lab yubordi. Rohatbegim angrayib qoldi-yu, «yuzing qursin!» deyishdan boshqa gap topolmadi va bu fojiani eriga aytdi. Murod Ali Marg'ubaga yaxshi gapirib maslahat qildi; uyat-ayb, odob bobidan gapirib uyaltirdi; maktabdagi tegishli odamlar bilan gaplashib, yiqilgan fanlaridan qaytib imtihon topshirtirdi.

Marg'uba o'ninchi sinfga o'tdi, o'qidi va shu bilan birga Hakimjonga zimdan shunaqa hujumlar qildiki, bahorga chiqquncha Hakimjon kechalari shiftga qa-

rab oh tortadigan, yotgan yeridan turib she'rlar yoza-digan bo'ldi.

Bahorga chiqib Hakimjon Marg'ubaga sovchi qo'ydi.

Bular bir-ikki yil durust turmush qilishdi. Keyin turmushning taxiri chiqa boshladi: avvalo Hakimjon uni na o'qishga ko'ndioldi, na biron hunar orttirish-ga; so'ngra Marg'uba tug'ishni xohlamadi – Hakim-jondan yashirinch a ikki marta homilasini nobud qildi. Bularning ustiga jahon notinch bo'lib, mam-lakatda qiyinchilik boshlandi. Marg'uba bu qiyin-chilikning oila hayotiga bo'lgan ta'sirini Hakimjon-ning noshud notavonligidan deb bilib serxarxasha bo'lib qoldi. Bularning turmushiga kun sayin tuz so-layotgan bu sabablarni Murod Ali ham bartaraf qilol-madi, Rohatbegim ham; aksincha, bularning arala-shuvi Marg'ubani andishasiz qilib qo'ydi. Oqibatda bu ikki oila orasiga sovuqchilik tushdi. Shundan ke-yin Marg'uba akasining tazyiqidan o'zini ozod sezib, Hakimjonni izzat qilmaydigan bo'lib qoldi.

Urush boshlandi. O'n bir oydan keyin Hakimjon harbiy xizmatga chaqirildi, yetti oyni lagerda o'tkaz-di. Dastlabki bir-bir yarim oyda Hakimjon Marg'uba-ga o'ntacha xat yozdi. Biroq Marg'ubadan bitta javob keldi, xolos. U ham qabr toshida yozilgan xatday sovuq, undagi «sog'inchli salom», «jonim», «judo-lik» singari so'zlar qabr toshiga ilingan rang-barang qog'oz gullarga o'xshar edi.

Yetti oy deganda Hakimjonning batalyoni front-ga jo'naydigan bo'ldi. Hovli vokzalga uncha uzoq emasligidan foydalanib, Hakimjon komandiridan javob olib yugurdi, yugurib borar ekan, Marg'uba ko'ziga, goh og'ir xasta holda, rangi sarg'ayib to'shak-da yotganday ko'rinib yuragi ezilar, goh eshikdan lo-laday yashnab, quchoq ochib chiqadiganday entikar edi.

Hakimjon muyulishdan burilganida, hovli eshigi oldidagi o'zi o'rnatgan o'rindiqlarda pista chaqib o'tirgan Marg'ubani tusmol bilan tanidi: sochini qirqtipti. Marg'uba uni ko'rib o'rnidan turdi, yerga qaragani-cha, uyulib yotgan pista po'choqlarini oyog'i bilan nari-beri surdi. Uning egnida yengsiz katak kofta, tor kulrang shim – xuddi kaltakesakka o'xshar edi. Hakimjon kelib, undan ikki-uch qadam narida to'xtadi. Marg'uba unga iljayib, ko'zlarini pirpiratib qaradi-da, hamon pista chaqib po'chog'ini tuflar ekan: «Kechirasiz, taqdir ekan... – dedi va xi-xilab kuldi, – men taqdirning qo'lida o'yinchoqman!»

Hakimjon unga boshdan-oyoq razm soldi va qorni do'ppayib turganini payqadi-da, nima deyishini bilmay burilib ketar ekan: «Xo'p, eson-omon qutuling! – dedi va kirza etigini to'qillatib jo'nab qoldi.

Hakimjon muyulishdan o'tib, ellik qadam bosmasdan darmoni qurib birovning zinasiga o'tirib qoldi va umrida birinchi marta dil-jigaridan chiqarib: «E Xudol – dedi, – meni urushdan omon qaytar! Keyin nima qilsang mayli: quloqlarimdan tutun, ko'zlarimdan alanga chiqar!»

Jo'nadi.

Yo'llar, shaharlar, manzillar... Tutun, alanga, xarobalar... To'plar, tanklar, samolyotlar na'rasi... Yer tishlagan o'liklar, hayqirgan, ingragan tiriklar... Hakimjon nimalarni ko'rmadi, nelarni boshidan kechirmadi, lekin hamma yerda, hamma vaqt, har qanday holatda, urushning oxirgi oylarida chap oyog'i sonidan kesilib gospitalda yotganida ham Marg'ubaning pista chaqib, tirjayib turgani ko'z o'ngidan, «Taqdir ekan, men taqdirning qo'lida o'yinchoqman», degani qulog'idan ketmadi.

Hakimjon gospitaldan shimining bir pochasini osiltirib, ikkita qo'ltiqtayoc bilan chiqdi; g'alabadan keyin ham O'zbekistonga qaytgani shoshilmadi, bir-

oz vaqt Minskda, keyin Kiyevda hol-baqudrat ishlab rizqini terib yurdi. Kiyevda oyoqsoz yaxshi ustalar paydo bo'ldi. Hakimjon oyoq soldirib, sal kunda qo'ltiqtayoqni tashladi, to'qillab, g'ijirlab bo'lsa ham bermalol yuradigan bo'ldi. Uning yurib ketayotganini uzoqdan ko'rgan odam bir oyog'i yog'och ekanini tezda payqayolmas edi.

Shundan keyin uning ko'ziga jonajon shahri, o'ynab o'sgan ko'chalari, qarindosh-urug', yor-do'stlari ko'rindi, Vatanini sog'indi.

Hakimjon bir oyog'idan ajralgandan keyin avval umuman tiriklikdan, keyinchalik O'zbekistonga qaytishdan umid uzgani uchun xat yozishni to'xtatib qo'ygan edi, shuning uchun uning to'satdan kirib kelishi qavm-qarindoshlari, yor-jo'ralarnigina emas, begona odamlarni ham suyuntirib yubordi. Hamma, har bir kishi unga biron yaxshilik qilgisi, loaqal biron og'iz yaxshi so'z aytgisi kelar edi.

Mehmondorchiliklar boshlanib ketdi. Bu mehmondorchiliklarda ko'proq frontoviklar bo'lgani uchun suhbat ko'proq front xotiralari, qolaversa, bu yerdagi qiyinchiliklar to'g'risida ketar edi. Bu o'tirishlarda faqat ikki narsa to'g'risida – Hakimjon oyog'ini qayerga tashlab kelgani-yu, Marg'uba nima bo'lgani va nima qilib yurgani to'g'risida hech kim og'iz ochmas, Hakimjonning chap oyog'i yog'och, Marg'uba bir vaqtlar uning xotini bo'lganini hamma bilsa ham bilmaslikka solar edi.

Uning yor-jo'ralari harakat qilishgan bo'lsa kerak, hukumat unga avval bir xona uy, keyincharoq hovli berdi. Ilgari qayerda turganini so'ramadi; maorif bo'limi uni ilgariги vazifasiga – o'sha maktabga adabiyot o'qituvchisi qilib tayinladi. Oradan bir-ikki oy o'tgandan keyin qarindoshlar o'rtada turib, unga eri urushning boshida halok bo'lgan Muborakxon degan juvonne olib berishdi. Oradan bir yil o'tgach, ular qiz ko'rishdi, otini Muhayyoxon qo'yishdi.

Qop-qora tunda charaqlagan yulduzlar, qish qa'ridan bahor quchog'iga otilib chiqqan rasida qizlarning jamoli ta'rifga sig'adimi?

Muhayyo kekxa tabiat bor hunarini, tamomi makr-u hiylasini ko'rsatib oro bergan o'shanday rasida qizlardan biri, lekin yana allanimasi bilan mahallaning bino qo'yan bisoti bo'lib yetishdi.

Uning husnidan boshqa yana nimasi boshqa qizlardan ortiq? Nima uchun tengqurlari, hatto o'zidan kattaroq qizlar ham uni «opacha» deb atashadi? Nima uchun eng tantiq, gerdaygan yigitlar ham uning nomini toq aytolmay «Muhayyoxon» deyishadi? Nima uchun qariyalar ko'cha-ko'ya uning salomiga bajonidil alik olish bilan qanoat qilmay, yana duo qilishadi? Militsiya hushyorxonaga olib ketgani mashinaga sololmayotgan bir badmast «Muhayyoxon kelayotibdi», degan gapni eshitishi bilan o'zini mashinaga urgan emish...

Nega? Nima uchun?

Bularning sababini hech kim bilmas, zotan, bu to'g'rida o'ylab ko'rish hech kimning xayoliga ham kelmas, Muhayyo deganda hamma fikr-mulohaza, har qanday o'y-xayol patday to'zib ketar edi.

«Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga», degan gap bor. Muhayyoni kelin qilish orzusi bag'rini o'rta yurgan ota-onalar, etagining shamoliga ko'kragini tutgan yigitlar mahallada ozmikan? Lekin bu to'g'rida biron kishi og'iz ochmas, «notavon ko'ngil» degan dashnom andishasi hammaning ham tilini bog'lar edi.

Bu baxt qushi kimning, qaysi bir tolei baland yigitning boshiga qo'nar ekan? Hammaning tilida shu savol, lekin hammaning dilida ezgu bir tilak: «Iloyim, tengi topilsin!»

O'sha yili mart kunlarining birida qor aralash yomg'ir urib berdi. Yomg'irdan qochib, mahalla magaziniga tiqilgan odamlar orasida quloqma-quloq:

«Muhayyoni falonchining o'g'li parkda qo'ltiqlab yurgan emish», degan gap yurib qoldi.

Mahalla bir seskanib tushdi. Qor aralash yomg'ir zabtiga olganiga qaramay, ayniqsa, xotin-xalaj shaloplab u yoqqa yugurdi, bu yoqqa yugurdi, kechgacha hamma gap ma'lum bo'ldi: Muhayyo tuzuk-kina bir odamning o'g'li Salimjon degan yigitga unashilgan ekan, yaqinda to'y emish. Yigit talaba ekan, hafsasalik odamlar atayin institutga borishdi, uning darsdan chiqishini kutib, ko'rib kelishdi. Ko'rgan odamlarning aytishiga qaraganda bularni bir-biriga Xudoning o'zi bichib tikkan, ikkovi dunyoning ikki burchida bo'lsa ham bir-birini qidirib topar ekan.

Birov «Yoshlar o'zlari topishibdi», birov «Ikkovining ota-onasi niyat qilgan ekan», dedi; nima bo'lsa bo'ldiyu, to'y kelasi shanba kuniga tayinlandi.

To'y ikki yoshning, ikki xonadonninggina emas, ikki mahalla, butun yor-do'stlarning to'yi bo'ldi. Yer va tomlarni odam, bola-chaqa bosib ketdi. Xursand bo'lmagan odam yo'q edi. Ashula, yalla, o'yin, askiya, qiziqchilik, gur-gur kulgi... Bularni oralab yor-do'stlar yoshlarga eng yaxshi tilaklar tilashar edi. To'rga yaqin o'tirgan talabalar – Salimjonning o'rtoqlaridan biri Naimjoi degan yigit so'z oldi:

– Men hamma yaxshi tilaklarga qo'shilaman, shu bilan birga o'zim ham kichkina bir tilakni aytmochiman. Men oila ko'rganim yo'q, lekin ko'p oilalarga razm solib bir fikrga keldim. Bilmadim, vaqti kelganda bu fikrimni o'zim amalga oshira olamanmi, yo'qmi... Lekin, shundoq bo'lsa ham, do'stim Salimjon bilan kelinimiz Muhayyoxonga shuni aytmochiman: qadimdan oilada er general, xotin soldat bo'lib kelgan ekan, endilikda xotinlardan ham generallar chiqayotibdi-ku, lekin erkaklar soldat bo'lgani uncha unashmayapti...

Qiyqiriq, chapak bo'lib ketdi. Kimdir luqma tashladi:

– Yashasin general xotinlar! Askarlikka unamagan erkaklar sudga berilsin!

– Yo‘q, – dedi Naimjon, – mening tilagim boshqa. Men Salimjon bilan Muhayyoxon bir-biriga general emas, itoatli, fidokor, sodiq soldat bo‘lishini istar edim!

Boyagidan ham qattiqroq qiyqiriq, kulgi ko‘tarildi. Ayniqsa, ayollar huzur qilib kulishar, fidokorona chapak chalishar edi. Naimjon joyiga o‘tirayotib Muhayyoga ko‘z tashladi. Muhayyo so‘zlaganiga qulluq, so‘zni o‘rinlatganga tasanno ma‘nosida jilmayib bosh egib qo‘ydi. Shu choq uning bilagini muzday qo‘l qattiq g‘ijimladi. Muhayyo seskanib Salimjonga qaradi. Rangi bo‘zarib ketgan, entikkan Salimjon nafasi titrab:

– To‘g‘ri o‘tiring, bo‘yingiz qiyshayib qoladi! – dedi.

Naimjon uning nima deganini eshitmagan bo‘lsa ham, vajohatini ko‘rib rashk qilganini fahmladi-yu, qattiq xijolat bo‘ldi.

Muhayyo ichida: «Nahot rashk qilayotgan bo‘lsa? Xudo urdimi... Gapi ma‘qul bo‘lmadi, shekilli» degan xayolda hazillashdi:

– Xo‘p, mayli, siz general, men soldat! – deb kuldi. Xayriyat, shu choq davrada o‘ynayotgan qiz Salimjonning ro‘parasiga kelib o‘yinga tortgani muqom qilib turib oldi-yu, bu gap qiyqiriq ostida qolib ketdi.

To‘y qandoq xush-xursandlik bilan boshlangan bo‘lsa shundoq tugadi. «Tengi topilsin» deganlar «xayriyat» deb erkin nafas olishdi.

Kunlar o‘ta boshladi. Oradan ko‘p o‘tmay shu ma‘lum bo‘ldiki, to‘y kechasi Salimjonga Naimjonning so‘zi emas, o‘zi ma‘qul bo‘lmagan, Muhayyo qarab bosh egganida haqiqatan rashk qilgan ekan.

Uning kunchiligi kundan-kun avjiga chiqar edi. To‘y sabab bo‘lib, Muhayyoning bitta imtihoni kuzga qolgan edi, shunga tayyorlik ko‘rmoqchi bo‘lganida, Salimjon «O‘sha fakultetda o‘qimaysan!» deb turib oldi, aftidan, Naimjon shu fakultetda o‘qir edi.

Shundan keyin kunlar rashk bilan boshlanib rashk bilan tugaydigan bo'lib qoldi: «Falonchini taniysanmi?», «Bu kitobni kimdan olding?», «Ko'chada kimlarni ko'rding?..»

Bir kuni ikkovi teatrga bordi. Birinchi pardadan keyin Muhayyo Salimjonni muzqaymoqqa boshladi-yu, ne ko'zi bilan ko'rsin, kiraverishda chap tomondagi to'rt kishilik stolda Naimjon limonad ichib o'tirar edi. Salimjon «Muzqaymoq bahona, diydor g'animat ekan-da», degan ma'noda yalt etib Muhayyoga qaradi. Naimjon mulozimati ko'rsatib darhol o'rnidan turdi, avval Muhayyoga qo'l uzatdi. Muhayyo ichidan qirindi o'tayotgan bo'lsa ham, to'ydagi gap xayolida ham yo'qligimi Salimjonga pisanda qilish uchun jilmayib so'rashdi. Salimjon birdan burildi-yu, juda ham zarur ishi borday yugurib budkaning oldiga bordi, ketidan Muhayyo yugurib kelayotganini bilib budkaning orqasiga o'tdi, undan parkka, parkdan ko'chaga chiqib ketdi. Bo'laricha bo'lgan Muhayyo unga avtobus bekatida yetib oldi.

Salimjon yo'lda biroz hovridan tushganday bo'lgan edi, uyga kelib yana avj qildi: ustki ko'ylagini yechib uloqtirdi, ota-onasi eshitmasin uchun Muhayyoning burniga burnini ishqaguday bo'lib sekin baqirdi:

– Men sizni ulgurji olganman, xonim, ko'tara savdo bo'lgansiz! Ko'zingiz ham, qo'lingiz ham, jilmayishingiz ham, shunga kiradi!

Muhayyo Salimjonning vujudi qaqshab to'lg'ana-yotganini ko'rib, yoniga o'tirdi, qo'liga tushib qolgan gazeta bilan yelpidi, uzoq yelpidi. Salimjon anchadan keyin biroz yumshadi, lekin Muhayyoga xo'mrayib qaradi. Muhayyo ma'yus jilmayib turar edi. Salimjon hozir uzr ma'nosida uning qo'lini ushlashga tayyor edi, lekin erkaklik g'ururi yo'l bermadi, buning o'rniga chuqur xo'rsindi. Muhayyo yelpishdan to'xtadi va jilmayib dedi:

- Salimjon aka, agar siz meni rashk qilmasangiz, o'ksir edim, chunki eri rashk qilmaydigan xotinning hayoti yovg'on oshga o'xshasa kerak, deb o'ylayman. Bir o'qituvchimiz: «Rashk xususiy mulkchilik kayfiyatidan tug'ilgan», degan edi, yolg'on! Bema'ni gap! «Bulbul rashk otashida kuyib sayraydi», deb eshitganman, mana bunga ishonsa bo'ladi. Rashk juda-juda chiroyli narsa, lekin siz buning xunugini chiqarib yuborayotib-siz. Hozir shundoq bo'layotibdiki, go'yo men bir xalta yong'og'-u, ehtiyot qilmasangiz, mahkam ushlamasangiz to'kilib-sochilib ketaman! Bunaqa rashk xotin kishiga malol keladi, qattiq tegadi!..

Muhayyo uning «bulbul bo'lib qilgan xonishlari»dan ba'zi birini aytib berdi. Salimjon uning bir-ikki e'tiroziga yon berganday bo'ldi-yu, qilmishlari nohaq ekanini anglagan sayin jirillay boshladi. Muhayyo gapni uzaytirmadi.

Shundan keyin Salimjon, har nechuk, insofga kelganday bo'ldi, xarxasha kamaydi, hatto yoshlar balida bir yigit Muhayyoni o'yinga tortib birga o'ynaganda e'tibor qilmaganday qattiq-qattiq gapirib, kulib o'tirgan bo'ldi.

Biroq keyin ma'lum bo'ldiki, Salimjon xarxasha qilmagani bilan butun dardini ichiga solib yurgan ekan, bir kuni yorildi.

Salimjon bir kechasi yomon tush ko'rdi: burni boltaga o'xshagan, o'zi qop-qora bir barzangi Muhayyoni bir oyog'idan sudrab ketayotgan emish; Muhayyo dod solish, yig'lash o'rniga nuqul kular emish. Salimjon uyg'ondi, lekin hali esini o'nglamasdan Muhayyoga chang soldi. Mast uyquda yotgan Muhayyo erkalani boshladi. Hamon es-hushini o'nglolmagan Salimjon irg'ib turdi-yu, Muhayyoni bo'g'di. Muhayyo pitirladi, xirilladi, Salimjon uyg'onib qo'yib yuborgan edi, karavotdan polga gursillab tushdi. Salimjon nima bo'lganini hanuz idrok etolmay shoshib o'rni-

dan turdi, chiroqni yoqib yubordi. Muhayyo og'zidan ko'kragiga laxta-laxta qon kelib chalqancha yotar edi. Salimjon dodlab hovliga otildi va «dada» deb shunaqa baqirdiki, butun xonadon uyg'onib yugurib chiqdi.

Uyga kirib Muhayyoni ko'tarishdi. Uning ko'kragidagi qon emas, sochini tang'ib yotgan qizil ro'moli ekan. Salimjonning titrog'i biroz bosildi.

«Tez yordam» mashinasi Muhayyoni hushsiz holda kasalxonaga olib ketdi.

Bemorning ahvoli tang bo'lgani uchun yarim kechasi maxsus chaqirilgan vrach Murod Ali bir kecha-yu bir kunduz uning tepasidan ketmadi.

Muhayyoni kasalxonaga kuzatib borgan qaynatasi o'g'lini so'roqqa tutdi. Salimjon bo'lgan voqeani qo'rqqanidan boshqacha qilib aytdi: «Tushida er-kalanib falonchining nomini aytdi. O'zimning ham gumonim bor edi», dedi. Otasi peshanasiga bitta urib, «Chiroyli xotinning xosiyati yo'q, demovdimmi, o'g'lim», dedi. Salimjon shunaqa demasdan «uyqusi-rab bo'g'ibman» deb qo'ya qolsa ham bo'lar ekan, bundoq deganidan keyin kasalxonaga borishi ota-onasi-ning oldida noqulay bo'lib qoldi.

Muhayyo kasalxonadan chiqib, to'g'ri o'z uylariga bordi. Bunga sabab Salimjonning qilmishi, kasalxonaga ko'rgani kelmagani emas, o'sha dargohdan zada bo'lib qolgani, o'q yeb yiqilgan qushday butun vujudi bilan qochishga talpingani edi.

Muhayyo bo'lgan voqeani ota-onasidan avval yashirsa ham keyin aytib berdi va eti junjikib: «Bosinqiraydigan kasali bor ekan», dedi.

Bir kun o'tdi, uch kun o'tdi, o'n kun o'tdi, na Salimjon, na qudalar, hech kim yo'qlamadi,

Mahallaga alvasti mish-mish bosh tiqdi: «Muhayyoning yaxshi ko'rgan yigiti bor ekan, uyqusida alahlab otini aytib qo'yibdi», «Muhayyo birov bilan o'ynashib yurar ekan, Salimjon yarim kechasi

kelsa, birov devor oshib ketgan emish», «Muhayyo qiz chiqmagan ekan, eri insof qilibdi – sharmanda bo'lmasin deb shu choqqacha xotin qilibdi»...

Oyning oxirida butun oila kechki dasturxon ustida edi, birov ko'cha eshigini qoqdi. Muhayyo chiqdi. Quda tomon Muhayyoning ro'zg'orini ikki mashina qilib berib yuboribdi. Muhayyo qaytib voqeani ota-onasiga aytdi va bulardan so'z chiqishini kutmay daftardan bir varag'ini shartta yirtib oldi-da, xat yozdi: «Men o'zimga tegishli hamma narsani, ya'ni jonimni olib kelganman, sizlarga hech qanaqa da'vom yo'q», dedi va xatni ota-onasiga ko'rsatdi. Muborakxonim ko'ziga yosh oldi. Hakimjon «Yaxshi javob!» dedi. Muhayyo chiqib, shofyorga xatni berdi, yukni qaytarib yubordi.

VASIY

Bu yillar davomida Marg'uba Hakimjondan keyin to'rtta erga tegdi, beshovidan ham yolchimaganidan keyin hammasidan o'ch olish uchun har biridan qolgan yuq-yurin bilan o'zidan besh yosh kichik, tabiatan xotin olishdan ko'ra mol-dunyoli xotin bo'lsa olishga moyil Javlon degan yigitga tegib oldi. Uning o'lgan xotinidan Muattar degan qizi bo'lib, internatda ekan. Buni Marg'uba ikki yildan keyin bildi. Bular bir-ikki yil binoyidek turmush qilishdi, keyin Javlon qiliq chiqardi: bir joyda ko'p ishlamaydigan, tez-tez ichadigan, xotin-xalajga aylanishadigan bo'ldi. U ba'zan ko'cha-ko'ya yiqilib qolar, Marg'uba uni goh birovlarining qaznog'idan, goh birovlarining karavoti ostidan sudrab chiqarar edi. Doktor Murod Ali singlisi Marg'ubadan allaqachonlar yuz o'g'irgan edi, Anvarning onasi qazo qilgan kunlarda yuz ko'rishdi-yu, biron oydan keyin ko'chirtirib keldi. Bunda Murod Ali bir tomondan yolg'izligini o'ylagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jigarchilik ekan, singlisiga achinib Javlon bu yerda biroz bo'lsa ham tiyilarmikin, degan xayolga borgan edi. Biroq Javlon tiyilmadi, qayta Marg'ubaning bir dardi ikki bo'ldi: bir tomondan Javlonning jafosini tortsa, ikkinchi tomondan, qon yutib yurganini Murod Alidan yashirishi kerak edi. Uyda tovush chiqarmaslik uchun Marg'uba tishini tishiga qo'yan sayin Javlon haddidan oshaverdi. Ichkisi kelsa o'zini Marg'ubadan farzand bo'lmaganidan alamzada ko'rsatar, biron xotinga aylanishsa Marg'ubaning qariligini yuziga solar, hatto birovlarining oldida ham uning betini so'rib tashlangan husayni uzumga o'xshatar, «bir qop saksovulday g'ichirlamay-shig'ir-

lamay o'la, deb kular edi. Avvalo Hakimjonning kulgisiga, undan keyin Murod Ali va qolaversa qavm-qarindoshning ta'nasiga qolmaslik uchun Marg'uba Javlondan ajralishni xayoliga ham keltirmas, aksincha, uning oyog'iga ming bir kishan solish yo'lini ko'zlar edi. Uning oyog'iga solingan hamma kishanlar vaqt-soati bilan zangladi, parchalandi, endigi yangi, hali-veri zanglamaydigan kishan Murod Alidan qolgan hovli-joy, mashina, kassadagi naqd pul, Anvarning onasidan qolgan bir dunyo taqinchoqlar edi. Anvarning boshi ochiq, Muhayyo bilan munosabat paydo qilishi boshqa hamma dahshatlardan tashqari mana shu kishanning zanglay boshlashi, vaqti kelib parchalanishi xavfini tug'dirar edi.

Marg'uba yuragi hovliqib, Anvarning kelishini ham kutmadi, odatdagidan kamroq va tezroq pardoz qildi: havorang shohi ko'ylagini, baland poshnasi orqaroqqa ketgan amirkon tuffisini kiydi, taqimiga tushadigan uzun, lekin ingichka ulama sochini soldi, bo'yniga qizil marjon, qulog'iga sariq baldoq taqdi, yuziga upani qalin surkab, yonog'idagi ko'k xolini ko'mdi, gajaklarini chakkasiga tupuk bilan yopishtirdi, chamandagul do'ppini sap-sariq farqi ustiga qo'ndirdi, noparmon ro'molchaga atir sepib ko'kragiga tiqdi-da, Muhayyoning onasi Muborakxonni qidirib ketdi. Muborakxonim omonat kassada ishlar ekan, Marg'uba yog'och panjaraning darchasidan boshini tiqib, salom yo'q, alik yo'q, sayrab ketdi: «Megajin qizingizni yig'ishtirib olasizmi, yo'qmi! Bitta yigitning shoxini sindirganlaring yetmasmidi, endi mening jiyanim qoldimil.. Go'ristonda qo'ymasa, ko'chada qo'ymasal..»

Muborakxonim Marg'ubani ilgari ko'rmagan, lekin eshitgan edi, kayfi uchib ketdi, mijozlar va xizmatchilardan xijolat bo'lib, darrov uni ko'chaga olib chiqdi, xilvat darvozaxonaga olib kirdi; Marg'uba Muhayyo

to'g'risida aqlga sig'maydigan, og'izga olib bo'lmaydigan gaplarni gapirayotgan bo'lsa ham, qarshi so'z aytsa shovqin solib odam to'plashidan qo'rqib og'irlik qildi, tezroq jo'natish payidan bo'ldi; lekin nomuslarga o'ldi, uyga borib Muhayyoning terisiga somon tiqish uchun ishining tamom bo'lishini kutdi.

Marg'uba Muborakxonimni «loyday qilib» hordig'i chiqqandan keyin «Endi qizini tergasa ham tergaydi, tergamasa ham tergaydi», deb xotirjam bo'ldi-yu, bu haqda Anvarga indamay qo'ya qoldi.

Shu kuni kechki ovqatdan keyin ko'cha eshigi taqilladi. Anvar chiqdi. Eshik oldida sochlari to'zigan, ko'ylak yoqasi yirtilgan o'sha qiz qon-qon yig'lab turar, nuqul: «Bu qandoq gap! Bu qandoq bedodlik!» der, boshqa so'z aytgani o'pkasini sira bosolmas edi. Anvar ne mashaqqat bilan uni sal yupatib gap so'radi. Qiz onasiga Marg'uba aytgan gaplarni, ilon po'st tashlaydigan tuhmatlarni aytib berdi va «Hozir am-mangiz bilan bo'lganimcha bo'laman», deb ichkariga intildi. Uning ahvolini ko'rib Anvar ham yig'laguday bo'ldi, lekin yo'lini to'sdi, bu gaplarning tagiga yetishni va'da qilib, avtobusga eltib qo'ydi.

Anvar qaytib kelganda ammasi asabiy kayfiyatda titroq nafas chiqarib choy puflar edi.

– Ha, muncha hayallading, kim ekan? – dedi.

G'azab vujudini tish og'rig'iday qaqshatayotgan Anvar biron dag'al gap aytib qo'ymaslik uchun darrov javob bermadi, borib radioning qulog'ini burar ekan, to'ng'illadi:

– O'sha o'zingiz bilgan qiz...– dedi.

Marg'uba zag'chaday shaqilladi:

– Shunaqami, juvon o'lgur senga qizman deydimi?

Anvar baqirib berdi:

– Menga hech narsa degani yo'q! – o'zining tovushi o'ziga erish tuyilib biroz tushdi. – Men uni ikki marta ko'rdim, xolos... Otini ham bilmayman!... Lekin be-

kor boribsiz, amma! Shunaqa gumoningiz bor ekan, avval o'zimdanda so'rasangiz bo'lasmidi?

Marg'uba kelib uning yoniga o'tirdi va guvillayotgan radioni o'chirdi.

– Men sendan hech narsa so'ramayman, hamma-sini ota-onangdan so'rab qolganman! Ota-onang seni menga topshirib ketgan. «Otasidan hovli-yu mashinadan boshqa yana nimalar qoldi ekan?» deb atro-fingda hid bo'lib yurgan bitta shu megajin emasdir! Ahmoq bo'lma! Men senga bo'ladigan savdoni aytib qo'ya qolay! Sening peshanangga Muattar yozilgan. Muattarning peshanasiga sen yozilgansan!

– Anvar hayron bo'ldi.

– Qanaqa Muattar?

– Muattar bitta.– Javlon pochchangning o'gay qizi! Otang yotib qolmaganda allaqachon fotiha qilar edik, balki to'ylaring ham bo'lar edi!

Anvar qizarib ketdi.

– Bo'lman gapni qo'ysangizchi!

– Otangning vasiyati bo'lmagan gapu bir megajinni taksilarda olib yurishing, u megajin kuppa-kunduz kuni eshigimizni taqillatib kelishi bo'ladigan gapmi? Muhayyo qanaqa narsa ekanini bilasanmi o'zing?

Marg'uba Anvarning ikkala bilagini mahkam ushlab o'tirib, Muhayyo to'g'risidagi mish-mishlarga o'zidan bir talay qo'shib gapirib berdi, shunday gaplarni ayt-diki, Anvar bu gaplarni eshitgani yuzi chidamay o'z bo'lmasiga kirib ketdi. Marg'uba vahimaga tushdi: «Muhayyo o'lgur buning boshini aylantirib qo'yganga o'xshaydi-ku», deb uning ketidan kirdi, o'rnini tuzatib bergan bo'ldi, lekin chiqib ketishga shoshilmadi; An-var Muhayyo to'g'risidagi gapga quloq solmayotganini ko'rib, Muattardan so'z ochdi. Anvar Muattarning in-ternatda o'qiganini, keyin chet tillar institutiga ket-ganini bilar, lekin ko'rganida hech qachon e'tibor qil-magan edi. Marg'ubaning aytishicha, Muattar hind

bo'limida o'qir, imtihonlarini «a'lo»ga topshirib, amaliy mashg'ulot uchun bir necha qiz bilan Hindistonga ketayotgan ekan. Marg'uba «Muattarga xat yoz» demoqchi bo'lib gapni ko'p aylantirdi, uning so'nggi xatini, xatga qo'shib suratini keltirib berdi. Anvar uni imtihonlarini «a'lo»ga topshirgani bilan tabriklab, Hindiston safariga oq yo'l tilab xat yozadigan bo'ldi-yu, ammasining shaqillashidan qulog'i orom oldi. Marg'uba xat bilan suratni qo'yib chiqib ketdi.

Anvar suratni qo'liga oldi. Marg'ubaning maq-tovlaridan keyinmi yo o'zi ilgari durustroq e'tibor qilmagani uchunmi, Muattar ko'ziga xunukroq ko'rin-di. Uning ko'z oldiga Muhayyo keldi. Muhayyoning oldida esa Muattar ancha xunuk, suratda cho'chi-gan kalamushday pisib, baqrayib turar edi. Anvar shu damgacha Muhayyoga durustroq e'tibor qilma-gan ekan, Muhayyo hozir, ammasi boshiga shuncha tosh-tuproq yog'dirgandan keyin ham yerga toptalgan oltinday yarqirab turar edi. Uning ko'z oldiga dadasi dafn qilingan kuni Muhayyoning yig'idan shishib ket-gan qovoqlari, boya eshik oldida yig'lab turgani keldi, qulog'iga o'sha kuni «Mard bo'ling, Anvarjon», degani, taksi kutishganda, yetimlikka ko'nikish, odamning taftini odam ko'tarishi, o'rtoqlik va do'stlik haqida aytgan gaplari eshitilib ketdi.

Anvar o'tirib, Muattarga xat yozdi, tabrikladi, oq yo'l tiladi va xatning oxirida: «Ammam menga bir xil gaplarni gapirdilar, shundan xabaringiz bormi?» de-di: konvertni yopishtirganidan keyin ko'ngli to'lma-di-yu, bir parcha qog'ozga «Men hali yoshman-ku», deb yozdi-da, buklab-buklab konvertning chekkasi-dan tiqib yubordi.

Uch kunga qolmay Muattardan shamol-to'polon ko'tarib, uzundan-uzoq xat keldi. Muattar xiyla bet-ga chopar qiz ekan, xatda Marg'ubani tuproqqa qorib tashlabdi, «Men erga tegadigan bo'lsam, dallolning

keragi yo'q» debdi. Marg'uba o'zini yerga ko'tarib urdi, yuzini yuldi, buni «pandavaqi Anvarning eti bilan terisi orasiga kirib olgan» Muhayyodan ko'rdi.

Ertasiga Anvarni institut komsomol komitetining sekretari¹ Rahimjon chaqirtirdi va kecha ammasi «Muhayyoning dastidan dod» deb kelganini aytdi. Marg'uba qaysi kuni kechasi Muhayyo to'g'risida Anvarga nimalar degan bo'lsa ortig'i bilan Rahimjonga to'kib solibdi va Anvarni «Muhayyo balosidan» qutqarib berishini komsomol komitetidan talab qilibdi.

Rahimjon Muhayyo va uning otasini yaxshi bilar, Muhayyoning eri bilan ajrashgani va buning sababidan xabardor ekan, Marg'uba qalashtirib tashlagan gaplar boshdan-oyoq bo'hton ekanini aytib, taassuf bildirdi. Anvar bo'lgan voqeani to'liq aytib berdi. Rahimjon Anvarning kimga uylanishi to'g'risida otasi vasiyat qilganiga mutlaqo ishonmadi. «U kishi bunaqa odam emas edilar», dedi, Marg'ubaning jag'ini tiyish haqida choralar ko'rish niyati borligini aytdi.

Anvar bu tuhmatlardan xuddi o'zi qutulganday xursandligidan yer-u ko'kka sig'madi, sekretarning so'zlarini aytib Muhayyodan suyunchi olgani shoshildi; manzilini olib yugurganicha ketdi va hovliqqanicha eshikni taraqlatib ochdi-yu hovlining o'rtasiga borib qolganini o'zi ham bilmay qoldi. Muhayyoning onasi Muborakxonim tandirning oldida borib-kelib non yopayotgan ekan, Anvarni ko'rib hayron bo'lib qoldi. Anvar yosh boladay quvonib: «Men... men Anvarman! Komsomol komitetining sekretari».

Muborakxonim harchand hovuridan tushgan bo'lsa ham, Anvarni ko'rib yana lovillab ketdi-da, qo'lidagi uchi tutab turgan qog'ozni baland ko'tarib: «Hu amming boshingni yesin!» deb bir quvladi. Anvar kirgan eshigini topolmay, oshqovoq palagi bosib yotgan devordan oshib ketdi.

ONAYIZOR

Muborakxonim shuncha gap-soʻzdan keyin Anvarning hovliga bunchalik beibo bostirib kirganiga oʻzicha maʼno berdi-yu, Margʻubaning dod-faryod qilgani, Muhayyoning turmushi nima uchun buzilganligi toʻgʻrisida tarqalgan mish-mishlarda jon bor, degan fikrga keldi-da, «Muhayyo nahot shu ahvolga, ota-onasining oppoq sochini oyoq osti qiladigan bir ahvolga tushgan boʻlsa?» deb yuragi orziqdi.

Yana bir tandir boʻladigan non yopilmasdan qoldi. Muborakxonim xoʻrligi keldi, yuzini changallab xoʻp yigʻladi, keyin tutoqdi; Muhayyo nimadandir quvonib hakkalab-sakrab koʻchadan kirib kelganda esa uradigan, sochlarini yuladigan, oʻzini gʻijimlab tashlaydigan bir vajohat bilan unga tomon otildi. Muhayyo onasining vajohatini koʻrib qoʻrqib ketdi, ogʻzidan chiqayotgan peshtaham soʻzlarni eshitib, «Yana biron chaquv boʻlganga oʻxshaydi», deb oʻyladi-da, uni hozir jahldan tushirishga urinish behuda ekanini koʻrib choʻkka tushdi va «uring» degan maʼnoda bosh egdi. Muborakxonim birdan toʻxtadi, vujudi titrab qiziga oʻqtalغان mushtini oʻzining koʻkragiga, boshiga urib dod soldi.

– Xudoyo boʻyning uzilmasin, bolam! Boʻyning uzilmasin!

Garang boʻlib qolgan Muhayyo uning qoʻllarini tutdi, suyab supaga oʻtqizdi.

– Ayajon, oʻzingizni bosing! Nima gap oʻzi? Nima boʻldi? Nima gunoh qildim?..

Muborakxonim uning uzatilgan qoʻllariga shart-shurt urdi, ikki yelkasidan ushlab itarib tashladi. Muhayyo chalqancha yiqilayozdi, ikki qoʻliga taya-

nib, yerga o'tirib qoldi, boshidan do'ppisi uchib ketdi. Muborakxonim yana urmoqchi bo'lib o'dag'ayladi.

– Gunohingni bilmaysanmi?!

Muhayyo ko'zlari javdirab onasiga qaradi.

– Bilaman, ayajon, bilaman, gunohim qiz bo'lib tug'ilganligim... – Xayriyat, shu chog' Hakimjon kelib qoldi-yu, Muborakxonim mojaroni unga bildirishni istamadi, shekilli, boshi og'riyotganini bahona qilib yonboshladi. Muhayyo buni fahmlab, darrov o'rnidan turdi, chopqillagancha kirib, ko'krak burma ko'ylagini kiyib chiqdi, qolgan nonlarni yopib olgani tandirga o't qaladi, Hakimjon Muborakxonimning avzoidan xafachilik bo'lganini payqab, uni gapga soldi. Muborakxonim bo'lgan voqeani kasalday inqillab, zorlanib aytib berdi. Hakimjon miyig'ida kuldi-yu, issiq non botirib yegani Muhayyodan bir piyola sovuq suv so'radi. Muhayyo suv keltirib, dasturxonga qo'ygan-da, Muborakxonim unga otasi oldida nasihat qildi:

– Ersiz xotinning boshiga Buxorodagi yuvindi to'kiladi, jon qizim! Anvar xirsdai yigit bo'la turib, hovlimizga shunday beibo, beandisha bostirib kiranini ko'rgan kishi nima deydi?

Muhayyo hayron bo'ldi:

– Anvar? Nimaga kelibdi?

Muborakxonim yana qizishdi.

– Sen bilsang kerak?!

– Nima dedi?

– Og'iz ochgani qo'ygan bo'lsam deydi-dal Kosovni olib bir quvdim!..

Muhayyo onasiga mung'ayib qaradi.

– Yetimchani-ya? Ko'ngli yarimta bir bechoradan ikki og'iz gap so'rasangiz nima qilar edi, ayajon?

Hakimjon dimog'ida kuldi.

– Undan gap so'ragandan ko'ra sening yuzingga qora chaplash osonroq-da!

Muborakxonim biroz xijolat bo'ldi.

– Men buning yuziga qora chaplaganim yo‘q, har qanaqa onaning ham ko‘ngliga keladi...

Muhayyo uning boshini, yelkasini siladi va yig‘lam-siradi.

– Ayajon, men sizdan gina qilayotganim yo‘q! O‘zingiz aytdingiz-ku: ersiz xotinning boshiga Buxorodagi yuvindi to‘kiladi... To‘g‘ri, xotin-xalajning soyasi yupqa bo‘ladi. Turmushim buzilganda faqat mening to‘g‘rimda mish-mish chiqdi-ku, Salimjon to‘g‘risida bir og‘iz gap bo‘lgani yo‘q! Xayriyat mahalla meni biladi, yaxshi biladi; hech kim bilmaydigan, paranjidagi xotin bo‘lsa nima bo‘lar edi?

Muhayyo o‘pkasi to‘lib, tandir boshiga qarab ketdi.

Muborakxonim birpas dami ichiga tushib ketdi-yu, Hakimjonga yopishdi.

– Siz shu narsaga beparvo bo‘layotibsiz, buning oxiri voy!..

Hakimjon bir burda issiq nonni sovuq suvga botirib, og‘ziga solar ekan:

– Muhayyo bilan Anvar orasida nima gap borligini bilmayman, – dedi. – Har nechuk Marg‘uba har vaj bilan bizni notinch qilish yo‘lini ko‘zlagani ko‘zlagan deb bilaman. Siz bilmaysiz, aytsam balki ishonmassiz... Vaqtida bu xotin o‘zining jinoyatini mening o‘limim bilan yopmoqchi bo‘lgan edi. Bo‘lmadi, men urushdan omon keldim; undan keyin «meni baxtsiz qilgan shu odam» demoqchi bo‘lib, boshini u eshikdan bu eshikka urdi-yu, kalavasining uchini yo‘qotib qo‘ydi; ikkovimizning nasibamiz qo‘shilgan ekan, xabaringiz yo‘q, oramizni buzish uchun, sizning to‘g‘ringizda har xil gaplar uchirdi; yo‘q, tinch-totuv turmush qildik, Muhayyo tug‘ildi, o‘ydi... Muhayyoning turmushi buzilgandan keyin mahallada tarqalgan mish-mishlar urug‘ini Marg‘uba sepkan emas deb o‘ylaysizmi? Endi qizimizni badnom qilmoqchi bo‘lyapti! Men uning erini bilaman, er o‘sha bo‘lsa, turmushini ham tasavvur qilish mumkin!

Muborakxonim bu gaplarga sukut qilib quloq soldi, pirovardida boshini ko'tarib, eriga yolvordi.

– Harqalay, Muhayyoni bu yo'ldan qaytaring!
Hakimjon bo'g'ildi.

– Qaysi yo'ldan? Muhayyo biron yo'lga kiribdimi?

– Achchig'ingiz kelmasin... Anvar yosh, aqli ikki ko'zida, biron kor-hol bo'lsa umr bo'yi qizimizni boshi ta'nadan chiqmaydi. Muhayyoga it tekkan!..

Hakimjon yana ham bo'g'ildi, lekin non yopayotgan Muhayyo eshitmasin uchun qattiq shivirladi:

– Bu nima deganingiz? Endi Muhayyo umr bo'yi baxtsiz bo'lishi, xotini o'lgan yo xotin qo'ygan odamni kutishi, o'zini uning oyog'i ostiga tashlashi kerakmi? «Muhayyoga it tekkan» emish! Salimjonning onasi ham o'z farzandiga shunday deb qararmikin?

– O, – dedi Muborakxonim, – erkakning yo'rig'i boshqa!

– Undoq bo'lsa boshidan tushaylik: sakkizta xotin bitta erkakning cho'risi bo'lsin, farzand degani doktorxonaga emas, mozorlarga qatnasin... Yana ayta-man, Muhayyo bilan Anvar orasida biron gap borligini bilmayman! Lekin qizimizni o'limdan qutqargan Murod Alining arvohi haqi uning yakka-yu yagona farzandi Anvarni bu oiladan sug'urib olish kerak! Bu to'g'rida qo'limdan kelganini ayamayman! Agar Muhayyo Anvarga ko'ngil qo'ysa, boshimni osmonga yetkazgan bo'ladi.

Muhayyo yopgan nonini savatda keltirib, dasturxonga to'kdi va yoyib qo'ydi, sovigan nonlarni savatga solib, tokning so'risiga osdi.

Shu bilan boyagi mavzuda gap to'xtab qoldi.

Muborakxonim biroz insofga keldi: qizini mahalladan ham yaxshiroq bilgani holda uning to'g'risida ko'ngliga shunaqangi gaplarga yo'l bergani uchun xijolat bo'ldi, buning ustiga, Muhayyo aytmoqchi, ko'ngli yarimta bir yetimchaga qilgan muomalasidan

ko'ngli g'ash bo'ldi, so'z o'rni kelishi bilanoq qilmishiga pushaymon ekanini so'z va yo ishora bilan bildirishni eslab qoldi. Ertasiga ertalab nonushta mahallida uning ko'zi kecha Anvarga alahsib, tandirdan bexabar qolganida, biroz kuygan nonga tushdi-yu, beixtiyor:

– Anvarni ko'rib qolsang, ko'nglidan chiqar, qizim! – dedi.

– E, «ko'rib qolsang» nimasi! – dedi Hakimjon, – Anvarni qidirib topishi, nimaga kelganini bilishi kerak emasmi?

Hakimjon bu gapni shu qadar hayron bo'lib, shunday bir ohangda aytdiki, Muborakxonim so'z topolmay:

– Mayli, mayli, – dedi va «Uni qayoqdan topadi, qayerda ko'rishadi», deb ham so'ramadi.

KO'K PASHSHA

Muhayyo Anvarni qayerdan qidirishni bilmas edi: uyiga borib bo'lmaydi, fakultetda mashg'ulot yo'q. U o'ylab-o'ylab fakultet pochta taxtasida xat qoldirishdan boshqa iloj topolmadi-da, shu maqsad bilan ketayotganida nima xayolga borib Anvarning ko'chasidan yurdi; ko'chani ikkiga bo'lgan xiyobondan o'tganida muyulishdagi pivoxona oldidagi ariq bo'yida cho'qqayib o'tirgan Javlonni ko'rib qoldi. Javlon egnida sariq mayka, nosrang galife shim, tepakal qip-qizil boshini yaltiratib pivo ichib o'tirar edi. Muhayyo negadir Anvarni shu atrofdan qidirib u yoq-bu yoqqa ko'z tashlab o'tib borayotganida Javlon ko'rib qoldi. U qo'lidagi bir krujka pivoning ko'pigini puflab tashladi-da, naridan-beri ichdi, og'zini bilagi bilan artib, oyog'idagi kattakon kalishini shaloplatganicha Muhayyoga tomon yugurdi, kelib so'rashdi, qo'lini qo'yib yubormasdan qayta-qayta uzr so'radi. Uning qip-qizil, yaltiroq boshini mayda ter bosgan, qisilgan ko'zlarining ikki burchi oq-sariq, o'zidan dimiqqan xom teri hidi kelar edi. Muhayyo uning qisilgan ko'zlari, anqib turgan hididan jirkanib, gapni cho'zmaslik uchun nega uzr so'rayotganiga ham qiziqmadi, Anvarni so'radi. Javlon uning Anvarni yo'qlaganidan xursand bo'lganday bir harakat bilan «Anvar shu yerda! Uch sekund!» dedi-da, yana oyog'idagi kalishini shaloplatib lo'killaganicha borib, ariq bo'yidagi butaga ilib qo'ygan ustki katak ko'ylagini kiydi, Muhayyoni ta'zim bilan pivoxonaning orqasidagi qizil darvozaga boshladi. Muhayyo Anvarning shu yerda ekaniga suyunib, Javlonning ketidan ergashdi.

Ikkovi yoz bo'lishiga qaramay balchiq hidi anqib turgan hovlida qalashib, sochilib yotgan yashiklar,

yumalab yotgan bochkalarni oralab o'tib, oldi dastmolqovoq bilan to'silgan pachoq ayvonchaga kirdi. Javlon ro'paradagi oynali eshikni ochdi, chetlanib Muhayyoga yo'l berdi. Muhayyo ichkariga qadam qo'yishi bilan g'ira-shira hujraning dimchirigan havosidan ko'ngli ozib ketdi. Hujraga faqat eshik oynasidan yorug' tushar, derazasi yo'q ekan. Javlon hujraning to'ridagi kattakon sandiqqa qop yozib Muhayyoni o'tirishga taklif qilarkan, «Uch sekund!» deb chiqib ketdi. Muhayyo ko'zi qorong'ilikka ko'nikkandan keyin u yoq-bu yoqqa qaradi. Bu yer birov turadigan hujradan ko'ra ko'proq qaznoqqa o'xshar edi: bir chekkada tosh-tarozi, fanera va tunuka quti, qutichalar: to'la, yarim qog'oz xaltalar, devorda arra, o'rog'liq sim...

Muhayyo yuragi hovliqib, yugurib tashqariga otil-di va ayvonchadan chiqayotganida Javlonga yo'liqdi. Uning bir qo'lida gazetaga o'rog'liq bir nima, ikkinchi qo'lida bir shisha vino.

– Xo'sh? – dedi shoshib.

– Qani Anvarjon?

Javlon uning yo'lini to'sdi.

– Hozir keladi dedim-ku! Uch sekund!

Muhayyo uning yonidan o'tmoqchi bo'ldi.

– Ko'chada kutaman.

Javlon yalindi.

– Birpas o'tiring! Hozir aytib kelaman! Odamning sazasini o'ldirmang...

Muhayyo uning ikkala qo'li bandligidan foydalanib zo'r bilan o'tib ketgan edi, Javlon qo'lidagi gazetaga o'rog'liq narsani tashlab, uning bilagidan ushladi.

– Sizga gapim bor. UZR so'ragani sizni qidirib topolmay yurgan edim. Marg'uba sizga beadabchilik qilibdi, o'lasiz qilib urdim. Bu xususda sizdan hali qarzdor ekanimni bildirishim kerak! Birpas o'tiring! – dedi va bir tomonga qarab qichqirdi: – Anvarjon!

– Kerakmas, kirmayman! – dedi Muhayyo va jo‘namoqchi bo‘lgan edi, Javlon nima balo qildi-yu, uning bir poy tufisini yechib oldi.

– Siz shundoq kiring, men Anvarni olib kelaman! Muhayyo tufisiga qo‘l uzatdi.

– Rahmat, ovora bo‘lmay qo‘ya qoling! Ishingizdan qolmang...

Javlon tirjaydi:

– Men ishni ko‘p qilganman. Sovetga¹ mehnatim singgan, endi dam olishim kerak! Haqim bor!..

Javlon Muhayyo to‘g‘risida Marg‘ubaning aytgan so‘zlaridan, qo‘ni-qo‘shnilarga shaqillashidan «Muhayyo erkak kishi qo‘lini ushlasa, yubkasi tushib ketadi», degan xulosaga kelgan edi. Muhayyo uning beiboligini ko‘rib qo‘rqib ketdi.

– Qoching, hozir dod deyman!

Javlon shivirladi:

– Anvar yosh bola-ku, qadringizga yetadigan odam bilan gaplashsangiz-chi! Bitta-ikkita ko‘ylak olib berish qo‘lidan keladigan odam bilan gaplashing!..

Muhayyo qip-qizarib ketdi va ikkala yuzini ushladi.

– Voy! Onangizga ko‘ylakni birovlar olib berarmidi? Nega hamma xotinga bir ko‘z bilan qaraysiz!..

Javlon tirjayib bo‘ynini qashladi.

– Go‘ristonda ham sizni shu ko‘ylakda ko‘rgan edim, boshqa ko‘ylagingiz yo‘qmikan debman...

– Go‘ristonda ko‘rganingizda boshqa ko‘ylakda edim, – dedi Muhayyo tufisiga qo‘l uzatib, – men boshingizning sirti shunaqa silliq, pashsha qo‘nsa toyilib tushadi desam, ichi ham shunaqa, hech narsa turmaydigan o‘xshaydi.

Javlon boshdan gapirgan kishini jinidan battar yomon ko‘rar edi, qizarib ketdi, dam o‘tmay g‘azabi keldi.

¹ Hukumatga, davrga deyilmoqchi (*muharrir*).

– Men sizga nima dedim, nihoyati, ko‘ylak olib beray debman! Muncha sassiq xotin ekansiz! Eringiz shuning uchun haydab yuborgan ekan-da! – dedi va bunga ham qanoat qilmay uni masxara qildi. – Shunaqa deng, boshing kal, senga tegmayman deng?

Muhayyo ham kalaka ohangida dedi:

– Tegsam olarmidingiz?

– Olar edim! – dedi Javlon va yana nimadir demoqchi bo‘lgan edi, Muhayyo so‘zini bo‘ldi:

– Ko‘k pashsha o‘likka qo‘nguchi edi, men tirikman-kul!

Javlon tuflini qulochkash qilib uloqtirdi.

– Olsam ham Afg‘onistonga olib borib xotin qilar edim, bilasanmi, har kuni bittadan qovurg‘angni sindirib sug‘urib tashlar edim!

Muhayyo tuflisini kiygani hakkalab borar ekan, to‘xtab orqasiga qaradi, kuldi.

– Afg‘onistonda ko‘rishgunimizcha xayr! – dedi va tuflisini kiyib yugurganicha chiqib ketdi.

YOSUMAN

Muhayyo Anvarning fakultetiga bordi, pochta taxtasida unga xat qoldirdi-da, Javlonning bezoriligini aytib ko'nglini bo'shatish uchun hovliga oshiqdi, biroq onasining xushhol chehrasini ko'rib kayfini buzgisi kelmadi, indamay qo'ya qoldi. Muborakxonim qilmishidan hamon xijolat bo'lib, undan gap so'ragani ham botinolmadi, o'zi indamaganidan keyin «Ko'rishmagan bo'lsa kerak», deb qo'ya qoldi.

Anvar Muhayyoning xatini oldi, yakshanba kuni ertalab choydan keyin galstugini siqib bog'lab chiqib ketayotgan edi. Marg'uba birdan «Qayoqqa?» deb qoldi. Anvar garang bo'lib biron vaj aytgani so'z topolmay iziga qaytdi, birpasdan keyin o'z bo'lmasining derazasidan tushib ketdi.

Muhayyo shaharning narigi chekkasidagi «Rohat bog'chasi»ning kiraverishida kutib turar edi, Anvarni uzoqdan ko'rib qiyshayganicha unga qarshi yurdi. Anvar yosh boladay irg'ishlab-irg'ishlab chopdi, yetib kelguncha sabri chidamay sekretar* Rahimjonning gapini, va'dasini yo'lakay aytdi, yetib kelganida Muhayyoni quchoqlab olayozdi, Muhayyo o'zini tortgan edi, kichkina ariqchadan o'tkazib qo'yish bahonasi bilan tirsagidan ushladi, ariqdan o'tilgandan keyin ham qo'yib yubormadi, Muhayyo birov ko'rib qolishidan hadiksirab atrofga ko'z qirini tashladi, lekin qo'lini tortib olmadi.

Anvar, komsomol komitetida bo'lgan gapni kechgacha gapirib ham tugatolmasman, deb o'ylagan edi, biroq tafsiloti bilan gapirganida ham bir necha daqiqadan oshmadi. Muborakxonimning muomalasi to'g'risida esa gapirishni lozim ko'rmadi. Muhayyo

bu haqda uzr so'ramoqchi bo'lib gap boshlagan edi. Anvar tikilib, qornini ushlab, qotib-qotib kuldi. Uning uchun bu hodisa, aftidan, yosh bolaning shaftoli o'g'irlikka tushib quvg'in yeganiday bir gap edi. Shunday bo'lsa ham Muhayyo onasining o'z qilmi-shidan xijolatda ekanini aytdi. Anvar bunga javoban negadir «rahmat» dedi. Shu bilan bu gap ham tamom bo'ldi. Muhayyo Javlon haqidagi gapni og'ziga olgani jirkandi. Uning Anvarga tikilib turgan ko'zlarida: «Bu qabih manzarani men ko'rdim» senga eshitishni ham ravo ko'rmayman», degan bir ma'no yotar edi. Muhayyo to'xtadi. Anvar uning to'xtashini «endi uy-uylikka» deb tushundi-da, shoshib: «Yana birpas yuraylik, aytadi-gan gapim ko'p edi, esimdan chiqib qoldi», dedi.

Muhayyo rad javobini bermoqchi edi, uning jav-dirab turgan ko'zlariga qarab og'zi bormadi-da, shi-virlab nolidi:

– Yana birov ko'rib qoladi, yana baloga qolamiz.

Anvar xavotir olib atrofga ko'z tashlasa ham sipohgarchilikni qo'ldan bermadi:

– Birov emas, hozir ammamning o'zi ko'rib qolsa ham pisand emas! – dedi, keyin xunob bo'ldi. – Nima uchun men Muattarni olishim kerak? Men Javlon-ning o'gay qizi Muattarni olishim kerak emish! Ota-onamning vasiyati shu emish! Holbuki, onam qazo qilganlarida Muattar bog'cha yoshida edi. Dadam-ning ko'nglida shundoq gap bo'lsa, loaqal ishora qilar edilar!

Muhayyo bu haqda hech narsa demadi. Ikkovi parkning xilvat xiyobonlarini uzoq kezishdi. Mu-hayyo Anvarning yana Muattar to'g'risida gapirishini, unga o'zining ko'nglini yana ham aniqroq aytishini istadi shekilli, maslahat tarzida dedi:

– Ota-onangiz vasiyat qilmagan taqdirda ham am-mangiz sizga yomonlikni ravo ko'rmasa kerak-ku, nega o'sha qizni olmaysiz?

Anvar bu gapni undan kutmagani uchun tajang bo'lib chakkasini qashidi.

– Chunki yaxshi ko'rmayman! Chunki ko'nglimning ko'chasidam ham o'tgan emas! Chunki men uni bilmayman! U ham menga tegmoqchi emas!

Bitta-bitta qadam tashlab biroz jim yurishgandan keyin Muhayyo so'z mavzusini chetroqqa tortish uchun dedi:

– Qavm-qarindoshlaringiz, yor-do'stlaringiz sizni yolg'iz qo'yishdimi?

Anvar xo'rsindi.

– Mening yoshimda menga o'xshab erka o'sgan bola yor-do'st emas, tengqurlaridan o'rtoq orttirar ekan xolos. O'rtoq faqat o'ynagani yaxshi!

– Yo'q, Anvarjon, qars ikki qo'ldan chiqadi. Erka o'sganman deyapsiz, ehtimol, o'rtoqlaringizga siz ham faqat o'rtoq bo'lgandirsiz. Ota-onasi erka o'stirgan bola ko'pincha xudbin bo'ladi... Qavm-qarindoshlaringiz ham yo'qlashmaydimi?

Anvar anchadan keyin javob berdi.

– Yo'qlab turishadi, yig'ilish kerak bo'lganda yig'ilishadi, yig'lash kerak bo'lganda yig'lashadi, menga taskin-tasalli berishadi. Bilasizmi, bir-biriga o'xshagan, bir-biridan sovuq quyma gaplarni eshitgani yuragim bezillaydi. Bironta odamning qalb so'zini, bironta odamning issiq nafasini sezmayman! Bunaqa yetimlik, bunaqa kimsasizlikni hech kimning boshiga solmasin! Marg'uba ammam qiziq, menga tasalli bergan bo'lib: «Hammaning ham ota-onasi o'ladi» deydi! Uning eri Javlon pochcham undan ham oshiradi: «Ich shu alamlarga!» deb menga nuqul vino tutadi.. Gamlet aytmogchi, yo Rabbim, odam odamga bunchalik muhtoj bo'lar ekanu!..

Anvar yana kimsasizligidan, nazarida oralardan mehr-haqiqat ko'tarilib borayotganidan nolidi, yana ammasining Muattar to'g'risidagi gaplaridan

xunob bo'ldi. Muhayyo gap aylanib «afsuski erga tegib chiqqan ekansan, yo'qsa seni olar edim» degan mazmunga yaqinlashuvidan qo'rqib, endi ketaylik demoqchi bo'lib to'xtadi, lekin uni tashlab ketgani ko'ngli bo'lmadi-yu, kinoga taklif qildi.

Kino bu yerdan yuz qadamcha narida bo'lib, kunduzgi seans yaqin orada boshlanishidan radio xabar berib turar edi. Anvar bilet oldi, eshik oldida chetlanib Muhayyoga yo'l berdi. Shu choq tarsillagan bir tovush chiqdi-yu, Muhayyo munkib ketdi. Anvar shundoq qarasa, yonida tirik murdaday bo'lib hansirab Marg'uba turibdi, u shovqin solib yana Muhayyoga hamla qildi. Anvar uni orqa yoqasidan ushlab uloqtirib tashladi-da, Muhayyoni quchog'iga olib chetga olib chiqdi. Marg'uba nuqul: «Bu olqindi, qiz olmagan yigitning boshini aylantirib yuribdi!» deb dodlar, yulgani goh Muhayyoga hamla qilar edi, goh Anvarga. Odam yig'ildi, xonatlas ko'ylak kiygan semiz bir xotin lapanglaganicha Muhayyoga yaqin borib «O'l bu kunningdan! Senga o'xshaganlarniig qorasi yuqib, o'qigan qizlarning hammasi haromga o'xshab qoldi!» – dedi. Boshqa bir ayol shovqin solib, uni itarib tashladi. Semiz xotin yiqilib, oyoqlari ko'tarilib ketdi. G'ovur kuchaydi.

Militsiya serjanti keldi. Marg'uba halloslaganicha uning oldiga bordi va bu yerda sodir bo'lgan zo'r jinoyatdan jabr ko'rgan kimsaday arz boshladi, jabr ko'rgan Anvarni yoqlagan bo'lib, Muhayyoning sha'niga xotin kishining og'zidan chiqishi mumkin bo'lmagan gaplarni aytdi. Muhayyo yuzini ikki qo'li bilan changallab yig'lar, ingrar, to'lg'anar edi. Anvar uni bag'riga bosib jonini berguday bo'lar edi, nihoyat, bor tovushi bilan qichqirdi:

– O'rtoq serjant! – Birdan g'ovur bosildi. – Yolg'on! Bu yosuman Muhayyoga tuhmat qilayotibdi! Muhayyo mening xotinim! – dedi.

Hamma jimjit bo'lib qoldi. Marg'uba yuzini tirmalab, og'zini katta ochganicha oyoq uzra turib hushidan ketdi.

Serjant xaloyiqni tarqatdi.

– Qani, o'rtoqlar, kinodan qolmanglar, – dedi, keyin Marg'ubaga chest berdi. – Siz ham jo'nang! Bular-ku er-xotin ekan, siz nima qilib yuribsiz orada yosuman bo'lib?

Marg'uba boshidan tushib ketgan ko'k ro'molini yopindi, sekin burildi, narida, xiyobonda bir-biriga suyanishib, bitta-bitta qadam tashlab ketayotgan Anvar bilan Muhayyoga bir qaradi-da, hozir borib bularni bir nima qiladiganday, shoshib jo'nab qoldi.

Muhayyo xiyladan keyin o'ziga keldi, ko'z yoshidan ivib ketgan ro'molchasi bilan titrayotgan qo'llarining kaftini ishqar ekan, Anvarga mung'ayib qarardi.

– Anvarjon aka, nega unaqa dedingiz?.. Nega xotim dedingiz! Lekin bu bilan meni shuncha odamning oldida ammangizning oyog'i ostidan tortib oldingiz, boshingizga ko'tardingiz! Rahmat! Endi uyga qanaqa borasiz?

Anvar ko'kragini ko'tarib mushtini tugdi.

– Boraveraman! Ammam bir nima desin-chi, haydayman! Uyimizdan haydab yuboraman! – dedi, lekin Muhayyoni uyiga pastqam ko'chalardan, chakalakzordan o'tadigan so'qmoqdan kuzatdi.

Ikkovi chakalakzorning chiqaverishida to'xtadi, Muhayyo xayrlashgani qo'l berdi. Anvar uning qo'lini mahkam ushlab sekin o'ziga tortdi. Muhayyo besaranjom bo'lib:

– I-i-i, xafa bo'laman!.. – dedi. – Men sizning bunaqa qilig'ingizni bilsam chaqirmas edim, kelmas edim.

Anvar uning qo'lini darrov qo'yib yubordi.

– Kechirasiz... Men betingizdan bitta o'pmoqchi edim, to'g'rilikcha... Qo'lingizdan o'pishim ham mumkin! Mumkinmi?

Muhayyo bu sodda – beg‘ubor, ich-tashi bir bolaga havas bilan qaradi, agar uyalmasa hozir o‘pgani bir emas, ikki yuzini tutar, balki o‘zi ham o‘par edi. Uning jilmayib turganini ko‘rib Anvar qo‘lini sekin oldi, xavotirlik bilan labiga tegizdi, keyin qayta-qayta o‘pdi – yuziga surkamoqchi bo‘ldi. Muhayyo qitig‘i kelganday qaqirlab qo‘lini tortib oldi, burilib ariqdan hatladi-da, katta yo‘lga chiqib qo‘lini silkitdi, ikki qo‘lini qanot qilib chopqillaganicha ketdi.

Anvar uyga qaytib kelganida ko‘cha eshigi berk edi, taqillatsa, rangi murda bo‘lib ketgan Marg‘uba ochdi, ochmadi – uzun zanjirni zulfinidan chiqarmasdan eshikni qiyalatib qaradi-da, Anvarni ko‘rib, «xotining bilan qo‘shmozor bo‘l!» deb o‘shqirdi, eshikni qattiq yopib qulfladi, tanbasini tiqdi va qattiq-qattiq qadam tashlab yiroqlashdi. Anvar eshikni yana taqillatdi, uzoq taqillatdi, bo‘lmaganidan keyin yondoriga tirmashib tomga chiqdi, tunukani taqillatdi. Marg‘uba uyning eshigidan boshini chiqardi.

– Haddingdan oshma, bola, hozir militsiya chaqiraman!

Anvar tunukani taraqlatib tepdi.

– Men ham militsiya chaqiraman! Ota-onamdan qolgan hovliga meni kirgizmaslikka nima haqingiz bor? Haqingiz yo‘q! Ko‘chib keting! Hozir ko‘chib keting!

Marg‘ubaning joni halqumiga keldi. Yugurganicha chiqib hovlidagi tosh bormi, g‘isht bormi qo‘liga nima tushsa Anvarga otaverdi. Anvar hammasini ilib olib hovliga tashladi, so‘ngra yarimta g‘ishtni ilib olib «Bas!» deb jahl bilan uloqtirgan edi, g‘isht yerdan qapchib derazaga tegdi va oynani sindirdi. Marg‘uba «Bezoring dastidan dod, militsiya, qayoqdasan?!» deb shovqin solib ko‘chaga yugurgan edi, Anvar tomning orqa tomonidan tushib qochdi.

ANDISHA

Anvar shu kechani bir qarindoshinikida o'tkazdi. Bundan darak topgan Marg'uba shahardagi hamma qarindoshlarga uchrab «Anvar Rohat bog'chasida meni urdi, ko'chada yurgan bir ityaloqni hammaning oldida «xotinim» dedi; tomga chiqib menga tosh otdi», deb zor-zor yig'ladi. Shundan keyin qarindoshlardan hech biri Anvarga ro'yxush bermadi, biri «Halitdan shunaqa bo'lsang, holingga voy», biri «Otang seni ammangga topshirib ketgan, go'rida tinch yotsin», deb dashnom berdi, nasihat qildi. Anvar voqeani boshdan-oyoq aytib bermoqchi bo'lsa, so'ziga hech kim quloq solmas edi. Anvarga yetim qolgani hech qachon hozirgiday bilinmagan edi. Qani endi onasi yo otasi bo'lsa-yu, boshini ko'kragiga qo'yib ho'ng-ho'ng yig'lasa! Loaqal pichagina hasrat qilib yuragini bo'shatgani kim bor? Anvar bu to'g'rida o'ylaganida ko'z oldiga yig'idan qovoqlari shishib ketgan Muhayyo kelar, lekin uning yonida uchi tutab turgan kosovni ko'tarib turgan Muborakxonim turar edi.

O'sha kuni Rohat bog'chasidan qaytishda hayajonni yengib, bundan keyin qachon va qayerda ko'rishish haqida va'dalashish ikkovining ham esiga kelmabdi. Muhayyo juda katta tashvishga qoldi: Marg'uba Anvarni qanday qarshi oldi ekan? Qo'chada shunday shallaqilik qilgan bu xotin uyda Anvarni ne ko'yga soldi ekan? Anvar «Ammamni hovlimizdan haydayman» degan edi, janjal chiqqan bo'lsa ana u piyanista Javlon Anvarga ziyon-zahmat yetkizmadimikan?..

Muhayyo ikki marta uning fakultetiga bordi, borishda ham, qaytishda ham Anvarlar ko'chasidan yurdi, fakultet pochta taxtasiga qo'ygan xati hanuz turganini ko'rib yig'lardi.

Oradan uch kun o'tgach hovliga institut komso-mol komitetidan xat keldi. Xatda komitetning sekretari Rahimjon Muhayyoni ertasi soat o'n birga chaqiribdi. Rahimjon odatda talabalarni shunaqa chaqirib har to'g'rida suhbatlashib turar edi, shuning uchun Muhayyo ko'ngliga hech gap kelmasdan bordi va qabulxonada Anvar o'tirganini ko'rib qo'rqib ketdi: nahot Rahimjon o'sha, Rohat bog'chasidagi voqea to'g'risida chaqirgan bo'lsa. Uning nimaga chaqirganini Anvar ham bilmas edi. Ikkovi hol-ahvol so'rashdi. Anvar ammasi uyga kirgizmaganini, darbadar bo'lib yurganini Muhayyodan yashirdi.

Muhayyo o'sha kuni ammasi qanday qarshi olganini so'rab ulgurmadi, sekretar qiz ikkovini kabinetga taklif qildi. Rahimjon odatdagicha o'rnidan ham turmadi, qovoq-tumshug'ini solib qog'oz varaqlar ekan:

– Nima qilib yuribsizlar ko'chalarda janjallashib? O'tiringlar!.. – dedi.

Anvar bilan Muhayyo bir-biriga qaradi. So'zni Anvar boshladi. Biri qo'yib, biri oradagi munosabatni to'lato'kis gapirib berdi. Gap tamom bo'lgandan keyin ikki oradagi munosabat «to'g'rilikcha» ekaniga Rahimjonni ishontirish uchun, Muhayyo «o'lay agar!» dedi.

– Siz nima deysiz, Anvarjon? – dedi Rahimjon.

– Men ham shu... To'g'rilikcha yurgan edik...

– Nega bo'lmasa o'shanda Muhayyoxonni «xotinim» debsiz?

Anvar darhol javob berdi:

– Muhayyoxonni ammam hech og'izga olib bo'lmaydigan gaplar bilan haqorat qildilar!

– Demak, Muhayyoxonni «xotinim» deyish bilan bu haqoratlarga o'zingizni tutib beribsiz-da?

Muhayyo yer ostidan Anvarga qarab qo'ydi.

Anvar chinchalog'i bilan ko'zining chekkasini art-di, aftidan, o'sha haqoratlar zahri hanuz tanidan ketmagan edi.

– Men o'sha topda hech narsani o'ylaganim yo'q...
Rahimjon kulimsiradi.

– To'g'ri, o'sha topda Muhayyoxondan boshqa hech narsani o'ylamagan bo'lsangiz kerak!

Anvar qizarib ketdi. Rahimjon Muhayyoga yuzlandi.

– Siz-chi, siz nima deysiz? Anvarjon «xotanim» deganda xafa bo'lganingiz yo'qmi?

Muhayyo ham qizarib yerga qaradi va eshitilar-eshitilmas dedi:

– Nega xafa bo'lar ekanman, shunday vaqtda, shunday paytda shunaqa deb o'zingiz aytmoqchi, haqoratlarga o'zlarini tutib beradilar-u... – uning o'pkasi to'ldi, – o'la-o'lgunimcha esimdan chiqadimi...

Rahimjon yolg'ondan qovog'ini solib so'radi:

– Shunda farishtalar omin degan bo'lsa-chi?

Muhayyoga bu gap kalaka bo'lib tuyildi shekilli, rangi bo'zarib sekretarga ayiq qarash qildi, lekin uning yuzida zarracha ham bunday ifoda yo'qligini ko'rib darrov o'ziga keldi, lekin shundoq bo'lsa ham, ehtiyotan o'pkalagan bo'ldi:

– Nima qilasiz shunaqa gaplarni gapirib...

Rahimjon uning yuziga qaradi va kulimsirab so'radi:

– Bunaqa gaplar to'g'ri kelmaydimi?

Muhayyoning achchig'i keldi.

– G'alati gapni gapirasiz-a!.. Bilib turib...

– Nimani bilib turib? – dedi Rahimjon.

Muhayyo labi pirpirab, onasining ta'birini ishlatdi:

– Menga it tekkan-ku...

Rahimjonning jahli chiqdi.

– O'zingizga munosib ibora topolmadingizmi? Loaqal «turmush ko'rganman, andisha qilaman» desangiz-chi!

– Albatta andisha qilaman, – dedi Muhayyo yerga qarab.

– Andisha deydiyan bo'lsangiz Anvarjon andisha qilsa bo'lar edi, biroq hech qanaqa andishaga bor-

mayapti. To'g'ri qilipti. Bunaqa andisha Marg'ubadan chiqadi. Biz ham shunaqa andishaga boradigan bo'lsak, demak, Marg'uba haq ekan-da! Nima, siz oyoq-qo'li yulib tashlangan qo'g'irchoqmi?

Muhayyo titrayotgan qo'li bilan sochini tuzatib eshitilar-eshitilmas dedi:

– Marg'uba xolaga o'xshagan odamlar kammi...

– Bilaman! – dedi Rahimjon. – Million! Bu andisha bizning taomilimiz! Odamni xo'rlaydigan bundan ham yomonroq taomillarimiz ozmi?

Anvarga jon kirdi.

– Dastlab shu to'g'rida gapirganingizda, Marg'uba ammaning jag'ini tiyamiz degan edingiz...

– Tiyamiz! – dedi Rahimjon. – Jag'ini ko'plashib tiyamiz, lekin hozir undan ham zarurroq ish chiqib turibdi: ammangiz o'sha kundan beri sizni uyingizga kirgizmayotgan emish-ku?

Muhayyo yalt etib Anvarga qaradi.

– Endi bundoq, – dedi Rahimjon suhbatni yakunlab, – men bu ishni Naimjon boshliq uch kishiga topshirdim, uchoviga ishning mohiyatini, Marg'uba qanaqa xotin ekanini yaxshilab tushuntirdim. Ertadan keyin uchovi sizni uyingizga eltib qo'yadi.

Muhayyoning quti uchdi.

– Voy, Marg'uba xolaning fe'li yomon, janjal chiqsa... Eri piyonista, Anvar akamga biron ziyon-zahmat yetkazmasmikin?

– Anvar akangiz bizga omonat, omonatga xiyonat qilmaymiz, – dedi Rahimjon va burnining uchini qashigan bo'lib tabassumini yashirdi.

Kabinetdan chiqilgach, Muhayyo zo'r tashvish bilan so'radi:

– Anvar aka, qayerda yotib yuribsiz?

– Yotoqda bir kun biri bilan, bir kun boshqasi bilan...

– Rahimjon akam odam yuborsalar ammangiz insofga kelarmikin? Yo dadamga aytay, ulardan oldin borib, u kishi ham gaplashsinlarmi?

Anvar kuldi.

– Dadangizga og‘zingizdan chiqara ko‘rmang, ayan-giz kosov olib quvgan edilar, dadangiz bolta ko‘tarib qolmasinlar tag‘in!

– Yo‘q, Anvar aka, ayam tushunmasdan o‘shana-qa qilganlar... Dadam oyimga «Anvarjonni u oiladan sug‘urib olish kerak» degan emishlar.

Anvarning qalbiga bu gap iliqqina, yumshoqqina tegdi.

Anvarga bu gap ma‘qul tushganini sezib Mu-hayyo maktabga qarab yugurdi. Naimjonlar ertaga Marg‘ubaning oldiga borishadigan bo‘lsa, dadasi bu-gun, hozir borib Marg‘ubaga aytadigan gapini ayti-shi, Naimjonlarning ishini oson qilishi kerak edi.

Muhayyo maktabga bordi, dadasining oxirgi dars-dan chiqishini kutib o‘tirdi: umrida yolg‘on gapirma-gan, ayyorlikka ishi tushmagan bo‘lsa ham dadasiga yolg‘on gapirdi, maktab kutubxonasiga kitob olgani kelganini aytdi. Uyga ketayotib yo‘lda gapini uzoqdan aylantirib Anvarga burdi-da, uni «Marg‘uba uyidan haydagan, bola bechora hozir darbadarlikda yurgan emish», – dedi va «Shunga men sabab bo‘ldim» deb ko‘ziga yosh oldi. Anvarni Marg‘uba uydan hayda-ganidan Hakimjon xabardor ekan, bu haqda maktab o‘qituvchilari orasida gap bo‘lganini, birov unga vaq-tinchalik bir xona berishga rozilik bildirganini, yana birov uni ta‘til kunlarida biron ishga joylab qo‘yish-ga va‘da berganini so‘zladi. Muhayyo suyunib ketdi va maqsadini aytdi. Komsomollardan oldinroq, iloji bo‘lsa bugun kechqurun Marg‘ubaga uchrashish-ni dadasidan iltimos qildi. Hakimjon biroz jim qoldi, o‘yladi, Marg‘uba kim ekanini aytgani og‘iz rostla-di-yu, aytmadi, buning o‘rniga «Marg‘ubaning ta‘rifi-ni eshitganman, mening borishimdan, komsomollar-ning borishidan ham hech ish chiqmaydi», deb qo‘ya qoldi.

QORA QUTI

Ertasiga Naimjon boshliq uch kishidan iborat elchilar hay'ati Anvarni olib belgilangan soatda Marg'ubaning eshigini qoqdi.

Marg'uba tovush berdi va kelib qulfnı ochdi, tanbani sug'urdi, eshikni qiya qildi; Naimjon institut komsomol komitetining nomini aytganda elchilarni bittama-bitta kirgizdi, Anvar ro'para bo'lganda esa eshikni yuziga qattiq yopdi-yu, sharaqlatib qulflab oldi. Tushuntirish, iltimos, yolverish – hech biri unga kor qilmas edi. Nihoyat, Naimjon tovushini yo'g'onroq qilib: «Biz rasmiy odamlarmiz, rasmiy ish bilan keldik», deganidan keyingina Anvarga ham yo'l berildi.

Javlon uyda, biroz shirakayf ekan, mehmonlarni ko'rib juda suyunib ketdi, darrov yarimlagan shisha-da qizil vino, bir kosa tuzlangan bodring keltirib stolga qo'ydi.

Marg'uba oshxonaga kirib jiz-biz boshladi. Javlon piyolalarga qulqullatib vino quyay ekan:

– Men aroqni tashlab vinoga o'tganman, – dedi, – biroq vino qurg'ur sersuvroq narsa bo'ladi, suvini siqib tashlash kerak! Lekin yetkizib ichsangiz suvini qorinning o'zi siqib tashlaydi!.. Qani, salomat ekanmizki ichamiz!

Mehmonlar vinoga qo'l urishmadi. Javlon o'zi ichib, piyolasini yana to'ldirdi. U bitta o'zi ichayotgan bo'lsa ham «Qatordan qolmayin» deb ichdi, hech kim qistamasa ham «sazalaring o'lmasin» deb ichdi, piyola bir minut to'xtamasa ham «dami chiqib ketmasin» deb ichdi, qisqasi, xotini ovqat olib kelguncha xiyla tayyor bo'ldi, o'tirgan joyida qalqib, ko'zining qorasi-dan ko'ra oqi ko'proq ko'rinib qoldi.

Marg'uba qovurilgan jigarni keltirib o'rtaga qo'ydi, mehmonlarning oldiga qoshiq qo'yar ekan, Anvarning oldiga qoshiqni jaranglatib tashladi. Uning soxta tabassumdan ko'z atrofiga yig'ilgan ajin, pirpiragan yupqa lablari, ovqatga manzirat qilganida titragan tovushi tori tarang ekanini ko'rsatar edi. Naimjon bu vaziyatda hech qandoq daromadga o'rin yo'qligini ko'rib gapning po'stkallasini aytdi:

– Anvarjon shaharda ma'lum va mashhur doktor Murod Alining farzandi. Agar o'rtog'imiz sizning nuqtai nazarinigizdan biron beadabchilik qilgan bo'lsa kechirishingizni so'raymiz, chunki shundoq odamning bitta-yu bitta o'g'lini o'z uyiga kiritmasdan darbadar qilib qo'yibdi degan isnodni ko'tarishdan ko'ra gunohini kechirish osonroq bo'lsa kerak, deb o'ylaymiz.

Marg'uba qo'lidagi qoshiqni taraqlatib stolga qo'ydi.

– Nega darbadar bo'lar ekan, xotinchasining uyiga borsin! Sig'adi, Muhayyoxonning uyiga hamma sig'adi? Borsalaring sizlar ham sig'asizlar! Obi Xudoyi...

Anvar g'azabi kelib bir nima demoqchi bo'lgan edi, yonidagi sherigi sekin turtib, so'zini og'zidan oldi.

– Opajon, Muhayyoxon bizning institutda o'qiydi, singlimizday narsa... Bizga malol keladi! Sizning to'g'ringizda birov shunaqa desa siz nima derdingiz?

G'azabi kelib o'tirgan Naimjon so'z qotdi:

– To'g'ri, Muhayyoxon erga tegib chiqqan, lekin bunaqa falokat har kimning ham boshiga kelishi mumkin! Xo'sh, o'zingiz Javlon akaga qiz tekkanmisiz?

Bo'ynini tutolmay boshini u yoqqa-bu yoqqa tashlab o'tirgan Javlon birdan xuddi o'qchiganday:

– To'g'ri! – dedi stolga shappalab. – Haqiqatda qiz tekkan! Bu qizligida o'zini quritib olgan, hozir ham qiz! I.. I... Do'zaxga ham qizligicha tushadi!

Naimjon davom etdi:

– Javlon aka sizni «xotanim» deganda hech kim bu kishini uyidan haydab chiqarmagandir-ku, Anvar Muhayyoni «xotanim» desa siz nega uni o'z uyidan haydab chiqarasiz?

Javlon zavq qilib kuldi.

– Meni o'zi don sepib zo'rg'a uyiga olib kirgan-u qayoqqa haydaydi! Menga qara, hoy saksovul, don sepgansan-a? Mototsikl olib bergansan, tilla soat olib bergansan! Lekin ov miltig'ini yeb ketding!..

Marg'uba erini ortiq gapirgani qo'ymadi, vino quyib berdi. Javlon vinoni bitta ko'tardi-da, gandraklab borib divanga cho'zildi va uzun xurrak otdi.

– Men Anvarni haydaganim yo'q, – dedi Marg'uba biroz bo'shashib, – uni otasi haydagan! Otasining vasiyati shu! Otasi aytgan qizni – Muattarni olsin, hovli nima ekan, savdoga qo'ysa o'n-o'n ikki mingga ham bormaydi! Bundan tashqari besh ming olti yuz so'mlik yangi «Volga»si, omonat kassada o'n ming so'm naqd puli, o'n sakkiz ming so'mlik ro'zg'ori, onasidan qolgan, keliniga atalgan yigirma uch ming so'mlik taqinchog'i bor! Mana, o'zi ko'rsin!

Marg'uba narigi uydan o'ymakorlik qora qutichani olib chiqdi, qopqog'ini ochib Anvarning oldiga qo'ydi va uning bo'ynidan ushlab, burnini taqinchoqlarga ishqalamoqchi bo'ldi. Anvar jahl bilan qutichani surib tashladi. Quticha ag'anab, ichidagi shoda-shoda marvarid, tilla va kumush buyumlarga o'rnatilgan har xil qimmatbaho toshlar sochilib, jilosidan ko'zlar qamashdi..

– Amma, – dedi Anvar qip-qizarib, – dadam o'lim bilan olishib, najot istab ko'zlari javdirab yetganda siz shu narsalarni o'ylagan ekansiz!.. Dadam vasiyat qiladigan paytda nima uchun hech kimni kirgizmay eshikni qulflab olganingizni endi tushundim! Menga hech narsa kerak emas! Qo'l qo'yib beraman, ham-

masi, qora quti ham sizniki! Lekin menga vaqtincha bitta uy bering! Otamdan qolgan hovli turganda, men institutdan yotoq so'rolmayman! Otamdan qolgan uyga ammam kirgizmayapti degani uyalaman.

Marg'uba uning so'zini eshitmagan bo'lib taqinchoqlarni qora qutiga solar ekan:

– Odam ko'r bo'lmaydimi, – dedi. – Nahot qiz olmagan yigit shuncha mol-dunyoni bir salqitning oyog'i ostiga tashlasa?!

Naimjon zaharxanda qildi:

– Bu narsalar otasidan qolgan bo'lsa bilganini qiladi-da! Anvar vorismi axir?

Marg'uba ikki qo'lini soniga urdi.

– Anvar voris bo'lsa, men vasiy? Nima kerak bo'lsa, mening qo'limdan oladi! Bermasam ololmaydi!

Elchilardan biri do'ng'illadi:

– Siz bermasangiz, qonun olib beradi!

Marg'uba yolg'ondan qahqaha urdi.

– Siz qonundan gapirgani hali yoshlik qilasiz, uka! – dedi va gap tamom bo'ldi, degan ma'noda stolni yig'ishtirar ekan, oxirgi va uzil-kesil so'zini aytdi:

– Muattar Hindistondan yaqinda keladi, Anvar otasining vasiyatini bajo keltiradigan bo'lsa hamma narsani ikkoviga topshiramanu etagimni qoqib, hovlidan ko'chib ketaman: yo'q-yo'q otasining arvohini chirqirata digan bo'lsa, bitta igna ham bermayman!

Boshqa gapga o'rin qolmadi. Elchilar ketgani qo'zg'alishdi. Anvar uydan umid uzib kiyimlarini so'ragan edi, Marg'uba ikkita eski kuylak, bitta eski shim chiqarib berdi va tilxat talab qildi. Anvar tilxat yozishga kirishdi. Marg'uba uning yelkasiga bitta eski sochiq tashlab, «Mayli, buni yozmay qo'ya qol», dedi.

– Amma, – dedi Anvar kiyimlarini sochiqqa o'rar ekan, – Muattar menga tegmoqchi emas-ku!

Marg'uba vag'illab berdi:

– Muattarning ixtiyori, avvalo, otasida, qolaversa, menda! Nima, Muhayyoda oy ko'rganmisan?

– Ha, men Muhayyoda oy ko'rganman! Dadam olamdan o'tib dunyo ko'zimga qorong'i bo'lganda Muhayyoda oftob ko'rganman.

Marg'uba zo'r afsus bilan so'radi:

– Men senga hech narsa qilganim yo'qmi?

– Qildingiz, onam meni tuqqan, o'stirgan, ota-onam jon bergan hovlidan meni haydadingiz!

Marg'uba «senga gap kor qilmaydi», degan ma'no-da qo'l siltadi, mehmonlarni kuzatdi, eshikni qulflab, tanbalab oldi.

Yo'lda Naimjon Anvarga tasalli berdi:

– Xafa bo'lma, oshna, olamiz! Hammasini olamiz!

HAR BOSHDA BIR SAVDO

Naimjon boshliq elchilar Marg'uba bilan qilingan munozaraning natijasi haqida komsomol komiteti-ning sekretari Rahimjonga ma'ruza qilishdi. Rahimjon bir kampirga qarshi tig' tortib borgan uch baho-dirning qilichi sinib, qalqoni teshilganiga xo'p kuldi, bu ish bilan shaxsan o'zi shug'ullanmoqchi bo'ldi.

Uning ko'ziga bu ish og'zining yeli bilan bitadi-ganday ko'ringan edi, biroq tobora qizishib bir hafta mashg'ul bo'lganidan keyin ish uzoqqa cho'zilishiga ko'zi yetib qoldi. Ma'lum bo'lishicha, Marg'uba o'zi-ni Anvarga vasiy qilib Murod Alidan notariusning muhri bilan qog'oz yozdirib olgan ekan. Rahimjon gaplashgan, murojaat qilgan, talab etgan, so'ra-gan odamlarning hammasi nuqul qonundan gapi-rar, ma'lum bo'lishicha, bu ishni hal qiladigan kishi Marg'ubaning qo'lidagi qog'ozni qalqon qilib olsa, bu qalqonni hech narsa teshib o'tolmas ekan. Bu ora-da Rahimjon Anvarga loaqal yotoq va stipendiya olib berishga ham urindi. Biroq bunda ham hech narsa teshib o'tolmaydigan qalqonga duch keldi: qoida-da «talabaning uy-joyi bo'lsa yotoq, oilasi o'ziga to'q bo'lsa stipendiya berilmaydi» deyilgan, uning biron chekkasiga: «Talaba yetim qolsa, biron sabab bilan uyida turolmasa, stipendiya va yotoq berilsin», deb yozib qo'yilgan emas, Rahimjon bo'g'ilgan paytlari-da: «Sekretar bo'la turib o'zing qonun-qoidani bu-zasanmi?» degan ta'nalar ham eshitdi.

Muhayyo Naimjondan ishning oqibatini eshitib yig'ladi, biroq Anvarga yordam qilish qo'lidan kel-mas, va'da qilgan odamlar unga qachon uy, ish topib berishlarini dadasidan so'ragani istihola qilar edi.

Anvar yana bir hafta Hakimjon bergan biroz pulni yeb, yotoqxonada o'rtoqlari bilan bir karavotda yotib yurdi. Xayriyat, bu orada pensiya chiqib qoldi-yu darmon bo'ldi. Shundan keyin uning ishi yurishib ketdi: uy va'da qilgan o'qituvchi kichkina, qorong'iroq bo'lsa ham, alohida uyini bo'shatib jihozlab berdi. Bu uy Anvarga shuncha yoqdiki, fikr-yodi Muhayyoga ko'rsatishda bo'lib qoldi, biroq shuncha qistadi, Muhayyo kelgani unamadi, nuqul kular edi. Ish va'da qilgan o'qituvchi shu hafta ichi ish ham topib berdi. Avtoklubda mexanikka yordamchi kerak ekan. Anvar avtomobilga xiylagina ishqiboz bo'lgani uchun bu ishga darrov kirdi.

Oqsoq mexanik cholning yordamchisi ishdan bo'shab ketganiga yaqin bir hafta bo'lib, og'ir ishlar to'planib qolgan, bundan tashqari chetdan ham ish kelib turar ekan. Anvar avtomobilning ostiga kirib chol burolmagan gaykalarni burar, ko'tarolmagan qismlarni ko'tarar, tushirar, qanchadan qancha g'ildiraklarni olar, qo'yar, damlar, ishning zo'rligi va ovqatning tayini bo'lmagani uchun kechga tomon sulayib qolguday bo'lar edi. Chol uni yaxshi ko'rib qoldi, chetdan keladigan ishdan tushadigan chaqadan ba'zan bir so'm yarim so'm beradigan bo'ldi.

Bir kuni bet-qo'li qora, horigan, terga pishgan Anvar kechroq buzuv avtobusning soyasida maykanchan non bilan pomidor yeb o'tirgan edi, darvozada tuguncha ko'targan Muhayyo paydo bo'ldi. Anvar, Rohat bog'chasida bo'lib o'tgan mojarodan Muhayyoning ota-onasi xabar topgani-topmaganini bilmas, shuning uchun tashvishlanib yurgan edi, uzoqdan nazariga uning chehrasi g'amgin ko'rindi-da, shu yerda turgan qog'oz bilan yuz-qo'lini naridan-beri artdi, ustki ko'ylagini kiydi. Bungacha Muhayyo uni ko'rib qolib chopqilladi, avtobusni aylanib o'tdi. Ikki kovi bir-biriga qarab turib qoldi. Muhayyo jilmaydi,

qoʻlidagi tugunchani ikki qoʻllab unga uzatdi. Uning jilmayganini koʻrib Anvarning koʻngli joyiga tushdi, tugunchani olib qogʻoz dasturxondagi pomidor bilan nonning yoniga qoʻydi. Tugunchada osh boʻlsa kerak, issiqqina, hidi chiqib turar edi. Muhayyo uning yemi-shini koʻrib koʻngli buzilib ketdi.

– Muncha, gʻaribmisiz? – deb koʻzi jiqqa yoshga toʻldi.

Muhayyo shundoq deb koʻziga «yosh olmasdan bu-run yeb oʻtirgan ovqati gʻaribona ekani xayoliga ham kelmagan Anvarning birdan xoʻrligi kelib, tomogʻiga bir nima tiqildi, yigʻi xuruj qildi, buni bildirmaslik uchun yuzini teskari oʻgirish yoxud koʻzini berkitish noqulay boʻlgani sababli minnatdorchilik maʼnosi-da Muhayyoni quchoqlab, yelkasiga boshini qoʻydi, tez-tez kiprik qoqib yoshini yutdi. Muhayyo uning yigʻlaganini payqab, barala yigʻlab yubordi. Ikkovi bir-birini yupatmoqchi boʻlgan sayin yigʻi xuruj qilib kelardi.

Ikkovi xoʻp yigʻladi.

Mashina yogʻlayotgan oqsoq chol bularni kuzatib turgan ekan, chuqur xoʻrsinib:

*Ishq balodir, ishq balodir,
Oshiq kishilar gʻamga muhtalodir, –*

dedi-yu avtomobilning ostiga kirib ketdi.

Muhayyo Anvarning hol-ahvolini, ishini soʻradi, ishidan gʻoyat rozi ekanini bilib xotirjam boʻldi-yu, uzoq oʻtirmay ketdi.

Shundan keyin Muhayyo oʻtgan-ketganida klub-ga kirib, Anvarning holidan xabar oladigan, baʼzan maxsus kelib, birpas-yarimpas gaplashib oʻtirib ket-adigan boʻldi. Muhayyo kelganda oqsoq chol Anvarga javob berib, har qanday ogʻir ish boʻlsa ham oʻzi qilar, bular goh buzuq avtobusning soyasida, baʼzan uning ichida gaplashib oʻtirishar edi.

Hakimjon o'n ikki kunlik dam olish uyiga boradigan bo'ldi. Shu munosabat bilan uyga uning yor-jo'ralari yig'ildi – ziyofatdan keyin Muborakxonim charchab cho'zildi va uxlab qoldi. Muhayyo dasturxonni yig'ishtirib idish-tovoqni yuvganidan keyin bir qarich mo'lroq qazi, biroz yaxna go'sht, somsa, meva-chevani dasturxonga tugib Anvarni ko'rgani bordi.

Anvar qorni och bo'lsa kerak, dasturxonni Muhayyoning qo'lidən olib uni buzuq avtobusga boshladi, dasturxonni darrov ochdi, ovqat ko'pligini ko'rib, Muhayyoning ijazati bilan ustasi, oqsoq cholni chaqirdi. Chol bir choynak choy ko'tarib kirdi va ikkovini alqab o'tirdi, Muhayyo manzirat qilgandan keyin ikki barmog'i bilan bitta somsani olib og'ziga soldi-da, uzoq chaynadi, huzur qilib yutdi, ta'mini olib bosh chayqadi.

– Bay-bay-bay, bunaqa somsani yemaganimga necha yil bo'ldi ekan? Yo'q, umrimda yegan emasman!

– Kampiringiz pazanda emasmilar? – dedi Muhayyo.

– Kampirim mening uchun uzatgan oyog'ini yig'maydi. Oramizda mehr-muhabbat yo'q! Qachon o'ladi-yu ko'zini cho'qiyman deb quzg'unday tepamda aylanadi. Kichikroq hovlim, kassada biroz pulim bor.

– Qariganda muhabbat qoladimi! – dedi Anvar kulib.

– Yo'q, o'g'lim, aksincha, aslida muhabbat bo'lsa qarilikda yetiladi. Ayb o'zimda, yoshlik beboshlik deb chittakday shoxdan shoxga sakray beribman, qo'nimni bilmabman, bir vaqt ko'zimni ochib qaragam oltita xotin olib qo'yibman. Bu – yettinchisi! Bularning biri to menga mehr qo'yguncha qo'yib yuborib boshqasini olibman. Bu xotinlardan uchta farzand ko'rganman, hammasi barhayot, lekin hech birining menga mehri yo'q: avvalo mendan yiroqda o'sgan, undan keyin hammasining ham onasi meni

yomonlagan. Endi hamma xotinlarim, bolalarimning qargʻishi tegib shuning qoʻliga qarab qoldim. Busiz ham boʻlmaydi: boshim yostiqqa tekkanda loaqal tezroq tuzalib ishga chiqsin, pul topib kelsin degan muddaoda bir piyola suv berar-ku, oʻlsam odamlar bexabar qolib oʻligim uyning oʻrtasida koʻkarib yotmas-ku! Mening oʻtgan umrim bir ibrat, pensiyaga chiqsam kitob yozaman... Sizlarga havasim keladi. Qaysi kuni ikkoving quchoqlashib yigʻlaganda avtobusning tagiga kirib men ham yigʻladim! Sizlarning koʻz yoshlaring chuchuk koʻz yoshi, mening koʻz yoshlarim achchiq koʻz yoshi. Men ham yoshligimda chuchuk yosh toʻkkan boʻlsam, qariganda achchiq yosh toʻkmas edim... Endi men ishimga boray...

Chol oʻpkasini zoʻrgʻa tutib oʻrnidan turdi, inqillab-pishillab tushib ketdi. Anvar bilan Muhayyo jim qolishdi.

– Qiziq, – dedi Anvar, – har boshda bir savdo, birov yanglishadi, birovni birov yanglishtiradi, birov yurgani yoʻl topolmaydi, birov bor yoʻldan yurolmaydi... Esimda bor, ayam meni alqamoqchi boʻlsalar «boshing toshdan boʻlsin» der edilar, haqiqatan bu dunyoda odamning boshi toshdan boʻlishi kerak ekan. Biz asrimiz buyuk: insonning koʻzi oʻtkir, qulogʻi ding, qoʻli uzun, qadami katta, yaʼni har ishga qodir deymiz-u, odam odamga yashagani qadar xalal beradi, olamni shu qadar tor qilib yuboradiki, boshimni olib togʻu toshlarga, uzoq yulduzlarga ketsam deyman!

Muhayyo hazillashib uning bilagidan mahkam ushladi.

– Meni tashlab nomard senga yoʻl boʻlsin!

Ikkovi qotib-qotib kuldi.

– Yoʻq, Muhayyoxon, – dedi Anvar. – Sizni ham olib ketaman! Hali men sizga aytganim yoʻq, men uchar avtomobil ixtiro qilmoqchiman!

– Vertolyotmi? – dedi Muhayyo kulgi yoshini artib.

– Yo‘q, vertolyotning dahmazasi ko‘p: parrak kerak, benzin kerak, buzilsa omon qolmaydi. Men oddiy «Volga»ni uchiraman. Hamma narsa taxt, faqat bir narsaga qarab qolganman.

– Nima ekan?

– Jismlarning, jumladan, «Volga»ning ham og‘irligi nima degan so‘z? Yerning tortish kuchi degan so‘zmi? Demak, yerning tortish kuchini kesadigan bo‘yoq o‘ylab topilsa-yu, shu bo‘yoq bilan bo‘yalsa tamom – «Volga» bolalarning pufagiday osmonga qarab intilaveradi! Uning ichida o‘tirgan odam derazadan qo‘lini chiqarib yelpig‘ich bilan uni xohlagan tomoniga yurgizishi mumkin! Hamma gap mana shu bo‘yoqni topishda!

Muhayyo kulaverib bukchayib qoldi.

– Faqat bo‘yoqqa qarab qolibsiz-da!.. Yo‘q, Anvarjon aka, sizga yashagani xalal bergan, olamni ko‘zingizga tor qilib ko‘rsatgan odamlar emas, bitta Marg‘uba ammingiz! Bitta ammingizdan qochish uchun uchar avtomobil ixtiro qilishning hojati bormikin?

– Nega bitta ammam bo‘lar ekan, urf-odatimiz-chi? Uchar avtomobil qochish uchun kerak bo‘lmasa, Rahimjon aytmoqchi, odamni xo‘rlaydigan, odamning nafasini bo‘g‘adigan urf-odatlarimizni bombardimon qilish uchun kerak! Jek Londonning xayoliy bir hikoyasi bor edi shekilli, – dedi Anvar. – Hikoya qahramoni xayoliy yo‘llar bilan Amerikada kapitalizmni yiqitib, o‘rniga sotsializm quradi. Lekin Amerika xalqi o‘shanaqa xayoliy qurollarni o‘ylab topguncha Rossiya xalqlari oddiy miltiq bilan kurashib kapitalizmni yiqitdi. Biz ham shu yo‘ldan borib, avtomobilni uchar qiladigan bo‘yoq topilmaguncha ro‘para kelgan oddiy tayoqni ko‘tarib jangga kirishimiz osonroq!

– Qani o‘sha oddiy tayoq? – dedi Muhayyo, Anvar uning qo‘lini ushladi.

– Jasorat!

Muhayyo qip-qizarib yerga qaradi.

– Mening qo‘limdan nima keladi...

– Qo‘lingizdan hech narsa kelmaydimi? Hech narsa kerak emas, menga faqat xalal bermasangiz bo‘ldi! Marg‘uba ammam mendan kechib yuborishi mumkin, bu juda ham katta musibat emas! Lekin sizning ota-onangiz sizdan kechishmaydi, qo‘rqmang!

Muhayyo hamon yerga qaraganicha eshitilar-eshitilmas dedi:

– Dadam durustlar, ayam eskicharoq...

Muhayyo qorong‘i tushib, teraklar orasidan zo‘riqqanday ko‘kimtil qizil oy ko‘tarilganda ketgani qo‘zg‘aldi. Anvar uni xilvat, oydinga olachalpoq yo‘laklardan uyiga eltib qo‘ydi. Ular ko‘chaning bu yuzidagi kattakon qayrag‘och soyasida to‘xtashdi. Muhayyo xayrlashgani qo‘l berdi. Anvar uning qo‘lini qattiq qisib o‘ziga tortdi, Muhayyo yaqinroq kelib ikkinchi qo‘lini uning ko‘kragiga qo‘ydi. Anvar o‘tgan safar yuzidan o‘pgani intilganda Muhayyo xafa bo‘laman degani uchun yana qo‘lidan o‘pdi, qayta-qayta o‘pib yuziga surkadi. Muhayyo bu safar qo‘lini tortib olmadi, lekin xavotir olib ko‘chaning u yuziga qaradi. Eshik oldida onasi qop-qora haykalday bo‘lib turar edi. Muhayyo «voy o‘lay!» deganicha yo‘lkani qiyalab, onasining ro‘parasidan ko‘chaning u yuziga o‘tdi.

NOQOBIL QIZ

Muborakxonim eshikdan chetlanib Muhayyoga yo'l berdi, uning salomiga alik olmadi, o'zini bosish uchun biroz to'xtadi, qayta-qayta «Astag'firullo!» deganidan keyin kirib, supada o'tirgan Muhayyoga yaqin bordi; yana bir marta «Astag'firullo!» deganidan keyin, sekin so'radi:

– Dadang bo'lmasa shunaqa ekan-da? Qayoqda eding?

Muhayyo yerga qarab javob berdi:

– Dadam borlarida ham... Anvarni ko'rgani borgan edim...

Muborakxonim lov etib ketdi... «Astag'firullo» deyish ham esiga kelmay, shovqin soldi:

– Hech bo'lmasa yolg'on gapirsang-chi, bezbet! – dedi va oyog'i ostida yotgan supurgini olib quloch-kash qildi.

Muhayyo ko'zini yumdi-yu qimir etmadi.

– Ayajon. Menga yolg'on gapirishni o'rgatgan emassiz...

Muborakxonim supurgini uloqtirib yubordi, engashib qattiq shivirladi:

– Ersirab qoldingmi? – dedi, yana bir shalaq gap aytdi.

– Ayajon, bunaqa gapni og'zingizga olmang, shu og'iz bilan meni bolam degansiz, alla aytgansiz, suygansiz...

Muborakxonim uning so'ziga quloq solmadi.

– Ersiragan bo'lsang bironta xotini o'lganni topay!

Muhayyo onasining yuziga qaradi.

– Ayajon, iloyim hech kimning xotini, hech kimning eri o'lmasin! Hech kimning boshiga Anvarning kuni tushmasin!

Muborakxonim o'zini bosib uning yoniga o'tirdi.

– Shu Anvarga tegasanmi? – dedi.

Muhayyo indamadi. Muborakxonim juda kuyib ketdi.

– Turmushing bo'lmaydi, jon qizim, turmushing bo'lmaydi. Aytdim-ku, senga it tekkan!..

Muhayyo eshitilar-eshtilmas dedi:

– Salimjonga it tegmasdan tushgan edim-ku, nega turmushim bo'lmadi?

– Peshanangdan ko'r! – dedi Muborakxonim uning peshanasiga nuqib.

Muhayyo ko'ziga yosh oldi.

– Ayajon, hamma narsani ko'rib, bilib turib yana shunaqa deysiz-a! Peshanamga nima qibdi?

Muborakxonim uning so'ziga quloq solmadi.

– Boshing ta'nadan chiqmaydi! Qon yig'laysan! Meni ham qon yig'latasan!

Muborakxonim shundoq dedi-yu, uyga kirib ketdi, uzoq yig'ladi, keyin qo'shnining uyiga chiqib ketdi. Muhayyo onasining kelishini kutmay supaning bir chekkasiga joy solib yotdi.

Muborakxonim qo'shniga kirib hasrat qildi. Bu hovlida sakson sakkizga kirgan bir kampir bo'lib, uni butun mahalla izzat qilar edi. Muborakxonim shu kampirdan Muhayyoga nasihat qilishini so'radi, «ko'nmasa men po'pisa qilib uydan haydayman, siz ko'chada turib yo'lini to'sing, uyga olib kirib mendan gunohini so'rang», dedi. Kampir ko'ndi, ertalab ko'chaga chiqib ariqning bo'yida kutib o'tirdi.

Muborakxonim ertalab gap kovladi, qizini avval quchoqlab yig'ladi, keyin urmoqchi bo'ldi, bularning hech biri kor qilmagandan keyin Anvarga bo'lmag'ur tuhmatlar qildi. Muhayyo onasining hamma gapiga chidadi-yu, Anvar to'g'risidagi tuhmatlariga chidolmay gap qaytardi. Muborakxonim shunga mahtal edi, birdan jazavasi tutib og'zidan ko'piklar sochdi:

«Ket-chi, ket!» deb Muhayyoni itarib tashladi, uyga kirib uning ki-yim-kechagini, kitoblarini derazadan uloqtirdi, uydan chiqib yana shovqin soldi. Muhayyo zor-zor yig'lab yalindi, yolvordi, oyog'iga yiqildi. Muborakxonim og'ziga kelganini qaytarmay qizini haqorat qilar, zohiran, chiqib ketishini, aslida esa tavba qilishini kutib tepasida turar edi. Muhayyo uning oyog'i ostida uzoq yig'lab yotganidan keyin sekin o'rnidan turdi, kiyimlarini, kitoblarini quchog'iga olib indamay jo'nab qoldi. Muborakxonim eshik oldida o'tirgan kampir qaytarib kelishini kutib supada gerdayib o'tirdi.

Biroq kampir Muhayyoning chiqib ketganini ko'rmay qoldi: shu choq echkisi yechilib chiqib ro'paradagi tor ko'chaga kirib ketdi-yu, kampir nevarasini chaqirgani hovliga kirgan edi.

Muborakxonim bu gapni eshitib fig'oni chiqdi, yuragiga vahm tushdi-yu, idorasiga borib javob oldi, kuni bo'yi Muhayyoni qidirdi: fakultetiga bordi, hamma qarindoshlarning uyiga bir-bir bosh tiqdi, Muhayyoning dugonalariga uchradi, uzun xodachaning uchiga changak bog'lab mahalla hovuzini ham qidirtirdi; tez yordam kasalxonasiga bordi, militsiyaga arz qildi...

Ikki kun o'tdi. Muborakxonim ikki kun ishga bormadi, borolmadi, uchinchi kuni Hakimjonga xat yozib jo'natib kelganida Muhayyodan xat keldi:

«Ayajonim! Mehribonim!

Sog'-salomatman. Meni nega mahalla hovuzidan qidirdingiz? Nahot o'zimni o'ldirishimga, shu bilan meni katta qilishdagi mehnatlaringizni, orzu-umidlaringizni qora yer qa'riga ko'mishimga ko'zingiz yetgan bo'lsa! Nainki meni shunchalik bag'ritosh deb o'ylasangiz? Siz tuqqan, sut bergan, siz o'stirgan bola bag'ritosh bo'lishi mumkinmi?

Uydan haydaganingiz uchun chiqib ketganim yo'q, siz dam oling, o'zingizga keling, deb ketdim.

Men sizdan xafa emasman, nima deb bunchalik kuyishingizni bilaman: yolg'iz farzandingizman, meni yer-ko'kka ishonmaysiz, bolaligimda ham yer-ko'kka ishonmay oylab ko'chaga chiqarmas edingiz. «Ayagan ko'zga cho'p tushar» degan gap bor, Salimjon shunaqa bo'ldi... Shundoq bo'lishini bilganingizda, albatta, meni asrab-avaylab, «Qizim katta bo'lib qoldi, tezroq egasiga topshiray», deb shoshilmas edingiz...

Vaqtincha arazlashib qolganimizni dadamga yozib yurmang, kelganlarida ham aytmay qo'ya qolaylik.

Kecha fakultetga borgan edim, o'qish boshlanmasdan talabalar paxtaga ketadi, degan gap yuribdi. Hech bunaqa bo'lmas edi, ob-havo yomon kelayotgan bo'lsa kerak. Paxtaga ketib qolsam xavotir bo'lmang.

Dugonamdan sizga salom.

Noqobil qizingiz Muhayyo».

Qizidan darak topilmaganidan yig'lab, «Sog'-salomat ko'rsam churq etmayman» deb yurgan Muborakxonim Muhayyo sog'-salomat ekanini bilib ta'naga to'la xatning mag'zini chaqqani ham bo'lmay yana lo-villadi, salom aytgan dugonasinikida ekaniga ishonmay Anvarni qarg'adi.

Muborakxonim o'tirar-turarini bilmay Anvarning fakultetiga bordi, uning ishxonasini bilib zimdan odam yubordi, yana Muhayyoning yaqin-yiroqdagi dugonalaridan, qarindoshlaridan xabar oldi. Hech kim «Men ko'rdim» demadi.

Endi bebosh qizni topishning birdan bir chorasi talabalarning paxtaga jo'nashini kutish edi: shu kuni Muhayyo qayerda bo'lsa fakultetga yetib keladi.

Muborakxonim o'sha kuni tong qorong'usida fakultetga bordi. Odam g'ich-bich, qator turgan avtobuslarga chiqmoqda edi. Muborakxonim yelib-yu-

gurib hamma yoqni qaradi, avtobusdan avtobusga chopib Muhayyoni chaqirdi. Oldindagi avtobusdan kimdir Muhayyoni allaqanaqa bir komissiya hay'atida kecha jo'nab ketganini aytdi. Muborakxonimning ko'ngliga g'ulg'ula tushdi: «Bu komissiya o'lgurda Anvar ham bo'lmasin tag'in!»

Muborakxonim qaytishda Anvarning ishxonasidan xabar oldi. Anvar hovlining o'rtasida turgan bir mashinaning tagida chalqancha yotib nimadir bura-moqda edi.

Muborakxonim shu kuni Muhayyoning qayoqqa ketganini bilib, ikki kundan so'ng o'z hisobidan ta'til oldi va o'sha yoqqa jo'nab ketdi.

KUNDOSHLAR

Anvar qachongacha og'iz-burnini qora qilib mashinaning tagida yotadi, qachongacha quruq non yeb birovning uyida yotib yuradi, bunaqa tirikchilik joni-ga tegar, qaytib kelar?

Marg'uba shu umid bilan ovunib yurgan edi, Mu-hayyoni onasi uyidan haydab yuborganini eshitib dod, deb yuborayozdi. Xayriyat, Muhayyo paxtaga ketibdi, xayriyat, Anvar shaharda qolibdi! Bu g'animat fursatni qo'ldan bermaslik kerak bo'lib qoldi.

Marg'uba mol-dunyoni Anvarning burniga ish-qaganida Anvar og'iz solmadi. Ota-onasining qano-ti ostida issiq-sovuqni bilmay o'sgan bola mol-dun-yoning qadriga yetadimi? Buning qadriga internatda yo'qchilik ko'rib o'sgan Muattar yetadi, hidi kelsa og'iz soladi. Muattar Anvarning ana u xatiga javoban «Erga tegadigan bo'lsam menga dallol kerak emas», degan bo'lsa, unda mol-dunyodan bexabar edi.

Marg'uba mana shu umid bilan Muattarni Hindis-tondan aytishini zoriqib kutar edi.

Muattar sentyabrning boshlarida Hindistondan qaytdi, bir-ikki kundan keyin Javlon bilan Marg'uba-ni ko'rgani keldi.

Marg'ubaning aytishiga qaraganda Javlon bundan ikki kun burun xusumatdan o'n besh kunga qamal-gan, uyda bitta o'zi ekan.

Marg'uba Muattardan o'pkaladi, o'sha xatni bil-masdan, tushunmasdan yozganini, Javlon ikkovi nima deb joni halak ekanini aytib yig'ladi; keyin Anvar go'l bo'lsa ham yaxshi bola ekanini, go'lligi orqasida shunday hovli-joy, mashina, kassadagi shuncha pul-ga ko'chada yurgan bir isqirt va uning dog'uli onasi

ko'z tikkanini kuyib jizg'anak bo'lib gapirdi; qora qutini olib chiqib taqinchoqlarni ko'rsatdi, uning bo'yniga, ko'kragiga osdi, quloqlariga, sochiga, bilak va barmoqlariga taqdi, uzoqdan qarab: «Bu narsalar faqat senga yarashadi», dedi; nazarida, Muattar mol-dunyoga uchib, o'zini Anvarning burniga ishqashga tayyor bo'lgandan keyin eri Javlonning mastligida maqtanib aljigan gapini aytib yoqasini ushladi: Muhayyo Javlonni ko'chada ko'rib ko'zini suzgan emish, Javlonning ta'bi tortmabdi, yo'qsa hujraga taklif qilsa kirar ekan... Marg'uba uning komsomolligi, institutda o'qishini masxara qilib, yomon fikrlarga burib gapirdi. Agar bu gaplarning mingdan biri rost bo'lgan taqdirda ham Anvarning sho'ri quribdi-ku! Nainki Anvar shu qadar go'l, u juvon shu qadar shayton bo'lsa? Agar haqiqatan shundoq bo'lsa Anvar bechoraning ko'zini ochish kerak. Buning uchun avval Muhayyoni yaxshiroq bilish kerak.

Ertasiga nonushta mahalida Marg'uba gapni aylantirib «yetim o'lgurning holidan xabar olish kerak», degan mazmunda shama qildi, Muattar indamadi. Marg'uba uning indamaganini rozilik alomati deb tushundi-da, shodmarg bo'layozdi. Muattarning sochini o'z qo'li bilan turmakladi, qora qutidan gavhar ko'zli oltin bezakni olib turmakning yonboshiga o'rnatib qo'ydi.

Muattar to'g'ri institutga borib komsomol komitetiga kirdi va Rahimjonga o'zini tanitib maqsadini aytdi:

– Muhayyo degan talaba qiz to'g'risida juda xunuk gaplar eshitib, shu gaplar qay darajada to'g'ri ekani-bilgani keldim. Bizga kelin bo'lishi ehtimoli bor, – dedi.

Rahimjon unga razm solib turib birdan:

– Marg'uba xolaning kimi bo'lasiz? – deb so'radi. Muattar hayron bo'lib qoldi.

– U kishini qayoqdan bilasiz? O'gay qiziman.

– Muattarxonman deng! Muhayyoni yomonlaydigan odam shaharda boshqa yo‘q! Siz u kishidan, shubhasiz juda ko‘p gaplar eshitgansiz. Bu gaplarning hammasini rad qilaman desam qimmatli vaqtingizni ko‘p olarman, deb qo‘rqaman. Muhayyo paxtada. Bugun soat to‘rtida o‘sha tomonga maxsus avtobus boradi. Boraman desangiz – marhamat. Kelin qiladigan bo‘lsalaring Muhayyoning o‘zini ko‘ring, gaplashing. O‘sha yerda Naimjon degan yigit bor. Anvarning o‘rtog‘i, bu yigit Muhayyoni juda yaxshi biladi.

Muattar jilmaydi.

– Anvarjonni ham bilar ekansiz?

– Bu yerda nima qilib o‘tiribman! – dedi Rahimjon kulib va xayrlashgani qo‘l uzatdi.

Muattar soat to‘rtida keldi. Bino oldida avtobus turar, unga ikki kishi har xil qop, xalta, yashik va yashikchalar yuklamogda edi. Yuk ortib bo‘linganidan keyin Muattar avtobusga chiqdi, yuklarni oralab oldinga yurdi, oldindagi ikkita bo‘sh joyning birida qop-qora soch va mo‘ylovi oppoq bir odam o‘tirar edi. Muattarga qulayroq o‘rinni bo‘shatib berish uchun o‘rnidan turdi. Uning qiynalibroq turganini, qayeridir g‘ijirlaganidan oyog‘i yog‘och ekanini bildi-yu, Muattar uning joyiga o‘tirmadi, qo‘ymasdan o‘zini o‘tqazdi.

Muborakxonim o‘sha kuni Muhayyoni qidirib hech qayerdan topa olmaganidan keyin darhol Hakimjonga: «Muhayyoning qilmishlariga panja orasidan qaraningizning oqibati mana: Muhayyo Anvar deb uydan chiqib ketdi, bundan ortiq sharmandalik bo‘ladimi?» degan mazmunda xat yozgan edi. Hakimjon bu gapga uncha ishonmasa ham ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushib shaharga keldi, Muborakxonim uyni yolg‘iz tashlab Muhayyoning ketidan paxtaga ketganini qo‘shnilaridan eshitib ko‘ngli biroz tinchidi, muzokara «Anvar boradigan bo‘lsa, sen borma» degan gapdan chiqqan-

dir deb o'yladi, lekin shundoq bo'lsa ham ona-bola-ning holidan xabar olgani boradigan bo'lib institutga kelgan, avtobusga chiqqan edi.

Soat to'rtidan oshganda avtobus jo'nadi, hademay shahardan chiqdi. Hakimjon bilan Muattar hamgap bo'lib qolishdi, bir-biridan paxtada kimi borligini so'radi.

– Qizimiz paxtaga ketgan ekan men yo'q edim, onaizor ketidan jo'nabdi-da! – dedi Hakimjon. – Bit-ta-yu bitta qizi, yerga-ko'kka ishonmaydi. Sizning kimingiz bor?

– Men, rostini aytsam, kelin ko'rgani ketyapman. Mashhur doktor Murod Ali deganni eshitgandirsiz?

Hakimjon yog'och oyog'ini g'ijirlatib unga tomon o'girildi.

– Eh-e, u kishini tanimagan, eshitmagan odam bormi! Xo'sh, xo'sh?

– Men o'sha kishining uzoq qarindoshi bo'laman: u kishining singlisi mening o'gay dadamga tushgan...

– Ha-ha, – dedi Hakimjon, – Marg'ubaxonning o'gaydan o'gay qizi bo'laman deng! Xo'sh, xo'sh?

– O'sha kishidan Anvar degan bir bola qolgan, shu Muhayyo degan bir juvonne yaxshi ko'rib qolibdi...

Hakimjon talmovsiradi.

– Qanaqa juvon ekan?

– Marg'uba ayaning aytishlariga qaraganda shay-ton, institut komsomol komiteti sekretarining gapiga qaraganda farishta!

– Qaysi birining gapiga ishonsa bo'ladi? – dedi Hakimjon kulimsirab.

Muattar biroz asabiylashdi.

– Men Marg'uba opani yaxshi bilaman! O'zim bu oiladan allaqachonlar chiqib ketganman, Anvarning ham shu oilada turishini sira ham istamayman!

Hakimjon uning yuziga tikildi va yelkasiga qoqdi.

– Barakalla, xiyla hushyor ekansiz, qizim! – dedi, keyin avtobusning derazasidan ekin maydonlariga, bog'larga qarab biroz jim qolgach, Muattarga yuzlandi. – Rostini aytsam, Marg'uba opangiz mening ko'z ochib ko'rgan xotinim edi. Bu xotin boshiga kelgan hamma ko'rguliklari uchun negadir mendan qasos olmoqchi bo'ladi, qalbida gazaklab ketgan chipqon og'rig'iga mening ko'z qorachig'im dori deb o'ylaydi-yu, har bahona bilan nuqul yuzimga chang solib ko'zimni o'yib olmoqchi bo'ladi.

– Himm... – dedi Muattar, – gapning mag'ziga tushunib bu tomoni ham bor deng?..

– Yana qaysi tomoni bor? – dedi Hakimjon avtobus silkinganda qattiq tebranib.

Hakimjon bunchalik ochilgandan keyin Muattar ham ko'nglidagini yashirmadi.

– Men ham rostini aytsam, Marg'uba opa Anvar ikkovimizni bir-birimizga yopishtirmoqchilar. Lekin ikkovimizning ham ko'nglimizda zig'irchalik bir nima yo'q, bir-birimizning ko'nglimizni bilamiz ham! Sizning gapingizdan keyin bir narsani o'ylab qoldim. Anvarning otasidan kattagina meros qolgan, Marg'uba opa bir o'q bilan uchta qarg'ani urmoqchi ekanmikan: birinchidan, Muhayyoni yomon otliqqa chiqarib sizga ozor bermoqchi; ikkinchidan, Anvarning Muhayyodan ko'nglini qoldirib, mol-dunyo qo'lidan chiqib ketishi xavfining oldini olmoqchi; uchinchidan, meni Anvarga yopishtirib, mol-dunyo to'g'risida «gilam sotsang qo'shningga sot, bir chekkasida o'zing o'tirasani» qabilida ish tutmoqchi.

Hakimjon zavq qilib kuldi.

– Qoyilman! Qoyilman! Yana aytaman: xiyla hushyor, xiylagina ziyrak qiz ekansiz!.. Hayotda o'q yeb qaltis yarador bo'lgan bu qashqirdan har narsa kutish mumkin! Boya juda haq gap gapirdingiz. Anvar bu oiladan chiqib ketishi kerak!

Avtobus yo'lining buzilgan joyidan silkinib, chayqalib o'tgandan keyin Muattar davom etdi:

– Odamga alam qiladi: bu xotin nima uchun «Muattar mol-dunyoga uchib Anvarga tegadi-yu, gilamning bir chekkasida o'zim o'tiraman», deb o'ylaydi? Anvar nima uchun buning basharasini odamlarning ko'zidan etagi bilan to'sib turishi kerak?

Avtobus kun botar oldida qishloqqa kirib keldi va yordamchilar shtabining oldida to'xtadi. Kutib turgan mutasaddilar, talabalar avtobusni o'rab olishdi. Yuklar tushirildi» Muattar bir chekkaga chiqib turdi. Hakimjon yo'lining chekkasidagi balandlikka chiqib u yoq-bu yoqqa alangladi. Qayoqdandir paydo bo'lgan Muhayyo: «Dadajon!» deganicha kelib uning bo'yniga osildi, so'rashib bo'lgandan keyin qulog'iga «Ayam nima uchun kelganlarini so'ramay qo'ya qoling», dedi. Shu asnoda Muborakxonim kelib qoldi. Muhayyo yugurganicha unga qarshi borib qulog'iga shivirladi: «O'tgan gaplarni dadamga aytib o'tirmang!» dedi va onasi bilan birga Hakimjonning oldiga keldi. Hakimjon unga narida turgan Muattarni ko'rsatib «Men senga dugona topib keldim, qarshi ol» dedi. Muhayyo yugurib ketdi – Muborakxonim Muhayyo haqida Hakimjonga yozgan xatini andavalashga urinib bir nimalar dedi.

– Salom! – dedi Muhayyo Muattarga.

Muattar shunday isliqi kiyimda ham husn-jamoli yarqirab turgan Muhayyoni ko'rib angrayib qoldi va darrov hushini o'nglab qo'l berdi.

Muattar uning chiroyli ekanini eshitgan, lekin «Har qancha chiroyli bo'lsa ham mendan xunuk bo'lishi kerak», degan xayolda ekan shekilli, isqirt kiyimda ham husn-jamoli yarqirab turganini ko'rib beixtiyor yuragi jig' etib ketdi va o'ziga darhol tasalli berib ichida «tentakkina bo'lsa kerak» deb qo'ydi-da, qo'l berdi.

– Muattar! – dedi va uning nechogʻlik tentak ekanini bilish uchun koʻzlariga qaradi. – Kundoshingizman! Anvarjon aytgandir?

Muattar uning rangi quv oʻchishini, loaqal gangib qolishini kutgan edi, biroq Muhayyo boshini bir tomonga qiyshaytirganicha kulimsiradi.

– Unaqa boʻlsa meni yulgani kelgandirsiz-da?

Muattar biroz hayron boʻldi:

– Anvarjon mening toʻgʻrimda hech narsa demaganmidilar?

– Degan edilar... – dedi Muhayyo hamon kulimsirab. Uning bunchalik begʻamligi Muattarga biroz malol kelganday boʻldi.

– Anvar meni olmasligiga sizni shunchalik ishon tirganmi?

Muhayyo yerga qarab ogʻirligini boshqa oyogʻiga soldi.

– Yoʻq, Anvar sizni olmasligiga meni ishontirgani yoʻq, siz unga tegmasligingizga ishonaman!

Muattar ogʻzini ochmasdan kuldi.

– Tegmasligingizni soʻrayman deng!

– Yoʻq, tegmasligingizga ishonaman!

Muattar hayron boʻldi.

– Sabab?

Muhayyo bir-ikki ogʻiz rostlagandan keyin dedi:

– Anvar sizni qoʻyib menga intilishi sizning iz-zat-nafsingizga tegadi, siz buni kechirolmaysiz, hech bir qiz kechirolmaydi!

Muattar unga «balosan-ku» deganday yalt etib qaradi.

Bu orada Hakimjon bilan Muborakxonim anglashilmovchilikni Muhayyo istaganicha tinch-totuvlik bilan bartaraf qilib shu tomonga siljishdi. Muborakxonim bu yerga kelgandan keyin bir necha kun qizi bilan gaplashmadi, lekin brigadaga oshpazlik qilib, boʻsh vaqtlarida paxta terib yurdi. Bundan

xabar topgan bir muxbir «Yurak amri bilan» degan xabarda Muborakxonimni xo'p maqtaganidan keyin xo'jalik ona-bolaga birovning hovlisidan joy berdi. Shu bilan ona-bola gaplashib ketdi. Muhayyo mehmonlarni shu hovliga olib bordi. Hovli juda bahavo, kechasi ham xushmanzara joy ekan, so'rida ne mahalgacha gaplashib o'tirishdi.

Muborakxonim Muattarning nima maqsadda kelganini bilmay, Marg'ubaning o'gay qizi ekanini eshitib Anvardan so'z ochdi:

– Suqsurday yigit, lekin aqli yo'q.

Muhayyo so'zning borishini ko'rib, choy keltirish bahonasi bilan o'choq boshiga ketdi. Muborakxonim erkinlik sezib ochiqroq gapirdi:

– Mana, sizga o'xshagan qizga nasibasi qo'shilsa aqli tezroq kirar edi.

Muattar o'ng'aysizlandi.

– Mening nasibam boshqa bir yigitning nasibasiga qo'shiladigan.

Uning ochiqligi Muborakxonimga yoqmadi, ichida: «Beti qattiq qiz ekan», deb boshqa so'z qotmadi. Bir chekkada yonboshlab oppoq sochini barmoqlari bilan tarab yotgan Hakimjon Muattarga ko'z qisib dedi:

– Bizning Muhayyoxon ham aqlsizgina qiz edi, tezroq aql kirsin deb nasibasini aqlli bir bolaning nasibasiga qo'shgan edik, oqibati ko'ngildagiday bo'lib chiqmadi.

Muhayyoni Salimjonga bo'lishishda ko'proq Muborakxonim shoshilgan edi, shuning uchun Hakimjonning bu pichingi jon-jonidan o'tib ketdi-yu, o'pkasini tutolmadi.

– Men bolamga yomonlikni ravo ko'rib o'sha ishni qilgan emasman, peshana ekan! – dedi va Muattarga arz qildi: – Qiz olmagan yigitga tegishi to'g'rimi?

Muattar nima deyishini bilmay, Hakimjonga qaradi. Hakimjon ko'kragini yostiqlardan ko'tardi.

– Xo‘p, Muhayyoga «undoq emas, bundoq» deb yana aql o‘rgatamizmi? Qaysi yuzimiz bilan aql o‘rgatmoqchi bo‘lamiz?

Muborakxonimning jahli chiqib ketdi:

– O‘ziga tashlab qo‘yamizmi bo‘lmasa!

– Ha, o‘ziga tashlab qo‘yamiz, o‘ziga tashlab qo‘yishimiz kerak! Qaldirg‘och bolasini uchirma qilganida bo‘ynidan tishlab uchirmaydi.

Muborakxonim yuzini teskari o‘g‘irib do‘ng‘illadi.

– Ha, sizga bunaqa narsalar hech gap emas!

– To‘g‘ri, hech gap emas! Olamga eshigingizning tirqishidan qaramasangiz sizga ham hech gap bo‘lmas edi. Men olamni ko‘rganimdan, olamga o‘t qo‘ygan, olamni go‘dakday bag‘riga bosib halokatdan qutqargan odamlarni, bitta odamniig qalbidan tortib butun olamni dahshatga solgan voqealarni ko‘rganman! Bularni ko‘rib ehtimol ko‘zim qamashgandir, shuning uchun sizni dahshatga solgan narsa menga o‘yinchoq bo‘lib ko‘rinar!.. Qiz olmagan yigit, yigitga tegmagan qiz... Nainki inson insonga faqat shu ko‘z bilan qarasa? Qiz, yigit... Insonning o‘zi qayoqda qoldi?

Muhayyo choy olib keldi, chol-kampirning xomush o‘tirganini ko‘rib Muattarga qaradi. Muattar: «Char-chashgan, dam olishsin» deb Muhayyoni ko‘chaga taklif qildi.

Ko‘cha jimjit, allaqayerda radio xirillar edi. Ikkovi nariroqdagi kattakon darvoza tepasidagi yorug‘ chiroq shu‘lasi doirasida nari-beri yurib uzoq gaplashishdi. Muattar hozir Hakimjon bilan Muborakxonim o‘rtasida bo‘lib o‘tgan gaplarni gapirib berdi. Muhayyo bir suyundi, bir qayg‘uga qoldi. Shu munosabat bilan Muhayyo boshdan kechirganlarini – erga tegib bir o‘limdan qolganini, Murod Ali domla o‘lim changalidan tortib olganini, Anvar bilan nima bo‘lib tanishganini, Marg‘ubaning qilmish-qidirmishlarini goh kulib, goh yig‘lab gapirib berdi. Muhayyo shunchalik ochiq gaplashganidan keyin Muattar ham hech nar-

sani yashirmadi, u haqda Marg'uba nimalar deganini, Anvarga bo'lgan munosabatini, bu yerga nima uchun kelganini ochiq aytdi.

– Yig'lamang, Muhayyoxon! – dedi – hammasi esdan chiqadi. Sizlarga qo'limdan keladigan yordamimni ayamayman! Yig'loq bo'lmang.

Muhayyo darrov ko'z yoshini artdi va jilmaydi.

– Yo'q, Muattarxon, men yig'loq emasman, sizga yig'lab berdim-da! Yosh bola yiqilsa-yu, atrofida hech kim bo'lmasa o'rnidan to'rib ketaveradi, biron mehribonini ko'rib qolsa o'shanga yig'lab beradi. Shunga o'xshab men ham... Rahmat, Muattarxon!

Muattar uning shodlikdan uchqun sochib turgan ko'zlariga qaradi va burnini burniga ishqaguday bo'lib:

– Muncha ham tiling biyron bo'lmasa? – dedi va Muhayyoni mehr bilan bag'riga bosdi.

Muattar bu yerga kelib ko'zlaganidan ortiqroq narsani bildi, komsomol komitetida Rahimjon tayinlagan Naimjon degan yigit bilan gaplashishga ehtiyoj qolmadi, ertalabki avtobusda jo'naydigan bo'ldi. Uni avtobusga Muhayyo kuzatib chiqdi.

SOVCHILAR

Anvar Muattarni kuzatgan kuni ertasiga azonda g'irillaganicha rayonga chiqib bordi, Muborakxonimdan ibo qilib Muhayyo bilan dalada ko'rishdi, yonma-yon paxta tergan bo'lib, Muattar bilan ikki orada bo'lgan hamma gapni, uning to'y to'g'risidagi fikr-mulohazalarini to'liq aytib berdi. Ikkovi bema-lol gaplashaversa ham bo'lar ekan, Hakimjon bilan Muborakxonim bu to'g'rida ochiqchasiga gaplashgan, qancha g'urbat, qancha ko'z yoshidan keyin Muborakxonim taqdirga tan bergan ekan; Hakimjonni kuzatishda «hozirgi yoshlar», «peshana» degan gaplarni aytibdi. Lekin uning bir qancha shartlari bo'lib, bularning eng birinchisi Muhayyoga sovchi yuborilishi ekan. Hali bu shartlarni eshitmasdan turib, bularning har biri Anvarning ko'ziga tog' bo'lib ko'rindi.

Anvarning birdan-bir umidi Muattar, qolaversa gapdon Naimjon edi.

Anvar shu kechasi Naimjonning yotog'ida yotib qoldi, unga ham hamma gapni aytib berdi. Naimjon Muattar bilan Hakimjondan g'oyat xursand bo'ldi, to'yga tayyorlik ishiga Muattarxon bosh bo'lsa, to'yga o'zi bosh bo'lishini va'da qildi.

Anvar har jihatdan xotirjam bo'lib shaharga qaytdi.

Marg'uba uning vaqtichog'ligi, jonsarak bo'lib qolganini ko'rib halitdan to'y harakatida yuribdi, deb xursand bo'lib, unga har kuni goh no'xat, behi, goh qazi solib osh qilib berar edi.

Yanagi haftaning oxirlarida talabalar paxtadan qaytishdi. Shu kunlarda Muattardan telegramma keldi, Anvar mehmonxonadan nomer olib, uni kutib olgani ayeroportga Naimjon bilan chiqdi. Uchovi mehmon-

xonada o'tirib to'y rejasini tuzmoqchi bo'lishgan edi, bu reja ko'p jihatdan Hakimjon ayniqsa, Muborakxonimga bog'liq bo'lganidan ikkovining ishtirokida tuzish kerak bo'lib qoldi. Bundan tashqari Muattar bilan Naimjon sovchilikka borib Muborakxonimning eng birinchi shartini bajarishi, qolganlarini ham eshitishi kerak edi.

Muborakxonim bularni yosh demay sovchi o'rnida izzat-ikrom bilan qarshi oldi, lekin to'ydan gap ochishi bilan ikkovini bir cho'qishda garang qilib qo'ydi:

– Murod Alining yili o'tmasdan to'y nimasi? – dedi.

Bular shuni o'ylashmagan ekan, ikkovi bir-biriga qarab hayron bo'lib qoldi. Xayriyat, Naimjon botirlik qildi.

– Yo'q, xola, to'y to'g'risida so'z bo'lishi mumkin emas, biz nikohdan o'tib qo'yish to'g'risida gapirayotibmiz. Ikkovi yosh, bir institutda o'qiydi, to'ygacha ko'rishmanglar, deb bo'lmaydi... Shaharda Marg'uba bittamikan, biri bo'lmasa biri ikkovini gap qilishi, bo'lmag'ur gaplar tarqatishi mumkin. Ikkovi nikohdan o'tib qo'ysa yo'rig'i boshqa...

Muborakxonim o'ylab turib yana aynidi.

– Yo'q, bular FHDYodan o'tsa-o'tmasa ikkovini Marg'uba tinch qo'ymaydi, ilon bo'lib chaqaveradi. Tegishli idoralar tilini tiyib qo'yishsin!

Bu safar Muattar gap topdi.

– Bu yog'idan xotirjam bo'ling, xola, idoraning hojati yo'q, dadamga aytib qo'ydirvoraman, desam – har qanaqa ilon bo'lsa ham iniga kirib ketadi!

Muborakxonim yalt etib Muattarga qaradi, uning yuzidagi qat'iyatni ko'rib so'ziga inondi va nikohga rozi bo'ldi.

Ish bunaqasiga aylangandan keyin u yog'i juda oson ko'rinib qolgan edi, biroq gap aylanib yangidan-yangi qiyinchiliklar vujudga kela boshladi.

Xo'p, nikohdan o'tishdi. Shu kuni kechqurun ikkovi besh-o'nta o'rtog'ini chaqirib, o'rtaga bir choynak

choy qo'yib, shu ish shundoq bo'lganini ma'lum qilish kerakmi, yo'qmi? Kerak bo'lsa odam qayerga chaqiriladi? Anvar o'z uyiga chaqirolmaydi, chunki uyi ajdaho og'zini ochib yotgan quduqday gap. Bu yerga chaqirgani Muborakxonim ko'nmadi, «Odamlar nima deydi?» deb o'zining eski andishasini pesh qildi. Birdan-bir joy yoshlar qahvaxonasi edi. Bunga Muborakxonim ham rozi bo'ldi, lekin xo'rliki kelib xo'p yig'ladi.

– Qizginamning peshanasi sho'r bo'lmasa kuni qashshoq talabalar choy ichadigan qahvaxonaga qolarmidi! – dedi.

Undan keyin yana ham mushkulroq muammo yuzaga keldi: o'tirishdan keyin kelin bilan kuyov qayoqqa boradi, yaqin yor-do'stlari ikkovini qayoqqa kuzatib qo'yishadi? Bu to'g'rida ham o'ylab-o'ylab mehmonxonadan ikki xonali nomer olishga qaror berishdi. Muborakxonim bunga ham rozi bo'ldi, lekin yana yig'ladi.

– Shu umid bilan qiz o'stirganmidim!.. Darbadar bo'lsin deb kechalari uyqumni harom qilganmidim...

– Xolajon, – dedi Naimjon o'pkalab, – shunday xayrli ish ustida ham yig'laydimi kishi! O'zingiz tushungan, uncha-muncha ham emas, davlat omonat kassasida ishlaydigan ayolsiz! Shunday bo'lgandan keyin o'ylashingiz kerak: Muhayyoxon suygan yigiti-ga tegyapti!

Muborakxonim naridan-beri ko'z yoshini art-di-da, uyga kirib ketdi: hayal o'tmay to'g'ri iljayganicha sovchilarga peshkash olib chiqdi; beqasam to'nni Naimjonning, bir kiyimlik atlasni Muattarning oldiga qo'ydi.

YOSHLAR QAHVAXONASI

Rasmiy nikoh payshanba, o'tirish juma kuniga belgilandi. Naimjon qahvaxonaga borib shu kuni kech soat o'n birga o'n ikki kishilik stol buyurib keldi.

Muattar Anvarni magazinma-magazin olib yurib qora kostyum, it tumshuq qora tufli, qatirma yoqali oq ko'ylak, ilon po'sti galstuk olib berdi.

Ikkovi shu kuni kechqurun qo'l ushlab, uyga xandon-xushxon kirib bordi – Marg'uba bularni ko'rib o'tqizgani joy topolmay qoldi, er-xotin ikki shaharda turishi «shunaqa bo'ladi» degan mazmunda har xil qochirmalar, hazil-mutoyibalar qildi, hijronlik haqidagi she'rlardan bir-ikki satr o'qidi, bularning kechqurun teatrga borish niyati borligini eshitib, darrov osh-ovqat qildi. Ovqat vaqtida Muattar uni g'af-latga solish uchun Anvarning oyog'ini sekin bosib:

– Mana, opa, hammamiz ham qutuldik, Muhayyo erga tegayotgan emish, bugun to'y, – dedi.

Anvar bu nayrangga o'zidan bir nima qo'shmoqchi bo'lib:

– Tag'in to'yga borib yurmang! – dedi.

Marg'ubaning jig'i-biyroni chiqdi.

– Voy, men nega borar ekanman! Azasiga aytsa, chopqillab boraman! Hu to'yidan tobuti chiqsin!..

Anvar unga xo'mrayib qaradi.

– Birovning bolasini qarg'amang!..

Muattar Anvarning biqiniga turtib zo'rg'a to'xtatdi. Marg'uba qo'lidagi piyolani taq etib stolga qo'ydi.

– Bilaman, sening ko'ngling hali ham o'shanda! – dedi yig'lamsirab, – qiz ko'r qiladi-ya, noshukr, qiz ko'r qiladi?..

Anvar ishning pachavasini chiqarib qo'yishidan qo'rqib Muattar uni tezroq olib ketish harakatiga

tushib qoldi. Anvar bugun sotib olingan kiyim-boshini kiydi. Marg'uba unga yangi ro'molcha berib, qutlug' bo'lsin qildi. Anvar hozirgina o'tgan ikki oradagi tundlikka butkul barham bermoqchi bo'lib yolg'ondan:

– Yuring, amma, o'yinga olib boraylik, – dedi. Marg'uba suyunib ketdi.

– Umrlaringdan baraka topinglar! – dedi va kiyin-gani narigi uyga kirib ketdi.

Anvar rangi o'chib Muattarga qaradi, Muattar xunob bo'ldi.

– Sizga nima bo'ldi, tek o'tirsangiz bo'lmaydimi? Endi to'g'rilang, «sizga to'g'ri kelmaydigan o'yin – balet» deng!

Marg'uba kiyinib chiqqanda Anvar xatosini to'g'rilamoqchi bo'lib undan battarroq xato qilib qo'ydi:

– Lekin, amma, sizga to'g'ri kelmaydigan o'yin – balet, erkak kishi qip-yalang'och xotinni kaftiga qo'yib chiqadi!

Xayriyat, Marg'uba «bunaqa ekan, sizlar nima uchun borayotibsizlar, Muattar nega boryapti» degani ulgurmadi, ikkovi chiqib ketdi.

Shunday qilib yoshlar qahvaxonasida bo'ladigan kichkina o'tirishga hamma yoq taxt: odamlar aytil-di, stollar yasatildi, Marg'ubani g'aflatga solib bu yoqdan ham xotirjam bo'lindi.

Kelin bilan kuyov, xizmatdagi Muattar bilan Naimjon belgilangan vaqtdan xiyla oldinroq kelib mehmonlarni kutishdi. Biroq mehmonga o'n ikki kishi aytilgan bo'lsa ham, Naimjon hol-baqudrat sovg'a-salom ko'tarib kelgan tanish talabalardan o'n oltitasi-ni sanab u yog'iga adashib ketdi. Ularning ustiga institut badiiy havaskorlaridan sakkizta sozanda, xonanda kirib kelishdi. Naimjon abjirlik qilib yana bir qancha stol buyurdi. Nihoyat, mehmonlar turli noz-ne'matlar, rang-barang sharbat shishalari, anvoyi gullar bilan zeb berilgan stollarga o'tirishdi.

Naimjon marosimni ochib «Bu o'tirish katta to'yning debochasi» dedi va kelin bilan kuyovga yaxshi tilaklar tiladi. Sozanda va xonandalar bir juft yalla qilib navbat raqsga kelganda o'tirishni tashqariga – qahvaxonaning sahniga ko'chirish zarurati tug'ilib qoldi. Talabalar birpasda stollarni olib chiqishdi. Birozdan keyin musiqa sadolari yangrab, ichkaridan chiqqan kelin bilan kuyovni rang-barang pistonlar sochib, lentalar otib chapak va olqish nidolari bilan qarshi olindi. Hamma o'tirgandan keyin qo'sh childirma gij-gijbang boshlab yubordi, yana odam yig'ildi.

Childirma maqomiga yo'rg'alab, kift qoqib, stollarni oralab yurgan to'rt qiz birin-ketin kelin bilan kuyovning ro'parasiga kelib, qo'llaridagi guldastalarni ta'zim bilan ikkoviga tutishdi, yer tepinib yana stollarni oralab yo'rg'alab ketishdi. Ora-sirada birov she'r o'qib, birov so'z bilan, birov qiziqchilik qilib kelin bilan kuyovni tabriklar edi.

Kichkina o'tirish deb boshlangan ish hayal o'tmay tuppa-tuzuk to'yga aylandi-ketdi. Yigitlar, qizlar qahvaxonaning sahnida, harakat to'xtab qolgan katta ko'cha va uning naryog'idagi xiyobonda o'ynashar, navbatma-navbat ashula, yalla qilishar edi.

Sahndagi davraga Anvarning ustasi oqsoq chol toychoq ko'tarib kirdi, lapanglab o'ynab hammani xo'p kuldirdi, keyin kelin bilan kuyov qarshisida to'xtab toychoqni baland ko'tardi-da, hamma jim bo'lganda: «Men o'zim avtomobilist bo'lsam ham bularga chavandoz o'g'il tilayman!» dedi va toychoqni kelinga uzatdi. Qiyqiriq-chapak, kulgi ko'tarildi.

Javlon qamoqdan chiqqanidan beri «ozodlik uchun» erta-yu kech ichib tentirab yurgan edi, bu kecha qayoqdandir kelayotib yoshlar qahvaxonasi oldida bo'layotgan tomoshani ko'rib to'xtadi; qahvaxonaning sahnida o'ynayotgan qizlarni ko'rib niyati buzildi-yu, yaqinroq bordi. Shu choq qahvaxona ich-

karisidan hindcha kiyingan, ikki qoshining o'rtasi-
ga qop-qora xol qo'ygan xushqomat bir qiz chiqdi va
sozandalarning shavq-zavq bilan chalayotgan hind
maqomiga qo'l tashladi va davrani bir aylanib to'rdagi
stolda o'tirgan kishilarga ta'zim qildi. Ko'ziga odamlar
ikkita bo'lib ko'rinayotgani uchun Javlon hindcha ki-
yingan qizga hovuchi bilan chap ko'zini berkitib o'ng
ko'zi bilan qaradi, qarasa – Muattar! Javlon uning
kelganidan bexabar edi. Muattar bu yerda nima qilib
yuribdi, kimlarga ta'zim qildi? Javlon charchagan
o'ng ko'zini hovuchi bilan berkitib chap ko'zi bilan
qaradi; ne ko'zi bilan ko'rsin, stolning o'rta yerida
Muhayyo, uning yonida Anvar so'ppayib o'tirar edi.
Javlon hushyor tortib o'zini orqaga tashladi, yugur-
ganicha necha joyda yiqilib, emaklab uyiga yetib bor-
di-yu, ko'rganlarini Marg'ubaga aytib berdi. Marg'uba
don tiqilgai tovuqdan bir tovush chiqardi-yu, bosh-
yalang, oyoq yalang qahvaxonaga qarab chopdi, kelib,
sichqonni yaqinroq keltirib chang solmoqchi bo'lgan
mushukday bir chekkada pisib turdi. Muattar goh
bir oyog'ining tovonini, goh birining uchini yerga
urib, goh eshilib-buralib, goh to'lg'anib xo'p o'ynadn.
Keyin o'ynaganicha borib Muhayyoni davraga tortdi.
Chapak bo'lib ketdi. Hamma jim, kelinning o'zbek-
chami, hindchami o'ynashini kutar edi. Sozandalar
imoga mahtal bo'lib turishar edi. Shu payt bir juvon
ichkaridan qora quti olib chiqib Muattarning qo'li-
ga berdi. Muattar qutini stolning chekkasiga qo'yib,
uning ichidan shoda-shoda marvarid olib Muhayyo-
ning bo'yniga osdi, rang-barang qimmatbaho toshlar
o'rnatilgan taqinchoqlarni boshiga, ko'kragiga, bi-
lak va barmoqlariga taqa boshladi. Marg'uba yuragi
hovliqib, odamlarning orqasidan yaqinroq kelib qora
qutiga tikildi. O'sha! Xudo ursin agar, o'sha qora
quti! Muattarning ishorasi bilan sozandalar birinchi
zarbni berganda Marg'uba birdan dodlab yubordi-da,

dodlaganicha o'zini parkka urdi. Muattar qo'rqib ketdi va beixtiyor Muhayyoning oldini to'sdi. Muhayyo hayron bo'lib qoldi. Anvar yonida o'tirgan Naimjonga bir nima dedi. Naimjon darrov o'rnidan turib, parkka tomon yugurdi, park tomondan Marg'ubaning borgan sayin yiroqlashib borayotgan tovushi eshitilardi: «Voy-dod! Uyim kuydi! Bolam o'ldi!..»

Kimdir odamlarni tinchitdi, davrani buzmaslikka, o'yin-kulgini to'xtatmaslikka tirishdi.

Biroq o'tirishdan fayz ketdi. Odamlar tarqaladigan bo'lib turganda Naimjon yetib keldi va kelin bilan kuyov nomidan hammaga minnatdorchilik bildirdi. Odamlar ketib bo'lgandan keyin Naimjon voqeani aytib berdi: Marg'uba o'sha xilda dodlaganicha hovliga boribdi, qo'ni-qo'shnisi yugurib chiqibdi. Marg'uba qaznoqdan bir banka kerosin olib chiqibdi-da, odamlarning hay-haylashiga qaramay yarmini Anvarning xonasiga, yarmidan ozrog'ini mast uxlab yotgan Javlonga sepibdi, qolganini o'zining boshidan quyibdi-da, gugurt chaqib yuboribdi. Odamlar alangaga ko'rpa, gilam, sholcha yopib zo'rg'a o'chirishibdi. Uyda hech narsaga ziyon yetmabdi. Faqat Marg'ubaning sochi, yuzi, qo'li kuyibdi, xolos. Naimjon tez yordam mashinasini chaqiribdi.

– Endi nima qilamiz? – dedi Anvar ko'zlarini katta ochib.

– Marg'ubani «Tez yordam» mashinasi, albatta, olib ketadi, – dedi Naimjon, – Javlon mast, o'zini u devordan bu devorga urib yuribdi. Men bir-ikkita xotinga tayinlab keldim, uylaringni tozalab qo'yishadi. O'sha yerga boramiz.

Muhayyo nochor rozi bo'ldi.

Ular borganda eshik oldida «Tez yordam» mashinasi turar edi. Javlon Marg'ubani dast ko'tarib mashinaga tiqar ekan, «Sharmanda qilding, saksovull!» dedi va eshikni taraqlatib yopdi-da, so'kinib, gandiraklaganicha qorong'ilik qa'riga kirib g'oyib bo'ldi.

Naimjon kelin bilan kuyovni ichkariga kirgizib yubordi, Javlonning qayoqqa ketganidan bexabar, undan xavotir olib har ehtimolga qarshi kiraverishdagi kichkina uyga kirib divanga cho'zildi. Bu voqealar Muborakxonim bilan Hakimjonning qulog'iga yetsa xavotir bo'lishmasin, deb Muattar ularni ogoh qilgani ketdi.

Bu orada tong yorishib, odam odamni taniydigan bo'lib qoldi.

Muattar yaxshi ham borgan ekan, er-xotin qahva-xona atrofida allaqanaqa shovqin bo'lganidan azonda xabar topib, Muborakxonim hozirgina mehmonxonaga borib kelgan, ikkovi, hayron bo'lib turgan ekan. Muattar bo'lgan voqeani bularga aytayotgan paytida birdan ko'cha eshigi taraqlab ochildi-yu sochlari kuygan, yuz-ko'zini qurum bosgan Marg'uba otilib kirdi. Uning aft-boshini, vajohatini ko'rgan kishi qo'rqar edi. Marg'uba Muattarga jinniday bir qaradi, Muborakxonimga qarab yurdi, Hakimjon uni ushlagan edi, qo'lidan chiqib ketdi-da, Muborakxonimning oyog'i ostiga zarb bilan o'zini tashladi.

– Quda, qizingizning, nevaralaringizning orzu-havasini ko'ring! Dunyodan ikki qo'li bir tepa o'tib ketayotibman... Rahm qiling...

Hakimjon uni darrov ko'tarib oldi, oyoqqa qo'ygan edi, yana o'zini yerga tashladi va Hakimjonning yog'och oyog'ini quchoqlab boshini uraverdi.

– Dod!.. Anvarjonning onasidan qolgan taqinchoqlar ichida meniki, o'z-o'zimniki ham bor edi, aytinglar, menikini berishsin!..

Hakimjon uni yana yerdan ko'tarib oldi.

– Qanaqa taqinchoq?

Marg'uba yana o'zini yerga tashlamoqchi bo'ldi.

– Muhayyoxonning o'zlari biladilar!

Muborakxonim arang o'ziga keldi.

– Xo'p, bersin! Mening qizim taqinchoq taqib katta bo'lgan emas.

Muattar kelib Marg'ubani suyab oldi.

– Faqat shumi, opa? – dedi. – Yuring, taqinchoqlarni mana men olib beraman! Lekin hozir emas, tushdan keyin boring!

– Tushdan keyin ikkovimiz boramiz, – dedi Muborakxonim, – ungacha bet-qo'lingizni yuving, qolgan sochingizni tarang...

Marg'uba Muborakxonimga mung'ayib qaradi.

Muattar ketdi. Hakimjonning ko'z oldiga Marg'ubaning yoshlik-beboshlik chog'lari, ayniqsa, yengsiz kofta, tor shim kiyib kaltakesakday baqrayib turgani, pista chaqib po'chog'ini tuflar ekan, «Men taqdirning qo'lida o'yinchoqman», deb iljaygani kel-di-da, vujudiga, Marg'ubaning qo'li tekkan yog'och oyog'iga ham muz yugurganday bo'ldi, indamay ko'chaga chiqib ketdi.

Muborakxonim bilan Marg'uba tushdan keyin borishdi. Marg'uba akasi vafot etgan uyning derazasi oldidan o'tishda ko'ngli ozgan bo'lib, birpas devorni ushlab qoldi. Muborakxonim uni suyab dahlizga olib kirdi. Katta uyda mehmon ko'p ekan, Marg'uba o'zini ro'paradagi uychaga urdi. Muborakxonim katta uyga kirganda g'ovur bo'lib ketdi. Oradan bir necha minut o'tgandan keyin uychaga Muhayyo, Muattar, Naimjon, Muborakxonim va bir necha notanish yoshlar kirib kelishdi, hamon yerga qarab o'tirgan Marg'ubani harchand qistab katta uyga kirgani unatisholmadi. Shundan keyin Muhayyo chiqib, qora qutini olib kirdi va qopqog'ini ochib Marg'ubaning tizzasiga qo'ydi.

– Mana o'zingizga tegishli taqinchoqlardan tashqari Anvarjonning onasi sizga atagan narsalar ham bor emish, hammasini oling! – dedi.

Marg'uba taqinchoqlarni titib ko'rgani odamlar chiqib ketishini kutar edi. Buni sezib hamma chiqib ketdi. Marg'uba taqinchoqlarni darrov titkilab ko'r-di, hamma narsa joyida, lekin quti yengilroq bo'lib qolganday tuyildi.

Marg'uba qora qutini bag'riga bosib uydan asta chiqdi va zinadan tushganidan keyin hech yoqqa qaramay yo'rg'alab qoldi. Anvar bilan Muhayyo uni derazadan ko'rib zinaga chiqqanida Marg'uba ko'cha eshikni ochgani qo'l uzatgan edi.

– Amma, – dedi Anvar, – eshikni qattiq yopmang, qulflanib qoladi.

Marg'uba orqasiga bir qaradi, chiqib eshikni sekin yopdi.

1968

XOTINLAR

Asqar ota inqilob uchun qurol ko'targan o'zbek ayollaridan Ma'rifatxon voqeasini eshitganidan beri uning qabrini ziyorat qilish niyatida yurgan edi. Qish kunlarining birida qulay payt keldi: bir necha ovchi o'sha tomonga – daryo bo'yiga ovga chiqadigan bo'lib qoldi. Asqar ota shularga qo'shildi.

Miltiqlar taxt, otlar tayyor, lekin kimningdir qush olib kelishini kutishar edi. Asqar ota ko'ziga yuvoshroq ko'ringan bir otni sinamoqchi bo'lib mingan edi, ot anhorga intildi. Shu onda mayin bir tovush:

– Otajon, sug'ormang! – dedi.

Asqar ota otning boshini tortib, orqaga qaradi. Paxtalik nimcha, qo'pol ag'darma etik kiygan yoshgina bir juvon turar edi.

– Yo'q, qizim, sug'ormoqchi emasman. Bu otlarning ichida yuvoshrog'i qaysi?

– Yuvoshrog'imi? Mening otimni mina qoling.

– O'zing-chi?

– Menga baribir.

Bu gap Asqar otaga, umrida bir marta ot minib, o'zini zo'r chavandoz hisoblagan yosh bolaning qo'rsiligiday tuyildi.

Qushga ketgan kishi qushni olib keldi. Ovchilar otlanishdi. Asqar ota juvonning otini mingani ikkilanib turgan edi, o'zi jilovidan ushlab:

– Mining, ota! – dedi.

Asqar ota noiloj mindi. Juvon saroyga kirib ko'k toy minib chiqdi. Toy uning ostida gijinglar, o'zini u yoqdan bu yoqqa tashlar edi. Buni ko'rib Asqar otaning kayfi uchib ketdi.

– Qizim, bo'lak ot yo'q ekanmi?

– Nima edi?

– Bu oting... ovga yaramaydi.

– Men ovga bormayman, otajon, ikkinchi MTS ga ketyapman. Juvon toyni bemalol yengib ketayotgan bo'lsa ham qishloqdan chiqquncha Asqar ota juda toliqib ketdi, chunki toy har o'ynoqlaganda entikib, nafasi ichiga tushib ketar edi. Juvon buni payqab bo'rayotgan ekan:

– Xavotir bo'lmang, ota, yiqilsam yer ko'taradi, – deb kuldi.

– Xavotir bo'lmayman, qizim, lekin bu oting gaplashib ketgani qo'ymayapti-da. Alishtirib olsang gaplashib, chaqchaqlashib ketar edik.

Ovchilar xiyla ilgarilab ketdi. Juvon tizginni sal bo'shatgan edi, shunga mahtal bo'lib turgan toy bir-daniga ko'tarib ketdi. Asqar ota avval qo'rqdi, keyin juvonning ot chopishini ko'rib, shunchalik zavqi keldiki, otiga ustma-ust qamchi bosganini o'zi ham bil-may qoldi. Juvon saman ot minib uni kutib turar edi.

– Otga juda epchil ekansan-ku, qizim! Barakalla... Kolxozda nima ish qilasan?

– MTS da traktorchimani.

Asqar ota uni boshdan-oyoq kuzatib chiqdi. Jo'nashdi. Ikkala ot bir qiyomda, baravar qadam tashlab borar edi.

– Otga ham ishing tushib turadimi?

– Hozir uncha ishim tushmaydi.

– Ilgari ishing tusharmidi? Kuyoving nima ish qiladi?

– U kishi ham traktorchi edilar. Hozir frontda.

– Qachon ketgan?

– Urush boshlangan kunlari.

– Farzand bormi?

– Bor. O'g'lim bor. Otni o'rganishimga shu bola sabab bo'lgan.

– Bola sabab bo'lgan?

– Ha. Men sizga aytsam, otajon, urushdan ilgari bizdan xomlik o'tgan ekan: uy qilibmiz, ro'zg'or qilib-

miz; o'rtog'im katta-katta topib kelganiga, men yaxshi-yaxshi tikkanimga, pishirganimga xursand bo'lib yura beribmiz. Men yetti yillik maktabni bitirganimdan keyin o'rtog'im «bas, kamlik qilsa, keyin o'qiy-san», dedilar. Ishlamadim ham. Shu bilan «uy qizi» bo'lib qolaverdim. Buning oqibati shu bo'ldiki, urush boshlangandan keyin tengqurlarim joy-joyini topib olganda men shoshib qoldim; ularning erlari ko'ngillari o'sib jo'naganda, mening erim o'ksib jo'nadi... O'rtog'im jo'nagan kuni ertasiga kechqurun hovliga Komila xolam keldilar. O'zingiz bilasiz, u kishi frontga ketgan yigitlarning hammasini ham o'z farzandlariday ko'radilar; hol-ahvol so'radilar, keyin: «Qani endi, qizim, yurtdan qarzingni uz, qo'lingdan nima ish keladi?» dedilar. Alamimga chidolmay turgan edim. «Uy qizi bo'lib o'tirishdan boshqa hamma ish keladi!» deb javob berdim. O'g'lim olti yarim oylik edi. «Undoq bo'lsa, – dedilar, – bolang to'g'risida tashvish tortma, men bola boqishni sendan yaxshi bilaman». Oradan bir hafta o'tgandan keyin meni MTS ga boshlab bordilar. Shu kishining ukalari brigada mexanigi ekanlar. Shu kishining qo'llarida ikki oy juda qattiq ishladim. O'n besh kunlik sinovdan keyin traktorchi nomini oldim. Tengqurlarim ichida yuzim yorug' bo'ldi. Bolaga butkul Komila xolam qaradilar. Men kuniga bir marta peshinda ro'para kelgan otni minib, emizgani kelar edim. Otni shunda o'rganganman...

– Kuyoving «kamlik qilsa, keyin o'qirsan», deb seni qiynab qo'yibdi-da!

– Mendan ko'ra o'zi ko'p qiynaldi. Uyda o'tirishimga o'rganib qolgan emasmi, ko'chaga chiqishim sog'tishini sug'urib olganday bo'ldi. Shunday bo'lishini bilar edim. Bir xatida bunday debdi: «Katta poxoddan keyin hozir dam olib o'tiribmiz. Juda charchaganman. Bilasizmi, kishi charchagan vaqtida ko'ngilni g'ash qiladigan xayollarga boradi. Hozir

soat to'qqizdan yigirma daqiqa o'tdi. Men sizga xat yozib o'tiribman. Shu daqiqada siz nima qilib o'tirgan ekansiz?..» Men bu gapga uncha og'rinmadim, erkak kishi ba'zan shunaqa yuragi torlik qiladi, deb qo'ya qoldim. Oradan uch kun o'tmay yana xat keldi. «Yangi yilga oz qoldi, – debdi, – yangi yilni qayerda qarshi olasiz? O'rtoqlaringizni uyga chaqirasizmi, o'zingiz biron yerga borasizmi? Uyga chaqirsangiz Qrimdan nomingizni yozdirib kelgan piyolamda o'zingiz choy iching!» Men bunga qisqacha javob yozib, «Yangi yil siz eson-omon kelgan kuni kiradi», dedim. Bu xatim borib yetmasdan tag'in xat keldi:

«Yangi yil kechasi tushimga kirdingiz: kimningdir ayvonida birov bilan gaplashib turibsiz. Tong yorishganda uyga qaytib keldingiz, betingizni yuvmasdan, uxlab yotgan bolaning yuzidan o'pdingiz...» Bu gap jon-jonimdan o'tib ketdi.

Juvon engashib otning yolini siladi. Uning harakati, o'pkasi to'lib, gapdan to'xtash uchun bahona izlayotganini ko'rsatar edi. Asqar ota buni fahmlab, o'zini bilmaslikka soldi. Juvon anchadan keyin qomatini rosladi va qor bosib yotgan uzoq adirning etagida qorayib turgan qishloqni ko'rsatdi.

– Ikkinchi MTS hu o'sha yerda. Men ana u so'qmoqdan yursam ham bo'ladi. Lekin sizni nariroqqacha kuzatib, katta yo'ldan keta qolay. Aytganday, ovga miltiqsiz boryapsiz-ku, otajon?

Juvon boshda MTS ga boraman deganda Asqar ota MTS ni negadir daryo bo'yiga yaqinroq yerda deb o'ylagan ekan, hozir hayron bo'lib qoldi. U o'zining niyatini aytib, agar juvon ovga boradigan bo'lsa, MTS ga birga borishini aytdi. Juvon Ma'rifatxonga juda ixlosmand ekan, bu taklifni darrov qabul qildi. Bular, ovchilarga «ketaveringlar» ishorasini qilib, so'qmoqqa burilishdi. Ovchilar ko'chma qumlar orasiga kirib, ko'zdan yo'qoldi.

Qishloqning kiraverishida talay bolalar muz tiyg'anmoqda edi. Bular ikkita otliqni ko'rib, yo'l bo'yiga tizilishdi. Otliqlar yaqinroq kelganda yetti-sakkiz yoshlardagi qiz bola bir qo'li bilan to'nning ustidan ishtonini mahkam ushlab, ularga qarshi yugurdi.

– Sobiraxon opa!

Juvon otning boshini tortdi.

– Opang o'rgilsin! Beri kel, qo'lingni ber! – juvon qizni otga mindirib oldi. – Voy, muzlab ketibsankul! Kimning qizisan?

– Bozorvoy akaning... Tog'amning bayroqlarini qachon qaytib berasiz? Olib ketgansizku...

– Voy, Normat akaning jiyani bo'lasanmi? – dedi juvon va Asqar otaga tushuntirdi. – Kuzgi shudgorda ko'chma qizil bayroqni biz olgan edik, shuni aytayotibdi... Tog'ang uydamlar?

– Tog'am rayonga ketganlar. Ukachamga beshik olib keladilar.

Kattakon bujun ostidagi qizil darvozadan temir bochka yumalatib chiqqan bir mo'ysafid qomatini rostlab bularga bir qaradi-da, yugurganicha kirib ketdi. Bular yetib borguncha darvozadan uch kishi chiqdi. Bular, kichigi yigirma, kattasi o'ttiz yoshlardagi nihoyatda kelishgan yigitlar edi. Bularning juvonga qilayotgan muomalasini ko'rib, Asqar ota yo'l bo'yi uni sansirab kelganidan qattiq xijolat tortdi. Yigitlar, keyinchalik kelgan haligi mo'ysafid ham, uni shunchalik izzat qilishar ediki, Asqar ota bu juvonning oddiy traktorchigina ekaniga shubhalanib qoldi. Biroq orada o'tgan butun gap remont, ehtiyot qismlar, brigada, yonilg'i to'g'risida bordi va hatto hazil, o'rni kelib, qilingan bir-ikki askiya ham shu mavzudan chetga chiqmadi. Asqar ota erkaklar qoshida ko'p muhtaram xotinlarni ko'rgan, lekin ularning ko'pchiligi rais, mudir, direktor deganday rahbarlik o'rindagi xotinlar edi. Bu oddiy traktorchi

juvonga bo'lgan ehtirom uni ayrim o'ringa qo'yar edi. Asqar ota ichida «Ering haligiday xatlar yozgan bo'lsa, seni yaxshi bilmas ekan; sen o'z qadringni bilasan, o'z qadrini bilgan xotinga erkak kishi yomon ko'z bilan qaragani botinolmaydi» deb qo'ydi; bu gapni hozir o'ziga aytgisi va erining o'sha xatiga nima deb javob yozganligini so'ragisi kelar edi.

Biroq hash-pash deguncha yetti-sakkiz chog'li xotin-xalaj to'planib bu gaplarning mavridi bo'lmay qoldi. Bular Sobiraxonning yor-u do'stlari, o'rtoqlari edi. Asqar ota bu hurmatli juvon boshqa xotinlardan raftori bilan ajralib turar degan bir o'yda edi, biroq Sobiraxon yor-u do'stlari orasida shularning biri bo'lib qolganini ko'rib, ajablendi. Bular kimningdir uyiga kirishganda, Sobiraxon hatto to'rga o'tgani ham unamadi. Boshqalar uncha qistashmadi ham. To'rga Asqar ota bilan o'rta yoshlardagi ikki xotinni o'tqazishdi. Asqar ota shuncha xotinining ichida yakka o'zi bo'lganligidan nechukdir o'ng'aysizlanar va har qaysiga alohida-alohida «yaxshimisiz» der va duo qilar edi.

Deraza yonida turgan kimdir:

– Oqsoqol kelyapti, – dedi.

«Oqsoqol» deganda Asqar otaning ko'z oldiga o'z tengquri, biron mo'ysafid kelib, ancha yengil tortgan edi, eshikdan qirq yoshlardagi bir xotin kirdi. Hamma o'rnidan turdi. Asqar ota ham turmoqchi bo'lgan edi, oqsoqol yetib kelib yelkasidan bosdi.

– Qimirlamang, otaxon! Siz kelganda biz tursak yarashadi, biz kelganda siz tursangiz xunuk ko'rinadi.

Oqsoqol qishloq kengashining raisi edi. U, Sobiraxon bilan quchoqlashib ko'rishdi, shu payt obrez bo'yida piyoz to'g'rayotgan bir qizga ko'zi tushib:

– Bahri! Hu, afting qursin! – dedi.

Bahri rangi bo'zarib, qo'lidan pichoq tushib ketdi.

– Nima qildim, opajon?

– Dard!

Bahri ko'zi javdirab hammaga bir-bir qaradi va birdan qizarib, ko'ziga yosh keldi.

– Nima gunoh qildim?..

– Nega eringga xat yozmaysan?

– Voy bundan bo'lak ham tuhmat bormi? Nega xat yozmas ekanman? Mana, so'rang!

– Xat yozmasligingni bular biladimi, ering biladimi? Ma, o'qi-chi, xat yozar ekansanmi, yo'qmi?

Xatni Sobiraxon olib, ko'k qalam bilan ostiga chizilgan yerini o'qidi:

«...Bahrixon bir qo'y bilan bir ko'ylaklik atlas mukofot olgan ekan. Shuni nima uchun olganligini so'rab ikki marta xat yozdim, aytmadi. Mumkin bo'lsa, o'rtoq Ibrohimova, shu to'g'rida menga o'zingiz ma'lumot bersangiz...»

– Xo'sh? – dedi oqsoqol.

Bahri yengi bilan ko'z yoshini artar ekan, kulim-siradi.

– Xat yozmaydi demabdilar-kul! Shoshmang, opajon, men sizga tushuntirib beray. U kishi o'tgan yili «Qizil yulduz» ordeni olganlarida «Ordenni nima uchun oldingiz?» deb uch marta xat qildim, uchala xatimga ham «seni mudofaa qilishda ayrim ish ko'rsatganim uchun oldim», deb javob qaytardilar, anig'ini hech aytmadilar. Men ham mukofotni nima uchun olganligimni aytmadim, xatlariga «sizni esimdan chiqarmaganligim uchun oldim», deb javob berdim.

Jiddiy gap kulgi bilan tugab, oqsoqol uni nohaq urishgani uchun o'sal bo'ldi. Asqar ota, Bahri hech bo'lmasa o'zicha do'ng'illab qo'yar deb o'ylagan edi, undoq qilmadi. U, boyagiday ochilib, ishini qilaverdi. Shundan keyin Asqar ota unga alohida e'tibor bilan razm solgan edi, ko'ziga juda yosh ko'rindi.

– Nechaga kirding, qizim?

Bahri Asqar otaga yer ostidan bir qarab, so'ng javob berdi:

– O‘n sakkizga kirsammikin, kirmasammikin, deb o‘ylanib yuribman.

Oqsoqol, Asqar ota bu savolni nima uchun berganini fahmlab, tushuntirdi:

– Ering deymiz-u, lekin u yigitga hali tekkan emas, so‘z bergan, xolos... Urushga ketayotganda nima degansan, Bahri?

«Agar sizdan bo‘lakni desam, dushmandan ortgan o‘qlaringizdan biriga ko‘ksim nishona bo‘lsin». Shundoq deganmisan?

Bahri qizarib, javob bermadi. Asqar otaning nazari-da, Bahrining bu so‘zi gul ko‘tarib, ashula aytib oh chekib, zo‘r kelganda hatto picha ko‘z yoshi to‘kib arz qilinadigan, lekin anchayin qarshilikka uchrasa chok-chokidan so‘kilib ketadigan muhabbatning emas, gulsiz, ko‘z yoshisiz arz qilinadigan va qarshilikka uchragan sayin kamol topadigan muhabbatning ifodasi edi. Birinchi xil muhabbat tilda, ikkinchi xil muhabbat dilda bo‘ladi. Birinchi xil muhabbatdan gul bilan ko‘z yoshi olib tashlansa, chunonchi, parranda muhabbatidan farq qilmaydi. Parranda bilan inson orasida qancha farq bo‘lsa, birinchi xil muhabbat bilan ikkinchi xil muhabbat orasida ham shuncha farq bor. Asqar ota shu so‘zlarni ko‘nglidan o‘tkazdi-yu, Bahriga nisbatan ko‘nglida mavj urgan mehrini ifodalaydigan biron kalima ham so‘z topolmay, faqat:

– Umring uzoq bo‘lsin, qizim! – dedi.

Uy egasi dasturxon yozar ekan:

– Umridan shuncha uzoq bo‘lgandan keyin, Xudo xohlasa umri uzoq bo‘ladi, – deb so‘z o‘yini qildi.

Kimdir «piq» etib kulib yubordi. Nima gap ekanini anglay olmagan Asqar ota o‘zidan-o‘zi qattiq xijolat tortdi. Oqsoqol buni fahmlab, tezroq uni xijolatdan chiqarishga shoshildi.

– Qishlog‘imizda Umri, Umriniso degan bir xotin bor edi, shuni aytayotibdi, – dedi.

Asqar ota bu javobga qanoat qilmay:

– Kim o‘zi u, qanaqa xotin? – dedi.

Uning savoliga oqsoqol ham va boshqa hech kim ham javob bermadi. Og‘ir jimlik cho‘kdi. Shunday jimlik cho‘kdiki, bu xildagi jimlik aytgani til bormaydigan, eslashni ko‘ngil ko‘tarmaydigan biron dahshatli fojiaga uchrab halok bo‘lgan kishining nomi bexosdan tilga olingan vaqtda bo‘ladi. Jimlik uzoq davom etdi. Buning sirini anglay olmagan Asqar ota yana so‘z qotgani istihola qildi.

Sobiraxon qo‘ynidan bir dasta qog‘oz chiqarib oqsoqolga berdi va sekin:

– Bo‘taboy aka rayonga ketgan ekanlar, shuni berib qo‘yasiz, – dedi. – Biz otam bilan daryo bo‘yiga bormoqchimiz.

Bu kishi Ma‘rifatxon opaning qabrini ziyorat qilmoqchi ekanlar, birga borib kelaylik, dedilar. Qaytishda tusholmasmiz...

Ma‘rifatxon nomi aytilishi bilan suhbatga yana jon kirdi. Ayollardan ikki kishi bular bilan birga bora-digan bo‘ldi. Bulardan biri qishloq maktabining qorovuli va farroshi – Qumriniso degan nimjongina bir xotin, ikkinchisi – frontcha ishlaydigan yoshlar brigadasiga yaqinda brigadir bo‘lgan yigirma besh yoshlardagi Risolat degan norg‘ul bir juvon edi. Risolatning eri askarlikka 1942-yilning bahorida ketgan va o‘shandan beri goh Leninoboddan, goh Olmaotadan xat yozar ekan.

Jo‘nagani otlanayotgan oqsoqol:

– Sobiraxon, Bahrini ham olib boringlar, o‘ynab kelsin, – dedi.

Bahri borgisi kelsa ham, nimaningdir andishasini qilib turgan ekan, shekilli, bu gapni eshitib go‘yo qanot chiqardi. U, hammadan burun otlanib, yo‘lga chiqib turdi.

Jo‘nashdi.

Bahri xiyla oldinda Risolat bilan birga borar va otning qadam tashlashi maqomiga ashula aytar edi.

Asqar ota Sobiraxon bilan Qumrinisodan ham keyinda, otni o'z mayliga qo'yib, xayol surib borar edi.

Odamlar shundayki, bor narsa asta-sekin yo'qol-sa ham payqaydi, lekin yo'q narsa asta-sekin paydo bo'lsa payqamaydi. Asqar ota o'ylab qarasa, xotinlar suhbatida sira bo'lmagan ekan va bugungi suhbat ko'zini ochib yuboribdi: ko'zini ochib qarasa, o'z qishlog'ida, bo'lak joylarda ko'rgani, bilgani xotinlarning nimadan iborat ekanliklariga yaxshi razm solmagan va ularning kamolotini payqamagan ekan. Endilikda «munglig'», «mushtipar» singari so'zlar qovushmay qolgan, bu xotinlardan hech biri qilayotgan ishiga, kasbi-koriga sababi tirikchilik deb qaramaydi. Bular-da qandaydir bir ichki dard bor. Shunday ichki dard, kundalik tirikchilikdan yuksakroq bir sabab bo'lmasa hech qanday qonun, hech qanday shaxsiy manfaat bularni bu xilda ishlashga majbur qilolmaydi.

Sobiraxon otining boshini tortib:

– Ota, juda xayol surib qoldingiz? – dedi.

Asqar ota unga yetib oldi.

– Yo'q, qizim, xayol surayotganim yo'q... hali gapimiz chala qoldi. Eringizning o'sha xatiga javob qaytardingizmi, yo'qmi?

Sobiraxon miyig'ida kulib:

– Shunaqa, – dedi, – «betingizni yuvmasdan uxlab yotgan bolaning betidan o'pdingiz» debdilar. Bu gap jon-jonimdan o'tib ketdi. Yig'ladim. O'tirib xat yozdim. Bu bilan ham alamdanda chiqmay, xatni ko'tarib Komila xolamning oldilariga arzga bordim. Hamma gapni aytdim, yozgan javobimni o'qib berdim. U kishi o'rtog'imning xatini eshitib kuldilar, mening javobimni eshitib koyidilar, «Issiq-issiq xatlar yozib yurib, birdan sovuq xat yozsang, ko'ngli shamollab qolmaydim!» dedilar, xatimni yirtib tashladilar. Jahlimdan

tushganimdan keyin bunday tanamga o'ylab qarasam, bechora o'rtog'imdan unchalik qattiq gina qilishning hojati yo'q ekan... «Urush deganda bizning qulog'imizga gumburlagan tovushlar eshitiladi-yu, ko'zimizga qon ko'rinadi; biron qo'rqoq miltig'ini tashlab qochdi degan xabarni eshitsak, «xoin» deymiz qo'yamiz, lekin u xoinni jang maydonida yarador bo'lib yotgan yoki olg'a intilib, shu paytda sherigining yordamiga muhtoj bo'lgan jangchining ko'zi bilan ko'rolmaymiz.

Xuddi shunga o'xshagan «qishloq» degan vaqtda o'rtog'im urushga ketmasidan burungi qishloqni ko'z oldiga keltiradi; erga xiyonat qilishni «ko'ngil xushligi» deb, buzuqlikka qadam qo'yish deb biladi, lekin jang maydonida ming bir ajalga chap berib, olg'a borayotgan erining yuziga oyoq qo'yib «ko'ngil xushligi» qiladigan makiyonni bizning ko'zimiz bilan, yurt qayg'usida hamma narsani unutgan, azob chekayotgan og'ir va juda og'ir mehnatda tasalli topayotgan kishilarning ko'zi bilan ko'ra olmaydi. Ko'ra olmaydi!»

Sobiraxon «ko'ra olmaydi» degan so'zni pisanda qilib emas, afsuslanib aytdi.

– Sizga hali Umri to'g'risida gapirishdi, – dedi Sobiraxon so'zida davom etib, – yo'q, uning to'g'risida hech kim gapirmadi, gapirgisi kelmadi. O'zni kelmaganda men ham gapirmas edim. Men ham bu xotinning nomini yana bir kishi eshitishini xohlamas edim. Erim bunaqa xotinlarni bizning ko'zimiz bilan, hech bo'lmasa ana u Bahrining ko'zi bilan ko'ra olganda, menga bu xilda xatlar yozmas edi.

Asqar otaning kutganiga qarshi Sobiraxon so'zida davom etmadi, aftidan, u xotin haqida endi gapirmoqchi emas edi. U nima to'g'ridadir o'ylar, ixtiyorsiz bo'lsa kerak, allaqanday hazin kuyni burni bilan kuylab borar edi. Asqar ota o'ng tomonda borayotgan Qumrinisoga qaradi. Qumriniso bu qarashga o'zicha ma'no berib qizarganday bo'ldi va jilmayib:

– Ishi yo‘q it sug‘oradi, otajon, – dedi.

Uning xijolat tortganday bo‘lishidan Asqar ota Umrining bu xotinga biron yaqinligi bor gumon qilib:

– Umri sizning kimingiz bo‘ladi? – deb so‘radi.

Qumriniso yalt etib Asqar otaga qaradi, bir nima demoqchi bo‘lib ikki-uch og‘iz rostlaganidan keyin:

– Mening hech kimim bo‘lmaydi, Risolatdan so‘rang, – dedi.

Bular gap bilan bo‘lib, xiyla orqada qolib ketishdi.

Risolat bilan Bahri esa allaqachon yulg‘unzordan o‘tib, yo‘l bo‘yidagi ko‘chma qumtepada tevarak-atrofnı tomosha qilib, kutib turishar edi. Yulg‘unzordan o‘tilgandan so‘ng Sobiraxon ot qo‘yganicha qumtepaga chiqib ketdi. Buning ketidan Asqar ota bilan Qumriniso ham chiqdi. Bu yerdan uzoq adir etagida yarqirab turgan daryo ko‘rinar, qayerdandir o‘rdaklarning g‘ag‘illashi eshitilar edi. Hamma jim, tevarak-atrofdagi manzaraning gashti bilan mast edi.

Bular qumtepadan tushib, talay yo‘l yurguncha ham jim borishdi. Nihoyat, Asqar ota hech kim gapirmagani, o‘zi ham boshqa gap topolmagani uchun:

– Qizim, Risolatxon, Umri sizga kim bo‘ladi? – deb so‘radi.

Risolat avval Qumrinisoga, keyin Sobiraxonga qaradi, ikkovining ham yuzida tabassum ko‘rib:

– Menga-ku hech kim bo‘lmaydi, bir o‘zi ham Sobiraxonga, ham Qumriniso opamga kundosh bo‘lmoqchi deb eshitganman, – dedi.

Askiya ketdi. Bu askiya shundoq ediki, bular go‘yo yo‘lda tushib yotgan bir parcha jirkanch lattani cho‘pga ilib, «ma, ro‘molchang» deb bir-biriga otayotir.

Kula-kula hammaning darmoni qurigach, Risolat kulgi yoshlarini artib dedi:

– Toza hayron bo‘larsiz-a, otaxon! Bizning qishloqda G‘afforjon degan, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, buning ustiga hech kimi yo‘q bir yigit bor edi. Uni

hamma, hammadan ko'ra ham men yaxshiroq bilar edim. Hamma bilganiki, G'afforjon bir yildan ortiqroq selpoga mudir bo'lib turdi; men yaxshiroq bilganimki, biz hammahalla edik. Shu yigit birdan uylanish taraddudiga tushdi-yu, bir haftaning ichida to'y ham bo'la qoldi. Kelin «muqovasi» tuzukkina, lekin xiy-la o'ziga bino qo'ygan dovruqlik Umri degan bir qiz ekan. Bular to'qqiz oyga yaqin birga turishgan bo'lsa, shu davr ichida G'afforjonni ko'rgan erkak kishining g'ashi, xotin kishining rahmi kelar edi: xotini har bir og'iz so'zi, har bir bosgan qadami bilan «senga tekkanimga shukr qil», deb turganday bo'lar edi. Buni G'afforjonning o'zi yo payqamas, yo payqasa ham «nozaninning nozi» deb bilar edi. Shu xilda olti oycha umr qilishgandan keyin nima bo'ldi-yu, G'afforjon selponing mudirligidan bekor bo'ldi. Shundan keyin orada o'tgan yaqin uch oy mobaynida bular ikki-uch marotaba qo'ydi-chiqdi bo'lishdi. Qiz har safar o'zining qishlog'i Dovruqqa ketib qolar, yana paydo bo'lar edi. G'afforjonning fe'li ma'lum bo'lgani uchun ko'p kishi aybni Umriga qo'yib yurar edi, lekin G'afforjon askarlikka ketayotganda Umri shunday dod sol-diki, «ayb Umrida» deganlar tilini tishlab qoldi. Agar muhabbat shunday kezlarda to'kiladigan ko'z yoshi bilan o'lchansa, yuzta Shirin-u yuzta Laylining muhabbati bunikiga urvoq ham bo'lmas edi. «Judolik» degan so'z bino bo'lgandan beri bunaqa ko'z yoshini ko'rmagandir... Ana yig'i-yu mana yig'i!

– O'zini parovoz tagiga tashlamoqchi ham bo'lgan,
– dedi orqada kelayotgan Bahri.

– Ha, o'zini o'ldirmoqchi ham bo'ldi. Xayr, oradan uch-to'rt oy o'tdi. Bir kuni men uyda sal tobim qochib yotgan edim, bexosdan Umri kirib keldi. Eri bor paytda salom bersangiz, «bekor aytibsan» deganga o'xshab alik oladigan odam, juda shirin so'z bo'lib hol-ahvol so'radi, hovlimni supurib berdi, hatto boshimni uqa-

lab qo'ydi. Ichimda «yolg'izlik kor qilibdi-da» deb qo'ya qoldim. Ancha gaplashib o'tirdik. Shundan keyin tez-tez kiradigan bo'ldi. Men ham undan xabar olib turadigan bo'ldim. Qisqasi, xiyla inoq bo'lib qoldik. Umri qishlog'imizga kelganidan beri bironta o'rtoq orttira olmaganiga hayron bo'lib yurar edim. Inoq bo'lganimizdan keyin buning sirini bildim. Uning uchun olamda o'ziga teng odam yo'q, u bilgan odamlar yo o'zidan past, yo o'zidan yuqori; o'zidan past odamni oyog'i bilan ko'rsatar, o'zidan yuqori odamning esa oyog'iga yiqilar ekan. Biron odamning o'zidan past yo balandligini esa uning uyida nechta gilami borligi yoki necha kishiga so'zi o'tishi bilan o'lchar ekan... Bahorda dala ishlari juda qizib ketdi-yu, men bir hafta uyga kelolmadim. Bir haftadan keyin kelsam, Umri yo'q – Dovruqqa ketibdi; shu ketganicha yaqin bir oydan keyin keldi. Qarasam, to'qimi o'zgargan: qoshlarida o'sma, ko'zlarida surma, ikki chakkada gajak, labida ko'k xol... bo'ynini doka bilan bog'lab olibdi. «Nima qildi, tomog'ing og'ridimi?» desam, «eshik qisib oldi» deb xir-xir kuladi. Qo'lida G'afforjondan kelgan xat bor ekan, nima deyishimni bilmay, xatni qo'lidan oldim. U ham indamadi, o'qidim. O'qisam... bechora G'afforjon! Shunday xat yozibdi, shunday gaplarni yozibdiki, ko'zlarimga yosh keldi... – Risolatning ko'ziga hozir ham yosh keldi. – Bir joyda nima debdi deng: «Kunim bitgan bo'lsa-yu, o'q tegsa «Onajon!» deb yiqilarmikinman, «Umrixon!» deb yiqilarmikinman?»

Asqar ota beixtiyor otiga qamchi berdi. Uning ko'z o'ngidan butun olam yo'qolib, faqat ikki narsa qoldi: qonsirab oqarishgan va g'oyibona so'nggi bo'sa olishga chog'langan dudoq, doka bilan bog'langan tomoq...

Risolat davom etdi.

– Shundan keyin men unga ro'yxush bermay yurdim. Shunday bo'lsa ham, hali uni bahona qilib,

hali buni bahona qilib kirib yurdi. Bu xarish otday muncha menga surkanaveradi deb yursam, buning tagida gap bor ekan. Uning zar bilan tikilgan juda chiroyli bir do'ppisi bor edi. Dovruqqa bir borganimda shu do'ppini amakivachcham Aminjonning boshida ko'rib qoldim. Zimdan surishtirsam, bola bechora o'rgimchak uyaga tushib qolibdi: Umri «men seni qizligimda yaxshi ko'rib qolganman, qaramaganingdan keyin senga o'chakishib erga tekkan edim, hozir erimdan chiqqanman», debdi. Aminjon, o'zi yosh bo'lsa ham, juda pishiq, og'ir, g'ayratli bo'dganligi uchun kolxozga rais qilingan, uning kolxози Dovruqda birinchi edi. Men unga Umri to'g'risida bilganlarimni aytdim, so'zimning oxirida «o'z eriga vafo qilmagan xotindan vafo kutma», – dedim. Shundan keyin u ancha vaqt Umri bilan ko'risholmadi, chunki yig'im-terimni olganidan keyin Farhodga ketib, qishi bilan o'sha yerda qolib ketdi. Orada o'tgan bu gapni Umriga bildirmay yurdim-u, bir kuni qiyshanglab kirganida jo'rttaga «Umrixon, to'y qachon?» deb so'radim. Umri bir oqardi, bir qizardi-yu meni quchoqlab yig'ladi. «Xo'p, ishondim, Aminjonni yaxshi ko'rar ekansan, eringga nima javob qilasan?» desam, «bir yarim oydan beri xat kelmaydi, baribir yaxshi ko'rmas edim» dedi. «Eringdan bir yarim oydan beri xat kelmasa ham, har qalay, o'lganligi ma'lum emas, el-yurtga nima deysan?» dedim. Umri mening bu gaplarimni o'zaro maslahat deb tushundi, shekilli, yugurib uyidan bir qog'oz olib chiqdi. Bu qog'oz birovning nomiga yozilgan qoraxat ekan. «Ha?» desam, «Shuni o'chirib o'zimning nomimni yozsammikin?» dedi.

Asqar ota to'satdan otning boshini tortdi, tizginini tashlab, ikkala qo'lini ko'tardi.

– Ilohi omin! – dedi. Hamma to'xtab unga qaradi. Uning ko'zlaridan oppoq soqoliga qatra-qatra yosh

tomar edi. – Ilohi omin! Shu ayolning ko'zi oqib tushsin-u, G'afforjon sog'-salomat kelib, uni ko'cha-ko'yda yetaklab yursin. Xudoyo xudovando, shu yoshga kirib dargohingdan hech narsa so'ragan emas edim...

Gapirgani hech kimda majol yo'q edi. Otlar o'z-o'zidan asta-sekin yurib ketdi.

– Xo'sh, undan keyin nima bo'ldi? – dedi Asqar ota tizginni qo'liga olib.

Risolat «gapiraymi, yo'qmi» deganday hammaga bir-bir nazar tashladi, hech kimdan sado chiqmaganidan so'ng davom etdi.

– Mening, albatta, Aminjon Umrini olishligiga sira ko'zim yetmas edi. Shunday bo'lsa ham bo'ydoqning aqli ikki ko'zida bo'ladi, deb Umrining chin basharasini unga ko'rsatmoqchi bo'ldim. Bu yosh yigit, dunyoda muhabbatni har qanday qulfga tushadigan kalitga aylantirib olgan xotinlar ham borligini bilib qo'ysin, dedim. «Qoraxat to'g'risida o'zi bilan maslahat qilgin, ering borligini yashirganing bilan Aminjon bilar ekan», dedim. Umri uning Farhoddan kelishini sabrsizlik bilan kutib yurdi, kelganini eshitgan kuniyoq, o'ziga oro berib, yo'lga tushdi-yu ikki kundan keyin lunjini bog'lab keldi; gap so'rasam, tishim og'rib qoldi, u-bu deb mujmal javob berdi. Gapning mujmalligidan «ora ochiq bo'libdi-da», deb qo'ya qoldim. Orada nima gap o'tganligini Aminjon ham aytmadi. Buni bir necha kundan keyin uning qalin o'rtog'idan eshitdim. Uning aytishiga qaraganda, Umri haligi qoraxatni ko'rsatib, menga aytgan gapini gapirgan ekan, Aminjon: «Xo'p, eringni o'ldiga chiqarasan, uning yor-u do'stlari yig'iladi, gap-so'z bo'ladi, shunda bir chekkada yolg'ondan yig'lab o'tirish qo'lingdan keladimi?» deb so'rabdi. Umri hech pinagini buzmay «Keladi!» debdi. Aminjon bu gapni o'rtog'iga juda kuyib-pishib, so'kinib gapiribdi, lekin Umriga nima deganini aytmabdi. Lunjiga tushirgan

bo'lsa kerak. Har qalay, shundan keyin Umri meni ko'rganida ko'chaning u yuziga o'tib ketadigan bo'lib qoldi. Shunaqa qilib oradan olti oycha o'tgandan keyin qishlog'imizning boshiga musibat tushdi. Bir kuni ko'chada ketayotsam, Umri bir bosh uzum ko'tarib kelyapti; meni uzoqdan ko'rib chaqirdi, «Mana buni qarang, mana buni ko'ring!» deb bir qog'ozni ko'rsatdi. Qarasam, G'afforjon nobud bo'lganligi to'g'risida uning nomiga kelgan qoraxat. Bunga ishonishimni ham, ishonmasligimni ham bilmay: «Qalbaki emasmi, o'zing qilganing yo'qmi?» deb so'radim. Qalbaki emasligiga ishonganimdan keyin: «Xayr, niyatingga yetibsan, eringga o'q tegib, o'zi aytganday «Umrixon» deb yiqilganda sen qayerda, nima qilib o'tirgan eding?» dedim.

Umri aftimga qarab bezrayib turibdi. «Ering ketayotganda stansiyada to'kkan ko'z yoshlaringdan pichasini olib qo'ymagan ekansan-da», dedim-u xatni ko'tarib kolxoz boshqarmasiga bordim. O'sha kuni kechqurun katta-kichik yig'ladi, yig'i-sig'i bo'ldi, Umri yo'q, hech kim, biron kishi «Umri qani?» deb so'ramadi. Uning kirdikorini men bilaman, undan men jirkanaman, deb yursam, butun qishloq bilar ekan, butun qishloq jirkanar ekan. Shundan keyin odamlarning ichidagisi yuziga chiqib, Umri yakkamoxov bo'lib qoldi, oradan ko'p o'tmay Dovruqqa ko'chib ketdi. Dovruqda ham turolmabdi, onasidan qolgan uyni buzdirib, yog'ochini sotmoqchi bo'lgan ekan, hech kim olmabdi. Bu yog'ochlar hali-hali chirib yotibdi. Shu bilan Umri benom-nishon yo'qoldi. Qumriniso so'z qotdi:

– Alamon quvgan o'g'ri alamonga qo'shilib, «ushla, ushla!» deb qochganday, Umri qishlog'imizning ko'rki bo'lgan xotin-qizlar to'g'risida har xil bo'htonlar tarqatar edi.

– Ha, odamlar unga qo'lini bigiz qilishini biladi-da, shuning uchun «bir men emas, ana u ham, bu ham shunaqa», degisi kelar edi.

– Oltin oʻtda bilinadi, – dedi Sobiraxon, – urush tamom ham boʻlar, oʻyin-kulgi uchun toʻplanganimizda bu kunlar ertakday boʻlib ham qolar... Suv ketar tosh qolar, oʻsma ketar qosh qolar.

Qumriniso Sobiraxonga koʻz qisib:

– Oʻyin-kulgimizning boshi Bahrixonning toʻyi boʻladi, – dedi.

Bahri labidagi tabassumni yashirish uchun bosh barmogʻi bilan burnini qashladi; soʻngra, gapni chalgʻitmoqchi boʻlib, irgʻaylar, yovvoyi jiydalar orasidan oqarishib koʻrinayotgan daryoni koʻrsatib:

– Ota, Xudo daryoni yaratishga yaratib qoʻyib, oʻzi ham qoʻrqib ketgandir-a? – dedi.

Asqar ota zavq qilib kuldi.

– Sen hali dengizni koʻrganing yoʻq, qizim! Xudo xohlasa, kuyoving bilan birga koʻrasan.

– Siz koʻrganmisiz, ota?

– Yoʻq, koʻrganlardan eshitganman. Urush boʻlmaganda koʻrar edim. Sen ham koʻrar eding. Koʻp narsani koʻrar edik. Endi keyinroq koʻramiz.

Bular yulgʻun, qamish, yovvoyi jiyda, changal, irgʻay va boshqalardan iborat boʻlgan toʻqaydan chiqib, kattakon soylikka tushayotganda Sobiraxon soylikning narigi yuzidagi toʻqayni koʻrsatib:

– Ana, Maʼrifatxon opam shu yerdalar, – dedi.

Soylik daryoning bahorgi toshqin vaqtidagi izi boʻlib, «Kichik daryo» nomini olgan, kichik daryo paydo boʻlganda haligi toʻqay orolga aylanar ekan. Qirgʻoqqa yaqin yerda toʻrt qoziq ustida kattakon bir qayiq turar edi. Toʻqayga yaqinlashganda Asqar ota va undan keyin boshqalar ham otdan tushdi, Asqar otaning nazarida bundagi har bir daraxt, har bir buta motamsaro, bahorda yaproq chiqarganda ham qora yaproq chiqaradigan va hozir «endi keldingizmi, Asqar ota» deb turganday koʻrinar edi. Bular, otlarini pastda qoldirib, katta-kichik xarsanglarni oralab

o'tgan so'qmoqdan kichikroq bir maydonga chiqishdi. Maydonning bir chekkasidagi kekxa majnuntol ostida bir-biriga suyak qo'yilgan ikkita qora tosh-taxta sag'ana shaklini olib turar edi. Asqar ota borib sag'ananing bosh tomoniga cho'kka tushdi va baland ovoz bilan Qur'on o'qidi. Xotinlar oyoq uchida borib maydoncha atrofiga maxsus qo'yilgan xarsanglarga o'tirishdi. Asqar ota fotiha o'qib bo'lgandan so'ng, o'rnidan turib toshni tavof qildi. O'ng tomondagi toshga arab alifbesining qadimgi imlosida yirik qilib «Ma'rifatxon jannatmakon» deb yozilgan va «hijriy bilan 1335» deb ta'rix qo'yilgan edi. Har ikkala toshda bundan boshqa ham arab, lotin va hozirgi alifbeda yozilgan yozuvlar ko'p, ularni ziyoratchilar pichoq, tosh va boshqa narsalar bilan ko'p mashaqqat tortib yozganliklari ko'rinib turar edi. No'noqqina bir rassom o'sha vaqtda askarlar kiygan qalpoqning surati-ni ham solibdi:

– Bu yerni kim obod qilgan? Bu og'ir toshlarni kim olib kelgan? – dedi Asqar ota va o'ziga-o'zi javob berdi. – Kim olib keldi? Bu yerga meni kim olib keldi? Shunday odamlar ham bo'ladiki, tug'ilganda hech kim sevinmagan bo'lsa ham, o'lganda butun yurt aza tutadi. Qizim, Bahri, shunaqami? Shundoqmi, Sobiraxon?

Orolni Risolat yaxshiroq bilar ekan, hamma-ni olib yurib tomosha qildirdi. Orol to'rt-to'rt yarim tanobcha kelar edi. Ma'rifatxon otib o'ldirgan Sangin qo'rboshining go'rini ko'rishdi. Go'r orolning shimol tomonida, daryo burilib oqadigan yerdagi jar yoqasida bo'lib, odamning belidan keladigan bir chuqurlikdan iborat edi.

Ziyoratchilar to'qaydan chiqqanda, kun bo'yi osmonni qoplab yotgan kulrang bulut kunbotish tomonidan yorilib, botib borayotgan quyoshning shu'lasini daryoni qip-qizartib yubordi. Risolat olovdek yonib turgan ufqqa qarab:

– Ertaga havo ochiq bo'ladi, – dedi.

Ziyoratchilar otlanib jo'nashdi. Ko'chma qumlar orasida bularga ovchilar yetib oldi. Ovchilar juda xursand, har qaysisi bir nechadan quyon, o'rdak olib bormoqda edi.

Chorrahada Risolat, Bahri va Qumriniso ular bilan xayrlashdi. Asqar ota har qaysisining peshonasidan o'pib duo qildi.

Qishloqqa qorong'i tushganda yetib kelishdi. Sobiraxon ovchilar in'om qilgan ikki quyon va uch o'rdakdan bir quyon va ikki o'rdakni Asqar otaga berdi. Asqar ota Sobiraxon va ovchilarga minnatdorlik bildirib jo'nadi.

KARTINA

Qiyom paytida «Paxtakor» kolxozining boshqarmasi oldiga qo'ng'iznusxa bir avtomobil kelib to'xtadi. Bu avtomobil rayondan, shahardan tez-tez kelib turadigan avtomobillarga sira o'xshamagani uchun oqsoq qorovul undan ko'zini olmay, qo'ltiqtayog'ini to'qillatganicha zinadan tushdi-yu, unga yaqin borishini ham, bormasligini ham bilmay anhor ko'prigidan berida to'xtab qoldi. Avtomobilning ketidan ergashgan chang uning ustidan, yon-veridan yelib-buralib o'tib bosilgach, eshik ochilib undan ikki kishi tushdi: biri – novcha, ozg'in, katak ko'ylak va pochasi bo'g'ma jigarrang shim kiygan o'rta yoshlardagi bir kishi; ikkinchisi – qora sochi quloq va bo'yinlarini bosib ketgan, jujuncha kitel va amirkon tufli kiygan pakana bir yigit edi. Yigit ko'prik tomon bir-ikki qadam bosdi-yu, barmog'i bilan imlab, qorovulni chaqirdi.

– Mumkinmi?.. Rais qayerda?

– Salom, kelsinlar... Majid akam daladalar.

Yigit, gap so'rashdan oldin salom bermaganidan xijolat tortdi shekilli, o'ng'aysizlanib, qansharini qashladi.

– Rahbar qayerda?

– O'rtoq Hatamovami? U kishi ham dalada.

– Telefon yo'qmi?

– Yo'q hisobi, yaxshi yurmaydi... Qani, bu yoqqa... Kim kerak bo'lsa, hozir xabar qilamiz. Paxtachilik institutdanmisizlar?

– Yo'q.

Mehmonlar ko'prikdan o'tishdi, lekin qorovulning qistashiga qaramay, ichkariga kirishmadi. Qorovul ko'chaning u yuziga o'tib, qayergadir kirib chiqdi, kimnidir chaqirdi, kim bilandir gaplashdi. U qay-

tib kelganda novcha kishi imoratga uzoqdan ko'zini goh qisib, goh katta ochib qarar: pakana yigit uning kolonna va devorlariga chertib, deraza va eshiklari-ning bo'yog'ini tirnab hidlab ko'rar; ikkovi bir-biriga qarab dam-badam «Tipik, tipik!» deb qo'yar edi.

– Bu imorat qachon solingan? – dedi pakana yigit.

– Urush boshlangan yili poydevor qo'ygan edik, urush davrida bitirishibdi.

– Siz yo'qmidingiz? Urushdamidingiz? Oyoqni qayerga qo'yib keldingiz?

– Oyoqni Qrimga qo'yib keldik.

Xiyol o'tmay partiya tashkilotchisi Hatamova keldi. U, o'zi yosh bo'lsa ham, sochiga oq oralagan, oddiy kolxozchi xotinlardan edi; mehmonlarni xotinlarga xos mulozamat va shirin so'zlik bilan xonasiga taklif qildi. Mehmonlarni u ham paxtachilik institutidan deb o'ylagan edi, biroq novcha kishining pochasi bo'g'ma shimini ko'rib ikkilandi shekilli, nima deyishini bilmay qoldi.

Mehmonlar bir-birini tanishtirdi.

– Yosh shoirlarimizdan Quvvatbek, – dedi novcha kishi.

– Yosh rejissyorlarimizdan G'aniyev, – dedi pakana yigit.

Hatamova xursandligidan qizarib, ta'zim qildi.

– Qadamlaringizga hasanot! Shoirlarimiz, san'atchilarimiz mana shundoq yo'qlab kelishsa, qandoq yaxshi! Kitobga, san'atga kolxozchilarimizning havasi zo'r. O'zimizdan chiqqan shoirlar ham bor. Milliy musiqa to'garagimiz yana ishga tushdi. Urush davrida to'xtab qolgan edi. Lekin hammasi ham hali usta ko'rmagan shogird. Ikkita shoirimiz bor, lekin rayon gazetasi ikkovini ham tan olmaydi: she'r yuborishsa, nuqul «xabar yozing» deb javob keladi. Yanagi yilga kichikroq bo'lsa ham sahna qurish niyatimiz bor. Klubimiz torlik qiladi... Zab kelibsizlar-da! Rahmat!

Hosilot, undan keyin rais keldi. Bir necha kishi eshikdan boshini tiqib qaradi. Yo'lakda kimdir «Akademiyadan», dedi.

– Bizning bu yerga kelishimizdan maqsadimiz, – dedi rejissyor bir lahza jimlikdan keyin, – biz o‘z oldimizga juda muhim bir vazifa qo‘yganmiz. Bu vazifani bajarishda sizlarning yordamlaringizga muhtojmiz. Avvalo shuni aytish kerakki, «Paxtakor» kolxozi rayonda har jihatdan tipik kolhoz. Biz mana shu kolhoz hayotidan nafis film, ya‘ni kartina yaratmoqchimiz.

Rais o‘tirgan yerida qomatini ko‘tardi, uzun mo‘ylovini burab, iljaydi.

– Kolxozimiz kartinaga arziydigan bo‘lsa xursandmiz...

– Biz hozir sizlarning vaqtlaringizni olmaymiz, – dedi shoir. – Sizlar bilan gaplashadigan gapimizni kechqurunga qo‘yamiz. Kechgacha biz kolxozning u yoq-bu yog‘ini ko‘rib, tanishib chiqishimiz kerak. Bizga hozir bitta yetakchi bersalaring, bas.

Yetakchilikka boyagi oqsoq qorovul muvofiq ko‘rildi.

Idoradan chiqishdi. Qorovul mehmonlarni idoraning kun yurish tomonidagi ko‘chaga boshladi. Bu ko‘chada qulagan va qulay deb turgan devorlar, past-baland va qiyshiq uylar orasida reja bilan solingan chiroyli oq imoratlar uchrar edi.

– Yangi qishloq endi ko‘karib kelayotgan edi, – dedi qorovul mehmonlarni oldiga o‘tkazib, – urush chatoq qildi. Urush bo‘lmaganda, mana bu qaldirg‘ochning uyasiga o‘xshagan uylardan, mana bu bo‘yinchaga o‘xshagan eshiklardan nom-nishon qolmas edi. Kartinaning biron joyiga shuni ham qistirib o‘tinglar.

Ko‘pdan beri shikast-rexti tuzatilmagan maktab binosining oldidagi bog‘chani kesib o‘tib, tosh yo‘lga chiqishdi. Yo‘lning ikki tomonidagi qator teraklar orasidan unda-bunda taxlanib yotgan yog‘och, xom va pishiq g‘isht, bo‘yra va boshqa binokorlik materiallari ko‘rinar, bularning orasida odamlar ivirsib yurar, allaqayerda arra tovushi eshitilar edi.

– Binokorlik brigadamiz, – dedi qorovul, so‘ngra mehmonlarni yo‘lning oxiridagi yashil darvozaga boshlab kirdi, – bu kolxozning bog‘i.

Darvozaning ro'parasidagi xiyobonning u boshi ko'rinmas edi. Yonbosh xiyobonlarning biridan oq xalat kiygan nozikkina, ikki beti qip-qizil bir juvon chiqib qoldi. Qorovul uni mehmonlarga tanishtirdi. Juvon bolalar bog'chasining murabbiyasi ekan.

– Bog'changizni ko'rsak mumkinmi? – dedi shoir shoshib.

Xuddi shu savolni xuddi shunday shoshib, rejissyor ham berdi.

Juvon boshini bir tomonga qiyshaytirib jilmaydi; qop-qora va ingichka qoshlari bilinar-bilinmas chimirildi-da, erkalab-o'pkalab turgan labi qimirlab, mayin tovush eshitildi:

– Kechirasizlar, bolalar hozir uyquda, u tomonga hech kimni o'tkazishmaydi... – dedi.

Yo'lda davom etishdi. Rejissyor negadir jadallaganicha ilgarilab ketdi. Shoir qoqinib yiqilayozdi va qoqinganiga sabab es-hushi bog'chada ekanini ko'rsatish uchun engashib qayta-qayta o'sha tomonga qaradi. Xiyobonning u boshida naqshdor havo rang baland ayvonning bir chekkasi ko'rinib turar edi.

– G'aniyev, – dedi shoir, – bog'chani ko'ring! Bizning bolaligimiz ota-onamizga xo'p ham arzon tushgan-da!

Rejissyor javob bermadi.

Qayerdandir paydo bo'lib qolgan mo'ysafid bog'bon mehmonlar bilan so'rashib, ularni kattakon hovuz bo'yidagi baland, o'zining aytishicha, Moskvadagi Qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida O'zbekiston pavilonini ishlagan ustalardan biri solgan shiyponga olib chiqdi. Shiyponni haqiqatan juda didli odam zo'r havas bilan solganligi ko'rinib turar edi. Uning atrofidagi gulzorda rang-barang kapalaklar, ninachilar qanot qoqar, asalarilar g'o'ng'illar, allaqayerda g'ur-rak g'urillar edi. Chol shogirdi bo'lmish yoshgina, ozg'in, juda sertavoze yigitning qo'liga qoshiqdon-savatni berib, meva-chevaga yubordi-da, o'zi poygohga

cho'kka tushib, mehmonlar kimlar va nima uchun kelganliklari bilan ishi bo'lmay, bog'ning tarixi, bunda qandoq mevalar borligi, bularning ko'chatlari qayerlardan keltirilganligi, bog'ni qanday kolxozlarning raislari ko'rganligi-yu, nimalar deganligi to'g'risida so'zlab ketdi. Oblastning har qayeridan keltirilgan turli-tuman ko'chatlar ichida uning uchun eng mo'tabari allaqayerdan samolyotda keltirilgan yigirma tup anor bo'lib, uning o'sha yer anori ekanligidan ko'ra samolyotda keltirilganligini ko'proq pisanda qillar edi.

– Raisimiz juda hafsalali yigit, – dedi chol meva to'la savatni shogirdining qo'lidan olayotib, – hamma ishga ham shundoq jon-dili bilan kirishadi. Mana, mana shu anjirning ko'chatini Oqqo'rg'ondan oldirib keldi; avtomobil berdi, uch kun ovora bo'lib, o'zim olib keldim.

– Bog' kolxozga qancha daromad beradi? – dedi rejissyor hil-hil bo'lib pishgan shaftolining po'stini archayotib.

– O'tgan yili bir yuz o'n ikki ming daromad berdi. Gap daromadda emas, o'g'lim, har qancha daromad bo'lsa paxta beradi, o'tgan yil paxtadan bir million uch yuz ming daromad oldik. Bog' yaxshi-da! Meva-cheva... kolxozning ko'rki. Urush yillari askar bolalarni yo'qlab turdik. Askarlardan, komandirlardan qancha xat keldi-yu! Hammasini rais temir sandiqqa solib qo'ygan. Ko'rsalaring bo'ladi. Leningraddan mening nominga ham bir xat keldi. Juda alomat. Sovg'ani To'paniso olib borgan edi, xatni shundan berib yuborishibdi. Aslida, Leningradga men boradigan edim. To'paniso «men boraman» degandan keyin indamadim. Uning eri o'sha tomonlarda shahid bo'lgan edi. Bechora juda yaxshi xotin. Hozir partiya tashkilotchimiz... Bormaganim ko'ngilga armon bo'ldi. Borsam, jiyanimni ko'rib qolarmidim.

– Jiyaningiz Leningraddami?

– Ha, o'sha yerda edi, paroxodda xizmat qilar edi, shahid bo'ldi.

– Jiyaningiz dengizchimidi?

– Ha, Moskvaga o'qigani borgan edi, keyin Leningradga ketdim, deb xat qildi-yu, ikki yildan keyin kokilli shapka kiyib keldi. Qaytishida meni Moskvaga olib borgan edi.

– Moskvaga borganmisiz? – dedi shoir va shoshib yonidan qo'yin daftari bilan qalam chiqardi. – Qani, bir boshdan aytib bering-chi.

– Mening Moskvaga borishim qiziq bo'ldi. Ertalab borib tushdigu, kechqurun jiyanim poyezdga chiqarib qo'ydi, nimaga desangiz, urush boshlanib qoldi. Urush bo'lmaganda ko'p joylarni ko'rar edik. Qishloq xo'jaligi ko'rgazmasini tomosha qilar edim. Yana ko'rgazma ochilar. Lekin endigi ko'rgazmaga tomosha qilgani emas, hunarimni ko'rsatgani boraman. G'alati payvandlar qilganman.

Chol o'sha payvandlarini ko'rsatgani va umuman, bog'ni tomosha qildirgani mehmonlarni boshlab ketdi. Boqqa mana shu xilda mehmonlar kelganda chol ularga bog'ning ta'rifini qilmasdan, uning hammayog'ini ko'rsatmasdan va bog' to'g'risida ularning fikr-mulohazalarini eshitmasdan qo'ymas edi. Qorovul shuni yaxshi bilganligi uchun biron ikki soatdan keyin qaytib kelmoqchi bo'lib, postiga ketdi. U ikki soatdan keyin qaytib kelganda chol mehmonlarga tutning tanasini parmalab o'tkazilgan uzum novdasini ko'rsatib izoh berar edi. Uning so'ziga qaraganda, uzumning har boshi to'rvadek va g'ujumlari tutning donasidek zich bo'lishi kerak edi. Qorovul yana bir aylanib kelganda mehmonlarni yetti yillik maktab o'quvchilarining tajriba uchastkasida ko'rди. Chol kulib-kulib gap ma'qullar, shoir daftarchasini tizzasiga qo'yib, tez-tez yozar edi.

– Mulla akalar, bu yerdan chiqib qayerga boramiz? – dedi qorovul.

Rejissyor kulib javob berdi:

– Darmonimiz yetsa, elektrostansiyaga boramiz-da.

– Otam sizlarni charchatib qoʻymadilarmi? Bu kishi shunaqa, qoʻllariga tushgan odam bogʻdan devorlarni ushlab chiqib ketmasa hisob emas... Elektrostansiya yopiq-ku. Texnik stansiyaning qulflab hammomga ketibdi

– Biz borguncha kelib qolar.

– Yoʻq, kelmaydi. Rostini aytsam, sizlar shu yerda boʻlsalaring bugun chiroqsiz qolamiz. Stansiya objuvozning oʻrniga solingan-da, juda kichkina, koʻrimsiz. Shuning uchun texnik «buning nimasini kartinaga oladi, kartina masxarami, elektrostansiya masxarami» deb stansiyaning qulflab ketib qoldi. Bugun kelmas emish. Bir hisobda koʻrmaganlarning ham maʼqul. Kolxozimizning yangi besh yillik planida katta gidrostansiya qurishni moʻljallaganmiz. Ana unda tandirni ham elektrda qizitamiz. Kartinaga oʻshanda olinsa... Bu yerdan chiqib, fermaga bora qolaylik. Hafiza opam kartinabop toʻqqizta sigirni sogʻmasdan sizlarga koʻz tutib oʻtirgan emish.

Bogʻbon mehmonlarni kechki payt boʻshatdi va oʻshanda ham «attang, fursatlaring boʻlganda hamishabahorni koʻrsatar edim» deb qoldi. U «hamishabahor» deb parnikni aytar edi.

Mehmonlar juda charchagan edi. Bu horgʻinlik bogʻdan chiqilgandan keyin ayniqsa bilindi, shuning uchun boshqa joylarni koʻrishni boʻlak mavridga qoldirib, toʻgʻri idoraga qarab ketishdi.

Ularni rais qarshi olib, idoraning orqasidagi mehmonxonaga boshladi. Stol turli noz-neʼmatlar bilan bezatilgan, uning bir chetidagi kichkina sariq samovar ustida turgan qizil choynakning qopqogʻi shiriqlar edi.

– E, ovora boʻlishning hojati yoʻq edi-ku, – dedi shoir xijolat boʻlib.

– Ovoragarchiligi bormi!.. – dedi rais. – Qani, marhamat... Bogʻdan boʻlak joyini koʻrolmabsizlar-da.

– Albatta, yarim kunda hammayoqni ko‘rib bo‘lmaydi, – dedi shoir, – bog‘ning o‘zini ko‘rishga ham rosa bir kun kerak ekan. Ajoyib!

Mehmonlar kolxozning tarixi, xo‘jaligi, daromadi, dongdor kishilari, yangi besh yillikda qiladigan asosiy ishlari to‘g‘risida savollar berib, raisdan batafsil javoblar olishdi. Qorong‘i tushgandan keyin Hatamova, o‘rta yoshlardagi barvasta bir kishi va qop-qora bir qiz bilan kirib keldi.

– Tanishib qo‘yinglar, mehmonlar, – dedi Hatamova, – dongdor zveno boshlig‘i Qunduzxon Hayitova... Bu kishi brigadir Davron aka. Shartnoma yigirma ikkiga. Davron akam oltmish uchun kurashayotibdilar.

Suhbat yana davom etdi. Mehmonlar zveno boshlig‘i bilan brigadirga ham son-sanoqsiz savollar berishdi, berilgan javoblarni shoshilmay, batafsil yozib olishdi.

Nihoyat, rejissyor daftarchasini yopdi, peshonasini silab o‘ychan gap boshladi:

– Biz kolxoz to‘g‘risida asosiy ma‘lumotlarni oldik, lekin bularning hammasini ko‘zimiz bilan ko‘rishimiz kerak, toki ilhomlanaylik. Ko‘rish yaxshi! Mana, bitta bog‘ni ko‘rishimizning o‘zi bizning «Paxtakor» to‘g‘risidagi tasavvurimizni butkul o‘zgartirib yubordi. Endi gap bunday: kolxozni haqiqiy kolxoz qilishda mexanizatsiyaning roli o‘zlaringga ma‘lum. Biz kartinamizning asosiy masalasi qilib mexanizatsiya masalasini olmoqchimiz. «Paxtakor» mexanizatsiya jihatidan ham tipik. Shundoq emasmi?

Bu gap yoqdi shekilli, rais iljaydi.

– Lekin, – dedi, – biz hali mexanizatsiyani to‘la amalga oshirdik, deyolmaymiz. Bu gapni shunda aytamiz, qachonki kolxoz bo‘yicha bir sentner paxta hech bo‘lmasa uch-to‘rt mehnat kuniga tushsa. Mana bu yil Qunduzxon yetti mehnat kuniga tushirishni ko‘zlab turibdi.

– To‘g‘ri, – dedi rejissyor, – shundoq bo‘lishi kerak. Mexanizatsiya masalasini olganimizda, bizga nima

kerak? Bizga voqea kerak. Voqea bo'lishi uchun nima kerak? Qarama-qarshilik kerak. Mana, masala shunda, qarama-qarshilikda. Biz bilamizki, har bir yangilik qarshilikka uchraydi. Demak, mexanizatsiya ham qarshilikka uchrashi kerak. Bizga mana shuni aytib bersalaring kifoya. Mexanizatsiyaga qarshi chiqishlar bo'lib turadimi, bo'lsa qarshi chiqqan odamlarning dalil va isbotlari nimalardan iborat?

Hatamova labidagi tabassumni yashirish uchun tez-tez choy ho'plar ekan:

– Qani, Davron aka, nima deysiz? – dedi.

Davron aka avval Hatamovaga, keyin raisga, so'ngra rejissyorga qaradi-da, bo'ynini qashlar ekan, iljayib:

– O'ttizinchi yillarda qayoqda edingiz, mulla aka! – dedi.

Noqulay jimlik cho'kdi.

– Bizning qishloqlarda hozir mexanizatsiyani qarshilikka uchraydigan, odamlar cho'chiydigan yangilik deb bo'larmikin? – dedi rais xiyol tabassum qilib.
– Respublikamizda hozir ikki yuzdan ortiq MTS bor. Qani, sen nima deysan, Qunduzxon?

Qunduzxon, gapirgisi kelib turgan bo'lsa ham, nimadandir istihola qilib turgan bo'lsa kerak, darrov gap boshladi:

– Men dalamizga birinchi traktor chiqqan yili tug'ilgan ekanman. Hali Davron akam o'ttizinchi yillar dedilar. O'sha yillari mexanizatsiyaga qarshi chiqqan odamlar bo'lsa bo'lgandir, nimaga desangiz, mexanizatsiyaning nimaligini bilishmagan. Lekin hozirgi vaqtda mexanizatsiya kolxozning joni ekanini har bir kolxozchi ko'rib, bilib turganda mexanizatsiyaga qarshi odam bo'lishi... bilmadim.

– Masalan, chollar bo'lishi mumkin, – dedi shoir.

– Chollar? Men yerni qo'sh ho'kiz bilan haydab ko'rgan emasman. Uning azobini bilmayman, chollar bilishadi. U vaqtlarda eng mo'l hosil o'n sentner ekan,

men buni eshitganman, lekin chollar o'z ko'zlari bilan ko'rishgan. Kartinaga olinadigan bo'lsa, haqiqatni olish kerak.

Yana o'ng'aysiz jimlik cho'kdi.

– Albatta, mehmonlar ham buni bilishadi, – dedi Hatamova, – lekin, o'zlari aytganday, bir voqea kerak. Bular soxta bo'lsa ham bir voqea yaratib, shu bahona bilan kolxozni, mexanizatsiyaning kuchini ko'rsatmoqchi bo'lishadi-da. Shundoqmi?

– Ha, barakalla! – dedi rejissyor. – Gap mana shunda!

– To'g'ri, lekin kolxozda hech bo'lmasa besh-o'n kun tursalaring, kolxoz bilan durustroq tanishsalar, haqiqatga mos keladigan, juda qiziq kartinabop voqea o'zi chiqib qoladi. Agar turamiz, o'rganimiz, odamlar bilan yaxshiroq tanishamiz desalaring, marhamat! Nima dedingiz, rais?

– Mayli, bir oy turasizlarmi, ikki oy turasizlarmi, qancha tursalaring biz xizmatda.

– Hozir kelayotsam qorovul Safaralini so'kayotibdi, – dedi Hatamova avval raisga, so'ngra mehmonlarga qarab. – Safarali bizning tegirmonchimiz. Juda qiziq yigit. Shu kelib qorovuldan sizlarni so'rabdi. Qorovul: «Nima qilasan?» desa, «Bizning tegirmon ham kartinaga tushib qolarmikin?» debdi. Shunga qorovul bo'g'ilyotibdi. «Hay, insofing bormi, odamlar elektrostansiyani ko'rsatgani uyalib qochib ketdi-yu, sen tegirmoningni suqasan», deydi. Safarali ham bo'sh kelmaydi: «Mening tegirmonim rayonda birinchi, sen tegirmonning fahmiga yetmaysan», deydi. Rost, tegirmonni juda boplagan. Bu yigit boshqa hech ishda o'zini ko'rsatolmagan edi, shu ishga qo'ydik, bunda o'zini ko'rsatdi. Tegirmonchilik unga ota meros, erta-yu kech tegirmon atrofida aylangani aylangan. Tegirmon buning qo'liga o'tgandan beri yaxshi daromad beradigan bo'ldi. Men buni aytmqchi emas edim, hali texnikning qochib ketganligini aytmqchiman. Mening bilishimcha, o'zi kichkina-ku, lekin shu ham

bir voqea. Durustroq o'ylab ko'rilsa, qiziq voqea! Bu stansiyani solganimizga o'n bir yil bo'ldi. O'sha vaqtda bu to'g'rida qancha shov-shuv bo'lgan edi. Mana endi, ko'rib turibsizlar, birovga ko'rsatgani uyali-shadi. Buni, albatta, misol uchun aytayotibman, kichkina voqea.

Rejissyor yana daftarini ochib, bir nimalarni yozib qo'ydi. Qunduzxon bir nima demoqchi bo'lib ikki-uch og'iz juftlaganidan keyin sekin:

– Mulla akalar, – dedi, – beadabchilik bo'lsa ham mening bir taklifim bor edi: kolxozni ko'rsatishga voqea kerak bo'lsa, shu kelishlaring o'zi bir voqea emasmi?

Hamma kulib yubordi. Qunduzxon, juda ham behuda gap aytdim shekilli deb, qip-qizarib ketdi va yuzini yashirdi.

– To'g'ri, singlim, juda to'g'ri aytdingiz! – dedi shoir zavq qilib, – eng yaxshi, eng qiziq voqea mana shu kelishimizning o'zi! Bir shoir bilan bir rejissyor kolxoz hayotidan kartina yaratmoqchi bo'lishadi, kolxozga kelib bir yarim oymi, ikki oymi turishadi.

Rejissyor uning so'zini bo'ldi:

– Voqea izlashadi, topisholmaydi, keyin Qunduzxon voqea topib beradi. Haqiqatan, o'rtoq shoir, juda qiziq kinokomediya qilish mumkin!

Yana kulgi ko'tarildi.

Mehmonlar shunga qaror qilishdi.

Bo'lajak kinokomediya haqidagi xushchaqchaq suhbat yarim kechagacha davom etdi.

Mehmonlar ketib, bir haftadan keyin qaytib kelishdi.

Uch oydan keyin kinokomediyaning tasvir jarayonlari boshlandi:

«Paxtakor» kolxozining idorasi oldiga qo'ng'iznusxa bir avtomobil kelib to'xtaydi. Undan ikki kishi tushadi va hokazo...

MUNDARIJA

O'TMISHDAN ERTAKLAR (Qissa).....	3
Falokatning sharofati.....	3
«Indamas»	13
«Zinger»li boy	18
Hur qiz	23
Xudo	32
To'raqul vofurush	44
Bir palla tarvuzning po'chog'i.....	52
Valixon so'fi	59
Odam zavodi.....	69
Teshik tosh.....	73
Oqposhshoning arzandasi.....	79
Dukchi eshonning ko'lankasi.....	88
Arafa	91
«Ko'za»lar	100
Muhammadjon qori	104
Bir boshga ikki o'lim	109
Qo'qon xarobalari orasida	114

HIKOYALAR

Bemor.....	143
Dahshat	145
Bashorat	154
Kampirlar sim qoqdi	162
Anor	168
O'g'ri.....	174
O'jar	178
Jonfig'on.....	184
Adabiyot muallimi.....	189
San'atkor.....	193
Ko'zacha	196
Ig'vogar.....	199

Pora (<i>ertak</i>).....	205
Boshsiz odam	207
Nutq	211
Tomoshabog‘.....	214
Nurli cho‘qqilar	217
Mahalla	230
To‘yda aza	237
Ming bir jon	243
Karavot	251
Ayb kimda	256
Yillar.....	260
Mayiz yemagan xotin	266
Dumli odamlar.....	274
Yetim	285
Muhayyo.....	292
Vasiy	303
Onayizor	309
Ko‘k pashsha	314
Yosuman	318
Andisha	324
Qora quti	329
Har boshda bir savdo.....	334
Noqobil qiz.....	341
Kundoshlar.....	346
Sovchilar	356
Yoshlar qahvaxonasi.....	359
Xotinlar	367
Kartina	387

Adabiy-badiiy nashr

ABDULLA QAHHOR

O‘TMISHDAN ERTAKLAR

Qissa va hikoyalar

Muharrir

Feruza QUVONOVA

Musahhih

Sadoqat QARSHIBOYEVA

Badiiy muharrir

Shohrux HOSHIMOV

Sahifalovchi

Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2019-yil 12.02 da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tabog'i 12,5. Shartli bosma tabog'i 21.0.

Garnitura «Bookman Old Style»

Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 141/20.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«YOSHLAR MATBUOTI» MChJda chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 147-00-14, 129-09-72.

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87; faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru



Abdulla Qahhor (1907–1968)

O'zbekiston xalq yozuvchisi. «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni (2000-yil) sohibi. Davlat mukofoti (1952-yil) sovrindori.

1907-yil 17-sentabrda Qo'qon shahrida tug'ilgan. O'rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetini tamomlagan.

Abdulla Qahhor serqirra ijodkor, yozuvchi va tanqidchi, tarjimon va publitsist sifatida kitobxonlarga yaxshi tanish. U adabiyotimizga hajviy she'rlari, maqola va felyetonlari bilan kirib keldi. Milliy hikoyachiligimizni Abdulla Qahhor ijodisiz tasavvur qilish qiyin. «Dahshat», «O'g'ri», «Boshsiz odam», «Mayiz yemagan xotin» kabi o'nlab hikoyalari, «Sarob» (1937), «Qo'shchinor chiroqlari» (1947) romanlari, «Sinchalak» (1958), «O'tmishdan ertaklar» (1965), «Muhabbat» (1968) kabi bir qancha qissalari o'zbek adabiyotida allaqachon nodir asarlar qatoridan o'rin olgan.

«Shohi so'zana», «Og'riq tishlar», «Tobutdan tovush», «Ayajonlarim» sahna asarlari bilan dramaturg sifatida ham tanilgan.

A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, N.V.Gogol, A.P.Chexov asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Abdulla Qahhor 1968-yil 25-mayda vafot etgan.



www.book.uz
Onlayn kitob do'koni

ISBN 978-9943-20-235-1



9 789943 202351